

F. R. QODIROVA,  
SH. Q. TOSHPO'LATOVA,  
N. M. KAYUMOVA,  
M. N. A'ZAMOVA

# MAKTABGACHA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Fotima QODIROVA, Shoista TOSHPO'LATOVA,  
Nargiza KAYUMOVA, Malohat A'ZAMOVA

# MAKTABGACHA PEDAGOGIKA

*Darslik*

5111800 - Maktabgacha ta'lif bakalavriat ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun

"TAFAKKUR" NASHRIYOTI  
TOSHKENT - 2019

**KBK: 74.1  
UO'K 373.2  
M 20**

**Maktabgacha pedagogika** [Matn] darslik / F.R.Qodirova – Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q.Toshpulatova – dotsent, N.M.Kayumova – dotsent, M.N.A'zamova – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. – 688 b.

Ushbu darslikda maktabgacha pedagogika fanining asosiy masalalari, uning nazariy-metodologik asoslari, maktabgacha yoshdag'i bolalarga jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, mehnat tarbiyasi berishning mazmun-mohiyati, vositalari, shakl va usullari, O'zbekistonda maktabgacha ta'limga tashkil etishning tarixi, maktabgacha ta'limga tizimi, bo'limga, mudiri, metodisti tomonidan rahbarlik va nazorat qilish tamoyillari, ta'limga tarbiyaviy jarayonlarga zamonaviy pedagogik, innovation texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-uslubiy xususiyatlari yoritilgan. Darslik pedagogika olyi o'quv yurtlari, pedagogika kollejlarining maktabgacha ta'limga yo'naliishiha tahsil olayotgan talaba, o'quvchilari hamda maktabgacha ta'limga sohasida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va mutaxassislar, pedagoglar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**  
**Z.R.QODIROVA, Xalqaro pedagogika Akademiyasining  
akademigi, falsafa fanlari doktori, professor**

**Taqrizchilar:**  
**Pedagogika fanlari doktori, professor: Sh. Q. Mardonov**  
**Psixologiya fanlari doktori, professor: N. S. Safaev**

**ISBN: 978-9943-24-220-3**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligining 2018-yil 27-martdagi "274" – sonli buyrug'iiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.*

© "Tafakkur" nashriyoti, 2019 yil.  
© F. Qodirova, Sh. Toshpulatova,  
M. Kayumova, M. A'zamova, 2019 yil.

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish va uni yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Bu muammolarni to'laqonli hal etishda o'qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik tahlil qilish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarining samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keldi. Bu tablalar pedagogika oliv o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga ham taalluqli bo'lib, bu ixtisos beradigan fanlarning nazariy jihatdan yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

"Maktabgacha pedagogika" fani bo'yicha tayyorlangan ushbu darslikda ana shu nazariy-metodologik asoslarga tayanilgan holda asosiy e'tibor – maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari, uning ilmiy-tadqiqod metodlari, maqsad va vazifalari, maktabgacha ta'lim didaktikasi, O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi, rivojlanishining asosiy bosqichlari, ta'lim sohasi bo'yicha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy qonun hujjatlari, maktabgacha yoshdag'i bolalarni har tamonlama tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlar, shakl va usullari, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari, oila, maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtaqidagi hamkorlik aloqalari, turli xil maktabgacha ta'lim muassasalari ishini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish va maktabgacha ta'lim tizimi tomonidan nazorat qilish kabi masalalar tahliliga qaratilgan.

Darslikda ilk bor maktabgacha pedagogika fanining vujudga kelish tarixi, maktabgacha ta'lim didaktikasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyati, "Bolalar huquqlari to'g'risida

Konvensiya"ni ta'lim-tarbiyaviy jarayonga qo'llashning nazarini va amaliy jihatlari yoritilganligi ushbu manba nufuzini oshiradi.

Shuningdek, mazkur masalalar bo'yicha chet davlatlarda pedagog-psixolog va olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bo'yicha fikr va mulohazalari ham o'rinni egallagan.

Darslikda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarbiya an'analari va aqidalari, metodi va yo'l-yo'riqlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. "Maktabgacha pedagogika"ning nazariy asoslari insonning aqliy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan, Maktabgacha pedagogikaning milliy asoslari xalq merosi va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi.

Mazkur masalalar mantiqan bir-biri bilan uzviy bog'liq holda izchil tadqiq etilishi maktabgacha pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etishda yangicha yondashuvni taqozo etadi. Bu hol asosiy ixtisos beradigan kursning zaruriy g'oyaviy-nazariy darajasini ta'minlashga, uning mazmunini umumiyligi pedagogika fani tomonidan ishlab chiqilgan asosiy metodologiya va nazariy qoidalar negizida talabalarни kasbiy tayyorlash va malakalarini o'zlashtirishga imkon yaratadi.

"Maktabgacha pedagogika" fanini o'rganish orqali talabalar tug'ilgandan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va metodlarini, uni tashkil etish shakllarini, bolalarning maktabga tayyorgarligining samarali metodlari, maktabgacha ta'lim tizimi shakllanishining tarixiy jihatlari, maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish tamoyillari, ularning faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash va nazorat qilish masalalari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Bu masalalarni chuqr va har tomonlama o'rganishda pedagogika fanlari asoslari va umumiyligi nazariy-metodologik qoidalarga tayanilgan. Maktabgacha pedagogika fanining g'oyaviy-nazariy darajasini ta'minlashga, uning mazmunini

pedagogika fani sohasida qo'lga kiritilgan ilmiy-nazariy yutuqlar xulosalar negizida yoritishga imkon beradi.

Ushbu darslikning har bobida tayanch iboralar, nazorat va test savollari, zamonaviy pedagogik texnlogiyalar asosida yaratilgan ishlalmalar, ilmiy va ilmiy-metodik adabiyotlar ro'yxati taqdim etilgani talabalarning har bir mavzuni chuqr o'zlashtirishi va mustahkamlashga, shuningdek, ularda o'z us-tida mustaqil ishslash ko'nikmasining hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

Ushbu darslikni yaratishda mustaqillik yillarda mazkur sohada faoliyat yuritgan yetuk olim va mutaxassislar tomonidan chop etilgan ilmiy-uslubiy manbalardan foydalanildi.

Darslik maktabgacha ta'lif yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha pedagoglar, maktabgacha ta'lif muassasalari, metodistlari, pedagogika universiteti, institutlari talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

## **1-BO'LIM. MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING ASOSLARI**

### **I BO'B. MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING PREDMETI VA UNING VAZIFALARI**

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi.

Pedagogika – yunoncha so'z bo'lib, «bola yetaklovchi» - ma'nosini bildiradi. Insonlarni ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarni o'zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rinni egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ta'lismi-tarbiya masalalariiga katta ahamiyat berilgani holda, uning ibodatxonalar qoshida maktablar tashkil etilib, kohinlar tomonidan bolalarning ta'lismi-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Bu ta'lismi-tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, o'qish va yozishga o'rgatish.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug' olim-u adiblar, fozilu-fuzalolar ta'lismi-tarbiya borasida ko'p asarlar bitganlar. Sharq pedagogikasining asoschilari Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u

bilik» asari, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub»i, Kaykovusning «Qobusnomia»si kabi asarlar bunga dalildir.

Mazkur ta'limiy asarlarda inson shaxsini ma'naviy kamolga yetkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirish mumkin, degan g'oya ilgari surilgan. Haqiqiy bilimga asoslangan ta'limiy uslub shakllanadi, natijada ta'limtarbiya olimlar diqqat markazida bo'ldi.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritilgan. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ilmlarning kelib chikishi» kabi maorifiy asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Abu Rayhon Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e'tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikasida e'tirof etiluvchi irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishining birinchi mezonini sanalgan bilim egallashga da'vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lмаган kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni yengildan og'irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi, bilim berishda bolaning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi.

Pedagogik fikr rivojlanishida rus pedagogi K.D.Ushinskiyning pedagogik, nazariy qarashlari «Inson tarbiya predmeti sifatida» degan mukammal asarida bayon qilib berilgan. «Ona tili», «Bolalar dunyosi» kitoblari barchaga yaxshi ma'lum bo'lib, u ta'limning ko'rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi.

Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi Yan Amos Komenskiy (1592-1670)ning hissasi katta bo'ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. Undan tashqari «Onalar maktabi» degan Maktabgacha ta'lism qo'llanmasi va bir qancha kitoblari diqqatga sazovordir. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog'bon daraxtning biologik o'sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi. Komenskiy o'qishga hammaning jalg qilinishini, hamma umumta'lim olishi kerakligini uqtiradi.

«Ta'lism to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilinganiga qadar ham biz Maktabgacha ta'lism to'g'risida fikr yuritib kelganimiz. Bugun esa bu masalaga yanigicha yondashmoqdamiz. Zero, dastur talablariga asosan maktabgacha ta'lism turi – bolani maktabga tayyorlash bilan birga, uni sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlaydi, muntazam ta'lism olishga tayyorlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lism muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Misol tariqasida nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalari, qisqa muddatli maktabgacha ta'lism muassasalari, bolalarga xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar soni kundan-kunga ko'payib bormoqda. Bularning hammasi maktabgacha yoshdagi farzandlarimizni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tarbiyalash uchun shartsharoit yaratmoqda.

In an important sense, pedagogy is the overarching concept; it refers broadly to the deliberate process of cultivating development within a given culture and society. From this point of view, pedagogy has three basic components: (1) curriculum, or the content of what is being taught; (2) methodology, or the way in which teaching is done; and (3) techniques for socializing children in the repertoire of

cognitive and affective skills required for successful functioning in society that education is designed to promote.

Umuman olganda pedagogika ko'p jihatli omil hisoblanib, u madaniyat va xalq kultivatsion protsesslarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu nuqtayi nazardan pedagogika uchta komponentlardan iborat: 1) o'quv rejasи va o'qitilayotgan mavzuni o'zida saqlash; 2) metodologiya yoki boshqa bir o'quv usuli; 3) omma ichida o'zini tutishi va muloqot qilish funksiyalari, muloqot qilish usullari.

Professional Development for Early Childhood Professionals: Examining Pedagogy in Early Childhood Walsh, G.; Gray, C.; McMillan 2010

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlanadi. Maktabgacha ta'lim shaxsni sog'lom va yetuk qilib tarbiyalab, maktab ta'limga tayyorlaydi. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida olib boriladi.

2018-yil takomillashtirilgan davlat talablari qabul qilindi. Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar besh-ta asosiy rivojlanish sohalariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiiga mos bir nechta talablardan va kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan iborat. Bunda quyidagi yo'nalishlar asos qilib olindi:


- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shaklaniishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

“Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining o'quv Davlat dasturi 2018-yil yaratildi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda mak-


tabgacha ta'lismuassasining maqsad va vazifalari, o'quv tarbiyaviy faoliyatining asosiy g'oyalari ifodalangan. Bolani ta'limganing keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Maktabgacha ta'lism pedagogikasi ijtimoiy tarbiya tajribasini sinchkovlik bilan o'rgandi. Bu esa maktabgacha ta'lismuassasalari ishini takomillashtirishga yordam beradi.

Quyidagi sxemada maktabgacha pedagogikaning predmeti ko'rsatib o'tilgan:



Bola tug'ilgan kundan boshlab, maktabga borguniga qadar bo'lgan davrda har tomonlama yetuk barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lism pedagogikasining mavzusidir. U maktabgacha ta'lismuassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lismuassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, ijtimoiy Maktabgacha ta'lism sharoitida tarbiya va ta'lism berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta'lism pedagogikasi pedagogika fanlar tizimida uning ajralmas qismi bo'lib shakllandi.

### Maktabgacha pedagogikaning vazifalari:



Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishning maqsadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, Maktabgacha ta'limni hayot, zamon bilan bog'lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatiga asoslanadi.

Pedagogika fani tarbiyani pedagogik hodisa sifatida o'r ganib, bir qator tushunchalarni o'z ichiga oladi. Pedagogika da tarbiya, ta'lim, ma'lumot asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Pedagogikaning asosiy tushunchalari		
Tarbiya	Ta'lim	Ma'lumot
Pedagogik hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar sistemasini, malaka va ko'nikmalarni maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib	Ijtimoiy zarur bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga singdirish, ularning ongiga, xulqiga ta'sir etish, dunyoqarashi va bilish faolligini rivojlantirishdir. Undagi qobiliyatlarni mehnatga, hayotga tayyorlashning	Asosiy pedagogik tushuncha bo'lib, uning ijtimoiy hayot voqealarini obyektiv aks ettirishdir. Ma'lumot kishini bilishga bo'lgan talabini ta'minlab, undagi qobiliyatlarni ma'lum darajaga

borish va uning natijasida har tomonlama shakllaniga n kishini tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.	asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lim berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi. Ta'lim ikki tomonlama jarayon - o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.	ko'taradi va amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ma'lumot ta'limning nati jasi bo'lib, u kishi tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalara roni mustaqil egalashdir.
<b>O'qitish</b> – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilim va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.		
<b>O'qish</b> – bolalarning bilim, malaka, ko'nikmalarni egallahdag'i amaliy faoliyatidir. U o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.		

## **MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LQLIGI**

Maktabgacha pedagogika fani jamiyat va insonni o'r ganuvchi fanlar bilan chambarchas bog'langan. Pedagogika ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o'r ganar ekan, sotsiologiya, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, umumiyligi pedagogika fanlari, falsafa bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki mazkur fanlar tarbiyaning maqsadi va vazifalarini o'r ganish metodologiyasini belgilaydi. Jamiyat to'g'risidagi materialistik falsafa tarbiya masalaliga asoslangan holda yondashish imkonini beradi.

Tarixiy materializm pedagogika tarbiyaning sinfiy mohiyatini ochib berish, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi ijtimoiy hodisa ekanligini, jamiyat hayotida va kishi shaxsining rivojlanishida tarbiyaning rolini baholashga yordam beradi. Didaktik masalalarni ishlab chiqishda pedagogika bilish nazariyasiga suyanadi, axloqiy tarbiya masalalarini o'r gatishda pedagogika etikaning axloq to'g'risidagi ta'limotiga, estetik tarbiyaning maqsadini, yo'llarini, metodlarini belgilashda etika faniga asoslanadi.

Etika axloqni nazariy jihatdan asoslab, yosh avlodni, uning axloqiy tarbiyasi muammolarini, inson shaxsini shakllantirishda axloqiy g'oyalar rolini tushunishni chuqurlashtiradi.

Estetika – insonlarni voqelikka, san'atga estetik munosabatlarni rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'r ganadi, nafo sat tarbiyasining ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Fiziologiya pedagogikaning tabiiy-ilmiy bazasi bo'lib, u birinchi navbatda inson oliv nerv faoliyatining rivojlanishi, nerv sistemasining xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch-harakat apparati, yurak-tomir va nafas olish sistemalari va shu kabilarning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolar ni to'g'ri hal etishda: bola rivojlanishiga, uning qobiliyatlarini shakllantirishga muhit, irsiyat va tarbiyaning ta'siri va shu singarilarni begilashda pedagogikaga yordam beradi. O'sib borayotgan organizm tuzilishining va harakat qilish qonuniyat larining asosiy tamoyillarini ochib beruvchi yosh fiziologiya si ta'lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega. Fiziologyaning oliv nerv faoliyati, nerv siste masining tipologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalarni pedagogikaga o'quv-tarbiya jarayoni metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlarini uchun yaxshiroq sharoitlar yaratishda yordam beradi.



Maktabgacha pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois, pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarning qonuniyatları haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga ko'ra pedagogikaning psixologiya fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan.

Hozirgi zamon pedagogikasi ko'p tarmoqli fan bo'lib, avvalo, u tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi alohida o'rinn tutadi.

Umumiy pedagogika guruhi – uzluksiz ta'lim jarayonining o'ziga xosligini asoslab beruvchi oila pedagogikasi, maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, maxsus pedagogika kabi tarmoqlarga bo'lingan.



### **Pedagogik fanlar majmuyi. Ta'lim jarayoni va didaktika haqida tushuncha**

Ta'lim jarayonining ilmiy, nazariy uslubiy va amaliy asoslari ni, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika shug'ullanadi.

"Didaktika" grekcha so'z bo'lib, "o'qitish", "o'rgatuvchi" degan ma'nolarni anglatadi. "Didaktika" so'zining lug'aviy tarjimasи "Ta'lism nazariyasi" demakdir. Ta'lism nazariyasi ta'lism jayroni tushunchasi va mohiyatini, ta'lism tamoyillarini, ta'lism mazmunini, ta'lism metodlari, shakllari va vositalari mazmuni ni aks ettiradi. Ta'lism nazariyasining asosiy mohiyati ta'lismni tashkil etishdan iboratdir. Ta'lismni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Ta'lism – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlari dan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lism jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularni bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lism jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lism jarayonida o'quvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkmalanadi. Inson tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligi na ijtimoiy, ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqelikni chuqr tu-shunadi.

Bilim manbayi sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngira amaliyotga o'tish yo'lidir.

Bilish shaxs uchun mavhum ham o'zlashtirilmagan narsa, voqeа va hodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta)ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his etadi. Sezish muayyan narsa, voqeа-hodisalar mazmunini ongda idrok etilishiga olib keladi.

Idrok - sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turilgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir.

Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoldigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan hamda idrok qilingan narsa va voqeа-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zaxirasi boyib, ko'payib boradi. Tasavvur fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan bog'liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo'lsa-da, ular ham haqiqiy voqealikni bilish muammosini to'la hal etishmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Inson faqat tafakkur yuritish jarayonidagina muayyan jarayon yoki voqeа, hodisa mohiyatini, munosabatlarning sababiy baholanishlarini aniqlaydi va shu orqali moddiy borliqni chuqur, to'la va to'g'ri aks etishiga erishadi. Tafakkur I.P.Pavlov ta'llimotiga ko'ra, assotsatsiyalarining hosil bo'lishidan iborat.


Jonli mushohada uchun birinchi signal tizimi, abstrakt tafakkur uchun ikkinchi signal tizimi asosiy ahamiyatga ega.

Abstrakt tafakkur voqealik bilan o'zaro aloqada bo'lgan taqdirdagina inson bilimlari chuqurlashib boradi. Jonli mu-

shohada va abstrakt tafakkur birligigina bilimlarni haqiqiy va chuqur bilimlarga aylantiradi.

Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariy amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtida bilimning to'g'rilingini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlangandagina u inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilgarigi ko'rinishida emas, balki ancha boyigan ko'rinishda, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni sxema tarzida quyidagi holatda ko'rishimiz mumkin



Bilish jarayonida bilim hosil bo'ladi. Bilim-odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim obyektiv borliqni to'g'ri aks ettiradi. Eng to'g'ri va mukammal bilimlar ham o'z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi.

Bilimlar asosida o'quvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatları rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

14-8536/12

Ta'lif jarayonida biror fan sohasida insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan barcha bilimlarni o'rganish mumkin emas. Ta'lif jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar, fanlarning asoslari o'rganiladi.

Ta'lif muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari soni o'z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boradi. Bilimlarning amalda bir necha bor qo'llanilishi ko'nikmalarining hosil bo'lishiga olib keladi. Ko'nikma – bu o'zlashtirib olin-gan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ong-li faoliyatdir. Demak, ko'nikma muayyan faoliyatni tashkil etish yo'llari va usullarini bilib, o'zlashtirib olish hamda o'z bilimlari ni amalda qo'llay olishdir.

Ko'nikmalar muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o'zgargan vaqtida ham ma'lum xatti-harakatlar qilish (hosil bo'lgan tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Ko'nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Har qanday ko'nikma asosida bilim yotadi. Bilimlar fi-kr-mulohazalarda, ko'nikma esa xatti-harakatlarda ifodalana-di. Xatti-harakatlar aqliy yoki jismoniy bo'lishi mumkin.

Malaka – muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o'rganib qolning avtomatlashgan ongli harakatdir.

Malaka bir xatti-harakatning o'zini bir xil sharoitda ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo'lsa, odam ishni shunchalik tez yo'lga qo'yadi.

Malakalar turlicha bo'ladi, chunonchi, o'quv malakalari – o'qish, sezish, og'zaki hisoblash va boshqalar; mehnat malakalari ish qurollari bilan ishlash, materiallar hamda texnika bilan muomalada bo'lish va hokazolar; harakat malakalari-yurish, yugurish va boshqalar. Ko'nikma kabi malaka ham egallangan bilimlar asosida hosil qilinadi. Ko'nikma va malaka o'rtasida farqli tomonlari ham bor. Xususan, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar har xil tavsifida bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bilim, ko'nikma va malakalar ta'lif jarayonida tarkib topadi. Ta'lif – dialektik tarzda

taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo'lib unda ikki tomon o'quvchi va o'qituvchi ishtirok etadi. Ta'limga berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo'naltirilgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

## MAKTABGACHA TA'LIM DIDAKTIKASI

Maktabgacha yosh davrining inson kamolotining keyingi rivojlanishidagi, bolani maktab ta'limga tayyorlashdagi alohi-da roli maktabgacha ta'limga maqsadini belgilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodlari va tashkiliy shakllarini o'ziga xos mazmunini ishlab chiqishni, bolalarni har tomonlama kamolga yetkazishga o'qitishning rolini tadqiq qilish zarurligini shart qilib qo'ydi. Bu esa maktabgacha ta'limga didaktikasi sohasining yaratilishiga olib keldi. Maktabgacha ta'limga didaktikasi bu – umumiy didaktikaning sohasidir.

Maktabgacha ta'limga didaktikasi – maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish nazariyasi hisoblanib, uning maqsadini belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabdagi o'qishga tayyorlashni ta'minlovchi ta'limga mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi. Maktabgacha ta'limga didaktikasining asoschilari Y.A.Komenskiy va K.D.Ushinskiy tadqiqotlarida yoritilgan. Y.A.Komenskiyning "Onalar maktabi" nomli asarida maktabgacha ta'limga maqsadi – atrof-muhit haqidagi oddiy bilimlarni o'zlashtirish, axloqiy odatlarni rivojlantirish va bolalarni maktab ta'limga tayyorlash ekanligini ta'kidlab, bolalarga beriladigan bilimlarning ilk dasturini belgilab berdi. Olim rejani tarbiya va ta'limga boshlanishi maktabgacha yoshdadir, degan g'oyani ilgari surgan edi. K.D.Ushinskiy maktabgacha ta'limga vazifasi aqliy salohiyat va nutq qobiliyatini rivojlantirishdan, ularni maktabga tayyorlashdan iboratdir – deb ta'kidlaydi. Bunda u ko'rgazmalilikka, mashg'ulotlarning qiziqarlilikiga tayanish zarurligini uqtiradi.

Y.A.Komenskiy va K.D.Ushinskiyning qimmatli mero-si o'tmish pedagoglari tomonidan maktab didaktikasini ish-lab chiqishda foydalaniladi. O'tmish pedagoglari maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish huquqini – hayotni anglashga, dunyoqarashni kengaytirishga, bilim, ko'nikma va malakalar huquqini kafolatlash lozim deb ta'kidlaydilar. Ular bilimlarning aqliy rivojlanishi va nutqning o'sishida, o'yin va tasviriy faoli-yatlarni rivojlantirishda, atrofdagi voqelikka munosabatning shakllanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tdilar.

Shuningdek, maktabgacha ta'lif muassasalari dasturiga kiritilishi zarur bo'lgan bilimlar doirasini belgilab berdilar. Bular – tabiat, jamiyat, kishilar mehnati, buyumlar va materiallar haqidagi bilimlardir. Ularning ta'kidlashicha, bilimlar dasturi ni barcha bolalar o'zlashtirib olishlari lozim va buning uchun bolalar imkoniyatlarini, ularni o'qitish metodlarini o'rganish, o'yin va mashg'ulotlarni ular bilan aloqadorlikda qo'llash lozimdir. Bu g'oyalarni maktabgacha ta'lif didaktikasidagi tad-qiqotlar yo'nalishini belgilab berdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish nazar-riyasini E.I.Tixeeva ilmiy jihatdan asoslab berdi. U buyum-lar, kishilar mehnati, tabiat hodisalari haqidagi bilimlar maz-munini kichik va katta maktabgacha yoshdagi bolalar yoshi-ni hisobga olgan holda belgilab, atrof-muhit haqidagi bilimlar bola lug'ati boyligini o'stirishdagi o'rnnini, bolalar tasavvurlarini shakllantirishga va qiziqarli mashg'ulotlar turlarini, ularni o'tkazish metodlarini ishlab chiqdi. Y.I.Tixeeva ta'lifning ko'rgazmali bo'lishini, bolalar faoliyatiga tayanish zaruriyatini, uni o'yin bilan bog'liqligini isbotladi, o'qitish muayyan bi-limlar doirasi va nutq ko'nikmalarining tarbiyachi tomonidan berilishi va uni bolalar tomonidan o'zlashtirilishidan iborat faoliyat sifatida ifodalab berdi.

L.S.Vigodskiy (1896-1934) psixolog olim, maktabgacha ta'lifning dasturiyligi haqidagi masalani ko'tarib chiqdi. U maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bilimlarning muntazamlilik prinsipini asoslab, maktabgacha yoshda-

gi o'qish dasturining maktabdag'i ta'l'm dasturidan farqini yoritib berdi. U ta'l'mning maktabgacha yoshdag'i bola kamoloti va uni maktabdag'i ta'l'm ishining mazmunini shundaygina ko'chirib qo'ymaslikka chaqirdi. XX – asrning o'rtalarida bolalarni maktab ta'l'miga tayyorlash ehtiyoji tufayli maktabgacha ta'l'm didaktikasi muammolarni keng tadqiq qilish jaryonlari avj oldi.

Maktabgacha ta'l'm didaktikasining rivojlanishida maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha olima A.P.Usova (1898-1965) tadqiqotlari, ta'l'm prinsiplarining ahamiyati katta bo'ldi. U maktabgacha yoshdag'i bolalarni o'yin, ta'l'm, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni va xalq amaliy ijodiyoti masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi. U maktabgacha ta'l'm muassasidagi o'quv jarayonlarning tashkiliy shakllari va metodlarni, bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishdagi, ularni maktabga tayyorlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berdi. Uning rahbarligida bolalar bog'chasi dasturi ishlab chiqilgan.

O'qitish jarayonida maktabgacha yoshdag'i bolalarda shu yoshdag'i bolalarga xos bo'lgan va katta yoshli kishilar faoliyatiga kirgan – bilish hissi, obrazli tafakkur kabi qobiliyatlarini rivojlantirish g'oyalarini A.V.Zaporojes va N.N.Podyakovlar ilmiy jihatdan tadqiq qildilar. Bu esa maktabgacha ta'l'm muassasidagi ta'l'miy jarayonni rivojlantiruvchi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'l'mdagi qator tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta'l'm metodikalarining bo'linish jarayonlari sodir bo'ldi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarga matematik bilimlar berishning mazmuni va metodikasi. (A.M.Leushina), ona tili o'qitish va nutq o'stirish metodikasi (E.I.Tixeeva, A.M.Leushina, L.A.Pnevskaya, Y.I.Radina va boshqalar), maktabgacha tabiatshunoslik metodikasi (N.N.Bistrov, E.I.Zalkind, P.G.Samorukova va boshqalar), tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi (E.A.Flerina, N.P.Sakulina va boshqalar), musiqa tarbiyasi metodikasi (N.A.Metlov, N.A.Vetlugina va boshqalar), jismoniy tarbiya metodikasi (A.I.Bikova, M.Y.Kistakovskaya va boshqalar) ni ishlab chiqdilar.

Maktabgacha ta'lif didaktikasi muammolarini nazariy va amaliy tarzda ishlab chiqish maktabgacha ta'lif-tarbiya dasaturida "Mashg'ulotlarda ta'lif berish" degan bo'lim ochish imkonini yaratdi.

Didaktika pedagogik fan sohasi sifatida o'qitishning mohiyatini yorituvchi kategoriylar va tushunchalar bilan ifodalanadi.

Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriylari: ta'lif, bilim (bilim, bilim olish), ko'nikma, malaka, ma'lumot, tarbiya, rivojlanish va shakllanishdir.

Kategoriya – fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim asosiy tushunchadir.

Ta'lif – bu ta'lif oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish jarayoni bo'lib, bu bolaning shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta'lifning asosiy vazifasi ta'lif oluvchini o'qitishdan iborat. Shuningdek, u oila, ishlab chiqarish va ma'lumot berish vazifasini bajaradi.

Ta'lif berish – ta'lif beruvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, u shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirish, o'qish – o'qitish jarayonini mazmun – mohiyatining ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lif – o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zida ifoda etadi.

Bilim – bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyonи chuquroq anglashga, hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatları haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmuidir. Bilim o'z navbatida kundalik, ilmiy, emperik, nazariy bilimlariga bo'linadi.

Kundalik bilim – bu sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga aoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning hayotiy harakatlari va oldindan ko'ra bilish uchun asos

bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta'lim – tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashishdir. Ta'lim – tarbiyani uyushtirishda nazariy, emperik va ilmiy bilimlar muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy bilim – ta'lim tarbiyani takomillashtirish muammolarni, yechimlarini topishda qo'l kelib, tizimni asosli va narsa – hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bilimdir. U emperik va nazariy darajada bo'ladi.

Nazariy bilim – emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa – hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

Emperik bilim – bilishni kuzatish, o'lchash, tajriba usullarini qo'llash natijasi. U narsa – hodisalarning sifat va ko'nikma ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Emperik ko'rsatkichlar orasida gi bog'liqliklarning muntazam shakllanishi emperik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular ko'pincha ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi.

Bilim – bilimni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika – texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Bilimga qo'yiladigan talablar:

- Bilimning tushunarligi;
- Bilimni tushunishlik;
- Bilimning mukammalligi;
- Bilimning chuqurligi;
- Bilimning operativligi;
- Bilimning ixchamligi;
- Bilimning aniqligi va umumiyligi;
- Bilimning tizimiyligi.

Bilim olish – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimlarning o'zgarib, takomillashib, boyib borish jarayonidir.

Ta'lim mazmunining navbatdag'i komponenti ko'nikma va malakadir.

Ko'nikma – bilim kabi harakatda, kishi biror natijaga erishish uchun har xil faoliyat turida izchil bajariladigan uslublar tizimidir.

U ongni faoliyat (harakat)ni tez, ta'limni to'g'ri, ham jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish jarayoni natijasidir. U shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Harakat turlari bo'yicha u uch turga:

- Harakat ko'nikmalari
- Sensor ko'nikmalar
- Aqliy ko'nikmalarga bo'linadi.

Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ana shu bilan uning ta'lim-tarbiyatagi ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi.

Ko'nikma – insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyatidir.

Ko'nikma – bu shunday aqliy va jismoniy harakatlar, usullar va yo'l-yo'rqlilardan iborat bo'lib, ular yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishiladi yoki muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi.

Ko'nikma – u yoki bu ishni bajarishning avtomatlashgan usuli bo'lib, ongi ishning bajarilishini nazorat qilishdan ozod qiladi va uni ishda qo'yilgan maqsadga qaratadi.

Inson faoliyatida ko'nikmalar malaka tarzida ham namoyon bo'ladi. Har qanday malaka ko'nikma bo'la oladi, lekin har qanday ko'nikma malaka bo'la olmaydi. Ko'nikmalar avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina malaka bo'ladi.

Ko'nikmani inson faoliyati turlariga ko'ra quyidagi:

- Mehnat ko'nikmalari;
- Bilishga oid ko'nikmalar;
- Aqliy faoliyatga oid ko'nikmalar;
- O'quv faoliyatiga oid ko'nikmalar;
- Nutqiy faoliyat ko'nikmalari;
- Badiiy faoliyatga oid ko'nikmalar.

Insonning jamiyatda muomala va o'zini tutish ko'nikmalarda o'z aksini topadi, ko'nikmalar bilimlar asosida tarkib topadi va o'z ichiga avval orttirilgan malakalarni oladi.

Bu mashq qilish yo'li bilan shakllantirilgan puxta harakatlar bo'lib, ko'nikma va murakkab harakatlar tarkibiga kiradi.

Ta'limning tarkibiy qismi sifatida shakllantirilgan malakalar o'z mazmuniga ko'ra murakkabdir. Bular jamiyatning harakat madaniyatini aks etgan harakat malakalari (yurish, yugurish, sakrash, mehnat va xat yozish malakalari), aqliy faoliyatiga oid malakalar (hisob, o'qish, tashkil qilish va boshqaruv), xulq va muomala malakalari (jamiyatda o'zini tutish, muomala madaniyati), nutqiy malakalar (gap tuzish, nutqning muayyan ohangi, sur'ati, artikulyatsiya sofligini saqlash)dir.

Ko'nikma va malakalar maqsadga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi. Ta'lim mazmunidagi asosiy jihat – zarur bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, egallangan bilimlar hamda avval hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida vujudga keladigan amaliy va nazariy masalalarni hal etish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmuidir.

Turli manbalardan ma'lumotlar yig'iladi va ular o'z maqsad vazifalari bo'yicha saralanadi (tizimlarga ajiratiladi) hamda ular tashkil etilib, foydalanishga tavsiya etiladi. Ma'lumot berishda nafaqat o'qitish, balki o'ziga mustaqil bilim olish, omma viy axborotlar ta'sirida bo'lishi bilan birga insonning ilmiy tizimini egallashi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ko'zda tutildi.

Ma'lumot – kishi sezgi a'zołari, asboblar va boshqalar yordamida qayd etiladigan, tashqi olamdan olingan belgilar to'plamidir.

Ma'lumot maqsadi – voqeа va hodisalarning ifodalanishini o'rganish.

Ma'lumotning vazifalari – manba to'g'risida tavsifnoma olib, manba to'g'risida axborot tayyorlashga asosnoma hosil qilish, manba to'g'risida tasavvur paydo qilish va ularni keyingi faoliyatga uzatish.

Tabiat va jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalari ma'lumotsiz faoliyat ko'rsata olmaydi, chunki ma'lumotlar orqali axborot paydo bo'ladi va ular manbalarni o'rgatish hamda ularni tashkil qilishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlar berish – bu o'r ganilayotgan obyektiv (ta'lim va tarbiya jarayoni, ta'lim-tarbiya oluvchilar va h.k)ning xususiyatlari va xossalari haqidagi ma'lumotlarni ifodalash jarayoni bo'lib, uni obyekt to'g'risida sonli va sifatli ma'lumotlar aks ettiladi. Bu nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga insonning ilmiy tizimni egallash, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan, tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotdir.

Tarbiya – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadiga muvofiq odamlarning yangi avlodlari ga, avval avlodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini uzatish vositali bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi vazifadir.

Tarbiya maqsadi: talaba yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlarini qo'llash.

Tarbiya vazifasi: ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda utilgan holda tarbiyalovchi bilan tarbiyalanuvchi aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi, tarbiyaning qanday metoddan foydalanishga bog'liqligidir.

Tarbiya jarayoni – shaxsni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borishdagi asosiy jarayondir.

**Tarbiyaning xususiyatlari:**

**Tarbiyaviy texnologiyaning komplektlik xususiyati**

**Tarbiyaviy texnologiyaning ierarxiyalik (mantiqiy ketma-ketlik asosida, uzviylik – uzluksizlik saqlash) xususiyati**

**Tizimlilik xususiyati**

**Yaxlitlik xususiyati**

Rivojlanish – oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskini yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining safat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi, murakkab harakat jaryoni sanaladi. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashlardan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'lilotga asoslanadi. Bola shaxsi rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlarini, biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi. Tarbiya rivojlanishidagi muhim jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyat va yoshi u tomondan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyatning asosiy turi muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin.

## **MAKTABGACHA PEDAGOGIKANING ILMIY TADQIQOT METODLARI**

### **METOD HAQIDA TUSHUNCHА, PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARI**

Metod (lotincha-metodas-yo'l so'zidan) tadqiqot yo'li, nazarinya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Obyektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o'rganish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Pedagogika fani o'z mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganiladi.

Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Pedagogika fani o'z mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullar bilan o'rganadi.

Umuman, pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlasa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi.

Mavjud metodlar (usullar) asosan quyidagilardir:

1. Adabiyotlarni o'rganish metodi;
2. Kuzatish metodi;
3. Suhbat metodi;
4. Bolalarni ijodini o'rganish metodi;
5. MTM hujjatlarini tahlil qilish metodi;
6. Eksperiment, tajriba-sinov metodi;
7. Test sinovlar metodi metodi;
8. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilish metodi;
9. Matematika va kibernetik metodi;
10. Sotsiologik tadqiqot metodi.

O'qitish metodi o'qituvchi va bolalar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan ilmiy vazifalarni bajarishga qaratilgan yo'ldir, degan edi professor R.A.Mavlonova. U o'qish metodlariga quyidagi muayyan talablarni qo'yadi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.
2. O'qish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.
3. O'qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.
4. O'qitish metodining tushunarligi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.
5. O'qitishning onglik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.
6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligiga e'tibor.
7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi.

Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi tarbiyachi va bolalarning xatti-harakatlariga asoslangan pedagogik metod natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'lib, o'z dunyoqarashini, tafakkurini va ma'naviyatini yuksaltirishga erishadilar.

Ta'lim-tarbiyaga taalluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblangan.

Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika", K.D.Ushinskiyning "Inson tarbiya predmeti sifatida" asarlarida masalaga shunday yondoshishni ko'rish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosa chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan empirik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

## **PEDOGOGIK ILMIY TADQIQOT METODLAR**

Pedagogika fanining tarixiy taraqqiyotini o'rgatuvchi va milliy istiqlol mafkurasini shakllantiruvchi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar bor. Pedagogik muammolarni hal qilishda turli-tuman tadqiqot metodlari mavjud. Yuqorida keltirganimizdek, metod lotincha "metodos"- yo'l so'zidan olingan bo'lib, ilmiy tadqiqot esa shu metodlar orqali nazariy, mafkuraviy, ilmiy, milliy va ijtimoiy hayot hodisalarini ularning qonuniyatlarini bilishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari olimlar tomonidan turlicha asoslab berilgan:

Akademik S.Rajabov tahriri ostidagi pedagogikada kuzatish, suhbat, maktab hujjatlarini tahlil qilish, eksperimentlar metodi, statistika ma'lumotlarini tahlil va sintez qilish, anketalar, hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari asoslab berilgan. I.F.Xarlamovning "Pedagogika" o'quv qo'llanmasida

pedagogik kuzatish, suhbat, tajriba eksperiment, maktab hujjatlarini o'rganish, ilo'or tajribalarni umumlashtirish, matematik hisoblash metodlari asoslab berilgan.

S.P.Baranov va boshqalar yaratgan "Pedagogika" qo'llanmasida esa kuzatish, savol-javob, maktab hujjatlarini o'rganish, eksperiment tajriba, modellashtirish metodlari berilgan. A.K.Munavvarov tahriri ostidagi "Pedagogika" o'quv qo'llanmasida kuzatish, suhbat, bolalar ijodini o'rganish, test-so'rovnomalar, mакtab hujjatlarini tahlil qilish, matematika va kibernetika metodlari berilgan. Mavjud pedagogik darsliklarning deyarli hammasida metodlarni tavsiflab chiqishning bir xillik ho'lati mavjud. Ilmiy tadqiqot faoliyatimizda bulardan foydalanish bizdan ijodiy yondoshishni talab qiladi. Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlarida biror pedagogik muammoni hal qilish maqsadida talaba, o'qituvchi-tarbiyachi, aspirant-tadqiqotchi va ilmiy xodimlardan foydalanadilar. Ilmiy izlanishning dastlabki debochasi adabiyotlarni o'rganib, tahlil qilishdan boshlanadi.

**Adabiyotlarni o'rganish metodi** - Pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiiga va ma'naviyatga doir adabiyotlar, tadqiqot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

**Kuzatish metodlari** - Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dashti tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqt, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish - qisqa kuzatish obyektning kundalik faoliyatdagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish - qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib

borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishni yakuniy qayd qilishda kinosyomka, video yozuvi, televideeniye va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

**Suhbat metodi** – Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'rilikligiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin. O'rinali, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi.

**Pedagogik eksperiment** – Har qanday pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlar ning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlari aniqlanadi. Pedagogik eksperiment ikki turga bo'linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi. Qayd qiluvchi eksperiment orqali ta'lim yoki tarbiya jarayonidagi mavjud muammojarani aniqlanadi. Shakllantiruvchi eksperimentda esa zaruriy ma'lumotlar o'quvchilarda shakllantiriladi. Pedagogik jarayonni aniqroq o'rganish maqsadida eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarni, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperiment o'tkazish va natijalarini sharhlash. Rejalashtirish, eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasiga ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlash, kerakli kuzatishlar soni, eksperi-

ment o'tkazish tartibi, olingen natijalarini tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilish kerak. Sharlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlana-di. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak, ya'ni:

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo'lishi.

2. Tadqiqot metodlarining ishonchliligi.

3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish. Turli metodlarning o'zaro qo'shib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematik metodlarning hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridiana, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chikishi, o'rtacha olingen qiymat xatosi, belgilarni tuza-tish koeffentsentlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari amalda qo'llaniladi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'llanilishidir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Bi-roq, ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish haqidagi bilimlarning ortib borishi bilan ulardan foy-dalanishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa-da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmunining aniqligi pedagoglar bilan o'quvchilarning mo'ljallangan kuch - g'ayrati mezonini to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir

tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan xulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilishni, yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishni, metodik yo'l-yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oлади.

MTM hujjatlarini tahlil qilish metodi - Pedagogik hodisalar va faktlarni tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chuqur o'rganmoq lozim. MTM hujjatlarini tahlil qilishda ta'lim qonunlariga amal qilinmoq kerak. MTM hujjatlarini tahlil qilishda o'quvchilarining ijodiy faolligi va mustaqilligini uning iqtidorini hamda ilg'or pedagogik tajribalarining umumlashtirilishi va joriy etilishini ko'rsatgan taqdirdagina to'liq qiymatga ega bo'ladi.

Shuningdek, bolalarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayishi sabablari tavsifi, rag'batlantirish va jazolash chorralari turlariga, MTMning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi - bolalar ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli bolalar aqliy qobiliyatları, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va omillarini chuqur biliшга hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Statistik ma'lumotlarni analiz va sintez qilish metodi – Pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan tizimli o'rganish, mustaqil O'zbekistonda fan madaniyat, ta'lim-tarbiyani taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmaları, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tusha yotgan mablag'lar **statistika usuli** orqali aniqlanadi.

Anketalar metodi - bolalardan so'rash usuli bo'lib, u bolalar jamoasining bilimlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish

uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmosg'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chikishi ko'zda tutiladi.

Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqarish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, anketalar anketa ma'lumotlarni EHM da qo'llab, matematik-statistik metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil qilinishi pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog'lanishlari va bog'liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

Hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari - hozirgi zamon ishlab chiqarishi, fani va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika vositalarini, hisoblash matematikasi va kibernetika usullarini maktab ishida va pedagogikada qo'llanilishini talab qiladi. Pedagogik kibernetika shakli bilim berish jarayonini o'qitish, bilim berish jarayonini boshqarishning alohida formasi sifatida o'ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o'rtasida katta farq bor.

Pedagogik tadqiqotlarda kino, ovoz texnikasi, foto, televide niye singari texnika vositalaridan keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Bolalar uchun qo'shimcha rag'batlantirish omillarini hosil qiladi. Bular o'qituvchilar mehnatini ma'lum maqsadda yengil lashtiradi. Ko'rsatilgan vositalarning har biri bolalarning yoshini hisobga olgan holda o'quv fani va pedagogik jarayonni mukammallashtiradi.

Sotsiologik tadqiqot metodi – anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarni aniqlash, talabalar orasidagi do'stlik munosabat-

larini aniqlash, o'zi ta'lif-tarbiya olayotgan oliy o'quv yurtida-gi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlari orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan, tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlari darajasi, bilim olishga ishtiyobi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ilmiy va kasbiy mahoratni oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, ota-onalarning moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllantirishida ta'sir etuvchi omillar, ularning onglilik darajasi jarayoni, ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qutulish kerak bo'lgan salbiy sifatlar ni aniqlashdir.

Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlarida, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'lifni talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlari ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish kabi masalalar pedagogik tadqiqoti asosini tashkil etadi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TARIXI MAKTABGACHA PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA**

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrda Shveysarya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedagogi Fridrix Frebelning maktabgacha tarbiya nazariyasi keng ommalashdi. Pedagogika tarixida Frebelning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u maktabgacha tarbiya nazariyotchisi bo'lgani holda maktabgacha pedagogikani mustaqil fan tarmog'iga ajratilishiga ko'maklashdi. Ayni paytda u ilk bor «bolalar bog'chasi» tushunchasini muomalaga kiritdi.

Fridrix Frebel (1782-1852).

Fridrix Frebelning pedagogik tizimi

Bolalar bog'chasining paydo bo'lishi tarixi 1837-yilga borib taqaladi, bolalar bog'chasining asoschisi deb taniqli nemis pedagogi - Fridrix Frebel hisoblanadi. Aynan u Germaniyaning Bad-Blankenburg shahrida bolalar uchun tashkil qilingan muassasasini "bolalar bog'chasi" deb atadi va ushbu atama butun dunyoda umumiy tarzda qabul qilindi. Shunday savol tug'iladi: Nima sababdan muassasa "bolalar bog'chasi" deb ataladi? Taxminlardan biriga ko'ra, F.Frebel bolalarni "Olloh ekinlari" deb hisoblagan, ya'ni ular g'amxo'rlik va parvarishga muhtoj o'simliklar bog'i hisoblanadi. Yana bir taxmin shundan iboratki, nemis pedagogi Sorbixdag'i "Saroy bog'ida" deb nomlangan sobiq mehmonxonada "bolalarni parvarishlash bo'yicha birinchi muassasa"ni ochgan. Farzandlarini muassasaga olib borar ekan, shaharcha aholisi boqqa ketayapmiz, deb aytgan. Chunki bolalar bog'chasi o'zining dizayniga ko'ra gullar va daraxtlarga o'ralgan bog' bo'lgan. Bolalar bog'chasi tarbiyachilarini nemis pedagogi "bog'bon qizlar" deb atagan, bu bilan u bolalarga bo'lgan mehrini ifodalagan, pedagoglarni bolalarga voyaga yetishi va rivojlanishi uchun ko'maklashishga da'vat etgan. Frebelning bolalar bog'chalari shuningdek, vaqtincha oila o'mini bosish va ota-onalarga tarbiya ishlariga yordamlashish uchun tashkil qilingan: onalar bilan bolaflar birga kelishi, ular bilan o'ynashi va bog'bon qizlardan o'rganishi mumkin bo'lgan.

Shu tarzda, F.Frebelning katta xizmati bolalar bog'chasining ochilishi, shuningdek maktabgacha ta'llim uslubiyotining yaratilishi bo'ldi. Uning asosini bolalarga bo'lgan cheksiz mehr tashkil qiladi. Ushbu uslubiyotning asosiy jihatlarini sanab o'taylik: o'yin, nutqni rivojlantirish, jamoaviy tarbiya, mehr-muhabbat bilan o'rab olish, jazolarning yo'qligi va tarixda qolib ketgan «Frebel tuhfalari».

Bolalar tarbiyasiga katta e'tibor qaratar ekan, Frebel o'yinlarni o'z uslubiyotining asosi deb bilgan, bular: ijodiy, harakatli, fantaziyalı, taqlidli va h.z. o'yinlar. Shuni ta'kidlash kerakki, aynan Frebel didaktik o'yinlar tizimini yaratishga asos solgan. U didaktik o'yinlar va turli tuman mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy

ko'rsatmalarni ishlab chiqqan. Olim olib borgan ishlar unda shunday e'tiqodni shakllantirdiki, «bolalar o'yini – bu turmush ko'zgusi va ichki olamning erkin namoyishi»dir.

F.Frebel mayda motorika yordamida bolalar nuqtini rivojlantirishni taklif qilgan. U ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish bosqichlarini batafsil ko'rsatib bergen hamda buyum bilan tanishishni uning nomini atashdan boshlash kerak, degan talabni ilgari surgan.

Nemis pedagogining fikricha, turli materiallar bilan ko'plab mashqlar bajaruvchi bolalar boshqa bolalardan ancha avval so'zlay boshlaydi.

Frebel xilma-xil bolalar faoliyati turlari va mashg'ulotlarni taklif etgan, bular: mozaika, munchoqlar, cho'plar, qog'ozlar, bo'yoqlar bilan ishslash, rasm chizish, qog'ozdan to'qish, qog'ozni qirqish, loydan narsalar yasash. Origamiga katta e'tibor qaratilgan (ya'ni qaychidan foydalannmasdan turib, qog'ozdan shakllar yasash). Shuningdek, olimning bog'chasida arqonli o'yinlar; qum o'ynash, konstruksiyalar yasash uzviy mashg'ulotlar hisoblagan. Bular ijodiy qobiliyatni o'stirish, intellektni shakllantirish, dunyonи abstract holda qabul qila olish, noan'anaviy qarorlar qabul qilish layoqatini rivojlantirishga ko'maklashadi. O'yin jarayonida bolalar bilan suhbatlashish ham ko'zda tutilgan. Suhbat mavzusi Frebelning fikricha, avvaldan tayyorlanib, bolaning faoliyat bilan shug'ullanish va boshqa bolalar bilan muloqot qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, uni tengdoshlari jamoasida tarbiyalash kerak. Ushbu g'oyani u chuqur pedagogik asos bilan mustahkamladi va uni keng ommalashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirdi.

F.Frebel jamoaviy tarbiyani insoniyat asosi, deb bilgan. Shu sababli u bolani majburiy tartibda jamoaviy faoliyatga jalb qilish, ya'ni uning bolalar bog'chasiga qatnashi zarur, deb hisoblagan. U bolaning tanasini rivojlantirish zarur, tashqi hissiyot sezgilarini mashq qildirish, ularni odamlar va tabiat bilan tanishtirish kerak, deb hisoblagan. Shu kabi o'yin jarayonida bolani mакtabga tayyorlash,

bog'dagi o'simliklar kabi, ularga rivojlanishida yordamlashish kerak, deb bilgan. Ayni paytda har bir bolaning individualligini yodda tutishga da'vat etgan. Shu sababli bog'da katta gullar to'plami bo'lgan, bolalar gullarni guruh bo'lib parvarish qilgan, ayni paytda bitta bolaga biriktirilgan o'simlik ekilgan tuvak ham bo'lgan.

F.Frebel uslubiyotining g'oyasi – barcha narsalar bolalarga. Olim bolalarga hayvonlar haqidagi voqealarni aytib bergen, zero bolalar hayvonlarni yaxshi ko'tishini tushungan. So'ngra bolalarning gullarga mehri balandligini anglagan. Shu sababli uning tarbiyalanuvchilarini gullarni mustaqil parvarishlay boshlagan. Asta-sekin musiqaning bolalarga ijobiyligi ta'sir ko'rsatishini sezgan. Shundan kelib chiqib, bolalar ashula ayta boshlagan va «bog'bon qizlar»ning (ya'ni, tarbiyachilarning) ashulalarini tinglagan.

F.Frebel jazolarga, bolalarga nisbatan har qanday shafqatsizlik namoyishlariga qarshi bo'lgan. Fridrix Frebel haqida so'z ketganda uning «tuhfalarini» alohida eslatish kerak. «Frebel tuhfaları» – bu olim tomonidan ishlab chiqilgan didaktik material bo'lib, bolani ilk yoshda rivojlanishiga mo'ljalangan. Bu bolaning turli ko'nikmalari va layoqtalarini mashq qildirushi o'yinchoqlar tizimidir. Har bir o'yinchoq bolani rivojlantirishga ko'maklashadi hamda undan foydalanishda muayyan qoidalarni ko'zda tutadi. F.Frebel 6 ta nomdagagi "Tuhfalar"ni taklif etdi:

Birinchi tuhfa – bu koptok. Bu birinchi o'yinchoq, chunki sharning burchaklari yo'q, bola uchun qulay. Material sifatida ko'pincha mayda, yumshoq, jundan to'qilgan shar-koptoklar taklif qilingan. Har bir koptokka ip bog'langan. Bolaga turli rangdagi koptokni ko'rsatish orqali ona uni ranglarni farqlashga o'rgatgan. Koptoklar turli ranglarga bo'yalgan – qizil, yashil, sariq, to'q sariq, oq, ko'k va binafsha rangli koptoklar bo'lgan. Shar-koptokni turli tomonga: «yuqoriga-pastga», «chapga-o'ngga», «oldinga-orqaga» tebratar ekan, ona harakatlar nomini aytadi va bolani makondagi harakatlar bilan tanishtiradi. Bolani tasdiq va inkor bilan tanishtirish maqsadida ona sharni kaftiga qo'yib, so'ng uni yashirar ekan, «Koptok bor - koptok yo'q» deb aytadi.

Ikkinchi tuhfa – kichik o‘lchamli: yog’och kub, shar va silindr bo‘lgan. Aniqlik kiritamiz: shar diametri, silindr asosi va kubik tomonlar bir xil. Ularning yordamida bola ashyolarning turli shakllari bilan tanishadi. Kubik o‘z shakli va barqarorligi bilan sharning aksidir. Shar nemis olimi tomonidan harakatlanish ramzi, kubik esa – barqarorlik ramzi, xilma-xillikda yagonalik ramzi hisoblanadi. Shu narsa nazarda tutiladiki, kub yagona, ammo unga qaysi tomonidan qarayotganingizga ko‘ra ko‘rinishi turlicha bo‘ladi: qirrasi, tomoni, uchi bilan. Silindr sharning ham, kubning ham xossalari birlashtiradi: u asosiga qo‘yilganda barqaror, yotqizilganda harakatlanadi.

Uchinchi tuhfa – bu 8 ta kubikka bo‘lingan kub. Ya’ni, kub o‘rtasidan bo‘lingan, har bir qismi esa – to‘rt bo‘lakka. Buning yordamida, Frebelning fikricha, bola butun narsa va uning tarkibiy qismlari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Shu tufayli bola o‘z ijodini rivojlantirish, kubiklardan narsalar qurish, ularni turlicha kombinatsiyalarga birlashtirish imkoniga ega bo‘ladi.

To‘rtinchi tuhfa – bu o‘sha o‘lchamli kub bo‘lib, u 8 ta plitkaga bo‘lingan.

Ya’ni, kubik o‘rtasidan bo‘linadi, har bir qismi esa – to‘rita cho‘ziq plitkaga bo‘linadi. Har bir plitkaning uzunligi kubik tomoniga teng, qalinligi ushbu tomonning to‘rtdan bir qismiga teng.

Beshinchi tuhfa – bu 27 ta mayda kubiklarga bo‘lingan kub, ulardan to‘qqiztasi yanada mayda bo‘laklarga bo‘lingan.

Oltinchi tuhfa – bu ham 27 ta kubikka bo‘lingan kub bo‘lgan, ularning aksariyati yana qismlarga: plitkalarga, diagonaliga ko‘ra bo‘lingan.

Shu tarzda Frebel bo‘yicha bolalar bog’chasining maqsadi va tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi:

- faoliyatning 3 ta turiga – o‘yin, o‘quv, mehnatga yo‘naltirilganlik;
- bola hissiyotlarini rivojlantirish;
- bolaning tanasi va ruhini mustahkamlash;

– ko'rgazmali usul yordamida tabiat bilan tanishish va dunyoni anglash;

– odamlar bilan muloqot qilish;

– bolaning tabiiy xislatlarini rivojlantirish;

– bolalarga cheksiz mehr-muhabbat ko'rsatish.

F.Frebelning ulkan yutuqlari bilan birga, tarixdan ma'lumki, uning pedagogik yondashuvlari K.D.Ushinskiy, E.A.Flyorina, G.N.Vodovozova kabi olimlar tomonidan tanqid qilingan. Frebel nazariyasida kamchiliklar ham bor, va ular, avvalo, quyidagilar:

– bolaning bevosita atrofdagi olam bilan tanishuvi «tuhfalar» tizimiga almashtirilgan;

– bolaning hayoti didaktik material bilan chegaralanadi;

– bolaning hayoti haddan ziyod tartibga solinadi;

– bolaning erkin ijodi cheklanadi va h.z.

Shunga qaramay, F.Frebel fanga katta hissa qo'shgan, zero u nazariya va amaliyotni birlashtirdi, uning maqsadi – bolaning ijodiy salohiyatini namoyon bo'lishiga ko'maklashadigan sharoitni ta'minlovchi muhitni yaratish bo'lgan. Ayni paytda bu bolada noan'anaviy ijodiy fikrlash qobiliyatini, fantaziyanı rivojlantiradi, masalalarni hal etishga noan'anaviy yondashuvni shakllantiradi.

Maktabgacha tarbiya g'oyasini targ'ib etish va bolalar bog'-chalarini ommalashtirish yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Olim bolalarning yoshlariga mos ravishda ishlash usullarini ishlab chiqish orqali maktabgacha tarbiya amaliyotini jiddiy boyitdi.

Ko'plab mamlakatlarda bolalar bog'chalari maktabgacha tarbiya tizimida yetakchi o'rinni egalladi. F.Frebel maktabgacha tarbiya tarixida birinchi bo'lib ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning yaxlit, uslubiy ishlab chiqilgan, amaliy qo'llanmalar bilan boyitilgan tizimini yaratdi.

Maktabgacha ta'lif sohasi vujudga kelishida 1918-yilda Fridrix Frebel kursi qoshida Petrograd Maktabgacha ta'lif institutining tashkil etilishi muhim voqeа bo'ldi. Bu ta'lif masakanida Maktabgacha ta'lif bo'yicha mutaxassis kadrlar tay-

yorlangan, shu bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. 1919-yilda xaql maorifi kommisariyati tomonidan "Maktabgacha ta'lim" bo'yicha butun ittifoq anjuman bo'lib o'tdi. Bunda ijtimoiy Maktabgacha ta'lim sohasini tashkil etish, bola tarbiyasining nazariy-amaliy masalalari o'rinni oladi.

- Maktabgacha ta'limga bag'ishlangan butunittifoq anjumanlar:
- 1921 yil - ikkinchi anjuman
  - 1924 yil - uchinchi anjuman
  - 1928 yil - to'rtinchi anjumanlar bo'lib o'tgan.

Bu anjumanlar ijtimoiy Maktabgacha ta'lim muassasalarini kengaytirish, kadrlar tayyorlash, moddiy ta'minot masalalari, shu bilan bir qatorda Maktabgacha ta'lim sohasini ilmiy tadqi-qot ishlarining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogika sohasi rivojiga pedagog olim va psixologlardan: S.T.Shaskiy, V.N.Shasskaya, L.K.Shleger, Ye.I.Tixeeva, L.I.Chulishskaya, Y.A.Arkin, K.N.Kornilov, P.P.Blonskiy va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Maktabgacha pedagogika bo'yicha dastlabki qo'llanma "Ilk yosh pedagogikasi va Maktabgacha ta'lim bo'yicha metodik xatlar" nashr ettirildi.

1930-yillarga kelib, maktabgacha pedagogika sohasi jadallik bilan rivojlandi, shu bilan bir qatorda maktabgacha bolalar muassasalari soni ham o'sib bordi. Maktabgacha pedagogika fan sifatida taraqqiy etishida psixolog-olimlardan A.R.Luriya, S.L.Rubenshteyn, B.G.Ananev, pedagog-olimlardan P.N.Gruzdeva, Y.N.Medinskiy, I.F.Svadkovskiy larning roli katta bo'ldi.

1928-yilda xalq maorifi komissarligi tomonidan "Doshkolnoe vospitanie" jurnalni nashr etildi. Bu jurnal o'z ichiga quyidagi bo'limlar:

- Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyoti
- Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va jihozlash
- Metodik ishlar (kutubxona, bolalar adabiyoti, metodik qo'llanmalar)

- Chet ellarda Maktabgacha ta'lim tizimi
- Ilg'or ish tajribalaridan namunalar
- Maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun maslahatlardan iborat bo'lgan.

Maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan pedagog-psixolog Pavel Petrovich Blonskiy (1884-1941):

- Maktabgacha ta'limga kirish (1913-y)
- Bolalarning yosh xususiyatlari (1934-y), ko'nikmalari muallifi, asosan bolalikning ilk yosh davr xususiyatlari ustida tadqiqotlar olib borgan olimdir.

Stanislav Teofilovich Shaskiy (1878-1934) pedagog olim, u Maktabgacha ta'limning mazmuni va metodlari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning rahbarligida pedagogik texnikum tashkil etilgan. U tomonidan "Bolalar mehnati va dam olishi" deb nomlangan jamiyat ish olib borgan. Uning "Deti – rabotyagi budushego" (1908) asari bolalar tarbiyasining muhim jihatlarini keng yoritib bergen.

Luiza Karlovna Shleger (1863-1942) – Maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha ko'zga ko'ringan olima. U tomonidan "Materiali dlya besed s malenkimi detmi", "Prakticheskaya rabota v detskom sadu" (1915 g) nomli kitobida bolalarning o'yin va mehnat faoliyatini tashkil etish masalalari o'rinnegallagan. U Maktabgacha ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlash ishida faol ishtirok etgan.

Lidiya Ivanovna Chulitskaya (1870-1938) taniqli pedagog-shifokor, ilk yosh davr gigiyenasi bo'yicha olima. Uning "Gigiena detskogo sada" (1923 g), "Gigiena detskogo vozrasta" (1938 g), "Razvitie dvijeniy u detey na pervom i vtorom godu", "Igri v doshkolnom vozraste" asarlari Maktabgacha ta'lim sohasi rivojida muhim o'rinnutdi. Shuningdek, u Maktabgacha ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlash; bolalar bog'chalarining sanitariya holatini saqlash masalalarida faol ishtirok etgan.

Yelizaveta Ivanovna Tixeeva (1867-1943) pedagogik faoliyatini XIX asrning 90-yillarida boshlagan, 1913-1917-yil-

larda u Sankt-Piterburg jamiyatining Maktabgacha ta'limga bo'limining rahbari bo'lib faoliyat ko'rsatgan. 1920-yilda Y.I.Tixeeva - Petrograd maktabgacha pedagogika institutining professori, keyinchalik A.I.Gersen nomli Pedagogika institutida ma'ruzalar o'qigan. Uning rahbarligida institut qoshida tashkil etilgan bolalar bog'chasi ilmiy-tadqiqotlar va laboratoriya bazasi bo'lib hisoblangan. Muassasada - nutq o'stirish, sensor tarbiya, mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarni tashkil etish metodikalari bo'yicha ishlar olib borilgan.

Uning "Detskiy sad" (1928 g), "Razvitie rechi doshkolnika" (1937 g) nomli kitoblari maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi rivojiga katta hissa qo'shdi.

Lev Semenovich Vigodskiy (1896-1934) - umumiy va maktabgacha pedagogika va psixologiya sohasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. U psixik jarayonlarning aqliy tarbiya va ta'limga bog'liqlik masalalari, turli yosh davrlar xususiyatlari ustida ish olib borgan. Uning "Obuchenie v razvitie v doshkolnom vozraste" nomli risolasida bolalar bog'cha programmasi tuzishda psixologik jarayonlarga ahamiyat qaratilishi ta'limga, bilim berish, o'qitish masalalari yoritib berilgan.

Anton Semenovich Makarenko - (1888-1939). Taniqli pedagog va yozuvchi bo'lib o'z Vatani va chet ellarda o'zining pedagogik asarlari bilan mashhur bo'lgan. U 1920-yilda "Bolalar koloniyasi" ni tuzdi. Unda voyaga yetmagan va tartibbuzar bolalar tarbiya qilindi. 1927-yilga kelib, F.E.Dzerjinskiy nomli bolalar kolonnesi tashkil etdi. U Maktabgacha ta'limga yoshidagi bolalarni tarbiyalash (o'yin, mehnat va boshqa faoliyatlarda) usullarini ko'rsatib bergen. U ta'limda "Metodika organizatsiya vospitatelnogo protsessa", "Stil rabot s kollektivom", "Stil vospitaniya", "Obshie usloviya semeynogo vospitaniya" nomli risolalari yaratilgan. Olim oilada bola tarbiyasi masalalari bo'yicha ham tadqiqotlar olib borgan.

O'tgan asrning 40-60 yillariga kelib, Maktabgacha ta'limga sohasi jadallik bilan rivojlandi. Maktabgacha ta'limga muassassalariga bo'lgan talab ortishi munosabati bilan turli (kecha-kun-

duz) yo'nalishdagi sanatoriya, bolalar internatlari tashkil etildi. Maktabgacha ta'lif sohasini rivojlantirishda 1943-yilda Pedagogika fanlari Akademiyasida Maktabgacha ta'lif sektorining tashkil etilishi katta voqeа bo'ldi. Bu yillarda bolalarning aqliy tarbiyasi muammolari, elementar matematika nazarasi va metodikasi bo'yicha tadqiqot olib borgan pedagog A.M.Musina "Maktabgacha pedagogikaning didaktik materialari" asosini ilmiy jihatdan ishlab chiqqan B.I.Xachapuridze, maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyati bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Y.A.Flerina, bolalar bog'chasida ta'lif-nazarasiyasi (o'qitish) ishlab chiqqan pedagog olima A.P.Usova kabi pedagog-olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar Maktabgacha ta'lif sohasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Yefim Aronovich Arkin (1873-1948) – pedagogika fanlari doktori, shifokor va pedagog olim. U bolalar jismoniy tarbiyasi, bolalar gigiyenasi sohasida ilmiy asarlarni yaratdi. Uning asarlari: "Doshkolniy vozrast" (Maktabgacha yosh)(1948), "Ota-onalar uchun qo'llanma va ta'lif". U turli yosh davrning jismoniy va psixik rivojlanishi qonuniyatlarini ishlab chiqqan olimdir.

Yevgeniya Aleksandrovna Flerina (1888-1952) – taniqli olima, pedagogika fanlari doktori, professor, Pedagogika Fanlar Akademiyasi muxbir a'zosi. U ijtimoiy Maktabgacha ta'lif tashkil etilishi, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga yetakchilik qilgan. U maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy estetik jihatdan rivojlantirish muammolari ustida ish olib borgan. Uning rahbarligida "Maktabgacha pedagogika" darsligi yaratilgan.

Shuningdek, u maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi ustida tadqiqotlar olib borgan. U "Esteticheskoe vospitanie doshkolnika" va bir qancha qo'llanmalar muallifidir.

Aleksandra Platonova Usova (1898-1965) – maktabgacha pedagogika sohasida ko'zga ko'ringan olima, Pedagogika Fanlari Akademiyasi muxbir a'zosi. U 1930-1941-yillar mobayni-

da A.I.Gertsen nomli Leningrad Davlat Pedagogika institutining Maktabgacha ta'lif kafedrasini, 1945-1960 yillar Maktabgacha ta'lif sektori va didaktika sektorini boshqargan. U maktabgacha yosh davrining o'yin, ta'lif, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni tashkil etish muammolari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning rahbarligida bolalar bog'chasi programmasi barcha metodikalar bo'yicha qo'llanmalar yaratildi. U tomonidan: "Obuchenie v detskom sadu" (M-1970 g), "Sensornoe vospitanie doshkolnikov" (M 1963 g), "Russkoe narodnoe tvorchestvo v detskom sadu" (M-1972 g) kabi manbalar yaratilgan.

Nina Pavlovna Sakulina (1900-1976) – pedagogika fanlari doktori, tasviriylar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan pedagog. U san'at institutidagi maktabgacha sektori bo'limini boshqargan. A.P.Usova, A.V.Zaporojes kabi olimlar bilan birgalikda maktabgacha yoshda sensor tarbiya tizimini ishlab chiqishda qatnashgan. U tomonidan: "Risovanie v doshkolnom detstve" (1965 g) asari K.D.Ushinskiy mukofotiga sazovor bo'lgan. U asosiy diqqatini Maktabgacha ta'lif ishlariga, tarbiyachi, metodist, o'qituvchilarga metodik yordam berishga qaratdi.

Oradan yillar o'tdi, ko'p narsalar hozirgi davr qarashlari ga mos ravishda qaytadan ko'rib chiqilmoqda, yangilanmoqda. Rivojlanishning yangi bosqichida, globalizatsiya va axborot oqimini hisobga olgan holda F.Frebelning pedagogik yondashuvlari hamon maktabgacha ta'lif tizimida qo'llanilmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan usullar, zamonaviy yondashuvlarga mos holda uslubiy qayta ishlangani holda maktabgacha ta'lif muassasalarida qo'llanilmoqda.

Endi esa xayolan o'tmisht va maktabgacha ta'lifning zamonaviy yondashuvlari o'rtaida ko'priks yasaymiz.

Hozirgi bosqichda, maktabgacha yoshdag'i bolalarni turli vaziyatlarda harakatlana olishga, kutilmagan muammolarni hal qilishga, nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy ijodiy yechimlar topa bilishga va ularni hayotga joriy etishga o'rgatish ke-

rak. Buning yordamida bolalar yangi sharoitlarga moslashish va maktabga tayyorlanish, hayotda yutuqqa erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'limning tahlili shuni ta'kidlash imkonini beradiki, zamonaviy ta'lim kompetentlilik yondashuviga asoslanadi. O'zbekistonning maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quvta'lim ishlari «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat tabablari» va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi» asosida olib borilmoqda.

"Ilk qadam" MTMsining Davlat o'quv dasturiga muvofiq turli yosh guruhlarida quyidagi rivojlantiruvchi markazlarida ish olib borilishi belgilangan: «Til va nutq», «Ilm-fan va tabiat», «Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika», «San'at markazi», «Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish». Guruh bolalari o'z istagiga binoan xohlagan mazkur markazlardan birini tanlab, faoliyat olib borishi mumkin.

Taqqoslash asosida, maktabgacha ta'limning tarixi bilan hozirgi holati o'rtasida qiziq bir o'xshashlikni qayd etamiz. E'tibor qiling, aynan F.Frebelning "bolalar bog'chasi"da ta'limga nisbatan yuqorida tilga olingan yondashuvlarga asos solingan. Xususan, bu jihat bolalar bog'chasida bolalar faoliyatini tashkillashtirishda namoyon bo'ladi. Bunda, masalan, xonaning bir burchagida bolalar guruhi yog'och kublardan minora yasaydi, boshqa burchagida esa – ikkinchi guruh barmoqlari bilan chizish orqali katta rasmni chizadi. Bunday faoliyat davomida ular quyidagi turdag'i masalalarni hal qiladi: "Qanday qilib qursak, minora yiqilmaydi? Minoraga nima bo'ladi – yiqiladimi yoki turib qoladimi? Yana qanday ranglar qo'shish mumkin? Qanday geometrik shakllarni qo'shish mumkin?" va h.z. Hozirgi bosqichda bularning barchasi jiddiy ravishda boyitilgan va takomillashtirilgan. Ularga mavzuli tamoyil asos qilib olingan. Butun o'quv yili davomida mavzu belgilangan va har bir oy uchun mavzuning nomi ko'zda tutilgan. Har bir oyning nomi o'z nomiga ega mavzuli to'rtta haftaga bo'lingan va h.z.

Shunday qilib, bolaning faoliyatida uning xatti-harakatlari rivojlanishining asosi hisoblanadi. Masalan, kubiklardan, geometrik shakllardan uy quradimi, ertak, hikoya to'qiydimi va h.z. Muhimi, u izlanishda bo'ladi, o'ylaydi, individual ravishda va hamkorlikda qarorlar qabul qiladi. Bu esa bolaga o'zining ijodiy faolligini namoyish etishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida ushbu fanning metodologik asoslari yaratildi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Burch** – kishilarning biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha.

**Davlat standartlari** – ta'limning zarur yetarli darajasiga qo'yiladigan davlat talablarini belgilovchi mezon.

**Didaktika** – pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqaradigan tarmog'idir.

**Komillik** – ongli insonga xos va mos bo'lgan xislat, aqliyma'nnaviy darajadir.

**Tarbiya** – aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida tashkil etilib, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashning mazmuni, metod va usullari hamda tashkil etish masalalari ni o'rganadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha pedagogika fanining predmetini yoriting.
2. Maktabgacha pedagogika fanining maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Maktabgacha pedagogika fani qaysi fanlar bilan aloqador?

4. Ilmiy tadqiqot metodlaridan kimlar foydalananadilar, ular qaysilar?

5. Maktabgacha ta'lim didaktikasining asosiy xususiyatlari izohlang.

6. Bilimlar dasturi qaysi tamoyillar asosida shakllantiriladi?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Maktabda pedagogika fani qaysi fanlar bilan aloqador?

a) Falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya

b) Matematika, fizika

v) Kibernetika

g) Dialektik materializm

2. Pedagogikaning asosiy tushunchalari qaysilar?

a) O'qish, o'qitish

b) Ma'lumot, ta'lim, tarbiya

v) Qayta tarbiyalash

g) O'z-o'zini tarbiyalash

3. Pedagogika fan sifatida qaysi jamiyatda shakllangan?

a) ibtidoiy jamiyatda

b) quldarlik jamiyatida

v) feodalizm jamiyatida

g) sotsialistik jamiyatda

4. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari qaysilar?

a) Adabiyotlarni o'rganish

b) Kuzatish, suhbat, anketa yo'li bilan so'rash

v) Hujjatlar va bolalarni ishlarini o'rganish metodi, tajriba o'rganish metodi

g) Hamma javoblar to'g'ri.

5. Tarbiyaning xususiyatlari qaysi bandda to'g'ri yoritilgan?

a) Komplektlilik, mantiqiy ketma-ketlik, uzviyli, uzliksizlik, tizimlilik, yaxlitlik;

b) Tizimlilik, modelilik, dasturlilik, bilimdonlik, harakatlichkeit;

v) Boshqarish, hamkorlik, ishchanlik, sifatlilik, dasturlilik;

g) Ma'naviyat, optimanllik, tezkorlik, psixologik vaziyat.

## **2-BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINING USTUVOR NEGIZLARI**

### **II BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV**

#### **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida haqli ravishda ta'kidlanganidek, "Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'ljamiz"<sup>1</sup>.

Chindanda o'z ertangi kelajagiga befarq bo'limgan millat, yorug' va farovon kunlarini uning egalari bo'lmish yosh avlod istiqbolida ko'rghan millat ta'lism-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi.

Istiqlol yillarida birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan avvalo, ertangi kun egalari bo'lgan yosh avlod istiqboli, ta'lism-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ustoz va murabbiylar kasbiga bo'lgan munosabat o'zgardi. Jamiyatda bu sharaflvi o'z navbatida o'ta mas'uliyatli kasb egalariga nisbatan yuksak hurmat va e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Mamlakatimiz ta'lism tizimida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligidir, balki butun jahonda ham katta e'tibor bilan e'tirof etilmoqda. Bugun yangicha qiyofa kasb etgan, zamon talablari darajasida ta'mirlangan, eng so'nggi rusumdag'i o'quv jihozlari bilan jihozlangan maktablar orzu emas ayni haqiqatdir.


Mamlakatimiz ravnaqi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning bilim darjasini va dunyoqarashiga bog'liq.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

Shaxsnинг ta'lim-tarbiya sohasidagi faolligi, uning chinakam fuqaroviylар munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omildir. "Ta'lim-tarbiya" - ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi".

Bugungi kunda yangi ta'lim tizimi faoliyatini takomillashtirish va barqarorlashtirish hamda fuqarolarning bilim olish huquqlarini ta'minlashda rivojlangan xorij davlatlarining tajribasi bilan bir vaqtida Sharqdagi mutafakkir ajdodlarimizning bebaho meroslaridan ham foydalanish taqozo etiladi.

O'tgan yillar mamlakatimiz hayotida haqiqatan ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim ijtimoiy dasturlar - Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'lmini rivojlanish Davlat umummilliyl dasturining ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi. 9 yillik umumta'lim maktab bosqichini va 3 yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzlusiz yaxlit ta'lim tizimi yaratildi va 12 yillik ta'lim tizimiga o'tish yakunlanmoqda.



2009-yilda Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi haqida gapirganda, ularning, avvalo, eng muhim masalalarga - yangi ish o'rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yana-da oshirishga yo'naltirilganini alohida qayd etish zarur.

O'rni kelganda aytish kerakki, yangi 2010-yilda davlat byudjetining 50 foizdan ko'prog'i mamlakatimizda faqat ta'lif-tarbiya va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Barkamol avlod haqida so'z borganda, o'tgan yillar davomida katta kuch va mablag' hisobidan ta'lif sohasida barpo etilgan moddiy-texnik bazadan oqilona va samarali foydalanish masalasi qanchalik muhim ekani barchamizga ayon bo'lishi kerak, deb o'ylayman".

Ta'lif sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekomunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlari-ga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zammin tug'dirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim.

Mas'uliyatli va murakkab bu vazifa, davlatning boshqa tad-birlari qatorida, Respublika Oliy Majlisining IX-sessiyasida qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni (1997-yil 29-avgust) ro'yobga chiqarish orqali bajariladi. Bu dasturning tarkibiy qismi sifatida ta'lifning yangi modeli yaratiladi. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lif soha-sini tubdan isloh qilish, uni o'tmishtdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish edi.

Prezident tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lif-tarbiya modelini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu dastur mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lif jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

**New technology in education is playing a big role in classes. One of the most affordable and effective is a simple video recorder. With the use of a video recorder kids can see the mistakes they're making in things such as a throwing motion or swinging form. Studies show that students find this more effective than having someone try to explain what they are doing wrong, and then trying to correct it.**

Yangi tehnologiya ta'lif berishda muhim rol o'yinaydi. Eng samarali usullardan biri bu video tasvirlar hisoblanadi. Ushbu video lavhalar orqali bolalar bajarayotgan harakatlari ichida nimani xato bajarayotganini bilib olishlari mumkin. Ushbu tarbiya usuli shuni ko'rsatadiki, bollalarning qilayotgan notog'ri harakatlari kimdir tomonidan tushuntirilgandan ko'ra, o'zlarini qilayotganiga amin bo'lib, ularni o'zlarini to'g'irlashga harakat qilishlari ko'proq samara beryapti.

Researching Effective Pedagogy in the Early Years  
Institute of Education University of Lon

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

Ta'lif to'g'risidagi qonunga muvofiq ta'lif tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lif muassasalari hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish.

Ta'lif va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash.

Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning kunduzgi va ijtimoiy maqomini ko'tarish.



### **Kadrlar tayyorlash milliy modeli**

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:



- shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi;
- davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;
- uzuksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko’rsatish muhitini o’z ichiga oladi;
- fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ular dan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;
- ishlab chiqarish kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini mo’liya va moddiy-texnika jihatidan ta’minalash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzuksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo’lishini va hayot o’zgarishlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

«Ta’lim to’g’risida»gi Qonunning XI muddasi maktabgacha ta’limga bag’ishlangan. «Maktabgacha ta’lim» bola shaxsini sog’lom va yetuk, maktabda o’qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko’zlaydi. Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha oilada, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarda olib boriladi» deyiladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining maqsadi ham komil inson tarbiyasiga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim Konsepsiya-sida: maktabgacha ta’limning tarkibi va mazmunini qayta ko’rib chiqish, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni, o’zbek xalqining milliy an’analari, qadriyatları, xalq ijodiyotining o’ziga xosligi, tilda o’z aksini topuvchi tafakkur xususiyatlari xalq pedagogikasining ulkan tajribasi oiladagi o’zaro munosabat,

milliy o'z-o'zini anglash, boshqa xalq madaniyatidagi ijobiliy xususiyatlarini uyg'unlashtirish masalalari, maktabgacha va oila ta'limida hal etilmoqda.

## **UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI**

Uzluksiz ta'lism - yuksak malakali kadrlar tayyorlashning asosini tashkil etib, ta'limga barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish mazmun-mohiyatini ifoda etadi.

Uzluksiz ta'limga faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagi lardan iborat:

- ta'limga ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lism va yuksak intellektning nufuzi;
- ta'limga demokratlashuvi - ta'lism va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limga boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;
- ta'limga insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarining aniqlanishi va rivojlanishuvi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;
- ta'limga ijtimoiylashuvi - ta'lism oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta'limga milliy yo'naltirilganligi - ta'limga milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va bo'yitish, ta'limga milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurnatlash;
- ta'lism va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayoning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

– iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun zarur sharoit yaratish.


### **Uzluksiz ta’lim turlari. Maktabgacha ta’lim – uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich bosqichi**

Maktabgacha ta’lim bola sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim maqsadi va vazifalarini ro’yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo’ladi:

- Malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- Maktabgacha ta’limni samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minalash;
- Zamonaviy o’quv-uslubiy qo’llanmalar, texnik vositalar, o’yinchoqlar va o’yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- Maktabgacha yoshdagи bolalarni xalqning boy madaniytarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviyaxloqiy jihatdan tarbiyalash uchun lozim-sharoitlar yaratish;
- Maktabgacha ta’lim muassasalarining har xil turlari uchun muqobil dasturlarni tanlab olish, barcha masalalar bo’yicha malakali maslahat ko’rsatish imkoniyatini yaratish;
- Maktabgacha ta’lim va sog’lomlashtirish muassasalari tarmog’ini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish texnologiyalari ni ishlab chiqish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ish mazmuni va vazifasi o'quvchilarga fan asoslarini o'rganish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga ularni tayyorlashdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim quyidagi bosqichlardan iboratdir:



Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadilar. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi va ish mazmuni umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malaka asoslarini shakllantirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim negizida tashkil etilib, u o'quvchilarga bilimning zarur hajmini beradi (umumiy o'rta ta'lim DTS da belgilangan), ularda mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba-ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim doirasida bolalarning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish maqsadida muayyan yo'nalishdagi ixtisoslashtirilgan, maxsus ta'lim muassasalari (maktab-internatlar, musiqa, sport, xoreografiya hamda tasviriy san'at, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar va tarbiyaviy fan yo'nalishlar bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim beruvchi maktablar va boshqalar)ni tashkil etish mumkin.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'limning tarkibi bo'lib, uning vazifasi va ish mazmuni o'quvchilarga muayyan

yo'nalishda mutaxassislik yoki kasb-hunar ma'lumotini berish va ularda bu boradagi amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. O'quvchilar to'qqiz yillik umumiyl-majburiy ta'llimni tugatganlaridan so'ng yana uch yil o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'llimiň ixtiyoriy tarzda o'zlashtiradilar. O'rta maxsus kasb-hunar ta'llimi akademik litsey va kasb-hunar kollejlardida olib boriladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishslash huquqini beradigan, shuningdek, ixtisoslik faoliyatini yoki ta'llimni navbatdagid bosqichda davom etirish uchun asos bo'lувчи o'rta maxsus kasb-hunar ta'llimiň beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini jadal o'stirish, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va muayyan mutaxassislikka yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi. Akademik litsey o'rta maxsus uch yilik o'quv yurti hisoblanadi. Ushbu o'quv yurtida o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarni oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday o'quvchilar borki, ular o'rta ta'llim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilliigi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik ma'lumotini olishni ta'minlovchi hamda uch yil davomida tashkil etiluvchi kasb-hunar ta'llimini yo'lga qo'yadigan o'quv yurtidir.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra akademik litsey va kasb-hunar kollejining maqomi tengdir. Mazkur turdag'i o'quv yurtlarida tahsil olgan o'quvchilar oliv o'quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatishda, konstitutsiyaviy haq-huquqlaridan foydalanishda teng huquqlidir. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yuqorida qayd etilganidek, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari bilangina bir-biridan ma'lum ma'noda farq qiladi.

Kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari va boshqa ta'lif muassasalari turli yo'nalishlarda tashkil etiladi. Shuni alohida qayd etish joizki, yangidan tashkil etilayotgan kasb-hunar kollejlari ayni vaqtida ishlab turgan bilim yurtlaridan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi. Bu farqlar nimalarda ko'rindi?

Yangi tipdagi kasb-hunar kollejlarining faoliyati, o'quv jayronini samarali texnika va texnologiya yutuqlari yordamida tashkil etilib, yuksak malakali usta, kichik mutaxassis tayyorlashdan iboratdir. Ta'lif jarayoni jahon talablariga javob beruvchi, istiqbolni ko'zlab chiqilgan o'quv rejasini va dasturlari asosida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlari o'zidan oldingi ta'lif bosqichi umumiyligi o'rta ta'lif maktablarini o'zidan keyingi bosqichda turgan oliv o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro bog'liqlikda bo'lib, ta'lifning uzlusiz va izchillik tamoyiliga to'la mos keladi.

Navbatdagi farq, kasb-hunar kollejlari pedagoglarining sahiyasi yuqoriligi va ta'lif jarayoniga pedagogik texnologiyaniнning tatbiq etilganligidadir.

Kasb-hunar kollejlarida zamonaviy asbob-uskunalar, o'quv uslubiy qurollar, ko'rgazmali vositalar, axborot texnologiyalar va kompyuterlar bilan jihozlanishi ham tubdan farq qiladi. O'quv binolari, ustaxonalarining zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, kasb-hunar kollejlari ishchi kadrlar emas, balki keng ixtisoslikdagi kichik mutaxassislar tayyorlanadi. Yana bir afzalligi bunday o'quv yurtlarida

har hududning o'ziga xos jug'rofly va demografik shart-sharoitlari va mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olingan holda kadrlar tayyorlanadi.

Kollejlarda kadrlar tayyorlash jarayoni ikki yoqlama tizim asosida amalga oshiriladi. O'quvchilarga beriladigan ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasasining ustaxonalarida va ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliyot bilan uzbviy bog'liq holda olib boriladi.

Umumiy o'rta maktablarning to'qqizinchi sinfini tugatgallar yakuniy davlat attestatsiyasi natijasini, o'quvchi tomonidan yig'ilgan reyting ko'rsatkichlari hamda pedagogik-psixologik tashxis markazlarining tavsiyalariga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida muayyan yo'nalish bo'yicha o'qishni davom ettiradilar.

## **MAKTABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASI**

Respublikada ta'lismi tarbiya tizimini tubdan isloh qilish ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mohiyatini chuqur anglab yetish bilan bog'liq faoliyat turlari muvofiqlashtirildi. Uzlusiz ta'limga barcha bosqichlari qatorida maktabgacha ta'limga milliy modelini aks ettiruvchi Maktabgacha ta'lim konsepsiysi ishlab chiqildi.

- Maktabgacha ta'lim konsepsiysi - bu maktabgacha ta'lim tizimini rivojlanishi va uning ta'lim tizimidagi ustuvorligini ta'minlovchi Konseptual Nizomdir.

- Maktabgacha ta'lim konsepsiysi - maktabgacha ta'limga xalqaro andozalarga mos zamonaviy yangilanish tamoyillari va modellarini yorituvchi huquqiy-me'yoriy hujjatdir.

- Maktabgacha ta'lim konsepsiysi - maktabgacha ta'limga 2008-2020 yillarga mo'ljallangan takomillashuv strategiyasini belgilab beruvchi nazariy asosdir.

Maktabgacha ta'lim konsepsiyasining huquqiy-nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim

to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va ta'lif sohasi bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda ilgari surilgan ilg'or ilmiy g'oyalar tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lif konsepsiysi nazariy jihatdan quyidagi ustuvor tamoyillarga:

- Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lif;
- Hamkorlik pedagogikasi asoslari;
- Ijtimoiy-pedagogik yondashuv;
- Psixologik yondashuv;
- Qayta shakllantiruvchi ta'lif texnologiyasi;
- Tubdan o'zgartirilgan o'qitish tizimiga tayanadi.

## **I. Maktabgacha ta'lif jarayonida bolaga ta'lif-tarbiya berishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lif modeli ustuvor sanaladi.**

Shaxsga ongli ravishda yondoshishnining maqsadi rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida "o'zgartirish emas", balki uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish uchun sharoit yaratishni ko'zlaydi.

Bu tamoyilda – pedagog faoliyatining vositasi sifatida emas, balki uning shaxsiy tatbiq etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

**II. Pedagogik hamkorlikning asosiy holatlari – ta'limga tarbiyachi va bolaning o'zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabatda bo'lishi tamoyilida:** majburlamasdan o'qitish foydalanishi (tayanch signallar), o'z-o'zini tahlil qilish, guruhning intellektual foni; tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lifni o'z ichiga oladi.

Ta'lif orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi va har tomonlama kirishuvi (qorishib ketishi), zamonaviy bilimlar darajasi, shaxsning milliy va dunyoviy madaniyati integratsiyasi masalalari amalga oshiriladi. Bu tamoyilning asosiy jihatlaridan biri hamkorlik pedagogikasi kattalarning (tarbiyachi, ota-onalar va bolalar) oldiga ta'lif-tarbiya jarayonida muloqotining ***altruistik*** (*o'zining shaxsiy qizi-*

*qishlarini emas, balki boshqalar manfaati uchun harakat qilishi) uslubini qo'llash zaruriyatini qo'yadi.*

Bu jihat – pedagog bolaning ustidan hukmronlik qilishdan, uni nazorat qilish, zo'ravonlik, kuch ishlatishdan voz kechib, tarbiyalanuvchiga uning xohishiga ko'ra erkin tanlash huquqini beradi.

Bunda:

Kattalarning hissiy-shaxsiy muloqotini shakllantirish;

Bola va pedagog o'rtasidagi hissiyot shaxsiy munosabatlarini rivojlantirish;

Munosabatlar tizimining o'zaro hurmat tarzda shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

### **III. Ijtimoiy pedagogik yondashuv tamoyili:**

Bolaning tengqurlari va kattalar bilan munosabatining o'zaro hurmat doirasida bo'lishi bolaning tizimli o'zaro munosabatlarda o'zining "Men" mezoni bo'yicha shaxsiy rivojlanishining ijtimoiy faolligi ko'rsatkichida muhim omil hisoblanadi. Bu asosan 5 boshqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich – oiladagi muhit. Bolani o'rab turgan muhit bilan o'zaro munosabatlarining amaliy harakatlari va kattalarga (ota-onha, enaga va boshqalar) to'liq qaram ekanligi bilan aniqlanadi. Bolaning faolligi muhitga bo'lgan ehtiyojni qondirishiga yo'naltiriladi.

2-bosqich – vaziyatdagi voqelik – bolani bo'lib o'tayotgan hodisalardan ajrala olmasligi va uni vaziyatga to'liq qaramligi bilan tavsiflanadi. Bunda muhit alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

3-bosqich – vaziyat ustidagi voqelik – bolani vaziyatlar oqimi ta'siridan chiqish va o'zining aqli yordamida vaziyatni tusunib ish tutishi bilan xarakterlanadi.

4-bosqich – o'zidagi voqelik – bola o'z vaziyatlari modelini tayyorlab, atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan ish yuzasidan munosabatlar o'rnatib, o'z "men"ini namoyish etadi.

5-bosqich – bolaning boshqadagi voqelik va o'zining qadr-qimmatini tan olishga intilishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik yondashuvning mazmuni – bola tomonidan insoniyat o'zlashtirilishini ta'minlovchi rivojlaniishi amalga oshirishdir. Bunday yondashuv ta'lim berish jarayonini yakuniy natijasiga bola shaxsining axloqiy, ma'naviy o'zgarishlarini tubdan isloh qilishdir.

**IV. Psixologik yondashuv asoslari – bola shaxsini rivojlantirishda** – psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv – bolaning muammolarini tushunishi, qabul qilish va uni hal qilishda yordam berishdir. Uning asosiy maqsadi – bola va kattalar o'rtasidagi kundalik pedagogik munosabatlarda yuzaga keladigan hissiy-shaxsiy munosabatlarni rivojlantirishdir.

Psixologik yondashuv jarayonida tarbiyachi-pedagog:

- Bolaga o'ziga va pedagogga bo'lgan ishonchni oshira borib, unga samimiylik, g'amxo'rlik va mehr-muhabbat namoyon etadi;

- Bolaning o'z-o'zini baholashni mustahkamlash va ahamiyatni oshirish maqsadida uning yutuqlarini ongli ravishda ta'kidlaydi;

- Bolada xato qilish qo'rquvini bartaraf qilib, unda ijobiy hissiy bo'shilq yaratadi;

- Bolaning omadsizliklariga diqqatni to'xtatmay tushunib (norozilik bilan emas) qaraydi, uning yechimini topishda bola bilan birga harakat qiladi. Bunday yondashuv asosida shaxsiga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar tizimida "katta bola" munosabatlar yo'nalishlaridan biri bo'lib, har bir inson va ayniqsa, ta'lim oluvchilar xatolar va ularni to'g'irlash huquqiga egadirlar.

- Bolani tarbiyalamaydi, balki uning muammolarini birga hal qilib yo'l ko'rsatadi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash pedagog va bola o'rtasidagi hissiy-shaxsiy munosabatlarni rivojlantirishga olib keladi.

**V. Tubdan o'zgartirilgan o'qitish tamoyili.** Bola va pedagogning hamkorlikdagi tubdan o'zgartirilgan (ko'rgazmali – rivojlantiruvchi) pedagog va bola shaxsini mustaqil tarbi-

yalashga yo'naltirilgan faoliyati, qaysiki shaxsiy mazmunini hayotiy bo'shliqda qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan, pedagog va bolaning universallashtirilgan tizimi.

Tubdan o'qitish quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

- Ijtimoiy pedagogik yondashuv;
- Gnoseologik (bilish faoliyati) yondashuv o'qitish jarayoni mohiyatini anglash jarayonidan olib chiqadi va yuzaga kelgan anglash faoliyatini modifikatsiyalaydi (variatsiyalaydi)
- Psixologik yondashuv - insonning rivojlanishi va bilimlarni o'zlashtirishi psixologik nazariy bilimlarni yuzaga olib chiqadi.
  - Aqliy faoliyat yondashuvi: (P.Ya. Galnerin, N. F. Talo'zin) - rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshiradi;
  - Akmeologik yondashuv - (grekcha so'zdan olingan bo'lib, yuqori nuqta, yuksalish, yaxshi payt va o'qish degan ma'noni bildiradi)

Uning asl mohiyati – o'qitish shaxsning hayotiy dunyosiga, pedagog va bolaning mavjud hayotiy mazmunini o'zgartiradi, o'ziga xoslik takrorlanmaslik kabi amaliy vazifalarni bajaradi. Ilmni o'rgatishga o'tish - bu inson tafakkuri uchun obyektiv bo'lgan olamni anglashdir.

**VI. Qayta shakllantirish** – ta'lim texnologiyasini o'qitishning ustuvorligi texnologiyasini didaktika va metodika pozitsiyasi tamoyilidan ko'rib chiqish lozim.

O'qitishning metodik jihatdan ko'rib chiqilganda, maktabgacha yoshdagи bolaning nutqiy rivojlanish metodikasi (F.R. Qodirova) muhim o'rinni egallaydi.

Ta'lim psixologiyasining didaktik modeli sifatida:

- Didaktik tamoyillar;
  - Ta'lim vositalari;
  - Ta'lim bosqichlari;
  - O'zaro munosabatlar turlari.
1. Didaktik tamoyillar:
- Faollik tamoyili bolaning xususiyatlarini hisobga olgan holda anglash faoliyati subyektiga tayanadi.

- Ko'rgazmalilik tamoyili – bolalar tomonidan o'rab turgan olamni qabul qilish xususiyatlariga asoslanadi.

- Oson erishuvchanlik tamoyili – bolalarning anglash faoliyatini rivojlantirishning muvofiqligi hisobi bilan bog'liq.

- Yetkazish tamoyili – o'qitish jarayonida bolalarning aloxi-da (yakka tartibdagi) xususiyatlarini hisobga oladi.

- Tizimllilik tamoyili – bolaning atrof-olamni anglash orqali muloqotga kirishishi darajasini hisobga olish bilan bog'liq.

2. Ta'lim vositalari – o'qitish yo'llari: nutqli faoliyatli, qo'llanmali, psixik.

3. Ta'lim bosqichlari: tanishish, differensiatsiya, integratsiya.

4. O'zaro munosabat turlari: 4 turdan tashkil topadi.

1 – tur – hissiy-shaxsiy munosabatlar tajribasi. Vazifa – hissiy-shaxsiy munosabatlar bo'yicha almashuvi va keyingi hamkorlikdagi faoliyat uchun motiv (xohish-istak), hissiy kayfiyatni yuzaga keltirish.

2 – tur – ijodiy faoliyat tajribasining ustuvorligi. Bu turdan maqsad o'zaro munosabatlar o'qitishning anglash aspektini ta'lim maqsadini ishlab chiqadi va bolaning alohida xususiyatlarini ochishga yo'naltiriladi.

3 – tur – o'quv vazifasini hal etishning mavjud imkoniyatlarini mustahkamlash uchun faoliyat turlarini egallashi tajriba almashishi. Ushbu o'zaro ta'sir etuvchi tur o'qitishning psixologik aspektiga asoslanadi, rivojlantiruvchi maqsadni tatbiq etadi, bola shaxsining rivojlanishiga omil bo'ladi.

4 – tur – akmeologik sohasini tatbiq etish. Bunda pedagog mazmunan turli vaziyatlar yaratadi va bu vaziyatlar bolaga egallagan faoliyat turlarini qo'llash va notanish sharoitda ham harakatlanish imkoniyatini beradi. Ushbu o'zaro ta'sir etuvchi turning vazifasi – bu bola tomonidan mazmun va munosabatlarni o'rganish jarayonida tizimli bilimlarni egallah, bola shaxsining mazmuniy sohasida "Dunyo tasavvuri"ning shaklanishidir.


O'zaro ta'sirning bu turida pedagog nafaqat bolaning hamkorlikdagi faoliyatining xarakteri va turlarini, balki bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ham aniqlaydi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lif metodida asosiysi hisoblanadi.

Biz yuqorida katta shakllantiruvchi ta'lif texnologiyasining didaktika modelini ko'rib chiqdik, bular o'qitishning nizariy negizi hisoblanadi.

Katta shakllantiruvchi ta'lif texnologiyasining uslubiy modeli ta'lif jarayonining yaxlit subyekti sifatida pedagog va bolalar o'rtasidagi munosabatlar va mazmun-mohiyatni shakllantirishni boshqarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Uslubiy modelning asosiy komplekslari bo'lib quyidagilar:

- Uslubiy tamoyillar;
- Ta'lif vositalari;
- Ta'lif bosqichlari;
- Ta'lifning usul va uslublari hisoblanadi.



Uslubiy tamoyillar:

- o'qitish maqsadlarining o'zaro qaramlik va bog'liqlik tamoyili;
- qayta shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta'lif tamoyili;

- ta'limning syujetli vaziyatli bog'liqlik tamoyili.  
Ta'lim jarayonida uslubiy tamoyillarni tatbiq etishda quyidagi ta'lim maqsadlari muhim hisoblanadi.

**Ta'limiy maqsad** – bola ta'lim jarayonida o'zining aqliy ehtiyojlarini qondirib, uni o'rab turgan haqiqatni anglab boradi. Aqliy ehtiyojlarining mazmuni maktabgacha davrning turli yosh bosqichlarida o'zgarib, takomillashib boradi. Aqliy ehtiyojlarini qondira borib, bola hayotiy vaziyatlardagi muloqot jarayonida va turli faoliyatlarda til vositalarini qo'llash malakalarini egallaydi. Bu jarayon barcha mashg'ulot turlarida amalga oshiriladi. Mos keluvchi (adekvat) ifoda etish vositalarini izlash bolada aqliy faollikni, qiziquvchanlikni, tashabbuskorlikni kuchaytiradi, aqliy qiziqishlarini rivojlantiradi.

**Ta'limning tarbiyaviy maqsadi** – bola ehtiyojlarini tarbiyalash, pedagogik nuqtayi – nazarni tatbiq etish (kattalar tomonidan boshqarilayotgan jamoaviy faoliyatga bola tomonidan o'zining shaxsiy kechinmalari orqali "axloqiy bosqichlar"ni bosib o'tish yo'li).

Tarbiyaviy maqsadning mazmuni shundaki, bolaga axloqiy qadriyatlar tizimi, dunyoga hissiy-baholovchi munosabat shakllanadi. Ta'limning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi, amaliy maqsadlari o'qitishning munosib vosita, usul va uslublarni tanlash sharti bilan tatbiq etiluvchi va uslubiy tamoyillarni belgilochi asosiy faktor bo'lib xizmat qiladi.

Har bir xususiy uslub o'zining mashqlar tizimini yaratib, shu tariqa uslubiy tamoyillar va turli vosita va uslublar asosida qurilgan o'qitishning uslubiy modeli katta shakllantiruvchi ta'lim texnologiyasini tashkil etish uchun hisoblanadi.

Didaktik va uslubiy modellar birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishning yo'naltiruvchi asosi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Maktabgacha ta'lim Konsepsiysi-bolani maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rsatkichlarini:

- Jismoniy tayyorgalik (bola rivojlanishining fiziologik daramasi);

- Psixologik tayyorgarlik (bola shaxsi tarkibining hissiy, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);

- Ijtimoiy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatdan ijtimoiy rivojlanish darajasi).

Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rsatkichlarni belgilashda 3 ta soha inobatga olinadi: bolalar-shaxs, faoliyat va refleksiv.

Shaxs sifatida tayyorgarlik – bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya'ni aqliy qobiliyatlar-ilmiy ma'lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatga ilmiy bilimlarni to'g'ri qo'llash, pedagogik vazifalarni malakali hal etish”, pedagogik maqsadni belgilash (tashkilotchilik qobiliyatları-o'qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg'ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqt ni to'g'ri taqsimlash, o'quv jarayonini kerakli inventar jihozlari bilan ta'minlash; o'z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish (er-taliklar, adabiy kechalar va boshqalar).

- Pedagogik yo'naltirilganlik (kommunikativ qobiliyatlar: ma'lum bir ta'lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma'lumotni taqdim etish qobiliyati, birovni ishontira olish qobiliyati, “pedagog-pedagog”, “pedagog-ota-on”, “pedagog-menejer”, “pedagog-bola” darajalarida kasbiy muloqotni savodli tizimi, bolalar jamoasida ijobiy psixologik mikroklimatni yaratish va boshqalar).

- Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnat xotiraviy qibiliyatlar: oddiy standartlar va qaror usublari ni olib tashlab, yangi ajoyiblarini izlash, ushbu va o'z-o'zidan ma'lum narsadan yuqorilarini ko'ra bilish, g'oyaviy hosildorlik, bolaning individual rivojlanishi o'quv jarayonini, innovation o'quv rejasini, dasturni, o'z faoliyatini loyihalashtirish va boshqalar).

- Refleksiv tayyorgarlik-pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatlar sezgirlikning 3 tizimni o'z ichiga oladi: obyektiv his etish, real haqiqiy bolalarda qanday aks-sado berayotganga, bolalarning qiziqish va ehtiyojlari qay darajada namoyon

bo'lishiga, ularning pedagogik tizim talablariga mos kelishiga, pedagogning alohida sezgirligi; me'yorni his etish va takt turli pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari ta'sirida bola shaxsiga va faoliyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, daxldorlik va javobgarlik hissi va sezgirligi bilan ta'riflanadi.

- Demak, yuqorida belgilab berilgan tayyorgarlik jarayonlari ta'lim jarayonlarini yaxlit subyektining rivojlanishini amalga oshirilishidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi – tashkiliy uslubiy jihatdan quyidagi:

– Maktabgacha ta'limni tashkil etish va boshqarish tizimini isloq qilish;

– Pedagog kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini zamonaviy tashkil etish;

– Respublika bo'yicha maktabgacha ta'limni dasturiy-uslubiy ta'minlash;

– Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligiga erishish vazifalarini o'z oldiga qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim tiziminining qayta tashkil etilishi – bu, avvalambor, maktabgacha ta'lim muassasasiga ko'proq mos keluvchi tartibni yaratishdir. Ya'ni, maktabgacha ta'lim muassasasi bola ta'lim-tarbiyasida davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul qilinishi kerak.

Bu bo'limda maktabgacha ta'lim muassasalarini bolalar bilan rejali to'ldirish ishlari nazarda tutilgan bo'lib, turli yosh guruhlarida 10-12 ta bola ilk yosh guruhida 6-8 ta bola, 3-dan 5 yoshgacha bo'lgan guruhlarda 8-10 ta bola, 5dan 6 yoshgacha 10-12 ta bola bilan to'ldirilishi, belgilangan me'yordan oshib ketmaslik talab etiladi.

1. Bolalarning yoshi, psixologik rivojlanish xususiyatlarni inobatga olib;

2. Ijtimoiy, shaxsiy va demografik (jinsi yosh) ni hisobga olib.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bolaning o'sishi va sog'lig'ida ayrim kamchiliklari (maktabgacha ta'lim muassasasiga qiyinchilik bilan moslashadigan, nevrozga moyil, sog'lig'i

susaygan bo'lgani uchun ota-onalar bilan kelishilgan holda (ko'proq haq to'lash evaziga) kam qamrovli guruhlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Guruhlarni jihozlash maqsadida joylarini almashtirish imkonini beruvchi polifunksional transformal mebellardan foydalanish kerak.

Maktabgacha ta'lif muassasasida bolani to'laqonli tarbiyalash maqsadida:

– rivojlantiruvchi predmetli muhitni yaratish bosh vazifa qilib qo'yilgan. Bolani rivojlantiruvchi predmetli muhit – bu bolal faoliyati uning shaxsini to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar tizimidir.

U bolalarning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan bazaviy tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi. Uning tarkibiy qismlari: tabiiy muhit va obyektlar;

- madaniy landshaftlar (ko'rinishlar)
- jismoniy – o'yin va sog'lomlashtiruvchi qurilmalar;
- Predmetli o'yin muhiti;
- Bolalar kutubxonasi;
- Igroteka;
- Videoteka;
- Dizayn studiya va muzey;
- Musiqiy-teatral muhit;
- Mashg'ulotlarning predmetli-rivojlantiruvchi muhiti;
- Kompyuter o'yin majmuasi;

Rivojlantiruvchi muhitga quyidagi talablar kiradi:

Uning rivojlantiruvchi xarakteri;

Jihozlangan predmetli muhit;

Yangi informatsion texnologiyalarni qo'llash. (intellektual va operatsional).

Maktabgacha ta'lif tizimida:

- psixologik xizmatni; (psixoprofilaktik psixologik ilgarilama korreksion faoliyat)
- ijtimoiy pedagogik xizmat – ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash, bola huquq va qiziqishlarini himoya qilish, bo-

la tarbiyasida oila yordam ko'rsatish, sog'lom turmush tarzi-ni tarkib toptirish, mahalliy boshqaruv idoralari, manfaatdor tashkilotlar, muassasalar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik o'rnatish belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida islohotlar davrida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning asosiy maqsadi:

- maktabgacha ta'limning nufuzini oshirish, uning ta'lim sohasida jamiyat uchun ustuvorligini mustahkamlovchi maqomi ni mustahkamlash;

- bosh talabgor va iste'molchi – ota-onalarga mo'ljallangan turli turdag'i, tildagi va profildagi maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar muhim hisoblanadi:

- maktabgacha ta'lim muassasalarining Davlat tizimini saqlab qolish (byudjet va tashkilotlarga qarashli)

- maktabgacha ta'limning standartini aniqlash;

- maktabgacha ta'limning yangi mazmun va texnologiyalariiga o'tish;

- maktabgacha ta'limning tashkiliy tarkibini variativlik tamoyillari, ochiqligi, barcha uchun qulayligi, oila bilan hamkorligi, maktab, mahalla va boshqa jamoatchilik tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarga muvofiqlashtirilgan holda o'zgartirish;

- jamoatchilikka nisbatan birinchi navbatda maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanishidan ketayotgan o'zgarish, shart-sharoitlari va talablarga o'z vaqtida va mos keladigan javob topish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari uchun maktabgacha ta'lim tarkibi harakatliligidagi (o'zgaruvchanligida) topqirlilik bilan mo'ljal olishga imkon beruvchi kadrlarni ilmiy-metodik tomonidan tayyorlanishni takomillashtirishdan iborat.

- maktabgacha ta'limni yangilashda bosh pozitsiya:

Pedagogik faoliyatning o'zaro hurmatga yo'naltirilganligi, differensial va individuallik, demokratizatsiya, bolalar uchun bir xilda ta'lim berish imkoniyatini yaratish dinalizm va variativlik egallaydi.

Yuqorida ko'rsatib berilgan vazifalarni joriy etishda quyidagi tamoyillar inobatga olinishi lozim:

- Bola shaxsini rivojlantirishga intilayotgan pedagogik faoliyatning o'zaro hurmatga yo'naltirilganligi uning qobiliyati, iqtidori, qiziqishlari bolalar faoliyatining turli shakllarida maksimal olib borish;
- Shaxsning shakllanishida maktabgacha yoshining ahamiyati haqida zamonaviy ilmiy bilimlarini qo'llash;
- Intellektual rivojlantiruvchi, predmetni fazoviy muhitni yaratish;
- Shaxsning manfaatlariga yo'naltirilgan ta'lif ustuvorligini tan olish;
- Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun tenglik huquqini tan olish;
- Maktabgacha ta'lifning barcha uchun (tengligi) barobarligi;
- Bolalar sog'lig'i va hayotini muhofaza qilish uning jismoniy va psixik rivojlanishi; sog'lom turmush tarzini shakllanishida maktabgacha ta'lif muassasasining ahamiyati;
- Bolaning ijtimoyillashuvi jamoada yashashga, ta'lifning keyingi bosqichiga sekin astalik bilan o'tishda maktabgacha ta'lif muassasasi faoliyat mazmunining yo'naltirilganligi;
- Ta'lif-tarbiya ishlarining shakl va yagona umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni;
- Tarbiyaviy, ta'limiylar va rivojlantiruvchi vazifalarining birligi;
- Bolalarni o'qitish va rivojlantirishda maktabgacha ta'lif muassasasi va oilaning alohida xususiyatlarini hamkorlikda tatbiq etish jarayoniga ota-onalarni jalb etish;
- Maktabgacha ta'lifning asosiy talabgori va iste'molchisi bo'lgan oilaning ehtiyojlariga qarab turli ko'rinishda, tilda, profilda, variantiv bo'lishni ta'minlash;
- Maktabgacha va boshlang'ich ta'lifning uzviyligi, ja-moatchilik va oilaviy ta'lifning o'zaro hamkorligi;
- Hududiy xususiyatlarni hisobga olish;

- Maktabgacha ta'limga tizimida ro'y beradigan o'zgarishlarga kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga o'z vaqtida e'tibor qaratish.

Maktabgacha ta'limga isloh qilish boshqaruv tizimida quyidagi o'zgarishlarni talab etadi:

- Respublika, viloyat, shahar, tuman, qishloqda amaliy ish vaziyatining hududiy va joylardagi xususiyatlardan kelib chiqib maktabgacha ta'limga muassasasining to'g'ri egiluvchan, boshqaruv shakllarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

- Maktabgacha ta'limga muassasasi ishini qayta ko'rish o'z ichiga ishni tashkil etishda va mazmunida o'zgarishlar, shuningdek yuqori tashkilot bilan o'zaro munosabatlarda ham o'zgarishlarni ham qamrab oladi;

- Maktabgacha ta'limga muassasasini boshqarish mudira tomonidan doimiy faoliyat yuritadigan pedagogik xodimlar o'z-o'zini boshqaruv jamoaviy organi hisoblangan pedagogik kengashda amalga oshiriladi;

- Maktabgacha ta'limga isloh qilish pedagogik xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda o'zgarishlarni talab etadi. Maktabgacha ta'limga muassasalarida faqat maxsus pedagogik ma'lumotli va kerakli qayta tayyorlovdan o'tgan xodimlar faoliyat yuritishi shart:

II. pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini tashkil etish.

Maktabgacha ta'limga tarbiyachisi faoliyati, uning kasbiy tayyorgalikni differensiallashni tatbiq etish alohida o'r'in egallaydi. Bu borada pedagogik kengash va oliy o'quv yurtlarining oldiga mutaxassis kadrlarni sifatli tayyorlash vazifasi yuklataladi.

Konsepsiya - ta'limga muassasasida kirish jarayonida ularni kasbiy yaroqligini aniqlash jarayonini tashkil etish kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdagi muhim vosita ekanligi uqtiriladi.

Maktabgacha ta'limga tizimi uchun kadrlarni mukammal tayyorlashni turli-tumanligiga ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni turliligin ochish imkoniyatini beradi.

Malaka oshirish kurslarini shunday tashkil qilish kerakki, tinglovchilar nafaqat ta'lim jarayoniga zamonaviy va metodik yondashish, balki o'zlarining qiziqishlari va mutaxassisliklari bo'yicha bilimlarini olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim Konsepsiysi maktabgacha ta'limdagi muammolarni hal etish bilan shug'ullanadigan barcha tashkilotlarni ularning bir-biri bilan hamkorlik va muloqotni amalga oshirgan holda muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi.

Respublika ilmiy metodika markazi - ilmiy uslubiy itimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy gigiyena o'quv ko'rgazmali laboratoriyalar, tajriba sinov maktabgacha ta'lim muassasalari ishlarini tashkil etadi va boshqaradi. Shuningdek, maktabgacha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan istiqbol dasturlarini tuzishda bevosita yetakchilik qiladi.

Bu ishlarda O'zbekistonning ta'lim sohasiga oid bo'lgan hududiy muammolarni qamrab olgan tadqiqotlar bilan shug'ullanish maqsadida ilmiy hujjatni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi.

Bu esa: turli turdag'i maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'limiy-pedagogik jarayonni tashkil etishning shakl va mazmunini ishlab chiqish, o'zbekcha-ruscha ikki tillik muammozi, bolalar rivojlanish darajasining psixologik, pedagogik va ijtimoiy diagnostikasi pedagoglarning kasbiy darjasи, oila, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim hamkorligi, ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelining ustuvor(bosh) tatbiq qilishning usul va texnologiyalari va boshqa bir qancha dolzarb masalalari ni hal etishni taqozo etadi. Respublika ilmiy-metodika markazining yana bir asosiy vazifasi bu-uslubiy hujjatni joylarda namunaviy maqsadli tahlil etishdir.

Bunda ta'lim, fan va texnika yutuqlari, ilg'or ish tajribalari da unumli foydalangan holda o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqishni ta'minlaydi; tajriba-sinov maydonida olib borilayotgan pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va tarqatish, ped-

agogik jamoa va alohida pedagoglarning yangi fikrlari, mualiflik mактабгача та'lim muassasalarining bilimiga yordam berish, tarbiyachilarining uslubiy birlashmalarini tashkil etish nazarda tutiladi.

Psixologik-pedagogik maslahatni tashkil etish – ota-onalar va bolalar bilan ishlashda ko'pchilikga duch kelayotgan pedagoglar uchun, ularning kasbiy-shaxsiy qobiliyatlarini diagnostikadan o'tkazadi, o'qitish uslubining psixik korreksiyalarini amalga oshiradi, pedagogni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi, psixologlar uchun qo'llanmalar tayyorlaydi, bolalarni tekshiruvdan o'tkazadi va tezkor qabulni amalga oshiradi.

Bolalarni ilk qo'llab – quvvatlash va psixologik-jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish vasiylik bo'limi tibbiy, mактабгача, mакtab, mакtabdan tashqari, psixologik, ijtimoiy va yuridik xizmat tashkilotlari bilan hamkorlik va koordinatsiya ishlарини tashkil etish lozim.

Mактабгача та'limni rivojlantirish jahon andozalariga olib chiqishni ta'minlash maqsadida markaz turli ijodiy ittifoqlar, shuningdek, yaqin va uzoq, chet ellar bilan aloqalar o'rnatish lozim.

Respublika bo'yicha mактабгача та'lim muassasasini dasaturiy uslubiy jihatdan ta'minlash.

Mактабгача yoshdagи bolalarga ta'lim-tarbiya berish ko'p jihatdan ta'limni mактабгача yoshdagи bola psixikasi xususiyatlariga javob beruvchi dasturlar, metodik tavsiyalar, ta'lim-tarbiya berish qo'llanmalari bilan ta'minlanishga bog'liq. Bu bo'limda ta'limda qo'llaniladigan bosh ta'lim qo'llanmasi bola va kattalarning o'zaro munosabatlarining shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlovchi qo'llanmalar (alohida ish uchun daftar, albomlar, flamaster, qalam, bo'yoqlar va h.k) yaratilgan dasturiy-uslubiy majmua mактабгача та'lim standartini, bolalar bilan ishslashda va ularni rivojlantirishdagi asosiy yo'naliшhlarini ta'minlashi lozim. Bu majmuada tarbiyachilar va boshqa mutaxassislarning yangi avlodи uchun darslik va qo'llanmalar yaratish nazarda tutiladi.

Shuningdek, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'yin faoliyatini tashkil etish usullaridan rivojlantiruvchi predmetli o'yining nazariy va amaliy jihatlari ustida fikr yuritiladi.

Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar.

Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'limiy maqsadlarni qat'iy talab etuvchi va bosqichli o'zgarishlarning aniqligini va olingan natijalarni baholovchi ma'lum ilmiy loyihalashni mo'ljallaydi.

Zamonaviy rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar na-faqat o'qitish jarayoniga, balki bolaning psixik jarayonlariga, uning shaxsiy sifatlari, aqliy-ijodiy qobiliyatlarini, jismoniy rivojlanishiga yo'naltirilgandir. Ta'limning insonparvarligi sharoitida pedagogik texnologiyalar pedagogdan bolani jiddiy qabul qilish munosabatlarida ko'rildi.

Pedagogik jarayonlarda pedagogik texnologiyalar qo'llanilganda bularning samaradorligi diagnostika qilinadi. Bu esa bolaning ta'lim ta'siriga ochiq munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'limning samaradorligini boshqarishning algoritmnинг ya'ni kuzatishning tizimli qoidalari, qo'yilgan o'quv va tarbiyaviy maqsadlarini bajarishda bolalarning qabul qilish faoliyatini kuzatish va tuzatish bilan aniqlanadi.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O'zbekiston Respublikasidagi Maktabgacha ta'lim tizimi oldiga bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, Davlat va jamiat talablariga binoan har tomonlama rivojlanishni ta'minlashdek ulkan mas'uliyat yuklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Konsepsiya-sining maqsad va vazifalari quyidagi bosqichlarda ro'yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich – 2012-2014 yillar mavjud maktabgacha ta'lim tizimining ijtimoiy tomonlarini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy asosni (vazni) yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi qonun va Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturiga muvofiq maktabgacha ta'lif tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash.

- Bola shaxsiga yo'naltirilgan model ustuvorligini ta'minlash.

- Pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishini zamon talablariga muvofiq darajada tashkil etish.

- O'quv uslubiy qo'llanma dasturlarining didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish.

Ikkinchchi bosqich - 2015-2017-yillar.

- Maktabgacha ta'lif konsepsiyasini ta'lif jarayoniga bevosita qo'llash mavjud ijtimoiy-psixologik sharoitlar hisobini olgan holda, unga yangiliklar kirita borish.

- Maktabgacha ta'lif muassasalarida tubdan o'zgartirilgan o'qitish tizimini amaliyatga joriy etish.

- Ta'lif texnologiyalarining didaktik tamoyillarini qo'llash asosida ta'lif jarayonini sifat jihatdan takomillashtirish.

Uchinchi bosqich - 2018-2020-yillar.

To'plangan tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida(istiqbol) kelajak uchun yangi ilmiy g'oyalari loyihasi (ustida) ishlab chiqish.

## **ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabr-dagi PK-2707-son" 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lif tizi-mini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi to'g'risida"gi nizomi va "Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasi-

ni oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan Davlat talablari qabul qilindi<sup>2</sup>.

Davlat talablarni O’zbekiston Respublikasi hududida mulk-chilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat’iy nazar, quyidagi ta’lim muassasalarida qo’llaniladi:

- davlat maktabgacha ta’lim muassasalari;
- nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari;
- maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo’lgan “Mehribonlik” uylari.
- maktabgacha ta’lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim turlari bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirish muassasalarida xodim va rahbarlar Davlat talablariiga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarining maqsadi – mamlakatda o’tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg’or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nан mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

#### **Davlat talablarining asosiy vazifalari:**

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

#### **Davlat talablarining tamoyillari:**

- bolaning noyobligi;

<sup>2</sup> Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida qo’yiladigan davlat talablari. – T., 2018.

- "Men" konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;
- bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;
- bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;
- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashuv.

#### **Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalar:**

- Maktabgacha ta'lim - maktabgacha yoshdagi bolalar qizishlari.
  - Individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, ma'naviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yordarning shakllanishi, hayotiy ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon:
    - rivojlanish inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof-muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;
    - rivojlanish sohasi - bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar: kichik soha - sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarni kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;
    - kutilayotgan natija bolalardagi bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;
    - bola kompetensisi - ma'lum bir yosh davriga xos bolgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatları;
    - integratsiya - bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtaqidagi bog'liqlik;
    - inkiyuziv ta'lim - bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

- "Men" konsepsiysi bolaning o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uni refleksiv faoliyatining bir qismi;

- refleksiv faoliyat - bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z ornida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiiga mos bir nechta talablardan va kuti layotgan rivojlanish ko'satkichlaridan iborat.

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

- bilish jarayonining rivojlanishi;

- ijodiy rivojlanish.

**I. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichik sohachalarga bo'linadi:**

- Yirik motorikani rivojlantirish;

- Mayda motorikani rivojlantirish;

- Sensomotorikani rivojlantirish;

- Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

**- Yirik motorikani rivojlantirish** - bunda bola yurish (tez va sekin), yugurish (tez, sekin va ilon bo'lib), sakrash (uzunlikka va balandlikka), zina bo'ylab yuqoriga yurish (yurish, yugurish, sakrash) vaqtida o'zining tana a'zolarini boshqarishni o'rGANADI.

**- Mayda motorikani rivojlantirish** - bunda bola biror bir faoliyatni yanada aniqroq bajarish (ushlash, olish, yopish, qir-qish, bo'lish) uchun o'z qo'llari va barmoqlarini ishlatish va ulardan foydalanish malakasiga ega bo'ladi.

**- Sensomotorikani rivojlantirish** - bunda bola o'z harakatlarini boshqarish uchun sezgi organlaridan (ko'rish, eshitish, qo'l bilan his qilish, hid bilish) foydalanadi.

- **Madaniy gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish** - bunda bola o'z sog'lig'ining muhofazasiga ta'sir etuvchi shaxsiy gigiyenik malakalarini egallaydi.

- Bola hayoti xavfsizligini ta'minlash - o'zini himoya qilish, shikastlanishni oldini olish (daraxtlarga chiqmaslik, zinaning panjarasini ushlab tushish, qaychi va boshqa predmetlardan extiyotkorlik bilan foydalanish) kabi vazifalar yoritilgan.

Bolalarning jismoniy rivojlanishidagi muammolarni aniq-lash va uning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash, doimiy ravishda bolalarning jismoniy rivojlanishini tahlil qilib borish, bolałarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha ota-onalar bilan hamkorlik qilish, sog'lom turmush tarzining muhimligini tushuntirish va uni ta'lim-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish.

## **II. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalari"**

- "Men" konsepsiysi;
- hissiyotlar va ularni boshqarish;
- ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

## **III. "Nutq. Muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:**

- nutq va til;
- o'qish malakalari;
- qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

## **IV. "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi qo'yiladi kichik sohalarga bo'linadi:**

- intellektual-anglsh malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tarkibiy va samarali refleksiv faoliyat.

**1. Elementar matematik bilim va ko'nikmalar** - bunda bolaning matematik, jumladan son-sanoq malakalarini rivojlantirish orqali matematik bilimlarini orttirish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini, son-sanoq, miqdor, shakl, kattaliklar va o'lchov birliklaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishga erishiladi, bola son-sanoq va hisoblashga oid bilimlarini namoyon qilishi, predmetlarni toi-

falah, guruhlash va tartib bo'yicha joylashtirish qobiliyatini namoyon qilishi lozim.

**2. Atrof-muhit to'g'risidagi bilimlar** - bunda bola kuzatish va amaliyot orqali atrof-muhit to'g'risida axborot oladi, jonli va jonsiz tabiatni kuzatishi va ta'riflay olishi, inson tana a'zolarini bilishi lozim.

**3. Ijod** - bunda bola milliy madaniy meros va madaniyatni hurmat qilishga va o'z hissiyotlarini musiqa, teatr va tasviriy faoliyat orqali ifodalashga o'rganadi. Bola turli tovush va ovozlarni, tovushlarning balandligi va tembiga ko'ra farqlay olish, jamoa bo'lib musiqiy faoliyatlarda ishtirok etishga qiziqish bildirishi, cholg'u asboblarida chalish malakalarini namoyon etishi, amaliy faoliyatda ishtirok etishga qiziqish bildirishi lozim.

**4. O'yin faoliyati** - Boladagi ijodkorlik layoqatini, o'yinlar uchun g'oyalari o'ylab topishini, yangi o'yinlar tashkil etish istagini rag'batlantirish. Bolani tengdoshlari bilan ahil o'ynashga, o'yinchoqlari bilan o'rtoqlashishga odatlantirish. Bolaga o'yinlarda o'z imkoniyatini haqqoniy baholashga va achchiqlanmasdan mag'lubiyatni tan olishni o'rgatib borish.

Mazkur Davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari turli yosh bosqichlari orqali yoritib berilgan. Bunda asosiy psixologik xususiyatlar:

- Fikrlash;
- Nutq;
- Ijtimoiy bilish jarayoni;
- Fiziologik sezgilar;
- Bilish obyektlari;
- Bilish usullari;
- Muvaffaqiyatli o'zlashtirish shartlari;
- Muloqot yuritish shakli;
- Tengdoshlari bilan munosabatlari;
- Katta yoshdagilar bilan munosabatlari;
- Nizolar mavjudligi;
- His-hayajonlar;
- O'yin faoliyati – bo'lib hisoblanadi.

## **V. "Ijodiy rivojlanish" soha quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:**

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiy - ijodiy qobiliyatlar.

## **Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:**

- go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha);
- erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- kichik mактабгача yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- о'rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
- maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Davlat talablari Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va о'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va "Oila" Respublika ilmiy-amaliy markazi bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan.

## **BILIMLAR, KO'NIKMA, MALAKALAR DASTURINING YARATILISH TARIXI**

Ma'lumki, bilimlar, ko'nikma, malakalar dasturini tanlash va tuzish prinsiplari deganda ta'lif dasturini ishlab chiqishda didaktika amal qiladigan asosiy qoidalar, nazariy asoslar tushuniladi.

Shaxsning o'tmish avlodlar yaratib qoldirgan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirish jarayonida shaxsning rivojlanishi haqida ta'lifot maktabgacha ta'lif didaktikasida ta'lif mazmunini tanlash va tuzish prinsiplarini ishlab chiqishning metodologik asosi hisoblanadi. Bu didaktikada bola ta'lif va tarbiya olish jarayonida kamol topadi degan qoidaning qaror topishi barcha yosh davrlaridagi bolalarga mo'ljallangan bilimlar mazmunini tanlash prinsiplarini ishlab chiqishni dolzarb muammo qilib qo'ydi.

Mazkur muammoni ishlab chiqishda L.S.Vigotskiy,

L.S.Rubinshteyn, V.V.Davidov, I.Ya.Lerner, L.V.Zankov, A.P.Usova, A.M.Leushina va boshqa pedagog va psixologlar katta hissa qo'shdilar.

XX asrning 30-60 yillari mobaynida mактабгача та'lim dидактикасида билимлarning табиати, о'кув дастурларини танlash ва tuzish принциплари haqidagi masalalar bahsli masala bo'lib kel-gan.

Mazkur masala bo'yicha ikki xil qarashlar nuqtayi nazar mavjud bo'lib:

- Mактабгача yoshdagi bola fanlar, obyektlar, voqelikning turli jihatlari haqidagi bilimlarni egallashga qodir emas deb hisoblab, mактабгача yoshdagi bolaga bir-biriga aloqasi va bog'liqligi bo'lмаган yorqin, emotSIONAL ahamiyatga ega bo'lgan alohida kam uchraydigan tasavvurlar, taassurotlargi-na tushunarli, dasturi yorqin, biron o'zaro bog'lanmagan tas-virlar ro'yxatidan iborat bo'lмog'i lozim deb ta'kidladilar. Bi-roq bu prinsipda bola dasturda ko'rsatilgan muayyan buyum, obyektlar haqida qanday bilimlarga ega bo'lishi masalasi qo'yilmagan, bilimlar mazmuni faqat buyumning rangi, haj-mi, shaklini ko'rsatish bilan cheklangan, bilimlar murakkabligi faqat miqdoriy jihatlarni ko'rsatib bergen edi. Bu dastur maz-muni va mohiyatini olib bera olmagan.

- Ikkinci nuqtayi nazar tarafdorlari L.S.Vigodskiyning "Katta mактабгача yoshdagi bolalar muhim aloqalarni yo'lga qo'ya oladilar va ayrim bilimlar tizimini o'zlashtirishga qodir"

- degan fikrga tayanib, mактабгача та'lim dasturi mактабгача yoshdagi bolalarning imkoniyatlariga mos keladigan va ularni mакtabda o'кув fanlarni o'zlashtirishga tayyorlaydigan maqbul bir tizim bo'yicha tuzilishi zarur degan qarashni ilgari surdilar. Biroq bu tizimning tabiati, bilimlar dasturini tanlash va tuzish принципини belgilashni talab etar edi.

Bilimlar dasturi o'zida quyidagilarni:

- Bu mavjud dunyoni aks ettirishi, politexnik yo'naliш bilan ifodalaniши (mehnat, materiallar, mashinalar haqida bilimlar), hodisalarining obyektiv aloqasini o'zida aks ettirishi;

- Buyumlar o'rtasidagi o'zaro aloqani aks ettirishi kerak edi. Bilimlar dasturini ishlab chiqishda Ye.I.Tixeeva va A.P.Usovalar katta hissa qo'shdilar.

Ye.I.Tixeeva - bolalar bog'chasi uchun bilimlar dasturini ishlab chiqdi. Unda ijtimoiy hodisalar, tabiat va uning obyektlari va voqealar bilimlarni kiritdi. U bilimlar mazmunini tizimlashtirib, tarqoq obyektlarning o'xshashligiga ko'ra guruhlaraga birlashtirish zarur degan g'oyani ilgari surdi (uy hayvonlari, hashoratlar, transport va boshqalar).

A.P.Usova - bilimlar dasturi o'z ichiga ilmiy bilimlarni olish kerak degan g'oyani ilgari surdi. Mazmunli, ilmiy bilimlar tushunchalar zamirida yotadi. Bu tushunchalarni o'zlashtirish, o'zlashtirganda ham qaysilarini o'zlashtirish muhimligi masalasiga esa A.V.Zaporojes, N.N.Podd'yakovlar o'z asarlari orqali yoritib bordilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar agar buyumlar ko'rgazmasi namoyish etilsa, ilmiy bilimlarga xos bo'lgan fanlararo muhim aloqani o'rнata olishga qodir ekanliklarini isbotlab berdilar. Bu ilmiy qoidadan (A.M.Musina, K.P.Nazarenko, V.I.Loginova, P.G.Samorukova, I.A.Xaydurova va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida foydalanadilar).

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya pedagogikasida olib borilgan tadqiqotlar natijasi asosida bilimlar, ko'nikmalar, mala-kalar dasturini tanlash va tuzish prinsipi shakllantirildi.

Bilimlar dasturini tuzish quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

- Bilimlar, ko'nikmalarning hayot va amaliyot bilan aloqadorligi prinsipi;

- Bilimlarning ilmiylik prinsipi;

- Bilimlarning tizimlilik pritsipi;

- Bilimlarning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi yo'nalishi prinsipi;

- Bilimlar ko'nikmalar mazmunida har tomonlamalik, uyg'unlik prinsipi;

- Tushunararlilik prinsipi.

I.Bilimlar, ko'nikmalarning hayot va amaliyot biron aloqadorligi prinsipida - maktabgacha ta'lif muassasasiga

mo'ljallangan bilimlar, ko'nikma, malakalarni dastur uchun tanlashga umumiy yondashishni belgilovchi asosiy prinsipdir. Mazkur prinsipda bolaning mavjud hayotini keng tushunishga erishishni, uning dunyoqarashini maishiy ehtiyojlar doirasida cheklayotgan, tengdoshlaridan orqaga surayotgan to'siqlarni bartaraf etish talab qilinadi. Hayot bilan aloqadorlik:

- Bu uni ijtimoiy jihatdan juda ahamiyatga molik va g'oyaviy ko'tarinkilik ruhida ko'rsatishdirki, ular bolani kattalar dunyo-siga (mehnat va ishlab chiqarishdagi) olib kiradi. Hayot, amaliyot, bilim aloqadorlik dasturiga muayyan ko'nikmalar doirasi ni kiritishni taqozo qildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar egallashi mumkin bo'lgan ko'nikmalar:

- Atrof-muhit haqidagi bilimlar asosida o'zlashtirildi
- Turli faoliyatlarda o'zlashtiriladigan ko'nikmalar (o'yin, mehnat, mustaqil shug'ullanish, o'zaro munosabatlar)

Bu prinsip – maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotiy yaqin istiqboli sifatidagi bilimlar, ko'nikmalarning bolalarni mакtab ta'limiga tayyorlashga oid yo'nalishni talab etadi.

II. Bilimlarning ilmiylik prinsipi – ilmiy bilimlar, qonuniyatlar, nazariya ilmiy bilimlarning o'quv faoliyatidagi o'rnnini yoritib beradi. Bu ikki yo'nalishda voqelikni qanday ko'rsa, shunday ko'rsatishni, ya'ni dastur ishonarli dalil, hodisalarni kiritishni talab qiladi. Dalillar va hodisalarni rivojlantirishda o'zaro aloqa yorgin ko'rinishlarda talab qilib, bilish dialektikasi hollatlariga mos keladi. Dalil va hodisalarning sabablarini ochish qaror topgan umumiy qarashlarga, tushunchalar mazmuniga muvofiq kelishi, voqelikning juda muhim ko'rinishlarini aniqlab berishi lozim.

Ilmiylik prinsipi – mehnat faoliyatining mazmun-mohiyati, tabiat haqidagi bilimlarni tanlashda muhim hisoblanadi.

III. Bilimlarning tizimiylilik prinsipi – bu ilmiylik prinsipi bilan uzviy bog'liqdir. U bilimlar tuzilishini, tabiatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar tabiatiga ko'ra muayyan ko'rinishga ega bo'lib, bu bilimlar mazmuni bilan bog'liqdir. Tizimlilikda buyumlar

yoki hodisalarini biror-bir o'ziga xos yoki muhim xususiyatlariga ko'ra birlashtirish, guruhlashtirish, turkumlashni bildiradi. Zamonaviy ilmiy bilimlar har bir bilish obyektni boshqa obyektlar bilan aloqador yaxlit tizim sifatida tatbiq etadi. Bu jayron mantiqiy ketma-ketlik asosida ish olib borishga o'rgatadi va ko'p bosqichli bog'lanishiga ega bo'lgan elementlar, tizimlar orasidagi qonuniy munosabatni belgilash va bilimlarni egallash uzviyligini, uzluksizligini ta'minlashni amalga oshiradi.

IV. Bilimlarning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi yo'nalish prinsipi – ushbu prinsip dasturga voqelikka munosabatini shakllantiradigan ko'nikmalar tizimini (bilimga, mehnatga oid) rivojlantiradigan bilimlarni kiritishni talab qiladi.

Voqelikka to'g'ri ongli munosabatda bo'lish, biror-bir ish harakat va hodisalarning mohiyatini tushunish, faqatgina atrof-muhit haqidagi bilimlar asosida rivojlanadi. (V.V.Davidov, N.N.Podd'yakov, A.M.Leushina, V.I.Loginova, I.A.Xaydurova va boshqalar).

Bilimlarning tarbiyalovchilik yo'nalishi ularning maqsadga muvofiq tanlanishi, jamiyatimizning milliy istiqlol g'oya-larining aniq mazmuni va asoslarida yoritilishi ularning mohiyatini aniqlashtirilishi, bolalarga tushunarli tarzda yetkazilishida namoyon bo'ladi. Bunday ta'limlar bolada dunyoni tushunish asoslarini shakllantirgan holda uni jamiyat hayotiga olib kiradi, kattalarning mehnat ehtiyojlariga, ularning munosabatlari olamiga olib kiradi. Bu esa bolalarda mehnat buyumlariga, tabiatiga kattalar talabiga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantiradi.

Bilimlarning ilmiylik prinsipi maktabgacha yoshdanoq, bolalarning maskuraviy yo'nalganligini ta'minlaydi, ular fe'l-atvorida namoyon bo'ladigan axloqiy ongni shakllantirishga imkon yaratadi.

Tizimli bilimlar bolaning bilish faoliyatini rivojlanishini ta'minlaydi, ular asosida bola yaxlit obyektni idrok etishdan, uning xususiyatlarini anglashga erishadi. Bunda bolaning sensor ko'nikmalari rivojlanadi. Bolada o'zaro munosabatlarni

anglab yetish (ijtimoiy-hissiy), bilish jarayoni nutqiy rivojlanish, qiyoslash, solishtirish oddiy tafakkur operatsiyalari, mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi.

V. Bilimlar, ko'nikmalar mazmunida har tomonlamalik, uyg'unlik prinsipi – dastur mazmuniga egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni xilma-xil ko'rinishlariga oid ko'nikma va malakalarini tanlab olish va kiritish degan talab q'yiladi.

**Dasturning mazmuni** – ijtimoiy hodisalar, inson va uning faoliyati xulq-atvor me'yorlari, san'atning janr va turlari, jonli va jonsiz tabiat, miqdoriy munosabatlar va boshqa bilimlarda tashkil topadi.

**Dasturga kiritilgan** – ko'nikma va malakalar:

- Insonlarning munosabatlari
- Mehnat, tasviriy faoliyat, ko'rish, nutq faoliyatları va boshqa ko'nikmalarni tanlab oladi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi
- uning rang-barang dunyoda yashashga qodirligi, shunga muvofiq o'z fe'l-atvorini va faoliyatini yo'lga qo'yish

- Bolaning bilimiga oid rivojlanish
- Voqelikning turli sohalarga oid bilimlari

Bu yo'nalishlar bilimlar, malakalar mazmknining uyg'unligidan dalolat beradi. (L.V.Vigotskiy)

VI. Tushunarilik prinsipi – dasturga bolalarning bilish va ijrochilik imkoniyatlarini hisobga oladigan, bu imkoniyatlar ning o'sishi bilan birgalikda murakkablashib boradigan bilim va ko'nikmalarni kiritishni talab qiladi.

Shunga ko'ra, dasturga tasavvur shaklidagi bilimlar kiritilgan. Bunda bolada bilishni rivojlanishi bilan tasavvurlarning tabiatiga qo'shiladigan talablar ham o'zgarib boradi. Kichik guruhdan to tayyorlov guruhlarga bolaga beriladigan bilimlarning xususiyatlari, bolalarning hissiy rivojlanishi, ko'rgazmali-obrazli bilishga o'tish, lozim bo'lgan yangi imkoniyatlarga tayanishni talab qiladigan bilimlarni kiritish imkonini beradi, bu esa bolalarning yanada kamol topishini ta'minlaydi.

Dasturga ko'nikmalarning kiritilishi bolalarning psixik, harakat, muvofiqlashtiruvchi va boshqa imkoniyatlarini bilan belgilanadi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TA'LIM-TARBIYA DASTURINING YARATILISH TARIXIDAGI ASOSIY, MUHIM SANALAR**

**1932-yil** – Bolalar bog'chasi programmasini dastlabki loyihasi ishlab chiqildi. Bu bolalar bog'chasi ishini tartibga solishga, tarbiyachi faoliyatiga yo'nalish va mazmun berishga yordam beradi.

**1934-yil** – Tarbiyalash programmasi va bolalar bog'chasi ichki tartib qoidalari nashr ettirildi, unda bolalar muassasidagi bolalar hayotini mazmunli va qiziqarli tashkil etish masalalariga e'tibor qaratilgan edi. Programmada ijtimoiy, jismoniy, rasm, loy, mehnat, nutq o'stirish, kitob va rasmlar bilan mashg'ulotlar, dastlabki matematik tasavvurlarni rivojlantrish, savod chiqarish bo'limlari mavjud edi, biroq unda murakkab bilish materiallarining kiritilmaganligi, bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinmaganligi, pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyachining rahbarlik roli yoritib berilmagan edi.

**1938-yil** – Bolalar bog'chasining tarbiyachisi uchun qo'llanma nashr etildi. Ushbu qo'llanmada bolalarni tarbiyalash vazifalari, bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda, tarbiyaning ayrim bo'limlari – jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyalash masalalari yetarli o'z vazifasini topdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'limga ilmiy yondashuv munosabat bilan qo'llanma qayta ishlab chiqildi. Ushbu bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim mundarijasini aniq yoritib berildi.

**1953-yil** – Bolalar bog'chasida ta'limga ilmiy yondashuv munosabat bilan qo'llanma qayta ishlab chiqildi. Ushbu bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim mundarijasini aniq yoritib berildi.

**1959-yil** – Maktabgacha tarbiya muassasalarini yanada rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga tibbiy xizmatni ko'rsatishni yaxshilash choralarini to'g'risidagi

qarori qabul qilinadi. Unda mahalliy sharoit va imkoniyatlarini nazarda tutib, bolalar muassasalari ishini ikki "yasli" va "bolalar" bog'chasini yagona Maktabgacha ta'lif bolalar muassasi qilib birlashtirish va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona programmasini tuzish belgilandi.

**1964-yil** – Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi nashr etildi. Unda ilk yoshdan to maktabga tayyorlov yoshgacha bo'lgan davrlarda olib boriladigan ta'lif – tarbiya ishlari yoritib berildi.

**1972-yil** – Maktabgacha ta'lif muassasalarining yangi "Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi bilan ishlashga o'tkazish to'g'risidagi 1972-yil may qaroriga binoan yangi programma qabul qilindi. Programmada – bolalar bog'chasing vazifalari – aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnat, o'yin mashg'ulotlar ro'yxati va haftalik taqsimoti, guruhlar bo'yicha bolalarni tarbiyalash vazifalari, ularning rivojlanish xususiyatlari, o'quv faoliyatining boshlang'ich formalarini egallash, tarbiyachi va ottonalar hamkorligi masalalari aks ettirilgan edi.

**1978–1980-yillar** – Bolalar bog'chasida ta'lif-tarbiya programmasi takomillashtirildi va qayta nashr etildi.

**1980–1999-yillar** – Bolalar bog'chasida ta'lif-tarbiya programmasining bir necha bor takomillashtirish jarayonlari bo'lib o'tdi. Mustaqilligimizning ilk mevasi bo'lgan "Uchinchi ming yillikning bolasi" dasturi qabul qilindi. Unda bolalarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va ularga ta'lif berishning uch asosiy: ma'naviy, jismoniy va nutq rivojlanishi yo'nalishlari belgilab berildi.

**2010-yil** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif Vazirligi tomonidan "Bolajon" tayanch dasturi nashrga tavsiya etildi.

**2018-yil** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan "Ilk qadam" o'quv dasturi qabul qilindi

## **"ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURI**

Maktabgacha ta'lif muassasasining davlat o'quv dasturi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablar'i"ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lif muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdag'i bolalarni ta'lifning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan bar'cha maktabgacha ta'lif muassasalari uchun (davlat, nodavlat, maxsus va boshqalar) ushbu dastur asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lif muassasalarida:

davlat maktabgacha ta'lif muassasalari;

maktabgacha ta'lif sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasalari;

maktabgacha guruhlarga ega bo'lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;

maktabgacha va boshlang'ich ta'lifni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida – ushbu davlat o'quv dasturini qo'llash majburiydur.

Davlat o'quv dasturi VII bobdan iborat bo'lib, I bobda MTM davlat o'quv dasturini qo'llash va MTMning maqsad va vazifalari aks ettirilgan.

Davlat o'quv dasturi variativ o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi.

Ta'lif muassasalari Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o'quv dasturlaridan foydalananish huquqiga ega.

Ta'lif muassasasi Davlat o'quv dasturi asosida o'zining MTM ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta'lif

<sup>3</sup> "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. – T., 2018.

muassasasining ishchi o'quv dasturi muassasa pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi.

Davlat o'quv dasturida MTMning quyidagi maqsad va vazifalari belgilab berilgan:

bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va mактабгача ўошдаги балаларни ривожланышга oid Davlat таблари асосида hamda Davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha ўошдаги балалarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

balalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;

balalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

II bob – MTM ta'lrim jarayonining maqsad va tamoyillari deb nomlanib, u quyidagilarni:

- MTM ta'lrim jarayonining maqsadlari
- MTMda ta'lrim jarayonini tashkil qilish tamoyillari
- Qo'shimcha ta'lrim xizmatlarini tashkil qilish
- Alovida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lrim faoliyati
- Ota-onalar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Davlat dasturida MTM ta'lrim jarayonining maqsad va tamoyillari aks ettirilgan bo'lib:

- O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumi kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

MTMda ta'lrim jarayonini tashkil qilish tamoyillari:

bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;

ta'lrim jarayonida barcha turdag'i rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi;

bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlar, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish; bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash; o'yin orqali ta'lif berish va rivojlantirish; bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish; bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash; MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi; milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Alohibda ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lif faoliyati.

Maktabgacha ta'lif muassasasida alohibda ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lif muassasasi rahbari javobgar bo'ladi.

Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lif muassasasi rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarни jalb etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi.

#### Ota-onalar bilan hamkorlik

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lif muassasasi ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

ota-onalarning maktabgacha ta'lif muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish;

ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;

ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;

ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

III bob – Maktabgacha yoshdagи bolalarga ta'lif berishda kompetensiyaviy yondashuv deb nomlanib, dastur majburiy 5 ta ta'lif sohasini o'z ichiga oladi.

«Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari

«Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari

«Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari

«Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari

«Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari:

- Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

- Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

- O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalaniishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

- Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

- Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlaridan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

VI – O'quv-tarbiyaviy faoliyat bobida O'zbekiston Respublikasidagi barcha MTMlarda tashkil etiladigan o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi.

Bunda MTMlarda o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalshtirish turlari yillik mavzuviy va haftalik ish rejalarini va tarbiyachi tomonidan rejalshtirishni amalgga oshirish yoritib beriladi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat tahlablari» asosida amalgga oshiriladi.

V bob Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari MTM pedagoglari tomonidan bolaning rivojlanishini kuzatib borish

xaritasi yiliga uch marta to'ldiriladi (3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan) shuningdek, 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi ham to'ldiriladi. Bu xarita Davlat dasturiga muvofiq bolar rivojlanishning beshta sohasi kompetensiyalari bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

VI – Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bobida Maktabgacha ta'lif muassasasida quyidagi mazmunda:

- ko'rgazmali-rivojlantiruvchi;
- madaniy-tarixiy qadriyatlar;
- milliy va mintaqaviy an'analar;
- tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi yoritiladi;

VII bob Ilovalarni o'z ichiga olib ushbu dasturni amaliyotda qo'llashning mazmun va mohiyati yoritib beriladi.

Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lif jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydi.

Dastur uchta asosiy bo'limni qamrab oladi:  
maqsadli – bu tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oладиган bo'lim;

mazmunli – bu Dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim;

tashkiliy – bu Dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifini, ta'lif va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

«Ilk qadam» dastur nomining falsafiy mazmuni – bilimlar dunyosiga birinchi qadam, birinchi muvaffaqiyat, go'zallik,

yaxshilik, samimiylit – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashning ilk asoslari.

Dasturning mazmuni – ijtimoiy hodisalar, inson va uning faoliyati, xulq-atvor me'yorlari, san'atning janr va turlari, joni va jonsiz tabiat, kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qilish kabilardan tashkil topgan.

“Ilk qadam” dasturiga binoan maktabgacha ta’lim muassasa-sining turli yosh guruhlaridagi: «Til va nutq», «Ilm-fan va tabiat», «Qurish-yasash, konstruksiyalash+matematika», «San’at» «Syujet-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish» faollik markazlari, bolalarni dialogik va monologik nutqini rivojlantirishga, jamoa bo’lib birgalikda hamda mustaqil ishlashga, raqamlar, shakl va vaqtini, elementar matematik hisoblashlarni bilishga, san’at va madaniyatga qiziqish, ijodiy yondoshish kabilarga qaratilgan.

Bu boradagi kuzatishlar va ularning tahlili, katta yutuqlar bilan bir qatorda mavjud qiyinchiliklarni aniqlashga va asosli ba’zi takliflar kiritishga bizga imkon berdi.

### Tayanch tushunchalar:

**Milliy model** – Kadrlar tayyorlashning milliy modeli (KT-MM)ning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: shaxs; davlat va jamiyat; uzlusiz ta’lim; fan; ishlab chiqarish; ta’lim-tarbiyaning uzviy bog’liqligini ta’minlash va bu jarayon har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo’naltirilganligidadir.

**Uzlusiz ta’lim** – Milliy modelning tarkibiy qismi bo’lib, quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi: maktabgacha ta’lim; umumiy o’rta ta’lim; o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi; oliy ta’lim; oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta’lim. Uzlusiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib, ta’limning barcha turlari, DTSni o’z ichiga ola-di.

**Ilmiy daraja** – muayyan fan sohasidagi mutaxassisning il-miy malakasi darajasi

**Nazorat uchun savollar:**

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi va vazifasini tushuntiring.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi nechta bosqichni o'z ichiga oladi.
3. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli va uning asosiy komponentlari.
4. Maktabgacha ta'lrim konsepsiyasining maqsad va vazifalarini izohlang?
5. Ilk qadam o'quv dasturining asosiy g'oyasini yoritib bering?
6. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ning maqsad va vazifalari nimalarga asoslangan?

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining asosiy yo'nalishlari nechta katta sohadan iborat?
  - a) 8 ta
  - b) 10 ta
  - v) 5 ta
  - g) 4 ta
2. "Ilk qadam" dasturi qaysi hujjat asosida ishlab chiqilgan?
  - a) maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari
  - b) kadrlar tayyorlash milliy dasturi
  - v) Davlat maktabgacha ta'lrim muassasasi to'g'risidagi NI-ZOM
  - g) "Ta'lrim" to'g'risidagi qonun;
3. Ilk qadam dasturining maqsadi....

- a) maktabga jismonan sog'lom, aqlan va manan yetuk;
  - b) jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan
  - v) bolani maktab ta'limiga tayyorlash; hayotga ijtimoiy ji-hatdan moslashtirish;
- g) hamma javoblar to'g'ri
4. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari qaysi qonunda belgilab berilgan?
- a) "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda
  - b) Kadrlar tayyorlash milliy dasturida
  - v) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida
  - g) "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizomda

### **III BOB. Maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablar**

#### **Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni**

O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohotlarning muvaffaqiyatiga, eng avvalo, odamlarning o'z ishlariiga mas'uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamlakat taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog'liq. Jamiyatda pedagog (o'qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim bershdek savobli va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha pedagogika fani – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qli, uning ustozи bo'lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchanining o'z ustozи va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'lboshchisi bo'ladi.

Ustozning eng buyuk burchi – xalqqa nafi tegadigan, aqlidrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lif - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini biliishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi uchun ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Respublikamiz rahbariyati pedagoglar faoliyatini yuqori baholamoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov (1996-yil 9-yanvardagi) Farmoniga

binoan «1-oktyabr Maktabgacha ta'lim xodimlari – o'qituvchi murabbiylar kuni» deb e'lon qilindi. Bu voqeal davlatimizni o'qituvchilarini jamiyatda tutgan o'rni naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, pedagog ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg'or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o'qituvchi, tarbiyachilar «Metodist o'qituvchi», «Katta o'qituvchi», «Metodist - tarbiyachi», «Xalq maorifi a'lochisi» va shu kabi sharaflı unvonlar bilan taqdirlanadilar. Maktabgacha ta'lim xodimlari orasidan respublika bo'yicha deputatlar saylanishi ham ularga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan jumhuriyatimizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog xodimlar malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmoqda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o'tishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

**Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar. Uning shaxsini shakllantirish. Pedagog-tarbiyachining nutq madaniyati.**

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzlusiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beradi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan beباو merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz... Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug' dargoh-

ning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, na-faqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladi-gan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi" degan edi.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning is-tiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning mu-vaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi-o'qituvchiga, uning sa-viyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazish-ga nisbatan shijoatiga bog'liq.

Ma'lumki, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon be-vosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib borila-di. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tuti-layotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va dars-dan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyuşhtirish, ular-ni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchilar zimma-siga yuklatilgan.

Tarbiya – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuv-chi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tar-biylanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashti-rish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyat-ning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har to-monlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashi-ni, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralar-iga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo fa-lokat, yo saodat – yo razolat masalasidur"<sup>4</sup> – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqat-

<sup>4</sup> Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.

dir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: «Tarbiyachi – ustozi bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak taablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak». Demak, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatma olish qobiliyati;
- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish;

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish;
- o'quvchilarning ijtimoiy kelib chikishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lisch.

Tegishli ma'lumotli, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega deyiladi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birligida mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalar-

ga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir. Pedagogik qobiliyat - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek, uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta'limgarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir.

Curriculum, or the content of teaching, may be designed to encourage learning processes (memory, attention, observation) and cognitive skills (reasoning, comparing and contrasting, classification), as well as the acquisition of specific information, such as the names of the letters of the alphabet (Wiggins and McTighe, 1998). The teaching strategies or methods used in implementing the curriculum are the arranged interactions of people and materials planned and used by teachers. They include the teacher role, teaching styles, and instructional techniques (Siraj-Blatchford, 1998). The third aspect of pedagogy, which might be thought of as cognitive socialization, refers to the role that teachers in early childhood settings play, through their expectations, their teaching strategies, their curricular emphases, in promoting the repertoire of cognitive and affective characteristics and skills that the young child needs to move down the path from natal culture to school culture to the culture of the larger society.

O'quv rejasi va unda joylangan barcha mashg'ulotlar (xotira, e'tiborni rivojlantirish va kuzatuvchanlik) xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi mumkin, shuningdek, kongnetiv qibiliyatlar ya'ni (mulohaza qilish, taqqeslash qarama-qarshilik va klassifikatsiya) kabilarni rivojlantirish shu bilan birga ma'lum bir ma'lumotni alfavit harflarini o'rganishga ham qaratilgan tarzda bo'lishi mumkin.

(Wiggins and McTighe, 1998) O'quv rejasি davомida олинган ма'lumotlarga ko'ra tuzilgan va ishlataladigan o'quv strategiyalari va usullari o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladi. U o'z ichiga o'qituvchining roli va o'qitish uslubini qamrab olgan (Siraj-Blatchford, 1998). Kognetiv sotsiyalizatsiya Pedagogikani uchinchi jihatи deb hisoblanadi. U o'z ichiga bolani yoshligidagi strategik o'qitish asnosida bo'lib u bolani xarakteristik va o'qiy olish jihatidan yosh bolalik o'yinqaroqliklarini kamaytirib katta hayotga, ya'ni ommaviy muhitga tayyorlab beradi.

Professional Development for Early Childhood Professionals:  
Examining Pedagogy in Early Childhood 8 October 2010.

### **Pedagog - tarbiyachi shaxsini shakllantirish**

Tarbiyachi mактабгача yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisалари, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshлари va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo'lish odatlарини singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik,adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlar tarbiyalaydi.

Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni biliш, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarни ma'lum bir izchillik bilan egal-lab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan bo'lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xattiharakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi;

9. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, xafa bo'lsa ovuntira olishi;

10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

### **Pedagog – tarbiyachining nutq madaniyati**

Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyatni madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati

adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimi-ga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyatni, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajriba-li ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, say-qallanib boraveradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq. Shu qibiliyat tufayli o'qituvchining nutq madaniyatni ham shakllanib boradi. Quyidagi o'qituvchining nutq madaniyatiga xos bo'lgan vositalarni pedagog-tarbiyachi unutmasligi kerak:

1. Nutq madaniyati o'qituvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.
2. Nutq madaniyati o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.
3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash.
4. Nutq madaniyati – bu, avvalo, o'qituvchilarda nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarini hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvafiqiyatlar tufayli qibiliyat va mahorat shakllanadi.
5. Nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egalash asosida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi adabiy til qo-

nuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni ifodali o'qiy olishi, radio va televide niye eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, yosh o'qituvchilar o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va ta'sirchan nutq so'zlaydigan ustoz-murabbiylarning nutqiy san'atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o'rganishi mumkin.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mu-kammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida o'qituvchi bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadi, o'quvchilar bilan ongli muloqotni ta'minlaydi, ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi, avvalo, nutq sirlarini, uning o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotda ta'sir kuchini puxta bilishi kerak.

### **Tarbiya tamoyillari**

Tarbiya tamoyillari deb, yosh avlodni tarbiyalash maqsadi-dan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmu-ni va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisiga aytildi.

Tarbiya tamoyillari o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilana-di, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or ta'limotlar g'oyalariiga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks et-tiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagi-lardan iborat:

- Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalaringin us-tunligi;

- Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- Tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish;

Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi - o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni vatanaga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir.

Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta'limi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis, komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi) lar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi - tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu - tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi

va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek, tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchini teng huquqli hamkor, hamfikr deb qarash lozim.

Umuman, ta'lif va tarbiyani insonparvarlashtirishning pedagogik diqqat hamda e'tibor markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, beba ho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi-xalqning ko'pasrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analar urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun daxldor qadr-qimmatiga ega bo'lgan an'analar, urf-odatlар haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik - tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi.

Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shaxsning shakllanishiga hayot, ijtimoiy jamiyat ta'sir etadi.

Bu bir tomonidan bo'lsa, ikkinchidan bolalarni tarbiyalashan maqsad uni turmush uchun mustaqil hayot uchun tayyorshadir. Shunday ekan, maktab va tarbiya muassasalarida olib oriladigan bo'lishi kerak.

Tarbiyani mehnat bilan bog'lab olib borish. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unum-mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiya-uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birlibolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhiya, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhiya tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy shlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam og'langan.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish - o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxni hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatiyan kelib chiqadi.

O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat o'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishiga, Mayerdaki o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsagina mu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat muhabbat ular kuchiga kuch qo'shami o'qituvchiga nisbatan surmatni uyg'otadi.

Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish - tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolarning yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha

bo'ladi. Bolalar mактабда rivojlanishining turli davrlarini bo'лalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va оngi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida har qadar umumiylig bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchi xususiyatini o'rganish maqsadga muvoqidir.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaat-borlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qiliishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyat bo'ladi. Yaxshi uyushgan jamoada jamoa fikri katta tarbiyaviy uchga ega bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini amiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'qituvchi hamma aqt o'quvchilar jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga 'rgatib borishi lozim.

Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobjiy sifatlarga tayanib, salbiy islatlarini yo'qotib borishga e'tibor qaratish lozim. Mahoratli pedagoglar o'z o'quvchilarining shaxsiy fazilatlarini yaxshi bidilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqida ijobjiy sifatlarga suyanib ish ko'radilar. Boladagi ijobjiy sifatlarga tayanish uning salbiy sifatlarini yo'qotish, yomon odatlar-

dan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to'g'ri hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga egadir.

### **Tayanch tushunchalar:**

Iste'dod – har tomonlama rivojlangan va takrorlanmas qobiliyat.

Iqtidor – insonning o'z xatti-harakatlariga nisbatan subyektiv munosabati.

Tarbiyachi – «eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi» (Konfutsiy).

Nutq faoliyati – bu inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajriba ni o'zlashtirish va avlodlarga yetkazish, kommunikatsiya (aloqa) o'rnatish maqsadida tildan foydalanish jarayoni.

Notiqlik – bu nutqning og'zaki shakli.

Nutq texnikasi – so'zlayotganda to'g'ri nafas olish, ovozni yo'lga qo'yish, so'zlarni xatosiz talaffuz qilish, ovoz o'zgarishi, diksiya, ritmika.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarbiyachi – pedagoglik kasbi qanday kasb va bunga sizning munosabatingiz?

2. Tarbiyachining shaxsiy sifatlari va pedagogning odobi qanday bo'lishi kerak?

3. Hozirgi davr o'qituvchisiga qo'yilgan pedagogik talab nimalardan iborat?

4. Kasbiy layoqat deganda nimani tushunasiz?

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. O'qituvchilar, maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari necha yilda o'z malakalarini oshiradilar?

a) 5 yil

b) 6 yil

v) 3 yil

g) 10 yil

2. Pedagog-tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun qanday shartlarga amal qilishi lozim?

a) oliy ma'lumotli bo'lishi

b) bolalarni kuzata oladigan bo'lishi

v) yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabar-dor qilishi

g) hamma javoblar to'g'ri

3. Tarbiyachi bola shaxsini psixologik qo'llab-quvvatlashi bu

...  
a) kattalar tomonidan bola muammosini tushunish

b) bolalar emotsiyal-shaxsiy munosabatlarini shakllanti-rish

v) xatolarga yo'l qo'yish qo'rquvini ketkazish

g) hamma javoblar to'g'ri

4. Tarbiyachi qachon bolalarga ta'sir ko'rsata oladi?

a) kundalik hayotda, o'yinlarda

b) mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida

v) bolalar bilan muomalada

g) hamma javoblar to'g'ri

5. O'zbekiston Respublikasida murabbiy-o'qituvchilarning erishgan yutuqlarini taqdirlash uchun qanday unvonlar ta'sis etilgan?

a) «Metodist o'qituvchi»

b) «Katta o'qituvchi»

v) «Metodist-tarbiyachi»

g) hamma javoblar to'g'ri

## **IV BOB. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR TARBIYASI VA RIVOJLANISHI**

### **Shaxsni rivojlantirish haqida tushuncha**

«Shaxs» – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lif sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni malga oshiruvchidir. Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosidir. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik millarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lif-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda shasha, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanish darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan surqlanadi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vaznning ortishi, sez-a'zolarining mukammallashuvi, harakatlarni to'g'ri boshqabilish bilan bog'liqdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar u belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.


Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha oshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, ta'lif-tarbiya berish surqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladigan. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmunni tanlash, uning gallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lif-tar-

va jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularing yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar can ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay slashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning staqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq zda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Sohljimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida z beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonida faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi.



Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaytar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab qadilar.

Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy lari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrof-ma'lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiiy-predmetli munosabatlardan oq bolada dastlabki ijtimoiy-

moiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi.

Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar.

Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi.

2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va ularning o'yin hamda tasviriy faoliyatga o'tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlari da, faoliyatlarda o'z-o'zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak-atrofidagi tabiat to'g'risida, ijtimoiy hayot, kishilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar. Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi.

Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarini shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi.

Kichik mакtab yoshidagi bolalar uchun o'qish asosiy faoliyat bo'lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola o'zini mакtab o'quvchisi deb tushuna boshlaydi.

Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albat-

ta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi.

Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o'ziga munosabat sistemasini izchil o'zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro'y beradi. Bunda bolalik va o'smirlik yoshi, ayniqsa, muhimdir.

Odamning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma'naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalgamoshiriladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ma'naviy sifatlar, his-tuyg'ular (burch, vijdon, mas'uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta'sir, etadi.

Shaxs faoliyati muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi. Agar odam ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o'quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlaniradi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy munosabatlardan chegaralab qo'ysa, u shaxsning rivojlanishi ga to'sqinlik qiladi, yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta'sir natijasida rivojlanadi. Shaxsning ma'naviy hayot mazmuni – bu shaxsning o'z ichki ishining yakuni bo'lib, bu jarayonda tashqi ta'sirlar qayta ishlanadi va o'zlashtiriladi.


Odamning rivojlanishi – bu miqdor va sifat o'zgarishi, eski ning yo'q bo'lishi va yangining vujudga kelishi jarayoni bo'lib, uning manbayi va harakatlantiruvchi kuchlari shaxsning ham tabiiy, ham ijtimoiy tomonlarining ziddiyatli o'zaro aloqasida yashiringandir.

Odamning tabiiy tomoni uning butun umri davomida rivojlanadi va o'zgaradi. Bu rivojlanish va o'zgarishlar yosh xususiyatiga ega bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanish manbayi shaxs bilan jamiyatning ziddiyatli o'zaro aloqasida yashiringandir.

Maktabgacha pedagogika fani bu ziddiyatli o'zaro aloqani ochib tashlaydi va ulardan shaxsni shakllantirish uchun foydalanadi. Jumladan, bolaning odamlar hayotida ishtirok etish ehtiyoji bilan u intilishni amalga oshirish imkoniyatlari o'rtaсидаги зиддият фолият сифатида о'йнинг вујудга келиши ва ривожланишга hamda bolalardagi o'yin faoliyatida ijtimoiy xulq-atvor shakllari, ijtimoiy munosabatlar va hokazolarning shakllanishiga olib keladi.

### **Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar**

Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro'y beradi, inson tarbiyasi uning xalq baxt-saodati yo'lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy vazifalarini hal etishda namoyon bo'ladi.



Maktabgacha pedagogika tarbiyani yetakchi omil deb qaraydi, chunki bu to'plangan ijtimoiy tajribani yetkazish uchun yosh avlodga ta'sir ko'rsatishning maxsus uyuştirilgan sistemasidir. U oilada, bolalar bog'chasida, maktabda, mehnat ja-moalarida amalga oshirilib, turmushni, faoliyatni, muomalani tashkil etishga qaratilgandir.

Shaxsni shakllantirishga muhit (ijtimoiy va tabiiy muhit) katta ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi.

Tabiiy muhit (iqlim sharoitlari, o'simliklar, hayvonot dunyosining ahvoli) ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat tabiiy boyliklarni muhofaza qilib va ko'paytirib, kishilarni hayvonlarni, o'simliklarni, suv havzalarini va hokazolarni muhofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqotda bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o'z navbatida odamga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy, yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq.

Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqelik, hodisalar majmui tushuniladi. "Muhit" tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikro muhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi.

Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks etiradi. Ayni chog'da u nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlaniruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinish rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa yo'q bo'lishi yoki "mudroq"ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga ta'siri roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy voqeja va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ta'kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi, deya ta'kidlaydilar.

Oila muhiti - mikro muhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois, mustaqillikka erishilgandan so'ng o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmogda. Shu maqsad-da tashkil etilgan "Oila" ilmiy markazi oilaning bu boradagi im-koniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bor-moqda.

Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta'siri ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu ta'sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalgalashiriladi.

Tarbiya - biror maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u muayyan darajadagi dastur g'oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar tomonidan tashkil etiladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orgali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda ta'sir qiladi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy ta'sirlarning kuchini ma'lum darajada kamaytiradi. Muhitning ta'siri stixiyali, tarbiyaning ta'siri esa maqsadga muvofiq olib boriladi.

Irsiyat - bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xhashliklarning naslga (bolaga) o'tish jarayonidir.

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, modda almashinuvi tipini, asab sistemasi tipi va qayishqoqligini (bular uning atrof-muhit ta'siriga beriluvchan qilib qo'yadi), asab reaksiyalari jo'shqinligi va tezligini meros qilib oladilar. Asosiy shartsiz reflekslar ham, xilmay-xil faoliyat turlariga qobiliyatning alohida anatomik-fiziologik asoslari – qobiliyat nishonalari ham meros bo'ladi. Irsiyat qonunlari to'g'risidagi fan – genetika odamlarda yuzlab turli qibiliyat nishonalari – mutlaq eshitish, favqulodda ko'rish xotirasi, g'oyat tez ta'sirlanishdan tortib nodir matematik va badiiy iste'dodgacha mavjud bo'lishini nazarda tutadi.

Nasldan-naslga o'tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

Anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko'zlarning rangi. Shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal holatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlari ham nasldan-naslga o'tadi. Iste'dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat va ijod turiga yo'naltirilgan emas. Iste'dod alomatlari muayyan faoliyatga moyillikni aks ettiradi, xolos.

Ma'lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste'dod nishonasi aks etganda, aynan ana shu iste'dodning shakllanishida muhim rol o'ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega oila muhitini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning ro'yobga chikishi va rivojlanishi uchun manba bo'lgan layoqat bilan tug'iladi. Layoqat go'yo "mudroq" holatda bo'lib, uning "uyg'onishi" - rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishni talab qiladi.

### **Bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli**

Tarbiya – inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya – aniq maqsadlarni ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobjiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

1. Tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi.

2. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunqlar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish mumkin.

#### 4. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixi tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Natijada bola o'zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi.

Bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish tajribasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo'lgan insoniy tajribani o'zlashtirishi kerak, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o'zlashtirish usullarini hali egallamagan bo'ladi. Tarbiya va ta'lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo'lgan mazmunni tanzaydi, uning o'zlashtirishiga rahbarlik qiladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo'shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o'zi doimiy bo'lib qolmaydi. U o'zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o'zgaradi, o'sayotgan odam shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora xilma-xil bo'lib boradi. Tarbiyaning o'zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L. S. Vigotskiy) bilan bog'liq bo'lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o'zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o'zlashtirish; ancha miqdordagi tasavvurlarga ega bo'lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o'zlashtirish; buyum asosidagi o'yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va hokazo). Tarbiya va ta'lim «eng yaqin rivojlanish zonasasi»ga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg'a harakatlantiradi.

Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichlardan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqori-

roq, bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko'zi ojiz va kar bolalar uchun mo'ljallangan jamoat muassasalarida ayniqsa, aniq namoyon bo'ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi. Biroq, tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi, uning biror tomonining ruhiy rivojlanishini sun'iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun Maktabgacha ta'lim pedagogikasida bola shaxsini har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, uning rivojlanishini boyitish maqsadi o'rtaqa qo'yiladi (A. V. Zaporojes).

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab shunday yozgan edi:

«Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarzdordir»<sup>5</sup>.

### **Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatlarning roli**

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan

<sup>5</sup> Makarenko A.S. Xudojestvennaya literatura o vospitanii detey // Ped. soch. M., 1986.

bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Faoliyat – kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasidir.

Faoliyat – insonni belgilangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishishdir. Faoliyat – bir narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayoni)<sup>6</sup>.

Bolaning faoliyatdagi faol mavqeyi uni faqat tarbiya obyektiiga emas, shu bilan birga tarbiya subyektiga ham aylantirdi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlanishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzuyi, vositalari, buyumlar bilan amalgamoshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdag'i odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallahdagi muvaffaqiyat oiladagi, bolalar bog'chasidagi tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdag'i bolaning kattalar bilan muomalasining (hissiy va hissiy-predmetli muomalasining) eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlaniradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi,

<sup>6</sup> «Pedagogika» fanidan izohli lug'at. –T.: 2010. 534-535 betlar.

uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi. Hayotning dastlabki yillarda kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq tadqiqot faoliyatni bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo'l bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyoja aylanadi.

Buyumlar bilan bog'liq faoliyatni tashkil etish oilada ham, maktabgacha ta'lim muassasasida ham bir va ikki yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va xulq-atvor sabablar rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to'g'risida dastlabki bilmirlarni o'zlashtiradilar.

Bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'liq faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uysushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o'zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o'z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo'la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari xulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo'ladi.

Ilk yoshdagagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xohishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Maktabgacha ta'lim yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faoliyatida maktabgacha yoshdagagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullari-

ni, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlanini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin xayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishinga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiyligi natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3-4 yoshda ta'lif paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar hayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lif berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishi ga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqeyi o'z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'zgacha nuqtayi nazardan maktab o'quvchisi nuqtayi nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-atvoriga va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy tarixiy tabiatini har bir yosh avlodga obyektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimlarda, san'atda, axloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiatini ana shunday shakllanadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg'otib, yangi xulq-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagina kutilgan natijalarga erishadi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **2-3 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari**

Bu davr o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o'zgalar tomonidan aytilgan so'zlarni tushunish qobiliyatları jadal rivojlangan bo'lsa, 2-3 yoshga kelib, o'zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez berildi.

Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda katta-larga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilmog'i lozim.

### **3-4 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari**

Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg., bo'yи 90-95 sm. ga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z xatti-harakatlari ni idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin assosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyatni yet-akchi rol o'ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochadigan ta'limiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yo'naltirilgan.

### **4-5 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari**

Bola to'rt yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashadi, bu davr mobaynida bo'yи 105-108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyatni takomil-

lashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbiriga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlanadirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

### **5-6 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari**

Bu davrda bolaning bo'yi 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tu-fayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustah-kamlanmagan bo'ladi. Olti yoshga yetganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlari ni to'la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qi-

lish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

### **6-7 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari**

Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'yи 120 sm ga yetadi, og'irligi 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigiyenik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyоq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. O'qituvchining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan mакtablar hamda bu bolalarni o'qitadigan o'qituвilar pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kirishilishi kerak.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

**Obyekt** – tadqiq etilishi lozim bo’lgan narsa va hodisalaridan iborat bo’lib, ular o’ziga o’xhash narsa va hodisalardan alohidaligi bilan farq qiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Rivojlanishning asosiy mazmuni nima?
2. Shaxsning rivojlanishi uchun zarur omillar qaysilar?
3. Bola shaxsini rivojlanadirishda tarbiyaning mohiyati nima da?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yosh xususiyatlarini izohlang.
5. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishini asoslab bering.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Bolalar hayotining kun tartibiga nimalar kiradi?
  - a) uyqu, ovqatlanish
  - b) bedor yurish, uqlash, ovqatlanish, faoliyat turlarining almashib turishi
  - v) jismoniy mashqlar
  - g) ovqatlanish
2. Bolalarni rivojlanishi va muktabga tayyorlash davrini necha bosqichga bo’lamiz?
  - a) 5ta
  - b) 6ta
  - v) 4ta
  - g) 3ta

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda qaysi faoliyat turlaridan foydalaniadi?

- a) o'yin, mehnat, o'quv, muloqot, sport
- b) sayr orqali
- v) ekskursiya orqali
- g) mashg'ulot orqali

4. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?

- a) ijtimoiy muhit
- b) irsiyat
- v) irsiyat, muhit, tarbiya
- g) biogenetik omillar

5. O'yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolalarning qanday faolligi rivojlanadi?

- a) ta'sirchanlik faoliyati
- b) ijtimoiy bilish faolligi
- v) mustaqilligi
- g) muloqot faolligi

## V BOB. JISMONIY TARBIYA

### Jismoniy tarbiya nazariyasi

Mashhur yunon donishmandi Aflatun baxt haqida zikr etib: «Inson uchun birinchi baxt uning sog'lig'i, ikkinchisi - go'zallikdir» degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbayidir. Nasl-nasabi sog'lom va ma'naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog'lom, baquvvat, iyomon-e'tiqodli va sadoqatli bo'ladiki, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo'r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt saodati uchun sog'lom avlod kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino «Badan tarbiya - sog'likni saqlashda ulug'vor usuldir» deydiki, bu fikr «Kimki qilsa harakat - sog'ligida barakat» degan naqlni eslatadi.

Qadimda xalqimiz badan tarbiyani riyozat deb atashgan. Ibn Sino «Tibbiy doston» asarida riyozat - badan tarbiyasi haqida to'xtalib, uning bir necha xillari bo'lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o'rtacha shug'ullanish sog'liqqa foydali ekanligini, jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xulqlarning yig'ilishiga sabab bo'lishini alohida uqtirib o'tadi.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlilikka foydasi cheksizligini D.Adisson shunday ta'riflaydi: «Mutolaa aql uchun qancha zarur bo'lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur». Suqrot hakim esa bunday deydi: «Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to'g'rilab olaman».

Sog'lom avlodni tarbiyalashga yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hayotiy o'ringa ega bo'lgan ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonian baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2000-yil «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilindi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - barchamizning tayanchimiz va suyanchig'imiz bo'lgan farzandlarimizni har ji-

hatdan sog'lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iborat edi. Ana shu ezgu maqsadlarga erishish, bu sohadagi ishlarni qat'iy reja asosida amalga oshirish uchun maxsus Davlat dasturi qabul qilingan edi. Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sportning nechog'li ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ayon. Yurtimizda 2000-yildan boshlab o'tkazilayotgan «Algomish o'yinlari», «Umid nihollari», «Universiada», «Sog'lomjon, polvonjon», «Barkamol avlod» musobaqalari fikrimiz dalilidir. «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasining tashkil qilinishi o'sib kelayotgan avlod salomatligini saqlash va mustahkamlash ishlariga jahon ja-moatchiligi e'tiborini jalg qildi.

Jismoniy tarbiya to'g'risidagi ta'lilot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta'rif berilganda, «Badan tarbiya», «jismoniy madaniyat», «jismoniy kamolot», «jismoniy rivojlanish» degan asosiy tushunchalardan foydalaniлади.

«Jismoniy madaniyat» tushunchasi quyidagilardan iborat: 1) mehnat va turmushdagi ko'nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigiyenik rejingga doir odatlarni (faoliyat va dam olishning oqilona tartibi, uyqu, ovqatlanish gigiyenasi va hokazolar)ni; 2) tabiatning tabiiy sharoitlarida organizmni chiniqtirish (havo, quyosh va suv)ni; 3) jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o'zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Tor ma'noda bu antropometrik va biometrik ko'rsatkichlar: bo'y, tana og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pka sig'imi, qaddi - qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot qonunlari – muhit va organizmning birligi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga muntazam ravishda o'tishga muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan jismoniy tarbiya metodlarini o'zgartirib, organizmning funksional imkoniyatlari darajasini ancha oshi-

rish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zgartirish mumkin.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'lig'ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to'la ma'nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigiyenik malakalarni shakllantirish, batar-tib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan.

Bolaga ta'lif – tarbiya berishda amalga oshiriladigan har qanday ishning muvaffaqiyatli bajarilishi bolaning sog'lig'iga bog'liq. Shuning uchun ko'pchilik pedagogik ishlar bolaning jismoniy imkoniyati va sog'lig'ini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi.

Bolaning jismoniy rivojlanishi uning har tomonlama uyg'un rivojlangan inson bo'lib o'sishida muhim ahamiyatga ega.

Sog'lom, jismonan baquvvat bolaning ish qobiliyati ham yuqori bo'ladi, sharoitga oson moslashadi, har xil topshiriqlar ni osonlik bilan tez bajaradi.

In kindergarten, children begin to learn the value of physical activity. They should practice fitness while learning new movements and working to develop key social skills, including good sportsmanship. As physical education specialist Amy Kaiser explains, "There are skills to learn and games to play. Nothing can be accomplished unless the child feels safe enough to try something new." Children should learn the importance of teamwork, as well. "Good sportsmanship in kindergarten is as simple and important as taking turns and recognizing others during a game," says Kaiser. "Children at this age learn to work in pairs and small groups and can learn to appreciate others," she adds

Maktabgacha ta'lif muassasasida bolalar jismoniy faoliyat haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Bolalarga amaliy jismoniy mashqlar asosiy ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yangi sport va harakatlarni o'rgatish kerak. Jismoniy ta'lif mutaxassisini Amy Kaiser shunday deydi: "Talim olishning asosiy negizi bu o'yinlar o'ynashdir. Bola jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish jarayonida o'zini xavfsiz his qilmas ekan, u hech bir yangi ishni


o'rganishga qo'l urmaydi". Bolalar, shuningdek, jamoaviy ishlashga o'rganishi kerak. Sportga ishqibozlik mактабгача та'limda oddiy bir o'yin ichida ham zarur bo'lган eng asosiy negiz hisobланади deydi Amy Kaiser. Bolalar ushbu yoshida juft va kichik guruhlarga bo'linib o'ynashni va boshqalarni baholay olishni o'rganadi deb qo'shimcha qiladi Kaiser.

BSc Computer Science Go to [hw.ac.uk/dubai](http://hw.ac.uk/dubai) Amy Kaiser 2015

### **Mактабгача yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari**

Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar maj-mui o'rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta'limoti tashkil etadi.

Mактабгача ta'lim yoshidagi bolalar organizmining o'ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o'sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi, shunga ko'ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilari birinchi darajali vazifalar hisobланади:



Sog'lomlashtiruvchi vazifalar. Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg'un rivoj-lantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta'sirlarga chidamliligini kuchaytirish, uzoq umr ko'rishini ta'minlash.

Ta'limiylar vazifalar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga xos bo'lgan o'ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o'zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta'limiylar vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko'nikma va malakalarini shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko'z bilan chandalash)ni o'stirish, to'g'ri qaddi – qomat, gigiye-na ko'nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirish.

Boladagi harakat ko'nikmalari (emaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va h.k) nisbatan yengil shakllanadi va ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chanada uchayotib qor, shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Jismoniy mashqlar, gigiyena malakalarini egal-lash bilan bog'liq bo'lgan dastlabki bilimlar shakllantiriladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga mashg'ulotlarning foydasi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o'tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o'yinlar va hokazolar haqidagi tushuncha va bilimlarni berish muhimdir.

Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yo'nalishini (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, chapga), to'la aylanish, fizkultura asboblarining nomi va qay maqsadda ishlatalishi, ularni asrash va tutish, kiyim – kechak va poyabzalga qarash qoidasini bilishlari kerak.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida bolada tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Tarbiyaviy vazifalar. Bolalarda sport mashg'ulotlariga muhabbatni, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim.

Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, ko'ngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylilik, o'rtoqlik hissi, o'zaro yordam), jamoada shug'ullanish malakasi, fizkultura asboblarini ehtiyoj qilish, topshiriqni mas'uliyat bilan ba-

jarishlarini tarbiyalash, shuningdek, irodaviy fazilatlar (botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalar)ni namoyish qilish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh xususiyatlari hisobga olindи. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdag'i bola organizmining o'ziga xos xususiyatidir.

Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdag'i bola juda nozik bo'ladi. Shu munosabat bilan quyidagi sog'lomlashtirish vazifalari birinchi o'ringa qo'yiladi:

1) hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit ta'siriga qarshiligini oshirish;

2) organizmning barcha sistemalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, to'g'ri qaddi - qomatni uyg'un jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmining nomukammalligi, nozikligi bilan birga unga qudratli rivojlanishni ta'minlovchi xususiyatlar ham xosdir. Bu barcha to'qimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, modda almashinuvি jarayonlarining jadalligidir. Uning juda katta moslashish imkoniyatlari shuning natijasidir. Bola sharoitlarning o'zgarishiga, jismoniy zo'riqishga kattalariga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U o'ziga tushunarli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga idroki baland bo'ladi, bu esa bir qancha ta'limiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

1) jismoniy masbqlar bilan shug'ullanish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'ziashtirish bilan bog'liq bilimlarni dastlabki shakllantirish

2) kelgusida sport bilan shug'ullanish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hayotiy zarur harakatlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish

3) shaxsiy va ijtimoiy gigiyena ko'nikmalarni singdirish

Jismoniy mashqlar bolalarning to'laqonli aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma'naviy-irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, qat'iyat va boshqalarni) rivojlantiradi.

### **Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari**

**Rejim (kun tartibi).** Bolalar hayotining rejimi (tartibi) – bu bedor yurish, uqlash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchillikda takrorlanib, oqilona almashinib turishidir. Tartib rivojlanish uchun qulay sharoit ta'minlashi kerak, shuning uchun u bolaning yoshi, uning salomatligi, kattalar mehnatining xususiyatlari, bola tarbiyalanayotgan oila turmushi va muassasaga bog'liq tarzda o'zgaradi.

Muayyan vaqt ichida tartibning asosiy tarkibiy qismlari bir maromda va doimiy bo'lishi uning ajralmas xususiyatlaridir.

Tartibning bir maromdaligi tabiat hodisalarining maromi, organizm faoliyatining maromiga asoslanadi. Bu bedor yurish va uqlashning, tana haroratining o'zgarishi, nafas olish, yurak urishining qisqarish maromida, ovqat hazm qilish traktining ish maromida namoyon bo'ladi va hokazo.

**Oqilona tartib:** 1) bedor yurish va uqlashning eng maqbul nisbati asosida quriladi, bu vaqtida boshmiya qobig'i uchastkali o'rtaqidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingan axborot qayta ishlanadi; 2) aqliy va jismoniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish maromini hisobga olish asosida quriladi.

Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida, shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Tartibni tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlarini.
2. Ovqat hazm qilish sistemasi ishidagi yosh xususiyatlarini.
3. Alovida xususiyatlar: asabiy bolalar va asab tizimi zaif bo'lgan bolalar ko'proq uqlashlari kerak.
4. Harakatga bo'lgan yosh ehtiyojlari: bir kecha kunduzdag'i harakat miqdori 3 yoshli bolalarda 10-19 ming qadamni, 7 yoshli bolalarda 14-25 ming qadamni tashkil qiladi.

5.Yil fasli, iqlim sharoitlarini, bolalarni uyqusini tashkil etishni hisobga olish lozim.

Gigiyenik sharoitlar. Bizning jamiyatda jismoniy tarbiya davlatning ona va bola to'g'risidagi g'amxo'rligiga, mehnatkashlar yashash sharoitlarining doimo yaxshilanib borishi, moddiy farovonligining o'sishiga asoslanadi.

Bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun gigiyenik sharoit (bino, maydoncha, jihozlar, kiyim – bosh, poyabzal) yaratish, bolalar hayotining ilmiy asoslangan rejimini (bular oqilonna ovqatlanish, harakatlarni rivojlantirish va organizmni chiniqtirish tadbirlarini o'z ichiga oladi) albatta, bo'lishi zarur. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining doimiy nazorati, zaruviy profilaktik va davolash ishlarini olib borishi talab etiladi.

Bog'chada har bir guruuh uchun xonalar ajratiladi. Guruuh xonalari bolalarning erkin harakat qila olishi va sof havo bilan nafas olish imkonini beradigan darajada katta, yorug', quruq va issiq, derazalari janubi – sharqqa qaragan bo'lishi kerak.

Guruuh xonasining balandligi 3 – 3,5 m bo'lib, har bir bolaga bino sathidan 2,5 kv. m joy, taxminan 8 kub m havo to'g'ri kelishi; xona bezagi gigiyenaga xos, tez toza bo'ladigan, yoqimli, yumshoq rangda bo'lishi kerak. Guruhda tartib bo'lishiga rioya qilish zarur. Xonada yorug'likni to'sadigan og'ir va qalin pardalar, gilamlar, yumshoq mebellar, umuman ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak. Hamma jihozlar ta'lim – tarbiya talabiga, bolalarning bo'yи va gavda tuzilishiga mos bo'lishi va maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan qo'yilgan maxsus normaga javob berishi lozim.

Bolalarning stol-stullari ancha mustahkam va yengil tuzilishi, sodda hamda oson yuviladigan bo'lishi kerak. Stollar yorug'lik chap tomonidan tushadigan qilib joylashtirilishi lozim. O'yinchoq va ko'rgazmali qurollar ham gigiyenik taablarga javob beradigan, pishiq, zararsiz rangda, tashqi ko'rinishi silliq bo'lishi kerak.

Tarbiyachi o'z guruhining gigiyenik sharoiti uchun javobgardir. Xonani bolalar sayrga, musiqa mashg'ulotiga chiqib

ketgandan keyin shamollatish, deraza fortokhkalari esa yil fasllaridan qat'iy nazar doimo ochiq bo'lishi kerak.

Bog'cha maydonchasi. Har bir yosh guruhi uchun butalar bilan ajratilgan alohida maydoncha bo'lishi kerak. Maydonchada bolalarning harakatlarini rivojlantirish uchun joy (tekis maydoncha), qum, suv, qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar uchun joy, ijodiy o'yinlar va turli o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar uchun joy ajratiladi. Maydonchada harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar: tirmashib chiqish uchun devorchalar (uch, to'rt va olti burchakli), muvozanat saqlash mashqlari uchun xoda, tepalik, sakrash, uloqtirish mashqlari uchun kerakli jihozlar bo'lishi kerak. Bularning hammasi bolalarning yoshi va kuchiga mos, pishiq, mustahkam, chiroyli bo'lishi zarur. Bog'cha maydonchasida bolalarning velosipedda yurishlari uchun yo'laklar bo'lishi kerak.

Yomg'ir va quyoshdan saqlanish uchun yopiq ayvonlar bo'ladi. Maydoncha har doim ozoda, tartibli bo'lishi zarur. Bog'cha maydonchasi skameykalar, o'ynash uchun zarur bo'lgan o'yinchoqlar, qum yashiklari, har xil kema, samolyot maketlari, narvonchalar bilan jihozlangan bo'ladi.

Qishki vaqtarda qor tepalikcha, yaxlatilgan yo'lchalar, qor inshootlari qurish lozim.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o'tishi kerak. Bola stol atrofiga yaxshi ishtaha bilan o'tirsa, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil bo'ladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillikni, madaniy-gigiyenik malakalarni, stol atrofida o'zini to'g'ri tutib o'tirish malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhim - bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Ba'zi bolalar keragidan ortiq, ba'zilari keragidan kam ovqat yeyishlari mumkin. Shuning uchun bolaga ovqat normasnni ularning yoshiga qarab berish kerak. Ammo bolani taomni oxirigacha yeyishga majbur etish kerak emas, majbur etish har doim ovqatdan ol-

adigan lazzatlanishni kamaytiradi, uni hazm qilishni qiyin-lashtiradi, ba'zan bola ovqatdan butunlay voz kechishi mumkin. Bolaning to'g'ri ovqatlanayotganining asosiy mezoni uning jismoniy jihatdan uyg'un rivojlanganligidir.

Bolalarni ilk yoshligidan boshlab ovqatni mustaqil yeish-ga o'rgatish ularda ovqatni ishtaha bilan yeishga, ovqatga ijobiy munosabatni uyg'otishga yordam beradi. Ikkinchisi yoshning boshidan qoshiqdan foydalanishga o'rgatish, to'rtinchisi yoshdan sanchqidan, beshinchisi yoshda pichoqdan foydalanish malakalarini tarbiyalab borish zarur. Bundan tashqari, bolalarda ovqat yeishdan oldin qo'lini yuvish, tartibli yeb-ichish, chapillatma, tovushsiz chaynash va ichish, salfetkadan foydalanish, to'g'ri o'tirish, ovqat uchun tashakkur bildirish, ovqatdan keyin og'izni chayqash kabi madaniy-gigiyenik malakalar ham tarbiyalab boriladi.

Ovqatlanish vaqtida bolalarga tanbeh berish, ularni koyish yaramaydi. Bu bolalarning asabini buzadi, ishtahasini bo'g'adi. Bir bolaga berilgan tanbeh boshqa bolalarning diqqatini tortmasligi lozim. Ovqatni yaxshi yeya olmaydigan bolalarga tarbiyachi yoki enaga yordam beradi.

Bolalarda ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash kattalardan ijobiy namuna ko'rsatishni talab etadi. Madaniy-gigiyenik malakalarni qanday bajarayotganliklarini tarbiyachi nazorat qilib borishi, katta va tayyorlov yoshidagi bolalarda esa uning ahamiyatini, bajarish usulini ongli egallab olishlariga erishishi lozim.

Uyqu. Bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda uyqu muhim ahamiyatga egadir. Uyqu miya katta yarimsharlarining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan kuch-quvvatni tiklaydi.

Chuqr va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv sistemasining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to'ymasa nerv sistemasi faoliyatining buzilganidan dalolat beradi. Nerv sistemasi tez qo'zg'aluvchi bolalar aksariyat yomon uxlashadi. Bunday bolalarning' uyqu tormozlanishi chuqr normal uyquni ta'minlay

olmaydi. Shunda bunday bolalar kichkinagina, arzimagan sharnadan ham uyg'onib ketaveradi. Bola qanchalik yomon uxlasa, uning axloq normasi, o'zaro munosabati, muomalasi shuncha yomonlashadi, bunday holni biz injiqlik deb tushunamiz. Yaxshi uyqu bolaning sog'lomligidan darak beradi.

Bola yaxshi uxlashining asosiy sharti uning yoshiga mos bo'lgan sutkalik rejimni hayotining' birinchi kunidan boshlab to'g'ri tashkil etishidir. Bola tez va yaxshi uxlashi uchun kerakli shart-sharoit yaratish, uyg'oqlik vaqtida faollashtiruvchi har xil harakatlarni tashkil etish kerak.

Bola yaxshi uxlashining asosiy shartlaridan biri hayotining birinchi oyidan boshlab uni toza havoda uxlatishdir. Kislorodga to'yan qon butun organizmdagi nerv hujayralarining tiklanshiga yordam beradi. Toza havo bolaning nafas olishini yaxshilaydi, shamollahdan saqlaydi. Jismonan nimjon va 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalarni toza havoda uxlatish, sayr qildirish ni-hoyatda zarurdir.

Agar bola yaxshi uxlasa, tetik, quvnoq bo'lib uyg'onadi va hafsala bilan kiyina boshlaydi.

Bolalar kiyimi. Yozgi kiyim rangi ochiq, asosan, oq gazlamadan, qishki kiyim to'q rangli materialdan tikilishi lozim. Bolalarning kiyimi ularning yoshiga yarasha, yengil, qulay, qismaydigan, estetik didiga javob beradigan paxta matosidan tikilishi kerak.

Bolalarning oyoq kiyimi ham qulay, poshnasi 1, - 1,5 sm bo'lishi kerak. Vaqt-vaqt bilan bolalarga qishda binoning ichida, yozda maydonchada yalangoyoq, yurishga ruxsat berish kerak. Notekis joyda yalangoyoq yurish tovon yassiligini yo'qotadi, bola organizmini chiniqtiradi.

Sayr. Bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lishlari ularning sog'ligiga va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning ochiq havoda bo'lishi natijasida qon kislorodga to'yadi, temperaturaning o'zgarib turishi, havoning namligi, shamol ta'siri termoregulyatsion apparatni mashq

qildiradi, organizmni chiniqtiradi. Bolaning faolligi oshadi, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashadi.

O'tkaziladigan sayrning tashkiliy jihatlari, mazmuni va metodikasini tarbiyachilar puxta o'ylashlari lozim. Sayrga yig'ilish ko'p vaqt ni olmasligi, buning uchun bolalarni bir tartibda kiyinish va yechinishga o'rgatish kerak. Sayr rejasiga atrof hayotni kuzatish, sport mashg'ulotlari, mehnat faoliyati, o'yinlar kiradi. Bolalarning turli faoliyatlarini tashkil etish uchun bolalar maydonchasi pedagogik talabga javob beradigan qilib jihozlangan bo'lishi kerak. Har bir guruh maydonchasida turli o'yinlar o'tkazish uchun qurilish materiallari, qum, suv, turli o'yinchoqlar, sirpanish uchun tepaliklar, muz maydonchasi, tirmashib chiqish, muvozanat saqlash, sakrash uchun moslamalar o'rnatilgan bo'lishi kerak.


Velosiped uchish uchun yo'l bo'lishi kerak. Bolalar 3-4 soat ochiq havoda vaqt o'tkazishlari lozim. Faqat qattiq yomg'irda, kuchli shamolda, sovuq – 25° dan oshganda sayrga chiqish kerak emas.

Harakatli o'yinlarni o'tkazish muddati mashg'ulotning mazmuniga bog'liq. Hatto 15-20 daqiqalik sayrlar ham yaxshi hissiy, jismoniy madad beradi. Tarbiyachi bolalarning bir vaziyatda turib qolmasliklariga e'tibor berib turishi lozim. Harakatli o'yinlarni tinchroq o'yinlar bilan almashtirib turish kerak. Kichik guruh bolalari bilan haftasiga bir marta, katta guruh bolalari bilan haftasiga 2 marta ekskursiya uyushtiriladi. Bunda bolalar kattalarning mehnatini, kishilarning hayotini kuzatadilar.

Chiniqtirish. Chiniqtirish deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta'sirlar (harorat, namlik, quyosh nuri darajasining o'zgarishi)ga eng ko'p chidamliligi, moslashishini tarbiyalash tushuniladi.

Bolada faqat harorat, iqlim o'zgarishlariga tez ta'sir bildirishgina tarkib topmasdan shu bilan birga gemoglobin miqdori oshadi, ularning immun tizimi yaxshilanadi. Bolalar

turli kasalliklarga kamroq chalinadilar va ularni organizmlari kasalliklarni tezda yengadi.



Kundalik hayotda chiniqtirish tadbirlarini jismoniy mashqlar, bolaning xilma-xil faoliyati bilan bog'liq holda olib borish chiniqtirish uchun ham, organizmni mustahkamlash uchun ham yaxshi natija beradi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga badanni ozoda tutishga, to'g'ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy munosabatlariga doir ko'nikmalar kiradi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada harakatlar va topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.
2. O'zlashtirilayotgan madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni qat'iy belgilangan tartibda bir vaqtda bajarishga o'rgatish.
3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.
4. Bolalarning madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlash-tirishlarini nazorat qilib borish.

5. Bolalarning kattalarning barcha gigiyenik va madaniy tablalarini so'zsiz bajarishga o'rgatish.

Jismoniy mashqlar va massajdan foydalanish. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus harakatlar, harakat faoliyatining murakkab turlari- dir. Jismoniy mashqlar organizmga ko'p qirrali fiziologik ta'sir ko'rsatadi. U modda almashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi.

Massaj. Kichik bolalarni tarbiyalashda passiv gimnastika turlaridan biri – massaj (uqalash) qo'llaniladi. Uqalash ta'sirida qon tarkibi, asab tizimi vazifalari, shuningdek ter va muskul- larning oziqlanishi yaxshilanadi, issiqlik chikishi ko'payadi, muskullarning charchashi yo'qoladi.

Bolalar bog'chasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rinn beriladi. Vaqtdan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va qo'llanmalarni oldindan tanlab qo'yishi, bolalarni bajarish ko'nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun keng im- koniyatlar beradi. Sayr chog'ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar ku- zatiladi, bolalarning mehnat va o'yin faoliyati, sport mashqlari uyuştiriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lган bolalarning ovqatlanishi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida butun ovqatlanishni tashkil etish bolalarda taomni yeyishga ijobiy munosabatni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Muayyan vaqtida, 3,5-4 soat oraliq'ida bolalarga mazali tayyorlangan, chirolyi tashqi ko'rinishga ega bo'lган taomlar beriladi. Ovqatlanish uchun zarur bo'lган hamma narsa oldindan tayyorlab qo'yiladi, chun- ki kutish ishtahani pasaytiradi, asab tizimini qo'zg'atadi. Stolni enaganing o'zi bezaydi, o'rta guruhdan boshlab esa bu ishda navbatchi bolalar faol ishtirot etadilar. Navbatchilikning tartibi va harakatlarning xususiyatlari tarbiyachi tomonidan pux- ta o'ylanadi va bolalar aniq ketma-ketlikda tushuntiriladi. Normal ovqatlanish jarayoni uchun osoyishta vaziyat katta ahami- yatga ega.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash. Butun maktabgacha yosh davomida madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan katta ishlar olib boriladi. Harakatlar muvofiqligini rivojlantirishdagi fikrlashdagi ro'y bergan katta siljishlar bolalarning o'ziga-o'zi xizmat qilishi, navbatchilik, jamoadagi muloqot davrida zarur bo'lgan xilma-xil harakatlarni uddalashi uchun imkon beradi.

4 yoshga qadam qo'ygan bolalar qo'llarini to'g'ri yuvishni (qo'llarni bir-biriga ishqab sovun surish, sovunni yuvib tashlash va har bir barmoqni artish)ni, tish yuvishni (dastlab oddiy xo'l cho'tka bilan, 4 yoshdan boshlab poroshok bilan), ovqatdan keyin og'izni chayqashni, dastro'molchadan foydalanishni, stol atrofida o'zini madaniy tutish qoidalariga rioya etishni (qoshiqdan, sanchqidan foydalanishni, ovqatni to'kmaslikni) bilishi kerak. Bolalar o'yinchoqlarga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, ozodalik va tartib saqlashni o'rganadilar.

5 yoshga qadam qo'ygan bolalar ancha mustaqil bo'lib qoladilar, ular endi sovun bilan yuzlarini, bo'yinlarini, qulqlarini yuva oladilar, ancha puxtalik bilan kiyina oladilar, har bir harakatni bajarish tartibini biladilar, bir-birlarining tashqi ko'rinishlaridagi yoki atrofdagi nuqsonlarni sezaga boshlaydilar.

6-7 yoshli bolalar o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga doir barcha harakatlarni ancha tezroq va aniqroq bajara oladilar. Ular tez, toza, kiyimlarini, polni ho'l qilmasdan yuvina olishlari, puxta va tez kiyina olishlari, o'z tashqi ko'rinishlarini kuzatib borishlari kerak. Ovqatlanish ko'nikmalariga katta talablar qo'yiladi: bolalar sanchqi, pichoqdan to'g'ri foydalanadilar, tartibli ovqat yeydilar. O'yin burchaklarini yig'ishtirish, navbatchilik turlari majburiyatlari va ko'nikmalari doirasi kengayadi, navbatchilarning vazifalari murakkablashadi.

Madaniy gigiyenik ko'nikmalarni muntazam mustahkmalab borish kerak. Tarbiyaviy ishlar tizimining o'zgarishi, mala-kalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga e'tiborning yo'qligi ularning tezda yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun jismoniy mashqlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda jismoniy mashqlar katta o'rinni tutadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar tarbiyachi rahbarligida va mustaqil ravishda asosiy harakatlarni, sport mashqlarni egallagan, xilma-xil harakatli o'yinlarni o'ynashni o'rgangan bo'lishlari kerak. Bu keng dastur ishning xilma-xil vositalari va shakllaridan foydalangandagina bajarilishi mumkin.

Har kuni bolalar bir necha bor jismoniy mashqlarni bajaradilar: ertalab gigiyenik gimnastika shaklida; haftasiga ikki marta jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortishlar, umumi rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o'yinlar kiradi. O'rta va katta yoshdagi bolalar bilan o'tirib bajariladigan mashqlardan jismoniy tarbiya daqiqalari, mashg'ulotlar orasida jismoniy tarbiya tanaffuslari o'tkaziladi. Sayr chog'ida sport mashqlari, harakatli o'yinlar uyushtiriladi, bolalarning kichik guruhlari bilan ish olib boriladi. Kunduzgi uyqidan keyin saf tortishlar, qayta saf tortishlar, raqs harakatlari, maroqli mashqlar bajarilib, ular chiniqtirish tadbirlari bilan qo'shib o'tkaziladi. Sayr chog'ida va xonada bolalarning turli qo'llanmalar va motorli o'yinchoqlar bilan mustaqil o'yinlari uyushtiriladi.

Maktabgacha ta'lif bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o'ziga xos vositalaridan foydalaniлади: 1) harakatli o'yinlar o'tkazilib, ularga eng ko'p o'rinni beriladi; 2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari); 3) sport mashqlari (konkida uchish, chang'ida yurish, suzish, velosipedda uchish); 4) bolalar turizmi.

Ko'rsatilgan vositalardan uyg'un birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Iste'dod** – har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyat.

**Komil inson** – inson aqliy takomillashuvi bosqichlaridan biri.

**Jismoniy madaniyat** – bu insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqaruvchi uni tobora insoniylashtirib, ham jismoniy, ham ma'naviy chiniqtirib boruvchi jarayondir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Jismoniy tarbiyaning mazmuni.
2. Jismoniy tarbiyadagi asosiy tushunchalarining «jismoniy tarbiya», «jismoniy barkamollik», «badanttarbiya», «jismoniy rivojlanish» mazmunini oshib bering.
3. Ilk yoshdagи bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari.
4. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning jismoniy tarbiyalashning mazmunini oshib bering.
5. Rejim (kun tartibini) tashkil etish.
6. Turli yosh guruhlarida bolalarning ovqatlanishini tashkil etish.
7. Ilk yoshdagи bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash.
8. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash.
9. Jismoniy tarbiya vositalari.
10. Chiniqtirishning mohiyati va uni o'tkazish metodikasi.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. «Sog'lom avlod yili» deb qaysi yil e'lon qilindi?
  - a) 1998-y.
  - b) 1999-y.
  - v) 2000-y.
  - g) 2001-y.
2. «Sog'lom avlod dasturi» qachon qabul qilingan?
  - a) 1998-yil, 15-fevral
  - b) 2000-yil, 15-fevral

- v) 2001-yil, 1-iyun
- g) 2000-yil, 1-iyun

3. Jismoniy tarbiya vositalari qaysilar?

- a) bog'cha maydonchasi, bolalarning ovqatlanishi
- b) uyqu, bolalar kiyimi
- v) sayr, chiniqtirish
- g) hamma javoblar to'g'ri

4. Jismoniy madaniyat tushunchasi nima?

- a) Shaxsiy gigiyenaga rioya qilish
- b) Kun tartibiga rioya qilish
- v) Mehnat va turmushdagi batartiblik, ozodalik, chiniqtirish, jismoniy mashqlar
- g) Ovqatlantirish.

5. Maktabgacha yoshdagি bolalarga jismoniy tarbiya berishda qanday I darajali vazifalar mavjud?

- a) normal jismoniy rivojlanish
- b) harakat malakalari
- v) sog'lomlashtiruvchi, ta'limiy, tarbiyaviy
- g) jismoniy mashqlar

## **VI BOB. AQLIY TARBIYA**

### **Aqliy tarbiya haqida tushuncha**

Aql – keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy tarbiya – bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish. U yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi. Bu ta'sir kattalar tomonidan amaqla oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo'ladi. Ular aqliy faoliyatning jo'shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o'z ifodasini topadi.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik – bu donolik. Donolik insonning eng buyuk va oljanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», deyiladi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olim-u fozillar, shoir-u yozuvchilarning bar-chasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy,

J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borish barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, yani ta'limiy maqsadlar ham aniqlanib bordi.

Xitoyning Samarcanddagi elchisi Vey Sizning hisobotlari-da: «Samarqand aholisi mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar», - deb qayd qilingan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda «Tarbiya hayotning eng muhim tirdagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo, yaxshi o'qishni keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» deyilgan.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Aql ma'nolari to'g'risida», «Ilmlarning kelib chikishi» kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Farobiy ta'limning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni yetishtirishdan iborat deb biladi.

Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchilarga bilim berishda ularni zeriktirmaslik; uzviylik, izchillik, yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish va hokazolarga e'tibor berish kerakligini uqtiradi. Olim bilim oluvchilarga qalbni yomon o'zi sezishi mumkin bo'lмаган holatlardan, behuda raqobatdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini aytdi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning bиринчи меҳони саналган билим egallahsga da'vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lмаган kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni mактабда o'qitish zarur deb biladi. U ta'limda quyidagi talablarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilmaslik, ta'limda yengildan og'iriga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolaning yoshiga mos bo'lishi, o'qitishda jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, ta'lim berishda bola qiziqishini va qobiliyatini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish.

Abu Ali ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

Mushohada bilan idrok etishning bиринчи bosqichi aqliy kategoriylarini tushuntirishdir. Ikkinci bosqich. Ikki xil fikrni idrok etish. Uchinchi bosqich. O'zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqlni 3 bosqichga bo'lar ekan, bиринчи bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan.

Ikkinci bosqichda tayoqchalarini chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli tasavvur qilinadi.

Uchinchi bosqichda inson aql shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi.

Ibn Sino aql deganda insoning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

### **Aqlni ikki xil kategoriyaga bo'ladi:**

1. Nazariy aql – borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.

2. Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rindigan qobiliyatlardan.

O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmli bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni

ulug'laydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi.

Muallif o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab iplari uchini qo'llariga bergen insonlarning aqlidir».

Maktabgacha ta'lif yoshdagagi bolalarga ta'lif berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagagi bolalarga, ya'ni biz ta'lif-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lif dasturini tuzdi. Y.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta'lif-tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katta e'tibor bergen.

Children develop ideas and concepts at very young ages that help them make sense of their worlds. Learning is not the transfer of new information into an empty receptacle; it is the building of new understandings by the child on the foundation of existing understandings. Learning will be most effective when the child's preconceptions are engaged. Curricula can be evaluated on the extent to which they draw out and build on children's existing ideas.

Bolalar g'oyalari va konsepsiylarini o'z olami, o'z tasavvuri ichida tushunib juda erta yoshda rivojlantirib olishadi. O'quv jarayoni quruq yangilik yaratish emas, aksincha bor fundamentni rivojlantirish talqinidir. Agar kattalar yordamida o'quv mashqlari o'tkazilsa, o'qitish ancha samarali bo'ladi va

biografik jihatlarini bola nimaga qiziqishi bor ekanligini aniqlash uchun ular o'z tasavurida chizgan rasmlar yoki qurban narsalar yordamida bilib olish mumkin.

www.Preschool.Com (Eealy childhool) 2014

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka ko'nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bolalarni 6-7 yoshdan boshlab mакtabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularning maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo'lishini ta'minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi.

Aqliy kamolot – bu yoshning o'sib tajribaning boyib boriishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta'sirida bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usulalarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim yoshdagi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

## Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamон pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usul-larini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etishiga qarab belgilanadi.

Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalari ni samarali hal etishda birinchidan bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, ikkinchidan bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha zo'riqish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun Maktabgacha ta'lrim yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqi-qotlarning natijalari Maktabgacha ta'lrim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi Maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lrim yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egalab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo'lмаган tomonlarini ajrata oladigan ba'zi bir sabab natijali bog'lanishlarni bilib oladigan bo'lib qoladilar. Ularda o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllanadi. Shuning uchun bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo'lgan va muhim bo'limgan tomonlarini ajratishga o'rgatish lozim.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his qilib, diqqat bilan tomosha qilishni kuzatishda namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo'llab, Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik – fahm-farosatlilik, tanqidiy ko'z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng odidiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagи muhim va muhim bo'limgan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib

borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o'simliklar yoki hayvonlar to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar.

So'ngra bolalardagi aqliy-ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalshtirishi mumkin: «Paxta o'simligini, momaqaymoq o'simligi bilan solishtirish», «Qafas-dagi ikki xil qushni bir-biriga solishtirish» didaktik o'yini va shunga o'xshash tadbirlar o'tkazish. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlardidan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishga o'rgatish zarur.

Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday xohishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.


### Aqliy tarbiya vazifalari

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi.

Odamning aqliy faoliyati – bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lamdag'i aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa, muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi.

Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallahash aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta'minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo'shqinligini, hodisalarini xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko'ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o'rtaga qo'yish, uni hal etish usullarini tanlash, ish-

lab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalari ni baholash mahorati kiradi.



Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko'nikmalarini, kitob bilan ishlash ko'nikmalarini egal-

lash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordam-chi vositalardan foydalanish bilan ham bog'liqdir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligidagi ko'rish mumkin.

### **Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'limgarishning o'ziga xosligi**

Ta'limgarish – maktabgacha yoshdagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam rejali ravishda rivojlantirib borish, MTMning ta'limgarish-tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Maktabgacha ta'limgarishdagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'limgarish yetakchi rol o'ynaydi. Ta'limgarish jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'limgarish – bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'limgarish kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'limgarish jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. MTMda bolalarga madaniy – gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy axloqiy qoidalarini o'zlashtirib oladilar.

Ta'limgarish jarayonida bolalarda o'quv faoliyatlarini asoslari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limgarishni ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

**Ta'limdi amalga oshirish  
yo'llari:**

**Birinchi yo'l**

Bolalarni bilim, malaka, ko'nikmalarni kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir. Bu muomala mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi.

**Ikkinci yo'l**

Maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor bo'lib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lif berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashdirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Bolalarga ta'lif berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan, usullardan foydalanish:

Ko'rgazmali	Og'zaki	Amaliy	O'yin metodlari
Kuzatish	Tushunish	Mashq	Didaktik o'yinlar
Ko'rsatish	Hikoya qilish	Mustaqil ish	Harakatli o'yinlar
TV dan foydalanish	So'zlab berish	Oddiy tajriba	Mashqli o'yinlar
	O'qib berish		Insenirovkalar
	Suhbat		Kundalik axborot

Kuzatish metodi. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idrokla-

ri orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa asosan yangi bilim berishda qo'llaniladi.

Kuzatish – bolalarning narsa, voqealarning ma'lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Kuzatish metodi ma'lum obyektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi. Bu metod tarbiyachi bolalarga narsani o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Bu bevosita ko'rib bo'lmaydigan narsalar (boshqa tabiy zonadagi hayvonlar, o'simliklar, kishilar hayoti bilan) qo'llaniladi.

Hikoya qilib berish - materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilish. O'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib berish.

Suhbat metodi. 3-4 yoshli bolalar bilan o'tkazilmaydi. 4-5 yoshli bolalar bilan ham qisqa suhbat o'tkaziladi. 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

### **Mashg'ulot – maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli**

Mashg'ulot ta'lim muassasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etish shaklidir.

Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi.

Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga shuningdek, kun tartibida egallagan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasida ta'limning frontal (umumiyl), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniлади. Bundan tashqari, bolalarga ta'lif berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Mashg'ulot maktabgacha ta'lif yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'r'in va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni ja'b eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lif berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlnana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgaliddagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiyl zo'r berishning talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiyl raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg'ulotda ta'lif berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.


Bolalarni muktab ta'limga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yax-

shi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida hosil qilinadi.

Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga qulq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Mashg'ulotda tarbiya vazifalari hal etiladi. Mashg'ulot bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasi si ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va vaqtini belgilab qo'yilgan.

#### Mashg'ulot jadvalini tuzish talablari



Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik, xissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi.

MTMdA kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasav-

vurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

Ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagi kishilarning har bir bola bilan rejali surtda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daklar ixtiyoriy diqqat o'sib borgani sari, bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalari bilan bir yo'la olib boriladi.

Mashg'ulotlarda ta'lif berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg'ulotlarni kuning birinchi yarmida o'tkazish maqsadiga muvofiqliqdir, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi.

Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqiqa davom etishi MTM tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan.


Birinchi kichik guruhda mashg'ulot bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda o'tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo'ladi. Mashg'ulot jadvalini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriroq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki haf-taning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojlantirish, savodga o'rgatish va h.k). Jadval tuzganda bu mashg'ulotlarni birinchi

qo'yish kerak, bolalardan ko'p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi mashg'ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo'yildi.

Bolalar o'zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasi dasturi Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning (bular tabiatga muhabbat uyg'otadi, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishni nazarda tutadi: bilimlarni o'zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o'z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug' kishilarga muhabbat va hurmat, o'lkanning ijtimoiy hayotiga qiziqish paydo bo'ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijtimoiy hodisalar, voqealar to'g'risida, umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo'shni o'lkalardagi bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do'stligi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg'ulotlarning mazmunini belgilar ekan, ular u yoki bu mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog'lanishini o'ylab ko'radi. Masalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o'qituvchining mehnati haqidagi bilimlar xilma-xil mehnat turlari haqidagi ma'lumotlar sistemasining bir qismidir.

Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi bilimlar – ijtimoiy mehnatning jamoa xarakteri to'g'risidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy xarakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o'xshash ko'pdan ko'p mehnat turlari bilan tanishishi lozim. Mashg'ulot quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad – ularni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg'ulotlarga yangi obyektni kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruqlarida o'tkaziladi.



2. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotlar. Undan ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarining anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rgatishdir. Buning uchun tanish obyekt kuzatiladi, ikki narsa, solishtiriladi (xona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o'yinlar, suhbatlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotni o'tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o'zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar – detallar bilan boyitib boradi.

3. Bolalarning bilimini sinovchi mashg'ulotlar. Bunday mashg'ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va malakalarni o'zlashtirib oladilarmi-yo'qmi, shuni bilib oladi va o'zining bo'lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg'ulotning tarbiyachi o'z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o'tkazishi mumkin.

4. Kompleks mujassam mashg'ulotlar bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarni amalda qo'llashga o'rgatiladi. MTMda tasviriyl faoli-

yat, konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o'stirish, savod o'rgatish, eng od-diy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Mashg'ulotga to'g'ri tay-yorgarlik ko'rib, uyushgan holda o'tkazilganda bolalar oldiga ma'lum aqliy vazifa qo'yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyuşhtiradi va ularning diqqatini ma'lum to-monga yo'naltiradi. Eng avvalo, bolaning aqliy vazifani hal etish yo'lidagi qiyinchilikni yengish imkoniyati tug'iladi, nati-jada bolada faoliyatga qiziqish uyg'onib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o'laydi va vazifaning uddasidan chi-qish uchun fahm-farosatini ishga soladi.

Nusxa olish tarzidagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachi ko'rsatmasi va namunasiga qarab malaka va ko'nikmalarni o'rganadi. Bu bolalarni amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamni, mo'yqalamni, qaychini ushlashni, rasm chizish, narsa yasash, solishtirish, umumlashtirish, abstraktiyalashni o'rganadilar. Tarbiyachi bir narsaning takrorlanaverishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

**Mashg'ulotning tuzilishi:** Mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyuşhtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.

Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi puxta o'ylanib olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.

Bolalarni uyuşhtirish. Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko'rinishi, joy-joyiga to'g'ri o'tirishganligi, diqqatini to'plaganini sinab ko'radi.

Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bo-

lalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmon-ga kelibdi», - deb mashg'ulotni boshlash mumkin. Bolalar-ning narsalar va ularning nimaga ishlatalishi to'g'risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg'ulot mana shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo'yadi. Bu bolalarning bo'lajak mashg'ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasmlarni ko'rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi.

Katta va tayyorlov guruhlari dagi bolalar mashg'ulotning zarurligi va majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

Asosiy qism. Mashg'ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo'ladigan jamoachilik munosabatlari alohida munosabat bilan qo'shib olib boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'llaydi.

Mashg'ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar oldiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq. Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak, zarurat tug'ilsgina takrorlash mumkin.

Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganlari uchun o'tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullari dan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qo'chish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi.

Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va shu narsa to'g'risidagi tasavvur va tu-shunchalarini chuqurlashtiradi. Mashg'ulotni dastur maqsadi va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi.

Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, son-sanoqga o'rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday qilishi, qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishni tushuntirib berishi talab etiladi).

Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Masalan, son-sanoq mashg'ulotida bolalar sanash material bilan o'zları mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshirig'iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko'paytirishadi. Buning uchun o'yinchoqlardan ham foydalanish mumkin.

Mashg'ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni o'z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashg'ulot yakka tartibda olib boriladigan bo'lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yash, qurish-yasash, konstruksiyalash), bolalar ishni har

xil vaqtida bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg'ulot tu-gashiga bir necha daqqa qolganda mashg'ulotni tugatish kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi.

Mashg'ulotni tugatayotib, tarbiyachi o'tkazilgan mashg'ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg'ulotda qatnashganini gapiradi, ba'zan kelgusi mashg'ulotda nimalar o'tishlarini aytadi.

Bolalarning o'quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to'g'ri baholashga bog'liq.

Qo'yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berili-shi kerak. Bolaning ishini to'g'ri baholab, «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deyish bola uchun oddiy maqtovdan anche qimmatlidir.

Ish qanchalik yaxshi tahlil qilinsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

Mashg'ulotdan keyin tarbiyachi bolalarni o'yinga tak-lif etadi, boshqa mashg'ulot bo'lmasa, sayrga tayyorlanishi.

Mashg'ulotda tarbiyachining bolalarga qo'yadigan tabibi ularning yoshi va imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Birinchi kichik guruh bolalarini ikkiga bo'lib mashg'ulot o'tiladi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashg'ulot o'tkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi mashg'ulot paytida hamma bolalarning faol qatnashishlariga harakat qiladi: savolga to'g'ri javob berishlarini, tayyorlanishi kerak bo'lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar (agar bunga zarurat bo'lsa), mashg'ulotning borishi va tarbiyachi foydalana-digan metodik usullar ko'rsatiladi. Mashg'ulot jarayoni ni bayon etib yozishda mashg'ulotning boshi va oxirida (yakun chiqarish va keyingi faoliyat turiga o'tishda) bolalarni uysushtirishni alohida ajratib ko'rsatish kerak.

Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun jihozlarni o'z vaqtida tayyorlash zarur. Ularni tanlash mashg'ulotning

mazmuniga va tarbiyachi belgilagan metodik usullarga bog'liq.

Odatda metodika kabinetida «MTMdA ta'lif-tarbiya dasturi»ning hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi. Yetishmaganini tarbiyachi o'zi tayyorlaydi, ba'zan bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalg etadi. Mashg'ulot uchun kerakli materiallar ni bir kun ilgari tayyorlaydi, uning buzuq emasligini, didaktik materiallar hamma bolalar uchun yetarli ekanligini tekshiradi.

Agar tarbiyachi ekskursiya o'tkazadigan bo'lsa, u oldindan ekskursiya o'tkaziladigan joyga borib kelishi, kuza-tish uchun obyekt tanlashi, bolalarni qanday joylashtirishni o'ylab qo'yishi, eng yaqin va xavfsiz marshrutni tanlashi kerak. Mayda sanoq materiali, rasm mashg'uloti, applikatsiya, qurish-yasash uchun materiallar, she'r, ertak matnlari oldindan tayyorlab qo'yiladi. Ba'zi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ancha oldin boshlanadi. Masalan, kichik guruh bolalariga ekish yoki ko'chat o'tkazishga qiziqish uyg'otish uchun ularga ko'karib turgan o'simlikni ko'rsatish kerak. Buning uchun uni avval yetishtirish zarur.

Navbatchilar mashg'ulotga kerakli jihozlarni tayyorlaydilar, stol, stullarni qulay qilib joylashtiradilar, qo'llanma va, materiallarni qo'yib chiqadilar. Jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlaridan oldin bolalar poyabzalni almashtiradilar, sport formasini kiyadilar.

**Mashg'ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi.** Tarbiyachi MTMdA asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, keljak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq.

Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

- Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati – uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi – bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlari ni bilishdir.
- Bolalar bog'chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bo'lishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.
- Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliv nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.
- Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha ta'lim yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki, bu davrdagi har bir taassurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo'lish – fikrlar manbayi, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Mashg'ulotda tarbiyachi o'z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat'iy gapirish mumkin, ammo bunda so'z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim.

Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishi ni sekinlashtiradi.

Bolaning ko'p harakatlarni o'tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto'g'ri o'sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvininglar – nonushtaga kech qolyapmiz», «O'yinchoqni tezroq yig'ishtiringlar, sayrga yoki mashg'ulotga kech qolyapmiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas.

Ta'limga berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin.

Bolalarning mashg'ulotda olgan bilim va malakallari boshqa faoliyat turlarida qo'llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo'llay olishlari ularning yaxshi o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya'ni ular hech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limga amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir.

Agar bolalar yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'lsa, ular bilan xilma-xil mashg'ulotlar o'tkazish mumkin, bu mashg'ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar odatdagi mashg'ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o'zi belgilash, qurilishni o'zi o'ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha ta'limga yakunlovchi bosqichlarida o'tkaziladi.

Bolalar olgan bilimlaridan o'z o'yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo'llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o'yinlarning mazmunida aks ettiriladi.

### **Maktabgacha yoshdagি bolalarning sensor tarbiyasi**

Hissiy bilish maktabgacha yoshidagi bolalikda alohida ahamiyatga ega. Fikrlash va nutq yetakchi o'rın tutadigan mantiqiy bilish hissiy tajribadan kelib chiqadi. Sensor rivojlanish har qanday amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli egallashning sharti hisoblanadi.

Tevarak-atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini bevosita sezish orqali idrok qilish tashkil etadi. Bunday tasavvurning aniqligi, to'laligi sensor jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. "Sensor" so'zi lotincha "sensus" – "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi. Borliqni bilish sezgi, idrok qilishdan boshlanadi.

Inson ko'rish, sezish va hokazolar yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida bilimga ega bo'ladi, faqat shular asosidagina unda xotira, tafakkur, xayol jarayonlari hosil bo'ladi.

Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy bilimining 10,9 qismini sezish orqali idrok etilgan taassurotlar tashkil etadi. Sezgi va idrok qanchalik boy bo'lsa, insonning tevarak-atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari shunchalik keng bo'ladi. Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning rivojlanish darajasi bilish faoliyatining muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

Sensor tarbiya pedagogika fanida bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davridir. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o'rinni egallaydi. Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi, idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta'sir sistemasidir.

Mariya Montesori texnologiyasi aynan shu fikrni olg'a suruvchi usullar majmuyi bo'lib, ma'nан yetuk, mustaqil fikrlovchi, intiluvchan shaxsni tarbiyalashda muhim o'rın tutadi. Shifokor-pedagog Mariya Montesori yaratgan Maktabgacha ta'lim metodikasi maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash borasida-gi barcha tizimlar orasida alohida ajralib turadi. Agar ota-onalar o'z farzandlariga rahmdillik, mehr-muruvvat tuyg'ularini uyg'ota olmas ekanlar, u holda bolalar nafaqat begona odamlarga, balki o'z ota-onasiga ham hissiz bo'lib qoladilar. Montesori metodikasi bo'yicha maktabgacha yoshdagi bolalarni sensor tarbiyalashda quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi kerak:

1. Barcha tashqi hissiyotlarni shakllantirish.
2. Tashqi hissiyotlarni tarbiyalash orqali hali to'liq shakllanmagan barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish kerak. Chunki diqqat, intellekt va iroda to'liq rivojlanmagan bo'ladi.
3. Odatiy bir yoqlama madaniy tasavvurdan xalos bo'lish.
4. Nutq apparatlari orqali tilni rivojlantirish, so'z boyliklari-ni oshirish.
5. Bolalarning ruhiy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq tarzda, o'z-o'ziga xizmat qilishda ehtiyoj va talablarni rivojlan-tirish.

Yuqorida ko'rsatilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun Montesori yaxshi sharoitda bolani tarbiyalash usullarini tavsiya etadi. Uning materiallari ayniqsa, aqliy faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Sensor tarbiyaning vazifasi va mazmuni**

Sensor tarbiyaning maqsadi Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning sensor qobiliyatlarini o'stirishdan iborat.

Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatilishini, nomigagina bilishi yetarli bo'lib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushslash, ular bilan muomalada bo'lganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhimdir, deb biladi. Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida e'tibor berishi, bolalarga tegishli topshiriqlar berishi: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yishda ularning og'irligini his qilish, buyumni qo'lga olib, uning sirtini sezishi va sifatini - issiq yoki sovuqligini ana shunga o'xshashlarini aniqlashi kerak.

Bolalarning yoshi ulg'ayib, hayot tajribalari ortishi, sharoitlarning o'zgarishi bilan idrok etish jarayoni va unga qo'yiladigan talab ham murakkablashadi. Navbatchilar tarelkalarning katta-kichikligi, chuqur yoki yuzaligini, piyola va chinni idishlarning og'irligini, sirtining silliqligini, ushlaganda sovuqroqligini, plastmassa buyumlarning yengilligini his qiladilar. Stollar ni u yoq bu yoqqa siljitish, stullarni joy-joyiga qo'yish boshqa harakat sezgilarini uyg'otadi, fazoviy munosabatlarni, kontur chiziqlar va hokazolarni idrok qilishni talab etadi.

Shunga asoslanib, sensor tarbiyaning quyidagi vazifalari belgilanadi:

- Bolalarda perspektiv harakatlarni shakllantirish.
- Buyumlarning xususiyati, sifati, munosabati to'g'risidagi umumlashgan tasavvurlar sensor etalonlar sistemasini shakllantirish.

Sensor etalonlar ijtimoiy-tarixiy tajriba jarayonida hosil qilingan namunalardir. Asosiy ranglar, geometrik shakllar, notalarda ifodalangan musiqali tovushlarning turli balandligi ana shunday etalonlar jumlasiga kiradi. Agar bola etalonlar va ularning og'zaki ifodalaniishi bilan tanish bo'lsa, uning tevarak-atrofni bilishi oson bo'ladi, u o'zi uchragan buyumlarni ma'lum bir etalon bilan taqqoslaysa hamda buyumning rangi, shakli, katta-kichikligi, detallarining fazoviy joylashishini aytib beradi.

Perseptiv harakatlardan, etalonlar sistemasidan amaliy faoliyatda va bilish jarayonida mustaqil foydalanish malakasi-ni shakllantirish.

Sensor tarbiyaning mazmuni o'z ichiga tevarak-atrofda-gi hamma sensor belgilarni qamrab oladi. Bular bolalarning hamma faoliyatları orqali amalga oshiriladi va har xil sensor asosga egadir.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bola ranglarni farq qilish va ularning nomini aytishga o'rgatiladi, ularda rang tuslari ha-qida, bo'yoqlarni aralashtirish natijasida yangi rang yoki tus-lar paydo bo'lishi to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi, shuning-dek ular (nutqning tovush tomonlarini, so'zning tovush tu-zilishini tahlil qilish qobiliyatini) va musiqa tinglash o'quvini rivojlantirish ham sensor tarbiya mazmuniga kiradi. Sensor tarbiya, shuningdek, taktil sezgilarni, buyumlarning sifati-ni paypaslab, ko'rib farqlash va ularni to'g'ri aytish (silliq, ma-yin, dag'al, yumshoq, og'ir, yengil, sovuq, issiq va boshqalar) ko'nikmalarni rivojlantirish ham sensor tarbiya vazifalaridn biridir.

Bolalar sekin-asta vaqtini tushuna boshlaydilar hamda vaqt tushunchasini o'zlashtiradilar, vaqtning ketma-ketligi va davomliligini anglaydilar. Dastlab bolaning "kecha", "bugun", "ertaga" tushunchalarini nisbiyigini, vaqtning davomliligini (bir daqiqa, besh daqiqa, bir soat) tushunib olishi qiyin bo'ladi. Bunga tajribaning to'planib borishi va biror maqsadga qaratil-gan ta'lif natijasida erishiladi.

Yuqorida aytilganlarga xulosa qilib, sensor tarbiya bolalar-ning hamma faoliyatlarida amalga oshiriladi deb aytish mum-kin.

### **Sensor tarbiya usuli**

Sezgi va idrok biror maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Samarali faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar, applikatsiyalar yasash)

sezgi va idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratibgina qolmay, balki buyumning shaklini, rangini, joyini bilib olishga ham ehtiyoj paydo qiladi. Biror narsaning rasmini chizishdan oldin bolani buyumlarning rangiga qarab taqqoslashga o'rgatiladi, suratlarni ko'zdan kechirishda esa qanday qilib rang yordamida tasvirning badiiy ifodaliligiga erishilishini ko'rish qobiliyati rivojlanadi.

MTMdA bolalar butun yil davomida tabiat bilan tanishtirib boriladi, ularga o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish topshiriladi. Bu suv, yer, quyosh issiqligining xususiyatlarini sezib, bilib olish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Bolalar tabiat bilan bevosita munosabatda bo'lisl tufayli gul, toshlarning nomini osongina va bajonudil bilib oladilar, keyinchalik ularning shakli, rangi, tuzilishi, hidi, nomini silqliligi va mayinligiga qarab topadilar.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar "oldinga", "orqaga", "tepada - pastda", "uzoq-yaqin", "chapda-o'ngda" kabi fazoviy tasavvurlarni o'zlashtirib oladilar va hayotiy vaziyatda ularga amal qiladilar, buyumlarning shakli, ular o'lchamining farqiga yetadilar, ularni o'zaro taqqoslaydilar.

Bolalar tabiat bilan tobora ko'proq aloqada bo'lishlari tufayli taassurotlari, eshitib ta'sirlanish xususiyatlari ortib boradi. Bolalarni qushlarning sayrashi, barglarning shitirlashi, shamolning guvillashi, yomg'irning shatir-shuturi va momaqaldiroqning gumburlashini diqqat bilan tinglashga o'rgatish zarur.

Sensor tarbiyaning asosiy usullaridan biri – tekshirishdir. Tekshirish – buyumlarni maxsus ravishda tashkil etilgan idrok qilishdan iborat bo'lib, uning natijalaridan keyinchalik ma'lum bir mazmunli faoliyatda foydalilanadi. Tekshirish jarayonida bolalar katta-kichiklikni, shaklni, fazoviy munosabatlarni, rangni, nutq tovushlari bilan musiqiy tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va farqlashga o'rganadilar.

Mashg'ulotlarda bolalarning hissiy bilish tajribasini egallab olishlari muhim rol o'ynaydi. Holbuki shu mashg'ulotlarda bolalarning sezgi, idrok va tasavvurlarni tarbiyalashga jonli rahbarlik qilish uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Bolalar biror buyumni nima uchun sinchiklab qarash, ba'zi tovushlarni yaxshilab eshitish kerakligini aniq tushunganlaridagina, ularda sinchiklab qarash, narsa va hodisalarni idrok qilish malakasi hosil bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachi bolalar ni narsa va hodisalarni idrok qilishga o'rgatib, ular qiladigan ishlarning ma'nosini aniq tushuntirib berishi lozim. Shundagi na ular ancha tushungan holda idrok qiladilar va biror maqsadga qaratilgan bo'ladi: axir, daraxt shoxlari yaxshilab ko'zdan kechirilmasa, uning rasmini chizish ancha qiyin bo'ladi.

Boshqa faoliyat turlariga, masalan, mehnatga tayyorgarlik ko'rishda tegishli tekshirish usullari tanlanadi.

Masalan, qog'oz va gazlamaning xossalarni aniqlash uchun tarbiyachi bolalarga qog'oz va gazlamani g'ijimlaganda nima bo'lishini eshitib ko'rishni, qog'oz va bir parcha gazlamani yirtib ko'rishni, qog'oz va gazlamadan qilingan qo'g'irchoq ko'ylagini suvda yuvishni taklif etadi.

To'plangan tajribalarni bolalar boshqa buyum va hodisalarga ko'chiradilar, undan kundalik hayotlarida foydalanadilar: "Kel, qumga suv quyamiz, u nam bo'ladi, biz undan tunnel quramiz", "Bu chelakni ko'tarma, unda qum bor, u juda og'ir".

Buyumlarning xususiyatlarini, nomini va ta'rifini aniqlash, ularni ma'lum bir xossalarga ko'ra taqqoslash uchun didaktik o'yin va qo'llanmalardan ham foydalanish mumkin. Ular bolalar bilan olib boriladigan xilma-xil mashg'ulotlar, mehnat, kuzatishlar va bolalarning mustaqil ishlarida yaxshigina qo'shimcha material hisoblanadi.

### Tayanch tushunchalar:

**Sezgi** - bu atrof olamdagi moddiy dunyoni, narsa va hodisalarning inson ongida aks etishi.

**Sezish** - atrofdagi narsa-hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi xususiyatlarining miyamizga ta'sir etishi.

**Perseptiv qobiliyat** - bolalarning ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sensor tarbiyaning asosiy vazifasi qaysilar?
2. Sensor tarbiyaning asosiy usuli nima?
3. Sensor tarbiyaning maqsadi nimalardan iborat?
4. Maktab yoshidagi bolalar aqliy bilimlarining necha foizi sezish orqali idrok etiladi?
5. Ta'limni amalga oshirish yo'llarini izohlang?
6. Mashg'ulot jarayonini amalga oshirish tamoyillarini yoziting?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalari qaysilar?
  - a) bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish
  - b) bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish
  - v) bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy ko'nikma va malakalarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish
  - g) hamma javoblar to'g'ri
2. Ta'limni necha xil yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq?
  - a) 4 xil yo'l bilan
  - b) 2 xil yo'l bilan
  - v) bir necha xil yo'l bilan
  - g) 1 xil yo'l bilan
3. Mashg'ulot qanday tuzilishga ega?
  - a) mashg'ulotning maqsadi, yakuni
  - b) bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism
  - v) mashg'ulotning borishi
  - g) hamma javoblar to'g'ri
4. Didaktik maqsadga ko'ra mashg'ulot turlarini ko'rsating.
  - a) bolalarga yangi bilim beruvchi

- b) bolalar bilimlarini tekshiruvchi-sinovchi
- v) mujassam, kompleksilan
- g) hamma javoblar to'g'ri

5. Sensor tarbiyaning asosiy usuli nima?

- a) tekshirish
- b) so'zlash
- v) ko'rsatish
- g) tushuntirish

6. Sensor tarbiyaning vazifalari qaysilar?

- a) bolalarda perceptiv harakatlarni shakllantirish
- b) sensor etalonlar sistemasini shakllantirish
- v) perceptiv harakatlardan, etalonlar sistemasidan amaliy faoliyatda mustaqil foydalanish
- g) hamma javoblar to'g'ri

7. Sensor tarbiya qaysi tarbiyalarning asosi hisoblanadi?

- a) aqliy, estetik, jismoniy, mehnat
- b) axloqiy, huquqiy
- v) iqtisodiy, axloqiy
- g) ekologik, aqliy


8. Sensor so'zi nimani anglatadi?

- a) sezgi, tuyg'u
- b) sezish qobiliyati
- v) idrok
- g) hamma javoblar to'g'ri

## VII BOB. AXLOQIY TARBIYA

### Axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari

Axloq so'zi – lotincha «myeros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalariдан) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ong-li ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.



Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir.

Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob – shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi.

Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan.

Quyidagi hadislarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobi ni ham yaxshilangizlar», «Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman», «Mo'min kishida quyidagi ikki xislat bo'lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik».

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan beba ho boylik bo'l mish ilm-u ma'rifikat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnqaqining eng asosiy sharti deb bilganlar.

Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini boyitadigan eng muhim omildir»<sup>7</sup>.

Husayn Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asari shaxsiy, oilaviy va fuqarolik axloq asoslarini o'z ichiga olgan. U 40 bobdan iborat. Muallif asardaadolat, sabr, yoqimlilik, hayo, odob, ishonch, va'daga yafo qilish masalalari haqida so'z yuritadi.

Jaloliddin Davoniyning «Axloqi Jaloliy» asarida axloqiy muammollar, ijtimoiy-falsafiy masalalar tahlil qilinadi. Asarni yozishda muallif Arastu, Aflatun, Abu Nasr Farobi, Ibn Sinolar-

<sup>7</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

ning axloqiy ta'limotlaridan foydalangan. Risola uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida xulqiy tarbiya va axloqiy xislatlarni egallash haqida so'z yuritib, axloqning asosiy tushunchalari: donolik,adolat, iffatga mufassal to'xtalgan, axloq ilmining maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Ikkinci qism oila va oilaviy hayot masalalariga bag'ishlangan. Unda bolalarni tarbiyalash va kamolga yetkazish, kasb-hunarni egallash yoritiladi. Uchinchi qism ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan.

Ahmad Yugnakiyning «Hibbat-ul-haqqoyiq» asari ta'limiy-axloqiy yo'nalishda yozilgan bo'lib, bilimlilik, adolat, saxovat kabi xislatlar ulug'lanadi, yetuk insonni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi.

Amir Temur «Axloqiy Husniya» - yaxshi xulqlar ega-si bo'lган. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'yмаган. Amir Temur singari jahon ma'naviyati sultanatida o'z o'rinaligiga ega bo'lган buyuk bobokalonlarimizning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi.

Amir Temurning vasiyatlaridan xalqiga cheksiz sodiqligini, millatini ulug'laganini, ozodlik uchun kurashuvchan, axloqiy madaniyati yuksakligini ko'rish mumkin: «Millatning dardiga darmon bo'ling. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsinlarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin». <sup>8</sup>

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etgan yodgorliklar orasida Xorazm vohasi hududida yaratilgan be-baho ma'naviy obida «Avesto» kitobi alohida o'rinish tutadi. Ana shunday o'lmas asori-atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. «Avesto»ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan

<sup>8</sup> A.Temur o'gitlari. – T.: Navro'z, 1992.

tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ibrat bo'ladijan axloqiy saboqlar borligini ko'rish mumkin.

Ma'lumki har bir xalqning o'z afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari bo'ladi. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib keelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini saqlagan, el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlari o'z ifodasini topgan. Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlariдан saboq beradi<sup>9</sup>.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to'g'riso'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi. U bola tarbiyasida o'sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida e'tibor beriladi.

A.Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan.

«Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir» - deydi mutafakkir A.Navoiy.

A.Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida odob, axloqqa oid g'oyalalar ilgari surilgan. Insonparvarlik g'oyalari ulug'langan.


Pedagogika fani yosh avlodni axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limga muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, Maktabgacha ta'lim davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'limgarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobjiy xulq normalarining ancha barqaror shaklli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladijan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir.

<sup>9</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

## **Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari**

Shaxsnинг мухим ма'навији сифатлари бо'лган ахлоқији оңг, ҳиссият ва хулқни шакллантариш, ватанпарварлик, ватанга муhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish ахлоқији тарбиyaning асоси hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ма'навији дунёсини, унинг оғини, ахлоқији ҳисларини, shaxsiy сифатларини тарbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.



Aхлоқији билим бериш бир qancha тарбијавији vazifalarni ба-jaradi, inson hayoti va madaniyatining ахлоқији qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar beradi. Ахлоқији tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni шакллантарishga va shu asosda ахлоқији e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

Bolalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;

Shaxsni o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Axloqiy bilim, asosan axloqiy suhbatlar, ma'ruzalar, kechalar, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtarda ta'lif berish orqali amalga oshiriladi.

Har xil bayramlar, ijtimoiy hayat voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari - oynayi jahon, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongли ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

### **Axloqiy tarbiyaning asosiy prinsiplari (tamoyillari) va metodlari**

Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- g'oyaviy va tarbiya ishining ma'lum maqsadga qaratilganligi;

- ta'lif-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;


- axloqiy tarbiya ishini hayat va zamon bilan birga olib borish;

- bolalarning faolligi;

- oila va MTMlarining tarbiyaviy ta'sirining birligi;

- bola shaxsidagi ijobiy sifatlarga suyanish;  
 - bola shaxsini har tomonlama rivojlanishini ko'zda tutish.  
 Axloqiy tarbiya prinsiplarini pedagogik shart-sharoit bilan qo'shib amaga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

**Axloqiy tarbiya metodlari.** Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Axloqiy tarbiya metodlari – bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir.



Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bu guruh metodlariga qo'yiladigan asosiy talablar:

Bolalarning yaxshilik, yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish; axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini

faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyyotlik bilan munosabatda bo'lish.

Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'ian man qilinadi. Hamma metodlardan izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniлади.

### **Jamoa - shaxs axloqiy kamolotining asosi**

Jamoa so'zi lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, omma, birlashma, yig'ilma, guruh ma'nolarini anglatadi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, jamoa bu kishilardan iborat guruh demakdir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi ahamiyati to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridanoq bildirilgan.

Kishilarning jamiyatda birga yashashi, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashi, ozchilikdan-ko'pchilikning afzalligi haqidagi Payg'ambarimiz s.a.v.ning hadislarida: «Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to'rt kishi uch kishidan yaxshi, ko'pchilik bilan birga bo'linglar. Tangri ummatlarini faqat to'g'ri yo'lida borishlikka birlashtiradi», deyilgan. Kishilarning boshiga yaxshi kun ham, yomon kun ham tushganda, albatta, mahalla, qarindosh-urug' madadkor bo'ladi. Buni biz urf-odatlarimizda ko'rishimiz mumkin. M: hasharlar, to'yga to'yona bilan kelish va hokazo.

Shaxsni shakllantirishning muhim omillari bo'lgan jamoa to'g'risidagi ta'limot axloq tarbiyasida muhim o'rinni egallaydi. Buning uchun bolalarni asta-sekin, avval bir necha kichik-kichik guruhlarda uyushtirib, so'ng birgalikda biron ishni bajarishga tortish kerak. Bunda qo'yilgan maqsad bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Umumiy ish har bola ozgina bo'lsa ham ishtirok etadigan qilib tashkil etilishi lozim. Bunday xususiyatlarni tarbiyalashda san'at, bolalar bayramlari, birgalikdagi mehnat va faoliyatlarning tutgan o'rni kattadir.

Bolalar o'yinlari va mehnatining jamoa tusida bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Bular bolalarni birga harakat qilishga,

o'z intilishlarini umumiy maqsadga yo'naltirishga, o'z ishini va maqsadini boshqarish ishi va harakatiga bo'ysungan holda boshqarishga o'rgatadi.

Bola yoshlikdan boshlab, o'zida boshqalar bilan, bolalar ja-moasi bilan muloqotda, birgalikda bo'lishga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani o'zi tanlay olmaydi. U biron ja-moaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Yashab turgan joy-dagi yoki ota-onasini ish joyidagi mактабгача та'lim muassasalariga qatnay boshlaydi. Bu muassasalarga bola o'z xohishi bilan bormaydi. Shunga qaramay bola bu jamoaning qonun-qoidalariga bo'ysunishi, uning tartiblariga rиoya qilishi shart. Aks holda uni jamoa kechirmaydi. Natijada bola o'zi yashayotgan axloq, odob tajribalarini egallashga majbur bo'ladi. Shuning uchun buyuk mutafakkir A.Navoiy bola yoshligidan oqil va fozil kishilar jamoasida qatnashib, ularning suhabatlaridan bahramand bo'lishlarini tavsiya etadi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlарining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergen. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

- Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarining faoliyatga tayyorligi;

- O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash;

- Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;

- Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;

- Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;

- O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

Bolalar o'zaro yashayotgan jamoaga bo'lgan munosabatiga qarab bir necha guruhgа bo'linadi. Birinchi guruh ijobiyl xulqli bolalar bo'lib, ularni jamoa a'zolari hurmat qiladilar. Bu toifadagi bolalar jamoasining faollari bo'lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o'rnatishda ularga suyanadi.

Ikkinchi guruhgа kiruvchilar faollar tashabbusiga qо'shiladi, ammo barqaror bo'lishadi.

Uchinchchi guruhdagilar tortinchoq bo'lib, o'yinda qatnashmaydi, mashg'ulotlarida ham sust bo'l shadi, bunday bolalarga alohida e'tibor va yordam berish zarur.

### **Jamoatchilikni tarbiyalash jarayonida axloqiy sifatlarni tarbiyalash**

Insonparvarlik hissini tarbiyalash. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rinni tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi.

Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yosha bolalar yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarni qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhim boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish.

Kamtarlik, to'g'rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Kamtarlik har bir kishining eng muhim va olijanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Amma maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadilar, ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday holatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurli-

gi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o'rtog'iga o'rgatish kerakligini, o'z-o'zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi.

Sofdillik va rostgo'ylikni tarbiyalash yolg'onchilik va vijdon-sizlik paydo bo'lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog'liqdir.

Ba'zi bolalar o'zlarini to'qigan, kattalardan eshitgan ertaklari-ni tushlarida ko'rgandek qilib ko'rsatishga urinadilar. Bunday holda ham urushmasdan «Ertak» to'qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak.

Shunday qilib, bolalardagi xarakterning ijobjiy namunalarini, ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobjiy natijalarga erishish mumkin.

Vatanparvarlikni tarbiyalash. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy va axloqiy his-tuyg'ular sifatida odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Ibtidoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'doshlariga, ona yeriga, urf-odatlariغا bog'liq his bo'lgan bo'lsa, sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib bordi. Davrlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylandi.

Vatanga muhabbatni tarbiyalash. Vatanga muhabbat – eng chuqr ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalminalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketgan. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshdagи bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazliligin e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalanib boriladi. Shuning uchun bu yoshdagи bolalarda vatanga muhabbat hissi ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

Baynalminal tarbiya. Bizning respublikamiz o'z mohiyati bi-

lan baynalminaldir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda baynalminalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobjiy munosabat, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi. Bunday his-tuyg'ularni rivojlantirish asosan taqlid qilish orqali mukammallashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga baynalminalchilik his-tuyg'ulari asosini shakllantirishda qardosh jumhuriyatlarda yashaydigan har bir millat vakkilari bilan uchrashuvlar o'tkazish; maxsus mashg'ulotlarda ularning urf-odatlari, madaniyati, san'ati, tabiatni to'g'risidagi adabiyotlarni o'qib berish, suhbat o'tkazish, rasmlar ko'rsatish, filmlar namoyish etish, millat bolalari hayoti to'g'risidagi hikoyalarni o'qib berish foydali bo'ladi.

### **Bolalar jamoasi shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar**

Bolalar jamoasini shakllantirish uchun ma'lum shart-sharoitlar zarur.

- MTM xodimlarining ahil jamoasi mavjud bo'lishi;
- Bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish;
- O'yinchoqlarning bolalar yoshiga, qiziqishiga mos kelishi;
- Bolalarda o'zaro ahillik, g'amxo'rlik, jamoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg'ulotlar;
- Har xil qiziqrli faoliyatlarni tashkil etib borish;
- Oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish;
- Bolalarni axloq normalari va qoidalarga o'rgatib borish;
- Bolalar muassasalarida ijobjiy xayrixohlik muhitini yaratish.

Har bir yosh guruhi bolalarining jamoatchilik munosabatlariga rahbarlik qilish «MTM ta'lif tarbiya dasturi» da belgilab berilgan. Dasturda har bir yosh guruhi uchun jamoadagi axloq normalari va qoidalari belgilangan.

Bolalar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoa an'analari - bu barqarorlashgan odat bo'lib, ularni jamoa a'zolari birdek qo'llab-quvvatlaydilar. Jamoa a'zolari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi. Bular, a) kundalik faoliyat an'analari, b) bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari bolalarning faoliyatлари (mashg'ulotlar, sayr, mehnat, o'yin)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analariга turli voqeа-hodisalar bilan bog'liq sanalarni nishonlash: «Navro'z» bayrami, «Mustaqillik bayrami», «Hosil» bayrami va boshqalar kiradi.

An'anaviy bayramlar MTMlarda turlicha o'tkaziladi. Bolalar an'analari mohiyatini anglasalar, uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, umumiy maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi;

- jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir;

- jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan tabablarning qo'yilishi jamoa faolini tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

Jamoaning mustahkam bo'lishi a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

### Tayanch tushunchalar:

**Axloq** - jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

**Odob** - jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi.

**Axloq normasi** - kishilarning xulq-atvorini tartibga soluvchi axloqiy talablar mezoni.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Axloqiy tarbiya tushunchasining mazmunini ochib ber-  
ing.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalikning turli bosqichlarida ja-  
moa turmush tarzini tashkil etishning va bolalar o'rtasidagi  
munosabatlarni shakllantirishning xususiyatlari qanday?
3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbi-  
yalash vazifalarini ko'rsating.
4. Bolalar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi sha-  
roitlarni ko'rsating.
5. Sharq mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi fikr-  
laridan misollar keltiring?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Axloqiy tarbiyaning asosiy vositalari qaysilar?
  - a) axloqiy ong
  - b) madaniy xulq-atvor
  - v) axloqiy his-tuyg'ular
  - g) bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar badiiy adabi-  
yoti, musiqa, tasviriy san'at, radio, televideniye.
2. Bolalar jamoasi necha kishidan iborat bo'ladi?
  - a) 6-8 kishidan
  - b) 2-3 kishidan
  - v) 15 kishidan
  - g) 20 kishidan
3. Qanday axloqiy sifatlar bolalarda shakllantiriladi?
  - a) mehribonlik
  - b) odoblilik
  - v) insonparvarlik, kamtarlik, to'g'rilik, halollik, quvnoqlik
  - g) madaniy gigiyenik malakalar
4. Bolaning injiqligiga nima sabab bo'ladi?
  - a) bolaning biror narsadan noroziligi

- b) bolaning kasalligi
- v) kun tartibining noto'g'ri tuzilganligi
- g) hamma javoblar to'g'ri

5. Bolaning his-tuyg'usi va munosabatlarini rag'batlantirish usullari qaysilar?

- a) namuna ko'rsatish, rag'batlantirish, jazo
- b) xulq madaniyatini tarbiyalash
- v) ijobiy sifatlarni tarbiyalash
- g) maqtash, ma'qullah

## VIII BOB. ESTETIK TARBIYA

### Estetik tarbiya va ta'limning nazariy asoslari

Insoniyat go'zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go'zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismi hisoblanadi.

Uning obyektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta'minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatni egallashning asosiy vositali tarbiya va ta'limdir.

Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi.

Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) – bu bolalarga voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrLAY olish, badiiy madaniyatni tushunish, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qura olish – komil insonning eng zarur fazilatidir.

Estetik tarbiya – eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, hayoti yanada sermazmun bo'ladi. Yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni xunukdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi.

Estetik tarbiya bugungi kunda shunisi bilan muhimki, did-farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy

faoliyatda – har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan.

Donolardan biri go'zallik axloq-odobning tug'ishgan singlisidir, degan edi. Darhaqiqat, odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odobda, chiroyli xatti-harakat, go'zal munosabatda va hayotga, keljakka, insonlarga, tabiatga muhabbatda ko'rindi. Xalqimiz «Kamtarlik ham husn» deydi. Mana shu birligida iborada chuqur ma'no bor. Estetik tarbiya orqali yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go'zal belgisidir.

Salbiy xatti-harakatlardan nafratlana bilish tuyg'usini ham estetik tarbiyani paydo qiladi. Bunda badiiy asarlarning roli muhimdir. Masalan: «Zumrad va Qimmat» ertagida Qimmatning xulq-atvori bolalar qalbida nafratni uyg'otadi. Zumradning tevarak-atrofqa munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi qalblarda quvonchni paydo qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayrim yoshlar go'zallikni torma'noda tushunadilar. Ya'ni chiroyni ko'pincha husn jamolda deb bilishadi. Bu bir tomonlama tushunchadir. Har tomonlama ma'noda esa chiroy husn-jamol, qalb go'zalligida, ma'noli so'zdadir. Xalqimiz bejizga «Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda» deb aytmagan!

San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, xissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va tasavvurni ham rivojlantiradi.

Bolalarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish, olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib topdiriladi.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqt-

ni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi.

Estetik ehtiyoj – kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil ko'rinishlarida estetik idrok etishga undovchi subyektiv omildir. Estetik ehtiyoj go'zallik to'g'risidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Estetik qiziqish shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga o'ylantiradi. Estetik qiziqish estetik ehtiyojni yuzaga keltiradi. «Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» tushunchasi ham mavjuddir.

Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. U shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san'atning ma'lum turlari bo'yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlanishga qaratilgandir. Uning natijasi fikrning paydo bo'lishida, uni amaliy faoliyatda qo'llashda, o'z bilim va taassurotlarini ko'ra bilishda, his-tuyg'ulari va fikrlarini samimiyat bilan ifodalashda namoyon bo'ladi. Estetika tabiatdagi, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarida aks etgan, shuningdek, estetik ongning paydo bo'lishi, rivojlanishi va vazifasi to'g'risidagi qonuniyatlarini, obyektiv borliqni estetik bilishning muhim usullaridan biri bo'lgan san'atning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Pedagogika estetikaning «go'zallik hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi kishilar munosabatidagi go'zallikda qatnashtirish, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

Go'zallik kishini olijanob qiladi, uning yuksak didli, yaxshi inson bo'lishiga xizmat qiladi. Go'zallik bilan uchrashish kishi-

da estetik his, ruhiy hayajon, beg'araz quvonch uyg'otadi. Estetik hisda idrok etilayotgan voqelikka nisbatan xudbinlik ohangi, shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan g'arazli qarashlar bo'lmaydi. Ajdodlarimiz bu to'g'rida shunday yozadi: «Kishidagi go'zallik hosil qilgan sezgi, odam eng yaqin kishisi bilan uchrashganda paydo bo'ladigan porloq quvonchga o'xshaydi. Biz go'zallikni beqiyos sevamiz, undan eng yaqin kishimizni uchratganda quvongandek zavqlanib quvonamiz».

Go'zallik insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida yaratiladi va madaniy-tarixiy tajribaning bir qismini tashkil etadi. Uning mavjudligi, obyektivligi yosh avlodga estetik tajribani sistemali ravishda singdirish va shu orqali ularning estetik tomondan taraqqiy etishini ta'minlaydigan estetik tarbiya nazariyasining faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda tarbiya va ta'lim jamiyatning estetik madaniyati ni o'zlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Estetika borliqning birlamchi va ongning ikkilamchi ekanligiga asoslanib, san'at borliqni badiiy obrazlarda anglash, estetik aks ettirishning oliy shakli deb tushunadi.

San'at o'zining hissiy ta'sir kuchi bilan kishining faqat hissini emas, fikr va irodasini ham maftun etadi, tarbiyalovchi roli ham mana shunda namoyon bo'ladi, shuning uchun u estetik tarbiyaning mazmuni va vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, mehnat va jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi shundaki, kishining go'zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik undan zavqlanmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. San'atning tarbiyaviy kuchi shundaki, u odamni hayotdagi voqealarни, hodisalarни chuqur his-hayajon bilan idrok etishga majbur etadi.

Estetik tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular biron-ta foydali ishni bajarayotib, biron kerakli narsani yasayotib

o'zlarining kuch va imkoniyatlari o'sib borayotganini sezadilar. «Go'zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo'lmaydi, - deb yozgan edi V.A.Suxomlinskiy, - ammo bularda go'zallik bola ega bo'layotgan narsa emas, balki birinchi navbatda u yaratayotgan narsadir. Mehnat quvonchi – bu turmush quvonchidir»<sup>10</sup>.

Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u har qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ra oladi va uni yaxshi, zo'r shavq-zavq bilan bajaradi.

Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida mustahkam bog'lanish bor. Kishining mustahkam sog'ligi, jismoniy kamolotisiz uning go'zalligini tasavvur etib bo'lmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, harakatlarni chiroyli bajarishi, musiqa ostida chiroyli harakatlar qilishi va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

Ko'pchilik pedagog va psixologlarning tadqiqot ishlari bolalarning ijodiy faoliyatları, hissiyotlari, estetik tasavvurlarining o'ziga xos xususiyatini va ulardagi estetik tasavvur va hissiyotlarning qanday rivojlanishini ochib bergen.

Bu tekshirishlar bolalardagi estetik tasavvur va hissiyotlarni rivojlantirishni ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish kerak degan xulosa ga olib keldi. Estetik tasavvurning o'ziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni his qilish shakli – «ko'rinarigan» va «eshitiladigan» narsalar butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrok qilishda narsalarning ko'rinishi, ohangdorligi unchalik muhim bo'lmay, balki uning ahamiyati muhimdir. Estetik idrok qilishda esa eng muhimi – idrok qilayotgan narsaning obraqi, uning ifodali tomonlarini, nozik ranglarini ko'ra bilish talab qilinadi. Shuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatni, kuzatuvchanlikning rivojlangan bo'lishini talab etadi.

Kishi narsa va hodisalarga go'zallik mezoniga asoslangan holda, alohida qadr-qimmat bilan yondoshgandagina estetik kechinmalar paydo bo'ladi. Estetik hislar fikrlash bilan bevosita bog'liqidir.

<sup>10</sup> Suxomlinskiy V.A. Bolalarga jonim fido. Tanlangan asarlar. T. 1. 231-bet.

Since antiquity, the idea of aesthetic education has been present in pedagogical theories as an essential element of the theoretical debate on the role of art and the beautiful in the shaping of the individual: Plato regarded aesthetic education as an indispensable composite part of the upbringing or education of the free man; Schiller says that it is possible to realize pedagogical goals only through aesthetic education and emphasizes the educational functions of the aesthetic in art, those which enrich man, cultivate him and develop within him a sense of genuine humanity

Estelik ta'limning muhim elementlari sifatida san'atning o'rni shaxs shakllanishidagi go'zal xislatlar pedagogikada ham mavjud. Aflatun estetik ta'limning kompozitsion qismi deb erkin shaxsning ta'lim va tarbiya olishiga qaratilgan; Scheller esa shunday deydi: estetik ta'lim orqali pedagogik maqsadni amalgalashish mumkin, insonni kamolotga yetkazish, uni rivojlantirish va ichidagi haqiqiy insoniy hislar urug'ini sochishni bildiradi.

The Significance and Role of Aesthetic Education in Schooling.  
Published Online November 2014 in SciRes.

Estetik kechinmalarda har doim xayol ishtirok etadi, busiz go'zallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas. Xayol faoliyat jarayonida shakllanadi. O'yin, rasm chizish, ertaklarni eshitish xayolning ishlashini talab etadi. Dastlabki vaqtarda xayol faoliyat jarayonida narsalar bilan ta'sir etish natijasida yuzaga keladi. Keyingi bosqichlarda esa ijodiy faollikning tashqi shakllaridan sekin-asta fikrlashga o'tadi. Bola rasm chizganda yoki o'ynaganda obrazni tasvirlashdan yoki ifodalashdan oldin shu obrazni idealida yaratadi. Badiiy asarlarni idrok qilganda ham xuddi shunga o'xshash voqealari yuz beradiki, bolalar asardagi qahramonlarga xayolan qo'shilib, ularning xatti-harakatlarida o'z xayollari bilan qatnasha boshlaydilar.

Demak, estetik kechinmalar murakkab hodisa bo'lib, hissiyotlar, xayol va fikrning faol ishlashini, o'z fikr va hissiyotlari ni ifodalashga, faoliyatga ehtiyoj tug'ilishi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

## **Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik didi rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar**

Shaxsnинг estetik xususiyatlari tug'ma emas, ammo ular ijtimoiy muhit va faol pedagogik rahbarlik sharoitida ilk yoshdan boshlab rivojlanib boradi. Estetik rivojlanish jarayonida bolalarni estetik idrok, tasavvur, tushunchalar, mulohazalar, qiziqishlar, his-tuyg'ular, badiiy va ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptirish amalga oshiriladi.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, hali ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yodan xursand bo'ladi, bir maromdagи tovush va harakatlardan huзur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobjiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi va hokazo.

O'rta guruhgа kelganda bolalar estetik idrokinnng rivojlan-

ishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqlashgan bo'lib qoladi. Ammo shunga qaramay, u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba'zi bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladilar.

Bolalarda go'zallikni idrok qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa, ular qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga bemalol qo'shilib harakat qiladilar, ularda muayyan vaziyatda o'zini qanday tutishni aytib turadilar, o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadilar. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar she'rni nasrdan, badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriylar faoliyat va musiqaning bir xil turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va hokazo) bir-biridan ajrata boshlaydilar.

Tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi hamma faoliyatlarda qo'yilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar o'yinga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o'yinlarida obrazlarning ifodali bo'lishiga ongli ravishda intila boshlaydilar.

Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriylar san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ular da ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriylar san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi.

Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rler to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Endi ular

o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoldilar.

Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatalar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lif yoshi davri tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishda tutgan o'rnidan kelib chiqib, estetik rivojlanishlarini takomillashtirishdir.

### **Estetik tarbiyaning vazifalari, mazmuni va metodlari**

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya vazifalarini hal etish bolalarda tashabbuskorlik, ma'lum natijalarni oldindan bilish, ularga intilish, orzu qila bilish kabi sifatlarni shakllantirish bilan uzviy bog'langandir.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha yosh-dagi bolalarning har bir yosh guruhlarida estetik tarbiya berishning mazmuni va metodlari ishlab chiqiladi.

Estetik tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Bular quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash;

- san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berish.

## Estetik tarbiyaning vazifalari

Bolalarni hayotdagи, voqelikdagи go'zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda va turmushda, yaratuvchilik, mehnatda, ijtimoiy hayotda, kishilar xattiharakatida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra biliшha o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash, kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.	Bolalarni badiiy ijodining turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, rasm va boshqalar) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish orqali ularda estetik ong qiralarini shakllantirish; chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglar, shakl, tovushlarni bir-biridan ajrata olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.	Bolani san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, she'r, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat (ijodiy o'yin, hikoya qilish, rasm chizish, biror narsa yasash yoki qurish) kabilarda yanada faolroq harakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarni, mo'ljalga olish, ko'rish xotirasini, qo'llarni chaqqon harakat qildira olish malakasi, jo'shqin kayfiyatni ko'rsatuvchi hussiy sezgirlikni rivojlantirish va hokazo.
--	---	---

Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shunga o'xshashlarga o'rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan.

Bola ijodining mazmuniga ta'sir etadigan asosiy vosita, bolani hayajonlantiradigan, uning xayol va hislariga ta'sir etuvchi narsa tevarak-atrofdagi yorqin, jonli taassurotlardir.

Badiiy faoliyatning hamma turlarida ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish estetik idrok va hislarni rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Agar bola qishki tabiatning go'zalligini his eta olsa, u, albatta, shu go'zallikni rasmda, hikoyasida aks ettiradi. Agar bola badiiy adabiyotlardagi obraslarni idrok eta olsa, undagi qahramonlar bola tushuncha-

sigə yaqin bo'lsa, bunday kitoblar bolalar o'yini uchun rasm chizish va loydan narsalar yasash uchun bitmas-tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi. Agar bolalar tilning go'zalligini, she'rning ritmini, ohangdorligini his eta olsalar, o'zлari ham kichkina she'rlar to'qib, qofiyalar tanlashga urinadilar.

Bolalardagi fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun badiiy qobiliyatning hamma turlarida ham xayolning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi ta'minlanadi. Bolalarni ijodiy maqsad qo'yishga o'rgatiladi.

Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini bayramlarda, ko'ngil ochish kechalarida, ekskursiya va sayrlarda, har xil o'yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar o'zlarining badiiy, ijodiy mahoratlarini, qobiliyatlarini bemalol, erkin namoyish qilishlari uchun tarbiyachi kerakli shart-sharoitni yaratib berishi zarur. Bolalarning bu xildagi mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi yakka tartibda yondoshishi lozim. Shu orqali u bolalarning o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini o'rganadi. Bolalar orasida ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga havas juda erta uyg'onadi. Ammo bu hali bolaning kelajakda qanday mutaxassis bo'lishini aniqlash huquqini bermaydi. Lekin tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning qiziqishlariga diqqat-e'tibor bilan qarashlari lozim. Ular bolani diqqat bilan kuzatayotib, unda musiqa, rasm, qurish-yasash va boshqa sohalardagi iste'dodning ilk kurtaklarini ko'rishlari mumkin. Boladagi qobiliyatlarining shakllanishi kattalarning mana shu kurtaklarni avaylab o'stirishlariga, ularga to'g'ri rahbarlik qilishlariga bog'liq.


### **Estetik tarbiya vositalari**

Bolalarda go'zallik haqidagi bilimlar atrof voqelikni uning butun xilma-xilligida, shuningdek go'zallik eng ko'p jamlangan holda aks etadigan san'atni estetik o'zlashtirish jarayonida tarkib toptiriladi. Hayot xilma-xilligi san'at turlari va janrlarning xilma-xilligiga sabab bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi

bolalarning har biri o'z janriga ega bo'lgan grafika, rang-tasvir, haykaltaroshlik, manzarali amaliy san'at, adabiyot va mu-siqa bilan tanishadi.

Bolalar shuningdek, bizni o'rab turgan dunyoning eng muhim estetik tomonlari va xususiyatlarini ham egallaydilar. Maktabgacha yoshdagi davrida musiqa, vokal va cholq'u, undagi mavzuni xilma-xilligi, ayrim asarlarning janri, tuzilishi, mu-siqli ifoda vositalari, musiqa asboblari haqida ham bilim beriladi. Bolalar xalq qo'shiqlari va raqslari, doira bo'lib qo'shiq ay-tish, klassik va zamonaviy musiqa asarlari bilan tanishadilar.

MTMni o'rab turgan go'zallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yor-dam beradi.



Pedagogika tizimiiga xos bo'lgan estetika va etikaning birligini oilada MTMlarda kichkintoylarni tarbiyalashda bemalol qo'llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo'lislari talab etiladi.

Bolalarni o'rab turadigan chiroyli narsalarning o'zi bolala hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni o'rishga, qadrlashga, baholay bilishga o'rgatish kerak. Tarbiyachi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, yaxshilab joyoyiga qo'yilgan mebelga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi. Ar bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko'rib chiladi. Eng muhimi, hamma narsalarni bolalarda estetik zavqi qo'zg'ata oladigan qilib ko'rsatish kerak.

Bolalarga estetik zavq uyg'otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta'sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir. Tarbiyanining o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlarsiz go'zallikka qiziqish yug'ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan «Nima uchun oltin kuz deyiladi?» - deb so'rashadi, tarbiyachi istirohat bog'iga borib ko'ramiz deb deb beradi. Bog'ga borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayrilib daraxtlarni, yo'lkalarni kuzatamiz». Bog'ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to'xtab, jim atrofga nazar ashlashadi-da, nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chun-i barglar tillaga o'xshaydi. «Ana qizil barglar», deyishadi lar hayajon bilan. Shamol bo'lishi bilan barglar yerga tushadi. Yo'lkalalar esa gilamga o'xshaydi. Ko'chaga sayrga chiqishi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bi-un MTM ko'chasidan yurib o'tamiz. Sizlar diqqat bilan kuza-b boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko'rsa, sayrdan keyin o'zlab beradi».

Shuni ta'kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalar-i shu ajoyibotni ko'ra bilishga, undan hayratlana olishga o'rgatish lozim. Tabiatning go'zalligini va ajoyibligini inson hatot go'zalligiga, san'at go'zalligi va ajoyibotiga aylantiradi.

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto eng kichik olani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va xayollarda saqlan-

an go'zalligi bolalikda ayniqsa, yorqin va chuqur idrok qilinasi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga aratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyojkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avayshga o'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlani tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol o'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishi a ishonch hosil qiladilar.

Tarbiyachi bolalarga tabiat olamini kashf etadi, bolalarning unchadagi bir tomchi shabnamda ham, o'tlarning biri ikkinchisi bilan qo'shilib ketishida ham, oqshom bo'yoqlarida ham tabiat go'zalligini ko'ra bilishlariga yordam beradi.

MTMda tabiat burchagi tashkil etiladi. Undagi hayvonlar a o'simliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to'g'ri munosabatni, go'zallik yaratish ophishini shakllantiradi va qizg'in faoliyatga undaydi. Yilning oz fasllarida polizda, gulzorda, MTM maydonchasida mehnat ilishda ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o'z mehnati nevasini yejish bolaga alohida estetik huzur bag'ishlaydi. Dan va bog'larga sayrga borganda tabiatning go'zalligi va boyligi an, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan enihoya zavqlanishadi.

MTMda bolalarni estetik tomonidan tarbiyalashda san'atning ar xil turlari va janrlaridan (musiqa, rassomchilik haykaltoshlik xalq amaliy san'ati, adabiyot va hokazo) foydalaniлади.

San'at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiliginining tumanmas manbayi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda har bir kishining rivojlanishi, ma'naviy boyishi uchun ham vosita ir.

Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, hissiy kennimalar kishida fikrlashni uyg'otadi. Badiiy asardan haqjonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm

bolada fikrlar o'yinini uyg'otadi. Bu to'g'rida S.Ya.Marshak shunday degan edi: «Qizil shapkacha» ertagini bolalar qatorasiga 20 marta eshitishga tayyorlar. Bunga sabab ertak o'z tuzilishi bo'yicha aniq, uning mantiqi va motivi izchil, har qanday bola o'zini ertakdag'i qahramon o'rniغا qo'ya oladi va «Qizil shapkacha»ni o'ynay oladi. San'atning hamma turlari – adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino bolalarga tushunarlidir. Gilamchilik, to'qimachilik, kulolchilik, zardo'zlik, kashtachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislari, to'qilgan va tikib gul solingen buyumlar va boshqalar tasviriy san'atning manzarali shakliga kirdi. Bundan tashqari, MTMda har bir viloyat, o'lka, respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O'zbek naqshlari tushirilgan chiroyli guldor matolar qo'g'irchoqlar uchun ko'ylik, oyna pardalari, dasturxon kabilalar uchun ishlatilishi mumkin.

Musiqa bolalarning kayfiyatini ko'tarib ertalabki badan tarbiyada yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynayi jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi.

Ashula aytib o'yingga tushishda asosan xalq ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etayotib, xalq tili va ko'yining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiya-

laydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqs-ga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va to'g'ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish va yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatiladi.

MTMdA o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiyaning vositalaridan biri qo'g'irchoq teatridir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odadan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o'zları ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi.

Diafilm ko'rsatish bolalarning estetik didlarini o'stirishda muhim vositalardan biridir. Diafilmlar ko'rsatishni adabiy matn o'qib berish bilan qo'shib olib borish bolaga filmning mazmunini yanada to'g'riroq va ta'sirchanroq tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o'rin egallyaydi. Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlar bolalarga tanish bo'lsada, ularni tarbiyachi qo'li yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib borishi natijasida ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar.

Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bi-

langina emas, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri ayniqsa, katta bo'ladi. Bola kitobdag'i rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga «o'qib» berish bilan uning mazmuni ni o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdag'i chiroyli, yopqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Kattalar mehnati, qahramonlik shuningdek, ona Vatanga bo'lgan muhabbat, do'stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo'lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.

Bolalarning sevimli yozuvchilari Qudrat Hikmat, Mirmuxsin, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she'rlari ularda ijobjiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, ularni yashashga o'rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so'zlarning ta'sirchanligini his qilishga yordam beradi.

Kichkintoylar hammadan ham ertaklarni sevadilar. Ertakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo'ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o'zi badiiy adabiyotni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she'rlarni ifodalni o'qiy bilishi kerak.

MTMdakattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug'ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg'otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi bo'lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Estetik tarbiya** – bu ta’lim oluvchilarda estetik his-tuyg’u, estetik didni tarbiyalash, ularni ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish, estetik madaniyatni shakkantirishdir.

**Estetik g’oya manbalari** – estetik idrok, ishonch va talab kabilardir.

**Estetik his** – insонни о’раб турган мухитга муносабатининг асосиј шакли бо’ліб, ҳайот ҳақиқатини о’злаштиришнинг асосиј босқичидир.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Estetik va badiiy tarbiya tushunchalarini mazmunini ochib bering.
2. Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash vazifalarini assoslab bering.
3. Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash vazifalari qay mazmunda hal etilishini ochib bering.
4. Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash vositalaridan har tomonlama foydalanish zarurligini isbotlab bering.
5. Estetik tarbiyaning metodlarini yoriting.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Asosiy estetik kategoriya bu ...
  - a) axloqiylik kategoriyasi
  - b) go’zallik kategoriyasi
  - v) bilimlilik kategoriyasi
  - g) madaniyatilik kategoriyasi

2. Estetik ong asosini nima tashkil etadi?
  - a) bilim
  - b) tafakkur
  - v) estetik idrok
  - g) estetik bilish

3. Estetik ong bu ...

- a) ijtimoiy voqelik
- b) san'at, muloqot jarayonida shakllanadigan g'oyalar
- v) badiiy fikr mezonlari
- g) hamma javoblar to'g'ri

4. «Badiiy tarbiya» - bu ...

- a) san'at vositalari bilan tarbiyalash
- b) idrok orqali tarbiyalash
- v) estetik ehtiyoj
- g) estetik idrok

5. Maktabgacha yoshidagi bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashning vositalari bu ...

- a) tevarak-atrofdan olingan taassurotlar
- b) tabiat, san'at asarlari
- v) bolalarning tasviriy faoliyatları, bayramlar
- g) hamma javoblar to'g'ri

## **IX BOB. MEHNAT TARBIYASI**

### **Mehnat tarbiyasining nazariy asoslari**

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechiri-shi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Mehnat farovon, baxtli hayot kechirishning eng asosiy sharti bo'lganligi sababli ham fuqarolar uchun majburiyidir.

Mehnat odamlarning biror bir maqsad uchun sarflagan vaqt-i, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashamoq mumkin emas.

Barcha tirik mavjudot nimanidir iste'mol qilish hisobiga ya-shaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib, parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan hayvonlarga ovqatsiz yashay ol-maydilar. Xuddi shuningdek, odamlar ham uzlusiz ovqatlana-di, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli odam-lar kiyinishadi, uy-joy qurishadi, savdo-sotiq qilishadi, ijod qili-shadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun tirikchilik manbayi bo'lgan pul kerak. Pul topish uchun, o'zlariga kerakli narsa-larni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari zarur. Mehnat jarayonida oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsa-lar yaratiladi. Mehnat inson hayotini mazmunli qiladi. Odam-lar mehnat qilish jarayonida sog'liqlarini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va o'z kelajaklarini yaratadilar.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelgan-lar. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar – ilmiy, badiiy kitoblar, san'at asarlari, me'morchilik obidalari mehnat mahsulidir.

Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shgan al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muham-mad Bobur kabi bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufay-li ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan, yoshlarni ham mehnat qilishga chaqirishgan. Shu boisdan jahoning barcha xalqlari

aqollarida bo'lgani kabi o'zbek maqollarida ham mehnat tar-yasi markaziy o'rirlarni egallagan.

Azaldan mehnatkash, tinib-tinchimas xalqimiz o'zining mehnati bilan bog'larni gulistonga, cho'lni bo'stonga aylantirib elmoqda. Qadimda ota-bobolarimizning mehnat haqida aytildi dono naqlari hozirga qadar ham o'z qadrini yo'qotgani o'q. Masalan:

- ❖ Mehnat qilsang, ko'ksing tog',
- ❖ Hurmat qilsang, diling bog'.
- ❖ Mehnatli non-shakar,
- ❖ Mehnatsiz non-zahar.
- ❖ Mehnat baxt keltirar.
- ❖ Mehnat qilib topganing  
Qandu asal totganing.

Bu maqollar orqali dono xalqimiz mehnatni ulug'laydi, uning amarasi haqida fikr yuritadi.

O'zbek bolalar yozuvchisi va shoirlari ham kattalar mehnating mazmunini yoritib bergenlar. Bunga Q.Muhammadiyning "Etik", "Bir hovuch yong'oq", Q.Hikmatning "Suv" kabi she'rlari isol bo'ladi.

Yuqorida aytganlarimizdan ko'rinish turibdiki, mehnatlar qanday moddiy va ma'naviy boyliklarning asosiy manayi, shu bilan birga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning muhim vositasidir. Mehnat jarayonida insoniy xislatlarining faol namoyon bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratani va har bir kishida ma'naviy qoniqish hosil qiladi. Har bir bola faktabgacha ta'lim yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etini zarur. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan uncha muakkab bo'limgan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga yylanishi kerak.

Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetini uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlarini ajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiya-ri uyushtiradi.

Bolalar quruvchilarning mehnatini kuzatishyapti deylik. Qurilish maydonchasiga katta-katta bloklar keltirilib, ular o'tarma kran bilan tushiriladi. Keyin bolalar g'isht teruvchilar, duradgorlar, suvoqchilar, tom yopuvchilar, bo'yoqchilar mehnatini kuzatadilar.

Bolalarni qurilish bilan tanishtirish davomida bilib olgan archa tasavvur va tushunchalari, ularning ko'zi oldida ajoyib bino bunyod etgan kishilar mehnatining go'zalligi namonon bo'ladi. Tarbiyachi bolalar diqqatini chinni buyumlarga ul soluvchi kishilar mehnatiga jalb etadi. Bolalar tarbiyachi ilan birgalikda ularning mohirona chizgan rasmlari natijasida chinni idishlarning har xil jilo berib turlanishidan zavqlanib, "Jlarning qo'llari gul ekan", deydilar.

Bularning barchasi bolalarda kishilar mehnatiga muhabbat uyg'otadi. Pedagog bolalarni mehnatning moddiy boylik eltiruvchi tomonini ham, estetik tomonini ham ko'ra bilishga o'rgatadi. Bahor kunlarining birida tarbiyachi bolalarni daaxtlar gullab turgan boqqa olib kiradi. Gulsafsar va piyongul ilan o'rалган yo'lkalarga qum sepilgan, daraxtlarning tanasi og'bonlar tomonidan ohak bilan oqlangan. Tepada esa gullab turgan o'rik, gilos, olma, olcha, shaftoli, gullarning atrofida salarilar guvillashib uchib yuribdi. Bularning hammasi bolalarda ajoyib zavqli kechinmalar uyg'otadi.

Mehnat bolalarning jismoniy rivojlanishida zarur shartdan biri hisoblanadi. Mehnatda bola o'zining ishlash, haqakat qilish ehtiyojini qondiradi, harakatlarning aniq, uyg'un o'lishini ta'minlaydi. Mehnat jarayonida bola organizmining mumiy hayotiy faoliyati, uning chidamliligi ortadi. Bolalarning turli xil mehnat jarayonlarida ishtirok etishlari, kattalar mehnati bilan tanishishlari ularning tevarak-atrofdagi hayot aqida, kishilarning o'zaro munosabatlari to'g'risida, narsalar ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari aqida, qurilmalar va asboblar to'g'risida muayyan tasavvur-rga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehnilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varaq qog'ozni buklash, kerakli uzunlikni o'lchash, andozaga qarab shaklni qirqib olish kabi harakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalananishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi. Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog'liq ravishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga imkon beradi.

Bolalarni eng oddiy mehnat qurollari, materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish kerak. MTMdagi mehnat ularni maktabdagi politexnik ta'limga tayyorlaydi.

Mehnatning axloqiy qimmati uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Mehnat har bir bolani o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishga, uning jamiyat hayotiga kirib borishiga, o'zini shu jamiyatning a'zosi deb his etishiga imkon yaratadi.

Har bir bola oilada, bolalar mehnatida o'z ulushi borligini his eta bilishi lozim. Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni, burch hissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa mehnatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnatning bolalarni aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mehnat jarayonida ular borliqni faol anglay boshlaydilar, dunyoni materialistik idrok etish imkoniyati yaratiladi.

Maktabgacha yosidan boshlab bolalarga mehnat tarbiyasi berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasasida mehnat tarbiyasining mazmuni**

Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kam-

lotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog'cha yoshidagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomonidan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi, unga to'g'ri rahbarlik qilingandagina yetarli natijaga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar mehnatining o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o'rjanib chiqilgan.

Bolalar mehnatining muhim belgisi uning ma'lum maqsadga qaratilganligidir. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga oid harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga, mashinadan – stolga, stoldan – mashinaga ko'chiradi va hokazo. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko'rsatib, uni mashinada ortib olib borish kerakligini aytadi. Bola kubiklarni mashinasida shkafga tashiy boshlaydi va joyiga tartibli qilib joylab qo'ya boshlaydi. «Qatnov» bir necha marta takrorlanib, baracha kubiklar joyiga yig'ishtirib qo'yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo'ladi. Keyingi galda bolaning o'zi o'ynayotgan o'rtoqlariga o'ynab bo'lgandan keyin o'yinchoqlarni mashinada joyiga olib borib qo'yishni aytadi.

Katta guruh bolalarida mustaqil maqsad qo'yish qobiliyati moddiy samara beradigan mehnat turlarida muvaffaqiyatli rivojlanadi: gulzorda, ekinzorda ishlash, o'yinchoqlar yasash va boshqalar.

Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz, rejasiz ekanligini ko'rsatadi. Bolalar bunday harakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar, shu bilan bir vaqtda o'z ishlaridan o'zları qoniqmaydilar.

erishish yo'lidagi mehnat harakatlari, o'yin o'zining rivojlani-shidagi har qanday bosqichda to'xtatilishi mumkin, mehnatda esa, albatta, ko'zlangan natijaga erishiladi.

Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi? Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar ni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalilanadi («Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz», «Qo'g'irchoqni uxlatamiz» va shularga o'xshashlar). Avvaliga bolalar o'yin obrazi orqali mehnatga o'rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o'rganadilar. Sekin-asta o'z-o'ziga xizmat qilish malaka va ko'nikmalari shakllana boradi.

### **Yosh avlod tarbiyasida mehnat tarbiyasining vazifalari**

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, axloqli qilib tarbiyalash, kelajakdagagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, mehnat qilish xohishini singdirib borishdir.

Mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xildir, shuning uchun ularni guruhlar bo'yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi (V.I.Loganova):

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi:

1. Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat malakalari, ko'nikmalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish.

2. Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jaryonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtaсиda taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

3. Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqa-

li mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahmiyatli ekanligini tushinib yetish.

Ikkinci guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

1) Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.

2) Bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.

3) Kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o'rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan:

- Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatda qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamaslik, o'z shaxsiy mehnatiga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash.

- Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlilik, qat'iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matonatlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

- Madaniy xulq va o'z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o'zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o'z mehnati bilan qatnashish, o'zi va o'rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish va hokazo...

Maktabgacha ta'lrim muassasalarida  
mehnat tarbiyasini amalga oshirish  
yo'naliishlari

Bolalarning o'zini  
mehnatga o'rgatish

Kattalar mehnati  
bilan tanishtirish

Bolalar mehnatining mazmuni «MTMdа та'lim va tarbiya dasturi»ning birinchi va ikkinchi kichik guruhlар uchun «Mehnat faoliyati uchun zamin tayyorlash» bo'limida, о'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlарida esa «Mehnat» bo'limida berilgan.

Kattalar mehnati bilan tanishtirish hamma yosh guruhlari uchun «Mashg'ulotlarda ta'lim berish», «Tavarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishni tarbiyalash» bo'limlarida berilgan. Katta va maktabga tayyorlov guruhlari uchun qo'l mehnatining mazmuni «Qurish-yasash» bo'limida berilgan.

Dasturda bolalar mehnatiga mustaqil faoliyat va axloqiy tarbiyaning vositasi sifatida qaraladi.

### **Kattalar mehnati bilan tanishtirish**

Ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoiy-foydali mehnat bo'lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir kishi va butun xalq uchun zarur ekanligi to'g'risida tushuncha berib boriladi. Masalan, o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish orqali ulardan olinadigan mahsulot kimlar uchun va nima maqsadda ishlatilishi to'g'risida bilim va tushunchalar berib boriladi.

Kattalarning mehnati bilan tanishtirish yana quyidagi maqsadni ko'zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati to'g'risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o'rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg'otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o'rgatish.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- har bir kishi mehnatining ijtimoiy mohiyati;

V.I.Loginovaning olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida t'kidlanishicha, bolalarga mehnat tarbiyasi berish uchun ular mehnat va mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar sistemasini zlashtirib olishlari kerak ekan:

1. Mehnat maqsad qo'yish va uning natijasini belgilab olish-an boshlanadi: maqsad – mehnat tasviri.
  2. Mehnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tanlab (ajratib) olish.
  3. Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab (ajratib) olish.
  4. Natijaga erishish uchun mehnat harakatlarini bajarish.
- Bu sistemani quyidagi sxemada keltirish mumkin: maqsad, mehnatni tanlash, materialni tanlash, mehnat faoliyati – mehnat quroli, mehnat natijasi.

Shunday qilib, mакtabgacha yosh davrida mehnat faoliyati shakllantiriladi. Pedagog rahbarligida mehnatning ijtimoiy sabablarini hamma muhim tomonlari shakllanadi. Kattalar mehnati va uning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi bilimlar zlashtirilib olinadi.

Maktabgacha ta'lim yoshi davrining o'ziga xos tomonlari – un yana biri bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir.

O'yin jarayonidagi biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinci tomonidan, mehnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishadi, asalan, barglarni zambillarda tashishadi, mashinalarda yushadi.

Shu bilan birga o'zining xususiyati, mazmuni, yuzaga keşsh sababiga ko'ra mehnat va o'yin bir-biridan farq qiladi. Məhnatda maqsad qo'yiladi, uni amalga oshirish, natijasiga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O'yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi. O'yinda mehnat singari biror aniq natijaga erishilmaydi, ammo u mehnat kabi bolalarga quvonch bag'ishlaydi, ular 'zlarida qoniqish hissini sezadilar. O'yinda bola o'z o'ylaganini ivojlantirishi yetakchi rol o'ynaydi, mehnatda esa natijaga

Tarbiyachi bolalarni o'z faoliyatlarini taxminiy rejalashtirib  
qilishlariga o'rgatish va ular faoliyatiga rahbarlik qilishi lozim.

Shunday qilib, butun bog'cha yoshi davrida mehnat va o'yin  
'zaro bog'liq holda kechadi, biroq har qanday holda ham bola-  
lar mehnatini o'yinga aylantirish, ularning farqini ishlab chiq-  
ish noto'g'ri bo'lar edi. Tarbiyachilar va ota-onalar ta'sirida as-  
xa-sekin bolalar mehnati o'z vazifasi, mazmuni, metodi va tash-  
kil etilishi bilan mustaqil faoliyat sifatida ajratib boriladi.

Mehnatda uning beradigan samarası faoliyatning majburiy,  
arkibiy qismi hisoblanadi. Ammo bolalar bilan olib boriladi-  
an tarbiyaviy ishda mehnat natijasiga bolalarda mehnatga  
avas hissini tarbiyalash uchun yordam beradigan pedagogik  
mil deb qarash kerak.

Mehnatda natijaga erishishda, mehnat malakalarini shakl-  
antirishda pedagogning va bolalar o'rtoqlarining bahosi va  
'ziga-o'zi baho berish katta ahamiyatga ega. Bolalar yasagan  
uyumlari o'yin va mashg'ulotlarda qo'llanilsa, ular o'zları ya-  
yotgan buyumlar yanada sifatli bo'lismiga intiladilar.

Maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarning yoshi  
lg'ayishi bilan mehnat sabablari ham o'zgarib boradi. Mu-  
axassislarning olib borgan ilmiy izlanishlari natijasi shu-  
i ko'rsatadiki, bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish  
rqali ular kattalardan mehnatning ijtimoiy sababini ancha er-  
a o'zlashtirib olar ekanlar.

Lekin ular biron ishni mustaqil bajarganlaridagina o'z  
mehnatlari boshqalar uchun foydali ekanligini ongli ravish-  
a bilib oladilar. Masalan, onalar va buvilar uchun 8-mart-  
ga sovg'a tayyorlash, kichiq guruh bolalari maydonchasini  
ig'ishtirishga yordamlashish, yirtilgan kitoblarni yamab be-  
ish, konsert va teatr qo'yib berish va boshqalar bolalardagi  
mehnatning muayyan natijasiga intilish uyg'otadi, faoliyatning  
ijtimoiy sabablarini anglatib, mehnatga havasini, ishni baja-  
ishda bolalarning o'z oldilariga qo'yadigan talablarini oshira-  
di.

- mehnat ahli o'rtasidagi ijobiy o'zaro yordam berish munosabati;

- har qanday kasb ham muhim ekanligini tushuntirish.

Mehnat faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish:

1. mehnatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyati;

2. materiallarni tanlash (mehnat materiallari);

3. jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan asboblar ni tayyorlab olish);

4. mehnat jarayoni (maqsadga erishish uchun bajariladigan mehnat harakatlari);

5. natija-mehnat mahsuli.

MTM dasturiga binoan har bir yosh guruhidagi bolaclar katalar mehnati to'g'risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egal-lab olishlari lozim:

Kichik guruh:

1. Ayrim kasb egalarining mehnat jarayoni.

2. Mehnat jarayonidagi mehnat harakatlari.

3. Mehnat jarayonini amalga oshirish uchun kerakli materi-allar.

4. Ma'lum bir mehnat jarayonini bajarish uchun jihozlar.

5. Mehnat natijasi.

6. Kishilar mehnatining ijtimoiy ahamiyati.

O'rta guruhda mehnat to'g'risida qo'shimcha tasavvur va bilimlar beriladi:

- Harakat sifati haqida.

- Kishilarning mehnatini yengillatuvchi moslamalar.

- Kishilarning mehnatga muhabbbati.

Katta va maktabgacha tayyorlov guruhidida yana yangi tasavvur va bilimlar beriladi:

1. Kishilar mehnatini yengillatadigan mashina va me-xanizmlar to'g'risida.

2. Kishilar mehnati jamoa xarakterida ekanligi to'g'risida.

3. Jamoa mehnati jarayonida kishilarning o'zaro munosa-batlari to'g'risida.

#### 4. Mehnat qahramonlari, xalqimizning mehnat an'analari haqida.

Kattalar mehnati bilan tanishtirishning vosita va metodlari MTM da bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish har xil tashkiliy yo'llar va metodlar orqali amalga oshiriladi.

Birinchi yo'l - ekskursiya, mashg'ulot, maqsadli sayrlar orqali bolalarni kattalar mehnatiga yaqinlashtirish. Bunda kuzatish, kino va diafilm, diapazitiv, teleeshittirish, badiiy adabiyot, ko'rgan va eshitgani to'g'risida suhbat, tarbiyachi va bolalarning hikoyalari. Tarbiyachining hikoya va tushuntirishi, didaktik o'yinlar kabi turli-tuman metodlardan foydalilanildi.

Ikkinci yo'l - mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari vaqtarda kattalar mehnatini bolalarga yaqinlashtirish. Gigiyenik va pedagogik jihatdan mumkin bo'lgan ishlarni (binoni tozalash, idish yuvish, yuvilgan kirlarni dazmollash va taxlash, bayram kiyimlarini tikish, bolalar bilan o'yin, mashg'ulot uchun kerakli materiallarni tayyorlash va boshqalar) bolalar oldida bajarish. Kuzatish, ko'rsatib tushuntirish, suhbat, tarbiyachining so'zlab berishi va shunga o'xshash materiallardan foydalilanildi. Kuzatishdan keyin bolalar bilan shunga o'xshash mehnat turlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi: kutubxonaga borib kelgandan keyin yirtilgan kitoblarni yamash, modalar atelyesiga borib kelgandan keyin qo'g'irchoqqa kiyim tikish va hokazolar.

Uchinchi yo'l - bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari. Bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari har xil bo'lishi mumkin (xona o'simliklarini yuvish, polizza ko'chat yoki urug'larni ekish uchun jo'yaklar tayyorlash, binoning ichini tozalash va h.k.).

Bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlarini tashkil etish shakllari ham ish mazmuniga qarab har xil bo'ladi:

1. Asosiy ishni kattalar bajarishadi, bolalar qo'llaridan kelganicha yordam beradilar.

2. Tarbiyachi ishni boshlab beradi, qolganini bolalar o'zları mustaqil davom ettirishadi.

3. Kattalar boshlab beradi, bolalar davom ettiradi, keyin esa bolalar va kattalar birgalikda bajarishadi.

Bolalar kattalar bilan birgalikda mehnat qilishlari orqali mehnat malaka va ko'nikmalarini tez va oson egallab oladilar, ularning kattalar mehnati to'g'risidagi bilimlari boyiydi, bunday mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydi.

Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishda hamma metod va vositalardan keng ravishda foydalaniladi.

Shunday qilib kattalar mehnati bilan tanishtirish bolalar mehnat va axloqiy tarbiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

### Xilma-xil mehnat turlarining vujudga kelishi

Mehnat qilish muntazam tarzda bo'lib, unda hamma bolalar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanadi.



O'z-o'ziga xizmat qilish. Bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinish va yechinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi. O'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi, bolalar qo'llaridan kelgan ishni o'zlari bajarishga o'rganadilar. O'z-o'ziga xizmat bolalarda

oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi, batartiblikka, intizomli bo'lishga, xulq-odobga o'rgatadi.

Bolalar xo'jalik-maishiy mehnatga MTMda va oilada jalb etiladi. Uning mazmuni har xil bo'ladi: xona va MTM maydonchasi yig'ishtirish, stolni bezatish va stoldagi idish-tovoqlarni yig'ishtirish, choy idishlarini, qo'g'irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg'ulotga kerakli materiallarni tayyorlab qo'yish, mashg'ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig'ishtirib olish va hokazo.

Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to'grisidagi bilimlar manbayi, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga ehtiyojkorlik munosabatini tarbiyalash vositasidir, shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o'g'itlash, ko'chatni o'tkazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog'ligini mustahkamlaydi.

Qo'l mehnati - mashg'ulot, o'yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qurilmalarni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir (qog'oz qiyqimlarini tashlash uchun, o'simliklar urug'i uchun qutichalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o'xshash narsalar tayyorlash).

Qo'l mehnatini bajarish orqali bola natijaga erishadi narsa, buyum vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo'yash, qirqish, arralash, mix qoqishni, tikish va shunga o'xshash oddiy mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik, topog'onlik, zehnlilik xislatlari o'sadi.

Bolalarda mehnat faoliyatini shakllantirish. Mehnat faoliyati har xil mehnat jarayonlaridan tashkil topgan, har xil mehnat turlarini birlashtiruvchi keng tushunchadir. Mehnat jarayoni-mehnat faoliyatining o'ziga xos bir bo'lagi bo'lib, uning tarkibida esa mehnat faoliyatining hamma tarkibiy qismlari, mehnatning maqsadi, material va mehnat qurol-aslahalari, bi-

ron natijani yuzaga keltirish maqsadiga erishish uchun sarf qilingan barcha mehnat harakatlari, mehnat sabablari va mehnat mahsuli yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mehnat faoliyatini egallash - bu birinchi navbatda mehnat jarayonini uning tarkibiy qismlari bilan birgalikda egallab olishdir. Shunga qarab bolalarning mehnat tarbiyasi vazifalari belgilanadi va ular quyidagilardan iboratdir:

1. Bolalarni bo'lajak mehnat faoliyati oldidan maqsad qo'yishga o'rgatish.

2. Mehnat jarayonini, mehnat faoliyatini rejalashtirib olishga o'rgatish.

3. O'z ish joyini tayyorlab olishga, mehnat madaniyatiga o'rgatish.

4. Mehnat malakasi va ko'nikmalarini o'rgatish.

5. Bajarilgan mehnatning natijasi, sifati va ahamiyati, qancha vaqtda bajarilganligiga qarab o'zining va boshqalarning ishini to'g'ri baholashga o'rgatish.

6. Mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish.

7. Jamoa mehnat faoliyati vaqtida bolalarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish.

Maqsad qo'yish. Maqsad qo'yish kattalar taklif etgan maqsadni qabul qilishdan boshlab to o'zi mustaqil maqsad qo'yadigan bo'lguncha rivojlanib boradi (o'simlikka suv quyishdan to uni o'stirguncha). Bolalarning o'z oldilariga maqsad qo'yib ish bajarishlarini rivojlantirishlari uchun quyidagilarga rioya qilish zarur:

1. Bolalar mehnat qilishdan ko'zlangan maqsadni tushunib yetishlari kerak (nima uchun u yoki bu ishni bajarishlari kerak, undan ko'zlangan natija nima?);


2. Kutilgan natijani rasm, qurilma va shunga o'xshashlar tarzida ko'rsatmali tasavvur eta bilish;

3. Ishning mo'ljallangan vaqtda bajarilishi;

4. Bolalar kuchi yetadigan ishlarni qilishi (masalan, ko'chat o'tkazish, o'simlikni sug'orish, ularni parvarish qilish va hokazo) kerak.

Bola o'z mehnatidan ma'lum bir natijaga ega bo'lishni anglab yetgan taqdirdagina u mehnat faoliyatining maqsadini mustaqil belgilaydi va ishtiyoq bilan mehnat qiladi.

Mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olish – Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnati jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar bola mehnat harakatlarini bilmasa, u hech qachon mehnat natijasiga erisha olmaydi. Bolalar mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallab olganlarida-gina mehnat jarayonini bajonidil bajaradilar. Masalan, tikishda ipni o'lchab kesib olish, ninaga o'tkazish, uchini tugish, tikish; o'yinchoq yasash uchun egish, bukish, taxlash, burchaklarini bukish, qirqish, tikish kabi mehnat harakatlarini egallab olish-lari kerak bo'ladi. Bu ish harakatlarini ma'lum tartib bilan bajarish uchun har bir bola o'z mehnat faoliyatini rejalashtirib ola bilishi kerak.



Avvaliga mehnat faoliyatini rejalashtirib olishni bolalarga tarbiyachi o'rgatadi: mehnat maqsadini tushuntiradi, kerakli materiallarni, mehnat qurollarini tanlaydi va uni har bir bola oldiga tayyorlab beradi va bolalarga mehnat faoliyati jarayoni ni qanday tartibda bajarish kerakligini tushuntiradi.

O'rta va katta guruhlarga borganda bu harakatlarni mustaqil bajarishga o'rgatadi. Buning uchun bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilib boradi:

1. Biz nima qilamiz?
2. Buning uchun nima qilishimiz kerak?
3. Ishimiz uchun nimalar, qanday materiallar, qanday ish qurollari kerak?
4. Bu material va ish qurollaridan foydalanish qulay bo'lishi uchun ularni ish o'rnimizda qanday joylashtirishimiz kerak?
5. Ishni nimadan boshlab, qanday davom ettirishimiz kerak? (savol mehnat oddiy va murakkabligi, mazmuniga qarab bir necha marta takrorlanishi mumkin).
6. Ishni qanday tugatamiz?

Mehnat faoliyatini rejalashtirib olishga o'rgatish mehnatni sifatli bajarishga va mehnat madaniyatiga o'rgatadi.

Natija – mehnat faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni bolalar ongli ravishda anglab yetishlari kerak.

Natijaga erishish bolalarda mehnat qilish odatini, mehnat sevarlikni tarbiyalaydi, mehnat harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatadi.

Mehnatning sababi, ya'ni bola nima uchun mehnat qilishini bilishi kerak. Bu quyidagi shart-sharoit ta'sirida rivojlanadi:

1. Bolalar mehnatidan keladigan natijani va uning ijtimoiy mohiyatini bilishlari kerak.
2. Bolalar yasagan buyumlardan MTMda, oilada foydalanish kerak.
3. Bolalarning ijtimoiy-foydali mehnatini amaliy jihatdan tashkil etish.
4. Bolalar mehnatining natijasini, uning boshqa kishilar uchun foydasini baholash.

Shunday qilib, mehnat jarayonining undagi tarkibiy qismlar bilan egallab olinishi maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlanishi hisoblanadi.

MTMda mehnatni tashkil etish shakllari. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar mehnatining asosiy shakllari quyidagilardan iborat: o'z-o'ziga xizmat qilish, topshiriqni bajarish, yakka tartibdagi mehnat, navbatchilik, qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotlar, jamoa mehnati, o'z-o'ziga xizmat, topshiriqni

bajarish, Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar mehnat faoliyatining boshlang'ich shakli hisoblanadi.

O'z-o'ziga xizmat qilish bolalar mehnatining shakli sifatida yosh guruuhlarida tashkil etiladi. U kun tartibidagi uyqu va sayrdan oldin va keyingi jarayonlar: ovqatlanish, kiyinish va yechinish, kiyim va badanni toza tutish bilan uzviy bog'liqdir. (Bu mavzu «Jismoniy tarbiya» bobida batafsilroq yoritilgan.)

Yosh guruuhlarida topshiriqdan foydalaniladi: u yakka tartibda va guruhiy bo'lishi mumkin. Kichkina guruuhlarda bolalar ga uncha murakkab bo'lman va qisqa muddatli topshiriqlar beriladi: «O'yinchoqni, kitobni, stulni olib kel, o'rniga olib borib qo'y, tushki ovqat uchun stol ustiga qoshiqlarni qo'yib chiq». Bunday topshiriqlarni ayrim bolalar guruhdan tashqari joylarda ham bajarishlari mumkin.

O'rta va katta guruhlardagi bolalarga beriladigan topshiriqlar ancha murakkab bo'lib, ular endi xonadan tashqarida bajarishga mo'ljallangan va ikkinchi bir kishiga murojaat qilish bilan bog'langan bo'ladi, masalan, boshqa guruuhning tarbiyachisiga, enagaga, shifokorga, hamshiraga murojaat qilish va hokazo.

Bu guruhlarda topshiriqlar 2-3 boladan tashkil topgan kichik guruuhlar tomonidan bajarilishi mumkin (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, gullarga suv qo'yish, to'kilgan barglarni terib, tegishli joyga olib borib tashlash kabi).


Maktabga tayyorlov guruhidha beriladigan topshiriqlar yana ham murakkablashadi. Bunday topshiriqlar endi javobgarlik va boshqa kishilarga mehribonlarcha munosabatda bo'lish hissini shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin: kichkina guruuh bolalarini sayrga chiqishdan oldin, uyqudan keyin kiyinishiga yordam berish; ularning stolini tushlik ovqatga tayyorlab berish, enagaga toza sochiqlarni osishga, toza choyshablarni olib kelishga yordamlashish va hokazo.

Topshiriq uzoq vaqt bajarilishi mumkin. Masalan, ma'lum bir gul yoki bir qancha gullar bir hafta davomida parvarish

qilinishi yoki bu ish yanada uzoqroq cho'zilishi mumkin (biror o'simlikni ekish va o'stirish).

Tarbiyachi bolalarning topshiriqni bajarishlariga rahbarlik qilish bilan ham axloqiy, ham mehnat tarbiyasining muhim tomonlarini amalga oshiradi, mehnatda qatnashish istagini, o'rtoqlariga g'amxo'rlik va e'tibor bilan qarash ruhini singdiradi, bolalarni tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro xushmuoma-la bo'lishga odatlantiradi, topshirilgan ishda burch va javobgarlikni sezish hissini, natijaga erishishda sabotilikni tarbiyalaydi.

Navbatchilik – bu jamoa uchun mo'ljallangan mehnat faoliyatining shakli bo'lib, u majburiy tartibda bajariladi. Bolalarning navbatchiligi ikkinchi kichik guruuhda yil oxiridan (oshxonada) boshlanadi.



Barcha bolalarning mehnatda doimiy ishtirok etishlarini ta'minlash uchun navbatchilikning xilma-xil turlari uyuşhtiriladi: oshxonada (hamma yosh guruhlari), mashg'ulotga tayyorlanishda (o'rta guruhdan boshlab), o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishda (katta va mакtabga tayyorlov guruhlari).

Ikkinci kichik guruhdagi bolalar oshxonada navbatchilik qiladi. Birdaniga 4-5 bola navbatchilik qilishi mumkin, har bir bola 1-2 stolni bezatadi. Katta va tayyorlov guruhlari bolalarning vazifalari kengayadi. Nonushta va tushlik ovqatga, kech tushki va kechki ovqatga dasturxon tuzatish, ovqatlanib bo'lingandan keyin idish-tovoqni ovqat tarqatiladigan

stolga yig'ishtirish, stollar ustini tozalab olish, enagaga choy idishlarini yuvishda yordam berish shular jumlasidandir. Bu yoshdag'i bolalar ikkitadan navbatchilik qilishadi, ammo har bir bolaning ish hajmlari ko'payadi.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik bo'yicha navbatchilik qilish o'rta guruhda – bolalar oshxonada navbatchilik qilishni bilib olganlaridan keyin kiritiladi. Bu navbatchilar stol va stullarni, mashg'ulotga kerakli materiallarni, qo'llanmalarni mashg'ulotga tayyorlaydilar va xonani tartibga soladilar.

Katta guruhdan boshlab bolalar tabiat burchagida navbatchilik qila boshlaydilar. Navbatchilikning bu turi ham tarbiyaviy, ham ta'limiy ahamiyatga ega.

Navbatchilikning bu turida ham bolalar ikkitadan tayinlanadi: biri o'simliklarni parvarish qilsa, ikkinchisi jonivorlarga qaraydi. Ulardan qaysi biri bo'sh qolsa, ikkinchisiga yordam beradi.

Navbatchilikning hamma turi yaxshi tashkil etilganda foydali bo'ladi. Navbatchilikni boshlashdan oldin «Biz navbatchilik qilamiz» degan mavzuda mashg'ulot o'tkazish mumkin. Masalan, tabiat burchagida navbatchilikni boshlashdan oldin tarbiyachi mashg'ulot o'tkazib, bolalarni tabiat burchagida nimalar borligi, o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilish haqida suhbat o'tkazadi. Tarbiyachi tabiat burchagida yashovchilarni har kuni va to'g'ri boqish, o'simliklarni sug'orish va yuvish, qurigan shoxcha barglarini qirqish kabilarga diqqatni jalb etadi, ish usullarni tushuntiradi.

Tarbiyachi bolalarni o'simlik va hayvonlarni kuzatishga, o'zgarishlarni aniqlab borishga, burchakdagi o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishga, ularda yuz beradigan o'zgarishlarni ko'ra bilish va ular to'g'risida so'zlab berishga o'rgatadi. Yozda navbatchilarga ertalab gulpushtalarni sug'orish, guldasta tuzash, gul solingan guldonlar suvini almashtirish topshiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari hayvonlarga ovqat berish vaqtini, miqdorini, ovqatni mustaqil tayyorlashni, kataklarni tozalashni bilishlari kerak.

Navbatchilarining vazifasi va bajargan ishining sifati nazorat qilib boriladi. Bunday nazoratda bolalarning o'zlar qatnashsalar yana ham yaxshi bo'ladi.

Ba'zan navbatchilarining ish natijalari bolalarning uygaketar oldidan muhokama qilinadi. Tarbiyachi bolalarga: bugun navbatchilar o'z vaqtida keldimi? Ular hamma ishni qilishdimi? Nonushtaga, tushlik ovqatga stol to'g'ri tuzatildimi? Navbatchilar hamma narsani vaqtida bajarib, o'ynashga ham ulgurdilarmi? Kim yaxshiroq va chiroqli bajardi? kabi savollar beradi va ular ishini baholaydi. Navbatchilar har kuni almashtirib turiladi, bu har bir bolaning navbatchilikning har xil turlarida qatnashishiga va turli mehnat malakalarini egallab olishiga imkon yaratadi.

Navbatchilik ishlari bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan (suyuq ovqatlarni, choyni bolalar tarqatmaydilar, og'ir narsalarni bolalar ko'tarmaydilar va hokazo) qilib tashkil etilishi kerak. Navbatchilik uchun hamma kerakli jihozlar bo'lishi lozim, bolalar ulardan mustaqil, ehtiyyotlik bilan foydalanishga, ishdan keyin joyiga yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi.

Ayniqsa, navbatchilarni guruhlashga e'tibor berish juda muhimdir: passiv bolalarni faolroqlari bilan, navbatchilikni endi boshtagan bolalarni tajribali bolalar bilan birga tayinlash kerak. Lekin bunda faol bolalarning passiv bolalar ishni bajarishlariga yo'l qo'ymaslik darkor. Navbatchilarni tanlash va tayinlash har xil bo'lishi mumkin: bolalarning xohishiga qarab stollar bo'yicha, ro'yxat bo'yicha, sekin-asta navbatchilik galini bolalar o'zlar eslab qoladilar va shu tartib bilan borishini nazorat qilib boradilar.

Navbatchilarining borligi boshqa bolalar hamma ishdan ozod bo'lishini bildirmaydi, ovqatni yeb bo'lgan har bir bola o'zining idishini stol ustiga taxlab qo'yadi, salfetkani ham ma'lum

joyga qo'yishadi, stol ustidagi uvoqlarni maxsus cho'tka bilan idishga yig'ib olishadi. Mashg'ulotdan keyin ham shu hol takrorlanadi; har bir bola o'zining qalamini qalamdonga solib qo'yadi, o'z mo'yqalamlarini yuvib, qiyqimlarni yig'ishtirib qo'yishadi va h.k. Eng muhimi – bolalarda o'zaro mehr-muhabbatni tarbiyalash, bir-biridan qo'lidan kelgan yordamini ayamaslikka o'rgatish kerak. Bularning hammasiga tarbiyachi rahbarlik qiladi.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo'lsa va tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko'rgazmali qilib ko'rsatishni talab etgan hollarda ana shunday mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Bolalarning jamoa mehnati dastlabki jamoachilik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa mehnatida birgalikda harakat qilish, o'zaro yordam, shu bilan birga mehnat taqsimoti ham mujassamlashgan bo'ladi. Bunda mehnat yutuqlaridan birgalikda quvonadilar, ish yaxshi chiqmasa birgalikda qayg'uradilar.

Mehnatda bolalarning birlashishlari tarbiyaviy vazifaga qarab har xil shaklda bo'ladi. «Yonma-yon mehnat»da hamma bolalar bitta ishni bajaradilar, ammo har bittasi o'sha umumiy ishning bir qismini bajaradi (bittasi mo'yqalamlarini yig'ishtiradi, boshqasi bo'yoqlarni va h.k.). Ishning bunday tashkil etilishi bolalarni mehnat malakalariga o'rgatishda ham, ularning ishini nazorat qilib turishda ham o'ng'aylik tug'diradi.

«Umumiy mehnat»da har bir bola o'z ishini bajaradi, ammo oxirida hamma qatnashuvchilar mehnati umumlashtiriladi (har bir bola xamirdan uzib olib pechene yasaydi va u bitta idishga solib pishirishga qo'yiladi, pishgandan keyin bitta idishga solib bolalar mehmon qilinadi). Yoki hamma bolalar guruhi xonasini yig'ishtirishadi – har bir bola biron ishni bajaradi, yig'ishtirib bo'lingach, natija bitta qilib yakunlanadi. (hamma yaxshi ishladi, shuning uchun guruhi xonasini toza, saranjom-sarishta, chiroyli bo'lib qoldi).

Birgalikdagi mehnat quyidagicha tashkil etilishi mumkin: masalan, xonani yig'ishtirishda bolalarning bittasi o'yinchoqlarni yuvadi, ikkinchisi artadi, uchinchisi o'yinchoq tokchasini tozalaydi va unga o'yinchoqlarni teradi. Yoki tabiatdagi mehnatda bittasi tuvaklarga qum va tuproqlarni soladi, ikkinchisi urug' yoki ko'chatni o'tkazadi, uchinchisi joyiga olib borib qo'yadi. Bu yerda bolalarning ish harakatida o'zaro mutanosiblik bo'lishi, ya'ni har bir bola bir xilda chaqqonlik bilan harakat qilishi kerak, buning natijasida ma'lum mehnat munosabatlari yuzaga keladi. Bunday vaziyatda tarbiyachining bolalar o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatishga qaratilgan bevosita rahbarligi zarur.

Bunday rahbarlik, ma'lum izchillikda amalga oshiriladi.

Tarbiyachi bolalarga bir necha kishilar birgalikda biron ishni bajarayotganligini, ularning ishi bir-biriga bevosita bog'liqligini, ulardan har biri umumiy ishning biron qismini bajarayotganini, ish qanday izchillik bilan amalga oshirilayotganini tushuntiradi (bunging uchun tushuntirish, hikoya qilib berish, bolalar badiiy adabiyotidan foydalanadi).

Bolalarning kichkina guruhi bilan ularning birgalikdagi mehnatini tashkil etish. Bunday mehnat ertalab, sayr paytlarida tashkil etiladi.

Bolalarning mehnat faoliyatini rejalashtirganda tarbiyachi uni mehnat jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy vazifalariga ko'ra belgilaydi.

Bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining shart-sharoitlari. Bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining vazifasi va mazmuni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bolalar mehnati uchun joy va vaqt, gigiyenik shart-sharoit yaratilmog'i lozim. Ozodalik, toza havo, kerakli darajadagi yorug'lik, mehnatning bolalar imkoniyatiga muvofiq bo'lishi, mehnat vaqtini bolalar yoshiga qarab to'g'ri belgilash (kichik yoshli bolalar uchun 10-12 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 15-20 daqiqa), bolalar harakatlarini almashtirib turishni ham e'tiborga olish kerak.

Mehnat bolalarga quvonch bag'ishlaydigan qilib rejalashtirilishi lozim. U ma'lum izchillik bilan amalga oshirib borilishi kerak.

Mehnat qilishlari uchun hamma bolalarga yetarli miqdorda kerakli qurollar, asboblar bo'lishi, ular bolaarning yoshiga, imkoniyatiga mos kelishi, o'zлari mustaqil foydalanadigan qilib joylashtirilishi kerak. Navbatchilar uchun fartuklar, qalpoqcha, qo'lqopcha, idish yuvish uchun klyonkadan fartuklar zarur. Ovqat tayyorlash uchun kichikroq pichoqlar, tarelkalar, o'qlovchalar, xamir qorish uchun tog'orachalar, shaklchalar kerak bo'ladi. Xonani tozalash uchun toza latta, kichikroq tog'oracha, stoldan uvoqlarni yig'ib olish, polni supurish uchun cho'tkalar, axlatni yig'ib olish uchun xokandozlar kerak. Kir yuvish uchun tog'ora, chelakchalar, kichkina dazmol taxtasi, kiyim tozalash uchun cho'tka, supurgi, tikish uchun tugmachalar solingan quticha, ip, nina, mato parchalari, o'yinchoqlarni yasash va singanlarini, buzilganlarini tuzatish uchun maxsus stol yoki taxtacha, bolg'achalar, mixlar, qisqich, yaxshi randalangan taxtachalar, karton, ip, arqon, tashlandiq materiallar, gugurt qutilari, konfet, atir qutichaлari, ipdan bo'shagan g'altaklar va hokazolar zarur. Guruh xonasidagi tabiat burchagida, MTM hovlisidagi polizda, gulzorda ishslash uchun belkurak, xaskash, supurgi, kichkina zambilchalar, chelakchalar, leyka, savatchalar kerak bo'ladi. Barcha buyum ishlatib bo'lingandan keyin tozalab joyiga qo'yiladi.

Bolalarga to'g'ri mehnat tarbiyasi berishda kattalarning bir-biri bilan o'zaro do'stona munosabat bilan hamkorlikda ishslashlari ijobjiy natija beradi.

Mehnat tarbiyasi masalalari MTMning yillik rejasida aks ettiriladi va tarbiyachilarga mehnat tarbiyasini to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirilishida yordam beradi.

MTMdа mehnat tarbiyasini to'g'ri tashkil etish va unga rahbarlik qilish yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Mehnat tarbiyasi** – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon.

**Mehnatsevarlik** – mehnat turidan qat'iy nazar uni sevib, unga sadoqatli bo'lgan, uni malakali bajaruvchi kishining fazilati.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qanday mehnat turlariga jalb qilamiz?
2. Mehnat tarbiyasining vazifalarini guruhlab, turkumlarga ajrating.
3. MTMlarda mehnat tarbiyasi nechta yo'nalishda amalga oshiriladi?
4. Bolalarni kattalar bilan birgalikdagi mehnatlarini tashkil etish shakllari qaysilar?
5. Mehnat jarayonini rejalashtirish nimalarni o'z ichiga oladi?
6. MTMdagi mehnatni tashkil etish shakllari qaysilar?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Bolalar muassasalarida navbatchilik qaysi guruhdan boshlanadi?
  - a) Ilk yosh guruhidan
  - b) O'rta guruhdan
  - v) Katta guruhdan
  - g) 2-kichik guruhdan
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar qanday mehnat turlariga jalb qilinadi?
  - a) Kattalar mehnati bilan tanishtirish
  - b) O'z-o'ziga xizmat qilish, xo'jalik-maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qo'l mehnati

- v) Bolalarni kattalar bilan birligida mehnati
- g) Tabiat qo'yidagi mehnat

3. MTMlarda mehnatni tashkil etish shakllari qaysilar?

- a) O'z-o'ziga mehnat qilish, topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi mehnat, navbatchilik, qo'l mehnati, barcha mashg'ulotlar, jamaa mehnati
- b) Mehnat natijalari
- v) Maishiy-xo'jalik mehnat
- g) Bolalarning o'z mehnati

4. Mehnat jarayonini rejalashtirish nimalarni o'z ichiga oladi?

- a) Mehnat malakasini o'rgatish, mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish
- b) Maqsad qo'yish
- v) Mehnat faoliyati uchun kerakli ish qurollarini tayyorlab olish
- g) Natijani aniqlab olish, ish joyini yig'ib qo'yish

5. Mashg'ulotga tayyorlarlik bo'yicha qaysi guruhdan navbatchilik o'tiladi?

- a) Tayyorlov guruhidan
- b) O'rta guruhdan
- v) Kichik guruhdan
- g) Katta guruhdan

## X BOB. IQTISODIY TARBIYA

### Iqtisodiy tarbiya haqida tushuncha

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi natijasida mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish yo'lida o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1992-yil 21-yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 1994-yil 15-martdagi O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida, "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish" to'g'risidagi, shuningdek, 2001-yil 22-avgust, 2007-yil 27-aprelda qabul qilingan qarorlar bunga yaqqol misoldir.

Mamlakatda ro'y berayotgan iqtisodiy o'zgarishlarni anglash, ularni tushunib yetish, yoshlarimiz ongida iqtisodiy ong, iqtisodiy bilim, iqtisodiy madaniyat tushunchalarini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tizimi pedagog-tarbiyachilar oldiga ulkan vazifalar qo'yiladi. Bularidan eng muhim bu maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berishdir.

Xo'sh, iqtisodiyot iborasi nimani anglatadi? Uning muhim belgilari qanday, degan savolning ma'nosini tushunib yetish lozim.

Iqtisodiyot bu – kishilarning o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatadir.

Iqtisodiyot – boshqa siyosiy ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy faoliyat turlarining rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoit yaratib bera olishi bilan asosiy faoliyat hisoblanadi.

Iqtisodiyot – kishilarning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy ashyolarni yaratish va iste'molchiga yetkazib, hayot kechirishni kafolatlaydi.

Demak, iqtisodiyot yashash ehtiyojini qondiruvchi vosita. Shu o'rinda ehtiyojning o'zi nima ekanligini anglab olish zarur.

Ehtiyojlar – insonlarning hayot kechirishi va kamol topishi hamda jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lish uchun zarur bo'lgan turli-tuman noz-ne'matlar, ya'ni barcha mahsulot va xizmatlarning majmuasidir.

Ehtiyojlar tarkiban ikki yirik guruhg'a ajratiladi:

1. Moddiy-mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlar bunga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, uy asbob-anjomlari, transport, aloqa, kommunikatsiya va boshqalar.

2. Turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj. Ya'ni, ta'lim, tibbiy xizmat, jismoniy tarbiya va sport, dam olish va sayohat, madaniy-ma'rifiy xizmatlarni o'z ichiga qamrab olgan ijtimoiy ehtiyojdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlarini ularning talab va istaklari asosida namoyon bo'ladi.

Bola ehtiyoji:

- to'laqonli xohishi bo'yicha ovqatlanishga bo'lgan ehtiyoj
- ota-onalar tomonidan berilgan pullarni o'z xohishi bilan sarflash
- dam olish, sayohatga chiqish
- shaxsiy o'yinchoqlar, kompyuter
- shaxsiy o'rinn-joy

Bunda talab va istak iboralarini bir-biridan farqlay olishga o'rgatiladi. Bolalarga har qanday talab – bu huquqiy mas'uliyat deb qaralishini tushuntirish zarur.

Bu yoshdagi bolalarga inson yashar ekan uning ehtiyoji to'xtovsiz o'sib borishi haqida ma'lumot beriladi.

Masalan, ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj turli yo'nalishdagi o'quv markazlari, chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar ehtiyojlarining o'rinn almashtinuvi, muloqot yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi, ehtiyojlarning miqdoran ko'payishi kuzatiladi.

Iqtisodiyot hech narsa yo'q yerda bo'lishi mumkin emas. Bu albatta, iqtisodiy resurslar, kattalar mehnati orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy resurslar:

- 1) Moddiy resurslar
- 2) Mehnat resurslari
- 3) Informatzion axborot resurslar

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni moddiy resurslar bilan tanishtirganda tabiiy resurslar - yer, suv, yer osti va usti boyliklari bularning barchasi tabiatne'matlari ekanligi, ulardan oqilona foydalanish, suvning inson hayoti uchun zaruriy jihatlari, ichimlik suvi uni isrof qilmaslik, o'lkamizdagi barcha boyliklarni asrab-avaylash kerakligi, tevarak-olam, tabiat, matematika, nutq o'stirish va boshqa pedagogik jarayonlarda o'rgatib boriladi.

Inson mehnati bilan yaratilgan bino inshootlar, mashina va mexanizmlar va barcha mahsulotlar bu moddiy mahsulotlar ekanligi tushuntiriladi. Bu yoshdag'i bolalarni mehnat resurslari ular kim tomonidan tashkil etilganligi, kimlarning mehnat qilib mahsulot ishlab chiqarishi, dala, fermer xo'jaligidagi kattalarning ishbilarmonlik bilan boshqara olish qobiliyatları bilan tanishtiriladi. Endilikda har bir ishni tashkil etishda, albatta, oldin kerakli mahsulotlar yig'ilari, shularga tayanib, kelgusidagi ishlab chiqarish rejalashtiriladi. Bu axborot-informatsion resurs jarayoniga kiradi.

Yuqorida biz iqtisodiyot va iqtisodiy resurs va ehtiyojlar haqida fikr yuritib, maktabgacha yoshdag'i bolalarga iqtisodiy tarbiya berish dolzarb muammo ekanligi va mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishda jamiyatning hamma fuqarolari faol qatnashishi zarurligini ta'kidlagan holda maktabgacha ta'lim pedagogikasi o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'ydi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarga iqtisodiy tarbiya berishning maqsadi bolalarga iqtisodiyotga oid bilim va ma'lumotlar berish orqali iqtisodiy hodisalar mohiyatini tushunib yetish va ularni iqtisodiy faoliyatga yo'naltirishdir.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotimizning barqaror o'sishida kelajak avlodni tarbiyalshni maqsad qilib qo'yadi.

Ushbu maqsadni amalgalashda quyidagi vazifalar ustuvor hisoblanadi:

1. Maktabgacha bolalarning jamiyatning iqtisodiy rivojlan-tirish tamoyillari va qonuniyatları bilan tanishtirish orqali ularni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish;

2. Iqtisodiy tushunchalar mazmunini anglash, o'z kundalik faoliyatlarida ongli ravishda qo'llay olish malakalarini shakl-lantirish;

3. Bolalarda iqtisodiy tafakkur elementlarini shakllantira borib iqtisodiy muammolarni tahlil, farqlay olish, isbotlay olish va umumlashtirish ko'nikmalarini tarkib toptirish;

4. O'qitishning zamonaviy metodlari, tashkiliy shakllaridan foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bobi "Jamiyatning iqtisodiy negizlari"ga bag'ishlangan bo'lib, unda: bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va davlat muhofazasidadir" deyiladi.

### **Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari**

O'rta asrlarda yashab ijod etgan olim va mutafakkirlar o'z ilmiy asarlari orqali mamlakat rivojida iqtisodiyotning ahamiyati, rolini falsafiy jihatdan yoritib berdilar.

Eramizdan oldingi mingginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusidagi juda ko'p afsonalar, rivoyatlar aytilgan bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da kiritilgan.

"Avesto"da insонning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi birligiga katta e'tibor qaratiladi. "Avesto"da mamlakatni iqtisodiy jihatdan ta'minlashda asosan:

- Shahar va qishloqlarni obod qilish;
- Bog'larni ko'paytirish;
- Chorva va yaylovlarga e'tibor berish;
- Kishilarni madaniy turmush tarziga undash g'oyalari o'rин egallaydi.

Shuningdek:

- yer, suv, zamin;
- kiyim-kechak;

- oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga e'tibor berish lozimligi ta'kidlanadi. Zardushtiylik ta'llimotida inson shaxsining takomili, tabiatni muhofaza qilish, o'z ehtiyojlarini qondirish me'yorlarini tarbiyalash masalalari o'rин egallaydi. Zero, unda insонning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida faqat sharq xalqlarining emas, balki g'arb mamlakatlarining muqaddas merosi bo'lib qoldi. Bu davrda G'arb bilan Sharqni, Uzoq Sharq mamlakatlari bilan O'rta yer dengizini bog'lovchi buyuk savdo yo'li - "Buyuk Ipak yo'li" rivojlanib, madaniy boyliklarni almashuv madaniy taraqqiyot yuzaga keldi.

Sharq uyg'onish davrida qishloq, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi yo'l berdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq davlatlari bilan savdo ishlari olib borildi. Buning natijasida ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish inshootlari yaratildi. Paxta, zig'ir, kanop ekilib, ularning Movarounnahrda, asosan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarqad va Buxoroda to'qimachilik mahsulotlari ayniqsa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyosi mashhur bo'ldi. Bu davrlarda pul muammosi

rivojlandi. Jamiyat siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Sharq mutafakkir va olimlardan Al-Xorazmiy Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy, A.Temur kabi qomusiy olimlar Inson va uning kamoloti ta'lim-tarbiya iqtisodiyot va tabiat masalalari haqida fikr yuritadilar.

Al-Xorazmiy ilmiy bilim, ta'lim metodlari insonni aqliy kamolotga yetaklash kabi falsafiy qarashlari bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim belgilari va omillarini o'z ilmiy asarlarida yoritib berdi.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyas haqida fikr yuritib, har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand mehnatini keltiradi. Beruniy "Minerologiya" asarida qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid qarashlari mamlakat iqtisodiyotini kengaytirish masalalarini ilgari suradi. Ibn Sino materianining eng sodda bo'laklarga bo'linmaydigan shakli to'rt unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat, ularning o'simlik, hayvonot olamiga ta'siri bebahो boyliklarni asrab-avaylash kerakligi to'g'risida o'zining "Aqsom ul-ulum ul-aqliya" (aqliy bilimlar tasnifi) **asarida** fikr yuritadi.

Amir Temur mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko'tarishgda savdoning ahamiyatini tushunib bozorlar, rastalar, turlituman ustaxonalar barpo ettirib xalq hunarmandchilik san'atini taraqqiy ettirdi. Shuningdek, xalq farovonligi, mamlakat obodonchiligi yo'lida suv omborlari, to'g'onlar qurishga, yangi yerkarni o'zlashtirishga e'tibor berdi. Amir Temurning soliqlar haqida qoidasi muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviyatimizning buyuk siyoshi Alisher Navoiy shahar va mamlakat obodonchiligiga katta hissa qo'shib, shifoxonalar, madrasa qurdirib, ularni kerakli jihozlar, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlarga oylik maosh, ozuqa, kiyim-bosh bilan ta'minladi.

Binolar qurilishi, dehqonchilik ishlarini yo'lga qo'yish, mamlakat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shgan. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o'ylab ilmiy risolalar bitirishga bevosita rahbarlik qilganligi shu asrda davlatchilikni boshqarishda bosh vazifa bu iqtisodiyotni rivojlantirish muhim masalalardan biri ekanligini ta'kidlanadi.

Talabalar uchun "Ixlosiya" madrasasi, darveshlar uchun "Xalosiya" xonaqoni, bemorlar uchun "Shifoysi" shifoxonasi, masjidi Jome yoniga Qorixona (Dor ul-hufroz) qurilib, ular uchun nafaqa ajratib, ularni kitoblar va zaruriy ashyolar bilan doimiy ravishda ta'minlab borilgan.

Alloma tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari ham farovonligini, turmush darajasini o'stirish bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishga olib keldi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, diyorimizda yashab o'tgan har bir olim-u fuzalolar mamlakat taqdiriga befarq bo'lmay, o'z asarlari va hayot faoliyatları bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga o'z hissalarini qo'shganlar.

O'zbekiston diyorimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Davlatimiz rahbari tomonidam buyuk bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Mamlakatimizda yangidan qad rostlagan ta'lim muassasalari, maskanlari (maktab, litsey-kollej, maktabgacha ta'lim muassasalari, oliy ta'lim);

- Shifoxonalar, sanatoriya, dam olish maskanlari;
- Madaniy va ma'rifiy inshootlar;
- Turli xildagi banklar;
- Mashinasozlikka mo'ljallangan korxona va zavodlar;
- Yo'l, ko'priklar, mamlakat temir yo'li, yangi Qamchiq dovoni;

- Respublika havo yo'llari kompaniyasi;

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik ishlarining eng sermahsul zamонавиъ тизимини joriy etishning o'zi ham davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga e'tibori nihoyatda katta ekanligidan dalolat beradi.

## **Maktabgacha ta'lif muassasalarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish**

Kelajagimiz bo'lgan barkamol avlod jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotida qatnasha olish uchun mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, farovonlik bo'lishi zarur.

Ijtimoiy farovonlik – bu iqtisodiy ijtimoiylikning umumiyligi shart-sharoiti va turmush tarzini bildiradi. Farovonlik iste'mol bilan cheklanmay, hayot kechirishning naqadar qulayligini ham talab qiladi. Hamma narsa yetarli bo'la turib turmush tahlikasi bo'lsa farovonlik ta'minlanmaydi.

Ijtimoiy farovonlikning muhim tomoni aholining savodxonlik darajasidir. Bu o'qish yoshidagilarning qancha qismi amalda o'kishi, har bir kishining o'rtacha necha yil ta'lif olishi, ishlaydiganlarning qanchasi savodxon bo'lishini bildiradi. Farovonlik ko'rsatkichi sifatida aholi jon boshiga ta'lif – tarbiya xarajatlari, kommunal xizmatlar, toza ichimlik suvi, gaz, elektroenergiya, kanalizatsiya va boshqa xizmatlardan foydalanish kiradi.

Davlatimizning maqsadi – milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdir.

Demak, farovonlik bo'lgan joyda iqtisodiyot tez sur'atlar bilan rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga ilk iqtisodiy bilimlar berish asosan o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berish, ularning mantiqiy fikrlash doiralarini o'stirish, ishbilarmonlik, tejamkorlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

O'rta guruh bolalariga ilk iqtisodiy tushunchalarni berish quyidagi bilimlar:

1-Inson va uning ehtiyojlari;

2-Inson va iqtisod;

3-Pul, mahsulotlarni sotib olish va ayirboshlash asosida tashkil etiladi.

I bo'limda Inson va uning ehtiyojlari haqida tushuncha berishda, Inson uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlar (kiyim-kechak, oziq-ovqat va hokazo), tejamkorlik haqida (suvni, vaqt ni tejash), mактабгача та'lim muassasalaridagi va uydagi jihozlardan (o'yinchoq, kitob va hokazo) tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish vaqt haqida ilk tushuncha berish orqali vaqt tejash haqida tushunchalar beriladi.

Bu tushunchalarni berish orqali tevarak-atrofdagi buyum va xomashyolar, ularning xilma-xil sifatlariga, uy-ro'zg'or buyumlari (ko'rpa-to'shak, ko'rpa-chash, yostiq, choyshab, idish-tovoqlar) ularni bir-biridan farqlash va umumlashtirish, ustki kiyimlar turlari haqida tasavvurlarini aniqlash va kengaytirishadi. Jonli va jonsiz tabiat, yer kurrasi, suv, havo, yer to'g'risida tasavvurlari shakllantiriladi. Vaqt ni chamalash va bolalarning vaqt ni ifodalovchi kun-tun kabi so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llashga o'rgatish asosida vaqt haqida tasavvurlari mustahkamlanadi. Shuningdek, sutka qismlari (kechasi, kunduzi, ertalab, kechqurun, bugun, kecha, ertaga) tushunchalarini farqlash va to'g'ri qo'llay olishga, harakat tarzini ifodalashga (tez, sekin) o'rgatiladi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida "Non va suv biz uchun aziz", "Uy-ro'zg'or buyumlari", "Oshxona buyumlari" kabi mavzularda suhbatlar o'tkaziladi.

II bo'limda inson va iqtisod haqida tushuncha berishda mehnat inson hayotidagi asosiy faoliyat ekanligi, kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash, o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, duradgor mehnati, dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bolalar o'z tarbiyachisi, enaga, oshpaz, haydovchi, bog'bon mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissi shakllantiriladi. Mehnat qurollariga nisbatan ehtiyyot bo'lib, tejamkorona munosabatda bo'lishga tarbiyalanadi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida quyidagi:

"Duradgor mehnatini kuzatish", "Dehqonlar mehnati haqida", "Haydovchi mehnati haqida", "Bog'bon", "Oshpaz", "Quruvchi" mehnati haqida suhbatlar o'tkaziladi. Bolalar xo'jalik mehnat qurollari bilan yaqindan tanishtiriladi.

III. Pul-mahsulotlarni sotib olish va ayirboshlash bo'limida bolalarga bozor, uning turlari, sotuvchi, xaridor, bozorda oldi-sotdi ishlarini amalga oshiruvchi vosita – pul to'g'risida tushuncha beriladi. Milliy pul, uning turlari, vazifalari haqida bolalarga iqtisodiy bilim beriladi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida: "Do'kon" ta'limi o'yini, oziq-ovqat do'koniga sayr o'tkaziladi.

Katta guruhda quyidagi:

- Inson va uning hayotiy ehtiyojlari;
- Inson va iqtisodiyot;
- Pul, narx mahsulotlari sotib olish va ayirboshlash;
- Ishlab chiqarish, mehnat faoliyati bo'limlar asosida iqtisodiy bilim beriladi, bolalarga iqtisodiy ongni shakllantirish, mustaqil fikr yurita olish, puldan to'g'ri foydalana olish, pul qiymati, milliy valyutamiz, davlatimiz rivojidagi kuchi, xizmati haqida tushuncha beriladi.

I bo'limda insonlarning tabiiy ehtiyojlari (ichimlik suvi, yerga o'simlik va hayvonotlar dunyosi) va imkoniyatlari, moddiy ma'naviyat ehtiyoji va uni qondirish usullari, vaqt ni tejash, undan unumli foydalana olish, suvning inson hayoti uchun zarurligi, yer yuzidagi eng bebah o boylik, uni asrash bizning burchimiz ekanligi, quyosh, oy harakatlari haqida tushuncha beriladi.

Insonlarning transport va aloqa vositalariga bo'lgan ehtiyoji haqida tushuncha beriladi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida "Aloqa vositalari", "Havo" transporti haqida suhbatlar o'tkazib, yengil transport turlari harakati kuzatiladi va kompyuter bilan yaqindan tanishtiriladi.

II bo'limida Inson va iqtisodiyot-Inson shaxsi, unga zarur bo'lgan sog'lom muhit, sog'liqni saqlash, kattalar mehnati,

ularning dam olishlari uchun davlatimiz tomonidan qilinayotgan g'amxo'rliklar haqida tushuncha beriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi shifokori va hamshirasi mehnati bilan tanishtirilib, bolalar sog'lig'i uchun barcha sharoitlar mavjudligi, fitobarlar tashkil etilganligi, basseyn va sog'lomlashtiruvchi jihozlarning bolalar uchun, ularning sog'lom o'sishlari uchun yaratilganligi tushuntiriladi. Buning uchun quyidagi "Shaxsiy gigiyena", "Vitaminlar", "Salomatlik - tuman boylik", "Sog' tanda - sog'lom aql" mavzularida suhbatlar o'tkaziladi.

III bo'limda Tovarni ishlab chiqarish, ularning turlari, pul, uning turlari, insonlar uchun pulning zaruriyati, mahsulotlarni sotish va sotib olish, savdo turlari – chakana, ulgurji savdo, mahsulotlarning narxi va uning nimaga bog'liqligi, arzon va qimmatbaho mahsulotlar haqida tushuncha beriladi. Bular, dastavval, ishlab chiqaruvchi kim? Tadbirkor, ishbilarmon, biznesmen kabi tovar egalari haqida, "pul" – nima, milliy valyutamiz haqida to'liq ma'lumot beriladi. Bozor haqidagi tushunchalarni kengaytirib borish, bozordagi oldi-sotdi, tovar ayirboshlash naqd pul, narx, "tannarx", "foyda", "zarar", ishlab chiqarish shakllari to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi.

Atrof –olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida: "Pul nima?", "Pulni saqlash", "Oziq-ovqat do'koniga sayr" tashkil etiladi.

IV Ishlab chiqarish, mehnat faoliyati bo'limida mehnat insonlarning assosiy faoliyati ekanligi, mehnat turlari, ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, bog'bon, pillakor, chorvachilar mehnati bilan yaqindan tanishtirish, mebel, avtomobil, televizor, chinni, nonvoyxona korxonalari, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlari mamlakat aholisi uchun ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Korxona, tashkilotlar va ularning turlari haqida korxona moliyaviy ta'minoti, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan, ashylolar firma haqida tushuncha shakllantiriladi. Mehnat turlaridan aqliy va jismoniy mehnat soha vakillarining tomo-

nidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlar tushuntiriladi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida tikuvchi mehnatlari va xo'jalik mehnat qurollari (ketmon, Shifokor belkurak, chelak, tesha) bilan yaqindan tanishtiriladi.

Duradgor

Chorvador

Bog'bon

Maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalarga iqtisodiy bilimlar berish mazmun jihatdan bir muncha kengaytirilib, bunda "mulk", oila byudjeti, "bank", "import", "eksport" kabi tushunchalar berildi.

I bo'limda Inson va uning tabiiy ehtiyojlari bo'limiga "mulk" va uning turlari, insonlarning hayot kechirishlari uchun yaratilgan moddiy ehtiyojlardan oqilona tejamkorlik bilan foydalanish ko'nikma, malakalari takomillashtiriladi, turli vaziyatlarda o'zlarini boshqara olish va ulardan chiqa olish, mulkiy munosabatlarning uyg'unlashuvi, egalik qilish, sotish, ijara qo'yish, to'lov evaziga mulkdan vaqtinchalik foydalanish va mulkni boshqarish iqtisodiy aloqalarни rivojlantirishda ekspert va importning roli haqida ma'lumot beradi.

II bo'limda Iqtisodiy resurslar ya'ni moddiy, mehnat va informatsion axborot resurslari va ulardan tejamkorlik bilan foydalanish, inson mehnati bilan yaratilgan barcha moddiy, ma'naviy resurslari ishbilarmonlik bilan boshqara olish va uni reklama qila olishning ahamiyati haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi.

III bo'limda Pul, narx, mahsulotlarni sotib olish va ayirboshlashda: bozor va uning turlari (kiyim-kechak, oziq-ovqat, mashina, mol, dehqon, yoyma bozorlar va ularning faoliyati) haqida, narxning paydo bo'lishi, biror narsani sotib olish ustida fikr yuritish, kerakli tovar haqida ma'lumot – axborotlar olish, oila va uning daromadi, oilada turmush tarzini o'zgartirish, oila va aholining xarid qilish qobiliyati baho-narx-navo daromadidan kelib chiqishi, iqtisodiy sharoit, tabiiy omillar, ilmiy-texnika taraqqiyoti, madaniy omillarning

insonlarning dunyoqarashiga ta'siri, korxonalarning tashqi iqtisodiy aloqalari, ularning olib boradigan tashqi iqtisodiy operatsiyalari bu eksport bo'lib hisoblanishi, korxonalar tomonidan xorijiy mamlakatlarga xomashyo, tayyor tovarni yetkazib berishi ekanligi haqida.

Import – har bir korxona tomonidan ichki iste'mol bozorida bo'limgan tovarlarni chetda xarid qilishga asoslanadi. Bank, plastik kartochka va uning turlari, qimmatbaho qog'ozlar faoliyatida haqida tushuncha beriladi.

IV bo'limda Ishlab chiqarish va uning turlari, ishlab chiqarish va mehnat jarayoni: yer, ishchi kuchi, ishlab chiqarish texnologiyasi moddiy xomashyo omillari, tadbirkorlik manbalari, mahsulot va buyumlar, turli mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi (inson hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan mahsulot va tovarlar), qurilish mollari va jihozlari, imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari, ishlab chiqarish va ta'limot, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni uy-ro'zg'orga kerakli mahsulotlar, texnika asboblari, mashinalar, matolar, ip, ipak tolalari, o'quv qurollari va kitoblar, dehqonlar, chorvadorlar, bog'bonlar, paxtakorlar, xalq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan qurilish ashyolari, o'yinchoqlarni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishtirish.Buning uchun atrof-olam bilan mashg'ulotlarida quyidagi mavzularda: "Ishlash uchun kimga nima kerak?", "Bog'bon-bog'bon", "Nimaning o'rni o'zgardi" o'yinlar, "Tejamkorlik yaxshi odad", "Pul nima?", "Bozor turlari", "O'yinchoqlar va ularning yaratilishi", "Bank nima", "Do'kon turlari", "Nima qayerda ishlab chiqiladi?", "Ishlab chiqarish va uning turlari" mavzularida suhbatlar o'tkaziladi.

Biz yuqorida "oila daromadi", "Oila farovonligi", "oila ehtiyojlari" kabi iboralarni qo'lladik. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning iqtisodiy bilimlarini shakllantirishda oila ham muhim rol o'ynaydi.

Xonardonning maqsadi – o'z iste'molini yuqori darajaga ko'targan holda kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma hosil

etishdir. Buning uchun oila a'zolarining moddiy-ma'naviy ehtiyojlari jamlangan mablag'ni maqsadli sarflash asosida" oila jamg'armasi"ni yaratish lozimdir.

Oilada tadbirkorlik faoliyati "Milliy hunarmandchilik do'konlari", "Badiiy dekorativ ashyolar" qurilish detallari, uy va qishloq xo'jalik asboblari, bolalar o'yinchoqlari, milliy xarakterdagи oziq-ovqat tovarlari (qandolatchilik, konditer mahsulotlari, turli xildagi yormalar, pishiriqlar va hokazo) ishlab chiqarish sohalari keng tarqalgan. Oila a'zolarining iqtisodiy ongi, iqtisoiy ko'nikma, malakalarining o'sib borishi maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashi, tasavvurlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kash etadi.

Oiladagi bola tarbiyasi tashqi sharoitlar: uy-ro'zg'or madaniyati, umummadaniy, gigiyenik va estetik talablarga rioya qilinishi ham ta'sir ko'rsatadi. Har qaysi oilada bolaning to'g'ri rivojlanishi uchun o'yin va mashg'ulotlar uchun joy ajratilishi, o'zining karovoti, sochig'i, idish-tovog'i, ustki va oyoq kiyimlarini toza va ozoda, tartibli saqlashlari, o'yinchoq, kitoblar va boshqa jihozlar tejamkorona munosabatda bo'lishi kerak. Oilada iqtisodiy mulk, oila mulkiga nisabatan to'g'ri munosabat asoslari shu tariqa tarkib toptiriladi. Oilada pul mablag'larini shakllantirish, sarflarni har bir oila a'zolarining ehtiyojlari va umumiyl ehtiyoji (gaz, elektr, isitish, suv, soliq va boshqalar)larning hisobiga oqillik bilan rivojlantirish uyushganlik va tartibga o'rgatadi, turmush madaniyatini oshiradi. Oila byudjetida hisobga olishning yo'qligi, oldindan ko'ra bilmaslik, uy xo'jaligini uyuştira bilmaslikka olib keladi. Oilada bolalarni amaliy ishlarni hal etishga jalb qilish, ularga vaqtı-vaqtida va doimo topshiriqlar berish, o'yinchoq va kitoblarni yig'ishtirish, o'z o'rnini solish va yig'ishtirish, o'simlik va uy hayvonlarini parvarish qilish, suv, gaz elektr energiyasi, pul, kiyim-kechak boshqa jihozlardan to'g'ri foydalanish, ortiqcha o'ylab ko'rishlikka o'rgatib boriladi.

Xulosa o'rnida, bolalarni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, ularning kelajagini ta'minlashdagi vosita hisoblanadi.

## **Maktabgacha ta'lif muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif Vazirligining 19.09.2013-yil 302-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lifga qo'yiladigan Davlat talablari" da maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish vazifalari belgilab berildi. Bunga asosan 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga bozor, sotuvchi, xaridor, bank, banker, pul qiymatlari, plastik kartochka, terminal haqida dastlabki tushunchalar berish ko'rsatib berilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilimlarni berishda dastavval tarbiyachi-pedagog iqtisodiyotga oid ma'lum bilimi va ma'lumotlar bilan qurollangan bo'lmos'hish zarur.

Tarbiyachi-pedagog quyidagi nazariy bilimlarni bilishlari zarur:

- Iqtisodiyotning inson hayotida tutgan o'rni va uning rivojlanish tamoyillari va nazariy asoslarini;
- zaruriy hayotiy ehtiyojlar va bolalar faoliyatida oqilona qo'llay olish;
- bolalarga iqtisodiy bilim berish orqali iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyatni tarbiyalash zarur.

Iqtisodiy tushunchalardan bo'lgan bozor tushunchasi bilan tanishtirishda tarbiyachi bolalarga "bozor" haqida ma'lumot beradi.

**Bozor** – bu xaridor bilan sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularni bir-biri bilan bog'laydigan mexanizmdir. Bozorga tovar egasi sotish uchun, xaridor narsa sotib olish uchun chiqadi.

Bozordagi sotuvchi va xaridorlar kimlar?

**Sotuvchilar** – bu tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar, fermalar, fermer xo'jaliklari, yakka tartibda ishlab chiqaruvchi kishilardir.

**Xaridor esa** barcha aholi, davlat idoralari va iste'molchilar dir.

Bozorda tovarlarni pul vositasida ayirboshlash ya'ni oldi-sotdi munosabatlari paydo bo'ladi. Bir tovar pulga ayirboshlansa, shu pulga boshqa narsa sotib olinadi. Ya'ni, bog'bon o'z yetishtirgan ho'l meva mahsulotlarini sotib, o'rniغا o'ziga kerakli mahsulot sotib oladi.

Bunda: tovar pulga sotiladi, yana boshqa tovar sotib olinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga bozor turlari va asosiy vazifalari haqida ma'lumot beriladi.

### **Bozorlar mazmuni va ishlatalishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:**

- Iste'molchilar bozori – bunda iste'mol uchun zarur bo'lgan barcha tovarlar sotiladi;

- xizmat ko'rsatish bozori bunda asosan zarur bo'lgan xizmatlar ko'rsatiladi. Bu bozorning rivojlanishi aholining iqtisodiy shart-sharoitlarini yaxshilab berish bilan bog'liqdir.

- uy-joy bozori – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan bo'lib, asosan uy-joylarni xususiylashtirish va ularni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlardan tashkil topadi;

- innovatsion bozor – ilmiy yangiliklarni texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini, turli ixtirolarni o'zida jalg etadi;

Shuningdek, mahalliy, milliy, asosiy, qo'shimcha chakana, ulgurchi, mayda-ulgurchi davlatlararo, jahon bozor turlari mavjud.

Xaridor bozordan o'ziga kerakli ehtiyoj narsalarni pulga sotib oladi. Xo'sh, pulning o'zi nima?

**Pul** - bozor aloqalarining hammabop va universal iqtisodiy vositasidir.

**Pul** - bozor munosabatlarining asosiy vositasi, uning yordamida barcha iqtisodiy aloqalar amalga oshiriladi.

Ma'lumki, hamma kishilar puldan foydalanadilar.

- Pulga xonardonlar bozordan davlatga iste'mol tovarlarini sotib oladilar.

- Pul – soliqlar, badal, qarz, stipendiya, pensiya kabi majburiyatlarni to'lash uchun kerak.

Pul 3 ta asosiy funksiyani boshqaradi.

1 – hisob-kitob va iqtisodiy o'lchov funksiyasi

2 – muomala vositasi

3 – jamg'arish vositasi

1994-yil 2-iyundan boshlab "O'zbekistonda milliy pul so'm joriy etildi.

**Milliy pul** – bu muayyan mamlakatda muomalada yuruvchi va tanho to'lov vositasi deb qabul qilingan puldir. Bunda nechta mamlakat bo'lsa, shuncha milliy pullar bor. Ularning nomida o'xshashlik bo'lsada, ular farqlanadi. AQSh, Kanada, Avstraliya, Gonkong pullari dollar bilan yuritiladi, lekin ular hamma jihatdan farqlanadi. Milliy pullar turlicha bo'ladi. Ulardan biri tovar shaklidagi puldir, ya'ni bu oltindir.

**Qog'oz pullar** – davlat tomonidan muayyan mamlakatdagi yagona to'lov vositasi sifatida kiritiladi va bu tanga pulning o'ziga yozib qo'yiladi. Qog'oz pullar kupyura shakliga ega. Ular har xil qiymatli bo'lib chiqariladi. Masalan, O'zbekiston milliy puli – so'mni olsak, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000, 10000 va 50000 so'mlik pullar shaklida chiqariladi.

Ular yirik va mayda pullarga ajraladi. Yirik pullar qog'oz shaklida, mayda pullar tanga va chaqa shaklida chiqariladi.

**Milliy pul** quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

– U mamlakatdagi yagona to'lov vositasi hisoblanadi.

– u himoya belgilariga ega (bu belgi 12 tagacha bo'ladi), uni qalbakilashtirish qiyin bo'ladi.

– milliy pulning o'z ko'rinishi bor, uni boshqa puldan farqlantirib topib olish mumkin. Milliy pul chidamli bo'lib, uzoq davrga qadar xizmat qila oladi. Pul o'z shakli jihatidan qog'oz, tanga va chaqa pullardan tashkil topsa, muomala jihatidan naqd va naqd bo'lмаган pullarga ajraladi.

**Naqd pullar** – bu aholi qo'lida aniq moddiy shaklidagi qog'oz va tanga pullar bo'lib, u qo'ldan-qo'lga o'tib yuradi.

**Bank** – bu pul bozorda faoliyat yurituvchi moliyaviy institutdir.

Biroq oldi-sotdi aloqalariga naqd bo'limgan pullar ham xizmat qiladi. Bu – bankdagi ayrim kishilar, fermerlar yoki davlat tashkilotlari nomiga yozilgan puldir. Aholi naqd pul va bankdagi puldan tashqari plastik kartochkalardan ham foydalanadi. Biroq, ularning o'zini pul deb bo'lmaydi.

**Plastik kartochka** – pul borligini tasdiqlovchi vositadir. Asl pul kartochkaning o'zi emas, balki bankdagi pul egasi hisob varag'i yozilgan puldir. Pul qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar kishilar va jamiyatga xizmat qiladi.

**Narx** – bozor aloqalarining asosiy iqtisodiy vositasi bo'lib, tovar va xizmat birligini sotib olish uchun to'lanadigan pul miqdorini bildiradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga narx bozordagi oldi-sotdi aloqalarini ta'minlashi, pul bo'lgandagina bozordan narsa yoki tovar sotib olish mumkinligi, xaridor va sotuvchi o'rtasidagi kelishuv, sotuvchi bozorda o'z narxini taklif qilishi mumkinligi, savdolashuv asosida har ikki tomonga ma'qul narx paydo bo'lishi to'g'risida tushuncha beriladi. Buning uchun "Bozorda" o'yini hamkorlikda o'ynaladi.

Bolalarga xonardon byudjeti oilada jamg'ariladigan va tejab qoltingan pul, ya'ni oila daromadi va oila xarajati kabi tushunchalar berib boriladi.

**Xarajat** – bu har qanday narxning umumiy asosi bo'ladi, chunki xarajatsiz hech qanday tovar yoki xizmat yaratib bo'lmaydi.

Xarajat narx tarkibiga kiradi, chunki tovarlar sotilgach ular qoplanishi kerak.

Narx hech bo'limganda xarajatni qoplashga yetarli bo'lishi kerak.

Masalan, yosh tadbirkor milliy qo'g'irchoqni yasab uni bozorga olib chiqadi, har bir qo'g'irchoqning tannarxi ya'ni tadbirkor sarflagan xarajat taxminan 10.000 so'm, unga bozor narxi 12.000 so'm qilib belgilanadi. Tadbirkorning har bir qo'g'irchoqdan oladigan sof foydasi 2 000 so'm. Talabga qarab,

narx-navoni oshirish yoki tushurish mumkin. Bu bolalar bilan o'ynaladigan "Biz bozorga boramiz" o'yinida aks ettiriladi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarga tadbirkorlik to'g'risidagi tushuncha berishda, tadbirkorlik mehnat faoliyatining bir turi ekanligi, bu g'oyat mas'uliyatli mehnat turi ekanligi tushuntiriladi.

**Tadbirkorlik** – bu bozor qonun-qoidalalariga asoslangan faoliyat hisoblanadi.

**Tadbirkorlik** – bu intilish, qandaydir yangilikni boshqarishda qaror qilish, yaratishga intilishdir.

Tadbirkorlik amaldagi qoidalarga muvofiq daromad olishga qaratilgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yo'li bilan tavakkal qilib o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanadi.

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning taraqqiyoti tarixan 5 davrni bosib o'tdi.

Birinchi davr – XIX asr uchinchi choragidan 1917-yilgacha davom etdi. Bunda kosiblar, dehqonlar, kichik va o'rta korxonalar bo'lgan.

Ikkinci davr – 1918-1985 (turg'unlik) davri yakka tartibdagi hunarmardchilik –kosibchilik 1 % ga yetgan.

Uchinchi davr – 1985-1991-yillar jonlashish davri

To'rtinchi davr – shakllanishi 1991-2005-yillar

Beshinchi davr – barkamollik davri 2005-yildan keyingi yillar.

Mamlakatimizda yaratilgan qonunlar, me'yoriy hujjatlar asosida iqtisodiyotning an'anaviy tadbirkorlikka moyil bo'lgan tarmoqlar, xizmatlar tarmog'i kengayadi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy va iqtisodiy amaliyotga ega. Bozor iqtisodiyotga asoslangan ishlab chiqarish jarayonida tadbirkorlikning roli kattadir.


**Tadbirkor** – bu shunday insonki, u o'zida bo'lgan pul mablag'laridan, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab

chiqarish qurollari, mahsulotlar bilan aholi uchun turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil qiluvchi shaxsdir.

**Tadbirkor** – bu tartib bilan puxta o'ylab ish qiladigan, ya'ni ishbilarmon shaxs.

- Hamma ham tadbirkor bo'lavermaydi. Tadbirkor doimo o'zining fikr-mulohazalari bilan yangilik yaratishga, ya'ni ishlab chiqarish tashkil etishga, yangi iste'mol mahsulotlarini yaratishga yangi texnika va texnologiyalarini yaratish orqali o'z qo'lida ishlayotgan xodimlarning mehnatlarini yengillash-tirish, ishlab chiqarish harakatlarini kamaytirishga intiluvchi shaxs hisoblanadi.

O'zbekistondagi quyidagi tadbirkorlik turlari mavjud.



Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirkorlik turlaridan biz maktabgacha ta'lif muassasasida bolalar bilan tashkil etiladigan jamoaviy guruhiytadbirkorlik elementlaridan "Qo'g'irchoq" mashqini misol keltirishimiz mumkin. Maktabgacha yoshdagি bolalar o'z munosabatlarda "Mening dadam firmada ishlaydilar", "Mening dadam biznesman" degan so'zlarni ko'p qo'llaydilar.

**Firma** – bu tovar ishlab chiqaruvchi korxona. U nafaqat moddiy tovarlarini, shuningdek xizmatlarni ham yaratadi va qimmat bozorga chiqaradi.

**Firma** – iqtisodiyotimizning muhim boshlang'ich bo'g'ini bo'ib, unda ishlab chiqarish yuz beradi, ishlab chiqarish omillari harakatga keladi. Rivojlanayotgan tezkor davrda respublika-mizda yashayotgan har bir fuqaro keksa-yu yosh "biznes" degan terminga duch kelmoqda. Xo'sh, biznes so'zini qanday tarzda tashkil etish mumkin?

**Biznes** so'zi inglizchadan "tadbirkorlik harakati" deb tarjima qilinib, mulkka ega fuqarolarning daromad keltiruvchi faoliyatidir.

**Biznes** – bu harakat, ish demakdir. Bu oddiy va tekin ish bo'lmasdan, balki kishilar o'rtasidagi ishbilarmonlik munosabatlari orqali yuzaga keladigan harakatdir.

**Biznes** – o'z ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyatdir.

Biznes uzoq davrni qamrab oluvchi taraqqiyot yo'llini bosib o'tgan. XX asrning o'rtalarida tizim tasnifiga ega bo'ldi.

<sup>11</sup> Biznes bu ishlab chiqarishni tashki etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar, pul ishlab topishdir. Biznes – bu tijorat, savdo, ferma, ishbilarmonlik, epchillik demakdir. Biznes tizimi iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanib, davlat tomonidan taribga solinadi. Biznes ishi bilan shug'ullanuvchilar biznesmenlar deb ataladi. Yaqin davrlargacha biznesmen degan ishbilarmon kanitalist, har qanday ishdan o'zi uchun daromad qiluvchi o'zini boyitish uchun hech qanday yo'ldan qaytmaydigan kishilar shug'ullanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida bu kungacha boshqacha tus oldi va biznes deganda bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish va sotishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar tushunila boshlandi. XVII asr oxirida "biznesmen" so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida paydo bo'lib, u "mulk egasi" ma'nosini bildiradi.

---

<sup>11</sup> Qodirov A., Mamaraimov Q., Tursunov I. Biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent, 2011. 41,90-bet.

Biznesmen – bu dadil, muhim va murakkab maqsadlarni ro'yobga chiqarishga jazm etib, yangi g'oyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan, tavakkal ish yurituvchi shaxsdir.

Biznesmen – bu doimo o'z ishining fidoyisi, bilimdon kishidir. U, avvalo, biznes ishini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to'siqlarni hal qilish yo'llari va qanday yutuqlarga erisha olishni bilishi kerak. U ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulotni sota bilish, bozor munosabatlari sharoitida vujudga keladigan sharoitlarni to'g'ri baholay bilishi, to'g'ri yo'l tanlay olishi lozim. Har bir biznesmen faqat o'z kuchiga, bilimiga ishonishi va suyanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunga muvofiq "balog'at yoshiga yetgan har bir fuqaro o'z mulkiga yoki mulk egasining vakolati asosida qonunga zid bo'lмаган faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin."

Biznes faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyati jihatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan ish bo'lib, u erkin tanlangan faoliyatdir.

Eslab  
qoling!

Iqtisodiy tushunchalar: moddiy, mehnat, information resurslar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik bozor, biznes, biznesmen, bank, pul, tovar, narx, firma.

Yuqorida ko'rib chiqilgan iqtisodiy tushunchlar negizida vaqt tushunchasi alohida o'rinn egallaydi. Maktabgacha yoshdag'i bolalarni vaqt tushunchasi bilan tanishtirish asosan matematika mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Kattalar tomonidan ishlab chiqarishda mehnat unumдорлиги yuqori bo'lsa, vaqtning qadri oshadi, chunki vaqt birligida shunchalik ko'p mahsulot va xizmat yarataish shu tufayli ko'proq pul topish imkoniyati yaratiladi. Vaqt – bu pul demakdir, degan shiorning ham ma'nosi mana shunda.

## **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. Iqtisod tushunchasiga ta'rif bering va yoriting
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlarini me'yorlashtirishda tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni izohlang.
3. Iqtisodiy tushunchalarga ta'rif bering va misollar keltiring.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishning maqsad va vazifalarini yoriting.
5. Sharq mutaffakirlarining iqtisodiy tarbiyaga oid falsafiy qarashlarining mohiyatini nimada deb bilamiz?
6. Iqtisodiy tarbiya qaysi mashg'ulotlar tarkibida o'z aksini topgan? Misollar bilan tushuntirib bering.
7. Iqtisodiy tarbiyaga oid o'yinlardan misol keltiring va izohlab bering.
8. Maktabgacha ta'lim tizimida iqtisodiy tarbiya berish jarayonlarini tashkil etishda tarbiyachining vazifasini nimalarda deb bilasiz?
9. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalar berish bo'limini o'rganib kelish.
10. "Ilk qadam" tayanch dasturining iqtisodiy tarbiyaga oid bo'limlaridan konspekt va guruhlar bo'yicha jadval tuzing.

## **Mavzu yuzasidan test**

1. Iqtisodiy tushunchalarning ta'rifi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - a) Moddiy, mehnat, informatsion resurslar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, bozor, biznes, biznesmen, bank, pul, tovar, narx, firma, plastik kartochka
  - b) Mehnat va moddiy resurslar, ishbilarmonlik, Tovar, ta'lim muassasalarini boshqarish, nazorat, baholash
  - c) Mamlakatni obodonlashtirishga ketadigan pul xarajatlari, qurilishi, rahbarlik qilish, suhbat, tekshirish, akt tuzish

d) ta'lif tizimini tubdan isloq qilish, yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkazish

2. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning barkamollik davri qaysi bo'limida to'g'ri aks etgan?

a) XIX asrning uchinchi choragidan 1917-yilgacha

b) 1985–1991-yillar

c) 1918–1985-yillar

d) 2005-yildan keyingi yillar

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalar berish qaysi me'yoriy hujjatda berilgan

a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni

b) O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarida.

c) O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lif to'g'-risidagi nizomida

d) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan tomonidan tayyorlangan "Ilk qadam" o'quv dasturida

4. O'zbekiston Respublikasida milliy pul "ming so'm" nechanchi yildan boshlab joriy etilgan to'g'ri javobni belgilang.

a) 1994-yil 2-iyuldan boshlab;

b) 1992-yil 2-iyundan boshlab;

c) 1997-yil 8-avgustdan boshlab;

d) 1995-yil 1-sentabrdan boshlab;

5. O'zbekistonda tadbirkorlik turlarining to'g'ri ta'rifi qaysi bandda berilgan?

a) Xalqaro tadbirkorlik, davlat tadbirkorligi, jamoaviy-guruhiy, xususiy, o'rta va kichik tadbirkorlik

b) Xalqaro tadbirkorlik, kapital, eksport, import, marketing, soliqlar, sug'ortalash

c) Xorijiy tadbirkorlik, xorijiy investitsiyalar, kichik tadbirkorlik

d) Moddiy va ishlab chiqarish omillari, mehnat predmet va resurslari, mehnat shartnomasi, markaziy va davlat tadbirkorligi

## XI BOB. HUQUQIY TARBIYA

### Huquqiy tarbiya haqida tushuncha

Bugungi kunda ijtimoiy adolatni o'rnatish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatimizning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Har bir davlat o'z fuqarosining har tomonlama o'qimishli, ongli, tarbiyalı bo'lislarni istaydi. Bunda yosh avlodda huquqiy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalariga katta e'tibor qaratadi.

Huquqiy tarbiya - umum tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib, barcha fuqarolarda huquqiy bilimlar asosida, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish borasida tashkil etiladigan tarbiyaviy jarayondir. Shu zaylda qonunchilikni mustahkamlash, huquqiy me'yorlarni hurmat qilishga erishiladi.

**Huquqiy tarbiya** - muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxs (guruh)da huquqiy ong, huquqiy bilim va qoidalarga rioya etish jihatlarini namoyon etishga undaydigan pedagogik yo'ldir. Huquqiy tarbiya haqida fikr yuritilar ekan, avvalambor, huquq so'zining ma'nosi nima va u nimani anglatishini bilishimiz lozim.

**Huquq** - jamiyat a'zolari rivojlanishini, jamiyatda tartib o'rnatishni tashkil etish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasidir.

**Huquq** - ijtimoiy va yuridik mazmunga ega shaxsning xulq-atvori, axloq, urf-odatlar, an'analar nuqtayi nazaridan asoslangan hollarda umum ijtimoiy ma'nodagi huquq tushuniladi. Bunga millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ham kiradi.

**Huquq** to'g'risida yuridik hodisa sifatida fikr yuritilganda davlat hokimiyatining qonunlari, hujjalari, shaxsning erkinligi, xulq-atvor majburiyatları majmuasini nazarda tutamiz.

Huquqning vujudga kelishi to'g'risida turli xil nazariy va qarashlar mavjud. Insoniyat vujudga kelishi bilan jamiyatda

o'zini tutish qoidalari vujudga kela boshlagan. Davlatgacha bo'lgan davrda bu urf-odat, diniy me'yorlar shaklida bo'lib, jamiyat a'zolari bularga rioya qilgan. Jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning shakllanishini amalga oshirish yo'lini ko'rsatib beruvchi qoidalari, me'yorlar - huquq deb atala boshlandi.

**Huquqiy tarbiya** - tarbiyalanuvchilarining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi, ularga ma'lum qoidalalar doirasida ish tutish uchun asos bo'ladigan bilim berishdir. Pedagog-tarbiyachi huquqiy bilimlar beribgina qolmasdan, tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishi lozim.

Demak, huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy me'yorlarga nisbatan hurmat, ularga ongli va mustaqil ravishda rioya qilishni tarbiyalashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqiy tarbiyasini o'stirish maqsadida biz bu tarbiyaning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

### **Huquqiy ta'lim berish vazifalari:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rgatish jarayonida ularda huquqiy ongni shakllantirish;

2. Huquq me'yorlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali bolalarda mustaqil, erkin fikrlash, ijodiy ishlarga intilish hiss tuyg'usini uyg'otish;

3. Tevarak-atrofda bo'ladigan ijobiy va salbiy holatlarga nisbatan huquq normalari asosida o'z fikr-mulohazalarini bildirishga o'rgatish.

### **Huquqiy tarbiya berish vazifalari:**

1. Ona Vatanni sevish, uni e'zozlash tuyg'usini singdirish;

2. Konstitutsiya va qonunlarga yuksak hurmat darajasini o'stirish.

3. Huquqiy me'yorlarga rioya qilishga odatlantirish.

4. Davlat, ota-onalar oldidagi burch va majburiyatlarini bajarish yo'llarini ko'rsatish.

**Huquqiy tarbiyaning metodologik asosini** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, O'zbekiston davlati va Prezidenti tomonidan yaratilgan asarlar, qabul qilingan va ilgari surilgan, ilmiy jihatdan asoslangan g'oyalar egallaydi.<sup>12</sup>

Jamiyatda insonlarning huquqiy bilimi, huquqiy ongi, madaniyati qanchalik yuqori shakllanganligi ularning huquqiy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

**Huquqiy madaniyat** – davlat tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga rioya etishdagi shaxsning xulqi, munosabati tushuniladi. Bir so'z bilan aytganda huquqiy madaniyat ongli ravishda huquqiy me'yorlarga rioya qilish va bo'y sunishdir.

**Huquqiy ong** – huquqiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Har bir shaxsning huquqiy ongi uning qonun me'yorlariga munosabatidan, ularni qabul qilish xususiyatlaridan, o'rnatilgan qonunni qo'llash, unga rioya qilish tushunchalaridan kelib chiqadi. Jamiyat hayotini huquqiy tartib asosida tuzish to'g'risidagi tushunchalar tizimi, ijtimoiy ong shakli – huquqiy ong deyiladi. Ijtimoiy ong o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Siyosiy;
- Axloqiy;
- Diniy;
- Huquqiy.

**Huquqiy ong** – O'zbekiston davlati va uning organlari tomonida qabul qilingan qonun hujjatlarini anglash, ularga rioya etish, ulardan ongli ravishda foydalana olish qobiliyatidir.

Respublikamiz Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan va qarori bilan tasdiqlangan: "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatasining qarori qonunlar hisoblanadi.

<sup>12</sup> Karimova O.A., G'afforov Z.M. Davlat va huquq asoslari. T.: O'qituvchi – 1995.

Xo'sh qonunning o'zi nima?

**Qonun deganda** davlat hokimiyatining oliv organi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi oliv yuridik kuchga ega normativ huquqiy akt tushuniladi. Qonunning asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Qonun davlat hokimiyati yuqori vakillik organi tomonidan chiqariladi;
2. Qonun yuqori yuridik kuchga ega;
3. Me'yoriy-huquqiy xarakterga ega;
4. Unda turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi.
5. Qonunlar davr talablarining bajarilishiga qaratiladi.
6. Qonun xalqning irodasini mujassamlashtiradi.

Jamiyat va davlatning yetakchi kuchi uning qonunlaridir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning 4-moddasi fuqarolarning bilim olish huquqiga bag'ishlanib, unda jinsi, tili, yoshi, milliy mansubligi, e'tiqodi, denga munosabati, ijtimoiy kelib chikishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O'zbekiston hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi. Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega, ular bilim olishda O'zbekiston fuqarolari bilan teng huquqlarga ega deyiladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijobjiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqini ta'minlash, uzlusiz ta'lif tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirish nazarda tutiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiya berish nafaqat oila va Maktabgacha ta'lif muassasalarida beribgina qolmasdan, balki bunda mahalla, ko'cha-ko'y, qo'ni-qo'shnilar, kattalar, qolaversa, butun jamiyat a'zolari qatnashishi lozimdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, huquqiy tarbiya berish shakllarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Huquqiy bilim;
2. Huquqiy ma'naviyat;
3. Jamoatchilik bilan olib boriladigan ishlar;
4. Huquqni himoya qiladigan davlat organlari bilan tanishtirish.

Demak, huquqiy tarbiya davlat tomonidan belgilangan maxsus tarbiya tizimlaridan tashkil topadi va aniq maqsadni ko'zda tutadi.

### **Oilada huquqiy munosabatlarning maqsad va vazifalari.**

Ma'lumki, inson oilada rivojlanadi va kamol topadi. Oila bu ota-onasini, er-xotin, farzandlar va qarindosh-urug'lardan tuzilgan jamoa bo'lib, oila a'zolari o'rtaida mulkiy va shaxsiy huquq, majburiyatlarini vujudga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV – "Oila" bobida oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega deyilgan. Oila qonunlarining asosiy vazifalari oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni ishonch, hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish, oila oldidagi burch va majburiyatlarini his qilish va o'z huquqlarini himoya qilishdan iboratdir.

### **Oilada ota-onasini, bolalarining huquq va majburiyatlarini:**

1. Oilada yashash va tarbiyalanish;
2. O'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish va ular bilan birga yashash;
3. Bola otasi, onasi, yaqinlari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishishi;
4. O'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
5. O'z fikrini ifoda etish;
6. Bola ism, ota ismi va familiyasini olishga;
7. Ism va familiyasini o'zgartirishga;<sup>13</sup>
8. Oilada umumiy mulk va o'z huquqiy mulkiga ega bo'lish va boshqa huquqlarga ega.

Bolaning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan

<sup>13</sup> Karimova O. Huquqshunoslik. Toshkent, 2009.

amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir. Oilada bolaga taalluqli har qanday masala hal etilayotganida bola o'z fikrini bildirishga, so'zlashga haqlidir.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-onal turli familiyada bo'lganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga ota yoki onaning familiyasi beriladi. Milliy an'analarga muvofiq boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish bo'limi ota-onaning birgalikdagi arizalariga binoan bola 16 yoshga to'lguncha uning manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga (ota yoki onaning) haqlidir.

Ota-onalar o'z farzandlariga teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Nikohda bo'limgan, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan ota-onalarning bolalari 16 yoshga to'lishlari bilan ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidir. Ota-onal o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoliga g'amxo'rlik qiladi va buning uchun javobgar hissoblanadi.

Ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda bolaga nisbatan shafqatsizlik, qo'pollik, mensimaslik, jismoniy qadr-qimmatni kamsitish, haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilish qonunga ziddir. Farzandlar oldidagi burchlarni bajarmasalar ota-onalikdan sud qarori orqali mahrum qilinadi.

Oila munosabatlari O'zbekiston Respublikasi "Oila Kodeksi"-da ham o'z ifodasini topgan. Quyidagi hollarda ota-onalar ota-onalikdan mahrum etiladi:

- Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortish, aliment to'lashdan bo'yin tov lash;
- O'z bolasini uzsiz sabablarga ko'ra tug'ruqxona va boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;
- Bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, jumladan, jismoniy, iqtisodiy, ruhiy ta'sir ko'rsatilganda;

- Surunkali ravishda ichkilikbozlik yoki giyohvandlikga mubtalo bo'lgan taqdirda;
- O'z bolalarining hayoti, sog'lig'i yoki er-xotinning hayoti, sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir etilganda ota-onalik huquqidan mahrum qilinadi.

Farzandlar voyaga yetgandan keyin o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishlari lozim. Maktabgacha ta'lim bo'yicha qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar bilan ishlash jarayonida biz vasiylik va homiylik kabi iborani uchratamiz. Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimiyatining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik - 14 yoshga to'limgan va sud tomonidan ruhiy kasalligi yoki zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga belgilanadi.

Homiylik - 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlarga hamda kasalligi tufayli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan voyaga yetgan shaxslarga, shuningdek sud tomonidan layoqati cheklangan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Maktabgacha pedagogika fanini talabalarga o'qitish jarayonida ularda O'zbekiston davlati tomonidan qabul qilingan qonunlarga nisbatan yuksak hurmat tuyg'usini uyg'otish va o'z hayotida ulardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifadir.

### **Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish**

Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risida Sharqning alloma-yu fuzaololari, mutafakkirlari o'zlarining tarixiy asarlari orqali turli falsafiy fikr va qarashlarni bildirganlar.

IX-X asrlarda yashagan Abu Nasr al-Farobiy O'rta asrlar Sharq mutafakkirlaridan birinchi bo'lib jamiyat va davlat, odilona davlat tuzumi muammolari haqida fikr yuritdi. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari - davlatni

boshqarish, ta'lif, tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, mehnat va boshqa jihatlar qamrab olindi. Farobiy o'zining "Fozil shahar aholisining maslagi" asarida jamiyat ("Inson jamoasi") ning kelib chikishi, insonning yetuklikka erishuvi yo'lidagi zahmati, kishilarning jamoa bo'lib yashashidagi xulq-atvori, axloq-odob me'yorlari haqida fikr yuritib, inson fazilatlarini ikki guruhga bo'ladi. Birinchisi – fikriy fazilat; Ikkinchisi – xulqiy fazilat.

1. **Fikriy** – aql, donolik, fahm-farosat, zehnlilikdan iborat.

2. **Xulqiy fazilat** – iffatlilik, adolatlilik, saxiylik, odoblilikdan iborat deydi.

Farobiy yomon fazilatlarni qoralaydi va unga – razillik deb ta'rif beradi.

Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamshituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. Uning "Baxt-saodatga erishuv yo'llari" haqidagi asarida davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borish, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritilishini ta'kidlaydi.

Farobiy davlatni yetuk shaxs, yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan kishilar tomonidan boshqarish lozimligi ta'lilotini ilgari surdi. Mutafakkir davlat va shahar birlashmasining o'ziga xos xususiyatlari, davlatni boshqarish shakllari, vazifalari, uslublarini yoritib berib, unda insonlarning farovon hayot kechirishi haqidagi siyosiy-ijtimoiy-huquqiy turmush tarzlarini yoritadi.

Farobiyning fozil jamoa va komil insonlar haqidagi ta'lilotlari so'nggi olim-mutafakkirlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning dunyoqarashi Farobiy asarlari ta'sirida shakllandı, u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Farobiy qarashlarini davom ettirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitdi va tizimlashtirdi. Uning falsafiy qarashlari:

1.Shaxs haqidagi ilm;

2.Insonning o'zaro munosabatlari haqidagi ilm;

3.Davlatni, mamlakatni boshqarish haqidagi ilmdir.

Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishish mumkin, insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerakligini ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini uqtiradi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik, jazolanish, basharti davlat boshlig'i o'zi adolatsizlikga yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi chikishi to'g'ri va bu holatni jamiyat qo'llab-quvvatlashi lozimligini ta'kidlaydi.

Uning "Tadbir al-manozil" (Turar joyni boshqarish), "Axloq haqida risola", "Burch haqida risola", "Adolat haqida kitob", "Donishnama" asarlarida insonlarning umumiy fazilatlari, ularda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablari to'g'risida fikr yuritib, bu sifatlar odatdan paydo bo'ladi, odatlarning yaxshi yoki yomon bo'lishida hukumat ahllarining ta'siri katta deydi. Ibn Sino axloqiy fazilatlardan iffat, qanoat, saxiylik, shijoat, sabr, adolatlik, do'stlik, vafodorlik kabilarga o'z ta'rifini beradi. Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvoriga yomon nuqsonlardan aldov, adolatsizlik, bo'xton, o'ch olish, irodasizlik kabi illatlarni bartaraf etishda davlat va jamiyat a'zolari va oilaning ta'siri ustida so'z yuritadi. U bola tarbiyasi haqida fikr bildirib, bola tarbiyasini unga ism berishdan boshlashni lozim deb biladi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki oliyjanob vazifalaridan deb bilib, uning tarbiyasi bilan, avvalo, ota-ona shug'ullanishi kerakligini ta'kidlaydi. Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli falsafiy qarashlari va boy merosi bilan mamalakat taraqqiyotida katta rol o'ynadi.

Yuksak davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat va davlatni boshqarishga katta e'tibor qaratib, yangi davlat tizimini tuzgan mashhur shaxsdir. Amir

Temur davlati o'z davrida Ovro'pa va Osiyodagi eng yirik mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. U davlatni boshqarishga katta e'tibor berib, yangi davlat tizimi bo'yicha Devoni Buzrugdan tashqari har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma tuzib, bu boshqarmalar soliq yig'ish, tartibni saqlash, ijtimoiy binolarga qarab turish va aholining xulqiy-axloqiy harakatlarini ostiga olish bilan shug'ullangan.

Uning "Temur tuzuklari" da davlat tuzilishi, davlatdagi turli lavozimlarning vazifasi, davlat boshqarishga asos bo'lgan qoidalar haqida fikr yuritadi. U davlat ishlarini har doim islam va shariat hukmlari asosida boshqargan. O'z davlatining martabasini qonun-qoidalar asosida boshqarganligi, davlat ishlariga noqonuniy hech bir kimsani aralasha olmasligi, bu ishga qurbi yetmaganligini ta'kidlab, jamiyat ishlaridagi odamlarning 12 toifaga bo'linishi, saltanatni boshqarishda 12 qoidaga amal qilganligi, saltanat 4 qat'iy qoidaga asoslanishi kabi masalalar yoritiladi.

Amir Temur saltanatni boshqarishda to'rt narsaga amal qilgan. Ya'ni:

1. Kengash;
2. Mashvarat-u maslahat;
3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik, xushyorlik;
4. Ehtiyyotkorlik.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, Amir Temur davlat, jamiyat hayotida bo'lib o'tadigan har bir muhim rejani kengash oldidan o'tkazar va bu kengashga nafaqat davlat arboblari, sarkardalar, temurzodalar, balki sayyidlar, shayxlar, ilm-fan ahlini ham taklif etgan.

Temuriylar davri madaniyati ma'naviyatini tez va yuksak darajaga ko'tarilishiga olib keldiki, uning yutuqlari so'nggi uzoq asrlar davomida madaniy huquqiy rivojlanish uchun ozuqa bo'ladi. Ulug' ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan falsafiy, madaniy-ma'rifiy ta'limotlar, ya'ni:

- Axloq-odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilib, uning adolat, yuksalish, ma'naviyatga intilishiga yo'l ochish, imkoniyat yaratish zarur;

- Komil inson faqat rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunda davlatchilik esa aql va ilmga o'zaro kelishuv, birgalikda ega bo'lish natijasida amalga oshiriladi.

- Mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi, bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma'rifatli, ilmli, axloqli bo'lishi jamoani kelishib boshqara olishga bog'liqdir – degan falsafiy qarashlari huquqiy tarbiyaning negizi hisoblanadi.

### **Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tanishtirish**

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan yaqindan tanishtirish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Dastlab, Konstitutsiya o'zi nima, nima uchun u Respublikamizning bosh qomusi hisoblanadi, uning mazmuni, mohiyati, inson va fuqarolarning asosiy holati to'g'risida tushuncha berilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar o'z ifodasini topgan. Hamma huquqiy me'yorlar undan kelib chiqadi va unga bo'ysunadi.

"Konstitutsiya" so'zi lotin tilida "Constitutio" – so'zidan kelib chiqib, "tuzish", "o'rnatish", "belgilash" degan ma'nolarni anglatadi. Dastlab, qadimgi Rimda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar qonun asosida belgilangan bo'lib, u o'zining uzoq tarixiga ega. Jahonda birinchi Konstitutsiya 1787-yilda AQShda, 1831-yilda Belgiyada, 1874-yilda Shvetsariyada qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganligining dastlabkiyillarida o'zining Konstitutsiyasi qabul qilinish o'zbek davlatchiligining rivojlanishiga asos bo'ldi. Mustaqillikdan avval O'zbekiston garchand suveren davlat deb atalgani bilan barcha masalalarni mustaqil hal eta olmagan. Konstitutsiya-

ning yaratilishi 1990-yilning iyun oyidan boshlangan bo'lib, bunda Respublikamiz olimlari, oliy kengash deputatlari, butun o'zbek xalqi ishtirok etdi va xalq muhokamasidan o'tib 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil respublikamizning birinchi Asosiy Qonuni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – xalqning maqsadini, istagini, davlat suverenitetini, ijtimoiy va davlat tuzilishini, xalqaro munosabatlarni, inson va fuqarolarning huquqiy holatini, davlat organlarining vakolatlarini, saylov tizimi va boshqa muhim masalalarni o'z ichiga olgan.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tanishtirishdan maqsad – o'zi istiqomat qilayotgan davlati, xalq irodasi va uning manfaatlari, milliy davlat, uning ma'muriy-hududiy tuzilishi, milliy davlat ramzları, fuqarolarning burch va majburiyatları, unda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish, xalqimizning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrash, onalik va bolalikni davlat tomonidan muhofaza qilinishi, har kimning bilim olish va huquqlardan foydalanishi, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari saylov, referendum, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, inson erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari to'g'risida tushuncha berish orqali bolalarga huquqiy ta'lif va tarbiya berishdan iborat.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga ta'lif-tarbiya berish "Ilk qadam" dasturi asosida olib boriladi.

Bolalarga huquqiy tarbiya berish jarayoni asosan o'rta guruhdan (3-4 yosh) boshlanib, unda bolalarga Konstitutsiya saboqlari asosida ilk huquqiy tushuncha berish, bolalarda ularning umumiy Vatani - O'zbekiston haqida tasavvur uyg'otish, o'zi tug'ilib o'sgan joyiga muhabbat tuyg'usini uyg'otish, o'z shahar, qishloq, mahalla va ko'chasi haqidagi

bilimlarini kengaytirish, o'zi yashash joyidagi me'morchilik yodgorliklari, chiroli qurilishlarga qiziqish uyg'otish, ularning nomlarini to'liq aytishga o'rgatish vazifalari qo'yiladi.

Katta guruhsda (4-5 yosh) – bolalarda mustaqil O'zbekiston davlati haqidagi tushunchalarini kengaytirish, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlari, "Buyuk Ipak yo'li" haqida qisqacha ma'lumot berish, O'zbekistonning mustaqilligi, gerbi, bayrog'i, madhiyasi haqidagi bilimlari shakllantiriladi. O'zbekiston madhiyasini ijro eta olishga o'rgatiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezident tomonidan boshqarilishi, O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahri ekanligi haqida tushuncha beriladi. Bolalarning o'z tug'ilgan yurtiga mehr-muhabbat hissini shakllantirish, milliy g'ururni tarbiyalash, "Konstitutsiya saboqlari" asosida ilk tushunchalar beriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh) – Bolalarning mustaqil O'zbekiston haqidagi tasavvurlarini boyitish, O'zbekistonning qadimiy shaharlari va Buyuk Ipak yo'li haqida "Konstitutsiya saboqlari" asosida tushunchalar beriladi. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligi, tabiatga va atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majbur ekanliklari, o'z sha'ni, qadr-qimmati va erkinliklari to'g'risidagi huquqiy bilimlarga ega bo'ladilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni Konstitutsiya bilan tanishtirishda eng asosiy g'oya – Mustaqillik g'oyalarini aks ettirilishi muhim hisoblanadi. Bunda "O'zbekiston – mening Vatanim", "Konstitutsiya asosiy qomusimiz", "Qonun muqaddas", "Mustaqillik bayrami" mavzularida suhbatlar o'tkazib, bolalarda dastlabki tasavvur va tushunchalar hosil qilinadi.

- O'zbekistonda davlat tili – o'zbek tilidir degan modda bilan tanishtirish, Tushunchalar berishda – "Til – millatning ulkan va bebahoh boyligi" mavzusida suhbat o'tkazish orqali davlat tili va uning qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar beriladi. Ulug' bobomiz A.Navoiy o'zbek tilining "asoschisi" haqida bilimlar, davlatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari

istiqomat qilishi, ularning yashashi va o'sib-ulg'ayishi uchun hamma bilan teng sharoitlar yaratilganligi, bu millatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarining o'zbek xalqi tomonidan hurmat qilinishi, bu millatlarning xohishi bo'yicha o'zi istagan tilda ta'lim olishlari mumkinligi to'g'risida tushuncha beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat ramzları Vatanimizning milliy g'ururi, o'zligimizni namoyon etuvchi, millatimiz sha'ni va obro'sini butun jahonga namoyon etishdagi faxrimiz iftihorimizdir. Davlat ramzlaridan davlat bayrog'i (1991-yil 18- noyabr), davlat gerbi (1992-yil 2-dekabr), madhiya (1992-yil 10-dekabr) qabul qilinganligi, ularning tuzilishi, unda aks etgan ranglar va tasvirlar, belgi va ishoralar bilan tanishtiriladi. Mujassam mashg'ulotlar (nutq o'stirish, tasviriy faoliyat, atrof olam) orqali tushunchalari kengaytiriladi, davlat madhiyasini baralla kuylab olishga o'rgatib boriladi.

- O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri. 8-modda shaharning tarixiy, diqqatga sazovor joylari, ta'lim maskanlari va bolalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan, shuningdek, o'zi tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, mahalla va ko'chalar, yashash joyidagi tarixiy, madaniy-ma'naviy yodgorlik, ularning nomlarini to'liq aytishga o'rgatib boriladi. Bunda "Ona shahrim Toshkentim", "Samarqand – qadimiy shahar", "Buxoro shahri", "O'zbek xalqining milliy san'ati", "Xiva shahri", "Buyuk Ipak yo'li", "Mening mahallam" haqida suhbatlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni – O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekistonning fuqarolari tashkil etadi deb nomlangan 8-modda bilan tanishtirishda etnik, diniy yoki til jihatdan boshqa millatga mansub kishilar O'zbekistonda istiqomat qilayotgan bo'lsalar, ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblanishi, ularning o'z diniga e'tiqod qilish va uning rasm-rusumlarini bajarish va o'z ona tilidan foydalanish huquqi rad etilmaganligi haqida ma'lumot beriladi.

- O'zbekiston Respublikasi demokratik davlat bo'lib, u umuminsoniy prinsiplar asosida unda yashayotgan har bir

inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, sha'ni va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat bo'lib hisoblanishi to'g'risida fikr yuritilganda, inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmati huquq va erkinliklariga nisbatan davlatimiz tomonidan qilinayotgan g'amxo'rlik,adolat va tinchlikni ta'kidlash, do'stlik va birdamlik ruhida tarbiyalashni ta'minlash masalalari, ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to'g'risida tushuncha beriladi.

- Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan, har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega - (31- modda) degan moddani tushuntirishda davlatimiz har bir bolaning fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqini hurmat qilinishini ta'minlanishini, bolalar ota-onalar istaklariga muvofiq holda din tanlash, vijdon erkinligiga, hamda erkin fikrlash huquqlariga ega ekanliklari to'g'risida ma'lumot beriladi. O'z dini yoki e'tiqodlarini targ'ib qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan hamda davlat xavfsizligi, jamoat tartibini, aholining ma'naviyati yoki sog'lig'ini saqlash yoki boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur hisoblangandagina cheklanishi mumkin.

- Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir – deb nomlangan 37-moddasini tushuntirishda bolalarda kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini uyg'otish va tarbiyalash va umumlashtirish, ishlab chiqarish korxonalari, qurilish, dalalar va boshqa sohalarda qilinayotgan mehnat haqida bilimlarini takomillashtirish, o'zbek xalqining milliy hunarmandchilik, duradgorlik mehnati bilan tanishtirish, tarbiyachi, enaga, oshpaz, bog'bon va kasb egalari mehnatlariga nisbatan minnatdorchilik tuyg'ularini tarbiyalash, mashinasoz, tikuvchi, novvoy, oshpaz, o'ymakor, haydovchi, o'qituvchi, shifokor va boshqa kasblar bilan tanishtirish jarayonida kelajakda qanday kasb egasi bo'lishlariga zamin tayyorlanadi. O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligidagi mehnat qilish huquqi 16 yoshdan deb belgilangan.

- Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (40-modda). Davlatimiz tomonidan sog'liqni saqlash tizimini takomillashgan xizmatlar turlari tashkil etganligi, bolalar eng yuqori darajadagi andozadagi tibbiy yordam olish huquqiga, sog'liqni himoya qilish xizmatlaridan foydalananish huquqiga ega ekanliklari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, bola tug'ilmasdan avvalgi ona va bolaga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar, sharoitlar, raqamlar va bolalar o'limini oldini olish chora-tadbirlari, tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish omillari, bolalar to'yimli ovqat va toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, atrof muhitni tozalash, tug'ruq yoshidagi ayollarga ko'rsatiladigan g'amxo'rlik, yordam ishlari, maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam, shifokor, hamshira ishlari to'g'risida bat afsil ma'lumot va tushunchalar berilishi lozim.

- Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyligi ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat tomonidan nazoratidadir - deb nomlangan 41-modda bilan tanishtirishda har bir bola ilm olish huquqiga egaligi hamma uchun teng imkoniyatlar yaratilganligi, bu jarayon maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanganligi va quyidagi bosqichlarda davom ettirilishi:

- Bepul va majburiy umumiyligi ta'lim;
- Bepul o'rta maxsus ta'lim.

Shuningdek, bola o'z qobiliyatiga ko'ra oliy ma'lumotli bo'lish huquqiga ega. Davlat tomonidan barcha zarur vositalar, shart-sharoitlar yaratilganligi, o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonidagi natijasini ommalashtirish, bolalarning maktabga muntazam borishlari, maktab intizomi, bolaning insoniylik qadr-qimmatini hurmat qilish kabi huquqlari haqida tushuncha beriladi.

"1-sentabr – Bilimlar kuni" deb bayram qilinishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1-sinfga qadam qo'ygan bolalar bepul o'quv-qurollari bilan ta'minlanishi, kutbxonalar

barcha manbalar bilan ta'minlanganligi to'g'risida fikr yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobida fuqarolarning burchlari va majburiyatlari yoritilgan bo'lib, bunda:

- barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar - deb nomlangan 47-moddada - maktabgacha yoshdagi bolalarga "burch" iborasining mazmuni bilan tanishtirishda o'z Vatani, uning milliy an'analari va odatlariga hurmat bilan qarash, odob bilan muloqotga kirisha olish (salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish), ota-onalari va Vatan oldidagi burchlarini his etish, ularga g'amxo'rlik va parvarish qilish kabi fazilatlarni o'rgatishda tarbiyachi bolalarda muloyimlilik, e'tiborlilik, qat'iyat, sabroqat va o'zaro mehrni tarbiyalashi, yuzaga chiqarishi lozim. Buning uchun "Ota-onaga hurmat", "Burch", "Yaxshilik", "Mening majburiyatlarim" kabi mavzularda suhbatlar uyushtiriladi.

- Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir (49-modda).

Bunda O'zbekiston hududidagi tarixiy obidalar, qadimiy yodgorliklar haqida tushuncha beriladi. Bolalar qalbida o'z xalqiga, uning boy merosiga hurmat va muhabbat tuyg'ulari tarkib toptiriladi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda: "Vatanimiz ziyyaratgohlari", "Shahidlar xotirasi maydoni"ga sayohat uyuştirilishi maqsadga muvofiqdir. Ma'naviy yodgorliklar o'zbek xalqining og'zaki ijodi namunalari asosida bolalar ongida bularni asrab avaylash tushunchalari tarbiyalanadi. Bola o'zi yashayotgan shahar va qishlog'i, ko'chasidagi madaniy yodgorliklar haqida tasavvur hosil qilinishi, bolalar tariximiz va buyuk Sharq allomalarining hayoti va ijodi bilan tanishtiriladi.

- Fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar (50-modda).

- Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish, zarur va ular davlat muhofazasidadir (55-modda).

Bolalarda tabiatdagi go'zallikdan zavq olishni tarbiyalash orqali ular ongida tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik, tevarak-atrofni iflos qilmaslik, o't-o'lanylarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik va boshqalarni bolalar ongiga singdirish kerak. Bolalarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, davlatimiz tomonida ekologiya va tabiatni muhofaza etish, "Suv va suvdan foydalanish", "Yer osti boyliklari hayvonot dunyosini muhofaza etish va undan oqilona foydalanish", "O'simlik dunyosini muhofaza etish" borasidagi chora-tadbirlar haqida tushuncha beriladi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda: "Park" va "Bog'cha"ga sayr, "Dunyodagi eng asosiy narsa suvning xususiyatlari bilan tanishtirish", o'simlik va hayvonlar haqidagi videoroliklar namoyish etish, "Qizil kitob" muhofaza ramzi ekanligi haqida suhbat tashkil etish orqali tabiatga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish ko'nikmalari shakllantirib boriladi.

- O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy va muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar – deb nomlangan 52-moddada bolalarda harbiy qo'shin, milliy armiya to'g'risida tasavvur hosil qilish, ularga nisbatan qiziqish uyg'otish orqali Vatan muhabbati va uni ko'z qorachig'idek saqlash hissi tarbiyalab boriladi. Bolalarning millat tarixiga qiziqishini shakllantirish maqsadida Amir Temur – yirik davlat arbobi, mashhur sarkarda bo'lganligi haqida ma'lumot berish. Shuningdek, "14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni", "Jaloliddin Manguberdi", "Ona yurt himoyachilari – milliy qahramonlarimiz" mavzularida suhbatlar tashkil etiladi.

Bosh qomusimizda jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan "Oilaga" maxsus bob ajratilgan bo'lib, unda davlatimiz tomonidan oilaga, farzandlarga ko'rsatilayotgan yordam, yetim bolarlar va vasiylikka olingen bolalarga ularni boqish, tarbiyalash, o'qitish jarayonlaridagi ota-onva farzandlarning huquq va burchlari, voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish majburiyatlari haqida tushuncha beriladi. Ya'ni, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga egadir. Ota-onva o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shartligi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi. Bu modda bilan tanishtirishda bevosita "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" va "Oila Kodeksi" dan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti - davlat boshlig'i hisoblanadi va ayni vaqtida ijro etuvchi hokimiyatga va nafaqat uning markaziy bo'g'iniga, balki respublikaning barcha ijro etuvchi tizimiga rahbarlik qiladi. Davlat boshlig'i sifatida u hokimiyatning barcha tarmoqlariga boshchilik qilib, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi. Prezidentimiz davlatimiz tinchligi, obro'si, shon-shavkatini butun jahonga tanitishdek ulkan mas'uliyatni amalga oshirayotgan, xalqimiz turmush farovonligi, ulg'ayayotgan yosh avlod kelajagini ta'minlashdek ulkan vazifalarni amalga oshirayotganligi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilishi lozim.

### **Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga huquqiy tarbiya berishni tashkil etishda "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"dan foydalanishning ahamiyati**

Bizning davlatimiz o'z farzandlarini mas'uliyatni his etadigan munosib fuqarolar bo'lib o'sishlari va ularni jamiyat taraqqiyotiga o'z ulushlarini qo'shishlariga katta

umid bog'lagan. O'zini shaxs sifatida to'liq anglash, odob-axloq me'yorlariga rioya qilish, o'z haq-huquqlarini bilish va xatti-harakatlarini to'g'ri baholay olish, o'zini va kattalar, tengdoshlarini hurmat qilish, o'z qadr-qimmatini bilish, o'z madaniy an'analari va milliy qadriyatlariga nisbatan g'urur, hurmat, qiziqish tuyg'ularini tarbiyalash vazifalari aynan maktabgacha yoshdan boshlanadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga huquqiy tarbiya berish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligini, huquqiy demokratik davlat barpo etishda yoshlarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy bilimi, madaniyati va ongi shakllantirib boriladi.

Ma'lumki, yer yuzidagi barcha rivojlangan davlatlar yoshlarni jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishini istaydi. Bolalar ulg'ayib borish jarayonida jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun barcha imkoniyatlarning hammasiga ega bo'lib borishlari, hamda hayotning muhim yechimlari mas'uliyatini his qilgan holda ularni o'z zimmalariga olishga tayyor bo'lishlari lozim.

"Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni o'rghanish – aynan mana shu masalani hal etishdagi eng muhim va to'g'ri qadam hisoblanadi.

**"Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"** – bu butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bitimidir.

**Konvensiya** – bolalar rivojlanishining turli davrlarida bolalar farovonligining mavjud mezonlarini aniqlaydi.

Konvensiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

**1. Yashay olish huquqi** – bunda bola talablarini qondirish va hayotiy huquqlarini o'zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalanish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo'lish kabi adolatli hayotiy me'yorlardir.

**2. Rivojlanish huquqi** – bolalarning o'z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari uchun zarur. Ya'ni bilim olish, o'yin, hordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdon erkinligi qonunlaridir.

**3. Bolalar zo'ravonlik va ekspluatatsiya qilinishdan himoyalangan bo'lislari shart.** Bu borada qochoq bolalar masalasidagi muammolarga; adliya tizimidagi zo'ravonliklar va qynoqlarga; bolalarni qurolli nizolarga jalb etish; bolalar mehnati; balog'atyoshigayetmaganlarni seksualekspluatatsiya qilish; o'smirlarning giyohvand moddalarini iste'mol qilishi muammolariga alohida e'tibor qaratish.

**4. Ishtirok etish huquqi:** Bolani mamlakat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga da'vat etadi. Bunda bolalarning hayotiga taalluqli muammolar bo'yicha jahonshumul anjumanlarda va tadbirdarda ishtirok etish huquqi va o'z fikr-mulohazalarini ifoda etishdagi huquqlarini ta'minlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1948-yilda "Inson huquqlari haqidagi umummilliy deklaratsiya" ni qabul qildi. Bunda bolalar huquqlari ham o'z aksini topadi va ko'p o'tmay bu huquqlar xalqaro shartnomada qayd etilishi lozimligi belgilanadi. 1959-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "Bola huquqlari Deklaratsiyasi" qabul qilinadi. Bu hujjatning yuzaga kelish tarixi uzoq yillarni o'z ichiga oladi.

**"Bola huquqlari Deklaratsiyasi" bo'yicha asosiy sanalar:**

1923-yil – Birinchi "Bola huquqlari Deklaratsiyasi" qabul qilindi.

1924 yil – "Bola huquqlari Jeneva Deklaratsiyasi" Millatlar ittifoqi tomonidan qabul qilindi.

1948-yil – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi "Inson huquqlari haqidagi umummilliy deklaratsiya"ni qabul qildi.

1959-yil – Birlashgan Millatlar Tashkiloti ikkinchi "Bola huquqlari Deklaratsiya" sini qabul qildi.

1978-yil – Polsha hukumati "Bola huquqlari haqida Konvensiya"ning yangi loyihasini ishlab chiqadi va uni BMT

ning inson huquqlari bo'yicha hay'atga o'rganib chiqish uchun tавсиya etadi.

1979-yil – Xalqaro bolalar yilida "Bola huquqlari haqida Konvensiya" matnini ishlab chiqish uchun muvofiqlashtirilgan ishchi guruh tuzildi. 10 yil davomida bu guruh izchillik bilan mulohaza va muzokaralar ustida ish olib bordi.

1989-yil 20-noyabrda – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan "Bola huquqlari haqida Konvensiya" qabul qilindi.

1990-yil 2-sentabrda – Konvensiya xalqaro qonun sifatida kuchga kirdi.

Deklaratsiya ruhini saqlab qolgan ushbu "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" oxirgi 30-yillar ichida kelib chiqqan zamonaviy muammolarni:

- Atrof-muhitni muhofaza qilish;
- Giyohvand moddalardan saqlanish;
- Turli xildagi bolalar zo'ravonligining oldini olish kabi muammolarni o'zida ifoda etadi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi va "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" bo'yicha xalqaro shartnoma tuzdi.

Maktabgacha ta'lim tizimida Konvensiya haqida tushuncha va bilim berish dastlabki jiddiy qadam hisoblanib, u bolalarga nafaqat odob-axloq me'yorlariga rioya qilish kafolatini beribgina qolmay, balki uni qonunga mos ravishda harakat qilishga undaydi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda "Konvensiya" dan foydalanishda tarbiyachi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Bola huquqlarini o'rganish - bunda muammo bo'yicha axborot materiallarni tankash, ularni o'rganish, tahlil qilish;
2. To'plangan materiallarga e'tibor qaratish – istiqbolli yo'naliishlar bilan tanishish, huquqiy muammolarni insonlar tomonidan qabul qilinish hissini shakllantirish, xayrixohlik hissini tarbiyalash, mashg'ulotlarga qiziqishini rivojlantirish.

**3. Bolalar muayyan hayotda ro'y berayotgan jarayonlarda ishtirok etishlari orqali kichik muammolardan global muammolar kelib chikishini, ular ham dunyoda adolat va konstruktiv o'zgarishlar bo'lishi uchun qilinayotgan harakatlarda ishtirok etayotganlarini his qilishlari shakllantiriladi.**

Bu jarayonlarda bolalar inson huquqlari bu - ulardan uzoqdagi qandaydir kishilarning huquqlari bo'lgan mavhum tushuncha emas, balki o'zlari yashab turgan muayyan muhitga tegishli ekanligini tushunadilar.

"Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning asosiy vazifalari:

- Yer yuzida erkinlik, adolat va tinchlikning asosi – teng huquqlilik, jamiyat a'zolarining o'ziga xos bo'lgan qadr-qimmatini ta'minlashni ifoda etadi;

- Insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmatiga bo'lgan ishonchlarini tasdiqlaydi;

- Har bir insonning irqi, jinsi, terisining rangi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chikishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi va boshqa holatlar bilan bog'liq belgilariga qarab har qanday tafovutdan qat'iy nazar o'z huquq va erkinliklariga ega ekanligini tasdiqlaydi;

- Har bir bolaning sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan kamoloti uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunilish vaziyatida o'sishi zarurligini ta'minlaydi;

- Bolani jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlashni, ularning farovonligi masalalariga e'tibor qaratadi;

- Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga tug'ilgunga qadar va tug'ilgandan keyin ham munosib darajada g'amxo'rlik qiladi;

- Bolaning himoya qilinishi va uyg'un ravishda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;

- Bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish Konvensianing asosiy mazmun-mohiyatidan iboratdir.

Konvensiyada bolalarning huquq va majburiyatlarini quyidagicha aks etadi:

- "18 yoshga to'limgan har bir inson bola hisoblanadi. Barcha huquqlar hamma bolalarga taalluqli. Bolalar diskriminatsiyaning barcha shakllaridan himoyalangan bo'lishlari shart" - deyiladi. Bunda voyaga yetganlik yoshi 18 yosh deb belgilanishi ta'kidlanadi.

- Har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chikishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki huquqiy vasiysi yoki biron bir boshqa holatlardan qat'iy nazar hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar.

Ishtirokchi davlatlar bola, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodida o'z ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun zarur choralarни ko'radilar.

- 3-modda - Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi navbatda e'tibor qaratilishi. Bolaning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash, ota-onasi yoki vasiysiga ularning huquq va majburiyatlarini e'tiborda tutishni oladilar, qonuniy va ma'muriy chora-tadbirlarni ko'radilar. Bolalar haqida g'amxo'rlik ko'rsatish va ularni himoya qilish uchun mas'ul hisoblanga vakolat organlari tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlarga, xususan xavfsizlik va sog'liqni saqlash talablariga javob berish.

- 4-modda - Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar imkoniyatlaridan foydalanish.

- 5-modda - Davlat ota-onalar huquqi va burchlarini hurmat qilishi va ularning bolalarning rivojlanish qobiliyatlariga muvofiq holda nazorat qila olishlarini ta'minlashi lozim.

- 6-modda – Har bir bola hayot kechirish huquqiga ega va davlat bolaning rivojlanishi hamda yashay olishini ta'minlashga majbur.

- 7-modda – Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqalaridan boshlab ism bilan atalishi va fuqarolikga ega bo'lishi, ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi. Davlat bunday huquqlarni o'z milliy qonunchiliklariga muvofiq amalga oshiradi. Har bir bola o'z ismiga, millatiga ega bo'lishi hamda o'z ota-onasini bilish va ularning vasiylici huquqlariga ega. Bolaning tug'ilganligi haqidagi guvohnomasi – bola shaxsini tasdiqlovchi hujjatdir.

- 8-modda – Bolaning o'z individualligi, jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy aloqalaridan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan bo'lsa, davlat bolani himoya qilishi va zarur bo'lsa uning shaxsini aniqlab berishi shart. Bu bolaning ismini, millatini, oilaviy aloqalarini tiklashni o'z ichiga oladi.

- 9-modda – Davlat bola o'z ota-onasidan ularning xohishlariga zid ravishda ayrilib qolmasligini ta'minlaydi, ota-onaning bittasida yoki har ikkisidan ham ayrılgan bolaning ular bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar yoki to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqini hurmat qiladi. Bola uchun zararli bo'lgan hollardan tashqari vaziyatda u ota-onasi bilan yashash huquqiga ega.

- 10-modda – Bola yoki uning ota-onasi oilani birlashtirish maqsadida boshqa davlatga kirish yohud undan chiqish uchun bergen arizalari shu davlat tomonidan ijobjiy, insonparvarlik ruhida va tezkorlik bilan ko'rib chiqilishi lozim. Ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari ota-onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar, aloqalar bog'lab turish huquqiga egadir.

- 11-modda – Davlat bolalarning g'ayriqonuniy ravishda ko'chirilishiga va chet eldan qaytmasligiga qarshi kurash olib borish chora-tadbirlarini ko'radi. Bolani chegara ortida ota-

onalardan biri yoki boshqa uchinchi shaxs tomonidan ushlab turgani yoki bolalarni o'g'irlagani uchun jazo berishi va ularning oldini olishi shart.

- 12-modda - Bolaga taalluqli bo'lgan barcha masalalar bo'yicha erkin fikr bildirishi va bu fikrlar inobatga olinishi shart.

- 13-modda - Bolalar har qanday chegaralardan qat'iy nazar ularni qiziqtiruvchi ma'lumotlarni olish hamda o'z nuqtayi nazarlarini aytish huquqiga egadirlar. Bular bola shaxsi huquqlari va obro'sini hurmat qilish, davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini muhofaza qilish imkoniyatini yaratadi.

- 14-modda - Davlat bolaning fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqini hurmat qiladi. Ota-onas yoki qonuniy vasiylarning bolaga, uning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq keladigan usul orqali bola huquqini amalgalash oshirishda rahbarlik qilish huquqiga egadirlar.

- 15-modda - Bolaning assotsiatsiya yig'ilishlar huquqini, ya'ni bolalar boshqalar bilan uchrashish huquqiga, tashkilotlardan chiqish yoki ularni o'zlari tuzish huquqiga egalar.

- 16-modda - Bolalar o'z shaxsiy hayotlariga, uy-joy daxlsizligi yoki pochta orqali yuboriladigan narsalarning maxfiyli-giga bo'lgan huquqi amalgalash oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish yoxud uning sha'ni va obro'siga g'ayriqonuniy tajovuz qilish obyekti bo'lishi mumkin emas. Bola qonun yo'li bilan himoyalanish huquqiga egadir.

- 17-modda - Davlat ommaviy axborot vositalarining muhim mavqeyini e'tirof etadi. Bola turli xil milliy va xalqaro manbalarning axborotlari hamda materiallari, ayniqsa ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonlik, shuningdek, bolaning sog'lom, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydi, salbiy ta'sir qiluvchi materiallardan himoyalanish huquqini beradi.

- 18-modda - Bola tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun

ota-onaning umumiy bir xil javobgarligi, bolaning eng yaxshi manfaatlari ular ko'rsatadigan asosiy g'amxo'rlikning predmeti hisoblanadi. Bunda davlat ota-onalarni qo'llab-quvvatlaydi va bolalar muassasalari tarmog'ini rivojlanishini ta'minlaydi. Ota-onasi ishlaydigan bolalar uchun mo'ljallangan xizmatlar hamda bola parvarish qilinadigan muassasalardan foydalanish huquqi beriladi.

- 19-modda - Davlat bolaning jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki ota-on, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklarga qarshi zaruriy qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'radi.

Davlat zo'ravonlikni oldini olish va bundan jafo ko'rganlarni himoya qilish dasturlarini ishlab chikishi zarur.

- 20-modda - Oila mahrumligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lgan bolalar o'zlariga taalluqli bo'lgan madaniyatga muvofiq maxsus muassasalar qaroviga, muqobil oilalarga va maxsus himoya qilinish huquqiga egadirlar.

- 21-modda - Bolani farzandlikka olish imkoniyatiga ega bo'linsa, buni faqat bola manfaatlari to'liq e'tiborga olingan holda tegishli tashkilotlar nazoratidan o'tkaziladi.

- 22-modda - Qochoq hisoblangan bolalar yoki qochoq statusini olmoqchi bo'lgan bolalar maxsus himoyaga loyiqdirlar. Davlat qochoq bolaning ota-onasini yoki oilasining boshqa a'zolarini izlashda, o'z oilasi bilan qo'shilishi uchun barcha zaruriy choralarни ko'radi.

- 23-modda - Aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to'laqonli hamda munosib tarzda yashash huquqiga ega. O'ziga nisbatan alohida g'amxo'rlik ko'rsatilishini talab qilish huquqi beriladi.

Shuningdek, ta'lim, kasb-kor tayyorgarligi, tibbiyat, sog'liqni saqlash, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish sohasidagi xizmatlardan samarali ravishda bahramand bo'lish, dam olish, bolani ijtimoiy hayotga jalb etish kabi imtiyozlardan foydalanadilar.

- 24-modda - Bolalar eng yuqori darajadagi andozalarda tibbiy yordam olish huquqiga, sog'liqni himoya qilish xizmatlaridan foydalanish huquqiga egalar.

- 25-modda - Davlat tomonidan bolalarni tarbiyalash, himoyalash yoki ruhiy davolash maqsadida joylashtirilgan muassasalar muntazam ravishda nazoratdan o'tkaziladi.

- 26-modda - Bolalar ijtimoiy sug'urtalanishga kiritilganlari holida, ijtimoiy himoyalanish imtiyozlaridan foydalanish huquqiga egalar.

- 27-modda - Bolalar ma'naviy, ruhiy, jismoniy, aqliy rivojlanishiga muvofiq keladigan hayot darajalariga, turmush saviyasiga ega bo'lish huquqiga egadir. Ota-oni zaruriy turmush sharoitini ta'minlashda javobgarlikni sezishlari kerak. Bu mas'uliyatni amalga oshirishda davlat kafolat berishi shart.

- 28-modda - Bolalar ma'lumot olish huquqiga egalar. Boshlang'ich, umumiylar ma'lumot bepul va majburiy bo'lishi kerak. Har bir bola uchun o'rta ma'lumotli bo'lish imkonini yaratilgan bo'lishi shart. Oliy ma'lumotli bo'lish huquqiga hamma o'z qobiliyatiga ko'ra ega. Maktab intizomi huquq va bolalar qadr-qimmatini hisobga olgan holda ta'minlanishi zarur deyiladi.

- 29-modda - Ma'lumot olish huquqi bolada ruhiy va jismoniy qobiliyatlarini, uning jismoniy va ruhiy iste'dodini o'stirishi lozim. Bolalarga jamiyatning huquqiy a'zolari sifatida o'zi va boshqalarning madaniyatini hurmat qila oladigan shaxs darajasida tarbiya berish zarur.

- 30-modda - Agar bolalar mayda millat vakillariga taalluqli bo'lsa, o'z madaniyati, o'z dini va o'z tiliga ko'ra hayot kechirish huquqiga ega.

- 31-modda - Bolalar dam olish, o'ynash, madaniy va badiiy tadbirlarda ishtirok etish huquqiga ega.

- 32-modda - Bolalar rivojlanish, ma'lumot olish, sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan ishlarda ishtirok etishdan, iqtisodiy ta'qib qilinishdan himoyalanish huquqlariga ega.

- 33-modda - Bolalar giyohvand moddalarni iste'mol qilishdan, shuningdek, bu giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va tarqatishga jalb qilinishdan himoyalanish huquqlariga egalar.

- 34-modda - Bolalar pornografiya, fohishabozlik hamda shunga o'xshash zo'ravonlik va seksual ekspluatatsiyalardan himoyalangan bo'lislari shart.

- 35-modda - Davlat bolalarni o'g'irlash, sotish, qilishning oldini olishning imkonini bo'lgan barcha chora-tadbirlarni qabul qilishi zarur.

- 36-modda - Davlat bolani uning farovonligiga oid har qanday jihatdan zarar yetkazadigan narsalardan himoya qiladi.

- 37-modda - Har qanday bolakay qiynov, qo'pol muomala, ta'qiblar, noqonuniy hisobga olinish yoki ozodlikdan mahrum bo'lishdan muhofaza qilinmog'i shart.

- 38-modda - 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalar qurolli nizolarda bevosita ishtirok etishlari mumkin emas. Qurolli nizolarga daxldor bo'lgan bolalar maxsus himoya va vasiylikka loyiqdirlar.

- 39-modda - Qurolli nizolarni, qyinoqlarni, zo'ravonliklarni, ta'qibni boshidan kechirgan bolalar sog'ayishlari uchun kerakli davolash va ijtimoiy reintegratsiyalarni oladilar.

- 40-modda - Qonunni buzgan bolalar ulardagi chin insoniy fazilatlarni ko'zlovchi va muhofaza qiluvchi har qanday yuridik va boshqa imtiyozlardan to'laqonli foydalanish huquqiga egadirlarki, ularga jamiyat uchun foydali inson bo'lib yetishishlarida ko'mak bo'ladi.

Bolalar huquqlarini ta'minlash butun jamiyatning vazifasidir. Bola huquqlarini ta'minlash, ularning har tomonlama sog'lom va xavfsiz kelajagini ta'minlash maqsadida fuqarolarni birgalikda ishslashga ilhomlantiradi. Bolalar kattalardan,

tarbiyachi-pedagoglardan oladigan axborotlari orqali o'z huquqlari haqidagi tasavvurlarga ega bo'ladilar, huquqiy me'yorlarga nisbatan mas'uliyat tarbiyalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" bilan tanishtirish - bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Oila" Kodeksida yoritib berilgan vazifalarni uzviy hamkorlikda o'rganish imkoniyatini yaratadi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar.**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiya berishning asosiy tamoyillarini sharhlab bering.
2. Farobiyning huquqiy tarbiya masalalariga oid falsafiy qarashlarining ahamiyati nimada?
3. Bolalarga huquqiy tarbiya berishning mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?
4. Huquq va qonun iboralariga ta'rif bering va ular orasidagi tafovutni yoriting.
5. Oilada huquqiy tarbiyani amalga oshirishda ota-onaning roli va majburiyatlarini tushuntirib bering.
6. Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tanishtirish ishlarini tashkil etish jarayonini izohlang.
7. Huquqiy tarbiyaga oid moddalardan misollar keltiring va tushuntirib bering.
8. Huquqiy me'yorlar va axloqiy me'yorlar bo'yicha alohida jadval tuzing va uni yoritib bering.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" asosida "Bolalarning burch va majburiytlari" jadvalini tuzing va izohlab bering.

### **Huquqiy tarbiya bo'yicha mavzu yuzasidan testlar.**

1. Demokratik huquq va erkinliklar nima bilan himoya qilinadi?
  - a) Prezident farmonlari bilan
  - b) Qonun va qarorlar bilan
  - c) Konstitutsiya va qonunlar bilan

d) Konstitutsiya bilan.

2.O'zbekiston Respublikasi tuzilish jihatidan qanday davlat?

a) Unitar

b) Konfederativ

c) Respublika

d) Suveren

2. Huquqiy tarbiyaning tarkibiy qismlarini aniqlang?

a) Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, huquqiy bilim

b) Huquqiy tashviqot, huquqiy me'yorlar, huquqiy himoya, huquqiy majburiyat

c) Huquqiy burch, huquqiy himoya qiluvchi tashkilotlar, jamoatchilik huquqi

d) Huquqiy tenglik, huquqiy manfaatdorlik, huquqni mustaqil amalga oshirish

3. Amir Temur tomonidan davlatni boshqarishdagi asosiy tamoyillar qaysi bandda to'g'ri yoritilgan?

a) Tadbir va mashvarat, shijoat, ehtiyyotkorlik, sergaklik

b) Mashvarat-u maslahat, kengash, holislik, murosa-yu madora

c) Kengash, mashvarat-u maslahat, qat'iy qaror, tadbirkorlik, xushyorlik, ehtiyyotkorlik, adolat

d) Shijoatlik, balandparvozlik, chidamlilik, rahmdillik, xayr-ehson qilish

4. Maktabgacha ta'lif muassasalarida "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" ni o'rgatishdan maqsad – bu ...

a) Bolalar rivojlanishining turli bosqichlarida mavjud mezonlarni, huquqiy muammolarni, bolalar hayotiga oid bo'lgan barcha masalalarni o'rGANADI

b) Bolaning yashay olish, rivojlanish, ishtirok etish, vijdon va din erkinliklari, barcha zo'ravonlik va qyinoqlardan muhofaza qilish huquqlari bilan ta'minlaydi

c) Huquqi ong va boshqa tushunchalarni shakllantirish, bolani huquqiy boshqarish chora-tadbirlar majmuasi

d) Hayotiy muhim yechimlarni ota-onalar tomonidan birgalikda hal etish, bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish.

## **XII BOB. EKOLOGIK TARBIYA**

### **Ekologik tarbiya berishning nazariy asoslari**

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o'rtasida katta tashvish uyg'otmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", 55-moddasida esa "Yer osti boyliklari, suv, o'simlik, va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deyilgan.

Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilma boyliklari tugab bormoqda. Suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg'un bo'lgan tabiiy holatga putur yetmoqda.

Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhito'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Inson tabiatga, o'zini o'rab olgan muhitga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o'rganishi va ular asosida o'z hayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo'llarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chikishiga sababchi bo'ladi va shu ofatlardan halok bo'ladi.

Ekologik ta'lif va tarbiyaning tub ma'nosи - tabiat va jamiyat о'rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog'lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik ta'lif va tarbiya – bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtidan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'-u-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undash-dan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Insonni o'rabi turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go'zalligiga go'zallik qo'shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni yetishtirish - bu ekologik tarbiya maqsadi.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq allomalaridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

**Muhammad Muso al-Xorazmiy** (782-847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: "Bilingki, dunyoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryordan mehringizni darig' tutmanglar". Dunyoning yosli ko'zlari deganda Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan?

Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? U, eng avvalo, daryo bilan odamlarning bir-birini tushinislari va til topishishlari, o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan.

847-yilda Muhammad Muso al-Xorazmiy "Kitob surat al-arz" degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi

qit'alar, qutblar, ekvatorlar, gullar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar va ulardagi o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek boshqa tabiiy resuslar – Yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyat, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

**Abu Nasr Farobi** (870-950) tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, "Kitob qolhaji va al-Miqdor", "Kitob al-mabodi al-insonia", "Kalam fia'zo al hayvon" nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi.

Farobiy o'zining "Ixsoa al-ulum va al-ta'rif" asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o'rganib, ularni ma'lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog'iga ta'rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e'tibor berdi.

Tabiatshunoslikka oid "Kitob al-mabodi al-insonia", "Kalam fia'zo al hayvon" kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xhashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomiq-fiziolgik tushunchalar berilgan. Ularning ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Kasalliklarning oldini olish, sog'lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo'llash lozim ekanligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

**Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) koinotdagi hodisalarini taraqqiyot qonunlari bilan narsa va hodisalarining o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. U tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi".

Beruniy "Saydana" asarida 1116 turdag'i dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750tasi turli o'simliklardan, 101tasi hayvonlardan, 107tasi esa minerallardan olinadi. Har bir

o'simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.

**Abu Ali ibn Sino** (980-1037) jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan olimlardan biridir. Yirik qomusiy olim sifatida u o'z davri ilm-fanining deyarli barcha sohalari bilan shug'ullangan. Turli yozma manbalarda uning 450dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha esa 24tasi yetib kelgan.

Ibn Sino asarlari orasida uning mashhur "Tib qonunlari" nomli shoh asari tibbiyot ilmining qomusi hisoblanadi. "Agar dunyoda chang va g'ubor bo'lmasa insoniyat ming yil umr ko'rardi" deb aytgan edi. Olimning juda ko'p qimmatli fikrlari, jumladan, uning inson sog'lig'ini saqlash haqidagi, parhez, gigiyena to'g'risidagi xulosa va maslahatlari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U barcha yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni tavsiya etgan.

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483-1530) faqat shoir bo'lmay, balki tabiatshunos ham bo'lgan. Boburining eng yirik asari "Boburnoma" asarida shoirning ko'rgan-kechirganlari, borgan joylarining tabiatи, boyligi, odamlari, urf-odatlari, hayvonot, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keragicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar, manbalarga boy. Unda yer, suv, havo turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi.

Bobur har bir hududni ma'lum bir tartibda tasvirlaydi. Avvalo, joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, shifobaxsh joylari, o'simliklari, qazilmalari, hayvonoti va aholisi haqida ma'lumotlar beriladi.

Bobur ajayib botanik bo'lgan. U o'simliklarni sevgan va yaxshi bilgan.

Bobur o'zi bo'lgan joylarning tabiatи va o'ziga xos xususiyatlarini jonajon vatani Andijon bilan taqqoslaysaydi, u ayniqsa gullar, manzarali hamda mevali daraxtlarni ko'paytirishga, ularning tarqalishiga e'tibor bergan.

## **Tabiatga munosabat odobini tarbiyalash**

Inson onadan tug'ilib, olamga kelgan chog'idanoq tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi. Ilk bor havodan to'yib nafas oladi. Odamzot o'sib-unish uchun oziq-ovqat, suv, quyosh, harorati juda zarur bo'lib, u bularning hammasini tabiatdan oladi. Tabiat musaffo bo'lsa, odam ham sog'lom, baquvvat o'sadi.

Odam har nafas olganda uning o'pkasiga yarim litrgacha havo kiradi. Odam bir minutda 16-18 marta nafas oladi yoki tanaga 8-9 litr havo kiradi. Bu miqdor bir kecha-kunduzda 11 ming litrdan ortadi. Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o'pkada gaz almashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu insonning sog'lig'ini bora-bora izdan chiqarib, turli xastaliklarni vujudga keltiradi.

Tabiat shunday odil mo'jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o'simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak o'simliklar dunyosi, ramziy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidriddan tozalab beruvchi bebahoh vositadir. Bunday inson o'z atrofini o'rab turgan tabiatni, uning o'simliklar dunyosini ko'z qorachig'iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo'lidan kelganicha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi. Shuning uchun otabobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan.

Muhammad alayhissalom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: "Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, behosdan qiyomat qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz, uni ekip qo'ying".

Inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak ham tabiatdan olinadi, hattoki insonning xastalikdan qutulishi, salomatligini tiklashi uchun

zarur bo'lgan dori-darmonlar ham ona-tabiatda yetishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a'zo bo'lmaganday, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo'q. Ularning hammasi hayot uchun zarur.

Yer yuzi ekologiyasi keskin buzilmoqda. Daraxtlarning kesib yuborilishi, qush va hayvonlarning shafqatsizlik bilan ovlab yo'q qilinishi tabiat muvozanati qonunlarining buzilishiga sabab bo'ldi va bo'lmoqda.

Dengiz va daryolarga, okeanlarga neft qoldiqlari quyilib, yer yuzidagi suv ekologiyasi tubdan izdan chiqarilmoqda. Inson uchun quyosh nuri, toza havo, toza suv naqadar zarur bo'lsa, ona zamin ham shunday zarur, uni asrab-avaylash insonning o'z qo'lidadir.

Atrof - muhitning tozaligini ta'minlash o'zimizga bog'liq, biz katta-yu yosh toza havodan bahramand bo'lish uchun shahrimizga ko'chat ekib, ko'kalamzorlashtirsak, uning ozodaligini saqlasak o'zimizning sog'lig'imizni saqlagan bo'lamiz.

Bahor faslida ko'chat ekish oyligi o'tkaziladi. Shunday ekan, nihollarni yaxshi niyat bilan ekish, parvarishlash, gullar ekib o'stirish har bir o'quvchi va kattalarning insoniy burchidir.

O'zbek xalqi qadriyatlari orasida tabiatni saqlash, qadriga yetish, chiroyiga chiroy, ko'rkiga-ko'rк qo'shishi odatlari bor.

Inson tabiadagi har bir giyoh, o't-alaf, dov-daraxt, parranda-darrandalarni, olamda nimayiki kerakli bor narsani zarur deb biliadi. Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so'lim daraxtzorlarni, qoya-g'orlarni, xosiyatli o't-o'lanlarni, gulgiyohlarni muqaddas bilib asrashga, niyati nopol kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoqosti qilmaslikka alohida e'tibor berib kelganlar. Avvalo, har bir inson yer yuzidagi o'simliklarni ko'paytirishga hissa qo'shishi, kamaytirishdan o'zini tiyishi lozim. O'simliklarni ko'paytirishning birdan bir yo'li - mevali va manzarali daraxtlarni iloji boricha ko'proq ekishdir. Ularni parvarish qilish, bog'-rog'lar yaratish har bir inson uchun

xayrli ish bo'lishi bilan birga, savobli ish hamdir. Xalqimiz bog' yaratgan odamlarni hech qachon esidan chiqarmaydi. Go'zal bog'lar yaratish, yurtni gullar bilan burkash qadimdan eng yaxshi odatlarimizdan biri bo'lib kelgan.

Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining qimmatli va nodir yozma yodgorliklaridan biri Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temurning davlat faoliyati va harbiy yurishlari bayon qilinishi bilan bir qatorda, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida O'rta Osiyodagi madaniy hayotga doir bir qancha noyob ma'lumotlar ham keltirilgan.

Ajdodlarimizning yuksak did va nafosat nigohi bilan yaratilgan bog'-rog'lari, ulkan qurilishlari hozirgi kunda ham Samarqand-u Buxoroni, ko'hna Urganch, Xivani bezab, Yer yuziga zeb berib turibdi. Bu nodir obidalar bobokalonlarimiz el-yurt obodonchiligiga alohida e'tibor qilganliklaridan dalolat beradi.

"Zafarnoma"da Sohibqiron Amir Temur tomonidan barpo etilgan "Bog'i shamol", "Bog'i dilkusho", "Shahrisabz qo'rg'oni" va Oqsaroy kabi obidalar haqida bataysil hikoya qilinadi.


Bunday misollarni keltirishimizdan maqsad o'tmish ajdodlarimizdan bizgacha urf-odat bo'lib yetib kelgan obodonchilik ishlaridan hozirgi yoshlarni xabardor etish, ularni ana shu ishlar misolida tarbiyalashdir. Ular ham Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi el farvonligi, yurt obodligi uchun kurashuvchi zabardast o'g'il-qizlar, oliyhimmat inson, tabiatga mehr-muruvvatli kishilar bo'lib yetishsinlar.

### **Maktabgacha yoshdag'i bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo'llari**

Mashg'ulotlar bolalarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Dasturda belgilangan bilim va malakalarni tarbiyachi ta'lim tamoyillari asosida bolalar o'zlashtira oladigan qilib tashkil etadi.

Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boradi. Mashg'ulotlar ularni aniqlash va sistemalashtirish imkonini beradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning xilma-xil yo'llari mavjud.



Mashg'ulotlarning ayrimlarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, badiiy asarlarni, hikoyalarni o'qish, diafilm va shunga o'xshashlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Mashg'ulotlarda bu xildagi suhbatlar, didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi so'zlardan, bolalarning tabiatdag'i mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg'ulotlarga — qo'shimcha sifatida maqsadli sayrlar o'tkaziladi.

Children's appreciation for nature develops at a young age, so begin environmental education for kids as early as possible. They watch and imitate the attitudes and actions of the adults around them towards living things. Whether it's a jar of warms a few snails, butterfly eggs, tadpoles or sow bugs, young children's eyes light up when you bring living things into the classroom. Kids need to learn about nature through read interactions with it not from filling out stacks of worksheets about nature. Once children

have had opportunities to investigate what you bring, they're motivated to ask questions to take their ideas where they want and or are motivated to complete projects designed to share their new knowledge.

Bolalarning tabiatga mehri yoshligidan rivojlanadi, shunday qilib ularning atrof-muhit haqidagi bilimlari imkon boricha erta boshlash kerak. Ular o'z atrofidagi xatti-harakatlarni kuzatishadi va ularga taqlid qilishadi. U qurt ovozi bo'ladimi, chig'anoq, kapalak qurti, qurbaqa bolasi yoki kana agar uni sinfxonaga olib kirsangiz, albatta, bolalar ko'zları katta ochilib qarashadi. Bolalar, albatta, haqiqiy jonivorlarni ko'rib o'rGANishi lozim faqat qog'ozdagina emas. Agar bolada siz nima olib kelganingizni so'rashga imkoniyat bo'lsa, ular sizga savol bilan murojaat qilishni boshlashadi, bu esa ularga fikrlarini bayon etishga va ularni boshqalar bilan bo'lismishga olib keladi.

Kindergardenslessons.com Mike Adams Copyright 2014

Ekskursiya. Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lif berishning tashkiliy formalaridan biri ekskursiyadir. Ekskursiya jarayonida bolalar ona tabiat to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Bu tasavvur tabiatni ko'rish, eshitish, sezish orqali idrok etiladi. Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat, undagi bog'liqlik va uning qonuniyatları to'g'risida realistik tasavvurlar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etadi, maktabda o'rGANILADIGAN tabiiy fanlarni o'zlashtirib olishni osonlashtiradi. Tabiat to'g'risidagi bilimlardan bexabar bo'lish ko'pincha o'simlik va hayvonlarga nisbatan noto'g'ri, ba'zi hollarda esa berahm va shafqatsiz munosabatda bo'lishga olib keladi. Ekskursiya bolalarni tabiatni o'ziga xos hodisa va voqealari bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu bilan qatorda insonlarni tevarak-atrofdagi o'zgartiruvchi faoliyatining natijalari bilan ham tanishtirib boradi. Bu esa kishilarning yaratuvchanlik faoliyatiga hurmatini tarbiyalaydi va unda qatnashish xohishini uyg'otadi, o'z o'lka tabiatidan, unda yashovchi mehnat ahlidan g'ururlanish hissini mustahkamlaydi.

Yuqorida tilga olingan barcha metodlar va usullar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularni yanada sinchkovlik bilan kuzatishga, kuzatayotgan narsa ustida chuqurroq o'ylashga, fikr, bilim doirasini kengaytirishga, har xil tabiiy voqeя, hodisalarни so'z bilan chiroyli qilib to'g'ri ifodalab berishga о'rgatadi.

### **Tabiat burchagidagi ishlar**

Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparavarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko'paytiruvchi, kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchaginiн аhamiyati kattadir.

Tabiat burchaginiн muhim tomoni yana shundaki, uni bolalar har kuni ko'radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib va parvarish qilib boradilar. Natijada o'simlik va hayvonot dunyosining rang-barangligi, ularning o'sishi va rivojlanishi, ular uchun qanday shart-sharoitlar kerakligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab boradilar.

Tarbiyachi bolalarni solishtirma analizga о'rgatadi, ular o'rtasidagi umumiylig va farqlarni, ularga xos belgilarni bilib oladilar.

Tarbiyachi bolalar diqqatini o'simliklarning chiroyli gullahiga, barglarining shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko'rinishiga va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go'zallikdan quvonishga o'rganadilar hamda ularning estetik didi o'sadi.

Bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida ma'lum malaka va ko'nikmalarni ham egallab boradilar, ularga nisbatan barqaror qiziqish va g'amxo'rlik hissi uyg'onadi.

Bolalarning tabiatga mehr-muhabbatini o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, ularni asrab-avaylash bo'yicha mehnat faoliyatlarini tashkil etish bilan birga qo'shib olib borish kerak. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishini ularning yosh xususiyatlari, pedagogik, fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etadi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Ekologik madaniyat** – kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo'lish.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ekologik bilim – ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz, ular o'rtaсидаги bog'liqliкni ifodalang.
2. «Dunyoda chang va tutun bo'lмаганida insoniyat ming yil umr ko'rardi» - bu hikmatli so'zning mazmunini yoriting, maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'llashni ifodalang.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo'llari qaysilar?
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ekologik tarbiya berishda qanday usullardan foydalilanildi?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat burchagida qanday vazifalarni bajaradi?
  - a) bilim oladilar
  - b) rasmlar tomosha qiladilar
  - v) tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida kuzatib, parvarish qiladilar
  - g) diafilmlar namoyishini ko'radilar
2. Bolalarga ekologik tarbiya berishda qanday usullardan foydalilanildi?
  - a) ko'rgazmali, amaliy, og'zaki
  - b) kuzatish, diafilm, namoyish etish.

- v) tarbiyachining hikoyasi
- g) bolalar bilan suhbatlar

3. Ko'rgazmali metodlar guruhiga nimalar kiradi?

- a) rasmlar ko'rish
- b) kinofilmlar namoyish etish
- v) ko'rgazmali vositalardan foydalanish
- g) hamma javoblar to'g'ri

4. Sayr vaqtida bolalar tarbiyachi rahbarligida qanday vazifalarni bajaradilar?

- a) o'simliklarni sug'oradilar
- b) yerni yumshatadilar
- v) ko'chatlar ekadilar
- g) hamma javoblar to'g'ri

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qaysi guruhdan boshlab tabiat burchagida navbatchilik qilishga ruxsat beriladi?

- a) tayyorlov guruhidan
- b) o'rta guruhdan
- v) katta guruhdan
- g) kichik guruhdan

### **XIII BOB. O'YIN – BOLA FAOLIYATINING ASOSIY TURI**

#### **O'yinning bola faoliyatidagi mohiyati va o'ziga xosligi**

O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomilla-shuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rın tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagil bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lif bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaf-larning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, - deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - U insонning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'yin – bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda

borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergen edi.

P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib o'yining ijtimoiy voqeа ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyida-gilarga rioya qilishi lozim.

1. o'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish
2. o'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u mакtabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Narrow conceptualization of play is shared by many other early childhood practitioners for whom play is considered essential, as an activity promoting learning and yet only relevant to some areas of the curriculum. According to Wood and Attfield, despite constant validation from academics play continues to have an insecure place in delivering the curriculum (Wood and Attfield). The status and value of play, a source of controversy between politicians and practitioners

since the Education Reform Act, has been partially substantiated by its inclusion in the Curriculum guidance for the foundation stage (CGFS) which states that 'well-planned play, both indoors and outdoors, is a key way in which young children learn with enjoyment and challenge

O'yin mazkur izlanishlarda kutilganidek, markaziy bilim berishni rivojlantirish sifatida barcha enagalar fondiga joylashtirilgan edi, biroq xayoliy o'yin ekanligi barchaga ravshan edi. Bu qisqa tarzdag'i konseptual o'yinlar boshqa ko'plab amaliyotlarda ham bolalar tajribasida keng qo'llaniladi va kerakli deb hisoblanadi, ba'zi bir o'quv rejalariga yondashuv sifatida qaraladi. Doimiy akademik davralarni tekshiruvi natijasida o'yin o'quv rejasiga taqdim etishda mutlaq xavfsiz emas degan tasavvur qoldirmoqda. O'quv qonuni reformasida Siyosatchilar va amaliyotchi o'qituvchilar o'rtasidagi bir-biriga teskari bo'lgan fikrlar o'yining mavqeyi va darajasini belgilab beradi. Unda aytishicha «ochiq havoda yoki yopiq maskanda yaxshi tuzilgan o'yin, yosh bolalar uchun maroqli tuyilishi va ular qiziqish bilan o'rganishadi» va shu tarzda o'quv fundamenti darajasini o'rganish maqsadida qisman uni boshqarma o'quv rejasiga qo'shish taklifi tasdiqlangandi (CGFS)

Researching Effective Pedagogy in the Early Years  
Department of Educational Studies University of Oxford(234)

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatalishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmun jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.


Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib MTMning pedagogik jarayonda o'yining tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan mакtabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berishda keng foydalilanildi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lif va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yining mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir.



Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlar o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlar o'yin jarayonida belgilashadi.

Qoidalari o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidalari o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTM ta'lim va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomonidan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'r'in tutadi.

O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'r'in egallaydi.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagি kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-

tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, xayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi.

O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysundirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Qoidalı o'yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqati va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidalı o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiyy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib bolani umumiyy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'lim shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhabat, so'zlab berish va hokazolar.

Bola o'ynayotib o'z bilimidan foydalanishni, uni har xil sharoitda ishlata bilishni o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantaziysi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo'l ochiladi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergen kechinmalar bola

ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug'vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdag'i o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iborat.

O'yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga, mehnatiga bo'lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish xohishini uyg'otadi, o'yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O'yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo'lgan texnikaga qiziqish paydo bo'ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar.

O'yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O'yinda ijodiy xayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o'yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlarda harakatning go'zalligi va maromi bolalarni o'ziga maftun qiladi.

O'yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o'z-o'zidan amalga oshmaydi. O'yin befoyda, hatto zararli bo'lishi, ba'zan yomon hislarni qo'zg'atishi mumkin. Tarbiyachi o'yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta'sir etib borishi zarur.

Bu vazifani hal etishda o'yin bolalar bog'chasidagi ta'limgartarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchisi tomonidan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chiriladi.

### **O'yining maktabgacha ta'limgartarbiyasi pedagogik jarayonidagi o'rni**

O'yining bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o'ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlari, syujetli-rolli o'yinlarni o'ynagan ma'qul.

Sayr davomida harakatli o'yinlarni, qurish-yasash o'yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o'yin uchun maxsus vaqt belgilash o'yining mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo'lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo'llanilishining eng muhim pedagogik shartidir.

Bolalar o'yining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin.


Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-

hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O'yin g'oyasi - bu nima o'ynashni belgilab olish: "do'kon, "shifoxona", "uchuvchilar", "bolalar muassasasi" va shunga o'xshashlar. O'yin mazmuniga, g'oyasiga qarab bolalarning bunday o'ynilarini bir necha o'ziga xos guruhlarga bo'linadi. Ular:



O'ynilarning bunday bo'lishi albatta shartli bo'lib, bir o'yinda har xil hayotiy voqealar aks etishi ham mumkin.

G'oya o'yinning mazmuni, jonli to'qimasi, uning rivojlanishini, o'yin harakatlarini, bolalar munosabatlarining har xilligi va o'zaro bog'lanishini belgilab beradi. O'yinning qiziqarli bo'lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o'yinning mazmuniga bog'liq. O'yinda bola ijro etadigan rol

o'yinning asosiy o'zagi va tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham bu o'yinlar rolli yoki syujetli-rolli o'yinlar nomini olgan.

Bolalar o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi. O'yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur: o'yin mazmunining ta'limgarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi, o'yin harakatlariiga faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'yinga rahbarlik qilish, o'yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o'yinda xayrixoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his-tuyg'ulariga, irodasiga, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomonidan tarbiyalashda foydalanishi lozim.

O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi.

Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.

O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos mакtabdir.

O'yinda bola kishilarning axloq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar.

Ammo o'yinga to'g'ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o'yindan keng foydalanadi. Juda ko'pchilik o'yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o'z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasining to'g'ri o'sishini, harakatlari chiroyli bo'lishini ham ta'minlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O'yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqelikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O'yinda bolalarning avval olgan taassurotlari orqali obraz yaratishlari – xayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko'p o'yinlarda avval o'rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O'yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o'ynashlari uchun 1 soat – 1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o'yiniga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'proq syujetli-rolli o'yinlarni, qurilish materiallari, qo'g'irchoqlar bilan, stol usti o'yinchoqlari o'ynashlari mumkin. Shu bilan birga ermak o'yinlardan ham foydalaniлади.


Ammo o'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib qoladi.

Ammo bolalar uchun o'yining qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. Endi bolalarni ko'proq fikriy faoliytni talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi o'yinlar qiziqtira boshlaydi.

Shunday qilib, pedagogika fani o'yinga bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashkil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi deb qaraydi.

### Ijodiy o'yinlar turlari

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yining mazmunini ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodkorlik qobiliyatları to'laligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.



Syujetli-rolli o'yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin turlaridir.

Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Bolalar o'yinining o'ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashkil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

O'yinning syujeti – bir-biriga hayotiy aloqador bo'lган qator voqeа- hodisalar yig'indisidir.

Rol syujetli-rolli o'yinining asosiy zanjiri hisoblanadi. O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi.

Bola o'ynayotganda har xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxta ustidan o'tadi, engashadi,yuqoriga tirmashib chiqadi va hokazo.

Bu harakatlarning hammasini bola bemalol, o'z xohishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo'lib qoladi.

Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Rolli o'yinlar bola kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi.

O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, topag'onlikka o'rgatadi. O'yin jarayonida juda ko'p gaplashishga, tortishishga, bahslashishga,

aytib berishga to'g'ri keladi. Bolalar o'zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yasash, qurish uchun juda ko'p o'ylab, fikrlashishlariga to'g'ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va xayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib, olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi. Masalan, Dilnoza ona-bola o'yinida ona rolini o'ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yaxshi munosabatda bo'lib erkelaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o'qib beradi. Bu o'yin bolada muloyimlilik, g'amxo'rlik, e'tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg'otadi.

Rolli-syujetli o'yinlarning o'ziga xos xususiyati. Rolli o'yinlarning boshqa o'yinlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir.

Bolalar biror narsa yoki voqeа to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan, bolalar "paroxod" o'yinini o'ynamoqchi bo'lishdi. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolalarda avval g'oya paydo bo'ladi, keyin mazmun rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, Afrikaga "bormoqchi" bo'lsalar, sayohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar.

Bundan ko'rinish turibdiki, rolli o'yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar.

Rolli o'yinda har bir bola o'ziga olgan rolni bajaradi masalan, ona, haydovchi, tarbiyachi, enaga, san'atkor va hokazo.

Rolli o'yinlarda didaktik, qoidali – harakatli o'yinlardagi singari qat'iy o'rnatilgan qoida bo'lmaydi. Bunda ko'pincha bolalar o'z xayol qilgan narsalari bo'yicha harakat qiladilar. Masalan, "raketa tushib oyga uchadilar", "paroxodda suzadilar", "kasalni davolaydilar"...

Ammo bolalarning xayollari bilan o'ynashlari ularni real voqealikdan uzoqlashtirib yubormaydimi degan savol tug'iladi, yo'q, bolalar o'zlari buning o'yinligini yaxshi biladilar.

Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo'ladi. Masalan, "doktor" roolidaga bola kasal to'g'risida qayg'uradi.

O'yin mavzui bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog'liq bo'ladi.

Rolli o'yinlarining mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o'yin shartlari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi.

Avvalgi bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lмаган guruuhchalar 2-3 kishidan iborat bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruuhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

O'yinda har xil rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.

O'yinning tuzilishi va mazmuni o'zgarishi bilan o'yinchoqning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o'zgarib boradi va h.k.

Bog'cha yoshidagi bolalarda ijodiy o'yinning rivojlanib borishi. Uch yoshdagи bolalarning o'yinlari yangi tus oladi: bola qo'g'irchoqni va o'zini kishilarning nomi bilan atay boshlaydi: masalan, bola mashina yasab uni boshqara boshlaydi. Kattalar undan sen kimsan, deb so'rasa, "Haydovchiman" deb javob beradi. Yoki qizcha qo'g'irchog'iga ovqat pishirayapti. "Sen kimsan?" - degan savolga "Men oshpazman" deb javob beradi.

Bolalar o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lмаган syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydilar. Bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi. Bolaga ovqat berishadi, uplashga yotqizishadi, mashinada tortishadi.

Yana ovqat berishadi va uxlatishadi. Yoki qo'g'irchoq kasal bo'lib qolsa, darrov uning qo'li, oyog'i bog'lanadi, yolg'onidakam dori beriladi.

Uchinchi yoshning oxiriga kelib bola rol tanlay boshlaydi. "Men oyisiman", "Men - vrachman" deb bular birdaniga enaga, tarbiyachi doktor bo'lib qolishi mumkin.

Bola to'rt yoshga o'tganda syujetli-rolli o'yinlar ancha rivojiana boshlaydi. O'yinlar mavzui har xil bo'lib, boyib boradi. Bu yoshdagagi bolalar o'z o'yinlarida oila, MTMni, avtobusda, tramvayda kelayotgan kishini aks ettiradilar.

Tevarak-atrofni kuzatish natijasida tasavvurlari kengayadi, bu ularning o'yin mazmuniga ta'sir etadi: bayramlar, magazin, transportning har xil turlarini aks ettira boshlaydilar. Ammo bu yoshda ular hayotdagagi voqealar o'rtasidagi bog'liqliklarni hali tushunib yetolmaydilar.

Bola besh yoshga qadam qo'yganda undagi kuzatuvchanlik tafakkuri rivojlanganligi, bilim doirasi kengayganligi sababli o'yin mazmuni ham murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanib borishi orqasida ertak va hikoyalar mazmuni bo'yicha murakkab bo'limgan o'yinlarni o'ynashadi.

O'yin mazmuni bilan bir qatorda bolalarda hislar ham rivojlanib boradi. Kundalik hayotga nisbatan bolalarda hissiyot yuqori bo'ladi. O'yin birinchidan, xursandchilik bilan hamohang kechadi. Ikkinchidan, bolalar kattalarning hislarini o'z o'yinlarida aks ettiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagagi bolalarda ijodiy o'yin juda ham yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlarini eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilim, malakalarini, his-hayajonlarini to'la qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagagi bolalar o'yinlarida berilgan ta'limtarbiyaning natijasi yaqqol ko'rinish, sezilib turadi.

Bolalar kim bilan o'ynashi to'g'risida va o'yinning qanday borishi to'g'risida o'zaro kelishib oladilar. O'yinlar uzoqroq davom etadigan bo'lib boradi. Bitta o'yinni uzoq vaqt, hatto bir necha kun o'ynash mumkin, bunda har gal o'yinga yangilik kiritib boriladi.

Uzoq davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdag'i bolalar o'yinlarining yuqori bosqichi hisoblanadi.

Katta maktabgacha yoshdag'i bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilib borilsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga kelib, u o'z an'anasisiga, o'z qoidasiga ega bo'ladi. Bolalarda birgalikda ijod qilish qobiliyati rivojlanadi, ular o'rtoqlarining fikri bilan kelishadigan, fikriga qulq soladigan bo'lib boradi.

Bolalar jamoasining shakllanishi uzoq vaqt ni talab etadigan murakkab ish. Bolalar o'rtasida murakkab munosabatlar yuzaga kela boshlaydi.

Har bir bolaning o'ziga xos xususiyati yaqqol namoyon bo'lib boradi. Bunda bolalar faol tashkilotchi, o'ziga ishonadigan va aksincha, tortinchoq, indamaslarga bo'linadi.

Faol bolalar har doim o'yinni o'z xohishiga qarab tanlaydi, qiziqarliroq rolni talab etadi. Ular ba'zan o'yinni buzishadi, o'rtoqlarini xafa qilishadi, ammo tarbiyachining ta'siriga tez berilishadi. Ularning ijobiy xususiyatlari, sog'lom qiziqishlari bo'ladi, tarbiyachi mana shular asosida ularning ongi va hissiga ta'sir etadi.

O'yin mavzusi o'zgarishi bilan o'yinda qatnashuvchilarining ham o'zaro munosabatlari o'zgarib boradi. Kichkina bolaarning har biri o'z holicha o'ynasa, keyinchalik 2-3 kishi bo'lib o'ynay boshlaydi, o'rta maktabgacha yoshga kelganda o'ynovchilar soni ko'payib, o'rtoqlik munosabatlari tarkib topa boshlaydi, bunday munosabatlar o'yinga mavzu tanlashda, rollar va o'yinchoqlarni taqsimlashda yuzaga keladi.

O'yinning tuzilishi va mazmuni rivojlanib borishi bilan o'yinchoqning roli va unga talab ham o'zgarib boradi. Kichkina bolalar o'yinini ko'pincha o'yinchoq belgilaydi. Bitta o'yinchoq bir nechta vazifani bajarishi mumkin. O'rta va katta maktabgacha yoshdag'i bolalarda o'yin to'g'risidagi fikr avval tug'iladi. Keyin o'ynay boshlaydi. O'yinchoq o'yin mazmuniga qarab tanlanadi.

## Bolalar o'ynilarida tasvirlash vositalari

Bolalarning o'ynashlari uchun ma'lum vositalar kerak. Rolli o'yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar, ulardan asosiyлари quyidagilar: bolalarning o'z harakatlari; o'yinchoq va boshqa materiallar; so'z.

Bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari o'zlarining harakatidir. Masalan, bola ikki oyog'ida sakrab quyonchaga taqlid qiladi. Ikki qo'lini qimirlatib, pishillab parovoz bo'ladi va h.k.

Bolalarning ko'p harakatlari qurish, yasash bilan bog'liq bo'ladi, ular soatlab parovoz, paroxod, elektrovoz quradilar, ularni o'ziga o'xshatishga urinadilar. Ko'pincha qurish o'yinning boshlanishi bo'lib xizmat qiladi.

Taqlid vositasiga o'yinchoq ham kiradi. O'yinchoq bola harakatini to'ldiradi, o'ylagan obrazni va fikrini amalgalash oshirishga yordam beradi.

Kiyimlar va ularning qismlari ham bolaning olgan rolini yaxshiroq bajarishga va uni yanada aniqroq ijro etishga imkon tug'diradi. Bolalar o'yn jarayonida ba'zi bir narsalar ni xohlagan narsalari nomi bilan atab ham xuddi o'sha xohlagan narsalarini faraz qilib juda yaxshi o'ynaydilar, masalan, taomni "konfet", qumni "shakar", stulni "mashina" deb atashlari mumkin.

So'z yordamida bolalar qanday o'yn o'ynashlarini kelishib oladilar. So'z yordamida bir-biri bilan muomalada bo'lib, o'z fikrlarini izhor etishadi. So'z har xil taassurotlarni ifodalash imkonini beradi. Bolalar hamma vositalardan ko'pincha bir vaqtida foydalanadilar.

Aks ettiruvchi vosita qanchalik ko'p bo'lsa, o'yn mazmuni shunchalik boyroq bo'ladi hamda tevarak-atrofdagi voqealardan taassurot shunchalik to'laroq aks ettiriladi.

O'yn mazmunining rivojlanib borishi bilan murakkab jarayon bo'lgan bolalar jamoasi ham shakllana boshlaydi. O'yn bolalarning mustaqil faoliyati bo'lgani uchun uning syujetini bolalar o'zlari o'ylab topishadi va o'zlari tashkil etishadi.

O'yinda bolalar o'zlarining kichkina jamiyatning a'zosi deb hisoblashadi, o'zaro kelishib harakat qilishga o'rganishadi.

Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o'ynayotgan bolalar jamoasiga kira olishi, u yerda o'z o'rnnini topa olishi va shu jamoada o'rashib olishi lozim.

Tarbiyachi ilk yoshli bolalarda ularning narsalar bilan o'ynay olishi, diqqatini shunga to'play olish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bu boshqa bolalar bilan yonma-yon tinch o'ynay olish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Bolalar birgalikda o'ynashga o'tganlarida bir-birlari bilan ma'lum munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi. Xudda mana shu munosabat jamoatchilikni shakllantiradi. Bunga tarbiyachi bolalarni kelishib o'ynashga o'rgatish orqali erishadi.

### **Sahnalashtirilgan o'yinlar**

Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, xayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini uyuştira olish jihatari xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida quriladi: o'yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so'zlab berishga xohish ham, qiziqish ham bo'lmaydi, ammo unga o'yin usuli kirtilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi.

Bunday o'yinda bola o'zini o'sha asardagi qahramon o'rnila his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so'zlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo'lgan ijodiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o'yinda badiiy asarning g'oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi.

Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo'lib, bola unga kirishib ketgan taqdirdagina asardagi obraz va harakatlar to'g'ri aks ettiriladi. Shuning uchun u yoki bu badiiy asar bo'yicha sahnalashtirilgan o'yin o'tkazishdan oldin tarbiyachi asarning mazmunini aks ettirishga yordam beradigan tayyorgarlik ishini o'tkazishi kerak.

Bu ish oldindan bir qator mashg'ulot va o'yinlar o'tkazish orqali amalgam shiriladi. Sahnalashtirilgan o'yinga tayyorlanish uchun ma'lum bir vaqt ajratiladi va har bir mashg'ulotda aniq masalalar hal etib boriladi. Masalan, tarbiyachi hazil she'r o'qiyotib jonli nutqqa yaqinlashadi, bolalarga so'zlarni, tovushlarni qanday talaffuz etish kerakligini tushuntiradi. Qaytarishda esa tarbiyachi bolalardan so'zlarni aniq, balandroq yoki past, sekinroq yoki tez talaffuz etishni talab etadi. Bu mashqlarda matnni eslab qolish uchun o'tkaziladigan har bir mashg'ulotda 5-6 daqiqadan vaqt ajratiladi. Bolalar «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Tulki, xo'roz va quyon» kabi ertakni sahnalashtirishni juda sevadilar.

Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda tulki, sichqon, xo'roz, quyon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhabatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari mana shunday

o'rganiladi. Sahnalashtirish ishini quyidagi bosqichlar bo'yicha o'tkazish mumkin:

1-bosqich. Adabiyotlarni tanlash. Sahnalashtirish uchun adabiyot tanlaganda quyidagi talabga rioya qilish kerak:

1. Ertak, hikoya yoki she'rda qatnashuvchilar ko'p bo'lishi kerak.

2. Asarda mazmun yaxshi bo'lib qolmasdan, harakatlarning xili ham ko'p bo'lishi kerak.

3. Asar ifodali o'qishga mos kelishi shart.

4. Mazmuni qiziqarli bo'lishi kerak.

5. Asar bolalarning yoshiga mos kelishi kerak.

2-bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan hikoya, she'r yoki ertakning mazmunini o'qib berish yoki qo'g'irchoq, soya teatrida ko'rsatish orqali tanishtiriladi.

3-bosqich. Eslab qolish. Asarni bolalar eslab qolishlari uchun uni qayta o'qib berish, postanovka ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

4-bosqich. O'yin qiziqarli o'tishi va uzoq davom etishi uchun o'yingga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlab berish va shu bilan birga to'g'ri rahbarlik qilish kerak. Bu ishni tarbiyachi bajaradi, katta guruuhda esa tarbiyachi yordamida u bilan birgalikda bolalar bajarishadi. Tarbiyachi bir qancha ertakka doir rasmlar ko'rsatadi.

Guruuhda shu yoshli bolalarga xos bo'lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo'lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg'om», «Bo'g'irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruuhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklarga olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she'rlar ham olinadi. Sahnalashtirish o'yinlariga guruuhlariga qarab har xil rahbarlik qilinadi. Masalan, tarbiyachi o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi. Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko'proq qaysi asarni

sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola topshirilgan rolni yaxshi ijro eta olganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo'lg'usi sahnalashtiriladigan o'yinlar jonlantiriladi.

### **Qurilish o'yinlari**

Qurilish o'yinlari ham ijodiy o'yinlar sirasiga kiradi. Ularda bolalar atrof-muhitdag'i buyumli dunyo haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar, mustaqil tarzda turli narsalar yasaydilar, bunyod etadilar.

Qurish-yasash o'yinlarida bir xil buyumlarning boshqalari bilan almashinishi yuz beradi. Kichik va o'rta guruh yoshidagi bolalarda qurilish o'yinlari rolli o'yinlar bilan bog'lanib ketadi.

Qurilish o'yinlari samarali faoliyat hisoblanib, bolalarda bunyod etilgan inshootni mavjud buyum va narsalar, inshootning qurilishiga asos bo'lib xizmat qilgan tasavvur bilan qiyoslash, taqqoslash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. U bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Qurilish materiallari turli xildagi geometrik shakllardan iborat. Bolalar har bir shaklning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilib olishlari lozim, aks holda hech qanday qurilishni amalga oshirib bo'lmaydi.

Bolalar qurgan narsalar amaliy jihatdan yaroqli bo'lishi va ulardan o'yinda foydalanish uchun konstruktorlik malakasiga ega bo'lish kerak. Bundan bolalarga qurishning asosiy usullarini o'rgatish zarurligi kelib chiqadi.

Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarda bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar.

Qurilish o'yinlari bolalarning mehnat faoliyatiga yaqin bo'lib, ularni mehnatga tayyorlaydi. Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalar tafakkurini rivojlantiradi: kuzatilayotgan inshootlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib

ko'rsatish, tahlil va sintez qilishga, solishtirishga, o'xshash va farq qiladigan tomonlarini aniqlashga majbur etadi, vazifalarni to'g'ri hal qilishga o'rgatadi.

Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar geometrik jismlarning xususiyatlarini, ular bilan ishlashni, fazoviy nisbatlarni (uzoq-yaqin, baland-past, o'ng-chap, uzun-qisqa, keng-tor) amalda olib borishga yordam beradi. Bunday o'yin orqali bolalarni maktabdagи politexnika ta'limga tayyorlash vazifasi ham amalga oshiriladi.

Bolalar qurish-yasash jarayonida bir jamoaga birlashadilar, natijada ularning nutqlari rivojlanadi. Qurilish materiallari bilan o'ynash bolalarning ma'naviy dunyosiga ham ta'sir etadi: bolalar bilan biron inshootni kuzata turib, davlatimizning xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatayotganligini tushuntiradi. Qurilish materiallari bilan o'ynash bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ishga javobgarlikni his etgan holda munosabatda bo'lishi hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi. O'yining qizig'i shundaki, u bolalarga zo'r zavq-shavq bag'ishlaydi.

Bolalarni ba'zi bir qurilish inshootlari bilan tanishtirish orqali estetik tarbiya vazifalari ham amalga oshiriladi. Bolalarda estetik hissiyotni tarbiyalash uchun faqat bitgan qurilish inshootini kuzatish yetarli emas, balki qurilishning borishi, ishning tashkil etilishini kuzatish, bunda bolalarning o'zlarini qatnashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'yin uchun sharoit yaratish. Qurilish materiallari bilan o'ynashni rivojlantirish uchun unga muvofiq shart-sharoit yaratish zarur.

1. Qurilish materiallari butun guruhi bolalarining bir vaqtida o'ynashi uchun yetarli bo'lishi kerak.

2. Guruhi xonasida qurilish materiallarini saqlaydilar, uni quradigan va bir necha kungacha saqlab qolishning iloji bo'lgan joy bo'lishi kerak.

3. Qurilish materiallari uchun har bir detalga alohida xonachalari bo'lgan g'ildirakli shkaf bo'lgani yaxshi. Uni bolalar

xohlagan tomonlariga surib olib boradilar. Shkaf ichini tartibli saqlash zarur.

4. Qurilish materiallari saqlanadigan burchakda mayda o'yinchoqlar, o'yinchoqli odamlar, qushchalar, hayvonlar, transport bo'lishi mumkin.

5. Bolalarning o'zlari o'yinchoq yasashlari uchun har doim kerakli material bo'lishi zarur.

6. Ona o'lkamizni, uning poytaxti Toshkentni, transportning har xil turlarini tasvirlovchi albomlar, fotosuratlar bo'lishi kerak.

7. Qurilish materiallaridan barpo etilgan inshootlar namunalari tasvirlangan albom.

8. Qurilish jarayonini, binolarning bezatilishini bolalar bilan kuzatish kerak.

9. Qurilish usullarini o'rgatish lozim.

10. Qurilish materiallaridan ishlangan buyumlarni bir necha kungacha hatto undan ko'proq muddat saqlash kerak.

Qurish-yasashga o'rgatishning asosiy usullari. Bolalarni qurish-yasashga o'rgatish uchun tarbiyachi turli xil usullarni qo'llaydi:

1. Tarbiyachi har bir harakatni tushuntirgan holda qurib ko'rsatadi.

2. Tarbiyachi biron narsani o'zi qurib ko'rsatadi va bunga kirgan har bir qismni tahlil qilib beradi.

3. Tayyor qurilish namuna sifatida ko'rsatiladi.

4. Qurish-yasashning ayrim qismlarini ko'rsatadi (tomini yasashni, qanday yopish kerakligini, biror detalni qaysinisi bilan almashtirish mumkinligini tushuntiradi).

5. Tarbiyachi ataylab chala qurib qo'yilgan qurilishni bolalarga qurib bitkazishni taklif qiladi.

6. Nima uchun qurish lozimligini, uning mavzusini aytadi.

7. Har kim xohlagan mavzuda qurishni taklif qiladi.

8. Tayyor qurilishni: u qanday qismlardan iborat ekanligini, nimalar, qanday detallar ishlatilganini tahlil qilib beradi.

Qurish-yasash usullari bolalarga mashg'ulotlarda o'rgatiladi.

Qurish o'yinlariga rahbarlik. Bolalarning qurish materiallari bilan o'ynaydigan o'yinlariga rahbarlik usullari ularning yoshiga bog'liq. Kichik guruhda bolalar uncha murakkab bo'lman qurilishlarni bajaradilar.

Ular uchun stol ustiga qo'yib o'ynaladigan mayda qurilish materiallari zarur. Bitta stol atrofida birdaniga 6-8 bola ishlashi mumkin. Stol ustini qurilish materiallari egallab olmasliklari uchun stolning u boshi bilan bu boshiga pastgina skameyka yoki taburetka qo'yiladi. Bolalar o'zlarining qurilish materiallarini yashigi bilan qo'yib qo'yadilar. Bu birinchidan, stol ustida bolalarning bemalol ishlashlari uchun yaxshi, ikkinchidan, bolalarga yashiklardan kerakli qurilish materiallarini olish qulay. Bog'cha maydonchasida o'ynash uchun kub, gula, silindrqa o'xshash alohida qurilish materiallaridan foydalanish zarur.

Xuddi shunday materiallar guruh xonasida ham bo'lishi kerak. Yilning ikkinchi yarmida bu materiallarni mashinalar qurish uchun kvadrat, to'g'ri burchak, har xil o'rtasi teshik dumaloq shakldagi faner parchalari bilan to'ldirish lozim. Bolalarning qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun tik turdag'i daraxtlar, hayvonlar, mashinalar, qo'g'irchoqlar ham kerak bo'ladi. Tarbiyachi bu materiallardan nima qurish mumkinligini bolalarga ko'rsatadi: qo'g'irchoqqa stol, stul, karovat yasash, ular uchun bog' va bog'ning ichiga skameykalar qo'yish, mashinaga garaj yasash va hokazo.

Bolalarni qurilish materiallari bilan o'ynashga qiziqtirish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda o'ynaydi va bu materiallardan hamma bolalar foydalanishlarini kuzatib turadi. Yirik qurilish materiallari bilan guruh xonasidagi gilam ustida, yozda esa bog'cha hovlisida qurish mumkin.

MTM maydonchasida yozda qum va suv bilan, qishda qor bilan o'ynash katta o'rinn egallaydi.

Qum bilan o'ynash. Qum bolalarning yozda o'ynashlari uchun yaxshi material. Har bir guruh uchun ikitidan qum yashigi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunda hamma bolalar o'ynash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qumda o'ynash uchun turli xil o'yinchoqlar kerak bo'ladi: qumdan har xil shakl yasaydigan mayda tunuka mashinalar, rezina yoki sellyuloiddan yasalgan odamchalar, hayvonlar shakli, plastilindan yasalgan qo'g'irchoq mebeli, qurish-yasash materiallari, uni bezaydigan narsalar: har xil faner taxtachalar ( $8\times 8$ ,  $10\times 10$ ,  $5\times 10$ ,  $4\times 10$  sm) va yog'och kaltakchalar ( $10$ ,  $15$ ,  $20$  sm) hammasi har xil rangdagi moyli bo'yoqqa bo'yalgan bo'lishi kerak. Shu materiallarni bolalar qumga o'rnatib yo'llar, hayvonlar uchun saroy va devorlar qurishadi. Qurgan narsalarini bezash uchun kichkina bayroqchalar kerak bo'ladi. Qumni kovlash uchun bolalarga kichkina yog'och kurakcha beriladi.

Bahorda va kuzda (yer namligida) bolalarning qum o'yinlari maxsus qirg'og'i ko'tarilgan stollarda tashkil etiladi. Qum bilan o'ynashda gigiyenik qoidaga rioya qilish kerak. Qum har doim toza va nam bo'lishi, bolalar jazirama quyosh tagida o'ynamasliklari lozim.

Kichik bolalar qum bilan o'ynaganda oldiga ma'lum maqsad qo'ymaydi. Tarbiyachi bolalarni qiziqtirish uchun o'zi «quradi» va bolalarga qurishni taklif qiladi. Masalan, qumni to'plab atrofni tekislashadi, bir yonini teshib eshik ochishadi. Keyin bu uychani har xil rangdagi mayda bayroqchalar bilan bezashadi, keyin shu uy oldiga devorlar, bog'lar qurishadi, uyg'a qo'g'irchoqlar ko'chib keladi. O'yinni o'zgartirish uchun o'yinchoqlarni vaqt-i-vaqti bilan o'zgartirib turish kerak: mashinalar uchun garaj, hayvonlar uchun hayvonot bog'i va boshqalar. Tarbiyachi o'yinga kichik bolalarning hammasini jalb etishi kerak.

O'rta guruhdha qum kichik guruhga nisbatan ko'p to'kiladi. Yashik oldiga buferda ham o'yinchoqlar uchun javoncha bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'yining mazmuni murakkablashib

borishi uchun tarbiyachi yordam beradi: qumdan nimalar qurish mumkinligini ko'rsatib, bolalarga ko'maklashadi, ularning o'yinlarida qatnashadi.

Katta guruh bolalari qumdan katta inshootlar quradilar. Shuning uchun bu guruh bolalarining qumi yashikda emas, balki bog'cha maydonchasining biron joyiga ancha ko'p miqdorda to'kiladi. Bu bolalar uchun qumdan tashqari loy ham bo'lishi kerak. O'yinga qo'shimcha materiallar: tabiat materiallari, ip, yog'och, faner va boshqalar ham zarur. O'ynab bo'lgandan keyin bularning hammasini maxsus ajratilgan joyga olib borib qo'yish kerak. Bolalar shahar ko'chalarini, xo'jalik dalasi, hayvonot bog'i, baland binolarni quradilar. Buning uchun qumdan, loydan va tabiat materiallaridan foydalanadilar.

Tarbiyachi bu materiallardan qanday qurishni ko'rsatib beradi.

Suv bilan o'ynash. Bolalar suvni juda yaxshi ko'rishadi. Ularning suv bilan o'ynashlari uchun bog'cha hovlisida maxsus suv havzasi tashkil qilinadi, guruh xonasida esa oyoqli qurilma ustiga vanna o'rnatiladi. Suv bilan o'ynash uchun sellyuloiddan, rezinadan yasalgan o'yinchoqlar: baliqchalar, o'rdakcha, g'ozcha, vannasi bor qo'g'irchoqcha, qayiqchalar (yasalgan va sotib olingan), suvda suzib yuradigan narsalar kerak.


Kichik bolalarning suv bilan o'ynaydigan o'yinchoqlari oddiy bo'lib, unda o'yinchoqlarning suzishini tomosha qiladilar. Bolalar suv bilan o'ynab kichkina-kichkina syujetni aks ettiradilar: baliq va o'rdakchalarni ovqatlantirib, qo'g'irchoqni vannada cho'miltirishadi, qayiqda yo'lovchilarni uchirishadi.

O'rta va katta guruh bolalarining suv bilan o'yini ancha murakkablashadi. Ular daryoda paroxodlarni yurgizishadi, poraxod to'xtaydigan bandargohlar qurishadi. Suzadigan o'yinchoqlarni harakatga keltirishadi. Suv bilan o'ynash natijasida bolalar suvning xususiyatini, nimalar cho'kib, nimalar suzishini bilib olishadi. Suv bilan o'ynash juda foydalii, shuning uchun bolalarning guruh-guruh bo'lib suv bilan o'ynashlari uchun imkoniyat yaratib berish kerak.

Qor o'yinlari. Qishda bog'cha maydonchasisida qor bilan o'ynash bolalar uchun eng qiziqarli faoliyat turi hisoblanadi. Har bir bolada yog'och belkurakcha va qorni tashish uchun yashikcha bilan chana bo'lishi kerak. Kichkina bolalar kattalar yig'ib qo'ygan qor uyumini yog'och belkurakchalari bilan kovlashadi. Qorni tepaga sochib, uning to'kilishini kuzatishadi, yashiklarga qor solib, boshqa joyga tashishadi va hokazo.

### **Qoidalı o'yinlar. Didaktik o'yin turlari**

Har bir xalqda asrlar davomida kattalarning bolalar uchun yaratgan o'yinlari va bolalarning o'zlari yaratgan ba'zi o'yinlari mavjud. Har qaysisi ham avloddan avlodga o'tib kelgan va xalq og'zaki ijodining o'ziga xos shakliga aylangan. Qoidalı o'yinlar MTMdata'lim-tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Qoidalı o'yin ta'lím bilan bevosita bog'liqidir.



Ularning har biri bola shaxsiga ta'sir ko'rsatadi, biroq o'yinning u yoki bu turiga mansub deyish uning asosiy tarbiyaviy ta'siriga ko'ra aniqlanadi. Masalan: «Oq terakmi ko'k terak, bizdan sizga kim kerak» harakatli o'yinida bolalardagi chaqqonlik, zehnlilik, chidamlilik malakalari rivojlanadi.

**Didaktik o'yinlar.** Didaktik o'yinlarning muhim elementi qoidalari hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o'yin mazmunini amalga oshirishni ta'minlaydi. Didaktik o'yin ta'lím bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga yordam beradi.

Didaktik o'yin - bu muktabgacha yoshdagи bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lím berish metodidir.

Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo'rmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Didaktik o'yinni amalga oshirishda har doim g'oyaviylik prinsipiiga asoslanish kerak. Didaktik o'yin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim.

Didaktik o'yinlar bolalarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi, bir-biriga ko'maklashish va o'rtog'ining muvaffaqiyatidan xursand bo'lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O'yinlar shaxsning sofkillik, rostgo'ylik kabi ijobjiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi.

Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Katta guruuh bolałari uchun «Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bilishadi?», «Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?», «Kim ko'proq narsalarning nomini ayta oladi?» va boshqa o'yinlarni ko'rsatish mumkin.

Didaktik o'yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo'llay olishga o'rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Didaktik o'yinlar ta'lif jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariiga mos, qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar.

Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag'ishlaydi.

Didaktik o'yining muhim tomoni – uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi. Masalan, «Xaltachada nima bor?», yoki «Kim qanday qichqiradi» va shunga o'xshashlar.

Har bir didaktik o'yinda o'yin mazmuni, g'oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo'ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat o'ynalishini yoki o'yining borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o'zaro bir-biriga bo'lgan munosabatini boshqarib, kerak tomonga o'ylantirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi o'lchovdir.

Didaktik o'yinda amal qilinadigan qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri-noto'g'rilibini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan "U o'yin qoidasini buzib o'ynayapti" deyishlarining o'zi ularning o'yin qoidalariga qandaydir o'zgartirib bo'lmaydigan qonundek munosabatda bo'lishlarini ko'rsatadi.

Bolalarning o'yin qoidalarini o'rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o'yin jarayonida o'zini-o'zi, o'zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi.

O'yining natijasini ikki nuqtayi nazaridan: bolalar va tarbiyachi nuqtayi nazaridan baholash lozim.

Agar o'yin natijasini bolalar nuqtayi nazaridan baholaganda, unda bu o'yindan bolalar qanday ma'naviy va axloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim. Didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma'lum darajada zo'r berishni, ya'ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi.

Bolalar fahm-farosatlari, topag'onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Bularning hammasi bolalarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi. Qalbini xursandchilik hissi bilan to'ldiradi, ular bundan ma'naviy qoniqish hosil qiladilar.

Didaktik o'yinning natijasini muhokama qiladigan tarbiya-chi quyidagilarga e'tibor berishi lozim: qo'yilgan maqsadga erishildimi, belgilangan harakat bajarildimi, shu ko'zlangan nuqtayi nazardan ma'lum natijalarga erishildimi yoki yo'qmi.

Yuqorida keltirilgan ikki vazifa ham yaxshi bajarilsa, ya'ni bir tomonidan, bolalarda qiziqish uyg'ota olsa va ular faoliyatini amalga oshirishga intilsalar, ikkinchi tomondan, qo'yilgan hamma maqsad, vazifaga erishilsa, bunday o'yin yaxshi natija beradi, deb hisoblash mumkin.

O'yin qatnashchilarini rag'batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganlari uchun yetakchi rolni berish, ba'zan esa shu o'yinda foydalanilgan o'yinchoqni o'ynashga berish yoki mevalarni yeishgaga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofotlarni olaman deb har qanday yo'l bilan bu ishga intilishlariga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'yin harakatli bolalar tomonidan bajariladi. O'yin harakatlari xilma-xil ishlarda: narsalarning joyini almashtirish, yig'ishtirish, ularning rangiga, katta-kichikligiga, shakliga qarab bir-biridan ajratish, tanqidiy harakatlar va hokazolarda namoyon bo'ladi. Katta bolalarning o'yin harakatlari esa murakkabroqdir: bu o'yin harakatlari bir guruh bolalar harakati bilan boshqa guruh bolalari harakati o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lishini, harakatlarning izchillik va navbatli bilan amalga oshirilishini talab etadi.

O'yin natijasi didaktik o'yinning muayyan natijasi bo'ladi, natija esa o'yinning finali hisoblanadi. Masalan: topishmoqlarni topish, berilgan o'yin topshiriqlarini bajarish, fahm-farosatni namoyon qilish kabilalar o'yin natijasi bo'lib, ularni bolalar erishilgan muvaffaqiyat deb tushunadilar.

O'yin mazmuni, g'oyasi, harakatlari va qoidalari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lib, hatto ulardan birortasi bo'lmasa ham o'yinni o'tkazib bo'lmaydi.

Didaktik o'yinning o'yin faoliyati sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlari o'yin tarzida bo'ladi. Tarbiyachi o'yin

qatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo'ladi. Bolalar ko'pincha o'yin mazmuni bilan belgilanadigan va o'yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar. Masalan, "Magazin" o'yinida bilish mazmuni shundan iboratki, xaridor bolalar o'z-lari sotib oladigan narsalarning belgilarini aytishlari, sotuvchi bolalar esa talab qilingan narsaning nimaligini xaridor aytgan belgilar bo'yicha bilib olishlari kerak. O'yin kuzatuvchanlikni mashq qilish, nutqni ravon qilish uchun xizmat qiladi. O'yin harakatlari kuzatishdan, buyumni har tomonlama ko'rib chiqish, uni tasvirlash va boshqa buyumlar bilan taqqoslashdan iborat. O'yin qoidalari xaridorning oladigan narsasini tanlab olish, sotuvchiga xushmuomala bo'lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko'rib chiqish va boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytish va pul to'lashidan: sotuvchilarning vazifasi esa xaridor gapirganda ularni zo'r e'tibor bilan tinglash, so'zlarini bo'imaslik, so'ragan buyumlarni olib, qog'ozga o'rabb berishdan iborat bo'ladi.

Ko'pincha didaktik o'yinlar bolalarning bilimiga biron-bir yangilik kiritmaydi, ammo ularni o'z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishga o'rgatadi yoki ular kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini namoyon qilishga talab etadi. Masalan, "Ajoyib xaltacha" o'yinida bolalarga o'zlariga tanish bo'lgan o'yinchoqni tasvirlab berish vazifasi yuklatiladi, buning uchun esa bola o'yinchoqni boshdan – oyoq yaxshilab ko'zdan kechirishi va uning o'ziga xos begilarini eslab qolishi kerak bo'ladi.

Didaktik o'yinning mazmuni va turlari. Didaktik o'yinning mazmuni "MTM ta'lim-tarbiya dasturi" da bayon qilingan va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

A) buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatalishi to'g'risida bilimlar berish;

B) mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi roli to'g'risidagi bilimlar;

V) tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to'g'risidagi bilimlar;

G) dastlabki matematik tushunchalar: son, sanooq, kattalik, shakl vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Didaktik o'yinlar ularning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turli bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhlar ajratib berilgan. Dasturda har bir yosh guruhning o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda didaktik o'yinning tutgan o'rni va vazifasi, mazmuni, o'tkazish uslublari belgilab berilgan. Masalan, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lган bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan asosiy maqsad – bolalarni ranglarni bir-biridan farqlash va nomini aytishga o'rgatish, har xil o'lchamlar (katta, kichik), shakllarni (sharcha, kubcha), bilishga, ko'rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o'stirishga yordam beradi. Masalan, "Juft kartochkalar", "Kattalar va kichkinalar", "Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqni cho'miltiramiz", "Bu nimaning ovozi?", "Xaltachada nima bor?" va shunga o'xshash o'yinlar.

Bundan tashqari, shu guruhda bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o'rgatish uchun musiqaviy didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi.

Ikkinci kichik guruhda esa didaktik o'yinlar quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi: bolalarda didaktik o'yinchoqlar bilan yakkama-yakka o'ynash ko'nikmasini rivojlantirish, jamoa o'yinlari tashkil etish; narsalarni faqat bir rangga qarab ajrata olish, katta-kichikligiga qarab farqlash; xalqachalarni va kubchalarni muntazam shaklda terib, ulardan minorachalar yasash; tanish buyumlar tasvirlangan ikki, to'rt burchakli, olti burchakli kesma rasmlardan "Idish tovoqlarimiz", "O'yinchoqlar" kabilarning tasvirini yig'ish; narsalarni farqlash va nomini to'g'ri aytishga o'rgatish va hokazo. Musiqaviy – didaktik o'yinlarda esa musiqa ovozlarining ba'zi bir xususiyatlarini farq qilishga o'rgatish, qadam va yugurish ritmi ("Kim kelayotir", "Sichqonlar yugurishayotir") ovoz va cholg'u asboblari tembrlarini ("Musiqaviy o'yinchoqni o'ylab

top”, “Ovozidan bilib ol” ajrata bilishga o’rgatish vazifalari ham hal etiladi.

O’cta guruhda didaktik o’yinlar orqali bolalar eshitish, ko’rish, sezish a’zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlataladigan materialning xossalarni bilib olish, narsalarni tashqi ko’rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishni o’rgatish vazifalari amalga oshiriladi.

Yana didaktik o’yin davomida bolalar o’rtaga qo’yilgan masalani haletishdasabr-matonatli bo’lishga, qiziquvchanlikka, diqqat-e’tiborlilikka odatlantirib boriladi. Musiqaviy-didaktik o’yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab, baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o’rgatib boriladi.


Katta guruhda didaktik o’yinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo’yadi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, bir biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materiallarni seza bilish, narsalarning joylanishidagi o’zgarishlarni) aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarni tarbiyalash; biron hayvon, o’simlik, transport ta’rif-tavsif qilib berilganda, ularning nomini topa bilish malakasini o’stirish, bolalarning umumiylasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlarga bo’lish qobiliyatini rivojlantirish, so’z faolligini faollashtirish va to’ldirish; qismlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar) yasash malakasini o’stirish.

Musiqaviy didaktik o’yinlar orqali tovushlarni bir-biridan farq qilishni o’rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg’u asboblari ovozining tembrini farq qilish (“Kim kuylayapti?”, “Shiqildoqli childirma”), ovozning dinamikasini ajrata olish (“tez, sekin kuylaymiz”) uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida didaktik o’yinlar hamma yosh guruhlaridagi kabi alohida o’rin tutadi va bu guruhda didaktik o’yinlar orqali quyidagi ta’lim – tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda didaktik o’yinlarga qiziqish

uyg'otish, har bir narsani bilishga havas, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tibor, ziyraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo'lishda yordamlashuvchi o'yinlarni, domino, mozaikaning har xil turlarini, shashka, sakrovchi biryo'lkalarni jumboq o'yinlar, og'zaki o'yinlar ("Dengiz to'lqillanmoqda", "Qora va oq"), ranglarni va ulardagi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlashni o'rgatadigan o'yinlar o'tkaziladi.

Musiqaviy-didaktik o'yinlar orqali esa bolalarni tovushlarga diqqat bilan qulq solishga ("Tovushlarni takrorla", "Ikki metalafonni galma-gal chalish" va h.k) ritmik shaklni gavdalantirib berishga ("O'z ritmingni o'ylab ol", "Bolalar va filchalar"), dinamik farqlarni bir-biridan ajratishga ("Ovchilar va quyonlar") o'rgatiladi.



Didaktik o'yinda bolalar har doim o'zlarini o'ynayotgandek his etishlari kerak.

Narsalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan tarbiya-chi bolalarni narsalar, ularning xususiyatlari va bir-biridan farq qiladigan xususiyatlari bilan, ularni ishlatalish usullari bilan tanishtirish vositasi sifatida foydalanadi.

Bolalarning narsalar, ularning sifati to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash uchun har xil o'yinchoqlar, suratlar, uy-ro'zg'or buyumlaridan foydalaniladi.

O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar. "Xaltachada nima bor?" o'yining maqsadi, o'yinchoqlarning nomlari

bilan tanishtirish va bu o'yinchoqlar to'g'risida bilimlarni mustahkamlash, tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. "Bu nima?" o'yinida bolalar qo'g'irchoqqa har xil narsalar va ularning ishlatalishi to'g'risida gapirib beradilar. Bunday o'yin guruhda, bog'cha maydonchasida, uqlash xonasida o'tkazilishi mumkin.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, fazoda tutgan o'rni haqida ham tanishtiradi.

Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak, o'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy belgisini ajrata bilishga imkon tug'dirishi lozim.

Bunday talabga xalq o'yinlari o'z shaklining aniqligi, rangining tiniqligi bilan ko'proq javob bera oladi.

Bolalarni o'yashga, aqliy vazifalarni bajarishga undaydigan o'yinlar ham katta ahamiyatga ega.

Bolalarning rang haqidagi tushunchalarini mustahkamlash va aniqlash uchun quyidagi o'yinlar o'tkaziladi: sharlarni rangiga qarab to'plash, "Dumaloqni dumalatish", xalqachalarni ipga o'tkazish, "Shu rangdagi dumaloqni dumalatish", "Kimda mana bu rangdagi xalqacha bor", "Kim mana bu rangdagi haltachani topa oladi" va h.k.

Shakl, rang predmetlarning asosiy belgisidir. Shakl to'g'risida tushunchalarni "Xaltachada nima bor", "Nima o'zgardi?", "O'yinchoqlar do'koni", "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Bu nima?" va boshqa o'yinlar orqali aniqlash va mustahkamlash mumkin.

Qo'g'irchoq bolalarning eng sevimli o'yinchoqlaridan biri. Har bir bolalar bog'chasida didaktik jihozlangan o'yinchoq bo'lishi kerak. Qo'g'irchoq jihozlariga kiyim, ichki kiyim, poyabzal, idish-tovoq, mebel o'yinchoqlar kiradi.

Qo'g'irchoq bilan quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqni sayrga otlantrira-

miz”, “Qo'g'irchoqni mehmon qilamiz”, “Qo'g'irchoqlar bayrami”, “Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni”, “Qo'g'irchoqni uxlatamiz”.

O'yinlar topishmoqlar bilan qo'shib olib borilganda qiziqarli o'tadi. Masalan, “Qo'g'irchoqni uxlatamiz” o'yinida qo'g'irchoqqa karovat tayyorlayotganda tarbiyachi “Uzun, yumshoq, yo'l-yo'l....” (matras), “Oq, toza, to'rt burchak...” (yostiq), “Paxtali issiq...” yoki “junli issiq”(adyol) va boshqa topishmoqlarni aytishi mumkin. Qo'g'irchoqning karovati tayyor bo'lgandan keyin qo'g'irchoqni yotqizib, “alla” aytadi.

Mebellarning nimaga ishlatilishi, o'yinchoqlarning nomini mustahkamlash uchun “Qo'g'irchoqqa xona yasatamiz”, “Qo'g'irchoqqa o'yinchoq sovg'a qilamiz” kabi o'yinlarni o'tkazish mumkin.

Tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning nomlari, belgi sifatlari, nimaga ishlatilishi bilan tanishtiribgina qolmay, muayyan predmetlar orqali ularni oddiy turlarga ajratishni o'rgatib boradi; ayiq, qo'g'irchoq, quyon-o'yinchoqlar; kastryulka, tarelka, choynak-idish-tovoq.

O'yinlarni narsa va buyumlarning tasvirli rasmlari orqali ham o'tkazish mumkin. Bularga “Bu narsa o'zi to'g'risida nima deydi?”, “Kim birinchi bo'lib aytib beradi?” (bolalar diqqatini rivojlantirishga qaratilgan qo'g'irchoq, narsa va ularning shakli, rangi to'g'risida), “Kim bo'ladi?”, “Qaysinisi bir xil qaysinisi har xil?” kabi o'yinlarni ko'rsatsa bo'ladi.

Bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash uchun “Hidiga qarab top”, “Mazasiga qarab top”, “Ushlab ko'rib top”, “Kim nimani eshityapti” kabi o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Kichik yoshdagagi bolalar bilan so'zli o'yinlar o'tkazilmaydi.

Katta va tayyorlov guruhlarida didaktik o'yinlar o'zining mazmun va g'oyasi jihatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o'yinlar o'tkaza qolmay, so'zli didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani,

qayerda qilingani, nima uchun kerakligi va hokazolar to'g'risi-dagi bilimi aniqlanadi hamda mustahkamlanadi. Bunday o'yinlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: "Nima nimadan yasalgan?", "Guruh xonasiga sayohat", "Ovoziga qarab top" va boshqalar.

Umumlashtirishga o'rgatish bo'yicha turlarga ajratishni o'rgatuvchi o'yinlar katta o'rinni egallaydi. "Qaysi fabrikada nima ishlar bajariladi?", "Fabrikada nima ish qilinadi, dalada nima yetishtiriladi?", "Kimga nima kerak?", "Kim nima bilan ishlaydi?", "Qayerda o'sadi?", "Sayohat" (shahar bo'ylab, dalaga mактабга va hokazo), "Pochta" va boshqalar.

Bolalarda dastlabki matematik tasavvurlarni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Masalan, "Kim sanashni biladi?", "Yuramiz, yuramiz-to'xtaymiz", "Bizning kun", "Yil fasllari" va boshqalar.

Bolalar nutqini rivojlantirish uchun quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "So'z qo'sh", "Orkestr", "Mana bu tovushga so'z top", "So'zlardan hikoya tuz" va h.k.

Yuqorida sanab o'tilganlar jamoa o'yinlaridir. Bular asosida yana bir qancha o'yinlar topish mumkin.

Didaktik o'yinlarga rahbarlik. Boshqa o'yinlar singari, didaktik o'yinlarga ham tarbiyachi rahbarlik qilishi lozim. Birinchi navbatda didaktik o'yinni va unga kerakli materialni tanlash kerak. Hamma guruhlar didaktik jihozlarga, bo'yi 40-50 sm keladigan qo'g'irchoqqa ega bo'lishi lozim. Uning jihoziga quyidagilar kiradi:

- ichki kiyim, ko'ylak, ishton, rezinka, uzun paypoq;
- pahmoq, satin, shoyi ko'ylak, fartuk, so'lakcha;
- qishlik palto, kuzlik palto;
- bosh kiyimlar: shapkacha, panasma, qalqopcha, shlyapacha;
- poyabzal: tufli sandal, yumshoq shippak;
- yotadigan va oshxonada ishlatalidigan narsalar - ko'rpa-yostiq, matras, adyol, choyshab, ko'rpa jildi, yostiq jildi, sochiq, dasturxon, salfetka.

Bu hamma narsalar o'ziga mos rangda (qizil, pushti, to'q qizil va h.k.) har xil sifatli gazmoldan tikilgan va nomi har xil bo'lishi kerak.

Qo'g'irchoqdan tashqari har xil hayvonlar, qushlar, idish-tovoqlar, va transportni aks ettiruvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak.

MTMdA tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturiga muvofiq bir qancha rasmlar turkumi bo'lishi kerak:

A) kishilarning polizdagi, uy sharoitidagi mehnatini aks ettiruvchi, ularning mehnatini yengillatuvchi mashinalar rasmlari;

B) kishilarning turar joylarini aks etiruvchi rasmlar;

V) kishilarni suvda, quruqlikda, havoda olib yuruvchi vositalarning rasmlari;

G) uy jihozlari: idish-tovoq, mebel, madaniyat buyumlari, bezakli buyumlar, o'yinchoqlar;

D) dasturxon, choyshab, sochiq, yostiq jildi, qishki, yozgi, bahorgi, kuzgi ko'ylaklar, bosh kiyim, yil fasllariga qarab kiyiladigan oyoq kiyimlar;

E) iste'mol mollari: sabzavotlar, mevalar, uy mahsulotlari, shirinliklar;

J) uy va yovvoyi hayvonlar;

Z) daraxtlar, butalar, gullar va boshqa o'simliklar;

I) qushlar.

Bu rasmlar asta-sekin to'planib boriladi. Ular yirik (15-20sm) va karton qog'ozlarga yopishtirilgan bo'lishi kerak.

Didaktik o'yinlarda tabiat materiallari va oddiy narsalar ham ishlataladi.

Didaktik o'yinlarga maxsus o'rin ajratilishi va bolalar kun tartibidan ma'lum joy olishi kerak. Didaktik o'yinlarni mashg'ulot bilan bog'lab olib borishni yaxshilab o'ylab amalgaloshirish lozim.

Bu o'yinlar mashg'ulot va o'yin soatlarida o'tkaziladi. Ularni butun guruh bolalari bilan ham o'tkazish mumkin.

O'yinning mazmuni va undan kelib chiqadigan natija oldindan yaxshilab, aniq o'ylab olinadi. O'yinning g'oyasi o'yin harakatlari, qoidasi va o'yinning borishi shunga bog'liqdir. Masalan, "Kim qanday qichqiradi?" o'yinida har xil vazifa qo'yilishi mumkin:

1) bolalarning hayvonlar tovushini bilish-bilmasliklarini aniqlab olish;

2) hayvonlar haqida tushuncha berish;

3) bolalar hayvonlarni tovushidan tanib oladimiyo'qligini bilish.

Bu o'yindan bolalarga tovushlarni talaffuz qilishni mashq qildirish maqsadida ham foydalanish mumkin.

Didaktik o'yinlarda majburiy qoidalar juda ko'p uchraydi: navbat bilan harakat qilish, faqat so'raganda javob berish, o'rtog'iga quloq solish, o'ynaganda boshqalarga xalaqit bermaslik, qoidani bajarish, o'z aybiga iqror bo'lish va hokazo.

Didaktik o'yinlarda bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Bir xil bolalarga qiyin topishmoq aytilsa, boshqasiga yengilrog'i, osonrog'i aytildi; yomon gapiradigan bolalar ko'proq gapirishga jalb qilinadi. Buning uchun o'yinni o'tkazishdan avval hamma bolalarni yaxshilab eslab, o'yinning imkoniyatlari, harakatlariga qarab topishmoq beriladi, ba'zi bir faolroq bolalarga boshqalarni qiziqishini bo'g'maydigan rol biriktiriladi.

Didaktik o'yinga rahbarlik qilishda o'yinning maqsad va mazmunini belgilash, o'yin g'oyasini o'ylab topish, o'yin qoidasi va asosiy harakatlarni tushuntirish, bolalar o'rtasidagi munosabatni yaxshilash, tarbiyaviy ta'sir orqali o'yinning borishga rahbarlik qilib borish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Didaktik o'yinni bolalarning bergen savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab, o'yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin. O'yinni belgilangan vaqtida boshlash va tugatish katta mahoratdir. Tarbiyachi o'yin vaqtini o'zining tushuntirishini kamaytirish hisobiga siqishtiradi.

O'yinni tarbiyachi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otgan holda tugatishi kerak, ya'ni bolalar shu o'yinni yana davom ettirishni xohlab qolsinlar. Tarbiyachi shunday deydi: "Kelgusi gal bundan ham yaxshiroq o'ynaymiz", yoki "Yangi o'zin bundan ham qiziqroq bo'ladi". Tarbiyachi o'yinning yangi variantlarini ishlab chiqadi.

Didaktik o'yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, o'rmonda, dalada va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yinning ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. Shunday qilib, didaktik o'zin mактабгача yoshdagи bolalarga ta'lim berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

### Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati

Ko'pchilik bolalar o'yinlari xilma-xil o'yinchoqlardan foy-dalanish bilan bog'liq. O'yinchoq bola hayotining yo'ldoshi, uning quvonchi manbayidir. U nafaqat o'zin quroli, balki bolalar o'zinida sherik, o'rtoq, kattalar qo'lida esa tarbiyaning muhim qurollaridan biridir. O'yinchoq o'zin yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga katta ta'sir o'tkazadi. U bolaga shunchalik yaqinki, bola o'z o'yinchoqlarini sevadi, ularga bog'lanib qoladi, shu tufayli u o'zini atrofdagi hayotning to'laqonli a'zosini deb hisoblaydi.


To'g'ri tanlangan o'yinchoqlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir sistemasi ishlab chiqilgan. Ular bilan amalga oshiriladigan o'yinlar bolaning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

"Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borganda, muhim bir masala haqida to'xtalib o'tish o'rini deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zgacha ma'no topishga intilayotgan murg'ak

farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlarni ishlab chiqarish masalasidir.

Bir qaraganda bu muammo arzimas narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekanligi ayon bo'ladi.

Farzandlarimiz milliy, hunarmandchiligidan asosida yaratilgan o'yinchoqlarni o'ynashsa, ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir etgan bo'lar edik" degan fikrni mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmash kuch" asarida ta'kidlaydi (156 bet). Darhaqiqat, go'dakning ulg'ayib kelajakda qanday yo'ldan borishi o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham uning bolalikda qanday o'yinchoqlar o'ynaganini bilan belgilanadi. Har bir xalqning o'yinchog'i o'zining pedagogik badiiy va amaliy an'anasiga egadir. O'yinchoq hamma millat xalqlariga hurmat hissini tarbiyalashi lozim. O'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi:



Pedagogik talab. O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi, jamiyatimiz g'oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada olijanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalash, voqelikka nisbatan olijanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda

etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagি ahamiyatini aks ettiradi.

Gigiyenik talablar. O'yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.


Badiiy talablar. Shakl, bo'yoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

To'g'ri tanlangan o'yinchoq - bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiytasir ko'ssatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta'sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy his-tuyg'ularni tarkib toptiradi. Axloqiy histuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo'g'irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San'atning birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg'otadi, estetik tarbiyani to'plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

O'yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagি bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqqildoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushslash harakatlari va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi.



Syujetli-obrazli o'yinchoqlar syujetli-rolli o'yin uchun foydalaniadi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g'amxo'rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o'ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

Texnika o'yinchoqlari bolalarda texnikaga va texnika asboblariga bo'lgan qiziqishni uyg'otib, ularni o'z o'yinlarida qollay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko'rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o'yinchoqlar yaqin turadi.

Qurish-yasash o'yinchoqlari bolalardagi qurish-yasash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ijodkorlikka intilish uyg'otadi. Bu o'yinchoqlarni o'ynash buyumning asosiy

vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim (avtomobilda g'ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinchoqlarning asosiy 2 turi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, slindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to'plami.

b) turli blok - devor, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materiallari. Mayda (stol o'yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo'lishi mumkin.

Didaktik o'yinchoqlarning asosini xalq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ularni o'ynashda bola o'z-o'zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

Harakatlari o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoqlar: suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chambaraklar va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoni jihatdan tarbiyalashdir.

Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshitish olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

**Qum bilan o'ynash.** Qum bolalarning o'ynashlari uchun eng qulay o'yin vositasi hisoblanadi. Qum maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi. Qumni saqlashga gigiyenik talablar qo'yiladi:  
a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo'lishi; b) qum faqat namroq holda saqlanishi; d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak.

Kichik yoshdagi bolalar qum bilan o'ynashlari uchun bayroq-chalar, o'yinchoqlar tayyorlab qo'yilishi kerak.

**Suv bilan o'ynaladigan o'yinlar.** Bu o'yinlar bilan kichik yoshdan boshlab shug'ullanish mumkin. Suvda qo'g'irchoqni cho'miltirish, o'yinchoqlar bilan o'ynash, katta yoshdagi bolalar esa suvda cho'milishlari mumkin.

Qor bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalarda quvnoq kayfiyat-

ni uyg'otadi. Buning uchun yog'och belkurakcha, qorni tashish uchun quticha ortilgan chana bo'lishi shart. Kattalar yordamida qor uyumlaridan turli shakllar, qorbobo, qorqiz, hayvonlarning qiyofasini yasaydilar.

### **Milliy xalq o'yinlari.**

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda milliy xalq o'yinlarining ahamiyati kattadir. Bu o'yinlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Milliy harakatli o'yinlar. 2. Milliy xalq o'yinlari.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil hisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter - xususiyatlari, urf-odatlari, an'analari jamlangandir.

Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida ularda o'z Vatanini sevish, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajoddalarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo'shiqlardan zavqlanish tuyg'ulari, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

Xalq milliy o'yinlarini maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- xalq milliy o'yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo'llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;
- milliy o'yinlarni tashkil etishda ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayat jarayoniga singdirib borish;
- maktabgacha yoshdag'i bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o'yinlaridan maqsadli foydalanish;
- xalq ertaklari, xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;
- bolalarning o'ynashlari uchun shart-sharoit (o'yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;

- maktabgacha ta'lif muassasalari, oila va mahallalar o'rtaida milliy o'yinlar bo'yicha ko'rik tanlovlari va musobaqlar o'tkazish.

- Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariiga o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari. «Barmoq-qa-barmoq», «G'oz-g'oz», «G'oz tursin», «Bo'p-bo'p», «Toy-toy», «Poyezd», «Achom-achom» o'yinlari go'dak endi bir-ikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtida gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: "O't o'yin", "Kesak qo'ydi", "Ko'z boylag'ich", "Choriy chambar", "Avval-akam", "Tayoq irg'itish", "Quloq cho'zish", "Chitti gul", "Xolam mehmonga keldi", "Uchdi-uchdi".

4-5 yoshli bolalar bilan o'ynaладигон о'yin turlari: "Chir-Aylanma", "Chillak", "Tortishmachoq", "Lafta", "Dor o'yin", "Ko'pkari", "Berkinmachoq", "Jami", "Chertan devor gir-gir aylan".

Katta yoshdagi bolalar uchun o'yinlar: "Chavandozlar", "Doiraga tort", "Do'ppi yashirma", "Sapalak", "Besh tosh", "Oq terakmi ko'k terak". Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatları rivojlanadi, hozirjavob bo'lishga tayyorlanib boradi.

Xalq harakatli o'yinlarni tashkil etish va bolalarga o'rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur;

1. Bolani ruhiy jihatdan o'yinga tayyorlash.

2. O'yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgaligi va yosh xususiyatlariiga e'tibor berish.

3. Har bir o'yinning pedagogik tomonlarini nazardan qochirmaslik.

4. O'yinlarni ijtimoiy-foydali mehnat bilan bog'lagan holda hayotga tatbiq etish.

5. O'yin davomida o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash.

6. Jamoa bo'lib birgalikda harakat qilish, jamoa manfaatiga hurmat va e'tiborli bo'lish.

O'zbek xalqining ermak va ovutmachoq o'yinlari bilan, asosan, bolaning ilk yosh davridan boshlab shug'ullanib boriladi. Bu o'yinlar asosan kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so'zlarning uyg'unlashuvi bilan o'ynatiladi. Masalan: "Barmoqlar", "Sichqon – sichqon" o'yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatları hosil qilinib tasavvurlari o'sib bорди. Xalqimizda "Bolning ilonni changallaydigan davrida" ibora bor. Bu hikmat hali qo'rqish hissini bilmaydigan davrida, ya'ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan vaqtida qo'llaniladi. Xuddi shu davrida "Sichqon- sichqon" o'yini qo'l keladi.

Ilk yoshdagi bolalar dastro'moldan yasalgan "Sichqon"ning harakatlanishidan qattiq zavqlanib, qiyqirib yayraydilar. "Sichqon"ni harakatlaniruvchi katta odam uning juda chaqqonligini namoyish etishi kerak. Bu ovutmachoq go'dakka sichqon shakli va uning juda to'g'risida tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi. Ermak o'yinlardan «Oymoma», «Bog'ga kirsam maylimi», «Alla», «Aji-aji», «Boylandi», «Chapakka-xochapakka» orqali bolalarni muloqotga o'rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarning eshitish, ko'rish, sezish, his qila olish kabi sensor qobiliyatları faollashadi. Bolalarning nutq faolligini o'stirish maqsadida aytishma o'yinlaridan keng foydalaniladi. Bunday o'yinlarga «Boylandi», «Xolam keldi», «Mundi-mundi», «Bulbulim-bulbulim», «Ko'z boylog'ich», «Oq sholi, ko'k sholi», «Ada hormang»lar kiradi. Yana xalqimizda azal-azaldan o'ynab kelinadigan so'z o'yinlaridan «Yarashtirgich»lar hali-hanuzgacha bolalar orasida «tinchlik – yarashuv» timsoli sifatida qo'llaniladi. Bu o'yinlar bolalar tilidan ana shunday jaranglaydi:

Karimga berdim toychoq,

U olavermadи har choq.

Toychog'imni kim olsa,

Men u bilan chin o'rtoq.  
Yalinchoq-yalinmachoq,  
Pista po'choq.  
Qilichmi, to'qmoq, qirq yilgacha o'rtoq,  
To'qmoq, to'qson yilgacha o'rtoq.

Bolalarning matematik tasavvurlarini o'stirishga yordam beradigan o'yin turiga «Sanamalar» kiradi. Bu o'yin jarayonida bolalar she'riy satrlar orqali son-sanoqdan topishmoq tarzida foydalanib qatnashadilar. Bunda bolalarning tasavvurlari, fikrlash doiralari kengayib, she'riy ohangda to'g'ri javob qaytarishga o'rgatilib boriladi. Asosan, bu o'yinlar quyidagicha jaranglaydi:

Dadam-u oyim,  
Bor ikkita singlim.  
Bahodir, Dildor,  
Bog'chaga ketar,  
Sanab ko'r chaqqon,  
Bizlar nechta jon?

O'zbek xalqi nihoyatda so'zga chechan, topqir bo'lib, o'zining alyor-u qo'shiqlariga boydir. Bu fikrimizning isboti sifatida xalq orasida mashhur bo'lgan «Qiqillamalar»ni misol sifatida keltirish mumkin. Bu so'z o'yinlarida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalar, kechinmalar she'riy ohangda ijro etiladi. Masalan:

Shov-shov etadi ariq,  
Karim ekadi tariq.  
Yoki:  
Echki keladi ma'rab,  
O'z egasiga qarab.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yinlar mактабгача yoshdagи bolalarni ma'naviy axloqiy pedagogik - psixologik jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Maktabgacha ta'lrim tizimida o'yinlar texnologiyasi.**

O'yin texnologiyasining nazariy asoslari. Bugungi kunda ta'lrim tizimida, jumladan, maktabgacha ta'lrim tizimida ham yan-

gi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan keng foy-dalanilmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foy-dalanish yo'llarini amaliyotchi-tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

«Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne» – «mahorat», «san'at» va «logos» – «tushuncha», «o'rganish» demakdir. Texnologiya so'zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek, obyektda so-dir bo'ladijan sifat o'zgarishlari tushuniladi.

Ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim maqsadiga erishish quroli, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bo-la shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi.

O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

S.A. Shmakovning ta'kidlashicha, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda, yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;

- ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;

- emotsiyonal ta'sir – bola o'yinda markaziy o'rinn egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;

- asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

O'yin strukturasiga maqsad, rejalshtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O'yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

Nazariy jihatdan o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qarash mumkin.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalshtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quydigilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- haqiqiy narsalarni shartlilarga almashtirish;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan sujet (mazmun).

Har qanday texnologiyada, jumladan, o'yin texnologiyalari-da ham, o'quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnolog-

yaning asosiy negizidir. Maqsad to'g'ri qo'yilishi uchun tarbiya-chi bolaga nimani o'rgatmoqchi bo'lganligini bilishi kerak. Bitta mashg'ulotda bitta maqsad qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masa-lan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va h.k.

O'yin texnologiyalari (ayniqsa, bog'cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o'yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo'ladi.

### **Maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik o'yinlarning shakllari va amalga oshirish metodlari.**

Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarning ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni sezsa boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi.

Maktabgacha yoshda bolalar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar.

Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ijodiy, psixotexnik o'yinlar.

O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, sujetli, badiiy rolli, hodisalarni tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o'yinlar.

Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar.

O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari (koptok, piramida, kub va boshq.) bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar.

Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, sujetli-ishchan, dramalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi.

Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstmktor-mexanik majmularida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ulrni osondan qiyinda tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatlari bajarilishini ta'minlash darkor.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektdan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib

aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bola uchun zamin bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga ohsh.
4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini biliш.
8. O'yining asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lif muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak.

O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy tarzdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zarobog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridaqiz qizmat qiladi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Ijodiy o'yinlar** – bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yin mazmunini bolalarning o'zлari o'ylab topadilar.

**Didaktik o'yin** – maktab yoshidagi bolalarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'yin faoliyatiga ta'rif bering.
2. O'yin turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bolalar o'yinchoqlariga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
4. Maktabgacha ta'lim tizimida o'yin texnologiyasining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
5. Interfaol o'yinlarning o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. O'yin qanday turlarga bo'linadi?
  - a) ijodiy, qoidali
  - b) syujetli-rolli, sahnalashtirilgan
  - v) qurish-yasash, didaktik
  - g) harakatli, qoidali
2. O'yin MTMlarda qaysi paytlarda o'tkaziladi?
  - a) ertalab nonushtagacha, nonushtadan keyin
  - b) mashg'ulot o'rtasida, uyqudan keyin
  - v) sayr vaqtida
  - g) hamma javoblar to'g'ri
3. O'yinchoqlarga qanday talablar qo'yiladi?
  - a) pedagogik, gigiyenik, badiiy talab
  - b) psixologik, gigiyenik talab
  - v) pedagogik, psixologik talab
  - g) estetik talab

4. Harakatli o'yinlar qachon rejalashtiriladi?

- a) ertalabki va kechki sayr soatlarida kuniga 1-2 marta
- b) ertalabki gimnastika vaqtida
- v) kunning ikkinchi yarmida
- g) mashg'ulotlar vaqtida

5. Hozirgi pedagogik adabiyotlarda o'yinchoqlar qanday turlarga bo'linadi?

- a) syujetli, didaktik, qurish-yasash, sport, motorli
- b) texnika, harakatli
- v) yumshoq o'yinchoqlar
- g) qurish-yasash

## **XIV BOB. MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH**

### **Bolalarni muktab ta'limga tayyorlashning nazariy asoslari**

Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha qabul qilingan Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" tayanch dasturi bolalarni muktab ta'limga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasasi va muktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'lnlari orqali ta'minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta'lim tizimi va uning tarkibiy va g'oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifaları tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasasi va muktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning asosiy negizi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktabdagi ta'lim-tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish izchillik ifodasi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va muktab izchilligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda bolalarning umumiy rivojlanishining zaruriy darajasiga erishish uchun muktabga qo'yiladigan talablarga yo'nalganligi;

- Bola shaxsini boshlang'ich ta'lim maqsad va vazifalariga muvofiq keluvchi sifat jihatidan shakllantirish.

Bunda asosan maktabgacha ta'lim muassasasi va maktabdagi pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiyaning shaxsni uzluksiz yuksalib boruvchi shakllanishini ta'minlovchi yaxlit,

dinamik va istiqbolli tizimni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Maktabgacha ta'lif muassasasi va maktab o'rtasidagi izchillikning qaror topishi tayyorlov guruhi bolalari va 1-sinf bolalalariga ta'lif-tarbiya berish sharoitlarini yaqinlashtiradi. Shunga ko'ra maktab ta'limining yangi sharoitlariga o'tish bola uchun sezilarsiz bo'lgan psixologik qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Bunda bolalarning yangi sharoitlarga tabiiy kirib borishlari ta'minlanadi, bu esa o'quvchilarga maktabga birinchi kelgan kunlaridan boshlaboq ta'lif-tarbiya berish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi va maktabdagi butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'nalaganligi ular o'rtasida ta'lif-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar egallagan xulq-atvor va kattalar va tengqurlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari, ma'naviy tasavvurlar va hissiyotlar boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyaning o'quvchilarda rivojlantirishdagi ma'naviy xatti-harakat, ong, hissiyot va munosabatlarning zamini hisoblanadi.

Maktab - maktabgacha davrlarda shakllantiriladigan jamoatchilik xususiyatlarini sifat jihatdan yanada rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratadi, o'quvchi shaxsi jamoatchilikga yo'nalganligini qaror toptirishni ta'minlaydi. Maktab o'quvchilarda yuksak insoniy hissiyotlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik va milliy istiqlol g'oyalari, o'z vatanini oldidagi o'z burchlarini his etish kabi hissiyotlar tarkib toptiriladi. Bularning asosini maktabgacha yillarda shakllantirilgan otagonaga, oilaga muhabbat, kattalarga hurmat, tabiatni sevish, uni asrash kabilalar tashkil etadi.

Maktab ta'lifida bolalarning estetik tarbiyasiga doir ishlar davom ettirilib, o'quvchilarda estetik tasavvurlar, voqelikni estetik ko'ra bilish chuqurlashtiriladi. Musiqa, tasviriy san'at darslarida, badiiy faoliyat turlarida amaliy ko'nikmalar takomillashtiriladi, ijodiy qobiliyatları rivojlanadi. Axloqiy

munosabatlar, xulq-atvor etikasi tarbiyalanadi. Mehnat ahliga ijobiy munosabatni shakllantirish, malaka va ko'nikmalari shakllantiriladi. Mehnat ta'lqidagi izchillik amalga oshiriladi, mustaqillik, uyushtira olish, tashkilotchilik kabilar rivojlanadi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasasi va maktab dasturlarining izchilligi**

Maktabgacha ta'lif muassasasi va maktabda amalga oshiriladigan ta'lif-tarbiyaviy ish mazmunini belgilovchi dastur aloqasi izchillik asosini tashkil etadi. Maktabgacha ta'lif muassasasi va boshlang'ich sinflarning amaldagi dasturlarini qiyoslash ular o'rtaida ma'lum izchil aloqa borligini ko'rsatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Maktab va maktabgacha ta'lif muassasasi dasturlariga asos qilib olingan falsafiy va psixologik nuqtayi nazarlar birligi;
- Ta'lif-tarbiya jarayonidagi prinsiplar birligi (mazmunning tarbiya maqsadi va vazifalariga muvofiqligi, ilmiyligi, ta'lifning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatlari);
- Fanlar o'rtaсидаги изчиллик.

Maktabgacha ta'lif muassasasi va maktabda ona tilining boshlang'ich kursini o'qitishga bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirib borish g'oyasi asos qilib olingan. Maktabgacha ta'lif muassasasida lug'atni rivojlantirish, tovush madaniyatini shakllantirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog'lanishli nutqni shakllantirish, ijodiy hikoya qilish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, o'qish va savodga tayyorgarlik, oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Maktabda bu asosda yangi vazifalar hal etiladi:

- Yozma nutq va harfiy yozuv malakalari shakllantiriladi;
- Morfologik va sintaksis elementlar o'rganiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida boshlangan lug'at boyligini yanada oshirish, nutqning ifodaliligi va mantiqiyligi ustidagi ish maktabda davom ettiriladi. Maktabgacha ta'lif muassasasida elementar matematik bilimlarni rivojlantirish-

da - bolalarning mantiqiy tafakkurini va hisoblash malakasini o'stirish bo'yicha o'nlik tartibini aniqlash, yigirmagacha bo'lgan sonlarni to'g'ri sanash, misollarni raqamlar yozilgan kartochkalar yordamida ifodalab berish, bir amalli masalalarni qo'shish va ayirish orqali tuzish va yechish, shartli o'lchov yordamida predmetlarni o'lchash, yil va hafta kunlari, ularning ketma-ketligi, kundalik faoliyatlarini taqsimlash, vaqt, butun va qism haqidagi bilimlari mакtabda takomillashtiriladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi va boshlang'ich sinflardagi tabiatshunoslik bilimlari har ikkala holatda ham organizm va muhit birligiga tayanadi. Jonli va jonsiz tabiat hodisalari, tabiat kishilar mehnatining bir-birini taqozo etishi shu asosda qaraladi.

Appears that the effective childminders in this study felt confident about their role in preparing their charges for school and see it as an important part of their job. Three separate strands appear in this preparation; familiarity, coping skills and early learning experiences presented through a number of pedagogical strategies that occur at varying levels of awareness

Izlanishlar natijasida, tarbiyachilar bolalarni maktabga tayyorlab berishda o'zini juda katta hissasi bor deb hisoblashadi va bu ishga juda katta yondashuv bilan qarashadi. Har bir bilim darajasining o'sish davrida berilgan pedagogik strategiyalar natijasida uch xil tarzdagi qobiliyat yuzaga keladi: tanishish, uddalay olishlik va muddatidan oldin o'rganish tajribasi.

Researching Effective Pedagogy in the Early Years 7 Pedagogy 113

Maktabgacha ta'lif muassasasi va mакtabda o'qitish izchilligi asosini tashkil etuvchi yagona nazariy yondashuvlar, dasturlar mazmunida, bolalalar imkoniyatlari va bilimlarining tuzilishlarini hisobga olib turlichha hal etiladi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar bilimlarining asosiy mazmunini atrof dunyo haqidagi xilma-xil tasavvurlarning keng doirasi va ayrim elementar tushunchalar tashkil etadi. Vogelikning turli sohalari haqidagi tasavvurlarning umumiy tizimi bolaga

dunyoni to'g'ri anglay olish va umumiy rivojlanishning zarur darajasini ta'minlaydi, bu esa zamonaviy ta'lif mazmunini egallahsha katta imkoniyat yaratadi. Maktabda o'quvchilar bilimlarining mazmuni yuqori darajaga ko'tarila borib, voqelikning turli sohalariga oid bilimlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish jarayoni faol sodir bo'ladi, ayni shu vaqtida o'quvchilar oldiga bilimlarni nazariy nuqtayi nazardan anglash masalasi ko'ndalang qo'yiladi.

Maktabning ta'limiylarida o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish bosh vazifa hisoblanadi. O'quvchilarning dunyo haqidagi bilimlarini tabaqlashtirish 1-sinfdan boshlab, fanni o'tishda, fan asoslarini maqsadli o'rganishda o'z aksini topadi. Bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish, tizimli hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishda o'qishda qo'llaniladigan metod va shakllarning ahamiyati kattadir.

O'qitish metodlardagi izchillikning sharti – ularni bolalar ning bilim, malakavako'nikmalarini ongli, mustaqilegallahshlari, bolalarni maktabda va maktabgacha ta'lif muassasasida ham aqliy qobiliyatları va ijodiy faoliyklarini rivojlanishiga yo'nalganligining birligidir. Maktabgacha ta'lif muassasasida qo'llaniladigan o'qitish metodi va usullari bolalarning keng aqliy hamda ma'naviy-irodaviy rivojlanishlariga yordam beradi va shu orqali ularning yangi mazmunini egallahsha darsda o'qituvchi bilan murakkabroq o'zaro aloqa shakllariga tayyorlarliklarini ta'minlaydi. Mashg'ulotlarda tarbiyachining bolalarni bilish va amaliy faoliyatlariga rahbarlik usullaridagi bu istiqbollilik ikki tomonlama metodlardagi izchillik asosini tashkil etadi. Maktabdagagi dars va maktabgacha ta'lif muassasasidagi mashg'ulot bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega, ammo shu bilan birga uyushtirilgan ta'lifning asosiy shakllari sifatida ulargagina xos bo'lgan ichki umumiy xususiyatlar majmuiga egadir. Bularga:

– Mashg'ulot va darsning mazmunan dasturlashganligi va vaqt jihatdan cheklanganligi;

- Ta'limda pedagogning yetakchi roli;
- Ilmiy asoslangan o'qitish metodi va usullaridan foydalanish;
- Ta'lif jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash.

Bu umumiy xususiyatlar ta'lif shakllaridagi izchillik uchun zamin yaratadi.

Maktabgacha ta'lif muassasasidagi o'qitish jarayonida bolalarda o'quv faoliyatning dastlabki elementlari tarkib toptiriladi, o'z xatti-harakatlarini ixtiyoriy boshqara olish ko'nikmalari, maqsadga yo'nalgan aqliy faoliyattakomillashadi, bu esa bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga faol kirishib ketishi uchun zarur bo'lgan psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Xulosa qilib, maktabgacha ta'lif muassasasi va mактабда ta'lif-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik bola shaxsini rivojlantirishni amalga oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

A more simplified analysis of curricular models is provided by Bennett in terms of a social pedagogical and school readiness approach. Table clarifies these more fully

Feature	Readiness for school tradition	The social policy pedagogical tradition
The early childhood centre	Viewed as a place for learning and instruction	Viewed as a life space
Curriculum development	Prescribed, detailing goals and outcomes	Broad guidelines, with flexibility in implementation
Focus of programme	Focus on learning and skills useful for school readiness	Focus on working with the whole child and his/her family

Feature	Readiness for school tradition	The social policy pedagogical tradition
The early childhood centre	Viewed as a place for learning and instruction	Viewed as a life space
Curriculum development	Prescribed, detailing goals and outcomes	Broad guidelines, with flexibility in implementation
Focus of programme	Focus on learning and skills useful for school readiness	Focus on working with the whole child and his/her family

O'quv modeli maktabgacha ta'lifda soddalashtirilgan holda ilk bor Bennett tomonidan taqdim etilgan. Ushbu ma'lumot jadvalda berilgan.

Xususiy maktabga tayyorlov an'anasi pedagogik an'ananing ijtimoiy siyosati.

Erta bolalik markazi	Ta'lim berish uchun joyni ko'rib chiqish	Hayotga makon sifatida qarash
O'quv dasturini ishlab chiqish	Berilgan mashg'ulotda maqsad va natija	Katta qamrovli bilimni amalga oshirishdagi natija
Dastur diqqat markazda	Maktabga tayyorlash uchun ta'lim va ko'nikmaga qaratiladi	Bola va uni oilasi bilan ishlashda aniq bitta maqsad

Researching Effective Pedagogy in the Early Years  
Department of Educational Studies University of Oxford

### **Bolalarning maktabda o'qishga tayyorgarligi**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limga tayyorlash bu - o'qitish samaradorligini oshirishdagi muhim jihat hisoblanadi.

**Maktabda o'qishga tayyorgarlik** – bu maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada bolalarga berilgan ta'lim-tarbiyaning muhim natijasidir. U maktab bolaga qo'yadigan talablar majmuyi orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlarni o'zida mujassam qiladi.

#### **Maktabda o'qishga tayyorgarlik tushunchasi.**

Bola hayotida maktabdagagi o'qitish jarayoni atrofdagilar bilan munosabat tizimini o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bunda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati bola hayotida markaziy o'rinni egallaydi. Bunda erkin o'yin faoliyatini farqli ravishda majburiy faoliyat egallaydi. Endi 1-sinf o'quvchisidan quyidagi jiddiy munosabatlar talab etiladi:

– Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolalar kundalik hayot jarayonini qayta quradilar;

– Kun tartibi o'zgaradi;

- Erkin o'yinlar vaqtini qisqaradi;
- Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi, intizomliligiga talab ortadi;
- O'quvchining o'z xatti-harakati, majburiyatlarini bajarishga mas'uliyati ortadi.

O'quvchining bu yangi holati uning shaxsini alohida ma'naviy jihatdan yo'nalghanligini yaratadi. Unda o'z Vatani, oilasi va kishilar oldidagi burch va majburiyatlarni anglay olish, mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish kabi ijobjiy sifatlar rivojlanib boradi. O'quvchi o'zining jamiyat uchun kerakligini tushuna boradi.

**Maktab o'quvchidan** – aqliy faoliyatning murakkabroq shakllarini, axloqiy-irodaviy sifatlarning yuksakroq rivojlangan darajasini, o'z xatti-harakatini boshqarish qobiliyatini, katta ishchanlik qobiliyatini talab qiladi.

**Maktabgacha ta'limga muassasasining vazifasi** – Davlat talablari asosida maktab talablariga muvofiq ravishda maktabda o'qishga tayyorlarlikni tarkib toptirishdan iborat. Bolalarni maktab ta'limga tayyorlash:

- Maktabgacha ta'limga muassasasida ta'limga tarbiyaviy ishni umumiy va har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajada ta'minlashishi;
- Maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlashni nazarda tutadi.

Pedagog olimlar va psixologlar (L.A.Venger, A.V.Zaparoes, G.M.Lyaminya) va zamonamiz pedagog olimlari (F.R.Qodirova) tomonidan bolalarni maktab ta'limga tayyorlashning quyidagi jihatlari ta'riflangan:

- Maktab ta'limga umumiy tayyorlarlik;
- Maktab ta'limga psixologik tayyorlarlik;
- Maktab ta'limga maxsus tayyorlarlik.

Maktab ta'limga umumiy tayyorlarlikni amalga oshirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- Bolaning matabda o'qishga axloqiy-ma'naviy tayyorligi;
- Bolaning matabda o'qishga aqliy tayyorgarligi;
- Maktabgacha yoshdagi bolaning matabda o'qishga jismoniy tayyorgarligining.

**I. Matabda o'qishga axloqiy-ma'naviy tayyorgarlik tushunchasi** – bola o'z xatti-harakat, iroda, hissiyotlar, insonlarga nisbatan muloqot qilishda o'z fikrini ayta bilishi, o'zini shaxs sifatida anglashi, o'qituvchi va sinfdagilar bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajada erishish tushuniladi.

Maktabdagagi axloqiy-ma'naviy tayyorgarlik mazmuni o'quvchi tutgan o'rindan kelib chiquvchi bola shaxsi va xulqiga qo'yiladigan talablariga nisbatan aniqlanadi. Bu talablar:

- Tartibli va intizomli bo'lish;
- O'quv jarayonini mustaqil va mas'uliyatli bajarish;
- O'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish;
- O'qituvchi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda madaniy xulq qoidalariga rioxqa qilish;
- Maktab mulkiga tartibli va ehtiyojkorona munosabatda bo'lish.

Bu talablarni bajarishga tayyorgarlik, avvalambor, oilada, maktabgacha ta'limga muassasalarida olib boriladigan maqsadli, tizimli ta'limga-tarbiyaviy jarayonda amalga oshirilishi lozim.

Axloqiy-ma'naviy tayyorgarlik maktabgacha yoshdagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchi bilan ishlashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- Xulq-atvorni ongli boshqarishga ko'maklashish;
- Daf'atan asabiylashib ketishga erk bermaslik;
- Kutilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon etishdagi yordam.

Bo'lajak o'quvchi xulq-atvoridagi ixtiyoriylikning rivojalish asosini Maktabgacha ta'limga yoshi oxiriga kelib tarkib

topadigan sabablar iyerarxiyasi, o'zaro bo'ysunuvchilari tashkil etadi. Sabablarning o'zaro bo'ysunganligi bu yoshdagi bolalarning ushbu daqiqadagi o'z ishtiyoqlarini ma'naviy ahamiyatli maqsadlar yo'lida yengish uchun irodaviy, ongi intilishga aloqadordir. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolani xulq-atvori ixtiyorilikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ammo bu davrda maktabdagi yangi xulq-atvor turiga o'tishni ta'minlaydigan ixtiyoriy xulq-atvor mexanizmining tarkib topishi muhimdir. Ma'naviy-axloqiy tayyorgarlikning qaror topishida quyidagi uch jihat:

- Mustaqillik;
- Uyushganlik;
- Intizomlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolada mustaqillikni tarbiyalash va shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan barcha ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda o'z aksini topadi. Bola maktabda o'z xulq-atvori va boshqa jarayonlarda mustaqil bo'lishga intiladi. Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvordagi uyushganlik va intizomlilik bola xulq-atvoridagi maqsadga yo'nalganlik, ongli ravishda o'z xatti-harakatini tashkil etish va uni nazorat qila olish kabi qobiliyatlar tarkib topadi. Bu esa bolaning ma'naviy-axloqiy jihatdan maktab ta'limiga tayyor ekanligni bildiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'z tengqurlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq ravishda tashkil etish - ma'naviy-axloqiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismidir. Bunda maktabda o'qish jarayonida o'z tengqurlariga nisbatan xayrixoh, xushmuomalalik, g'amxo'rlik bildirish va hurmat bilan munosabatda bo'lish, tashkilotchilik ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabatida, o'qituvchining bahosi - o'quvchi bilimi va uni o'quv majburiyatlarini bajarish sifatining holis mezoniga aylanadi.

Maktabgacha axloqiy-irodaviy tayyorgarlik - bola ongi va axloqiy-hissiy rivojining muayyan darajasi bilan ham

ifodalanadi. Bunda bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi kattalar va tengdoshlariga nisbatan o'zaro hurmat bilan qarash, kattalar bilan muloqot qilish doirasini kengaytirish, taassurotlari bilan o'z hissiyotlarini o'rtoqlasha olish nizoli vaziyatlardan mustaqil chiqo olish, jamoada o'zini tuta bilish va o'z xatti-harakatini tanqidiy baholay olish kabi axloqiy hissiyotlar va axloqiy o'z-o'zini anglash bola tomonidan o'quvchining yangi ijtimoiy-psixologik mavqeyini ko'tarinki ruh bilan qabul qilishni, o'quv mashg'ulotlarini bajarishning muhimligini tushunishni ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarda o'z vatani oldidagi shaxsiy mas'uliyat hissiyotini uyg'otishda asos bo'ladi. Bolaning axloqiy-irodaviy tayyorgarligi uning mehnatga nisbatan munosabatida ham o'z aksini topadi. Bu mehnat qilish ishtiyoqi, to'g'ri va tartibli bajarilgan mehnatdan qoniqish hissiyoti, atrofdagilar mehnatiga hurmat va zarur mehnat ko'nikmalarini egallashdir.

Bo'lajak o'quvchi mustaqil tartibli kiyinishi, o'z narsalari, o'quv anjomlarini saranjom saqlash, orasta bo'lib ko'rinishi kabi mehnat ko'nikmalarini u oilada va maktabgacha ta'limga muassasasida egallagan ko'nikmalariga tayangan holda amalga oshiradi. O'quvchini o'qitishda u maktabgacha ta'limga muassasasida egallagan birgalikdagi mehnat malakalari ishni rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, o'z holatlarini o'rtoqlari bilan kelishish, ishni oxiriga yetkazish katta o'r'in egallaydi.

Xulosa qilib, bolaning maktabda o'qishga ma'nnaviy-axloqiy tayyorgarligi uni maktab yillarida axloqiy-irodaviy rivojlantirishning muayyan yakuni sifatida namoyon bo'ladi. U maktab ta'limi nuqtayi nazaridan bola shaxsi va xulq-atvorining o'z mazmuniga ko'ra bolaning maktab sharoitiga moslashish, o'z majburiyatlarini mas'uliyatli bajarish, o'qituvchi va o'quvchilarga nisbatan axloqiy munosabatini shakllantirish uchun zamin tayyorlaydi. Ma'nnaviy-axloqiy tayyorgarlik bolani maktabda o'qishga aqliy va jismoniy tayyorgarligi bilan uzviy aloqadordir.

## **II. Bolaning mактабда о'qishга ақлий таъyorгарлиги**

Bolalarni maktab ta'limga aqliy jihatdan tayyorgarligining ahamiyati o'quv faoliyatining yetakchi turi hisoblanadi. Bu o'quvchilardan jiddiy aqliy mehnatni, aqliy qobiliyatni va bilish foaliyatini talab qiluvchi o'quv jarayonida kelib chiqib belgilanadi.

Maktabga aqliy tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlardan tarkib topadi:

**1.** Bolada atrof-olam haqida yetarlicha keng bilim boyligining mavjudligi. Bilimlarning bu zaxirasi o'qituvchi ishini tashkil etishda zaruriy asos hisoblanadi;

**2.** Bolalar bilimlarining yetarli darajada hisoblashtirilganligi. Bu bola voqelikning nisbatan yirik sohalarini (jonli va jonsiz tabiat, inson faoliyati, narsalar olami va h.k.) ayrim tomonlarini farqlay olishi;

**3.** Bola egallagan bilimlarining sifati. Bunda bilimlarning sifat ko'rsatkichi, ongli ravishda egallanganligi, tasavvurlarning aniq va tabaqalashtirilganligi, oddiy tushunchalar mazmuni va hajmining to'liqligi, muntazamlilik (funksional, makon va zamon munosabatlari, sabab, oqibat va shu kabilarni aks ettira bilish qobiliyati).

**4.** Bolaning bilish faoliyatining muayyan darajada rivojlanganligi. Bunda bilish jarayonlarining o'sib boruvchi ixtiyoriyligi: mavzuni ma'no jihatidan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarini rejali idrok etish, amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati, bilish jarayonining sifatini oshirish, sezgilarining aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi, bolada atrof-olamni bilish munosabatlari, bilimlarni egallah va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Psixolog olimlarning (L.I.Bojovich, L.A.Venger, A.A. Lyublinskaya) fikricha, maktabgacha yoshdagи bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni, ishtiyoyqni, o'qishga va maktab qoidalarini bajarishga istakni tarbiyalash, maktabga ijobjiy munosabatni,

kitobga qiziqishni tarkib toptirish, o'quvchilarda barqaror o'quv qiziqishlari va maktabdagi o'quv jarayoniga mas'uliyatli munosabatni hosil qilishning muhim zamini hisoblanadi.

Bo'lajak o'quvchini maktabga aqliy tayyorgarligida - tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhimdir. Bunda maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik sharoitlarda olib boriladigan har tomonlama ishlar asos hisoblanadi. Bolalarning tafakkur faoliyatlarini shakllantirishda tahlil qilish, sintez, oddiy umumlashtirish, qiyoslash qobiliyatları tarkib toptiriladi.

Aqliy faoliyatning elementar mustaqilligini ta'minlashda bola o'z amaliy faoliyatini mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilih vazifasini qo'yish va uni hal eta olish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Bolalar muntazam ta'lim olish jarayonida, maktabgacha davrning oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismalarini:

- Tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish;
- Tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni;
- Kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullardan foydalangan holda ishni bajarish va natijaga erishish;
- O'z xatti-harakati, xulq-atvori, faoliyati va topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasi;
- O'zining va boshqalarning ishlariga tanqidiy baho bera olish qobiliyatlarini egallay olishlari;
- Tarbiyachi tomonidan qo'yilgan ma'lum talab va qoidalarga ongli ravishda bo'ysunish ko'nikmasini tarkib toptirish zarurdir.

**Maktabga aqliy tayyorgarlik** quyidagi ko'nikmalar asosida amalga oshiriladi:

1. Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik;
  2. Bilih jarayoni: atrof-olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash.
- a)** Elementar matematik bilim va ko'nikmalar;

**b) Tasviriy faoliyat;**

**c) Musiqa.**

**Nutq o'stirishda:**

- Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish;
- Lug'at ustida ishlash;
- Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- Bog'lanishli nutqni shakllantirish;
- Ijodiy hikoya qilish;
- Badiiy adabiyot bilan tanishtirish ishlari olib boriladi.

Nutqning qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolaning mактабга аqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisobланади. Ona tilidagi hamma tovushlarni aniq talaffuz qilish, lug'atning boyligi, o'z fikrini mantiqiy grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi – bularning barchasi mактабда muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisobланади. Shuningdek, kesma harflar yordamida tovush-harf tahlil va sintez bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatish, kesma harflardan bo'g'in tuzdirish va o'qitish, unli va undosh tovushlar xususiyatlari, o'z ismini va 2-3 ta so'zlarni bosma harflarda mustaqil o'qishga o'rgatib boriladi. Bu tayyorgarlik davridagi tushunchalar mактаб davrida mustahkamlanib, chuqurlashtirib boriladi.

**Elementar matematik bilim va ko'nikmalar** bo'limida – son-sanoq, kattalik, geometrik figuralar, tevarak-attrofni mo'ljalga olish, vaqtни chandalash, qurish-yasash faoliyatлари orqali amalga oshiriladi. Bolalarda pul qiymatlari, narx, plastik kartochka, terminal haqida dastlabki tushunchalar beriladi. Yil fasllari, yil taqvimi, hafta kunlari, soat turlari bilan tanishtiriladi.

**Tasviriy faoliyat** mazmuni yanada murakkablashadi. Inson qiyofasi detallashtirilgan holati, san'at asarlari bilan tanishtiriladi. Bunda predmetli va voqeaband rasm chizish, bezakli rasm, plastilin (loy) bilan ishlash, aplekatsiya, qurish-yasash, qurilish materialларини konstruksiyalash, qog'ozdan

konstruksiyalar hosil qilish, tabiiy materiallardan, qurish-yasash materiallaridan, konstruktorlik detallarni, qurilish materiallaridan konstruksiyalar hosil qilish va badiiy qo'l mehnati o'rgatiladi.

**Musiqa mashg'ulotlarida:** musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlar, qo'shiq aytish, bolalar cholg'u asboblarida chalish, turli harakatli o'yinlar o'rgatiladi.

Shuningdek, Ona Vatan, mashhur sarkardalar, buyuk siymolar, xalq amaliy san'ati, an'anaviy bayramlar, kattalar mehnati, transport va aloqa vositalari, buyumlar haqida bola o'z tanasining qismlarini o'rganish orqali boshlang'ich sinf ta'limiga tayyorlanadi. Bu bilim va ko'nikmalar bolalarni 1-sinfdag'i tegishli o'quv fanlarini egallashlari uchun tayyorgarliklarini tashkil qiladi.

Ko'pchilik psixolog-pedagog olimlarning (A.M.Leushina, D.B.Elkonin, L.E.Jurova, F.R.Qodirova) ta'kidlashicha, maktabgacha ta'llim muassasasida va mакtab ta'llimidagi o'qitishdagi bog'liqlik maktabda fanlarni o'qitish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi. Shunday qilib maktabdag'i o'qishga aqliy tayyorgarlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlaridan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof-olam haqidagi anglangan, tizimlashtirilgan tasavvurlar hamda elementar tasavvurlar, nutq va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdag'i o'quv materialini egallashga aqliy tayyorgarlikni vujudga keltiradi.

### **III. Maktabgacha yoshdag'i bolani maktabda o'qishga jismoniy tayyorgarligi**

Maktabda o'qishga tayyorgarlik bu - bolani maktabda muvaffaqiyatlil o'kishi uchun asosiy negiz hisoblanadi. Maktabga borish munosabati bilan bolaning kun tartibi, turmush tarzida jiddiy o'zgarishlarning paydo bo'lishi, darslarning davomiyligi jismoniy zo'r berishni keltirib chiqaradi. Maktabga jismoniy tayyorgarlik quyidagi omillarga bog'liq:

- Bola salomatligining yaxshi bo'lishi;
- Bola organizmining chiniqqanligi;
- Ma'lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati;
- Kasalliklarga qarshilik ko'rsata olish xususiyatlariga bog'liq.

Bu bolaning jismoniy va nerv-psixologik uyg'un rivojlanganligi, morfologik va fiziologik rivojlanishining yosh ko'rsatkichlariga muvofiqligi (yoki birmuncha ilgariligi).

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashda:

- Jismoniy mashqlar va jismoniy o'yinlar;
- Ertalabki badantarbiya mashqlari;
- Asosiy harakatlar (yugurish, sakrash, tashlash, ilib olish, irg'itish, emaklab yurish, tirmashib chiqish, muvozanatni saqlash) mashqlari;
- Umumrivojlantiruvchi mashqlar (qo'l va yelka, oyoq, gavda uchun mashqlar, saflanish va qayta saflanish, velosipeda uchish va suzish);
- Chiniqtirish va sog'lomlashtirish – gigiyenik badantarbiya mashqlari, chiniqtirish, qomatni to'g'ri tutish ko'nikmasini tarbiyalash;
- Ochiq havodagi sport o'yinlari (sakrab o'ynaladigan, irg'itib, ilib olib o'ynaladigan o'yinlar);
- Ermak o'yinlar;
- O'zbek xalq harakatli o'yinlari o'ynaladi.

Shuningdek, gigiyena va o'z-o'ziga hurmat:

- Uxlash gigiyenasi;
- Shaxsiy gigiyenasi;
- Ovqatlanish gigiyenasi;
- Madaniy gigiyenik ko'nikmalarni aniqlash va o'z-o'zini hurmat qilish (o'ziga xos gigiyena, shikastlanishni oldini olish).

Maktabga tayyorlashda maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda matorikani rivojlantirish (ushlash, yopish, qirqish, bo'lish), qo'l barmoqlari va qo'llarni ishlatish alohida o'rinnegallaydi. Bu bolani maktabda yozuvni muvaffaqiyatli egallashi

uchun zamin hozirlaydi. Jismoniy tayyorgarlik bolada mактабга yetuklikni shakllantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Mактабгача yetuklikni aniqlashda bola sog'lig'ining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko'rsatkichlarga: suyak, mushak, nafas olish va yurak-qon tomir tizimining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko'p omilli tahlil, fiziologik funksiyalarning rivojlanishi darajasini baholashdan iborat. Bularga:

- Partada uzoq vaqt o'tirish uchun zarur bo'ladigan tormozlash qobiliyatining rivojlanganligi;
- Harakatlarini yaxshi boshqara olish (yozish, rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda barmoqlarning mayda harakatlari);
- Ijobiy va tormozlanishga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash;
- Ikkinchи signal tizimining yetarlicha rivojlanganligi.

Bu davrda bolaning bo'yи 120 sm ga yetadi, og'irligi 22-24 kg bo'lishi jismoniy norma hisoblanadi.

Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, xilma-xil harakatlар o'yinlar va jismoniy mashqlar faol harakat tartibi bolalarni mактабда o'qishga jismoniy tayyorgarligini ta'minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

## Mактаб та'limiga psixologik tayyorgarlik

**Psixologik tayyorgarlik tushunchasi** - mактаб та'limi nuqtayi nazaridan 1-sinfga qadam qo'yayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarining majmuasi bo'lib hisoblanadi. Bu tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi, o'quvchi bo'lish ishtiyoqida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darjasasi, bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallash, iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lувчи asoslangan tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Bolaning mактаб

ta'limiga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish, o'quv materiallarini ongli-faol egallash, mакtabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni yangi psixologik mavqelarini yaratishdan iborat bo'lib, uning xususiyati guruhdagi barcha bolalar uchun ahamiyatli bo'lgan kelajakda maktabga kirish istiqbolidir. Bu istiqbol bolalar kechinmalari, qiziqishlari, intilishlarining birligini yaratib, tarbiyachilar undan bolalar jamoasining umumiy maqsad – maktabga puxta tayyorlanish asosida jipslashtirish maqsadida foydalanadilar.

Tayyorlov guruhiga o'tish bolalarda yangi holat – kattaliklarini anglashlariga asoslangan "yetuklik" hissiyotini yaratadi. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonlarida bolalarning katta ekanliklaridan faxrlanish, o'quvchi bo'lishga intilish, xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish va javobgarlik hissini tarkib toptiradi.

"Ilk qadam" dasturida belgilab qo'yilgan ijtimoiy-hissiy rivojlanish talablarini bajarish, bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqat qilish doirasini kengaytirish, o'z fikrini mustaqil ayta bilish qobiliyati, o'z hissiyotlari bilan o'rtoqlasha olish, hissiy kechinmalarni so'z bilan ifodalashi, jamoada o'zini tuta bilishi, o'zini shaxs sifatida anglashi, o'zini hurmat qilishi, qadr-qimmatini bilishi, "men" konsepsiysi, kattalar yordamida kamchiliklarini bartaraf etish kabilalar psixologik tayyorgarlik asosini tashkil etadi. Bu yoshdagি bolalarda o'zidan kichiklarga g'amxo'rlik hissi jadallik bilan rivojlanadi. Ular uchun sovg'alar tayyorlash, "konsertlar" uyushtirish, birgalikdagi o'yin faoliyatları bo'lajak o'quvchi uchun katta ahamiyatga ega. Bu ishlar bo'lajak o'quvchining ma'nnaviy tajribalarini boyitadi, shaxsning insoniy xislatlari – xayrixohlik, saxiylik, yaxshilik, rahmdilik sifatlarini tarkib toptiradi.

Tayyorlov guruhi bolalar mavqeyidagi o'ziga xos xususiyat ularning ijtimoiy zonasini kengaytirishdir. Shunday qilib,

maktabgacha yoshdagи bolalar psixologik mavqeyida bo'lajak o'quvchilarda ma'naviy sifatlarni shakllantirishning katta imkoniyatlari mavjuddir.

### **Maktab ta'limiga tayyorlashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari**

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar o'ziga xos xususiyatga ega. Bu o'ziga xoslik maktab ta'lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirish emas, balki bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'kishi uchun zarur bo'ladigan og'ishmay shakllantirishga mo'ljallangan faoliyat va xulq-atvorni maxsus tashkil etishdir. Bu bolalar faoliyatining barcha turlarini murakkablashtirishda, bolalar tomonidan amalga oshirishning murakkab usullarini egallahshlarida, faoliyat jarayonida hamkorlikning yangi usullarini o'zlashtirishda, bolalar faoliyati va xulq-atvorining jamoatchilik yo'nalishini rivojlantirishda, ijtimoiy-foydali asoslarini ilgari surishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon bo'lajak maktab majburiyatlarini hisobga olib talablarning so'zsiz ortib borishi bilan ifodalanadi. O'z ahamiyatiga ko'ra bolalarning mustaqilliklari, o'yin, o'qish va mehnatning sifat va natijaliligi birinchi o'ringa chiqadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Kun tartibining o'zgarishida – bola yuvinish, kiyinish, ovqatlanish jarayonlarini tez sur'atda bajarishga o'tadi, faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezroq moslashadi. Tarbiyachining bolalar bilan muloqot usuli o'zgaradi, o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatiga xos ayrim xususiyatlarni kasb etadi(bolalarga qo'yiladigan talab ortadi, ularda mustaqillik rivojlanadi). Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga, o'qishga ishtiyoq, qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim.

- Maktabgacha ta'lif muassasasidagi mashg'ulotlar vaqtiga ortadi. Bunda bolalarni voqelikning turli sohalari haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va to'g'ri dunyoqarashni shakllantirishga oid ishlar olib boriladi. Bolalar bilimlarini o'rganilayotgan narsa va hodisalardagi muhim belgi hamda munosabatlarni ajratish asosida yanada umumlashtirish va tizimlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bolalarni mакtabda o'qishga tayyorgarligining yana bir muhim tomoni – atrof-olam, narsa va hodisalarni tegishli mezonlarda umumlashtira va tabaqalashtira bilish hisoblanadi. Istalgan o'quv fanini egallash bolada mazkur o'quv o'quv fanida ko'rib chiqilayotgan voqelik hodisalarini ajratish va uni o'z bilish obyektiga aylantirish qobiliyatining mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bu tizimlashtirish, umumlashtirish, tahlil qobiliyati ma'lum darajada rivojlanishini talab qiladi. Asosiy maqsad – olingan bilimlar ko'magida mazkur masalalarga nazriy yondashuv masalalarini shakllantirishga yordam beradigan umumiylashtirilgan tasavvur va elementar tushunchalarning tarkib topishini ta'minlashdir.

Bolalarning mакtabda savodini chiqarish uchun tayyorgarlikka oid jadal ish olib boriladi, bu sohalar bo'yicha dastur talablarini egallash, keyinchalik matematik rivojlanishlari muhim bo'lgan butun sonlar qatori, qonuniyatlari, bolalar uchun yangi voqelikning miqdoriy tomonlarini bilish vositasi sifatida o'lchov faoliyati, qism va butun, o'lchov va o'lhash o'rtasidagi funksional bog'liqliklar va shu kabilar haqidagi qoidalarni anglashlarida yordam beradi. Bular bolalarning 1-sinfidagi matematik bilimlar mazmunini ongli, faol egallashlarini ta'minlaydi.

Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik mashg'ulotlarida – bolalar nutq va til voqeligi sifatidagi yangi lingvistik munosabat asoslarini o'zlashtira boshlaydilar. Bolalar tomonidan nutqning tuzilishi, uning og'zaki va tovush tarkibini oddiy o'zlashtirish sodir bo'ladi, so'z tilvoqeligi degan ilktasavvurtarkib toptiriladi. Kesma harflar yordamida tovush-harf, bo'g'in tuzishga va uni

o'qishga o'rgatiladi, namunadagidek turli so'zlarni yozish, chizish masalalari shakllanadi. Bolalar tegishli atamalar: gap, tovush, bo'g'in, harf, so'z tarkibi kabilarni egallab oladilar. Bu ish mакtabda savodni egallah va ona tilini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning analitik-sintetik faoliyatlarini rivojlantirishga tahlil, umumlashtirish, qiyoslash, tasniflash usullarini takomillashtirishga doimo e'tibor qaratiladi. Bunda bolalarni bevosita bilishdan bilvosita bilishga ko'chirishning roli kattadir. Bu yoshdagi bolalar kattalarning miqdoriy o'zaro munosabatlarining o'lchashlar vositasida aniqlashni, narsalarni ko'rib chiqish yoki qiyoslashda kuzatishlar chizmalaridan foydalanishni, narsalarning sifat va xususiyatlarini baholashda ijtimoiy ishlab chiqilgan etalonlardan foydalanish kabilar o'rganib boriladi.

Mashg'ulotlarda bolalarda o'quv faoliyati va uyushgan xulq-atvor malakalarini maqsadga muvofiq shakllantirish davom ettiriladi. Bunda bolalarning:

- O'quv vazifalarini qabul qilish ko'nikmalar;
- Tarbiyachining tushuntirish va ko'rsatmalariga muvofiq harakat qila olishlari;
- Butun mashg'ulot davomida mashg'ulot mazmuniga qiziqish;
- Diqqat-e'tiborni saqlash;
- Ishni oxiriga yetkaza bilish;
- Vazifani bajarish jarayoni va uning natijasini topshiriqqa muvofiq baholash;
- Tarbiyachi savollariga baland ovozda mantiqli javob berish;
- O'z fikrini tushunarli va savodli ifodalay olish jihatlari ish samaradorligi belgisi hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalar mustaqilligini rivojlantirar ekan, ular o'z faoliyatlarini rejalashtiradi hamda izchil tarzda o'rganib boradi. Bu ko'nikmalar barcha faoliyat turlarida amalga oshirilib, bolalar dastavval tarbiyachi tomonidan taqdim etilgan reja asosida harakat qilishni, so'ngra tarbiyachi bilan

birgalikda reja tuzishni, so'ngra o'z faoliyatlarini mustaqil rejelashtirishni o'rganadilar. Bolalar faoliyatining natijaliligiga talab ortib boradi. Tarbiyachi ish natijalarni baholashda quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- Bola tomonidan topshiriqni bajarishdagi aniqlik;
- Bajarilgan ish sifati;
- Ishning zarur sur'atini saqlash ko'nikmasi;
- O'zini-o'zi nazorat qilish.

O'zini-o'zi nazorat qilish ta'sirini tarbiyachi asta-sekin natijani nazorat qilishdan topshiriqni bajarish jarayonidagi harakat usullarini nazorat qilishga va so'ngra nazoratdan oldingi elementlarga tomon rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lif muassasasidagi ta'lif-tarbiya va pedagogik jarayonlarda o'qitish muammolarini ilmiy asosda ishlab chiqqan pedagog olimlar (A.P.Usova, N.B.Mchedlidze, V.I.Loginova, Yu.K.Batanekib va boshqalar) "Pedagogik jarayon yaxlit, dialektik va rivojlanuvchi hodisadir. Uning rivojlanish jarayonida asosiy tashkil qiluvchi qismlari: tarbiya va o'qitish, bolalarning uyuştirilgan va mustaqil faoliyatları, ayrim faoliyat turlari (o'yin, o'quv, mehnat) o'rta sidagi nisbat o'zgaradi" – deb ta'riflaniadi<sup>14</sup>.

Tarbiyachi bolalarga tanishtiradigan ijtimoiy hodisalar sohasi jiddiy kengayadi. O'zbekistonning qadimi shaharlari, Buyuk Ipak yo'li, O'zbekistonning mustaqilligi, gerbi, bayrog'i, madhiyasi haqida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshqarilishi, buyuk siymolar, mashhur sarkardalar, xalq amaliy san'ati, an'anaviy bayramlar haqidagi bilimlarga tayanadi.

"Konstitutsiya saboqlari" bu ilk iqtisodiy tarbiya mashg'ulotlari orqali bo'lajak o'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya shakllantiriladi. O'zbekistonning o'z milliy so'mi va iqtisodiyot saboqlarining ilk elementlari hodisalarga qiziqishlarini rivojlantiriladi,

<sup>14</sup> Usova A.P. Obuchenie v detskom sadu [Pod. red. A.V.Zoporojsa]. - M., 1981.

fuqarolik hissiyoti asoslari: vatanparvarlik, mehnat ahliga hurmat, mamlakat xalqlarini sevishni tarkib toptiradi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni tabiat haqidagi bilimlarini tizimlashtirishning asoslari: jonli va jonsiz tabiat hodisaları, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'z tana a'zolari, ularning tuzilishi va xususiyatlari, yashash muhiti, himoya vositalari, oziqlanishi haqida bilim beriladi. Bolalarda kattalar mehnati haqida bilimlarni shakllantirishda tizimlashtirishning asosini mehnat buyumlari, kishilar ehtiyojini qondirish uchun mehnat mahsulotlariga aylantirish aloqalarini tushunish tashkil etadi.

Mashg'ulotlarda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalar bolalarning amaliy faoliyatlar bilan bog'lanadi. O'lchash usullarini bolalar o'yin va mehnat faoliyatida o'simliklar va ularni parvarish qilish haqidagi bilimlarni tabiat burchagidagi navbatchilikda, gulzordagi mehnat ishlarida, turli material xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarni o'yin va qurish-yasash va boshqa faoliyat turlarida qo'llaydilar.

### **Maktab ta'limiga tayyorlashda bolalar faoliyatini tashkil etishning ahamiyati**

Zaruriy faoliyatning barcha turlarini yanada takomillash-tirish va shu asosda qimmatli ma'naviy sifatlar: mustaqillik, uyushganlik, jamoatchilikni shakllantirish, maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Faoliyatga qatnashish maktabgacha yoshdagи bolalar shaxsini shakllantiradi. Tarbiyachining rahbarligi faoliyat mazmunini va uni amalga oshirish usullarini yanada boyitishga, faoliyatni birgalikda rejalashtirish, faoliyat jarayonida hamkorlik hissi, umumiy intilishlar bilan ma'lum natijalarga erishish xulosalarini shakllantirishga yo'llangan bo'ladi.

#### **O'yin faoliyatida:**

- O'yinlarda ijtimoiy hayotning ijobiy hodisalarini aks ettirish;
- O'yinda kelishish;

- Syujetni hamkorlikda aniqlash;
- Rollarni haqgo'ylik bilan taqsimlash;
- O'yin tuzilishi mustaqil tayyorlash;
- Syujet mazmunini faol rivojlantirish;
- O'yinda bir-birini tushunishga erishish;
- Do'stona munosabatlarni qo'llab-quvvatlash;
- O'yining ma'nosini to'liq amalga oshirish;
- O'yinchoq va materiallarni joy-joyiga eslatishlarsiz olib borib qo'yish;
- O'yin qoidalariga to'liq rioya qilish kabi ko'nikmalar o'yin faoliyatini muvaffaqiyatli egallaganliklarining ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

### **Mehnat faoliyatida:**

- Mehnat majburiyatlarini (o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, navbatchilik, ish o'rnini tartibli saqlash) yaxshi bajarish;
- Bajarilgan ish sifat va natijasi;
- Vazifalarni o'zaro adolatli taqsimlay olishlari;
- Do'stona ishlay olishlari;
- Mehnat jarayonida madaniy xulq-atvor qoidalariga rioya qilishlari orqali tarbiyachi bolalarda mustaqillikni, tirishqoqlikni, uyushganlik va javobgarlikni his qilish mas'uliyatini shakllantirishda foydalanadi.

Bolalarning jamoa mehnatlari mazmunlari va uyuştirilishi murakkablashib, bolalar guruhlariga birikib ishlashadi, bunda hamkorlikdagi mehnat amalga oshiriladi. Bolalarning jamoa mehnati faoliyati asoslarini muvaffaqiyatli egallashlari, mehnatda mustaqillik va uyushganlikni shakllanganligining ko'rsatkichi bolalarning mehnat maqsadini tarbiyachi bilan birlgilikda rejalashtirishlari va uning natijasini tasavvur qilishlari, zarur materiallarni ajrata olish, vazifalarni mustaqil taqsimlash va mehnat natijasini to'g'ri baholay olishlari lozim. Mehnat burchagida bolalarga tushunarli bo'lgan mehnat turlari bilan mustaqil shug'ullanish uchun barcha zarur narsalar bo'lishi kerak. Bolalarga uskuna, o'yinchoq, qo'llanmalarni guruh xonasida tartibli saqlash uchun mas'uliyat hissi

shakllantiriladi, bu maqsadda har haftada guruh xonasini jamoa bo'lib yig'ishtirishda qatnashadilar. Bunda bolalarning badiiy-estetik didlari ham rivojlantiriladi. Guruhda estetik muhitni yaratishda ishtirok etishlari ta'minlanadi, kattalar mehnati haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalash, ishlab chiqarish korxonalari qurilishlari umumlashtiriladi. Madaniy-maishiy xizmat xodimlarining mehnatlari to'g'risida tushuncha hosil qilinadi. Shunday qilib, mактабгача та'lim muassasasida tashkil etiladigan jarayonlarning butun tizimi mактабгача yoshdagi bola ongi, xulq-atvori va shaxsini qayta qurishga, bolalarda mehnat ta'limining yangi sharoitlariga faol har tomonlama tayyorgarlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bolaning maktab ta'limiga maxsus tayyorgarligi mehnatda o'qishga umumiyligi, psixologik tayyorgarligiga qo'shimchadir. U bolalarda matematika, ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganishi uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Mактабгача та'lim muassasalarida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish, o'qish va savodni egallahga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

### **Mактабгача та'lim muassasasi va maktab hamkorligi. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifaлari**

Mamlakatimizda mustaqillik yo'lidagi ilk qadamlardanoq jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan siyosiy va iqtisodiy tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida jumladan uning birinchi pog'onasi hisoblanmish mактабгача та'lim sohasida ham katta o'zgarishlar qilinmoqda. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda ta'lim muassasalari faoliyatini me'yorashtiruvchi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizom, «Mактабгача yoshdagi

bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari» kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi.

Isloh etish jarayonida bolalarga ta'lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl va uslublari, shuningdek, pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari qamrab olinmoqda.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqeа-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga о'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

«O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda ota-onaning mustaqil ravishda ta'lim-tarbiya berishi orqali yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlар yoki markazlarda oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida yoki oilada maktab ta'limiga tayyorlash, uni murakkab bo'lмаган bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Shunga binoan, MTM bilan maktab о'rtasidagi bog'liqlik bir tomonidan, bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan hol-

da mактабга о'тказиши, иккинчи томондан, о'қитувчining кatta мактабгача yoshдagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o'quvтарбиавиј jarayonda samarali foydalanishni taqozo etadi.

MTM bilan mактаб о'rtasidagi узвиј bog'liqlik katta мактабгача yoshдagi bolalar va mактабning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lіm-tarbiya berish sharoitiniyaqinlashtirishga yordam beradi. Shunday ish tutilganda bolalarning mактаб sharoitiga moslashishi ancha yengillik bilan o'tadi. Bolalar mактаб sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa o'z navbatida mактабда o'qishning birinchi kunidan boshlab ta'lіm-tarbiya ishining samarasini oshiradi.

Zero, мактабгача ta'lіm muassasasi xodimlari birinchi sinfdы bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, mактабга tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lіm olishga tayyorlashlari kerak.

Mактаб bilan MTM o'rtasidagi узвиј aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lіm-tarbiaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek, bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Mактаб talabi nuqtayi nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari lozim.

2. MTM nuqtayi nazaridan bolalarni mактаб talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish

3. Bolalarning mактабга ruhiy tayyorligi. Bu yerda vazifa bolalar mehnatning har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat, bilishga qiziqishni o'stirish, kelajakdagи mustaqil faoliyatga tayyorlashdan iborat.

4. MTMda beriladigan ta'lіm rivojlantiruvchi tarzda bo'lishi kerak.

5. MTM bilan mактаб o'rtasida izchil aloqa o'rnatish.

Uzviylik MTM va mактабда shaxsni har tomonlama shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ta'lіm-tarbiya ishini

izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. MTM Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda boshlang'ich sinf ta'limi maqsad va vazifalariga mos keladigan sifat jihatdan yangi xususiyatlarni shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar egallagan xulq-atvor shakllari, kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabat shakllari, axloqiy his-tuyg'u va tasavvurlar maktabning boshlang'ich sinflarida bolalarga yangi axloqiy xulq-atvor shakllarini ularning ongini, his-tuyg'ularini tarbiyalash uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Maktab bolalarda axloqiy tasavvurlar va xulq-atvorda birlik bo'lishini tarbiyalash, o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarlikni sezsa bilish, jamoatchilik xislatlari, sifat jihatdan yangi bo'lgan xulq-atvor shakllarini tarkib toptirish uchun shart-sharoit yaratadi. Maktabda vatanparvarlik, baynalmilallik, o'z vatani oldidagi burchini chuqur anglash kabi his-tuyg'ular shakllanadi. Bunday yuksak hislar bolalarning MTMda ota-onalariga, oilasiga muhabbat, kattalarga hurmat, ona tabiatga mehr va shu kabi axloqiy hislari asosida shakllanadi.

Maktabda bolalarni estetik tomondan tarbiyalash bo'yicha izchil ish olib boriladi. Bolalar musiqa va ashula darslarida musiqa asbob-anjomlari bilan tanishadilar, ashula aytadilar, marsh sadolari ostida yuradilar, o'yinga tushadi san'at darsida esa o'quvchilar chizmachilik va rasm solishni, naqqoshlik rangtasvir, manzarali-amaliy san'at natyurmortni, portretni bir-biridan farqlashni o'rganadilar. O'qish darsida bolalar adabiy janrlar bilan tanishtiriladi. Amaliy mashg'ulotlarda ularning badiiy, ijodiy qobiliyatları yanada rivojlantiriladi. Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalash, mehnat ahliga ijobiy munosabat, mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish ishlari ham maktabda o'rnatilib boriladi.

Maktab bilan MTM o'rtasidagi mehnat tarbiyasi bo'yicha uzviy bog'liqlik mehnat tarbiyasining mazmunini

murakkablashtirishga, uni ijtimoiy foydali tomonga qaratishga, bolalarning mehnatdagi mustaqilligi, o'z-o'zini tashkil eta bilishga, axloqiy munosabatlarning ongli tus olishiga olib keladi. Mehnat faoliyati yanada tarkib topa boradi. Maktabdagi hamma o'quv-tarbiyaviy jarayonlar bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni rivojlantirish bo'yicha izchillik asosida olib boriladi.

Maktab bilan MTM o'rtasidagi uzviy aloqa asosini MTM va mактабда amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar o'rtasidagi bog'liqlik tashkil etadi.

Hozirgi boshlang'ich sinflar dasturi bilan MTM dasturini olib solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida bir qancha o'zaro bog'liqlarni ko'ramiz. Bu, eng avvalo, dasturlarda asos qilib olingan prinsiplarning umumiyligi bilan belgilanadi. Ularning mazmuni bolalarni har tomonlama tarbiyalash maqsad va vazifalariga mos kelish prinsipi, hayot bilan borliq, ilmiylik prinsiplari, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatga egaligi va falsafiy, ruhiy nuqtayi nazarlarning birligida namoyon bo'ladi.

Birinchi sinf o'quv dasturi ayrim predmetlar bo'yicha MTM dasturi bilan solishtirilganda ularda umumiylilik ko'pligini ko'ramiz. Masalan, MTMdA ona tiliga o'rgatish va boshlang'ich sinflardagi ona tili darsiga bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirish kabi umumiy g'oya asos qilib olinadi.

MTMdA bu ish bolalarning lug'atini boyitish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ifodali o'qishga o'rgatish, bog'langan nutqni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Maktabda esa bolalarda mana shu MTMdA egallagan bilim, malaka, tushunchalarga asoslanib, yozma nutq malakasi, orfografik xat malakasi shakllantiriladi, ularga morfologiya va sintaksis elementlari o'rgatiladi. Shu bilan bir qatorda MTMdA boshlangan bolalar lug'atini boyitish, nutqning ifodaliligi, bog'langan nutqni rivojlantirish davom ettiriladi.

MTMda ham, mактабда ham tabiatshunoslik to'g'risidagi bilimlar organizm bilan muhitning birligi to'g'risidagi umumiy g'oyaga asoslangan holda olib boriladi. Shu asosda bolalarga jonli va jonsiz tabiat, tabiat va kishilar o'rtaсидаги bog'liqlik to'g'risida bilim va tushunchalar beriladi.

Bunda dasturlar mazmunida birlik o'rnatishda maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar bilan maktab yoshidagi bolalarning yoshlari, bilimlaridagi farq xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilim va tushunchalar mazmunini tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlar va ayrim oddiy tushunchalar tashkil etadi.

Bunday tasavvur va tushunchalarning bolalar tomonidan egallab olinishi, ya'ni bolalarda har xil sohalar bo'yicha o'zlashtirgan umumiy tasavvurlar sistemasi ularning kelajakda umumiy rivojlanishi uchun nihoyatda zarur bo'lib, bularsiz ular hozirgi zamon boshlang'ich sinf ta'lifidagi kerakli bilimlarni egallay olmaydilar.

Maktabda esa o'quvchilarning bilimi yangi bosqichga ko'tariladi va kengayadi, shu bilan birga ular egallayotgan bilimlarini nazariy jihatdan anglay boshlaydilar, ilmiy tushunchalarni shakllantirish maktabda olib boriladigan ta'lif-tarbiyaviy ishning markaziga qo'yiladi. Maktabda bilimlar asosini egallash yanada aniqroq tusga kira boradi.

MTM bilan maktab o'rtaсидаги izchillik ta'lifning shakl va uslublarida ham o'z aksini topadi.

Ta'lif berish uslublaridagi izchillikning muhim sharti bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni ongli egallab olishlariga erishish, bog'chada va maktabda ularning aqliy qobiliyatlarini va ijodiy faoliyklarini o'stirishdir. MTM va maktabning boshlang'ich sinfida qo'llaniladigan juda ko'p usullar bir xil bo'lib, ular bolalarning aqliy, axloqiy-irodaviy rivojlanishlarini yaxshilashga qaratilgan, shu bilan birga ularning yangi mazmundagi bilimlarni egallashga, amaliy

faoliyatga, bilishga qiziqishini oshirib, o'qituvchi bilan dars jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning murakkabroq shakllarini egallab olishlariga yordam beradi.

Tarbiyachining mashg'ulotlar jarayonida bolalarning amaliy faoliyatlariga, bilish jarayoniga bunday rahbarlik qilishi maktab va MTM o'rtasidagi ta'limg usulidagi izchillikning asosini tashkil etadi.

Maktabdagi dars, MTMdagi mashg'ulot bir muncha o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bilan birga ta'limg tashkiliy asosda olib borilishida esa umumiyliz sezilib turadi. Mashg'ulot va darslarning mazmuni aniq dastur asosida olib borilishi, aniq belgilangan vaqt ajratilishi, pedagogning rahbarlik roli, ta'limg ilmiy asoslangan metod va usullaridan foydalanish, ta'limg berish jarayonida bolalarda o'quv faoliyati elementlari, o'z xulqini ixtiyoriy boshqarish qobiliyati, ma'lum maqsadga qaratilgan aqliy ish bilan shug'ullanish qobiliyati tarbiyalab boriladi. Bular hammasi bolani maktab ta'limga faol kirishib ketishga tayyorlaydi.

Maktab va maktabgacha ta'limg muassassi ishidagi izchillikni amaliy ro'yobga chiqarishning muhim shartlaridan biri tayyorlov guruh tarbiyachilar hamda 1-sinf o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni o'rnatishdir.

Bu aloqalarning ahamiyati keyingiyillarda Respublikamizda qabul qilingan ta'limg sohasidagi tub islohotlarda o'z aksini topgan. Hozirgi davrning o'ziga xos xususiyati maktabgacha ta'limg muassasasi va maktab bilan ommaviy yaqinlashuvi, pedagoglar jamoasining samarali hamkorliklari hisoblanadi.

Hamkorlikning asosiy vazifasi – bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda yakdillikka erishish, bolani maktab ta'limga tayyorlashning yuqori darajasini ta'minlash bo'lib, bu keyinchalik maktabda muvaffaqiyatli o'qishga olib keladi.

Hamkorlikning mazmuni hamda shakllari shu vazifalardan kelib chiqib aniqlanadi.

Bunda hamkorlikdagi uch asosiy jihat:

1. Axborot – innovatsion, pedagogik.

2. Ilmiy – uslubiy.

3. Amaliy.

I. Birinchi jihatda - o'qituvchining tayyorlov guruh dastur talablarini chuqur bilishi, shu o'rinda tayyorlov guruhi tarbiyachilarning ham 1-sinf dastur mazmuni bilan tanishishi, mashg'ulotda va dars jarayonida axborot, pedagogik va interfaol usullardan foydalanish darajasi, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda birlikka erishish muhimdir.

Maktabgacha ta'lif muassasasi bilan maktab aloqasining asosiy shakllari;

- o'qituvchi va tarbiyachilarning izchilligi;

- pedagogik kengash, seminar va ochiq dars mashg'ulotlarga qatnashishi;

- o'zaro fikr almashishi;

- ta'lif sohasidagi yangiliklarni ish jarayoniga maqsadli qo'llash.

II. Ilmiy-uslubiy jihatdan hamkorlikda:

- Ilg'or ish tajribalar bilan o'rtoqlashish;

- 1-sinfda o'tiladigan fanlar va mashg'ulotlar o'rtasidagi izchillikni ta'minlash;

- Ta'lifni ilmiylik prinsipida tashkil etish.

- Ta'lif – tarbiyaviy jarayonlarni uslubiy jihatdan ta'minlashga erishish;

III. Hamkorlikning amaliy jahati:

- 1-sinf o'qituvchisining bo'lajak o'quvchilari bilan oldindan tanishivi;

- Tarbiyachilarning 1-sinf o'quvchilarining dars jarayonidagi ishtiroki va nazorati;

- Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonlarda bolalar faoliyatini kuzatish va suhbatlashish;

- Tarbiyachi tomondan har bir bola uchun tavsifnomalar tayyorlash.

Bolalar maktabga kelgan dastlabki hafta – oy mobaynida tarbiyachilar bolalarni maktabga moslashuvini, fanlarni

o'zlashtirishga ulgura olishlarini kuzatishi, bolalarni xulq – atvor va faoliyatlarini kuzatadi, o'quvchilar bilan suhbatlashadi, orqada qolayotgan o'quvchilarning o'qishdagi kamchiliklari ularni bartaraf qilish choralarini o'qituvchi bilan birgalikda hal etadi. Tarbiyachi o'qituvchilarning hamkorlikdagi kengashlarida – bolalarni maktabga tayyorlashning aniq natijalari tahlil qilinadi, ishning kuchli va zaif tamonlari aniqlanadi, kamchiliklarni bartaraf qilishning aniq yo'llari belgilanadi.

Hamkorlikning eng yaxshi tajribalari tuman, shahar va respublika anjumanlarida yoritiladi, amaliyotga joriy etiladi.

### **Hamkorlikning muhim shartlari.**

- Maktab va maktabgacha ta'lif muassasi aloqalarining davomiyligi;
- Hamkorlikdagi ishlarning rejalligi, muntazamliligi;
- Muammolarning yaxlit dinamik jihatdan hal etilishiga rioya qilish.

**Hamkorlik asosini** - birgalikdagi ishning istiqbol rejasitashkil etib, unda maqsad asosiy vazifalar aniq shakllantirilgan, turli yo'nalishlarga doir mazmun aniqlangan, ishning aniq shakli, muddatlari, bajarilishi uchun mas'ul shaxslar ko'rsatiladi. Bu esa amaliy hamkorlikning muvaffaqiyatiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hamkorlikdagi izchillikni ro'yobga chiqarishga doir har tomonlama mazmunli ishlarni yuqori darajasiga erishish bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlariga zamin hozirlaydi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasasi bilan maktab aloqasining shakllari**

Maktabgacha ta'lif muassasasi va maktab o'rta sidagi aloqa ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. Maktabgacha ta'lif muassasasi bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rta sidagi aloqa.

**2. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-birlariga yaqinlashtirish.**

Tarbiyachilar boshlang'ich sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni, o'ziga xos tomonlari bilan tanishadilar, natijada MTMda bolani maktab talabi darajasida tayyorlash istiqbollari belgilab olinadi.

Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari katta va tayyorlov guruhlari olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta'lim berishda bolalar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslanadilar.

MTM bilan maktab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun MTM va maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni chuqur tahlil qilib, bu sohada yuqori natijalarga erishishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari yuqoridagi vazifalarga qarab belgilanadi.

MTM bilan maktab pedagogik tashviqot, metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-biri bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari MTM maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisining va birinchi sinf o'qituvchisini MTMning maktabga tayyorlov guruhidava birinchi sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, maktabga tayyorlov guruhi va 1 sinf dasturi mazmunini, tayyorlov guruhi bolalari va maktabdagi 1 sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Mana shunday usulda ish olib borilganda o'qituvchi va tarbiyachilar maktabni 1 sinf va MTMni tayyorlov guruhidagi bolalarga xos bo'lgan yosh xususiyatlarini, ularning ruhiy tabiatini, aqliy va ijtimoiy

rivojlantirishlarini tushunib, ularni maktabga tayyorlov masalalarini yaxshiroq anglab olishlarida yordam beradi.

Bu maqsadni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'ttasida quyidagicha konkret aloqa shakllari o'rnatiladi: o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni maktabga tayyorlash va uzviylik masalalari bo'yicha, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha birgalikda o'tkaziladigan tadbirlarning mosligini muhokama qilish uchun seminar, pedagogik kengashlarda qatnashish, shuningdek, bolalarning yosh xususiyatlarini, ularning MTMdan maktabga o'tishlaridagi ruhiy qiyinchiliklar, maktab sharoitiga qynalmay moslashishlariga yordam beruvchi omillar bo'yicha tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan leksiyalar orqali tajriba almashuv va boshqalar kiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'ttasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi MTMning tayyorlov guruhida va maktabning 1 sinfida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradigan faoliyat shakllari va usullari bilan o'zaro tanishishni taqozo etadi.

Bu masalada MTMning tayyorlov guruhi tarbiyachilari maktabning 1 sinfida olib borilayotgan darslarni kuzatadilar va dars, mashg'ulotlardan keyin birgalikda yig'ilishib uni muhokama qiladilar, ayrim metodikalar bo'yicha seminar - praktikumlarda qatnashadilar: ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha yoki 1 sinfda bolalarga bilim berish bo'yicha pedagogik kengashlarni o'tkazadilar. Yuqorida keltirilgan hamma ish shakllari va mazmunini amalga oshirishdan asosiy maqsad ilgari surilayotgan masalani har tomonlama tahlil qilish, uni hal etishda uchraydigan kamchiliklarni aniqlash, bolalar bog'chasi va maktabda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarni yanada takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiya va takliflarni ishlab chiqishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'ttasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomonдан,

o'qituvchi MTMning tayyorlov guruhiga borib o'zining bo'lajak o'qituvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilari birinchi sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar. Bolaarni maktabga kuzatishda har bir bolaga aniq tavsifnomada beriladi.

Bu tavsifnomada tarbiyachi har bir bolaning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib beradi, bu o'qituvchiga bola bilan munosabatda bo'lganda pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri yondashishda yordam beradi. Tarbiyachi ham o'z navbatida 1 sinfga borgan bolalari bilan izchil ravishda aloqa bog'lab boradi, darslarda bevosita qatnashib qanday o'qiyotganlari, xulqi, o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklari sababini o'qituvchidan so'rash orqali ham aniqlab boradi. Bular hammasi tarbiyachini bolalar bilan olib borgan ta'lim tarbiyaviy ishidagi yutuq va kamchiliklarni bilib olishga imkon yaratadi.

Tarbiyachi va o'qituvchilar ilg'or tajribalarni tarqatish, tashviqot, targ'ibot qilish maqsadida shahar, rayon konferensiyalarida qatnashib fikr almashadilar.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim. MTM bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalgalashish, u uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi, amalgalashish, hal etiladigan masalalar rejali tusda bo'lishi zarur.

Hamkorlik asosini birgalikda ishslash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasini tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqt, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim.

Maktab bilan MTM yil davomida mana shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi.

Bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil: maktabga ekskursiya uyuştirish, mакtab muzeyiga, sinf xonasiga, kutubxona, ustaxonaga borish,

birgalikdagi mashg'ulotlar, bayram ertaliklari, musiqa-badiiy kechalar o'tkazish, rasmlar hamda loy plastilindan yasalgan o'yinchoqlar ko'rgazmasini tashkil etish va boshqalardir.

Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirib borilsa, birgalikdagi ishlar bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu esa bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda, ularning maktabda qiyalmay o'qib ketishlarida yaxshi samara beradi.

### **Tayyorlov guruhi bolalarini maktabda o'qishga tayyorlash**

Bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash hozirgi maktabgacha ta'limga muassasalaridagi ta'limga tarbiya jarayonining butun sistemasi orqali amalga oshiriladi. Tayyorlov guruhi bolalarini maktabda o'qishga tayyorlash muhim o'rinni egallaydi. U maktabgacha bolalikni yakunlaydi va maktabda o'qishga o'tuvchi bosqich hisoblanadi. Ayni shu davrda bolalar xulq-atvori, faoliyatida ularning aqliy, ma'naviy-irodaviy va ko'tarinki sohalariga aloqador keyingi o'qitishlar uchun muhim bo'lgan xususiyatlar faol shakllanib boradi.

Tayyorlov guruhi tarbiyachisining asosiy e'tibori barcha bolalarning maktabgacha ta'limga dasturida nazarda tutilgan mazmunni to'liq egallab olishlariga qaratiladi, chunki bu maktab ta'limga to'laqonli tayyorlashning majburiy sharti hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalaridan kelib chiquvchi katta guruhlardagi pedagogik jarayon o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslik maktabning ta'limga tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirishgina emas, balki bolalarning ularda maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni og'ishmay shakllantirishga yo'llangan faoliyat va xulq-atvorlarini maxsus tashkil etilishidadir.

Tayyorlov guruhiga kelganda bolaning har xil faoliyatlarida: o'z-o'ziga xizmat qilishda, navbatchilikda, tabiat qo'ynidagi mehnatida mustaqil namoyon bo'la boshlaydi. Boladagi

mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida ularning hamma faoliyatlarida shakllantirilib boriladi.

Jismoniy tarbiya dasturini bajarish umumiyl vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, bolalarda ertalabki badantarbiya va jismoniy mashg'ulotlarni bajonidil bajarish, o'z harakatlarini takomillashtirishga xohish tarbiyalanadi. Shuning uchun bolaning jismoniy, aqliy faolligini va ish qobiliyatini o'stiruvchi harakat faolligini rivojlantirish kerak.

Bu guruhdagi bolalarni jismoniy mashqlarning sport turiga (suzish va shunga o'xshash) jalg qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalarning asosiy harakatini o'stiruvchi, jamoatchilikni, javobgarlik his etishni, chidamlilikni, mustaqillikni, uyushqoqlikni tarbiyalovchi harakatli o'yinlar kun tartibidagi katta o'rinn egallaydi. Harakatli o'yinlarni boshqa mashqlar bilan almashtirib borish hamma harakatlarni rivojlantirishning asosiy shartidir.

To'g'ri tashkil etilgan sayr bolalarning jismoniy rivojlanishi muhim o'rinn tutadi.

Tarbiyachi bolalarning normal uxmlashi va ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha g'amxo'rlik qilib boradi.

Ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyati hozirgi zamон ta'limiga xos prinsipdir. Bu bolalardagi bilimga qiziqish va bilish jarayonlarini rivojlantiradi. Buning uchun bolalarga beriladigan bilim, malaka, ko'nigmalar ma'lum izchillik bilan takomillashtirilib boriladi. Natijada bolalar kattalarning ko'rsatmasi va namunasi bo'yicha ish-harakatlarni bajarishga, oldin egallagan bilimlarini yangi faoliyatda qo'llashga, o'zining xulqi, ishi, xatti-harakatini nazorat qilish va to'g'ri baholashga o'rganib boradilar.

Bolalarda topshiriqqa ongli munosabat shakllanadi. Tarbiyachining tushuntirish va ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, o'z ishida yaxshi natijaga intilishi, ma'lum tezlik va izchillikda diqqat bilan ishlash malakasi shakllanadi, ish qobiliyati ortadi.

Tarbiyachi mashg'ulot paytida har bir bolaning diqqati, tafakkuri, xotirasi, bilim va malaka darajasidagi o'ziga xos xususiyatlarni e'tiborga oladi.

Ta'lim jarayoniga alohida yondashish aqliy vazifalarni, ularni bajarish usullarini murakkablashtirib borishni sekin-asta amalga oshirishni taqozo etadi. Masalan, bola biror narsani o'zicha hikoya qilib bera olmasa, tarbiyachi unga mavzuga doir reja beradi, keyinchalik ishni mustaqil bajarishni topshiradi. Alohida yondoshish orqali tortinchoq, sust bolalar faollashtirib boriladi, materialni yaxshi o'zlashtiradigan bolalarga topshiriq murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida qo'shllaniladigan metodlarning o'ziga xos tomoni bor. Ko'rgazmali metodlar bu yerda faqat harakat usulida ishlatilmay, shu bilan birga bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, manzarali rasm chizish mashg'ulotida namunani ko'rsatishdan mashg'ulotning boshida xotirani, xayol obrazini jonlantirish uchun foydalaniladi, mashg'ulotning oxirida esa o'zining bajargan ishini, rasmni to'g'ri bajarganini tekshirish uchun namuna bilan taqqoslab ko'rish maqsadida foydalaniladi.

Rivojlantiruvchi ta'lif prinsipini amalga oshirishda tarbiyachining bolalar faoliyatiga rahbarlik va uni to'g'ri baholab borishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bunda faqat ishning natijasigina baholanmay, balki bu ishni bajarishda bolalarning aqliy faoliyati, mustaqilligi, ishtiyoy bilan, jon-dildan harakat qilganliliklari ham e'tiborga

olinadi. Tarbiyachining bolalar ishini baholashga pedagogik nazokat bilan yondashishi natijasida ular o'zlarining yutuq va kamchiliklarini tushunib oladilar va kelgusida yaxshiroq natijalarga erishish uchun harakat qiladilar.

Bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda tahlil qilish: solishtirish, taqqoslash, nazorat qilib borish o'quv faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan malakalarni shakllantiradi. Tarbiyachi bolalarni bajarilgan ishlarni tahlil qilishga o'rgatar ekan, avvalo, o'zi namuna beradi, keyin reja tuzib beradi va shundan keyin bolalar o'zlari va o'rtoqlarining ishini mustaqil tahlil qilib, uni baholaydigan bo'lib qoladilar. Bolalardagi o'z-o'zini tekshirish malakasini tarbiyalash uchun tarbiyachi bolalarga o'rtog'i ishni qanday bajarganligini gapirib berishni taklif etadi va yo'l-yo'lakay "Sen uning ishni qanday bajarganini qayerdan bilib olding?", "Nima uchun shunday deb o'ylaysan?" kabi savollarni berib boradi.

Maktabga tayyorlov guruhida bolalarning mashg'ulotda uyushqoqlik bilan shug'ullanishlariga talab ortadi. Bolalarning ish joyini tayyorlab olish, kerakli materiallarni to'g'ri joylashtirish, ishni ma'lum ketma-ketlik bilan bajarish kabi malakalarni egallab olishlari aqliy mehnat malakasini shakllantiradi. Shuning uchun bolalarni bo'lajak faoliyat uchun zarur bo'ladigan ana shu ishlarga o'rgatib boriladi.

Bolalarni mashg'ulotlardagi xulqiga ham talab ortadi. To'g'ri o'tirish, o'zini batartib tutish, diqqat bilan quloq solish, boshqalarning gapini bo'lmaslik, o'rtoqlarining javobini to'ldirish va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Bu yoshdagagi bolalarga axloqiy va mehnat tarbiyasi berish dasturi murakkablashadi; o'z tengdoshlari va kattalar bilan munosabati shakllantiriladi, insoniy hislarni tarbiyalash kuchaytiriladi. Xulq normalari qoidalarini egallab olishlariga, kundalik hayotda uchrab turadigan odob, axloq doirasidagi vazifalarni hal qilishga e'tibor beriladi.

Bolalarni mакtab va o'quvchilar hayoti bilan tanishtirish. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va MTMning tayyorlov guruhi

tarbiyasi tayyorlov guruhi bolalarini mактаб bilan tanishadirish bo'yicha ekskursiya uyushtiradilar. Bunday ekskursiyalar yil davomida 3 marta o'tkazilishi mumkin. Ekskursiya paytida katta va tayyorlov guruhi bolalari mактаб o'quvchilari bilan tanishadirilar, ular MTM bolalariga o'zlarining mактабдаги o'qishlari, ishlari to'g'risida gapirib beradilar; o'quvchilar xonasini qanday bezaganliklari, tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilayotganliklari, ustaxonada qanday ishlarni bajarayotganliklarini ko'rsatadilar.

Bolalarni mактаб va o'quvchilar hayoti bilan tanishadirishning ish shakllari:

- sinfd "Rasmga qarab so'zlab berish" mavzusidagi dars - mashg'ulotni birga o'tkazish;
- sport maydonchasida yoki sport zalida mактабдаги jismoniy tarbiya mashg'ulotini birga bajarish;
- birinchi sinf o'quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari ishlagan rasmlarning birgalikdagi ko'rgazmasini tashkil etish;
- mактаб ustaxonasida o'quvchilarning mehnat mashg'u-lotini kuzatish. O'quvchilar o'zlari tayyorlagan o'yinchoqlarni bog'cha bolalariga sovg'a qilishadi;
- mактабда o'qiyotgan bolalar o'z bog'chasiga kelishadi;
- "Maktab" o'yinini tashkil etish.

Maktabgacha ta'limga muassasasi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatida izchillik yaqqol namoyon bo'ladi. Biri bolalarni tarbiyalash va ta'limga berishni boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi. Maktab bilan MTM o'rtasidagi aloqa mustahkam bo'lgandagina bola tarbiyasidan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

### **Maktabgacha yoshdagи bolalarni mактаб ta'limga tayyorlashning shakl va usullari**

Maktabgacha ta'limga tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha yoshdagи bolalarga ta'limga berishning

shakl va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratadi. Ta'lim sohasidagi asosiy natija bola tomonidan bilimlarni qay darajada o'zlashtirib olinganligi uning rivojlanishiga, shaxsda integrativ xislatlarning shakllanishga qanchalik xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagog tomonidan tanlab olingen ta'lim uslublari intellektual jarayonlarning shakllanishiga muammolar yechimiga ijodiy yondashishga, tashabbuskorlikka, mustaqillikka va mas'uliyatga, o'z faoliyatini boshqara olishga o'rgatishi lozim.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- Bolaga yo'naltirilgan ta'limiy yondashuv;
- Pedagogning ilmiy-pedagogik-psixologik strategiyasi;
- Rivojlantiruvchi yondashuv;
- Ta'limning rivojlantiruvchi muhiti;
- O'yin faoliyati;
- Inklyuziv ta'lim;
- Pedagogik diagnostika ta'limi;
- Ota-onalar bilan hamkorlikning istiqbolli shakllari.

**I.** Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishning asosi sifatida shaxsning jamoa oldidagi ustuvorlikni nazarda tutgan holda unda insonparvarlik munosabatlarining shakllantirilishini taqozo etadi. Bunda bola o'zini shaxs sifatida his etadi, boshqa kishilarda shaxsga xos xislatlarni ko'rishni (kattalarda va atrofdagilarda) o'rganadi. Har bir bola imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish esa pedagogning qadriyatlar yo'nalishlari xatti-harakatida namoyon bo'ladijan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga munosabati, mo'ljallar tizimi, xohish-istiklari bilan belgilanadi.

**II.** Bolaga yo'naltirilgan ta'limiy yondashuv bu bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyatları, qiziqishlari, talab-ehtiyojlari, uning ta'lim maqsadlariga erishish uchun yordam beradigan

maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgunga qadar to'plangan tajribasi e'tiborga olingan ta'lim shaklidir.

Bunda:

- Ta'lim jarayoni bolaning eng odatiy tarzda rivojlanishi va ta'lim olishiga doir bilimlarga asoslanishi lozim;
- Ta'lim muvaffaqiyatli pedagog tomonidan bolani rivojlantirish va o'qitish uchun va yo'l-yo'riqlariga oid bilimlarni qay darajada egallaganiga bog'liq;
- Pedagogning asosiy vazifasi bolaning rivojlanishiga ko'maklashishidir;
- Maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyati – bolaning qadrini tushunish va vaqtidan oldin ulg'ayishiga undamaslik.

### **Pedagogdan quyidagilar talab etiladi:**

- Bolalar qanday bo'lsa shunday qabul qilish;
- Bolaning o'z maqsadiga erishishiga yordam berish;
- Bolalarning qanday qobiliyatga ega ekani va o'z guruhida qanday ta'lim olayotganini bilish tarbiyachi ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish uchun boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi;
- Agar pedagog barcha bolalarga bir xiltarzda yondashadigan bo'lsa, ular muvaffaqiyatga erisha olmaydi;
- Pedagog bolalar faoliyatining barcha yo'naliishlari turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishini muntazam kuzatib borish, ularning qobiliyati, qiziqishlari talab-istiklari haqida bilishga intilishi kerak;
- Pedagog ana shu ma'lumotlarga tayangan holda bola rivojlanishida ijobjiy o'zgarishlarga erishishi uchun shu faoliyatini rejalashtiradi va qo'llayotgan usullarini ta'lim jarayoniga moslashtiradi;
- Materiallar va mashg'ulotlar bolalar biladigan va qilishni o'rgangan narsalargagina emas, balki yangi ko'nikma va tushunchalar hosil qilish uchun ulardan muayyan harakat, intilish talab qiladigan mashg'ulotlarga asoslangan ta'limgina kutilgan muvaffaqiyatni keltiradi;

- Ta'lim maqsadlari bolalarni ushbu yoshdan guruhi uchun tushunarli va amalga oshirishi mumkin bo'lishi kerak. Yangi ko'nikmalarni amaliyotda takomillashtirish uchun bolalarga keng imkoniyatlar vujudga keltirilishi zarur.

### **Ta'lim maqsadlariga erishish uchun bolalarga beriladi-gan yordam.**

- Odatda bolalar yangi, masalan, zinapoyadan zinalarni sanash va shunga o'xhash ko'nikmalarni o'z tashabbusi bilan amaliyotda mustahkamlaydi;

- Yangi ko'nikma mukammallik darajasiga yetkazilishi bilan, ta'limni davom ettirish uchun bolalarga yangi vazifa kerak. Ammo bu vazifalar ham amalga oshirilishi mumkin bo'lishi, bola uni uddalay olishi zarur.

### **Bolaga yo'naltirilgan yondashuv.**

- Pedagoglar ayni paytda ijobiy o'zgarishlar darajasini belgilayotganda va navbatdagi qadamlarni rejalashtirilayotganda dasturning maqsadini xayoldan chiqarmaydi;

- Maqsadlarga qay darajada erishish mumkinligi bolasning individual rivojlanishining avvalgi tajribasi, bilimi va ko'nikmalari hamda ta'lim qanday sharoitda olib borilayotganligiga ham bog'liqdir.

### **Pedagog tomonidan qabul qilinadigan qarorlar.**

- Pedagog har kuni ko'plab qarorlar qabul qiladi, bu bevosita ta'lim-tarbiyaviy jarayonga bog'liq bo'ladi.

- Boshqa qarorlar - bu pedagog tomonidan o'qitish muhiti, materiallarni joylashtirish, bolalarni kichik guruhlarga ajratishga doir qarorlar;

- Har bir vaziyatda qabul qilinayotgan qaror jiddiy o'rganish va rejalashtirish natijasi bo'lishi shart.

Pedagoglar tomonidan ma'lumot asosida **qaror qabul qilish** – bu qabul qilinayotgan katta va kichik qarorlarning

barchasi pedagogning kuzatuvlari asosida qabul qilinishi lozim (bolalarni kuzatish va ularning ota-onalari bilan suhbat natijasida tarbiyachi har bir bolaning kuchi va zaif tomoni hamda uning qiziqishlari haqida bilib oladi).

**Bolaga ta'lif berish bo'yicha quyidagi uch omil mavjud:**

1. Bolaning ushbu yosh guruhiga oid ma'lum bo'lgan bilimlarni e'tiborga olish;
2. Har bir bolaning shaxsiga oid ma'lumotlarni e'tiborga olish;
3. Bolalarni qurshab turgan ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar haqidagi ma'lumotlarni e'tiborga olish.

Bolaning uydagi va o'zini jamoادаги hayotini takomillashtirishdagi qadriyatlar, orzu-umidlar, xatti-harakat va xususiyatlarini o'rganish pedagogga bolalar uchun muayyan mazmun kasb etadigan, ularni madaniyatga mos keladigan, bolalar va ularning oilasiga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga yordam beradigan ta'lif muhiti va mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

**III. Rivojlantiruvchi yondashuv** - bolaning tabiiy ravishda ulg'ayishining muhimligini baholash va tahlil etish imkoniyatini yaratadigan rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv.

Bu yondashuvga muvofiq bolalar:

- O'yin jarayonida atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirib, faol ta'lif oladi;
- Rivojlanishning qonuniy bosqichlarini bosib o'tadi;
- Hissiy va kognitiv (aqliy) rivojlanishi uchun ijtimoiy o'zaro munosabatlarga ehtiyoj sezadi.
- Har biri o'ziga xos sur'atda, betakror shaxs sifatida rivojlanadi.

**IV. Individuallashuv** - o'ta muhim masala, chunki yondashuv qay darajada individual bo'lsa, har bir bola shu

darajada mo'ljaldagi ta'lim natijalariga erishishning ehtimoli ortadi va shu tufayli dasturning amalga oshirilishi oson kechadi. Muayyan fan bilan bog'liq muammolar kamayadi, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar oshadi. Individuallashtirishning ta'lim jarayonini bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va talab-ehtiyojlari bilan moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda bolalarning bilim doirasi kengayib, o'ziga nisbatan hurmat oshadi. Ularda yanada murakkabroq masalalarni hal etishga tayyorgarlik hissi paydo bo'ladi. Pedagog o'zgaruvchan vazifalar va faoliyatning qiziqarli turlarini rejalahtirishni, bolalarni diqqat bilan kuzatishi, zarur hollarda material va vazifalarni almashtirishi va moslashtirishi lozim. Bolalarni kuzatish va ota-onalar bilan suhbat natijasida pedagoglar har bir bolaning kuchi va zaif jihatlari va qiziqishlarini o'rganadi.

**Pedagogik strategiya** – bu bolalarni qo'yilgan maqsadlarga erishishiga yordam beradigan pedagog qo'llaydigan muayyan uslublar yig'indisidir. Uning asosini bolaning qiziqishlari, uning kuchli va zaif jihatlari, ta'lim uslubi, yosh xususiyatlari va shaxsiy sifatlarni e'tiborga olish tashkil etadi.

**V. Ta'limning rivojlantiruvchi muhiti** – bu faoliyning turli shakllaridan iborat ta'lim jarayonini amalga oshirish funksionallik, jihozlarning yetarligi, ko'p darajaliligi (rivojlanishi turlicha bo'lgan bolalarning o'z maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan) va funksionalligi (bolalarni faoliyatning turli shakllariga jalg etilishini ta'minlaydigan) bir-biridan ajralib turadigan rivojlantiruvchi oqilona muhitni tashkil etishni talab etadi. Bu tayyorlov guruhi bolalarning mazmunli, mustaqil faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega.

#### **Guruhi xonasida:**

- Bolalarning qiziqishlari bo'yicha erkin mustaqil faoliyat uchun joy ajratiladi;
- Stullar bilan ajratilgan syujetli o'yinlar, sinov va tajriba, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar va didaktik mashg'ulot, qo'l mehnati va tasviriy faoliyat uchun joy;

- Kitob burchagi (rasmli albomlar, jurnallar);
- O'zbekiston xaritasi, globusi, rasmlar stendi;
- Harakatlanadigan ikki tomonlama doska (bolalar bo'yini baravar o'rnatilishi lozim).

Yaratiladigan bu muhit bolada mustaqil tanlay olish ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlaydi.

Har bir guruh xonalari bir necha markazga bo'linib, o'yin va o'rganish, sinov va tajriba, tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro aloqalari uchun yetarli darajada material mavjud bo'ladi.

Turli guruhlarda markazlar to'plami bolalarning yoshi, qiziqishlari, ehtiyojlariga ko'ra o'zgacha bo'lishi, vaqt o'tishi bilan boshqasiga aylantirilishi mumkin. Maktabga tayyorlov guruhlariда kamida 5 ta turli faoliyat markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, muzey, istirohat bog'i, tarixiy joylarga sayohat uyuştirilishi kerak. Shuni unutmaslik kerakki, maktabgacha ta'lim muassasasi hududini ham talab darajasida jihozlash ham rivojlantiruvchi muhit sifatida ijobjiy ta'sirni yanada oshiradi.

**VI. O'yin faoliyati.** Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning asosiy faoliyat turi hisoblangan o'yin jarayoni bolani shaxs sifatida to'liq shakllanishida yetakchilik qiladi. Bunda dastur asosida o'ynaladigan syujetli-rolli, didaktik, stol bosma, sport, ko'ngil ochish, o'zbek xalqining milliy, ertak o'yinlaridan foydalaniladi. Bola tarbiyasida o'yin texnologiyalari (L.S.Vigotskiy, G.K.Selevko) kayfiyatni ko'taruvchi, hamkorlik, o'zini namoyon etuvchi, millatlararo o'yin turlari, interfaol o'yinlardan foydalanish maqsad qilib olinadi.

## **VII. Inklyuziv ta'lim tamoyillari.**

**Inklyuziv ta'lim** - ta'lim-tarbiyaning mutlaqo yangi tizimi. Bu hol pedagog tomonidan ta'lim jarayonini tashkil etishda har bir bolalning fiziologik va ruhiy rivojlanishi, ayniqsa, o'ziga xos bolalarninig individual xususiyatlarini e'tiborga olishni

anglatadi. Bu jarayonda bolalarning zaif toifasiga alohida e'tibor talab etiladi. Jamoada bolalar bir-biri bilan o'zaro aloqa bog'lashi, jinsi, irqi, millati, madaniyati, yili, e'tiqodi, yoshi, alohida talab-ehtiyojlari, oilaning tuzilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, boshqa kishilar bilan o'zaro do'stona munosabatlar o'rnatishga o'rganadi. Shu munosabat bilan aynan pedagog har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish huquqini ta'minlashi lozim degan g'oya ilgari surilib, bu quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Insonning qadr-qimmati uning qobiliyatni va erishilgan yutuqlari bilan belgilanmaydi;
- Har bir inson his etish va fikr yuritishga qodir;
- Har bir inson muloqot yuritishga va uning fikrlari e'tirof etilishiga haqlidir.
- Barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi;
- Chinakam ta'lif muayyan o'zaro munosabatlar doirasida amalga oshirilishi mumkin;
- Barcha insonlar qo'llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do'st bo'lishga ehtiyoj sezadi;
- Ta'lif olayotganlar uchun ijobiy yutuqlarga erishish qo'lidan kelmaydigan ishdan ko'ra, uddalay oladigan ishda ko'proq namoyon bo'ladi;
- Rang-baranglik inson hayotiga bog'liq;
- Bir-birimizdan farq qilishimiz va har birimiz individual shaxs ekanimizni tan olish;
- Rivojlantiruvchi dasturlarning individuallashuvini ta'minlash, ya'ni dasturning har bir bolaning birgalikdagi faoliyat doirasidagi talab-ehtiyojlari hamda maktabgacha ta'lif muassasasi va unda tashkil etilgan qisqa guruhlarning umumiy maqsadlarini e'tiborga olgan holda tuzish;
- Ta'lif-tarbiya jarayonida bolalarning o'kishini, ularning rivojlanishi va maktabgacha ta'lif muassasasi hayotida faol ishtirokni qo'llab-quvvatlash borasida qimmatli uslubiy tajriba to'plash;

- Birguruhga mos bo'lgan umumiyoq qurʼe rejasidan foydalana olish imkoniyatini yaratadigan taʼlimning differensiallashgan strategiyalariga tayanish;

- Maktabgacha taʼlim muassasasi va qisqa guruhlarda bolaning talab-ehtiyojlarga uzlusiz moslashuvini taʼminlash.

### **VIII. Taʼlim jarayonida differensiallashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuv.** Bu quyidagi yoʼnalishlar asosida:

Mashgʼulotlarda koʼrgazmali vositalardan (predmetlarni, namunalarni, harakat uskunalarini koʼrsatish) nutq usullaridan (savollar, koʼrsatmalar, izohlar) keng foydalaniladi. Bu yoshdagʼi bolalarning qabul qilish xususiyatlarini inobatga olgan holda oʼyin usul va uslublari, kutilmagan natijalar, pedagog himoyasi onda-sonda qoʼllaniladi.

- Ota-onalarning pedagogik jarayondagi ishtiroki darajasining oʼzgarishi quyidagicha amalga oshiriladi: ota-onalar bilan bir vaqtida maktabgacha taʼlim muassasasi mutaxassislari maʼrifiy ishlarni amalga oshiradi. Ularni qiziqtirayotgan barcha masalalar yuzasidan amaliy seminar, maslahatlar, yakkama-yakka suhabatlar olib boriladi;

- Taʼlim-tarbiya ishining tarkibiy qismi - bolalar rivojlanishini nazorat qilish va tahlil etish pedagogik-psixologik taʼsirning shaxsga yoʼnalganligini aniqlashda namoyon boʼлади;

- Har bir bolaning xatti-harakati va rivojlanishini kuzatish;

- Tarbiyaviy taʼsirga oʼz vaqtida oʼzgartirish kiritish haqida qaror qabul qilish.

### **IX. Pedagogik diagnostikani tashkil etish.** Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalar bilimini baholash va tahlil qilish maqsadida Maktabgacha taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlangan hamda Adliya vazirligi tomonidan qayd etilgan pedagogik diagnostika amalga oshiriladi.

“Diagnostika” yunoncha soʼz boʼlib, “bilish”, “aniqlash” maʼnosini anglatadi.

**Pedagogik diagnostika** - bu bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradigan mexanizm. Diagnostika pedagogga o'z faoliyatini to'g'ri amalga oshirayotganini tushunish imkonini beradi.

### **Diagnostika:**

- Individual ta'limgarayonini;
- Ta'limgarayonini to'g'ri belgilash;
- Tanlab olingan mezonlar asosida bolalar bilimini baholashda kamchliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Diagnostika muktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, o'quv yilining o'rtasida va oxirida amalga oshiriladi. Tarbiyachi-pedagoglar dasturning barcha bo'lim va yo'nalishlarida olib borilgan ishlarni muvaffaqiyatli bajarilishini baholaydi.

Muktabgacha ta'limga muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan musiqa xodimlari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, defektolog, psixolog va boshqa mutaxassislar o'z yo'nalishlari bo'yicha diagnostik tadqiqot olib boradilar. Diagnostika tavsiya etiladigan materiallar bola faoliyatini 3 ballik shkala bo'yicha umumiy baholash tizimini nazarda tutadi.

Dasturiy materiallarni o'zlashtirish 3 ballik tizim orqali aniqlanadi:

- 3 ball (Y) - faoliyat me'yorga mos keladi, ya'ni bunda bola topshiriqni mustaqil bajara oladi;
- 2 ball (O') - me'yordan biroz pastroq, bunda bola topshiriqni kattalarning biroz yordami bilan bajara oladi;
- 2 ball (P) - me'yordan sezilarli darajada past - bunda kattalarning qo'shimcha savol berganiga qaramasdan topshiriqni bajarishga qiynaladi.

Diagnostika natijalari bo'yicha xulosa chiqarishda ularni bolalar tomonidan dasturiy talablarni o'zlashtirish darajasi bilan bog'lash mumkin (yuqori, o'rtacha, past).

### **Shartli belgilari:**

**Y** - yuqori;

**O'** - o'rtacha daraja;

- P** – past daraja;
- 1** – yilning o'rtasida;
- 2** – yilning oxirida;
- D** – daraja.

Diagnostik tahlilni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun aksariyat hollarda bolalarning yakuniy mashg'ulotlari, jamoaviy (kichik guruhdagi) ishlaridan iborat tekshiruv topshiriqlari taqdim etiladi. Diagnostikaning bunday shakli pedagog vaqtini tejaydi. Dastur talablarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish tarbiyalanuvchilarни mashg'ulot va erkin faoliyati mobaynida kuzatish jarayonida amalga oshiriladi.

Olingen ma'lumotlar to'rtta yo'naliш bo'yicha jadvalga kiritiladi. Bunda guruhdagi har bir bolaning yutuqlari ifoda etiladi. Pedagoglar ta'lim-tarbiya jarayonini, bolalar bilan individual ishni yo'lga qo'yishda nimalarga e'tibor berish lozimligini ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Har bir bo'lim ma'lumotlar jadvaliga kiritib boriladi. Bu esa ushbu guruh bo'yicha Davlat talablari bajarilishining miqdor va sifat jihatdan tahlilidir.

Xulosa qilib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni baholash tizimi:

- Har bir bola rivojlanishining dinamikasini kuzatib borish;
- Ushbu ta'lim dasturining o'zlashtirish darajasi muvaffaqiyatliligini baholash;
- Har bir bola bilan ishslash istiqbollari va yo'naliшlarini belgilash imkoniyatini yaratadi.

Bunday diagnostiki bola rivojlanishini haqiqiy baholash, ta'limni rejalashtirish va pedagogning ta'limni amalga oshirishga tayyorlanish ma'lumot olish imkonini beradi. Natijalar ota-onalarning roziligi bilan ota-onalar qo'mitasi vakillari ishtirokida pedagogik kengashda muhokama etiladi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini taklif etiladi. Erishilgan natijalar bolalarning mакtab ta'limiga muvaffaqiyatli o'tishi uchun pedagog ishini rejalashtirishda qo'llanadi.

Pedagogik diagnostika maqsadlarni amalga oshirishda tarbiyachi tomonidan bolalarni kuzatish katta ahamiyatiga ega. Kuzatish – bolalar rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarni ularni tabiiy sharoitda (uyda, guruhda, ochiq maydonchada), kun davomida turli vaziyatda, butun yil davomida to'plangan ma'lumotlarni hujjatlashtirib borgan holda baholashning eng samarali va ishonchli usulidir. Pedagogning ishi ayni pedagogik kuzatuvdan boshlanishi zarur, chunki u bolani tushunishga, bolani tushunishdan esa – u va oila a'zolari bilan o'zaro aloqalarning strategiyasini tanlab olish imkonini yaratadi.

**Kuzatish** – bu bolaning ishlayotgan yoki o'ynayotgan paytida, uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jarayonidir. Pedagog bolani kuzatish orqali xatti-harakatining turi, bilim olish bo'yicha qiziqishlari, ko'nikmalar darajasi va rivojlanishdagi ijobiy o'zgarishlarni aniqlaydi.

**Hujjatlashtirish** – kuzatilayotgan jarayonlar natijasini qayd etishdan iborat.

**Qayd etish** – kuzatilayotgan faollikni hujjatlashtirish jarayoni bo'lib, aksariyat pedagoglar bu ishni tabiiy ravishda amalga oshirsa ham, bolalarni muntazam kuzatish to'liq ma'lumot to'plash imkoniyatini beradi.

### **Kuzatishdan ko'zlangan asosiy maqsad:**

- Har bir bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va ko'nikmalarini aniqlash uchun; Bugun bolalarni shaxs bilishni, ularda intiluvchanlik, rag'batlantirish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beradi;

- Vaqt o'tishi va ta'lif natijalariga ko'ra boladagi o'zgarish va rivojlanishni tushunish uchun, bunda bolalarning jismoniy rivojlanib va hissiy jihatdan, yil davomida nutqining rivojlanishini va savodga tayyorlanishini ko'rish imkoniyatini yaratadi;

- O'qitish muhitiga o'zgarishlar kiritish uchun - bunda bolalar uchun tayyorlangan joy va materiallardan ular qanday foydalananayotganligini kuzatib, mavjud materiallar bolalarning

ehtiyojiga javob berish-bermasligi, ko'pincha materiallarga zarurat bor-yo'qligi masalasiga javob topish mumkin;

- E'tibor talab qiladigan holatlarni aniqlash uchun bunda bolalarda qondirilishi zarur bo'lgan alohida ehtiyojlar bor yoki yo'qligini ko'rish imkoniyatini beradi. Bu eshitish, tayanch-harakat apparati va bola rivojlanishidagi boshqa jismoniy va ruhiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu kabi muammolar aniqlanishi bilan o'z vaqtida tegishli mutaxassislarga murojaat etish zarur.

Muammoviy vaziyatlarni mukammal tarzda hal etish usullarini aniqlash uchun – bu pedagogga muayyan vaziyatda boladan qanday xatti-harakat kutish mumkinligini aniqlash va shu orqali bolalarga o'z xatti-harakatini boshqarishni o'rganishga yordam beradi.

- Rejalashtirishga o'zgartirishlar kiritish uchun. Pedagog kuzatishi natijalaridan foydalanib, u yoki bu narsani o'zgartirishga ehtiyojini, bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda rejalahtirishga mos ravishda rejaga qanday o'zgartirishlar kiritish lozimligini aniqlaydi.

- Ota-onalar va maktabgacha ta'llim muassasalari mutaxassislari foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun. Kuzatish bolalarni, ularning qiziqishlari, yutuqlari, muloqot va o'zaro aloqa ko'nikmalarini, muammolarini alohida ehtiyojlarini tushunishni hamda xulosalarining asoslilagini tushunishga yordam beradi.

Pedagoglar ota-onalar bilan ishlash jarayonida oilaga bolalar, ularning kuchli va zaif tomonlari, alohida ehtiyojlari hamda ko'proq bilishga ko'maklashadi. Bu ma'lumot almashinuvi chinakam hamkorlik mehnatini yaratadi.

Pedagog kuzatish jarayonida quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Bolaning kuzatilayotgan harakatini to'liq-puxta hujjatlashtirish;

- Subyektiv talqin (pedagogning shaxsiy fikrlari, histuyg'ulariga yo'l qo'ymaslik;

- Bola tomonidan shaxsan bajarilgan ishni yoki aytilgan gapnigina xolisona kuzatish;
- Imkon boricha ko'proq ma'lumot to'plash, ular imkon darajasida sodda va tushunarli bo'lishi kerak.

### **Kuzatishning asosiy xususiyatlari:**

- Mohiyatan bola haqida ma'lumot to'plash va baholash – aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- Ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish muntazam amalgam shirilishi, doimiy xarakterga ega bo'lishi lozim;
- Kuzatish jarayonida to'plangan ma'lumotlar hujjatlashtirilishi va tahlil qilinishi zarur;
- Bola haqidagi bilimlarning asosini turli vaziyatlardagi kuzatish natijalari tashkil etilishi bolaning haqiqiy imkoniyatlarini bilish va tushunish, uning rivojlanish doirasini hamda uning ilgarilab borish yoki aksincha qiyinlashtiruvchi omillarni aniqlash imkonini beradi;
- Bola haqida ma'lumot to'plashda har tomonlama yondashuv, uning ayrim xislatlariga (ijobiy va salbiy bo'lisdan qat'iy nazar) sun'iy ravishda alohida urg'u berishga yo'l qo'ymaslik lozim;
- Bolaga xos xususiyatlar tahlilini uning eng yaxshi, kuchli jihatlaridan boshlamoq maqsadga muvofiqdir, chunki aynan shunday yondashuv bolani tushunishda va pedagog faoliyatida o'ziga xos tayanch sifatida xizmat qiladi;
- Kuzatish mezonlari (bola haqida ma'lumot to'plash yo'nalishlari) 5-7 yoshli bolaning ruhiy-jismoniy rivojlanishiga oid bilimlarga asoslanishi zarur.

### **Bolalar sog'lig'ining kundalik nazorati:**

Guruhdagi bolalar sog'lig'ining holati haqida tarbiyachi daftarga qayd etib boradi. Pedagog bolalar bilan yakkama-yakka shug'ullanishi uchun maxsus daftarga bola rivojlanishining ayrim sohalarida alohida e'tibor qilish lozim bo'lgan bolalar haqida ma'lumot qayd etib boradi. Pedagog daftardagi ma'lumotlardan pedagogik maqsadlarni qo'yish

va bolaning rivojlanishiga xizmat qiladigan faoliyat tarzlarini rejalashtirishda foydalanishi mumkin.

Pedagog bolalar bilan ularning qiziqishlari bo'yicha intervyu va suhbatlar o'tkazib turadi. Bolalar kattalar bilan o'z fikrlari, g'oya va ishlari bo'yicha gaplashishni xohlaydilar, bunday hollarda pedagog bolalarga samimiyat va hurmat bilan munosabatda bo'lishi o'zini qiziqtirgan mavzu bo'yicha bolalar so'zlarini tinglashi, ochiq savollar berishi, suhbatga undashi lozim. Bunday tadqiqotning maqsadi bolalarning xususiyatlari va ehtiyojlari haqida ko'proq bilishdan iborat.

Agar bola qisqa muddatli guruhlarda qatnashayotgan bo'lsa pedagog tomonidan "**Portfolio**" hujjatini tutadi. Bu bolaning qisqa muddatli guruhga kelganidan tortib, yakunlagunga qadar yutuqlari va ishlarining individual to'plamidir. Portfoliodan rivojlanishning o'z-o'ziga baho berish vositasidan foydalanish, unga bolaning o'z fikr-mulohazalarini aks ettirishga harakat qilib, so'zlar va sonlarni yozishga urinishlarini, nutq namunalarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari ota-onalarning ruxsati bilan bola faoliyatini aks ettiradigan fotosuratlarni, og'zaki nutqlari yozib olingan audio-disklarni tanlab olish mumkin. Bolalarga tegishli bo'lgan portfolio ota-onalarga ko'rsatilishi lozim.

## **1-sinf o'quvchisining ijtimoiy-psixologik qiyofasi Shaxsiy ko'rsatkichlari.**

- **kompetentlik** - bolaning ma'lumotliligi va olingan bilim ko'nikmalarini hayotda, ayniqsa o'z qarorlarini qabul qilishda foydalana olish;

- **Ijodiy qobiliyatlar** - bolaning atrof-muhitga boshqa kishilarga hamda o'zgarishlar va kashfiyotlar obyekt va subyekt sifatida o'ziga munosabati;

- **Qiziquvchanlik** - hayotdagi turli masalalarga qiziqish, yangi narsalarni o'rganish istagi, izlanishga qiziqish;

- **Tashabbuskorlik** - mustaqillik, faoliyatni erkin tan-

lash, o'z kuchiga ishonish, boshqalarning fikri va bahosiga tolerantlik;

**Ijtimoiy ko'nikmalari:**

- **Kommunakativlik** – o'zining "Men"ga ega bo'lish, o'ziga va atrofdagilarga ishonch, himoyalanganlik xissi, shaxs sifatida muloqot yurita olishga tayyor bo'lish, atrof – muhitga ijobiy munosabat, boshqalarni eshitish va tinglay olish;

- **Ijtimoiylashuv** – individning jamoa yoki jamiyatga kirishi;

- **Ma'suliyat** – boshlangan ishni oxiriga yetkaza olish, tegishli harakatlarni muvaffiqiyatli bajarish, o'z yutuqlarini tan olish, maqsad qo'yish va unga intilish;

**Emotsional-irodaviy tayyorgarlik;**

- O'z xatti-harakatlarini boshqara olish;

- "zarur" ni, "xoxlamayman"dan ustun qo'yish;

- u qadar qiziq bo'limgan, ammo juda kerakli vazifani bajarishga diqqat-e'tiborni jalb eta olish;

- toqatlilik va tirishqoqlik;

**Psixik jarayonlarning (idrok, tafakkur, nutq, xotira, tasavvur) yetarli darajada rivojlanganlilik;**

- diqqatning barqarorlilgi;

- rivojlangan nutq;

- xulosa chiqara olish;

- varaqda va fazoda mo'ljal ola bilish;

- kuzatuvchanlik;

- xayol sura olish;

**Pedagogik ko'nikmalarining shakllanganligi.**

- ruchka va qalamni ushlab olish;

- eshitish orqali tovushlarni farqlay olish;

- muayyan bilim zaxirasining mavjudligi;

- hisoblash, yozish va o'qishning eng oddiy ko'nikmalariga ega bo'lish;

- o'z-o'ziga hurmat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lish;

## Bola shaxsining tuzilishi:

	Shaxsga yo'nalgalikning (to'rtinchi darajasi) inson xattiharakatlarining asosan, uning atrof-muhiga munosabatini belgilab beradigan mohiyatini ijtimoiy-madaniy xislatlar, qarash, qiziqishlar, e'tiqod, ijtimoiy ko'nikmalar dunyoqarashini qamrab oladi.	
	Shaxs tajribasinig (uchinchı darajasi). Ushbu tarkibga bilim, ko'nikma kabi xislatlar kiradi. Ularga predmentlarni o'rganish jarayonida shakllanadigan hamda mehnat, amaliy faoliyat (amaliy harakat sohasi) jarayonida o'zlashtiriladigan fazilatlar namoyon bo'ladi.	
	Psiologik jarayonlarning (ikkinchı darajasi) hissiyot, idrok, xotira, tafakkur, iroda kabi individual xarakterga ega xislatlar bilan tavsiflanadi.	
	(birinchi darajasi) irsiyat bilan belgilangan fazilatlar; shaxsning ehtiyojlarini, instinktlari, jinsiy, millat va yosh jihatni bilan bog'liq xususiyatlari o'z ifodasini topadi.	

## Tayanch tushunchalar:

**Tizim** – bu o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy va tashkiliy jihatdan bir butun bo'lgan elementlar majmuasi.

**Ko'nikma** – u shunday aqliy va jismoniy harakatlar, usullar, yo'rqlardan iborat bo'lib, u yordamida rejalshtirilgan maqsadga erishiladi.

**Inklyuziv ta'lism** – har bir bolaning filiologik va ruhiy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etiladigan jarayon.

## Nazorat uchun savollar:

1. Maktabgacha ta'lism muassasalarida bolalarni maktab ta'limga tayyorlashning mazmun-mohiyatini yoriting?
2. Bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati nimalardan iborat?
3. Tayyorlov guruhida qanday ta'limiylar tarbiyaviy ishlarning vazifalari nimalardan iborat?
4. MTM bilab maktab o'rtaсидаги aloqa shakllari qaysilar?
5. Maktabgacha ta'lism tayanch dasturini asosiy bo'lim va mazmunini izohlang.

6. Dasturni takomillashtirish bo'yicha sizning fikringiz.

7. Inklyuziv ta'lim tamoyillarini izohlang.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. MTM bilan maktab o'rtasidagi aloqa nechta yo'nalishda olib boriladi?

- a) 4 ta
- b) 2 ta
- v) 5 ta
- g) 1 ta

2. MTM bilan maktab o'rtasidagi aloqa shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) Bolalar muassasasi bilan mактабning pedagogik jamoasi o'rtasidagi aloqa MTM bolalarini va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-biriga yaqinlashtirish

- b) MTM xodimlari bilan mактаб xodimlarining hamkorligi
- v) Oila bilan MTM hamkorligi
- g) Oila bilan mактаб hamkorligi

3. Tayyorlov guruhi bolalarini mактаб ta'limiga tayyorlashda qanday ishlar amalga oshiriladi?

- a) mashg'ulotlar o'tkaziladi
- b) bolalarni mактаб va o'quvchilar hayoti bilan tanishtiriladi.
- v) bolani psixologik jihatdan mактаб ta'limiga tayyorlaydi
- g) hamma javoblar to'g'ri

4. Tayyorlov guruhi bolalarini mактаб ta'limiga tayyorlashda qanday qobiliyatlarni shakllantirish zarur?

- a) mustaqillik va tashkilotchilik
- b) ijodiy qobiliyatlar
- v) sensor qobiliyatlar
- g) perceptiv qobiliyatlar

5. Bolalarni mактаб ta'limiga tayyorlash qaysi guruhdan boshlanadi?

- a) MTMning 1-chi kichik guruhidan
- b) mактабга tayyorlov guruhidan
- v) o'rta guruhdan
- g) katta guruhdan

## **XV BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA OILA HAMKORLIGI**

### **Oila – davlat va jamiyat ardog'ida**

Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatga molik masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o'zgarishlar, ya'ni undagi yetuk va kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. Shunga ko'ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Respublikamizda 1998-yil – "Oila yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturini hayotga joriy etish natijasida oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari takomillashtirildi, "Oila kodeksi"ning yangi tahriri, bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Oilaning moddiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan zarur shart-sharoitlar yaratildi. Kam ta'minlangan, serfarzand oilalarni qo'llab-quvvatlash ishlarini davlat o'z zimmasiga oldi. 1999 yil mamlakatimizda "Ayollar yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan jamiyatda xotin-qizlarning mavqeyini yanada oshirish, turmush sharoitlarini yaxshilash uchun barcha davlat va nodavlat tashkilotlarni birlashtirildi. Shu yildan boshlab (1999) ayollarga ularning istaklariga binoan hamda qonunda belgilangan mehnat staji bo'lgan taqdirda 54-yoshdan pensiyaga chiqish huquqi berildi.

3 yoshgacha bolasi bo'lgan ayollar byudjet hisobidan moliyalashtirilgan muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan bo'lsalar, ular uchun ish haqining to'liq miqdori saqlangan holda ish vaqtini haftasiga 35 soatdan oshmaydigan muddati belgilandi. Ayollar yili munosabati bilan qabul qilingan davlat

dasturi mamlakatimizda yashayotgan ayolning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Respublikamizda 2000-yil "Sog'lom avlod" yili deb e'lon qilindi. 2000-yilda amalga oshiriladigan ishlar "Oila", "Ayollar yili" dagi chora-tadbirlarining mantiqiy davomi bo'lib, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlodni shakllantirish yuzasidan ko'plab ijobiy natijalarga erishildi.

- yoshlarni turmush qurishdan avval tibbiy ko'rikdan o'tkazish amaliyoti hayotga joriy qilindi.

- nogironlikning oldini olish maqsadida respublikamizning barcha hududlarida homilador ayollar va chaqaloqlarni skrining ko'riganidan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

- bolalar organizmida yod tanqisligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Respublikada yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish maqsadida turli mazmunlarda ko'rik-tanlovlari o'tkazilib kelinmoqda.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining XI sessiyasida qabul qilingan "Oila kodeksi" sharqona va umuminsoniy axloq normalari mushtarakligida shakllangan, farovon oilalarning manfaatlarini ta'minlashda muhim huquqiy poydevor bo'ladi. Konstitutsiyaga binoan, "Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi (65-modda).

Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlaboq, ota-onalarning asosiy maqsad va vazifalardir. Ya'ni ota-onalarning ham qarz, ham farzdir, oila bolaga ta'sir ko'rsatadi, uni atrofidagi hayotga moslaydi.

Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ma'lumki shaxsning qadriyati uning jamiyatdagi tutgan o'rni bilan belgilanib, ko'p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ota-onalarning tarbiyachisi hisoblanadi.

Parent participation preschools schools are founded on the principle that the best education will result from an active partnership among parents, teachers, and children. Since the schools operate as cooperatives, where parents take turns supervising each other's children in addition to their own, the parents are seen as the "owners" of the school. Parents are expected to regularly participate at all levels ranging from the administration, operation, and maintenance of the facility to teaching in the classroom under the guidance of a professional teacher. This participation fosters a strong sense of community, a rich and varied educational curriculum, and a safe and stimulating environment for preschoolers. The curriculum at each school is designed so that children can begin to develop their social, emotional, physical, and academic skills in the classroom. The high adult-to-child ratio (1 to 5) provides challenging opportunities for the children. The teacher can directly focus on art, science, music, and other projects, often drawing on the talents of parents. Preschoolers are encouraged to pursue their interests, learn from mistakes, and communicate thoughts and feelings through their words.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalarning ishtiroki o'qituvchi va bolalar uchun ham juda yaxshi natijani olib keladi. Maktablarning qo'shma boshqaruvidan ota-onalar bir-birining farzandlarini huddi o'zinikiday his qilishadi. Ota-onalar har bir sohalarda qatnashishi, boshqaruv, tashkiliy ishlar malakali o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu qo'llab quvvatlash maktabgacha bo'lgan bolalarni hayotning har bir jabhalarida zehnli, bilimga kuchli qilib tarbiyalashda yordam beradi. Maktablarda fanlar bolalarni o'zlarining akademik bilimlarini ijtimoiy, ruhan va jismonan sinfonialarda oshirib borish uchun mo'ljallangan. Bu esa kichik yoshdan, ya'ni 1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun imkoniyatdir. O'qituvchi ularga sa'nat, mahorat, musiqa va boshqa fanlarni o'rgatadi. Maktabgacha ta'lim o'quvchilari o'zlarining qiziqishlariga qarab xatolarni to'g'rilash va hissiyotlari bilan o'zlarini so'zları orqali bog'lanish o'rgatiladi.

Family connection Rymon Leslie. 2014

## **Bola tarbiyasida oilaning o'rni haqida mutafakkirlar ta'limoti**

Qadimgi yunon faylasuflari Aflatun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar.

Bu g'oya fransuz xayoliy sotsalistlari Sen Semon, Sharf Fure asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oyani ilgari surganlar. Ammo sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-onas shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Rizouddin ibn Fahriddinning "Oila" nomli risolasida bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shafqat-u sezgirlik bilan bo'lishi kerak. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go'dakni nazoratsiz tutish ulug' xatolikdir. Balki uni qattiqlik bilan yumshoqlik o'rtasida adolat bilan tarbiya qilmoq kerakligi haqida fikrlar berilgan (Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. – T.: Mehnat, 1991).

Ma'lumki, bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari, fikr va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga ko'ringan, aqli yetgan narsalarni so'ray va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar. Xalqimiz orasidagi buyuk odamlarning kamolotlari to'g'risida so'zlab beradilar.

Bolalarni kamtarlik va donolikka o'rgatishda buyuk o'zbek mutafakkiri Abu Ali ibn Sino kabi olimlarimizning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlarini asos qilib olish foydalidir. U manmanlik, maqtanchoqlik va o'zidagi bilimga ortiqcha baho berish kabi xususiyatlarni kishining axloqi past ekanligini ko'rsatuvchi belgilar deb ta'kidlaydi. Uning fikricha oilada bola yoshligidan boshlab faqat

yaxshi odatlarga o'rgatilishi kerak. Bu esa unda mustahkam xarakter shakllanishiga zamin yaratadi. Ibn Sino yosh bolalarni yaxshi axloqli jismoniy sog'lom qilib yetishtirishda ko'pgina foydali usullarni ko'rsatib beradi. U tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usuli g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligi qayta-qayta uqtirib o'tgan. Ibn Sino oilaviy tarbiya to'g'risidagi fikrlarning chuqur mazmunini va amaliy ahamiyatini uning quyidagi so'zlaridan bilib olish mumkin. Bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Unga esa bolalarni qattiq g'azablanishdan, qo'rqish, xafalik, uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolani xohlagan va foydali narsasini darhol topib berishga hamda sevmagan narsasini ko'zdan uzoqlashtirishga doim tayyor bo'lib turish kerak. Bu ishning ikki xil foydasi bor. Bir tomondan bolaning ruhiga foya qiladi, bola eng yosh chog'idanoq xushhulq odam bo'lib qoladi. Ikkinchchi tomondan, bolaning tanasiga foya qiladi. Chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlariga sabab bo'ladi. Shuningdek, agar yomon hulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Ibn Sino o'zining "Tadbirul manozil" asarining katta bir bobini oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlagan. U bu asarida kishilarning oilaviy munosabatlarning deyarli hamma tomonlarini ko'rib chiqadi. U oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi, u oilaviy tarbiyanı ham amaliy, ham nazariy tomondan yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida ota-onalar va tarbiyachilar obro'yining bolaga ta'sir kuchi haqida ham fikr yurgizadi. Bu esa hozirgi talablarga ham javob beradi. U ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta'sirining bor kuchi obro'ga asoslanadi, deydi. Biroq bu obro' tabitan berilmaydi, sun'iy ravishda yaratilmaydi, qo'rquv, qo'rqtish, zo'rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr oqibatdan kelib chiqadi, deb ta'kidlaydi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy xalqimiz rasm-rusumlariva milliy odatlarni juda nozik tushunaredi. Shusabab-

li inson xulq-atvori, madaniyatining hatto eng oddiy masalalar ham uning diqqatidan chetda qolmadi. A.Navoiy tarbiyada xatolikka yo'l qo'yish mumkin emasligini uqtiradi. Haqiqatdan ham bolani tarbiyalashda shunday xatoliklar uchraydiki, ular faqat oilaning hayotida emas, balki jamiyat hayotida ham aks ettiradi. Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli-tumandir. Ular orasida keng tarqalgalardan biri ota-onalarning haddan tashqari hukmronlikka intilishlaridir; bolaning erka bo'lishi ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq; ota-oni, buvilar tomonidan tarbiyada yagona talablarning yo'qligidi; oilaviy tarbiyadagi barqaror xatolar oilaning tuzilishi va oilaviy munosabatlar bilan, kattalarning o'z fuqarolik burchlarga munosabati, ularning g'oyaviy yo'nalishi, mehnatga munosabati bilan bog'liq munosabatlar bilan, kattalarni o'z fuqarolik burchlariga munosabati, ularni g'oyaviy yo'nalishi, mehnatga munosabati bilan bog'liq. Bu belgilarga ko'ra oilaning bir necha turini ajratish mumkin. Tarbiyachilarga oila turlarini bilish va u bilan o'ziga xos holda ishlash va munosabatda bo'lish uchun zarur. Oila turlari Rizouddin Ibn Faxriddinning "Oila" nomli risolasida ko'rsatilgan.

Birinchi turi. Tinch oilalar mehnat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda faol ishtrok etayotgan ko'pchilik oilalar kiradi. Bu turdag'i oilaga ota-onalar va bolalar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, aqli va me'yordagi talablar bolaning ijtimoiy munosabati me'yorlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi xosdir.

Ikkinci turi. Yuzaki tinch oilalar. Bu turdag'i oilalarga oila a'zolari tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablar bir xilda bo'lmasdan, stixiyali tarzda bo'ladi. Bunda bolanig imkoniyatlari hisobga olinmaydi. Bolaning hayoti noto'g'ri tashkil etiladi. Tarbiyaning bu turida ota-onaga nisbatan hurmatsizlik, ularning talabini bajarmaslik kabi holatlar rivojlanishi mumkin. Yuzaki tinch oilalar bilan ishslashda tarbiyachi ota-oni diqqat-e'tiborini oiladagi psixologik vaziyatni, ota-onalar o'rtasidagi munosabat yo'nalishini o'zlashtirishga qaratadi.

Notinch oilalar. Bunday turdag'i oilalarda ma'naviy qiziqishlar kam bo'ladi. Bunday oilalarga ishlab chiqarish, oilaviy vazifalarga befarq munosabatda bo'lish, oilaviy an'analarga e'tibor bermaslik, uy ishlariga loqayd munosabatda bo'lish xos bo'ladi. Bola qo'rs, qo'pol, urishqoq bo'lib qoladi. Kattalar va jamoa tartiblariga bo'yusunmaydi. "Tarbiyasi og'ir" bolalarning ko'p qismi ana shunday oilalarda yetishadi. Zamonaviy sharoitlarda notinch oila muammosi eng dolzarb muammolardandir. Oila - mактабгача та'lim yoshidagi bola uchun birinchi ijtimoiy muhitdir. Agar u notinch bo'lsa, bolaning sog'lig'iga ham, uning xulqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xildagi oilalarning bolalari taqdirliga ular qatnaydigan maktabgacha ta'lim muassasasi befarq qaramasligi kerak. Tarbiyachi bolalarning salomatligi, xulqi o'z tengdoshlari bilan munosabatini doimo kuzatib boradi va kichik insonlar qalbiga qanday kechinmalar yuz berayotganini sezadilar.


To'liqmas oilalar. Bu turdag'i oilada ota-onadan biri bo'lmaydi. Bunday oilalarda ota-onalardan birining yo'qligini bildirmaslik uchun oila a'zolaridan har birining bolaga ta'sirini kuchaytirish, bola o'zaro munosabatlarda kamchilik sezmasligi uchun bola tarbiyasiga oiladan ketgan a'zoni boshqa qarindoshlarini jalg qilish muhimdir. Shunday qilib maktabgacha ta'lim muassasalarida oila bilan ishlash o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, oilaning turiga bog'liq holda o'tkaziladi. Maktabgacha ta'lim muassasining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma-xil va o'zaro bog'liq bo'lgan shakl va usullar yordamida rejali ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Maktabgacha ta'lim muassasining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni va usullari**

MTMning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib

olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTM xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. MTMlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTM hayoti bilan tanishishlari.



- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiylar majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

- ko'rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik

axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka.

- ota-onaga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

### **Tarbiyachining oilani borib ko'rishi**

Bola yashab turgan oilani o'rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa, ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlari ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiylari salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining maslahatlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiylari ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilani borib ko'rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo'yishi kerak. Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko'rildi. Tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi.

**Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar.** Oila bilan shaxsan ishslashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi

kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo'lganini, qanday uxlaganini, bola o'zini qanday sezishni so'rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi haqida qisqacha axborot beradi. Bu narsa bolani kayfiyatini ko'taradi, ota-onani xotirjam qiladi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan, ota-onalar bilan kechki suhbat vaqtida tarbiyachi bolaning tashqi ko'rinishiga taalluqli kamchiliklar aytilishi mumkin. Bolani guruhda kunni qanday o'tkazgani, nimalar bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligi haqida axborot beradi. Ota-onalarni bola tarbiyasida yo'l qo'ygan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tkazish zarurati tug'ilganda vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo'lganda maslahatlar o'tkaziladi.

### **Guruhiy maslahatlar va majlislar**

Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota-onani qiziqtirayotgani ma'lum bo'lsa, ular uchun umumiylaslahatlar tashkil etadi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotlarni va ko'rsatmali materiallarni tanlaydi. Maslahat o'tkaziladigan aniq vaqt haqida ota-onalarini ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda-sonda va muntazam o'tkazilishi mumkin. Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruriyatiga qarab yil choragida bir marta o'tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, guruh ishi bilan bog'liq tashkiliy masalalar qarab chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirot etishlari haqida gapiriladi.

Majlislar mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko'rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarni yoshini hisobga olish zarur. Shu munosabat bilan o'yin yoki mehnat faoliyat-

Iari haqida masalalar ko'proq o'rin egallash mumkin. Ota-onalarning umumiy majlisi maktabgacha ta'lif muassasalari hamma tarbiyalanuvchilarining ota-onalari uchun yiliga ikki marta o'tkaziladi. Ularni maktabgacha muassasa mudirasi, vrach, tarbiyachilar ishtirokida tashkil etiladi. Umumiy majlislarda ta'lif-tarbiyaviy ishning yakunlari muhokama qilinadi. Birinchi umumiy majlis o'quv yili boshida o'tkazilib, unda mudira ota-onalarni maktabgacha ta'lif muassasining yillik ish rejasini bilan tanishtiradi. Rejaning oila bilan bog'liq qismiga aniq to'xtalib o'tish lozim. Ikkinci umumiy majlis o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Bunda maktabgacha ta'lif muassasining o'tgan yildagi ish yakunlari haqida ma'lumot beriladi. Bolalar muassasida tarbiyalanuvchilarning yashash sharoitlarini yaxshilashda ota-onalarning qo'shgan hissalari ta'kidlab o'tiladi. Umumiy majlislarda bolalar muassasasi jamoasi qanchalik katta va murakkab ishni bajarishni va bu ishda qanday yordam berish kerakligini ishonchli tarzda ko'rsatish kerak. Majlislarda pedagog ma'ruzasining hajmi 20-25 minut ga mo'ljallanadi.

Ota-onalar bilan MTM xodimlarini birqalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni MTM dagi sharoitlarga bog'liqdir. Birqalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Ota-onalar MTM maydonini ko'kalamzorlashtirish, xonalarni qish mavsumiga tayyorlash, sog'lomlashdirish ishlarini o'tkazishda yordam ko'rsatishlari, bolalarga bayram kostyumlari tayyorlashda, bolalarni sayohatga kuzatib borishda ishtirok etishlari mumkin. Agar ota-onalar orasida fotosuratchilar, tikuvchilar, rassomlar bor bo'lsa, ular MTM ga bevosita yordam ko'rsatishlari kerak. Ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi kerak. Birqalikdagi ishni to'g'ri tashkil etish uchun yillik reja tuziladi va ko'rindigan joyga ilib qo'yiladi. Ota-onalardan qaysi kunlari MTMga kelib yordam berishlari mumkinligini so'rash lozim.

Ochiq eshiklar kuni ota-onalar bilan ishslashning samarali

shaklidir. Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasি bo'yicha har bir yosh guruhning ma'lum rejimi bo'yicha odatdagи mehnat kunidir. Bunday kунларни yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi. Ochiq eshiklar kунини o'tkazish zarur. Ya'ni ota-onalarga bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish, mashg'ulotning borishi, sayr haqida ko'pgina narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega ekanliklari haqida ma'lum qilinadi.

Ota-onalarga esa quyidagilar eslatiladi: bo'lalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkon boricha ishtirok etish, tarbiyachiga xalaqit bermaslik, farzandiga tanbeh bermaslik (mashg'ulotlar o'tkazilayotganda).

Ochiq eshiklar kунини o'tkazishga tayyorlanayotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa «Ota-onalar bizning mehmonimiz», «Bizda ochiq eshiklar kuni» mavzusida foto ko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ochiq eshiklar kунида qatnasha olmagan ota-onalarda qiziqish uyg'otadi.

### **Ota-onalar qо'mitasi va jamoachilik bilan ishlash**

Har bir MTM sida ota-onalar qо'mitasi bo'lib "Maktabgacha ta'lim muassasasi nizomi" bo'yicha tashkil etiladi. Ota-onalar qо'mitasi ishning vazifalari va mazmuni uning huquqlari, hisoboti va ish yuritishi Ota-onalar qо'mitasi haqidagi "Nizom"da aks ettiriladi. Bu qо'mita ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Uning tarkibiga har bir guruhdan 1-2 vakil kiradi. Ular orasidan rais va kotib saylanadi. MTM rahbari va pedagogik jamoa ota-onalar qо'mitasiga faol tarbiya masalalarida uzoq bo'limgan kishilar tarafdoridir. Tarbiyachilar u yoki bu oila qanday ota-onalar qо'mitasiga a'zo bo'lganda so'ng MTMga ota yoki ona qanday yordam berishi mumkin, ular jamoa tarbiyasi hayoti bilan qiziqishadimi, MTMda bo'lish kerakligi haqidagi mashg'ulotlar tartibini kuzatish, sayr qilishda ishtirok etish haqidagi taklifga labbay deb javob berishadimi, degan savollarga javob berishlari kerak. Ota-onalar qо'mitasini unda ishslashni xohlovchi ota-onalardan

ham saylash mumkin. Bunday ota-onalar odatda, samarali qiziqib ishlaydilar. Ota-onalar qo'mitasi ota-onalarning umumiy majlisiga hisob beradi, unga avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi haqida hisobot beradi. Ota-onalarning umumiy majlisiga hisob beradi. Ota-onalar qo'mitasining faoliyati MTMning yillik rejasiga mos holda rejali ravishda olib borilishi kerak. Qo'mita ishini mudiri boshqarib boradi. Uning majlislari kamida ikki oyda bir marta o'tkazilishi kerak.

## **MTMning ota-onalar bilan ishining yillik rejası Umumi majlislar**

MTMning ota-onalar bilan ishining yillik rejası

Ota-onalar bilan axloqiy va jismoniy tarbiya masalalarida olib boriladigan ish.

«Bolalarning tabiat qo'ynidagi mehnati – axloqiy tarbiyaning vositasidir» degan mavzuga alohida e'tibor berish.

1. Ota-onalarni MTM ishiga yaqinlashtirish, ularni MTMdagi tarbiyaviy ishlar bilan keng tanishtirish.

Quyidagilar ota-onalar e'tiborida bo'lmog'i kerak:

- a) navbatchilikni tashkil etish;
- b) shanbaliklar uyuştirish;
- v) ochiq mashg'ulotlarda qatnashish;
- g) guruh majlislarida qatnashish;
- d) individual suhbatlar, maslahatlar.

2. Oilalarni borib ko'rilmaga bolalar mehnat faoliyatlariga alohida e'tibor berish (bola yoshiga mos holda).

### **Umumi majlislar**

1. MTM va oilada bolaning axloqiy tarbiyasi. Mavzu bo'yicha ota-onalar chiqishlarini tayyorlash.

2. Bola tarbiyasida ota-onalar obro'yi. Ma'ruza mavzusi bo'yicha tayyorlangan ota-onalar chiqishlari.

3. a) Yoz paytida MTM hovlisida tarbiyaviy ishlar (bunda mehnat tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor beriladi).

- b) Yoz sharoitida sog'lomlashtirish tadbirlari (shifokor axboroti).
- v) Bolalarni ekskursiyaga olib chiqish bilan bog'liq tashkiliy masalalar.
4. a) Bolalar bilan o'tkazilgan yozgi sog'lomlashtirish ishlarining yakuni.
- b) Ota-onalar qo'mitasini ishining hisoboti.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Hamkorlik** – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro muloqotiga asoslangan ijodiy faoliyat jarayoni.

**Komil inson** – inson aqliy takomillashuvi bosqichlaridan biri.

**Komillik** – insonga xos xislat, u har bir davrga mos mazmun-mohiyat kasb etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mustaqil O'zbekistonda oilalar farovonligini oshirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Oilada bolani to'g'ri tarbiyalash shart-sharoitlari deganda nimani tushunasiz?
3. MTMning oila bilan ishlash shakllaridan misol keltiring.
4. Ota-onalar majlisi kim tomonidan o'tkaziladi?
5. Ota-onalar qo'mitasiga kimlar saylanadi?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. MTMlarda xodimlarning oila bilan hamkorlikdagi ishlarining shakl va usullarini keltiring.
  - a) Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash (oilaga tarbiyasining borishi, ota-onalar uchun suhbatlar, maslahatlar)
  - b) Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil etilgan ishlar (ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, shanbaliklar, anjumanlar)
- v) Ota-onalarga pedagogik bilim berish
- g) Hamma javoblar to'g'ri

2. MTMning vazifalarini ko'rsating.

a) Bolalarga tarbiya berish

b) Bolalarni jismoniy rivojlantirish

v) Bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi, umumbashariy qadriyatlar asosida axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlikni tarbiyalash, bolalar tafakkurini rivojlantirish, bolalarning jismoniy, ruhiy sog'lomligini ta'minlash.

g) Bolalarni mактабга тайяорлаш

3. Ota-onalar qo'mitasining yig'ilishi qanday muddatda o'tkaziladi?

a) har oyda

b) ikki oyda bir marta

v) bir yilda ikki marta

g) uch oyda bir marta

4. Ochiq eshiklar kunida kimlar qatnashadi va yiliga necha marta o'tkaziladi?

a) Vazirlikdan vakil qatnashadi – bir oyda bir marta

b) MTM uchun bir yilda bir marta

v) Ota-onalar uchun tashkil etiladi, yiliga 1-2 marta o'tkaziladi

g) Mudiralar uchun tashkil etiladi, har oyda bir marta

### **3-BO'LIM. O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

#### **XVI BOB. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etish**

##### **MTMdA bolalar hayotini tashkil etish**

Fiziologiya, gigiyena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida MTMdA kichkintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi prinsiplari yuzaga keldi:

Har bir yosh guruhda bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish.

Bolalarni yosh guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'limgartarbiya jarayonini tashkil etish.

Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigiyenik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta'minlash.

Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash.

Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini (o'yin, mehnat, ta'lim) tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratish.

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan prinsiplar asosida almashtirib borish MTMning har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish.

Developing expertise requires both a foundation of factual knowledge and skills and a conceptual understanding that allows facts to become "usable" knowledge. In the preschool years, key concepts

can be quite basic and therefore easily overlooked. In mathematics, for example, children need to develop more than verbal counting skills and number recognition. They need to grasp “quantity.” Similarly, emergent literacy requires not just that children recognize letters, but that they grasp the concept of “representation” involved in written words and illustrations. Because the preschool years are a time when children are rapidly developing skills and acquiring new knowledge, the importance of concepts can be overlooked. Curricula can be judged on the extent to which they promote learning of concepts as well as information and skills.


Fundamental va qo'shimcha olinayotgan bilim, o'quv mashqlari samaradorli bo'lishi uchun ikkala bilimni rivojlantirish zarur, bilim va o'quv mashqlari konseptual tushunchani ishlatishga ko'maklashadi. Maktabgacha ta'linda juda e'tibor bilan yondashish zarur. Misol uchun, matematikada nafaqat hisob-kitobni o'rgatish, balki sonlarni taniy olish xususiyatini ham rivojlantirish zarur. Ular miqdorini ham tushunishlari shart. Huddi shunday yozishda ham bolalar nafaqat harflarni taniy olishlik, balki so'zlar nima ma'noni anglatishini, xatda nima yozilganligi haqida ham bilishlari zarur. Maktabgacha bo'lgan yoshda bolalar bilim darajasi tez rivojlanana boshlaydi va yangi narsalarni tez o'zlashtira boshlaydi. Ayni bu paytda e'tiborsizlikka yo'l qo'ymaslik kerak. Ma'lumotlarni qay tarzda tez va oson o'ziga singib olayotganliklarini biografik jihatdan bilib olish mumkin.

Pedagogy in early childhood education and care (ECEC): an international comparative study of approaches and policies Research brief July 2015

## **Bolalar faoliyatida ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish va rahbarlik qilish**

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatları, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar o'tkazish, gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.




Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish MTMsidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

MTMsining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rGANISH, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar MTM dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni mакtab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o'zining haftalik mashg'ulotlar jadvalini tuzib

oladi, bu ta'limning hamma bo'limlari bo'yicha belgilangan ta'lif-tarbiya ishlarini to'g'ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. Mashg'ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:



Dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni haftaga teng taqsimlash.

Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi.

Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Ikkinci mashg'ulotga yengilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi.

Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va hokazo.

Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini yengilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

O'yin bolalarning muhim faoliyatি hisoblanadi. U bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida, shaxs sifatida shakllanishida va bolalar jamoasining tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobjiy his va kechinmalarini, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O'yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun kattalar bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularda tevarak-atrofdan olayotgan taassurotlari ijobjiy tomonini aks ettirish xohishini uyg'otishlari kerak.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi bilimlarini boyitadi (bu orqali o'yin mavzusi, mazmuni, syujeti boyiydi), bolalarning axloqiy hislarini, o'zaro ijobjiy munosabati va odatlarini tarbiyalaydi. O'yindan bolalardagi o'zaro o'rtoqlik, do'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida foydalanadi.

Bolalarning o'yin bilan shug'ullanishi va mehnat qilishlari uchun kerakli materiallar bilan ta'minlanadi, shu orqali bolalar o'yinining mehnat bilan uyg'unlashib ketishiga erishiladi.

Tarbiyachi bolalarning syujetli-rasmli o'yinlarining hamma xilini syujetli-rolli, qurilish drammalashtirilgan tabiiy materiallar bilan o'ynaydigan qilib tashkil etadi. Bolalarga o'yin harakatlarini o'rgatadi, tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda haqqoniylik prinsipiiga rioya qilishni uqtiradi. Shu bilan birga u bolalardagi ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik va boshqa xislatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Ijodiy o'yinlar ertalabki qabul paytida, kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi sayrda, ya'ni mashg'ulotdan tashqari hamma vaqtda tashkil etilaveradi.

Mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtida o'ynaladigan didaktik va harakatli o'yinlar muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshiradi. harakatli o'yinlarda bolalarning jismoniy madaniyatini tarbiyalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak.

Harakatli o'yinlar ertalabki va kechki sayr soatlarida tashkil etilib, kuniga 1-2 marta butun guruh, yoki guruhcha bilan o'tkazilishi kerak. O'rta va katta guruhlarda turli xil sport o'yinlari o'tkazib turiladi. Hamma o'yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va kerakli materiallar bilan ta'minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatları tashkil etiladi. Bolalar o'zlariga tanish bo'lgan didaktik va harakatli o'yinlarni o'ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini (plastilindan) yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtida bolalarning o'z-o'zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulq, madaniyati, irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarning shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o'ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi taqozo etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug'ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda yordam berishda, tarbiyachining maslahati lozim bo'ladi.

Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e'tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, axloqiy munosabatlariiga qaratiladi.

Bolalarning ovqatlanishga, mashg'ulotga tayyorlanishlari, tabiat burchagida navbatchilik vazifasini bajarishlari, ularda topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi.

Navbatchilik ikkinchi kichik guruuhda yilning ikkinchi yarmidan boshlanadi va hamma yosh guruhlarida davom etadi. Katta guruuh bolalarining qo'l mehnati, tabiatdag'i mehnati, xo'jalik-maishiy mehnatlari har kuni ertalabki soatda, ertalabki va kechki sayrda sistemali ravishda tashkil etib boriladi. Haftasiga bir marta butun guruuh ishtirokida bolalarning jamoa mehnati tashkil etiladi, mashg'ulotlarda qo'l mehnatining yangi turi o'rgatiladi. Mehnat jarayonida bolalarning mehnat qilish malaka va ko'nikmalar takomillashadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, qiziqishlari ortadi, mehnatsevarlik, javobgarlik, burch hissi kabi axloqiy sifatlari shakllanib boradi.

Bolalarning mehnat faoliyatini ularning jismoniy va aqliy faolligini o'stiradigan qilib tashkil etilishi kerak. Buning uchun ularni hamma kerakli materiallar va mehnat qurollari bilan ta'minlash lozim. O'z-o'ziga xizmat bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi.

Kichkina guruuhdan boshlab bolalar mustaqil kiyinish va yechinishga o'rgatiladi. Katta guruuh bolalari o'zlarini har doim batartib (tashqi ko'rinishi, sochi, kiyimlari, oyoq kiyimi) tutishlari kerak. Ular o'yinchoqlarni, kitoblarni, ish qurollarini o'yin va mashg'uoltan keyin joy-joyiga yig'ishtirib qo'yadilar.

Har kuni ertalabki mashg'uoltan keyin, kunduzi uyqu, kechki nonushtadan keyin sayr uyuştiladi. Sayrda ijodiy o'yinning hamma turlari, bolalarga tanish va yangi qoidali, o'yinlar tashkil etiladi. Bolalarning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi bolalarning xilma-xil mustaqil faoliyatlar uchun shart-sharoit yaratadi: kerakli material, asbob-anjomlar, o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi, maydonchada, guruuh xonasida o'yin uchun joy tayyorlaydi.

O'yin va mashg'uoltlar o'tkaziladigan joy gigiyenik jihatdan talabga javob berishi (yorug', ozoda, yaxshi shamollatilgan, nam latta bilan pollari artilgan, havo temperaturasi normal bo'lishi) kerak.

Sayrda tabiatni, kattalar faoliyatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish imkonini yaratiladi. Sayr boshlanishida bolalarning mustaqil xatti-harakat qilishlari: yugurish, o'tirish, gaplashish va tomosha qilish uchun sharoit mavjud bo'ladi. Keyin harakatli o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlarini, mehnat, kuzatish, turli-tuman ijodiy o'yinlar tashkil etiladi.

MTMda bolalar turmushini tashkil etishga katta e'tibor beriladi. Har bir yosh guruhidagi tashkil etilgan kun tartibi bolalarning uyquga, ovqatlanishga, faol mehnat qilishga bo'lgan talabini to'la qondirishi, bolalarda ijobiy hissiy kayfiyatni saqlash, bolalar va kattalar o'rtaсидато'г'ри munosabat о'rnatish uchun kerakli shart-sharoit yaratilishi kerak.

Amalga oshiriladigan tadbirlarda tarbiyachi bolalarda madaniy-gigiyenik malakalarni: ijtimoiy xulqni, xatti-harakatlar madaniyatini tarbiyalab boradi.

Bolaning sog'lom bulib, to'g'ri rivojlanishi uchun tinch va chuqur, kerakli uyqu muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachi guruh xonasida bolalarni uyquga yotqizgandan keyin xonaning shamollatilgan bo'lishini, tinchlikni ta'minlaydi. Bolalarning uyg'onganlarini sekin-astalik bilan turg'azish kerak.

Bola organizmining o'zgaruvchan tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshirish maqsadida har xil chiniqtiruvchi tadbirlar havo, quyosh, suv vannasi bilan chiniqtirish amalga oshiriladi.

Bunga chiniqtiruvchi tadbirlar vaqtini sekin-asta ko'paytirib borish, suv temperaturasini pasaytirib borish, kunduzi uyquni ochiq havoda tashkil etish, bolalar kiyimlarini yengillatib borish orqali erishiladi. Bolalarning kunduzi va kechki soatlarda ochiq havoda bo'lishlarini ta'minlash ularning sog'lom, barkamol bo'lib o'sishlarida katta ahamiyatga ega.

Bolalarning ochiq havodagi faoliyatlarini qiziqarli va maroqli o'tishini ta'minlash uchun har xil o'yinlar, sport, ermak o'yinlari, kuzatish va mehnat faoliyatlariga kerakli shart-sharoit yaratiladi.

## **Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish**

Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kungartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

**Kichik guruuh** bolalarining ko'p vaqtini guruh xonasida o'tadi. Yaxshi jihozlangan xona, o'yinchoq va qo'llanmalarni to'g'ri tanlash bolalarning to'laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o'yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 3-4 ta bo'lib o'ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi, «Oila», «Bolalar bog'chasi» va shunga o'xshash o'yinlarni o'ynashlari uchun o'yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak, qolgan o'yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemaloj yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jihozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo'yiladi.

**II kichik guruuh** bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek muhit tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda balki, to'rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. MTM maydonchasida sport o'yinlari bilan shug'ullanish uchun maxsus joy bo'ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo'yiladi: velosipedda uchish uchun yo'lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g'o'la va shunga o'xshashlar bo'ladi. Olib chiqilgan o'yinchoqlarni o'ynash uchun maxsus stollar, o'rindiqlar, suv bilan o'ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo'lishi kerak.

**O'rta guruh** xonasi uqlash xonasi, hojatxona va yechinish xonasiga ega bo'lishi kerak.

Guruh xonasi bir necha bo'limdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi o'yin bo'limida qo'g'irchoq bilan o'ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo'ladi. Ikkinci o'yin bo'limida qurilish materiallari qo'yiladigan shkaf va ular bilan o'ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun kerakli materiallar qo'yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o'yini bilan shug'ullanishlari uchun o'yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqda joylashtirgan ma'qul. Xona amaliy san'at asarlari va ko'kalamzorlashtiruvchi o'simliklar bilan bezatiladi.

Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o'yinlari uchun kerakli asboblar bilan jihozlanadi.

**Katta guruh.** O'yin bo'limlari bolalarning yoshiba mos holda, o'rta guruh xonasi kabi jihozlanadi. Guruh xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u yerga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bemalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, o'yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi, qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak. Bularidan tashqari bolalar bemalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo'sh joy bo'lishi zarur. Maydonchada sport o'yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, irg'itish uchun katta joy ajratiladi. Syujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ham bo'ladi.

**Tayyorlov guruhi.** Bu yerdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa

tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u yerda bolalar o'zлari gul va sabzavotlarni yetishtiradilar.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish, bolalarning MTMdagi 9-10 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning MTMdagi vaqt qiziqarli, sermazmun o'tishini ta'minlaydi.

Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chehra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan xushmuomala, xayrixoh munosabatda bo'ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o'yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning guruhi xonasidagi, ovqat va mashg'ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi.

Nonushtadan keyin dasturda ko'rsatilgan vaqt mobaynida mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotgacha va mashg'ulot o'rtasida o'yinlar tashkil etiladi. Qanday o'yin o'tkazilishi mashg'ulotning mazmuni va xususiyatiga bog'liq. Bolalar o'tirib shug'ullanadigan mashg'ulotdan oldin harakatlari o'yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg'ulotdan oldin tinch o'yinlar o'ynashadi. Mashg'ulotdan keyin sayr o'tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Harakatlari o'yinlar o'tkazadi, mustaqil o'yin o'tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlarini, mehnat, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yin turlari bilan shug'ullanishlari uchun katta e'tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyuştiriladi. Sport o'yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o'xshashlar bolalarning harakat faolligini o'stirishga ham katta ahamiyat beriladi.

- v) sayr o'tgan paytda
- g) mashg'ulotlar vaqtida

4. Kunning ikkinchi yarmida qanday vazifalar rejorashtiriladi?

a) guruhdagi va sayrdagi ishlar rejorashtiriladi, o'yinlar rejorashtiriladi (stol bosma o'yinlari, didaktik o'yinlar).

- b) ko'ngil ochishlar
- v) harakatli sport musobaqalari
- g) bayramlar rejorashtiriladi.

5. Kunning ikkinchi yarmida uyqudan keyin o'yinga qancha soat ajratiladi?

- a) 1 soat
- b) 45 daqiqa
- v) 30 daqiqa
- g) 50 daqiqa

## **XVII BOB. MAK TABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA TA'LIM-TARBIYA ISHLARINI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OLİSH**

### **Pedagogik jarayonni rejalashtirish vazifalari**

Maktabgacha ta'lismuassasasida ta'litm-tarbiyaviy ishni rejalashtirish pedagoglar, tarbiyachi-metodist, mudira faoliyatining muhim turlaridan biridir.

Rejalashtirish - ta'litm-tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlarini ko'rsatib, ta'litm-tarbiyaviy ish dasturini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta'lismuassasasi ishini rejalashtirish mumkinligini va zarurligini ta'kidlab, bunda u inson shaxsining shakllanishida ijtimoiy omillar, muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqida asosiy qoidalarga tayanadi. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullarini bola tomonidan egallanishi amalga oshiriladi. Tarbiyaning mazmunini uning maqsadi belgilaydi. Rejalashtirishning maqsadi - «Maktabgacha ta'lismuassasasi ta'litm-tarbiya dasturi»ning bajarilishini ta'minlashdir.

Pedagogik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejalashtirishda yetakchi hisoblanadi.

Rejalashtirish pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishga: bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshga ko'ra pedagogik ta'sir mazmunini va usullarini tanlashga, bolalar hayoti, faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo'llangan bo'lishi kerak.


Maktabgacha ta'lismuassasalaridagi ta'litm-tarbiya ishlarini rejalashtirish murakkab bo'lib, tarbiyachidan bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyot darajasi to'g'risidagi bilimlarni,

ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini bilishni taqozo etadi.

**Reja** – tarbiyachiga yil bo'yи amalgalashiradigan ta'lim-tarbiya ishlari ni bir tekisda taqsimlab, ma'lum izchillik bilan amalgalashirishga yordam beradi.

Reja bolalar bilan amalgalashiriladigan ta'lim-tarbiya ishlariiga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish metod va usullarni yaxshilab o'ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolgan narsa bo'lmay, vaziyatdan kelib chiqib, unga o'zgarishlar kiritish mumkin.

Shuning uchun MTMda bir-birini to'ldiradigan bir necha xil reja tuziladi:



MTMning yillik rejasiga, istiqbolli rejasiga va tarbiyachining kalender rejasiga. Yillik reja asosan MTM mudirasi, metodist tarbiyachilar tomonidan tuzilib, bolalar muassasasida amalgalashiriladigan barcha ishlarni o'z ichiga oladi.

Istiqbolli rejasiga 1-3 oyga mo'ljallangan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarni tartibga solish va uning ma'lum maqsadga

qaratilgan va samarali bo'lishini ta'minlashdir. Unda «MTMdta'lism-tarbiya dasturi»ning hamma bo'limlari o'z aksini topadi.

Istiqlol rejasida dasturning hamma bo'limlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ta'lism-tarbiya ishlari tizimi bolalar faoliyatining hamma turlarida aniq mavzular bo'yicha belgilab chiqiladi.

Kalendar reja 10-12 kunga tuziladi kun davomida amalga oshiriladigan ta'lism-tarbiya mazmunini aks ettiradi. Uni tuzishda dastur talablari, bolalarning rivojlanish va tarbiyalanish darajalari, maktabgacha ta'lism muassasasining ish sharoiti hisobga olinadi.

Kalendar rejaga bolalarning aniq bilim va tasavvurlarni egallash jarayoni va ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar to'g'risida umumlashgan bilimlarni shakllantirish, bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni o'stirish, axloqiy ongini shakllantirish, axloqiy xulq, odat va malakalarni egallashi va boshqalar kiradi.

«What constitutes an 'appropriate' curriculum for young children is still hotly disputed but it is increasingly apparent that simplistic outcome measures, which only look to knowledge and skill competence in the short term, are seriously underestimating the issue» (p93).

Kichik yoshdagagi bolalar uchun to'g'ri keladigan o'quv rejasi qanday tarzda bo'lishi kerakligi hali hamon turli xil mulohazalarga olib kelmoqda, biroq shunisi aniq bo'lmoqdaki, natijaning soddalashtirilgan chorralari, faqat qisqa mudat ichida o'sishga qaratilgan bilim va uddalay olishlik kompetentlari, masalani jiddiy tarzda baholay olmayapti.

Pedagogy in early childhood education and care (ECEC): an international comparative study of approaches and policies Research brief July 2015

MTM tarbiya dasturini yaxshi bilish kalendar rejani muvaffaqiyatli tuzishning asosiy garovidir.

Pedagog va psixolog olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlaring xulosalari bolalarning malaka va ko'nikmalarini egallashi ma'lum yosh bosqichida yuzaga kelishini ko'rsatdi.

Tarbiyachi xuddi mana shu davrni qo'ldan boy bermay, bolani har tomonlama rivojlantirishga erishmog'i zarur. Tarbiyachi o'zi ishlayotgan guruh, shuningdek, o'zidan oldingi va keyingi guruhlari dasturi talablari va mazmunini yaxshi bilishi kerak. Masalan, dasturning kichkina guruh bolalarini tevarak-atrof bilan tanishtirish bo'limida bolalarni hayvonlar, o'simliklar va shunga o'xshashlar to'g'risidagi eng oddiy bilim va tushunchalar bilan tanishtirish vazifasi belgilangan.

O'rta guruhda dastur bo'yicha bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va narsa-buyumlarga, voqeа-hodisalarga nisbatan qiziqishini o'stirish va shu asosda eng oddiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish, eng muhimmi esa, kuzatuvchanlikni, narsa va buyumlar, voqeа-hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni topa bilishga o'rgatish bosh vazifa hisoblanadi. Katta va tayyorlov guruhi bolalarini narsa-buyumlar, voqeа-hodisalar to'g'risidagi haqiqiy tasavvur va tushunchalarini, ularning tabiiy sabablar bilan bog'liq ekanligini shakllantirish dasturning muhim vazifasidir.

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga ta'lif-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dasturni yaxshi bilishning o'zi yetarli emas, shu bilan birga, har bir bolaning shaxsini rivojlantirish yo'llarini yaxshi bilish, bolaning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olish qobiliyatni har xilligini ham e'tiborga olish kerak.

Tarbiyachining ishini muvaffaqiyatli rejalashtirishning yana bir zarurati – uning metodik qo'llanma, pedagoglar kengashi, metodik birlashma, kurslarda va shunga o'xshashlardan olgan tavsiyalardan keng foydalanishidir.

Kalendar rejani guruhda ishlovchi har ikkala tarbiyachi birgalashib bamaslahat tuzishlari lozim. Tarbiyachilar vaqtigaqtin bilan bolalarning ishlarini tahlil qilib borishlari lozim. Kalendar reja bir-ikki haftaga tuziladi va tarbiyachining majburiy hujjati hisoblanadi.

Dasturga muvofiq hamma ta'lif-tarbiya ishlari bolalar faoliyatining barcha turlari: o'yin, mehnat, maishiy faoliyat

va mashg'ulot orqali amalga oshiriladi. Kalendor rejaning mazmuni bolalar faoliyatining hamma turlarida aks ettiriladi. Kalendor rejani tarbiyachi kun tartibiga binoan tuzib chiqadi. Bolalarning o'yini ham, mehnat mashg'uloti ham, maishiy faoliyati ham tarbiyachining har kungi kalendor rejasidan o'rin olishi lozim.

Kalendor rejaning mazmuni va shakli bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi qay darajada borayotganligiga qarab baholanadi.

Ertalabki soatlarni rejalashtirish. Ertalabki soatlarda quyidagilar rejalashtiriladi:

1. Bolalarning og'zaki nutqini tuzatish va rivojlantirish:

a) kitoblar, o'yinchoqlar, bolaning dam olish kunini qanday o'tkazgani, uning oila a'zolari – ota-onasi, opa-singlisi, aka-ukasi va shunga o'xshashlar to'g'risida jamoa tarzida va yakka tartibda suhbatlar o'tkazish;

b) albomlar, jurnallar, yangi kitoblar, rassomlarning yangi asarlarini ko'rish;

v) she'rlarni takrorlash;

g) to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantiruvchi didaktik o'yinlar;

d) tovushlarni to'g'rilash bo'yicha yakka tartibda shug'ullanish.

2. Bolalarni kattalik, rang, vaqt, fazoviy masofa bilan tanishtirish bo'yicha didaktik o'yinlarni rejalashtirish (kichik va o'rta guruhlarda).

3. Bolalar xohlagan faoliyat rejalashtiriladi. Bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun plastilin, bo'yoqlar, qalamlar, bo'yashlari uchun rasmiли kitobchalar va o'zlarining chizgan rasmlari beriladi.

4. Bolalar tomosha qilishlari uchun xalq o'yinchoqlari, kiyimlar, kashtalar, idish-tovoqlar, narsa-buyumlar, milliy kiyimdag'i qo'g'irchoqlar beriladi.

5. Bolalarni madaniy-gigiyenik malakalarga o'rgatish bo'yicha yakka tartibdagi ishlar rejalashtiriladi, masalan,

kichkina guruhda dastro'molchadan foydalanishga o'rgatish bo'yicha didaktik o'yin o'tkaziladi.,

6. Koptokni dumalatish, gardishni aylantirish, tirmashib chiqish, sirpanib yurish kabi asosiy harakatlarni rivojlantiruvchi ishlar rejalashtiriladi.

7. Ashula va raqsning ayrim qismlarini takrorlash rejalashtiriladi.

8. Bolalarning o'yin faoliyatlari rejalashtiriladi:

a) qurilish o'yinlari rol, syujet bilan bog'liq qurilish o'yinlari rejalashtiriladi;

b) syujetli-rolli o'yinlar, turmushni aks ettiruvchi va boshqa shunga o'xshash o'yinlar rejalashtiriladi;

v) stol usti bosma didaktik o'yinlari, so'zli buyumlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, xorovod o'yinlar, xalq didaktik o'yinlari rejalashtiriladi. Bolalarning sezgisini, idrokini, tovushlarni idrok etishini, rang, vaqt, didni, nutqni o'stiruvchi ishlar rejalashtiriladi. Dramalashtirish va sport o'yinlari ham rejalashtiriladi.

9. Mehnatning turli xillari rejalashtiriladi:

a) tabiatdagi mehnat ko'chat o'tkazish, suv sepish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish va shu kabilar;

b) xo'jalik maishiy mehnat idishlarni yuvish, xonani yig'ishtirishtirish, kitoblarni yopishtirish-yelimlash, o'simliklar bargini artish);

v) qo'l mehnati (tabiiy materiallar, daraxtlar mevasi, somonchalar, lattalar, yog'och va kartondan har xil buyumlar yasash) har bir yosh guruhida mehnatning qaysi turi o'tkazilishi dasturda ko'rsatilgan. Ertalab 2-3 xil faoliyat rejalashtiriladi. Ertalabki soatlarni rejalashtirishda shu kungi o'tkaziladigan mashg'ulotlar e'tiborga olinadi. Mashg'ulotda biror narsa o'qib berish rejalashtirilgan bo'lsa, ertalabki soatda rasm ko'rish, onasi to'g'risida so'zlab berish, o'qish rejalashtirilmaydi, shu kuni ertalabki soatga mehnat, kattalik, shakl bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat rejalashtiriladi. Tarbiyachi har xil mashg'ulotlarni rejalashtiradi; bolalarga yangi bilim beruvchi

mashg'ulotlar ularning olgan bilimlarini, orttirgan tajribalarini mustahkamlovchi va tartibga soluvchi mashg'ulotlar, kompleks mashg'ulotlar va hisobot-nazorat (tekshiruvchi) mashg'ulotlari bo'ladi. Tarbiyachi o'zining kalendar rejasiga mashg'ulotning nomi va dastur mazmunini yozib qo'yadi. Dastur mazmuniga mashg'ulotning ta'lif-tarbiyaviy vazifalari va bolalar egallab olishlari, aniqlash va mustahkamlash kerak bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar hajmi ham yoziladi.

Mashg'ulotni rejalashtirish bolalar tomonidan ma'lum hajmdagi bilimlarni egallah va kengaytirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, shu bilan birga ularning bilimlarini aniqlash, mustahkamlash, mustaqil faoliyatlarida qo'llash imkonini beradi. Bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarning hajmi mashg'ulotdan-mashg'ulotga kengaytirib, murakkablashtirib boriladi. Masalan, tarbiyachi birinchi mashg'ulotdabolalarni uyhayvonlari bilantanshitradi, bolalar ularni kuzatishadi, nomini aytishga o'rganadi. Keyingi mashg'ulotda esa bu bilimlar mustahkamlanib, hayvonlarni kuzatish jarayonida yangi bilimlar hosil bo'ladi. Bolalar bu hayvonlarning foydali belgilarini, xatti-harakatini kuzatishsa, kelgusi mashg'ulotda bolalar uy hayvonini odamlar qanday parvarish qilishi va bu parvarishga hayvonlar o'z «minnatdorchiligini» qanday bildirishi to'g'risida gap boradi.

Dastur materialini o'rganish mashg'ulotdan-mashg'ulotga mana shu izchillik bilan amalga oshirib boriladi. Bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari aksariyat hollarda tarbiyachining tayyorlagan metod va usullariga, shart-sharoitga bog'liq bo'ladi. Bu yoshdag'i bolalarning yosh xususiyati asosan ko'rgazmali metoddan kuzatish namoyish qilish metodi hikoya, suhbat, tushuntirish; amaliy metod mashq o'yindan foydalanishni takrorlaydi.

Har bir metod umumiy vazifani amalga oshirishga qaratilgan yagona yo'l bo'lib, usullar yig'indisidan tashkil topadi. Hamma usullarni shartli ravishda uchta guruuhga bo'lish mumkin: ko'rgazmali (ko'rsatish), og'zaki (savol, solishtirish, she'r

aytish, topishmoqdan foydalanish), amaliy (topshiriq, o'yin, vaziyat usullari va boshqalar).

Bevosita faollashtiruvchi metodlardan tashqari bavosita metodlardan ham foydalilanadi (eslatish, maslahat, tanbeh berish, tuzatish). Ko'p hollarda metod va usullardan kompleks tarzda foydalilanadi. Mashg'ulot vaqtida beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni bolalar yaxshi o'zlashtirib olishlari ularning hissiy holatini ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyachi o'zining kalendar rejasida mashg'ulotda foydalilanadigan usulnigina yozib qolmasdan, shu bilan birga uning mazmunini ham ochib yozishi kerak.

Bolalarga beriladigan savollarni ham qanday izchillikda berilsa, shunday yozib qo'yish zarur. Agar tarbiyachi mashg'ulotda topishmoq yoki she'rdan parcha keltirmoqchi bo'lsa, uning mazmunini yozib qo'yan ma'qul. Solishtirishga o'rgatishda qaysi buyumlardan, ularning qaysi belgisidan, qanday savollardan foydalanish lozimligi ham yoziladi.

Tarbiyachining mashg'ulotni rejalahtirishdagi ba'zi bir metod va usullarini ko'rib chiqamiz.

Tarbiyachi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rayotganda, albatta, yosh bolaning tafakkuri ko'rgazmali-obrazli bo'lishini e'tiborga oladi va asosan mashg'ulotda ko'rgazmali metodlarni rejalahtiradi. Kuzatish metodi tarbiyachi rahbarligida kuzatilayotgan obyektni bolaning hissiy idrok qilishini ta'minlaydi. Narsa va buyumlarni namoyish etish ham shunday ahamiyat kasb etadi. Ko'p mashg'ulotlarda, ayniqsa, nutqni o'stirish mashg'ulotida tarbiyachining hikoyasidan foydalilanadi. Bu bolalarga tanish bo'lgan badiiy asardan, tevarak-atrofdagi hayotdan olingan voqeа-hodisalarini tarbiyachi his-hayajon bilan jonli, obrazli qilib bayon etishidir.

Suhbat metodi ham rejalahtiriladi. Suhbat bolalarga avval egallagan bilimlari bilan yangisini bog'lash imkonini yaratadi, shuningdek, yangi bilimlarni o'zlashtirib olishlarini yengillashtiradi. Tarbiyachi mashg'ulotlarda foydalanadigan

so'zli metodda uning qiyinligini savollar tashkil etadi. Savollar ni bolalarning bilish jarayonlari: sezgi, idrok, tafakkurini faollashtiradigan qilib tuzish kerak. Savollar bolalardan aqliy zo'r berishga, sabab-natijalar ni aniqlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar yaratish ham bolaning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, bilimlarni egallab olishini yengillashtiradi, ularning fahm-farosatli, mustaqil fikrlaydigan bo'lishiga yordam beradi.

Mashg'ulotlarda solishtirish usulidan foydalanish insonning eng qimmatbaho aqliy xazinasi bo'lib, u buyumlarni yaxshiroq o'rganish va tushunishga yordam beradi.

Kichik guruhlarda solishtiriladigan buyumlar bir-ikkitadan ko'p bo'lmaydi. Tarbiyachi solishtirishni qanday izchillikda olib borishni o'zining kalendar rejasida yozib qo'yadi.

O'rta guruhdada solishtirishga mo'ljallangan buyumlardagi belgilar soni ko'payadi va bolalardan buyumlarni kuzatib, ulardagi belgilarni ma'lum izchillikda bayon qilish talab etiladi.

Katta va muktabga tayyorlov guruhradagi bolalardan faqat ular ko'rib turgan buyumlarning belgilarini sanash bilan chegaralanib qolmay, ularni solishtirishda tasavvurlaridan foydalanish ham talab etiladi.

Solishtirishning bu murakkab shakli bolalarning yoshiga mos bo'lib, ularning aqliy rivojlanishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi mashg'ulotlarda o'yin usulidan keng foydalanadi. O'yin usuli mashg'ulotning qiziqarliroq, jozibaliroqligini ta'minlaydi, mashg'ulot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bola osonlik bilan yengadi.

Mashg'ulot rejasida bolalarning xulq-atvori, qiziqishi, rivojlanish darajasiga qarab yakka tartibdag'i ishlar ham rejalashtiriladi. Umumiy rivojlanishi biroz orqada qolayotgan, diqqati tarqoq, o'ziga ishonchi yo'q yoki o'zi to'g'risida yuqori fikrli bolalarga ko'proq e'tibor berish kerak.

Shunday qilib, kalendar rejaga mashg'ulotning dastur mazmuni, metodik usul unga kerakli ko'rgazma va tarqatma materiallar, bolalar bilan individual ishlash rejalashtiriladi.

Sayrni rejalashtirish.

1. Tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi voqeа-hodisalarни kuzatish rejalashtiriladi. Masalan: harakatlanayotgan transportni, bayramga bezatilgan ko'chani, farroshning ishini va shunga o'xshashlarni kuzatish; barg yozayotgan, gullab turgan o'simliklarni, yog'ayotgan qor va hokazolarni kuzatish rejalashtiriladi. Bular haftasiga 5-6 marta kuzatiladi. Ob-havoni kuzatishni oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Bu kalendar rejaga quyidagicha yoziladi: yaqin orada (hafta davomida) qor yog'ishini kuzatish. Bu tadbir o'tkaziladigan mashg'ulot bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

2. Qoidalari o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi ko'rsatilgan holda rejalashtiriladi. Kichik guruhda bitta yangi o'yin yoki tanish o'yinni rejalashtirish mumkin katta guruhda ham bolalarga tanish bo'lgan 2 o'yinni sayrning boshida va oxirida rejalashtirgan ma'qul.

3. Bolalarning maydonchadagi, polizdagi mehnati rejalashtiriladi:

a) tabiatdagi mehnat (daraxt o'tkazish, suv quyish, chopiq qilish, o'simlik urug'ini terish, hayvonlarni parvarish qilish va hokazolar);

b) maishiy-xo'jalik mehnati (barglarni yig'ish, qorni tozalash, ayvonchani supurish, qafasni tozalash, yo'lkalarga qum sepish va shunga o'xshashlar).

4. Bolalar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar: jismoniy tarbiyadan asosiy harakatlarni mashq qildirish, san'at, ona tilini o'rganish va boshqalar.

Asosiy harakatlarni mashq qildirish bo'yicha tadbirlar yil fasllariga qarab tanlanadi, masalan, qishda yugurish, sakrash, yurish kabi ishlar rejalashtiriladi; emaklab, sirpanib yurish, gimnastika narvonchasidagi muvozanatni saqlashga o'rgatuvchi mashqlar rejalashtirilmaydi.

5. Sport o'yinlari (voleybol, stol tennisi, badminton va shunga o'xshashlar), sport ermak o'yinlari (chang'i, konki, chana, velosiped va boshqalar).

6. Maqsadli sayrlar maydonchadan tashqariga o'tkaziladi. Avval ekskursiyaga borib kelingan joyga maqsadli sayr uyuştiladi. (Masalan, bahorda mana shu o'tloqqa kelgan edik, shu vaqtgacha ko'p narsalar o'zgaribdi)

7. Qurilish o'yinlari va ularga kerakli materiallar, qurollar sayrda bolalarning syujetli-rolli o'yinlari yuzaga kelish va rivojlanishi, o'yin harakatlariga bolalarni o'rgatish usullari ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi kalendar rejasi o'yin uchun olib chiqiladigan o'yinchoqlarni, ularning ayrimlarini ham ko'rsatadi. Sayrga chiqishdan oldin tarbiyachi bugun sayr vaqtida nima bilan shug'ullanishlari, qanday mehnat faoliyatini bajarishlari yoki qanday o'yin materiallarini olib chiqishlari kerakligi to'g'risida bolalar bilan gaplashib oladi.

**Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish.** Kunning ikkinchi yarmi ikki qismdan iborat: guruhdagi va sayrdagi ishlar kunning ikkinchi yarmida bolalarning guruhdagi o'yin faoliyati rejalashtiriladi.

Uyqidan keyingi o'yin uchun kichik guruhda - 45daqiqa, o'rta guruhda 1 soat, katta guruhda - 1soat, tayyorlov guruhida -1,5 soat ajratiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar ham rejalashtiriladi (faqt nomigina yoziladi). Rejada, shuningdek, stol usti bosma o'yinlari, didaktik o'yinlar ham mo'ljallanadi. Rejaga stol usti bosma o'yinlari qoidasi, tushuntirilishi ham yoziladi. Bu vaqtda dramalashtirilgan o'yinlar ham rejalashtiriladi.

Tarbiyachi qurilish o'yinlarida o'zining qatnashishini ham rejaga yozib qo'yadi. Unda tarbiyachining bolalar bilan atributlar yasashi ham mo'ljallanadi.

Kechqurunga ko'ngil ochish o'yinlarini rejalashtirish mumkin. U haftasiga bir marta o'tkaziladi. Katta va tayyorlov guruhida kitoblarni bir necha kun davomida o'qib berish ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi har gal o'qishdan oldin "O'tgan gal

men sizlarga nima o'qib bergen edim", deydi. Bolalar buni esga tushirib, so'zlab berishadi. Tarbiyachi savollar bilan yordam berib turadi.

Kunning ikkinchi yarmida asosan bolalarning xilma-xil o'yin faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari uchun sharoit yaratish, o'yinchoqlar bilan o'ynashga o'rgatish va boshqalar kalendar rejasiga yoziladi. O'yinda tarbiyachining qatnashishi ham rejada qayd etiladi. Bu bolalar o'yinini tashkil etish va unga tarbiyachining rahbarlik qilishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyachining bolalar o'yiniga rahbarligi o'zgarib, bevosita rahbarlikdan bavosita rahbarlikka o'tadi, tarbiyachi bolalarning mustaqil faoliyatlarini rag'batlantiradi. Tarbiyachi qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarni, sahnalaشتirilgan va qoidalı o'yinlarni ham rejalashtiradi.

Kunduzgi uyqudan keyin guruh xonasini yig'ishtirish, yirtilgan kitoblarni ta'mirlash, qo'g'irchoq kiyimini yuvish, kichik bolalar uchun o'yinchoqlar yasab berish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi mehnat faoliyati rejalashtiriladi. Tarbiyachi, shuningdek, ko'ngilochar o'yinlarni ham unutmaydi. Bunga qo'g'irchoq, soya teatri, konsertlar, sport, musiqa va badiiy ko'ngil ochish soatlari, musiqa eshitish va shunga o'xshashlar kiradi. Tarbiyachi badiiy asarlarni o'qib berish, klassik va zamonaviy rassomlarning rasmlarini tomosha qilishni ham esdan chiqarmaydi. Kunning ikkinchi yarmida har kuni sayr o'tkaziladi, uning mazmuniga harakatli va ijodiy o'yinlar, mehnat faoliyati kiradi.

Buyumlarni, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish, jonli obyekt bilan muloqotda bo'lish ham kalendar rejasidan o'rinn egallashi kerak.

Tarbiyachi bolalarning o'zlari qiziqqan faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Reja kun davomida har bir bola mazmunli, qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanadigan qilib tuzilishi kerak.

## **Ta'lim-tarbiya ishlarini rejashtirish mazmuni**

Ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni, metodi va usullari hamda uni tashkil etish turlari, bolalar xulq-atvorini tarbiyalash mazmuni, ularda madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish, bolalar mehnati va o'yinlariga rahbarlik usullari, bolaning bo'sh vaqt, ko'ngilochar daqiqalarni tashkil etish, shuningdek, ota-onalar bilan ishlash turlari rejashtirilishi lozim.

O'qitishning har bir bo'limiga doir mashg'ulotlarni rejashtirishda bilimlarni egallashning asosiy bosqichlari hisobga olinadi. Rejada bilimlar mazmunining takrorlanishi, ularni sekin-asta murakkablashtirish nazarda tutiladi. Istalgan bo'limga doir mashg'ulotlarni rejashtirishda mazkur bo'lim bilan bog'langan asosiy ta'lim-tarbiyaviy masalalardan tashqari dasturning boshqa bo'limlaridan ayrim masalalarni kiritish kerak. Mashg'ulotlarni bunday yaxlitlash ularni rivojlantiruvchi samarasini oshiradi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlar mashg'ulotlardan tashqarida: kundalik turmush, o'yin, mehnatda ham davom ettiriladi. Rejada bolaning xulq-atvorini: bir-birlariga xayrixohlik munosabatini, bir-birining o'yiniga qiziqishlari bilan hisoblashishni, yuzaga kelgan nizolarni haqgo'ylik bilan hal qilish kabilarni tarbiyalash vazifalari nazarda tutiladi.

Rejada o'yinda bolalarni o'zaro munosabatlari va xulq-atvorlarini tarbiyalash vazifasini kiritib, tarbiyachi bolalar o'yinlarining mazmunini, ularning o'ynash ko'nikmalarini hisobga oladi. Kun davomida tarbiyachi xilma-xil harakatli va didaktik o'yinlarni uyshtiradi, ularga rahbarlik rejashtiradi.

Bolalarning mehnat faoliyatlarini tashkil etish shakllariga doir rejashtirish muhimdir. Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqlardan foydalанилди. O'z mazmuniga ko'ra topshiriqlar turlicha bo'lishi mumkin. Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini

qayd etish, so'ogra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi bolalar navbatchiligiga rahbarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mehnat hajmi va mazmunini, bolalarga navbatchilik vazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, metod va usullarni ko'rsatadi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi, o'tkazish vaqtini ko'rsatiladi. Zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi.

Mustaqillik bayramlari, mustaqil yurtimizdag'i muhim sanalar va hodisalar bilan bog'liq bayramlar, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga Vatanga muhabbat, baynalminal hislarni tarbiyalash, ularni xalqimizning boy milliy va umumbashariy qadriyatlari asosida tarbiyalash maqsadida bayram ertaliklari o'tkaziladi. Bayramlarni tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirish lozim. Rejada muassasaning butun jamoasi, bolalarning tayyorlarligi aks ettiriladi. Pedagogik kengashda bayram ssenariysi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibotni amalga oshiradi. Ularni oila va maktabgacha ta'lim muassasasining bolalarga ta'sir ko'rsatishda hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaviy ish mazmuni bilan tanishtiradi. Bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or usullarini o'rghanadi, umumlashtiradi va tarqatadi. Bu ish izchiltarzda amalga oshiriladi va maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan yillik rejada, tarbiyachi tomonidan ham rejalashtiriladi. Ishni tashkil etish usullari quyidagilarni: ota-onalar majlisi, bola oilasiga borishni, ochiq eshiklar kunini, mashg'ulotlar o'tkazishni, bolalar ishlari bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etishni nazarda tutadi.

Ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish shakllarini ilova etamiz.

## **Hova**

### **Yilik reja**

- 1. Hisobot.**
- 2. MTMning \_\_\_ yildagi asosiy o'quv vazifalari.**
- 3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tadbirlari (tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, tarbiyachilarni metod birlashmalarga olib borish).**
- 4. Nazariy-amaliy seminarda qatnashish.**
- 5. MTM pedagogik jamoasi ro'yxati.**
- 6. Pedagoglarning siyosiy ongini oshirish (Prezident farmonlari, gazeta, Konstitutsiya).**
- 7. Malakka oshirish rejasi (Tarbiyachining F.I.Sh., yili).**
- 8. Pedagogik kengash (yillik rejani muhokamasi, yangi o'quv yiliga tayyoragarlik haqida tarbiyachi hisoboti, pedagogik kadrlarni guruhlarga taqsimlash, ochiq mashg'ulotlar tahlili).**
- 9. Amaliy, nazariy seminar (bolalarda uchraydigan kasalliklar, aqliy rivojlanish).**
- 10. Tarbiyachilar uchun maslahatlar.**
- 11. Yosh mutaxassislar bilan ishslash (F.I.Sh.).**
- 12. Tashkiliy ishlar (ko'rik tanlovlarda qatnashish: «Yil tarbiyachisi», «Chaqqon ona», «Sog'lomjon, polvonjon»).**
- 13. \_\_\_ yilda o'tgan tadbirlar.**
- 14. Pedagogik jarayonni jamoa bilan kuzatish (katta guruhlarda ekologik tarbiya).**
- 15. MTM va maktab hamkorligi (maktabning yangi o'quv yilining boshlanishidagi marosimida qatnashish, tayyorlov guruhlari bolalarini mакtab binosi bilan tanishtirish, o'qituvchisi bilan bolalarni o'zlashtirishi haqida suhabat, «Alifbe» bayramida qatnashish, «Xayr bog'cha, salom maktab»).**
- 16. Kam ta'minlangan oila bolalari bilan ishslash.**
- 17. Umumiy ota-onalar yig'ini (ota-onalar komitetini saylash, yillik ish reja bilan tanishtirish, to'garaklar haqida).**
- 18. Har bir yosh guruhda ota-onalar yig'ilishi.**
- 19. Yozgi sog'lomlashtirish va tibbiy ishlar rejasi.**
- 20. Ilg'or tajribalarni o'rGANISH (tarbiyachi F.I.Sh.ni**

ommalashtirish, masalan, ota-onalar bilan ishlash uslublarini o'rganish).

21. To'garaklar ish rejasi.
22. Xo'jalik-maishiy ishlar (idishlar, o'yinchoqlar, jihozlar bilan ta'minlanganligi).
23. Sog'lom avlod dasturini amalga oshirish.
24. Ochiq eshiklar kuni: sentyabr, dekabr, aprel, iyun.

### Kundalik rejaning tuzilishi

<b>sana</b>	<b>Ertalabki soat</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Suhbat (mavzu).</li> <li>2. O'yinlar (mavzu).</li> <li>3. Mustaqil faoliyat.</li> <li>4. Mehnat.</li> <li>5. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash.</li> </ol>
	<b>Mashg'ulotlar</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mashg'ulot yo'nalishi, mavzu va maqsadi.</li> <li>2. Zaruriy jihoz va ko'rgazmali quollar.</li> <li>3. Mashg'ulotning borishi (tarkibiy qismlari).</li> </ol>
	<b>Sayr</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kuzatish.</li> <li>2. Harakatli o'yin.</li> <li>3. Ixtiyoriy o'yinlar.</li> <li>4. Mehnat.</li> <li>5. Tinch o'yin. (Sayr qismlarining ketma-ketligi olingen mavzuga qarab o'zgarishi mumkin)</li> </ol>
	<b>Kunning 2-yarmi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yakka tartibda ishlash.</li> <li>2. Ifodali o'qish va suhbat.</li> <li>3. O'yinlar (ta'limiy, stol ustida, voqeaband, ixtiyoriy, sahnalaشتirilgan).</li> <li>4. Ko'ngilochar soatlar (har oyda 1-2 marta).</li> </ol>
	<b>Kechki sayr</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ixtiyoriy kuzatish.</li> <li>2. Ixtiyoriy o'yinlar.</li> <li>3. Ota-onalar bilan ishlash.</li> </ol>

## Ta'lism-tarbiyaviy ish rejasi

Maktabgacha ta'lism muassasasida ta'lism-tarbiya jarayonini rejalashtirish tarbiyachidan tegishli tayyorgarlikni talab etadigan ancha murakkab ishdir. Tarbiyachi bolaning psixik-fiziologik rivojlanish darajasini, «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini»ni hamda u asosida yaratilgan ta'lism-tarbiya dasturini yaxshi bilishi kerak. Reja tarbiyachiga dastur talablarini bir yilga bir tekisda taqsimlashga yordam beradi hamda ta'lism-tarbiya berish va tarbiyalashning usullarini oldindan o'ylab olish, maqsadni aniqroq ko'rish imkonini beradi. Reja bo'lsa, tarbiyachi bugun nima ish qilishi va qanday qilishini, qaysi qo'llanmalardan foydalanishni biladi.

Ta'lism-tarbiyaviy ish rejasi tarbiyachi tomonidan tuziladi. Reja oy boshlanishidan besh kun avval metodistga tasdiqlash uchun beriladi, oylik ish reja daftarida, avvalo, haftalik mashg'ulotlar jadvali, bir oylik rejaning taqsimoti beriladi. Har o'n besh kunga mo'ljallangan badantarbiya mashqlari, ota-onalar bilan ishslash rejasi va kundalik faoliyatining yuritilishi ochib beriladi. Kundalik faoliyatda ertalabki soat, mashg'ulot, sayr, kunning 2-yarmida belgilangan vazifalar to'liq yoritiladi.

### Davomat daftari.

Davomat daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak. Kundalik davomat tarbiyachi tomonidan bolalarning soni yozilgandan so'ng tasdiqlanadi, imzolanadi. Davomat har oyda yopiladi.

### Filtr daftari.

Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, imzolangan bo'lishi kerak.

Bolaning ismi, familiyasi	Haro-rati	Terisi	Og'iz bo'shlig'i	Pedi-kulyoz	Ota-onalar bilan suhbat	Ilova

## Ota-onalar haqida ma'lumot daftari.

Bolaning ismi, sharifi	Tug'ilgan yili	Otasining F.I.Sh., ish joyi	Onasining F.I.Sh., ish joyi	Manzili	Telefon

## Patronaj daftari.

Patronaj daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, imzolangan bo'lishi kerak.

№	Bolaning ismi, familiyasi	MTMga oxirgi kelgan kuni	Patronaj				Tashxisi	MTMga kelgan kuni	Imzo
			I 3 kunda	Sababi	II 7 kunda (sababi)	III 14 kunda (sababi)			

## O'z ustida ishslash daftari.

O'z ustida ishslash daftari uch yo'nalishda olib boriladi:

- A) Siyosiy o'qish.
- B) Yangi metodik qo'llanmlar bilan tanishib borish.
- V) Ilg'or ish tajribani o'rganish.

## Tayanch tushunchalar:

**Sayr** – bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish.

**Ekskursiya** – bolalarga ta'lim berish shakli, bolalarni tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish.

## Nazorat uchun savollar:

1. MTMdha ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish komil inson tarbiyasida tutgan o'rnnini ifodalang.
2. Mustaqil reja turlaridan birini tayyorlang va tahlil qiling?
3. Yilliy rejada nimalar aks etadi?

4. Ertalabki soatlarda qanday ishlar rejalashtiriladi?
5. Sayr qanday rejalashtiriladi?

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. MTMd qanday rejalar tuziladi?

- a) yillik reja, istiqbol reja, kalendar reja
- b) yillik reja
- v) mujassam reja
- g) kompleks reja

2. Yillik reja qancha muddatga tuziladi, unda nimalar aks etadi?

- a) MTMd o'tkaziladigan barcha ta'limiy, tarbiyaviy, moliyaviy, malaka oshirishlar aks etadi
- b) bir yilga mo'ljallanadi, guruhlagi ta'limiy ishlar rejalashdiriladi
- v) bir yilga tuziladi, metodik ishlar rejalashtiriladi
- g) 6 oyga tuziladi, moddiy ta'minot masalalari rejalashtiriladi.

3. Kalendar tematik reja qancha muddatga tuziladi va unda nimalar aks etadi?

- a) bolalarning ruhiy rivojlanishi – 20 kun
- b) bolalarning jismoniy rivojlanishi – 10 kun
- v) kun davomida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni – 10-12 kun
- g) bolalarning ma'naviy rivojlanishi – 3 oy

4. Kechki sayrda qanday ishlar amalga oshiriladi?

- a) ijodiy, didaktik o'yinlar, tinch harakatli o'yinlar
- b) kuzatish, qo'l mehnati
- v) mustaqil tasviriy faoliyatlar, ko'ngil ochishlar
- g) hamma javoblar to'g'ri

5. Kunning ikkinchi yarmi necha qismdan iborat?

- a) 2 qism – guruhdagi va sayrdagi ishlar
- b) 1 qism – guruhdagi ishlar
- v) 4 qism – guruhdagi, sayrdagi, ekskursiyadagi, mashg'ulotlardagi ishlar
- g) hamma javoblar to'g'ri.

## **4-BO'LIM. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH**

### **XVIII BOB. Ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil qilish vazifalari va rivojlanishining asosiy bosqichlari**

#### **Maktabgacha ta'limning mazmun-mohiyati va ta'lim tizimida tutgan o'rni**

Maktabgacha ta'lim – bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishi, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy-axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan yaxlit jarayondir.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tashkil etiladi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarda (keyingi o'rnlarda bolalar deb ataladi) jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, nutq, o'qish va chet tillarni o'rganish, bilish jarayoni, dunyo haqidagi bilimlar va dunyoni anglashi, ijodiy-estetik rivojlanishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedago-gik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada

hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalarida amalga oshiriladi.

### **Davlat maktabgacha ta'lif muassasasining maqsadi va vazifalari**

– Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lif muassasasining maqsadi hisoblanadi:

– bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;

– ta'lif-tarbiya berish orqali bolalarni mакtab ta'lifiga sifatli tayyorlash;

– bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lif muassasasining vazifalari hisoblanadi:

– bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;

– bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish;

– bolaning shaxsini va boshqa jihatlarini rivojlantirgan holda uni boshlang'ich ta'lifni olishga tayyorlash;

– bolaning rivojlanishidagi (nutqida, ko'rishida, eshitishida) yengil nuqsonlarni korreksiyalashni amalga oshirish;

– ta'lif-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lif dasturlari va texnologiyalarini joriy etish.

Maktabgacha ta'lif bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lif-tarbiyasiga qo'llanadigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma'naviy va intelluktual jihatdan mакtabda o'qishga tayyorlashni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lif uzlusiz ta'lifning barcha bo'g'lnlari bilan mustahkam aloqa va uzviy bog'liqlikda olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida «Oila jamiatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» degan qoida mustahkamlab qo'yilgan, 45-moddasida voyaga yetmaganlar davlat

himoyasida ekani, 64-moddasida esa «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi», deb qayd etilgan.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI

O'z nizomida nazarda tutilgan funksiyalarning bajarilmagani uchun mas'uldir	Ta'limg dasturining to'liq hajmda bajarilmagani, amalga oshirilayotgan ta'limg dasturlarining sifati uchun mas'uldir	Ta'limg jarayonini tashkil etishda qo'llanilayotgan shakllar, metodlar va vositalar bolalarning yosh, ruhiy-fiziologik xususiyatlari, qobiqliyati, layoqati, qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlashga mas'uldir	Muassasada tarbiyalanayotgan bolalarning ta'limg jarayonida hayoti va sog'ligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi
---	--	---	---

Maktabgacha ta'limg muassasasi ana shu huquqiy asoslarga tayangan holda oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy va mintaqaviy xususiyatlarni e'tiborga olib, ularni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadida tashkil etiladi.

Ijtimoiy maktabgacha ta'limg bu davlat tomonidan tashkil etiladigan muassasa bo'lib, unda maktabgacha ta'limg yoshidagi bolalarga ta'limg-tarbiya beriladi.

Maktabgacha ta'limg uzluksiz ta'limg tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida O'zbekiston Respublikasining «Ta'limg to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'limg sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'limg olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'limg bola 6~7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'limg muassasalarida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy maktabgacha ta'lim bu – davlat tomonidan tashkil etiladigan muassasa bo'lib, unda maktab- gacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya beriladi.

## Maktabgacha ta'limning ustuvor vazifalari

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda oilada amalgalashiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish zarur:

- yuqori malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini yaratish va amaliyotga joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashning tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqdar va o'yinlar yaratish hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish;
- bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarining har xil turlari uchun muqobil dasturlarni tanlab olish, barcha masalalar bo'yicha malakali maslahat ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish muassasalarini tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

## **Mustaqillik yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish tamoyillari va asosiy yo'nalishlari**

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti rahbarligida davlat va jamiyat hayotini, jumladan, ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlolning dastlabki yillardayoq Prezidentimiz kadrlar tayyorlashning zamonaviy yagona tizimini yaratish g'oyasini ilgari surib: «Ta'lim berishning ma'nnaviy, axloqiy va kasb malakasi bo'yicha tarbiyalashning mutlaqo yangi tizimi ishlab chiqilishi zarur. Sifat jihatidan butunlay yangi o'quv dasturlari yaratilishi darkor», deya ta'kidlagan edi. Davlatimiz rahbarining ushbu fikrlari keyinchalik ta'lim-tarbiya sohasiga oid ko'plab qonunlarning, tegishli me'yoriy hujjatlarning, eng muhimmi, butun dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olingen Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga metodologik asos sifatida xizmat qildi. Ushbu dasturda maktabgacha va maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar hamda oliy ta'limga uch bosqichda isloh qilishni, besh bosqichli ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutilgan edi.

Bu boradagi milliy dastur konsepsiysi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan 1997-yil Oliy Majlisning IX sessiyasida «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli ma'rzasida asoslab berildi. Unga binoan, mamlakatimizda noyob, dunyoda o'xhashi yo'q uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – bola shaxsining har jihatdan rivojlanishini ta'minlash, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'qishga, doimiy ta'lim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirish va maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning bilimi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish

bilan birga, ularni vatanparvarlik, mustaqillik g'oyalariga sadoqat, tariximiz va boy ma'naviy-ma'rifiy merosimiz va qadriyatlarimizga yuksak hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining qonuniy asoslari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (1992-y.), Kadr lar tayyorlash milliy dasturi (1997-y.), «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiya (2008, 2011), Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagagi 528-son qaroriga "Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida"gi NIZOM (2017), "Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida NIZOM", «Ilk qadam» o'quv dasturi (2018) va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan.

Masalan, 2008-yilda ishlab chiqilgan «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiyaada maktabgacha ta'lim muassasalari taraqqiyotining ustuvor yo'naliishlari, ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish usul va uslublari belgilab berilgan bo'lib, bu borada ilgari surilgan davlat talablari har bir bolaning yoshini e'tiborga olgan holda rivojlanish darajasini aniqlash, pedagog va tarbiyachilar ish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagagi 528-sonli qaroriga binoan «Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida»gi qaroriga asosan mazkur nizom jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagagi bolalarni sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining (keyingi o'rinn larda ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi deb ataladi) maqsadi va vazifalarini, uning faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish tartibini belgilaydi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya berish, korreksion-pedagogik va davolash-sog'lomlashtirish faoliyatni olib boruvchi muassasa hisoblanadi.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ularning bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarni korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta'limga tayyorlash, jamiyatga moslashuviga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi.

Quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasasining vazifalari hisoblanadi:

maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari hamda ular asosida ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasalarida ta'limga tarbiya va sog'lomlashtirish ishlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarning ta'limga tarbiya olishlarini va korreksion pedagogik ishni ta'minlash;

- korreksion ta'limga tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, individual tarzda tashkil etish;
- bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarini shakllanishi uchun zarur korreksion-rivojlantiruvchi ta'limga tarbiya muhitini yaratish;
- bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun zaruriy korreksion pedagogik ishni tashkillashtirish;
- bolalarni ijtimoiy hayotga va maktab ta'limga sifatli tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'limga to'g'risida»gi qonunga muvofiq, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasasi akkreditatsiyasi attestatsiya asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

“Maktabgacha ta'limga muassasasi tarbiyalanuvchilarining sog'lom va xavfsiz ovqatlanishini tashkil etish to'g'risida NIZOM”da maktabgacha ta'limga muassasalarini tarbiyalanuvchilarining sog'lom va xavfsiz ovqatlanishini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha turdagilari maktabgacha ta'limga muassasalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Tarbiyalanuvchilarning sog'lom va xavfsiz ovqatlanishni tashkil etish mактабгача та'лим muassasalarining oshxonalarida (keyingi о'rnlarda oshxona deb yuritiladi) sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiriladi.

Respublikadagi barcha mактабгача та'лим muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza etish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, Mактабгача та'лим va Sog'liqni saqlash vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan «Mактабгача та'лим muassasalarida bola hayoti va sog'lig'ini muhofaza etish tartibi to'g'risida»gi Nizomda bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza etishni tashkil qilish tartibi, bolalarning muassasaga kelib-ketish qoidalari, binoda sog'liqni muhofaza etishga, yong'in xavfsizligiga doir talablar bayon etilgan.

- O'zbekistonda mактабгача та'лим muassasalarining zamонави тизими:

- Mактабгача та'лим va boshlang'ich ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi – mакtab);
- bir necha ustuvor yo'nalishda faoliyat yurituvchi mактабгача та'лим (badiiy-estetik, tillarni o'rganish va sport yo'nalishlari va h.k);
- Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdag'i bolalar bog'chasi;
- tibbiy-gigiyenik, profilaktik va sog'lomlashtirish tadbirlari orqali jismonan zaif bolalarga qarab tu-rish va ularning sog'lig'ini tiklashga yo'naltirilgan bolalar bog'chasi;
- birlashtirilgan turdag'i bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdag'i bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va rivojlantiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi)

Ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lif oldida turgan maqsad hamda vazifalarni amalga oshirishda jamoat va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro jamg'armalar, shuningdek, tadbirkorlik tuzilmalari faol ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, respublikada maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lif-tarbiya ishlari amaldagi qonunchilikka binoan o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qirg'iz va qozoq tillarida olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) ta'lif-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterga ega ekani;
- 2) ta'lifning uzluksizligi va izchilligi;
- 3) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif yo'nalishini akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyiliği;
- 4) ta'lif tizimining dunyoviyligi;
- 5) Davlat ta'lif standartlari doirasida ta'lif olish huquqiga ega ekani;
- 6) ta'lif dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- 7) har bir shaxsning bilim olishi va iste'dodini rivojlantirishning rag'batlantirilishi;
- 8) ta'lif tizimida davlat va ijtimoiy boshqaruvening o'zaro uyg'unligi.

Uzluksiz ta'lif tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lif muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartish va ularni izchil rivojlantirish davlat tomonidan boshqarib boriladi. Barcha bo'g'in ta'lif boshqaruvi organlarining huquq va vakolatlari «Ta'lif to'g'risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi. Mazkur qonun ta'lif muassasalari faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslarini belgilab berish barobarida uning moliya xo'jalik ishlarini to'g'ri va oqilona yuritishni, ta'lif jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining mustaqil faoliyat

ko'rsatishini ta'minlaydi. Ta'lif muassasalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiya qilinadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra, ularga ta'lif sohasida faoliyat yuritish huquqi beriladi.

Muassasa tashkilotlar, mahalliy hokimiyat organlari, tadbirkorlar doiralari, jamoat tashkilotlari, turli jamg'armalar va homiylar vakillarini o'z ichiga olgan vasiylik va kuzatuv kengashlarini tuzish orqali ta'lif muassasalarida samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lif tizimi, jumladan, maktabgacha ta'lif tizimini tubdan yangilash va takomillashtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Shu yillar mobaynida yurtimizda mazkur sohani rivojlantirishning mustahkam huquqiy-institutsional asoslari yaratildi. Jumladan, «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunning alohida moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlangani shundan dalolat beradi.

Unga ko'ra, maktabgacha ta'lif tizimining asosiy maqsadi – bola shaxsining asoslarini shakllantirish, uning jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom va yetuk bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, ta'limning keyingi bosqichi – o'rta maktabda o'qishga tayyorlash, bilim olishga qiziqishini uyg'otishdan iborat. Shuningdek, ushbu moddada, «maktabgacha ta'lif oltiyetti yoshgacha oilada, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalarida olib boriladi», deya qayd etilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi ham komil inson tarbiyasiga qaratilgan. Mazkur huquqiy negizlar asosida yaratilgan maktabgacha ta'lif konsepsiyasiga tayangan holda maktabgacha ta'lifning tarkibi va mazmunini qayta ko'rib chiqish, jismoniy, ma'naviy va intellektual jihatdan barkamol, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, uni milliy an'ana va qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy-ma'rifiy meros, xalq pedagogikasi

tajribasi, zamonaviy ilm-fan erishgan yutuqlarga tayangan holda tarbiyalash, tarbiyaviy jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalari, oila va ota-onalarning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish masalalari uzliksiz va izchil hal etilmoqda.

Shu ma'noda 1993-yilda qabul qilingan hamda farzandlarimizni yoshligidanoq jismonan, ruhan, ma'naviy jihatdan tarbiyalashni ko'zda tutgan «Sog'lom avlod uchun dasturi» ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Unda, jumladan, quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish va boyitish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida basseyn, suv havzzalari, turli sport inshootlari va to'garaklarini tashkil etish;
- bu borada mamlakatimizda va xorijda to'plangan ilg'or tajribani o'rganish va ommalashtirish;
- mashg'ulotlarni qiziqarli o'yin tarzida, xususan, xalq milliy o'yinlari asosida tashkil etish va o'tkazish;
- bolalarning sog'lig'ini saqlash, muhofaza qilish va mustahkamlash, sog'lomlashtirish va chiniqtirish mashg'ulotlarini uzliksiz olib borish.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha asosiy qonun hujjatlari:

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (T.: 1997).

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (T.: 1997).

«Maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida»gi Nizom (T.: 2017).

«Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiya (T.: 2008; 2011).

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (T.: 2018).

Maktabgacha ta'lim sohasida chiqarilgan farmon, buyruq, farmoyishlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, boshqa direktiv va me'yoriy hujjatlar.

«Ilk qadam» o'quv dasturi (T.: 2018).

## **FSMU TEKNOLOGIYASI**

Munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonini bahs-munozara tarzida o'tkazishda qo'llaniladigan ushbu texnologiya tinglovchilarning o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini asoslashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringizni aynan shunday bayon etishning sababini ko'rsating.

M - fikringizni asoslovchi dalillar keltiring.

U - fikringizni yakunlab, umumlashtiring.

Savol	Kadrlar tayyorlash milliy dasturining milliy modeliga tavsif
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringizni aynan shunday bayon etishning sababini ko'rsating	
(M) Fikringizni asoslovchi dalillar keltiring	
(U) Fikringizni yakunlab, umumlashtiring	

## **UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI**

Uzluksiz ta'lism - yuksak malakali kadrlar tayyorlashning asosini tashkil etib, ta'limga barcha turlarini, davlat ta'limga standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish mazmun-mohiyatini ifoda etadi.

Uzluksiz ta'limga tashkil etish va rivojlanirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- *ta'limga ustuvorligi* - mazkur sohani izchil va uzluksiz rivojlanirish, bilim, aql-zakovat va yuksak intellektning nufuzi ustuvor ahamiyatga ega ekani;

*ta'limning demokratlashuvi* – ta'lim-tarbiya texnologiyalari, uslub va tamoyillarini belgilash va qo'llashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimining joriy etilishi;

*ta'limning insonparvarlashuvi* – bola manfaatlari, huquq va erkinliklarini kafolatlash, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligini, insonning jamiyat va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari uyg'unligini ta'minlash;

*ta'limning ijtimoiylashuvi* – ta'lim oluvchilar dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirish, ularda erkin, mustaqil va ijodiy fikrlesh ko'nikmalarini qaror toptirish;

*ta'limning milliy lashuvi* – ta'limning tariximiz, milliy an'ana va urf-odatlar bilan uzviy bog'liqligi, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar tarixi va madaniy qadriyatlarini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning eng muhim omili sifatida e'tirof etish;

*ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligi* – bu jarayonning har tomonlama barkamol insonni shakllantirishga yo'naltirilgani;

*iqtidorli yoshlarni aniqlash* – yoshligidanoq har bir bolaning qobiliyati va qiziqishlarini e'tiborga olib, asta-sekin muayyan sohaga yo'naltirib borish, mukammal bilim olishi uchun zarur shart-sharoit yaratish.

### **Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi**

*1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:*

B./ B. /B. texnologiyasi

B – bilaman

B – men uchun yangi ma'lumot

B – men bilgan ma'lumotni inkor etadi

? – noaniq (aniqlashtirish talab etiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

*1. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.*

Mavzu savollari	B	B	B	
1. Maktabgacha ta'limning mazmun-mohiyati va ta'lim tizimida tutgan o'rni				
2. O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari				
3. Mustaqillik yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish tamoyillari va asosiy yo'nalishlari				
4. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari.				

### Tayanch tushunchalar:

**Ijtimoiy maktabgacha ta'lim muassasasi** – davlat tomonidan tashkil etiladigan maktabgacha ta'lim muassasasi.

**Tipovoy loyiha** – Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan namunaviy loyiha.

**Direktiv hujjat** – me'yoriy yo'riqnomasi, ko'rsatma.

**Me'yoriy hujjat** – maktabgacha ta'lim sohasiga oid qonunlar, farmonlar, qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar, qonunosti hujjatlar.

### Nazorat uchun savollar:

1. Maktabgacha ta'lim tizimining mazmun-mohiyati nimada namoyon bo'ladi?
2. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida maktabgacha ta'lim tizimiga qanday ahamiyat berilgan?
3. Ijtimoiy maktabgacha ta'limning rivojlanish tarixini yoritib bering.
4. Maktabgacha ta'limning vazifalari nimalardan iborat?
5. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning qanday tamoyillarini bilasiz?

**6. Maktabgacha ta'lif bo'yicha asosiy ish hujjatlarini izohlab bering.**

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

**1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lif muassalarining zamonaviy tizimi qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

- a) yasli-bog'cha, maktabgacha muassasa-maktab
- b) bog'cha-maktab-litsey majmuasi
- v) maktabgacha ta'lif muassasasi-maktab-litsey, nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari
- g) maktab, litsey, bog'cha-maktab

**2. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloq qilish tamoyillari qaysi me'yoriy hujjatda belgilab berilgan?**

- a) «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunda
- b) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
- v) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida
- g) «Maktabgacha ta'lif to'g'risida»gi Nizomda

**3. «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasi ta'lifning qaysi turiga bag'ishlangan?**

- a) o'rta maxsus, kasb-hunar tizimiga
- b) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
- v) maktabdan tashqari ta'lif
- g) oiladagi ta'lif va mustaqil ravishda ta'lif olish

**4. «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lif to'g'risida»gi Nizomning maqsadi qaysi bandda to'g'ri keltirilgan?**

- a) bola shaxsini, maktabgacha yoshdag'i bolalar ta'lif tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq, sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish
- b) maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom va etuk qilib tarbiyalash

v) 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, aqliy-axloqiy yetuk insonlar etib tarbiyalash

g) maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash

5. Maktabgacha ta'lim muassasasining yuridik shaxs huquqi qaysi qonunda belgilab berilgan?

- a) Kadrlar tayyorlash milliy dasturida
- b) «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizomda
- v) «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda
- g) Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida

## **XIX BOB. MAK TABGACHA TA'LIMNI REJALASHTIRISH, MOLIYAVIY TA'MINLASH, BOSHQARISH TAMOYILLARI**

### **Xalq xo'jaligini ilmiy asosda rejalashtirish – iqtisodiy taraqqiyot asosi**

Maktabgacha ta'lif muassasalarini loyihalashtirish, rejalashtirish ishlari respublika xalq xo'jaligi rejasi asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lif muassasasi shu asosda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasini ishlab chiqadi. Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi,

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlattilida yozilgan muhrga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligidagi byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi. Unda maktabgacha ta'lif muassasasi yo'nalishi bo'yicha faoliyat natijalarini aks ettiruvchi va bolalarning o'rtacha yillik sonini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan nazorat raqamlari, ko'rsatkichlari, byudjet va tarmoq moliya me'yorlari orqali muassasani saqlab turish va rivojlantirishga ajratilgan mablag'lardan foydalanishda:

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasiga biriktirilgan mol-mulk uning operativ boshqarish huquqida bo'ladi. Muassasa o'ziga biriktirilgan mol-mulkni va xarajatlar smetasi bo'yicha o'ziga ajratilgan mablag'lar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasining rahbari vakolati doirasida tasdiqlangan xarajatlar smetasidagi mablag'larning maqsadli sarflanishi uchun javob beradi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi faoliyati uning muassisasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq moliyalashtiriladi.

Muassisalari davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari bo'lgan davlat maktabgacha ta'lif

muassasalari faoliyati O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

**Quyidagilar davlat mакtabgacha ta'lim muassasasi mol-mulkini va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari hisoblanadi:**

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;
- tarbiyalanuvchining davlat mакtabgacha ta'lim muassasasida bo'lgan davri uchun badal to'lovlar;
- shartnoma asosida qonun hujjatlarida taqiqlanmagan pulli xizmat ko'rsatish, bino va inshootlarni, jihoz va anjomlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalar;
- mahalliy, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grantlari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Tarbiyalanuvchining davlat mакtabgacha ta'lim muassasasida bo'lgan davri uchun badal to'lovi miqdori va uni to'lash tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

To'lov banklar orqali tegishli g'aznachilik bo'limlarida ochilgan shaxsiy g'aznachilik hisobvaraqlariga naqd pul yoki pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat mакtabgacha ta'lim muassasasini moliyalashtirish belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat mакtabgacha ta'lim muassasasiga byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larning jahb etilishi byudjetdan moliyalashtirishning kamayishiga olib kelmaydi.

Davlat mакtabgacha ta'lim muassasasida zarur moddiy- texnik baza hamda pedagog xodimlar mavjud bo'lgan taqdirda, ta'lim-tarbiya jarayoniga xalaqit bermagan holda pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatiladi.

Davlat mакtabgacha ta'lim muassasalarida pullik qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatining tashkil etilishi va ularga haq to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

**Nodavlat mактабгача та'лим муассасасини молијалаштириш ва моддиј-техник та'миноти:**

- Muassis nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga mol-mulkni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda biriktiradi.
- Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi o'ziga biriktirilgan mol-mulkni va o'ziga ajratilgan mablag'lar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi.
- Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati uning muassisi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq moliyalashtiriladi.
- Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini moddiy-technik jihatdan ta'minlash muassisalar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan past bo'lмаган miqdorda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini loyihalash tirish, rejalashtirish ishlari respublika xalq xo'jaligi rejasi asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasini ishlab chiqishda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar: qonunlar, qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar, yo'rinqomalar va boshqa qonunosti hujjatlarga asoslanib ish yuritadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z huquq va vakolatlari doirasidan tashqariga chiqadigan boshqa masalalarni, xususan, yer va suvdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish ishlarini amalga oshirish, mehnat resurslaridan foydalanish, xalq deputatlari mahalliy kengashlari bilan kelishgan holda hal etishlari lozim

Maktabgacha ta'lim muassasalarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish rejasi hamda byudjet yoki tarmoq moliyaviy me'yorlari Maktabgacha ta'lim, Sog'liqni saqlash, Moliya, Iqtisodiyot vazirliklari, boshqa respublika tashkilot va idoralari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy jihatdan

asoslangan metodik tavsiyalari asosida ishlab chiqiladi. Maktabgacha ta'lif muassasalarini mablag' bilan ta'minlashda hisob birligi sifatidan o'rtacha yillik hisobda bir bola olinadi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi o'z huquq va vakolatlari doirasidan tashqariga chiqadigan boshqa masalalarni, xususan, yer va suvdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish ishlarini amalga oshirish, mehnat resurslaridan foydalanish borasidagi rejalarini xalq deputatlari mahalliy kengashlari o'zaro kelishgan holda hal etishlari lozim.

### B./ B. /B texnologiyasini qo'llash qoidalari

	Mavzuga oid savollar	Bilaman	Bilib Oldim	Bilishni xohlayman
1.	Xalq xo'jaligini rejashtirish tamoyillari			
2.	Maktabgacha ta'lif muassasa-sini rejashtirish tamoyillari			
3.	Byudjet hisobining mohiyati			
4.	Iamg'armalar turlari			

### Rejashtirishning asosiy bosqich va turlari

Rejashtirishda istiqbolli va joriy turlar farqlanadi.

**Istitsbolli reja** bu – Maktabgacha ta'lif vazirligi, viloyat boshqarmalari, tuman va shahar moliya-iqtisod bo'limlari tomonidan uzoq muddatga (5-10 yilga) mo'ljallab tuziladigan rejalar tushuniladi.

**Joriy rejashtirish** – har yili amalga oshiriladigan moliyaviy-xo'jalik ishlari rejasidir. Ta'lif tizimi yuqori boshqaruvi organlari qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlari doirasida maktabgacha ta'lif muassasalariga tegishli ko'rsatmalar beradi, muassasa o'z faoliyatida qonunchilikka qanchalik rioxasi qilayotgani, ijtimoiy mulkni qay darajada

tasarruf etayotgani ishlab chiqarish va moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat etadi, zarur hollarda boshqa manfaatdor tashkilotlarni jalb qilib, bir yilda bir marta kompleks tekshiruvni amalga oshiradi.


Maktabgacha ta'lif muassasalarining xarajat smetalari ularning ijtimoiy-tarbiyaviy va moliyaviy xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larning qanday maqsadlarga sarflanishi va choraklar bo'yicha taqsimlanishini belgilab beradigan asosiy hujjat hisoblanadi. Ana shu smetaga asoslanib, byudjetda maktabgacha ta'lif muassasasining moliyaviy ehtiyojlari uchun mablag' ko'zda tutiladi va qonunchilikda belgilangan tartibda muassasa hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

Maktabgacha ta'lif muassasalari vazirliklar, idoralar, xalq deputatlari mahalliy kengashlari qaroriga binoan, respublika, viloyat, shahar va tumanlar xalq xo'jaligi rejasida belgilab berilgan bolalar kontingenti doirasida tuziladi.

Ta'kidlash joizki, ta'lif sohasi va kadrlar tayyorlashni moliyalashtirish tizimi uzlusiz takomillashtirib boriladi, jumladan, uning ko'p variantlik (byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etilib, ta'lif muassasalarining o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta'lif sohasiga jalb etish borasida sa'y-harakatlari rag'batlantiriladi.

Respublika fuqarolari uchun keyinchalik ularni to'lashning moslashuvchan tizimiga asoslangan ta'lif kreditlari berish mexanizmini shakllantirishga, uzlusiz ta'lif va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda donorlik va homiylar mavqeyini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ta'lif sohasida pullik xizmatlar ko'rsatish, tadbirkorlik, maslahatlar berish, ekspertiza ishlari, noshirlik, ishlab chiqarish hamda muassasa nizomida belgilab qo'yilgan vazifalarga muvofiq boshqa tarzdagi faoliyat yo'nalishlari rivojlantirilib, shu asosda ta'lif muassasalari daramadlarini ko'paytirish ta'minlanadi.

## Rejalashtirishning asosiy bosqichlari bo'yicha Venn diagrammasini to'ldiring.



## **Rejalashtirishning asosiy bosqich va turlari**

**Istiqbolli rejalashtirish** bu – Maktabgacha ta'lrim vazirligi, viloyat boshqarmalari, tuman va shahar moliya iqtisod bo'limlari tomonidan uzoq muddatga (5–10 yilga) mo'ljallab tuziladigan rejalar tushuniladi.

**Joriy rejalashtirish** – har yili amalga oshiriladigan moliyaviy-xo'jalik ishlari rejasidir.

# **SMETA – DAVLAT MOLIYAVIY HUJJATI SIFATIDA**

**Smeta** maktabgacha ta'lim muassasasining barcha xarajatlari va ularni qoplash manbalari, byudjet ajratmalarini va ota-onalar mablag'larini aks ettiradigan moliyaviy-me'yoriy hujjatdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida yozgi hordiq va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun alohida smeta tuziladi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlashda muassasadagi guruhlar, bolalar soni, ularning muassasada qancha vaqt bo'lishi, muassasa xodimlarining necha soat ishlashi va ishning turiga ham alohida e'tibor beriladi. Smeta xarajatlarini rejaliashtirish quyidagi moddalar bo'yicha amalgamoshiriladi: «Ish haqi», «Ish haqiga nisbatan ajratmalar»,

«Ma'muriy va xo'jalik xarajatlari», «Xizmat safarlari xarajatlari», «Adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar va o'yinchoqlar sotib olish», «Ovqatlantirish xarajatlari», «Asbob-uskuna va jihozlar sotib olish», «Bino va inshootlarni kapital ta'mirlash xarajatlari», «Boshqa xarajatlari».

Bolalarni «Ovqatlantirish xarajatlari» moddasi asosida taomnoma tuzish:

«Ovqatlantirish xarajatlari» moddasiga bolalarni ovqatlantirishga mo'ljallangan mablag'lar kiritiladi. Taomnoma bitta bolaga kunlik ovqatlanish uchun belgilangan pul me'yori va yil davomidagi tushumlar asosida tuziladi. Bunda maktabgacha ta'lim muassasasining turi, ish vaqt e'tiborga olinadi. Ovqatlantirish me'yori Sog'liqni saqlash, Moliya va Iqtisodiyot vazirliklari tomonidan belgilab beriladi. Ovqatlanishga ajratiladigan mablag' miqdorini aniqlash uchun bir bolaga kuniga sarflanadigan ovqat qiymatini maktabgacha ta'lim va yasli guruhlari bo'yicha jami bola soniga ko'paytiriladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasi smetasiga barcha xodimlarning ovqatlanishi uchun mablag' ajratish ham ko'zda tutiladi. Bu maktabgacha ta'lim va moliya bo'limlari tomonidan alohida ro'yxat bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda xodimlar haq to'lash hisobiga maktabgacha ta'lim muassasalarida ovqatlanishlari mumkin. Smeta amal qiladigan yil va muassasa qaysi byudjet hisobidan mablag' bilan ta'minlanishi qayd etiladi.

Yozgi dam olish va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish sarf-xarajatlari maktabgacha ta'lim muassasasi xarajat smetasiga kiritilmaydi. Bunday tadbirlar o'tkaziladigan hollarda ularni amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar uchun alohida smeta tuziladi. Shuningdek, bolalar bog'chalarida ota-onalar mablag'lari hisobga olingan alohida smeta ham tuziladi.

Smeta byudjetida qayd etilgan xarajat moddalari Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan hujjat asosida tuziladi. Smetada muassasaning kelasi yil uchun hisoblab chiqilgan jami

hamda har bir modda bo'yicha xarajatlar miqdori joriy yilga tasdiqlangan xarajatlar summasi smeta qachon tuzilayotgani va o'tgan davrdagi haqiqiy xarajatlar miqdori e'tiborga olingan holda kiritilgan o'zgarishlar bilan taqqoslab keltiriladi.

Ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqqoslashda smetani ijro etish jarayonida undan chetga chiqish hollarining yuz bergani va ularning sababini aniqlash asosida kelasi yilgi xarajatlar miqdorini to'g'ri belgilash talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari smeta tuzish vaqtida kelgusi yilgi ish ko'rsatkichlarini (guruhlar va tarbiyalanuvchilar sonining ortishi, bolalarning muassasada bo'lish vaqt va hokazo) belgilashda o'zi bo'ysungan yuqori tashkilotning me'yoriy hujjatlari, buyruq va ko'rsatmalariga amal qiladi. Smetaga kiritilgan xarajatlar smeta blankasiga keltirilgan aniq hisob-kitoblar bilan asoslangan bo'lishi shart.

Smetaga hisob-kitoblar bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasasi egallab turgan bino haqida umumiylar ma'lumotlar (uning hajmi, maydoni, isitish tizimi, elektr, gaz, vodoprovod, kanalizatsiya tarmog'ining mavjudligi), shuningdek, muassasaning ko'lamiqa oid ko'rsatkichlar (guruhlar hamda bolalar soni va h.k.) ham aks ettiriladi. Bundan tashqari, smetaga maktabgacha ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, tarbiyachilar, enagalar, hamshiralar va boshqa xodimlarning ikki nusxada tuzilgan tarifikatsiya ro'yxati ilova qilinishi shart.

Smeta loyihasi tegishli ilovalar bilan maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan muddatda yuqori tashkilotlarga ikki nusxada, zarur hollarda esa uch nusxada taqsim etiladi.

Yuqori tashkilot maktabgacha ta'lim muassasasining smetasini qabul qilib olgach, eng avvalo, smetaning to'g'ri tuzilganini aniqlab, uning to'liq to'ldirilgani, alohida moddalar bo'yicha xarajat summalari aniq hisob-kitob qilingani, binoning hajmi va maydoni to'g'ri ko'rsatilgani, shuningdek, xodimlarning tarifikatsiya ro'yxati ilova qilinganini tekshiradi.

Barcha hisob-kitoblar ko'rib chiqilgach, har bir modda bo'yicha xarajatlar aniqlanadi va byudjet hisobidan ajratiladigan xarajatlar unda aniq maqsadlar uchun belgilangan summaga tenglashtiriladi. So'ng mакtabgacha ta'lим muassasining smeta blankasiga jami xarajatlar (alohida modda bo'yicha va umumiy summa), shuningdek, byudjet hamda ota-onalar mablag'lari hisobiga ajratiladigan xarajatlar kvartallar bo'yicha tasdiqlangan taqsimotga binoan yozib qo'yiladi. Smeta yuqori tashkilot tomonidan qabul qilingach, mакtabgacha ta'lим muassasasi boshqa xarajatlar va ota-onalardan tushadigan mablag'larni har bir kvartal bo'yicha taqsimlab, hisob-kitob qilib qo'yadi.

Xarajatlarni taqsimlashda ba'zilarining mavsumiy xarakterda bo'lishi (yoqilg'i tayyorlash, sabzavot jamg'arish, ta'mirlash ishlari va hokazolar) hisobga olinishi lozim. Agarda joriy yilda bolalar sonini ko'paytirish ko'zda tutilgan bo'lsa, bu bilan bog'liq sarf-xarajatlar (ish haqi, bolalarni ovqatlantirish uchun sarflanadigan qo'shimcha mablag'lar va h.k.) tegishli kvartallar xarajatlari ko'rsatkichlarida aks ettirilishi kerak. Smetaning bir nusxasi muassasada qoladi, ikkinchi nusxasi yuqori tashkilotga, uchinchi nusxasi esa markazlashgan buxgalteriyaga, qishloq kengashiga, moliya bo'limi va boshqalarga taqdim etiladi.

Smetsa tasdiqlanish blankasining old tomonidagi maxsus yozuv bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur yozuvda xarajatlarning jami miqdori, xodimlar ish haqi jamg'armasi, smeta tasdiqdangan sana qayd etiladi. So'ngra smetani tasdiqlagan yuqori tashkilot boshlig'i imzo chekadi va uning imzosiga idora muhri bosiladi. Ta'kidlash joizki, smetani tasdiqlagan tashkilot unga o'zgartish kiritishga haqlidir. Bunday o'zgartishlar yuqori tashkilotning mакtabgacha ta'lим muassasasiga yuborgan yozma xati bilan rasmiylashtiriladi.

II. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlash. Mакtabgacha ta'lим muassasalarining xarajatlar hajmi asosan undagi guruhlar va bolalar soniga, har bir bolaning mакtabgacha

ta'lif muassasasida qancha vaqt bo'lishiga bog'liq. Bunda bolalarning umumiy soni va ularning har biri muassasada qancha vaqt bo'lishiga oid ko'satkichlar (9-10.5, 12 va 24 soat) maktabgacha ta'lif va yasli guruhlari bo'yicha alohida qayd etiladi. Muassasada sog'lomlashtirish guruhlari mavjud bo'lsa, ulardagi bolalar soni ham alohida ko'rsatilishi lozim. Bu bo'limda guruhlar va bolalarning yil boshi va yil oxiridagi hamda o'rtacha yillik soni ko'rsatiladi. Rejalashtirilayotgan yil boshida maktabgacha ta'lif muassasalarida smeta tuzilayotgan vaqtida haqiqatda mavjud guruhlari miqdori va bolalarning ro'yxatdagi soni keltiriladi. Bu ro'yxatda yuqori tashkilot yo'llanmasi bilan muassasaga qabul qilingan barcha bolalar qayd etiladi. Agar joriy yil smetasida maktabgacha ta'lif muassasasini kengaytirish ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda «Yil boshida» grafasida guruhlari miqdori va bolalar sonida joriy yil oxirigacha yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar aks ettiriladi. O'zgarishlar bo'lmasa, «Yil oxirida» grafasiga yil boshida keltirilgan ma'lumot yozib qo'yiladi. Rejalashtirilayotgan yil uchun bir bolaning maktabgacha ta'lif muassasasida bo'lgan kunlar soni, odatda, davomat tabelidagi ma'lumotlar, shuningdek, o'tgan yillar rejasining ijrosini tahlil qilish assosida bolalarning turlicha muddat bilan muassasada qancha vaqt bo'lganiga qarab aniqlanadi.

### **Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun sarf qilinadigan xarajatlar**

Yozgi hordiq va sog'lomlashtirish tadbirlari vazirliklar va idoralar tomonidan respublika byudjetida ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Binobarin, bu tadbirlarni o'tkazish uchun alohida smeta tuziladi.


Korxonalar qoshidagi maktabgacha ta'lif muassasalarida yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari rag'batlantirish fondi

hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda ovqatlantirish me'yorlari ko'paytiladi, ish vaqt uzyatiriladi, ota-onalardan olinadigan haq miqdori ham oshiriladi. Shu munosabat bnlan, smetada xodimlarning ish haqi, tashkiliyxo'jalik ishlari, bolalarni ovqatlantirish uchun qo'shimcha xarajatlar ko'zda tutiladi.

**Smeta** – maktabgacha ta'lif muassasasining barcha xarajatlari va ularni qoplash manbalari, byudjet ajratmalari va ota-onalar mablag'larini aks ettiradigan moliyaviy-me'yoriy hujjatdir.

Maktabgacha ta'lif muassasasida yozgi hordiq va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun alohida smeta tuziladi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlashda muassasadagi guruuhlar, bolalar soni, ularning muassasada qancha vaqt bo'lishi, xodimlarning necha soat ishlashi va uning turiga ham alohida e'tibor beriladi. Smeta xarajatlarini rejalashtirish quyidagi mod-dalar bo'yicha amalga oshiriladi: «Ish haqi», «Ish haqiga nisbatan ajratmalar», «Ma'muriy va xo'jalik xarajatlari», «Xizmat safarları xarajatlari», «Adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar va o'yinchoqlar sotib olish», «Ovqatlantirish xarajatlari», «Asbob-uskuna va jihozlar sotib olish», «Bino va inshootlarni kapital ta'mirlash xarajatlari», «Boshqa xarajatlar».

### Bilim darajasini aniqlash va faollashtirish KLASTER METODI



## **Maktabgacha ta'limdi tashkil qilish va boshqarish tamoyillari**

Har qaysi sohani samarali idora etish, avvalambor, boshqarish tamoyil va mezonlari, usul va uslublarining ilmiy asoslangani, qay darajada takomillashgani bilan belgilanadi. Shu bois ularning har birini tavsiflash, mohiyatini ifodalashga ehtiyoj tug'iladi.

Bu ustuvor tamoyillarga tayangan holda maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda quyidagi omillar alohida ahamiyat kasb etadi:

1) *demokratik-xalqparvarlik asosida boshqaruv*. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Maktabgacha ta'lim tizimiga doir qonun hujjatlari asosida ishlarni tashkil etish;

2) *yakkaboshchilik tamoyili* – ma'lum maqsadga qaratilgan ish usuli bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalari yillik ish rejasini to'liq bajarishga qaratiladi;

3) *hamkorlik tamoyili* – barcha masalalarni jamoa a'zolari bilan birgalikda hal etishni nazarda tutadi;

4) *aniqlik tamoyili* – pedagogik, metodik va xo'jalik ishlarini ma'lum maqsadga qaratilgan holda aniq, puxta tashkil etish va bajarilishini tahlil qilish;

5) *xo'jalikni boshqarish tamoyili* – ish yuritishni to'g'ri tashkil qilish asosida smetadagi mablag'larni to'g'ri taqsimlash, uning bandlarini o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni olib borish;

6) *tanqid va o'z-o'zini tanqid* – rahbar va har bir xodimning o'z ishiga nisbatan talabchanlik bilan yondashish, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, bajaradigan ishlarga tanqidiy munosabat;

7) *farqlash tamoyili* – ishdagi ijobiy va salbiy jihatlarni va ilg'or ish tajribalarni ko'ra olish;

8) *yangilikni his qila olish tamoyili* – o'z ustida tinimsiz ishslash asosida ta'lim sohasidagi o'zgarish va yangiliklardan xabardor bo'lish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ilg'or

pedagogika texnologiyalarni o'zlashtirish va ish faoliyatida qo'llay olish.

Maktabgacha ta'limga tashkil etish va unga rahbarlik qilish sohasining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Maktabgacha ta'limga to'g'risida»gi konsepsiya va nizomda ko'rsatib berilgan maqsad va vazifalar tashkil etadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'limga muassasasi mustaqil ravishda o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan, qonunchilikka va pedagogik tamoyillarga zid bo'limgan har qanday qarorlar qabul qilishga haqlidir.

**Tamoyil** – biror bir sohada, jumladan, ta'limga sohasida ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan xulosalar, erishilgan natijalar.

**Boshqarish usuli** – boshqaruvin subyektining (bizning holatimizda bu – maktabgacha ta'limga boshqaruvi idoralari, muassasa rahbariyati va h.k.) muayyan maqsadlarga erishishni nazarda tutgan holda boshqaruvin obyektiiga (bizning holatimizda bu – maktabgacha ta'limga muassasasi, tarbiyalanuvchilar va h.k.) ta'sir etish usul hamda vositalarining majmuyi.

**Boshqarishning psixologik uslublari** – bu shaxsning mustahkam psixologik xislatlari – diqqat, idrok, tafakkur, sezgi, ong orqali boshqarish uslublari majmuyi.

Bu tushunchalar o'zaro bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bularning barchasi kishilar o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, boshqarish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari tatbiq etilib, ularga tayangan yondashuvlar qaror topmoqda.

Boshqarish usulining eng muhim belgilariidan biri uning ilmiy yondashuvga tayanishida namoyon bo'ladi. Zero, bugun boshqaruvin jarayonini ilmiy asosda tashkil etmasdan uning izchilligi va samaradorligini tasavvur etib bo'lmaydi.

Albatta, rahbar shaxs muayyan sohani, korxona yoki

tashkilotni samarali boshqarishi uchun, avvalo, yetarli malaka va bilim, rahbarlik salohiyati, ko'plab ma'naviy-axloqiy xislat va fazilatlar sohibi bo'lishi darkor. Ta'lif sohasi, jumladan, maktabgacha ta'lif muassasalarini boshqarish ham bundan istisno emas.

Ushbu muassasalardagi boshqaruv faoliyatida nazariy bilim va amaliy tajriba va ko'nikmalarni o'zaro uyg'un holda qo'llash ta'lif-tarbiya bilan bog'liq masalalarni talab darajasida hal etish, bu jarayonda foydalaniladigan usul va uslublarni uzluksiz takomillashtirib borish, umuman olganda, maktabgacha ta'lif-tarbiya tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, kadrlar tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish barobarida ularning rahbarlik salohiyati va ma'naviyatini yuksaltirish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Munozara texnologiyasi**

Munozara qatnashchilariga eslatma:

1. Munozara – masalani hal etish, yechish usul va uslublarini izlab topishga qaratilmog'i lozim.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber!
3. Maqsadga erishish yo'lida hissiyotlaringni jilovlab, pishiqlixta o'ylagan holda so'zla!
4. Raqiblarning fikr-mulohaza va dalillarini diqqat bilan tingla!
5. Raqiblarning fikr-mulohazalariga tanqidiy munosabatda bo'l!
6. Munozara mavzusi doirasidan chetga chiqmagan holda fikrlaringni bayon et!

### **Munozarani boshqarish subyektlari**

**Boshlovchi** – munozarani oqilona olib borish, ishtirokchilar tomonidan javoblarning asoslanishi, atama va tushunchalarining o'rini qo'llanganini izohlab boradi, ishtirokchilar

o'rtasidagi muloqotni, taqdimotlar taqsimotini to'g'ri boshqaradi.

**Taqrizchi** - tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha tahlil etib, masalaning dolzarbligi, aniq qo'yilgani, ilmiy jihatdan asoslanishi, fikr-mulohazalarning mantiqiyligi hamda xulosalarning asosli va to'g'rilingini baholab boradi.

**Raqib** - munozarada ishtirok etadigan bir guruhg'a muxolif bo'lgan boshqa guruhyokiguruha'zosi. U asosiy ma'ruzachining mulohazalarini quruq tanqid qilish bilan cheklanmasdan, uning qarashlaridagi zaif yoki xato tomonlarini ko'rsatib berish hamda o'zining fikrini asoslab berishga intiladi.

**Ekspert** - munozara jarayoni, jumladan, munozara ishtirokchilari tomonidan bildirilgan barcha fikr-mulohazalar, ilgari surilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning izchilligi, haqqoniyligi va samaradorligini baholaydi.

### Munozara o'tkazish reglamenti

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'rutzachilarining taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 daqiqa davom etadi.
3. Taqrizchiga 2 daqiqa ajratiladi.
4. Raqib tarafga ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini bayon etish uchun 1-3 daqiqa beriladi.
5. Yalpi muhokama 5-10 daqiqa davom etadi.

### Tayanch tushunchalar:

**Jamoat muassasalari** - aholining iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-maishiy, ta'lim-tarbiyaviy va boshqa sohalardagi talab-ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan davlat tomonidan tashkil etiladigan muassasalar.

**Tarmoq normativlari** - tarmoq doirasida ishlab chiqilgan me'yorlar.

**Istiqlol reja** - uzoq muddatga mo'ljallab tuziladigan reja.

**Smeta** – muassasa va tashkilot xarajatlari aks ettirilgan moliyaviy hujjat.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'limni rejalashtirishning asosiy bosqichlarini yoritib bering.
2. Rejalashtirishning qanday turlarini bilasiz?
3. Xalq xo'jaligi rejalarini loyihalarini tuzish tartibi qanday?
4. MTM tomonidan rejalashtirish asoslari nimalardan iborat?
5. Smeta nima?
6. Smeta xarajatlarini tuzish tartibi qanday?
7. Metod deganda nima tushuniladi?
8. Boshqarish tamoyillari tushunchasi va mazmun-mohiyati-ni izohlab bering.
9. Boshqarish usuli nima?
10. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bu tamoyillardan foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat?

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. **Maktabgacha ta'limni moliyaviy ta'minlash qaysi hujjatda ko'rsatilgan?**
  - a) maktabgacha ta'lim muassasasining smetasida
  - b) maktabgacha ta'lim muassasasining yillik ish rejasida
  - v) maktabgacha ta'lim muassasasining ustavida
  - g) «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda
2. **Maktabgacha ta'lim sohasida tadbirkorlik faoliyati qaysi qarorda belgilab berilgan?**
  - a) maktabgacha ta'lim muassasasining 212-sonli qarorida
  - b) Xalq ta'limi vazirligining 2002-yil 414-sonli qarorida
  - v) Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 414-sonli qarorida
  - g) «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi qonunda

**3. Maktabgacha ta'lim muassasasida boshqarish tamoyillari bu –**

- a) yakkaboshchilik, hamkorlik, tanqid va o'z-o'zini tanqid
- b) hamkorlik, tanqid va o'z-o'zini tanqid muhitini shakllantirish
- v) yakkaboshchilik, aniqlik, hamkorlik, farq qilmoq, xo'jalikni boshqarish, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish, yangilikni his etish
- g) yakkaboshchilik, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish

**4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati qaysi qonunda belgilab berilgan?**

- a) Kadrlar tayyorlash milliy dasturida
- b) «Ilk qadam» dasturida
- v) «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda
- g) «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizomda

**5. Maktabgacha ta'limni tashkil etish va uni boshqarishning metodologik asosi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) ta'lim sohasiga oid qabul qilingan barcha qonun hujjatlari
- b) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizom, «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiya
- v) «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Nizom, pedagogika va psixologiya fani yutuqlari, «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiya
- g) barcha javoblar to'g'ri

## **XX BOB. MAK TABGACHA TA'LIM MUASSASALARI VA ULARNI TASHKIL ETISH**

### **Maktabgacha ta'lismuassasasi – maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy tarbiya maskani**

Maktabgacha ta'lismuassasasi uzlusiz ta'litmizining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy zaminidir. Maktabgacha ta'lismuassasi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o'rinnutadi.

Barcha turdag'i maktabgacha ta'lismuassasalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'litmizini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tashkil etiladi.

Davlat maktabgacha ta'lismuassasasida ta'litmazmuni maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lismazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lismuassasasining ish tartibi va bolalarning ushbu muassasada bo'lish vaqtida davlat maktabgacha ta'lismuassasasining ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lismuassasasida besh kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi ish tartibi joriy etiladi:

12 soatli;

10,5 soatli;

9 soatli;

4 soatli.

Davlat maktabgacha ta'lismuassasasi joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqilib, davlat maktabgacha

ta'lrim muassasasida yoki uning alohida guruhlarida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lrim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish ushbu muassasa zimmasiga yuklatiladi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish davlat maktabgacha ta'lrim muassasasining tibbiyot xodimlari va ushbu muassasaga belgilangan tartibda biriktirilgan hududiy sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlari davlat maktabgacha ta'lrim muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun mas'uldirlar.

Davlat maktabgacha ta'lrim muassasalarida bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lrim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lrim muassasasining tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish hududiy sog'liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta'lrim muassasasi rahbariyati tomonidan tibbiyot xodimining faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar (alohida xizmat xonasi, mebel va tibbiy jihozlar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar) yaratib beriladi.

Davlat maktabgacha ta'lrim muassasasi tibbiyot xodimlaring malakasini oshirish sog'liqni saqlash tizimidagi malaka oshirish muassasalarida har uch yilda kamida bir marta bepul amalga oshiriladi.

Muassisulari mahalliy davlat hokimiyyati organlari bo'lgan davlat maktabgacha ta'lrim muassasasiga bolalarni qabul qilish qabul komissiyasining qaroriga binoan maktabgacha ta'lrim

muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlari tomonidan mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan shaklda beriladigan yo'llanmalari asosida amalgalashiriladi.

Muassislar bosqicha tashkilotlar bo'lgan davlat maktabgacha ta'lif muassasalariga bolalarni qabul qilish ularning muassislar tomonidan belgilanadigan tartibda amalgalashiriladi. Bo'sh o'rinalar mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu davlat maktabgacha ta'lif muassasalarini bolalarni maktabgacha ta'lif muassasalarini faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlarining yo'llanmalari bo'yicha shartnomasi qabul qilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lif muassasasiga bolalarni qabul qilishda quyidagilar:

- ✓ I va II guruh nogironlari;
- ✓ ko'p bolali oilalarining bolalari;
- ✓ harbiy xizmatchilarning bolalari;
- ✓ talabalar va pedagoglarning bolalari;
- ✓ chin yetim va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat maktabgacha ta'lif muassasasiga qabul qilishda imtiyozlardan navbatsiz foydalanadilar.

Imtiyozlardan foydalanuvchi bolalarning ota-onalari imtiyoz berilishi uchun asos bo'ladigan hujatlarni qabul komissiyasiga taqdim etadilar.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasalarining mudirlari tomonidan davlat maktabgacha ta'lif muassasasi qaramog'idan mavjud bo'sh o'rinalar haqida qabul komissiyasiga har oyning birinchi sanasidan kechikmay yozma ma'lumot kiritiladi.

Bo'sh o'rinalar haqidagi ma'lumot davlat maktabgacha ta'lif muassasasining mudirlari tomonidan imzolanadi va ularning to'g'riliqi va o'z muddatida kiritilishi uchun davlat maktabgacha ta'lif muassasasi mudiri shaxsan javob beradi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasining har bir

guruhidagi bola soni me'yori kamida 20 nafar bo'lishi, biroq 25 nafardan ortiq bo'lmasligi lozim.

Guruhlarni boshqa yoshdagi guruhdan o'tgan bolalar bilan to'ldirish o'quv yili oxiridan yangi o'quv yiliga qadar (iyun, iyul, avgust oyida), yangi qabul qilinayotganlar bilan to'ldirilishi o'rinxlar bo'shashiga qarab amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasida o'quv yili har yili 2 sentyabrdan boshlanadi, keyingi yilning 1 iyunida tugallanadi va yangi o'quv yili boshlangunga qadar sog'lomlashtirish davri davom ettiriladi.

Tarbiyalanuvchilar soni davlat maktabgacha ta'lif muassasasi quvvatidan ortiq bo'lgan davlat maktabgacha ta'lif muassasalariga bolalarni qabul qilishni vaqtinchalik to'xtatish hududiy davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi tomonidan berilgan xulosaga ko'ra maktabgacha ta'lif muassasalarini faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlari huzuridagi qabul komissiyasining qarori asosida amalga oshiriladi.



Tarbiyalanuvchilar soni belgilangan me'yordan kamaygan yoki bolalarni qabul qilish uchun sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq shart-sharoit yaratilgan taqdirda, hududiy davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markaziga xabar bergan holda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlari huzuridagi qabul komissiyasining roziligi bilan davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar qabul qilinadi.

### **Qisqa muddatli maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish**

Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash, ularni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish maqsadida to'rt soatli ish tartibi asosida davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruuhlar tashkil etiladi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida qisqa muddatli guruuhlar maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida quyidagi qisqa muddatli guruuhlar faoliyat ko'rsatishi mumkin:

Rivojlantirish guruhi – soni 20 nafardan kam, biroq 25 nafardan ortiq bo'limgan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ularni har tomonlama rivojlantirish, tengdoshlar va katta yoshli bolalar jamoasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi;

«Kelajakdagi o'quvchi» guruhi – soni 20 nafardan kam, biroq 25 nafardan ortiq bo'limgan 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ularni maktabga tayyorlash maqsadida tashkil etiladi;

Integrallashgan guruh – soni 15 nafardan kam, biroq 20 nafardan ortiq bo'limgan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan

bolalar uchun bolalarni jamiyatga moslashtirish, rivojlanishida ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalarga muntazam ravishda psixologik-tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularga ta'limgartarbiya berish, ota-onalarni konsultativ-metodik qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladi. Ushbu guruhdha sog'lom bolalar bilan birgalikda uch nafardan ortiq bo'limgan «ruhiy rivojlanishi sust» tashxisli bolalar ham yakka tartibdag'i reja bo'yicha ta'limgoladi;

«Muammoli bola» guruhi – soni 15 nafardan kam, biroq 20 nafardan ortiq bo'limgan 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar uchun ularga muntazam ravishda psixologiktibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ta'limgarayoniga jalbetish, ijtimoiy moslashtirish, bolalarni tarbiyalash va o'qitishni tashkil etishda ota-onalarga yordam berish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu guruhdha nogiron bolalar bilan birgalikda sog'lom bolalar ham bo'lishi mumkin, nogiron bolalar (saqliy yetukligi saqlangan) soni 3 nafardan kam bo'lmasligi lozim.

Maktabgacha ta'limgarayoniga qisqa muddatli guruhlarning boshqa turlari ham tashkil etilishi mumkin.

Qisqa muddatli guruhlarda bemor va nogiron bolalar bilan ishlaganligi uchun tarbiyachi va tarbiyachining yordamchisiga qoshimcha haq to'lanmaydi.

Quyidagilar qisqa muddatli guruhlardan faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;  
tarbiyalanuvchining davlat maktabgacha ta'limgarayoniga qisqa muddatli guruhlarning homiylik xayriyalari;  
qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa manbalar.

Tarkibida qisqa muddatli guruh mavjud bo'lgan davlat maktabgacha ta'limgarayoniga qisqa muddatli guruhlarning homiylik xayriyalari;  
bolalar hayoti va sog'lig'i uchun, qisqa muddatli guruhlarning homiylik xayriyalari;

yoshi va ruhiy-fiziologik imkoniyatlariga muvofiqligi uchun javob beradi.

Davlat mактабгача та'лим muassasalarida mактабгача yoshdagи bolalar uchun zarur moddiy-texnika sharoitlari muassis tomonidan ta'minlanadi.

Davlat mактабгача та'лим muassasasi qisqa muddatli guruhlar soni tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar mактабгача та'лим boshqarmalari va Toshkent shahar mактабгача та'лим bosh boshqarmasi tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini hisobga olgan holda, aholining ehtiyojiga hamda ta'lim jarayonini ta'minlash uchun yaratilgan shart-sharoitlarga qarab belgilanadi.

Qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish davlat mактабгача та'лим muassasasi va ota-onalar bilan tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Qisqa muddatli guruhlarni tashkil etishda shtatlar jadvali, bolalarning kundalik faoliyatini tashkil etish tartibi, bolalar ro'yxati va ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va  
«Qanday» savoli orqali muammo hal qilinadi



Qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish guruhiga ko'ra bir xil yoshdagi hamda turli uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni qabul qilish mumkin.

Qisqa muddatli guruhlarga bolalarni qabul qilish maktabgacha ta'lif muassasalarini faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi tomonidan berilgan yo'llanmalar va bolaning sog'lig'i to'g'risidagi tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli guruhlarni to'ldirishda tanlov asosida hamda test sinovi bo'yicha qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Qisqa muddatli guruhlar tarbiyalanuvchilarining kuniga bir marta ovqatlantirilishi (ertalabki yoki tushki nonushta) sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq tuzilgan taomnomasi asosida amalga oshiriladi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasasini shakllantirish**

Maktabgacha ta'lif muassasasiga bolalar 3 yoshdan boshlab 6-7 yoshgacha tuman (shahar)lar hokimliklarining qarorlari bilan tashkil etilgan maktabgacha ta'lif bo'limlari huzuridagi qabul qilish komissiyasi tomonidan tegishli tibbiyot xulosasi hisobga olingan holda qabul qilinadi. Qabul komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Muassislar mahalliy davlat hokimiyati organlari bo'lgan Maktabgacha ta'lif muassasasiga bolalarni qabul qilish komissiyasining qaroriga binoan maktabgacha ta'lif bo'limlarning yo'llanmalarini asosida amalga oshiriladi.

Muassislar bosqqa organlar bo'lgan maktabgacha ta'lif muassasalariga bolalarni qabul qilish ularning muassislarini tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi. Bo'sh o'rinalar mavjud bo'lgan taqdirda ushbu Maktabgacha ta'lif

muassasalari bolalarni mактабгача та'лим бўlimlarining yo'llanmalari bo'yicha lozimnoma asosida qabul qilishi mumkin.

Mактабгача та'лим muassasasiga bolalarni qabul qilish tartibi muassis tomonidan belgilanadi. Quyidagi bolalar:

- I va II guruh nogironlari;
- ko'p bolali oilalarning bolalari;
- harbiy xizmatchilarning bolalari;
- talabalar va pedagoglarning bolalari Mактабгача та'lim muassasalariga qabul qilishda imtiyozlardan foydalanadilar.

Mактабгача та'лим muassasasiga bolalarni qabul qilish tartibi muassasa tomonidan belgilanadi

I va II guruh  
nogironlari

Ko'p bolali  
oilalarning  
bolalari

Harbiy  
xizmatchilar  
ning bolalari


Talabalar va  
pedagoglarn  
ning bolalari

Mактабгача та'лим muassasasiga bolalarni qabul qilishda imtiyozlardan foydalanadilar

Qabul komissiyasi shuningdek, ota-onalari mактабгача та'лим muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkmalashda yordam bergen bolalarni istesno tariqasida navbatdan tashqari qabul qilishi mumkin. Bunday bolalar kontingenti mактабгача та'limi muassasasi rejadagi quvvati umumiy sonining 20 foizdan ortiq bo'lmasligi kerak.

Mактабгача та'лим muassasasida guruhlar soni muassasaning quvvatidan va guruhlarning rejali to'ldirilishidan kelib chiqib muassis tomonidan belgilanadi.

## **Umumiyo'nalishi:**



## **Ixtisoslashtirilgan yo'nalishi:**

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligidagi byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya berish, korreksion-pedagogik va davolash-sog'lomlashtirish faoliyatni olib boruvchi muassasa hisoblanadi.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ularning bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarni korrektsiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab

ta'limiga tayyorlash, jamiyatga moslashuviga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi.

**Quyidagilar ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasasining vazifalari hisoblanadi:**

- mакtabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari hamda ular asosida ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish ishlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarning ta'lim-tarbiya olishlarini va korreksion pedagogik ishni ta'minlash;
- korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsgayo'naltirilgan, individual tarzda tashkil etish;
- bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarini shakllanishi uchun zarur korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya muhitini yaratish;
- bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun zaruriy korreksion pedagogik ishni tashkillashtirish.

**Ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasalari ularning ixtisoslashuviga (yo'nalishiga) ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:**

I tur: Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasasi;

II tur: Eshitishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasasi;

III tur: Ko'rishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasasi;

IV tur: Psixik rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasasi;

V tur: Aqliy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasasi;

VI tur: Tayanch-harakatlanish a'zolarida nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim muassasasi.

**12. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasalarining muayyan turi bo'yicha bolalar soni guruh tashkil etish uchun yetarli bo'limgan hollarda quyidagi turlarni birlashtirish orqali ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasasi tashkil etilishi mumkin:**

I va II turlar, I va IV turlar, I va VI turlar;

II va III turlar;

IV va V turlar, IV va VI turlar;

V va VI turlar.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasalarini tashkil etishda ularning har bir turi bo'yicha alohida guruhlarda korreksion ta'limg-tarbiya jarayonini tashkil etish majburiy shart hisoblanadi.

**13. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasasida 5 kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi ish tartibi joriy etiladi:**

24 soatli;

12 soatli;

10, 5 soatli.


Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasasida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga muassasasining turi va tarbiyalanuvchilarining toifasi	Guruhlarning tarbiyalanuvchilar bilan to'ldirilishi	
	tarbiyalanuvchi-larning minimal soni	tarbiyalanuvchi-larning maksimal soni
1-tur:		
Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun	15	18
2-tur:		
Eshitishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar		
I- IV guruh karlik	8	10

Zaif eshituvchi bolalar	10	12
3-tur:		
Ko'rishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar		
Ko'zi ojizlar	8	10
Zaif ko'ruchilar	10	12
4-tur:		
Psixik rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar(psixik rivojlanishi orqada qolgan, psixik-nutqiylar rivojlanishi orqada qolgan, autistlar)	10	12
5-tur		
Aqliy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar		
Yengil darajadagi aqli zaif bolalar	8	12
O'rta darajadagi aqli zaiflar	6	10
6-tur:		
Tayanch-harakatlanish a'zolarida nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun		
Ortopedik jarohatlarning asoratlari, idiopatik o'zgarishlar (bo'yin, ko'krak, umurtqa), skolioz, kifoz, lordoz, kifoskolioz, ko'krak qafasining deformatsiyasining og'ir shakkllari – girdobsimon ko'krak qafasi, botiq ko'krak qafasi, etikdo'z ko'krak qafasi, ko'krak qafasi ortopedik jarrohligidan keyingi holat (ko'krak qafasi ichki organlaridagi boshqa turdag'i operatsiyalar bundan mustasno)	15	18
DSP asoratlaridan yuzaga kelgan ortopedik nuqsonlar	8	10
Gemioparez, monoparez	10	12

### Sanatoriya yo'nalishi:

- Sil intoksikatsiyasi mavjud bo'lgan bolalar uchun – 15-20 bola;
- Murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) bolalar uchun – 8-10 bola;
- Rivojlanishida boshqacha nuqsonlari (endikrin kasalliklar) mavjud bo'lgan bolalar uchun – 15-20 bola.



Guruhlarni boshqa yoshdagi guruhdan o'tgan bolalar bilan to'ldirish o'quv yili oxirida (avgust oyida), yangi qabul qilinayotganlar bilan to'ldirish esa o'rinalar bo'shashiga qarab amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi o'quv yili har yili 2 sentyabrdan boshlanadi, keyingi yilning 1 iyunida tugallanadi va yangi o'quv yili boshlangunga qadar sog'lomlashtirish davri boshlanadi.


Maktabgacha ta'lif muassasasi maktabgacha ta'lifni boshqarish organlari yoki qaramog'ida ushbu maktabgacha ta'lif muassasasi bo'lgan korkabinet, muassasa, tashkilot tomonidan komplektlanadi. Mahalliy boshqarish organlari qarori bilan komplektlashning boshqa tartibi qabul qilinishi mumkin.

Bolalarni maktabgacha ta'lif muassasalariga va ixtisoslashtirilgan guruhlarga yo'llash respublika, viloyat,

shahar, tuman tibbiy yordam-pedagogika komissiyalari, sanatoriya tipidagi mактабгача та'лим muassasalariga esa hududiy davolash-profilaktika muassasasi tomonidan yo'llanma beriladi.

Bolalarni davlat mактабгача та'лим muassasasidan chiqarish mактабгача та'лим kengashi tomonidan quyidagi holatlarda: bolaning mazkur mактабгача та'лим muassasasida qolishiga to'sqinlik qiluvchi tibbiy yordam xulosasi asosida; bola mактабгача та'лим muassasasiga sababsiz bir oydan ko'proq vaqt mobaynida qolmasa, unga xizmat ko'rsatish uchun haq to'lashning belgilangan muddatidan ikki hafta o'tib ketsa; ota-onalar yoki ular o'rnnini bosuvchi shaxslar xohishiga qarab amalga oshiriladi. Ota-onalar bolaning chiqarilishi haqida 7 kun oldin xabardor qilinadilar.

Ota-onaning ish joyi o'zgarishi munosabati bilan bolani mактабгача та'лим muassasasidan chiqarish, agar bu lozimnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, qat'iy man etiladi.



Tarbiyachilar va ota-onalarning bu me'yorlariga asoslangan munosabatlari amaldagi qonunchilik va bola mактабгача та'лим muassasasiga qabul qilinayotganda tomonlarning o'zaro

kelishuviga binoan tuziladi, lozimnomaga bilan boshqariladi. Lozimnomaga bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yuzasidan maktabgacha ta'lim kengashiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin.

### **Turli tipdagি maktabgacha ta'lim muassasasining tashkiliy tizimini belgilab beruvchi Davlat instruktiv hujjatlari**

Maktabgacha ta'lim muassasasi muassis tomonidan tashkil etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi<sup>15</sup>. Quyidagilar:

- davlat boshqaruvi organlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- davlat korkabinetlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassisilari bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Quyidagilar:

davlat boshqaruvi organlari	mahalliy davlat hokimiyati organlari	davlat korxonalar	qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining muassisilari bo'lishi mumkin
-----------------------------	--------------------------------------	-------------------	--

Maktabgacha ta'lim muassasalari o'z ishining o'ziga xosligiga muvofiq quyidagi tiplarga bo'linadi:

- umumi tipdagи maktabgacha ta'lim muassasalari;
- ixtisoshtirilgan (jismoniy va psixik rivojlanishida har xil nuqsonlar mavjud bo'lgan bolalar uchun);

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat «Maktabgacha ta'lim mussasasi to'g'risida»gi Nizom.  
– T.: 2017.

- sanatoriylar tipidagi (zaif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asosratlarga ega bo'lgan bolalar uchun);

Maktabgacha ta'limga muassasasi o'z ustaviga, bank muassasalarida hisob raqamiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi ko'rsatilgan muhrga, yuridik manzili ko'rsatilgan shtampga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'limga muassasasini akkreditatsiya qilish davlat vakolatli organi tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limga muassasasi belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'limga muassasasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashshtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'limga muassasalarida ta'limga mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'limga muassasasi o'z (mualliflik) dasturidan foydalanishga haqidir. Bunday dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'limga muassasasining ish kun tartibi iva u yerda qancha vaqt bo'lishi Maktabgacha ta'limga muassasasi ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'limga muassasasi (guruh)ning kunduzgi va kechki vaqtarda hamda kecha-yu kunduz faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yiladi.

Maktabgacha ta'limga muassasasida bolalarni o'qitish va tarbiyalash davlat tilida va «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

Maktabgacha ta'limga muassasasida ovqatlanishni tashkil etish maktabgacha ta'limga muassasasiga yuklanadi hamda O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish ham, shtatdagi tibbiyot xodimlari ham Maktabgacha ta'limga muassasalariga

biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan ta'minlanadi, ular Maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya-gigiyena me'yorlariga, ovqatlanish kun tartibi va sifatiga rioya qilinishi uchun javob beradilar.

Tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish mahalliy sog'liqni saqlash organlariga yuklanadi. Maktabgacha ta'lif muassasasi tibbiyot xodimiga xona beradi va uning ishlashi uchun tegishli lozim-sharoitlar yaratadi.

Maktabgacha ta'lif muassasasining shtatdagi xodimlari sog'liqni saqlash organlarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tadilar, buning uchun sarflanadigan xarajatlar davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar doirasida belgilanadi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi ustavida qayd etilgan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarish uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan tuzilgan lozimnomalar asosida oilaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda asosiy ta'lif dasturlaridan tashqari qo'shimcha pulli ta'lif xizmatlari ko'rsatishga haqlidirlar. Pulli ta'lif xizmatlari muassis tomonidan moliyalashtiriladigan asosiy ta'lif faoliyatini uning doirasida ko'rsatilishi mumkin emas.

### **Davlat maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lif-tarbiya jarayoni qatnashchilari**

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasida bolalar, ota-onalar, pedagog xodimlar va vasiylik kengashi a'zolari ta'lif-tarbiya jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasida vasiylik kengashlari tashkil etiladi, ularni saylash tartibi va ularning

vakoatlari davlat mактабгача та'лим muassasining ustavida belgilanadi.

Davlat mактабгача та'лим muassasasi vasiylik kengashining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy nizom asosida amalgalashiriladi.

Bolalarni qabul qilishda davlat mактабгача та'лим muassasasi ota-onalarni o'z ustavi, kun tartibi, ta'lim-tarbiya dasturlari va boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi shart.

Davlat mактабгача та'лим muassasasi bilan ota-onalar o'rtaсидаги o'zaro munosabatlar shartnoma bilan tartibga solinadi. Ota-onalar bilan tuzilgan shartnoma bolalarning davlat mактабгача та'лим muassasasida bo'lishi vaqtini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tomonlarning huquqlari, majburiyatlar hamda javobgarligini o'z ichiga oladi.

#### Ota-onalar:

o'z bolalari uchun ta'lim-tarbiya shakllarini, davlat mактабгача та'лим muassasasida ta'lim berish tilini tanlash;

davlat mактабгача та'лим muassasasida bolalarga ta'lim-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini hamda bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

muassasa bilan tuzilgan shartnoma shartlarida belgilangan tartibda kun davomida o'ziga qulay bo'lgan vaqtda bolalarni davlat mактабгача та'лим muassasasidan olib ketish huquqiga ega.

Ota-onalar qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

#### Ota-onalar quyidagilarga majbur:

belgilangan normativlarga muvofiq bolaning davlat mактабгача та'лим muassasasida bo'lgan davri uchun badal to'lovini o'z vaqtida to'lash;

bolalarning to'laqonli ovqatlanishini, ularda shaxsiy gigiyena ko'nikmalari shakllantirilishini qat'iy kuzatib borish,

bolani davlat maktabgacha ta'lif muassasasiga ozoda kiyingan holda olib kelish.

Ota-onalar qonun hujjalariiga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishlari mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalanuvchisi va xodimlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariiga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasiga xodimlarni ishga qabul qilish belgilangan tartibda tasdiqlanadigan namunaviy shtatlar jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Tegishli pedagogik ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxslar davlat maktabgacha ta'lif muassasasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Sud hukmi bilan yoki tibbiy xulosaga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarning ushbu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlarining huquqlari, majburiyatları va imtiyozlari qonun hujjalariida, davlat maktabgacha ta'lif muassasasi ustavida, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Xodimlarning vazifalari lavozim yo'riqnomasi va tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomasida belgilab qo'yiladi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasining pedagog xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

davlat maktabgacha ta'lif muassasasini boshqarishda o'z ustavida belgilanadigan tartibda qatnashish;

o'z kasbiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish.

Pedagog xodimlar qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlar quyidagilarga majbur:

ta'lif-tarbiya jarayoniga zamонавија та'lif dasturlarini tatbiq etish;

ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish bo'yicha o'ziga yuklatilgan vazifalar doirasida shart-sharoitlar yaratish;

bolalarga yuqori professional darajada ta'lif-tarbiya berish orqali mактабгача та'lif sifatini oshirish;

pedagog axloq-odobiga rioya qilish, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalarni tazyiqdan himoya qilish, ularni mehnatga, ota-onaga hurmat, atrof-muhitga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

o'zining kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish hamda belgilangan muddatlarda o'z malakasini oshirib borish.

Pedagog xodimlar qonun hujjalariга muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

**Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va  
«Qanday» savoli orqali muammo hal qilinadi**



Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlariga ish haqi miqdorlari (lavozim maoshlari) qonun hujjalariга muvofiq belgilanadi. Muassasa rahbari pedagog xodimlarni

rag'batlantirish maqsadida ustamalar, qo'shimcha haq hamda boshqa to'lovlar turi va miqdorlarini ish haqiga yo'naltiriladigan mavjud mablag'lar doirasida belgilaydi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasidagi pedagog xodimlar belgilangan tartibda sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rildan o'tkaziladi.

### **Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasini tashkil etish**

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalarining maqsadi va vazifalarini, uning faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasini boshqarish faoliyatini tartibga soladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi va o'z ustaviga, mustaqil balansiga, bank hisob raqamlariga, o'z nomi ko'rsatilgan muhrga ega bo'ladi.

### **Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining maqsadi va vazifalari**

Quyidagilar nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining maqsadi hisoblanadi:

maktabgacha yoshdagi bolalarni (keyingi o'rinnarda bolalar deb ataladi) har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;

ta'lif-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limga sifatli tayyorlash;

bolalar ni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish.

Quyidagilar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining vazifalari hisoblanadi:

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;

bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;

bolaning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;

bolaning rivojlanishidagi (nutqida, ko'rishida, eshitishida) yengil nuqsonlarni korreksiyalashni amalga oshirish;

bolardaxalqimizningyuksakma'naviyativainsonorvarvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish.

### **Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish**

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi qonun hujjalari ga muvofiq muassasa shaklida tashkil etiladi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassislar toifasiga kirmaydigan barcha yuridik va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassislar bo'lishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi qonun hujjalari ga muvofiq belgilangan tartibda litsenziya olgan vaqt dan boshlab ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini akkreditatsiya qilish vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim

vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi.

Muassasa o'z (mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Ushbu dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining ish tartibi va bolalarning muassasada bo'lish vaqtini muassasa ustavi hamda muassisning qarori bilan belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida 5 kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi ish tartibi joriy etiladi:

12 soatli;

10,5 soatli;

9 soatli;

4 soatli.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida yoki uning alohida guruhlarida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida bolalarning ovqatlanishi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalanuvchilariga tibbiy yordam ko'rsatish shtatdagi yoki sog'liqni saqlash organlarining shartnoma asosida maxsus biriktirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlari nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rivoja qilinishi uchun javob beradilar. Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi ta'limning uzlucksizligini ta'minlash maqsadida shartnomaga asosida o'z faoliyatini umumiy o'rta ta'lim muassasalarini bilan birgalikda amalga oshirishi mumkin.

Maktabgacha ta'limiga qamrab olinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish maqsadida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruuhlar tashkil etiladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruuhlar uchun 4 soatli ish tartiblari joriy etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruuhlar qonun hujjatlariga muvofiq olingan litsenziya asosida muassis qarori bilan tashkil etiladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil etilgan qisqa muddatli guruuhlarda moddiy-texnik va kadrlar ta'minoti muassis tomonidan belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida qisqa muddatli guruhlarni qayta tashkil etish yoki tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muassisning qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

### **Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni qabul qilish**

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni qabul qilish tegishli tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni qabul qilish va ularni chiqarish tartibi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining ustavi bilan belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi guruuhlaridagi bolalar soni davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini uchun belgilangan me'yordan ortiq bo'lmasligi kerak.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan boshlanadi va keyingi yilning 1 iyunida

tugallanadi. Ushbu davr oralig'ida sog'lomlashtirish davri davom ettiriladi.

### **Ta'lif-tarbiya jarayoni qatnashchilar**

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar (keyingi o'rnlarda ota-onalar deb ataladi), pedagog xodimlar, vasiylik kengashi a'zolari ta'lif-tarbiya jarayonining qatnashchilar hisoblanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida vasiylik kengashlari tashkil etiladi, ularni saylash tartibi va ularning vakolatlari nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining ustavida belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi bolalarni qabul qilishda ota-onalarni o'z ustavi, kun tartibi, ta'lif-tarbiya dasturlari va boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi shart.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi bilan ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu muassasaning ustavi hamda shartnomaga bilan tartibga solinadi. Ota-onalar bilan tuzilgan shartnomaga bolalarning ushbu muassasada bo'lish vaqtini, ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etishda tomonlarning huquqlari, majburiyatlar hamda javobgarligini o'z ichiga oladi.

Ota-onalar quyidagi huquqlarga ega:

o'z bolalari uchun ta'lif-tarbiya shakllarini, nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lif berish tilini tanlash;

nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida bolalarga ta'lif-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini hamda bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi bilan tuzilgan shartnomaga shartlarida belgilangan tartibda kun davomida o'ziga qulay bo'lgan vaqtda bolalarni maktabgacha ta'lif muassasasidan olib ketish huquqiga ega.

Ota-onalar qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalanuvchisi va xodimlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariiga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasida tegishli pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Sud tomonidan yoki tibbiy xulosaga muvofiq bunday faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslar pedagogik faoliyatga qo'yilmaydi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining pedagoglari va boshqa xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni bekor qilish qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi rahbari belgilangan tartibda pedagog kadrlar malakasini oshirishni va ularni qayta tayyorlashni ta'minlaydi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qiladi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, mualliflik dasturlari, metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar joriy etilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlarining huquq va imtiyozlari qonun hujjalarda, ushbu muassasaning ustavida, shuningdek mehnat shartnomasida belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining pedagog xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasini boshqarishda ushbu muassasa ustavida belgilanadigan tartibda qatnashish;

o'z kasbiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining pedagog xodimlari quyidagilarga majbur:

ta'lif-tarbiya jarayoniga zamонавиј та'lif dasturlarini tatbiq etish;

ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy

rivojlantirish bo'yicha o'ziga yuklatilgan vazifalar doirasida shart-sharoitlar yaratish;

bolalarga yuqori professional darajada ta'lim-tarbiya berish orqali maktabgacha ta'lim sifatini oshirish;

pedagog axloq-odobiga rioxalashish qilish, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalarni tazyiqdan himoya qilish, ularni mehnatga, ota-onaga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

o'zining kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish hamda belgilangan muddatlarda o'z malakasini oshirib borish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

### **Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish va uning faoliyatini nazorat qilish**

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini muassis tomonidan tayinlanadigan rahbar boshqaradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari davlat maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri lavozimiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini nazorat qilish muassis tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini tomonidan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari va ta'lim-tarbiya dasturlarining bajarilishini nazorat qilish ushbu sohadagi vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini attestatsiya-dan o'tkazish, ularning faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish va to'xtatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti**

Muassis nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasiga mol-mulkni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda biriktiradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi o'ziga biriktirilgan mol-mulkni va o'ziga ajratilgan mablag'lar hisobiga sotib olingen mol-mulkni qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasi faoliyati uning muassisi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq moliyalashtiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash muassislar tomonidan maktabgacha ta'lif muassasalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan past bo'limgan miqdorda amalga oshiriladi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasasi binolarini loyihalashtirish**

Maktabgacha ta'lif muassasasi maxsus loyiha bo'yicha qurilgan yoki moslashgan sanitariya-gigiyena me'yorlariga, yong'in xavfsizligi qoidalariiga javob beradigan va ob-havo sharoitini, ekologik vaziyatini, tarkib topgan milliy an'analarni hisobga oladigan binoda tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasining sig'imi, odatda 320 o'rinci bo'lishi kerak. Umumiy yo'nalishdagi maktabgacha ta'lif muassasalari uchun 140-160 o'rinni, maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lif muassasalari uchun 90-120 o'rinci muvofiq deb hisoblash zarur.

Maktabgacha ta'lif muassasasi amaldagi me'yortivlarga muvofiq yumshoq va qattiq sport jihozlari, tibbiy yordam apparati, ta'limning texnik vositalari, o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar hamda o'yinchoqlar bilan ta'minlanadi maktabgacha ta'lif muassasasini jihozlash ro'yxatiga milliy anjomlar ham kiradi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi ish tartibi ijroiya qo'mita maktabgacha ta'lif boshqarmasi yoki qaramog'ida maktabgacha ta'lif muassasasi bo'lgan korkabinet, muassasa, tashkilot tavsiyasiga muvofiq maktabgacha ta'lif kengashi, maktabgacha ta'lif muassasasi kengashi bilan kelishilgan holda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari qarori bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lif muassasalari yoki uning ayrim guruhlari haftasiga 5, 6 va 7 kun kunduzgi va bolalar sutka mobaynida bo'ladijan, bir yoki ikki kunlik dam olish kunlari bilan, shuningdek, xodimlarga sirg'aluvchi grafik bo'yicha dam olish kuni beriladijan kun tartibida ishlashlari mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif muassasasida kuni uzaytirilgan kun, shuningdek, shanba, yakshanba va bayram kunlari kun tartibida ertalab va kechki vaqtida ishlovchi navbatchi guruhlar ochilishi mumkin.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta'lif muassasasining faoliyat kun tartibii zarur to'g'rilash-tarbiyaviy ishlar olib borishni hisobga olgan holda belgilanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'lif muassasalarini hal etish maktabgacha ta'lif muassasalarining har xil turlarini tashkil etilgan ham aloqadordir. Ular tilga ko'ra (o'zbek, qozoq, rus, tatar, koreys va shu kabilar) farqlanishi va bu muassasalarda ta'lif-tarbiyaning milliy an'analarga asoslanib ko'riliishi lozim.

Maktabgacha ta'lif muassasalari bolaning muassasada bo'lishiga qarab bir necha soatni, bir necha kunni;

Tarbiya vazifalariga ko'ra esa ijodiy, yordamchi, umumiyligi ijtimoiy moslashtirilgan bo'ladi.

Mablag' bilan ta'minlanishiga qarab: davlat, idora, xususiy va hokazo.

Ijtimoiy maktabgacha ta'lif muassasalari qishloqlari muassasasida 40-100, shahar muassasasida 140-170 o'rindan oshmasligi ko'zda tutiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi, shu jumladan, uning ayrim guruhlari ishining davomiyligi, boshlanishi va tugashi ota-onalarning ehtiyojini hisobga olgan holda belgilanadi. Ammo u ertalabki 6.30 dan barvaqt bo'lmashligi kerak.

Maktabgacha ta'lif muassasasida ota-onalar arizasi bo'yicha xalq deputatlari kengashi qarori bilan, shu jumladan, lozimnomma va xo'jalik hisobi asosida ish 6 soatdan kam davom etilgan qisqa muddatli guruhlar; ota-onalar bolalarini 1-2 soatga qoldiradigan guruhlar; sayr guruhlari; jismoniy tarbiya-sog'lomlashdirish guruhlari; musiqa-estetik va badiiy tarbiyalash, aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun xo'jalik hisobi asosida ishlaydigan guruhlar ochilishi mumkin. Bunda mazkur maktabgacha ta'lif muassasasiga muntazam qatnaydigan bolalarning manfaatlari kamsitilmashligi lozim. Maktabgacha ta'lif muassasasining ta'lif tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuniga muvofiq belgilanadi.

Ota-onalar o'z bolalarini maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyachilarini ilgaridan ogohlantirilgan holda o'zlar uchun qulay paytda olib kelishlari va olib ketishlari mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar maktabgacha ta'lif muassasasida bolalar hayotining fiziologik asoslangan kun tartibiga rioya qilishlari va o'quv-tarbiya jarayonini buzmasliklari lozim.

Maktabgacha ta'lif muassasasida bolalarni ovqatlanirish uning ish kuni davomiyligini hisobga olgan holda va belgilangan pul hamda tabiiy me'yorlarga muvofiq tashkil qilinadi. Bolalar 6 va undan kam soat mobaynida bo'ladigan guruhlarda ovqatlanishni tashkil qilish, uning shakli va necha martaligi ota-onalar bilan kelishuvga binoan belgilanadi. Bu guruhlarda ovqatlanirish uchun pul me'yorlar xalq deputatlari kengashlari va qaramog'ida ushbu maktabgacha ta'lif muassasasi bo'lgan korkabinet, muassasa, tashkilot, xo'jalik hisobi asosida tashkil qilingan guruhlarda ota-onalar tomonidan belgilanadi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasasi:**

- o'z Ustavida nazarda tutilgan funksiyalarning bajarilmaganligi;
- ta'lif dasturining to'liq hajmda bajarilmaganligi, amalga oshirilayotgan ta'lif dasturlarining sifati;
- ta'lif jarayonini tashkil etishning qo'llanilayotgan shakllari, metodlari va vositalarining bolalarning yosh, ruhiy-fiziologik xususiyatlariga, qobiliyatiga, layoqatiga, qiziqishlariga va ehtiyojlariga nomuvofiqligi;
- muassasada tarbiyalanayotgan bolalarning ta'lif jarayoni vaqtida hayoti va sog'lig'i uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Komplektlash** – maktabgacha ta'lif muassasasini bolalar bilan to'ldirish, muassasalar.

**Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif muassasalar** – aqliy va jismoniy rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun tashkil etiladi.

**Muassasa filiali** – muassasa bo'linmasi.

**Ufq tomon** – quyosh toqisi.

**Kun tartibi** – kun tartibi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lif muassasalari qanday maqsadlarda tashkil etiladi?
2. Binolarni loyihalashtirishda nimalarga ahamiyat beriladi?
3. Davlat instruktiv hujjatlarga qaysi hujjatlar kiradi?
4. Maktabgacha ta'lif va ta'lif dasturi mazmunini yoritib bering.
5. Maktabgacha ta'lif to'g'risidagi nizomning maqsad va vazifalarini izohlab bering?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. O'zbekiston Respublikasida ta'limgiz turlarini aniqlang.
  - a) Maktabgacha ta'limgiz, umumiy o'rta ta'limgiz, o'rta-maxsus ta'limgiz, oliy ta'limgiz, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limgiz, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
  - b) Maktabgacha ta'limgiz, boshlang'ich, kasb-hunar, litsey, oliy ta'limgiz, malaka oshirish
  - v) Maktab, muassasa, kollej, oliy ta'limgiz
  - g) Maktabgacha ta'limgiz, maktab, kollej, oliy ta'limgiz
2. Ta'limgiz jarayonining qatnashchilari va ularning huquq va burchlari qaysi qonun hujjatda belgilangan?
  - a) "Ta'limgiz to'g'risida"gi Qonunda
  - b) "Maktabgacha ta'limgiz muassasalari to'g'risida"gi Nizomda
  - v) Maktabgacha ta'limgiz Konsepsiyasida
  - g) Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida
3. Maktabgacha ta'limgizning turlari va yo'nalishlarini aniqlang.
  - a) Maktabgacha ta'limgiz muassasasi, maktabgacha ta'limgiz muassasalari, maktabgacha ta'limgiz muassasalari maktab, nodavlat bolalar majmuasi, umumiy yo'nalishdagi maktabgacha ta'limgiz muassasalari
  - b) Maktab-muassasa majmuasi, sanatoriya maktabgacha ta'limgiz muassasalari, logopedik maktabgacha ta'limgiz muassasalari
  - v) Aralash turdagiz bolalar muassasalari, xonodon maktabgacha ta'limgiz muassasalari
  - g) Til o'rgatish, ruhiy va jismoniy rivojlanishda kamchiligi bor bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'limgiz muassasalari
4. Qisqa muddatli guruhlarning turlari qaysi bandda to'g'ri yoritilgan?
  - a) "Aralash guruhlari", "Kelajak o'quvchi", "Muammoli bola"

- b) "Kelajak o'quvchi", "Integrallashgan guruh", "Muammoli bola"
- v) "Integrallashgan bola", "Jadallashtirilgan guruh", "Aralash guruh"
- g) "Namunaviy guruh", "Aralash guruh", "Integrallashgan guruh"

5. Nodavlat maktabgacha ta'lif muassasasining muassislari kimlar hisoblanadi?

- a) Yuridik va jismoniy shaxslar
- b) Korkabinet va fermerchilik, davlat xo'jaliklari
- v) Mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik tashkilotlari
- g) Akkreditatsiya qilish vakolatli organlar

**XXI BOB. MUDIRA MAKTABGACHA TA'LIM  
MUASSASINING RAHBARI.  
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI  
METODISTINING METODIK ISHLARGA RAHBARLIGI**

**Mudira tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali  
pedagog va unga qo'yilgan talablar**

*Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom  
va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar  
faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Maktabgacha ta'lismuassasasi - murakkab tarmoq bo'lib, mudiraning undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Mudira - maktabgacha ta'lismuassasining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lismoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U maktabgacha ta'lismuassasalaridagi ta'lism-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur lozim-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiylahabarlik qiladi. Mudira o'z ishida davlatimiz va Maktabgacha ta'lismazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksakonglilik va siyosiy yetuklik, tamoyillilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – bu mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Davlat maktabgacha ta'lismuassasasi muassis tomonidan tashkil etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Davlat organlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda qonun hujjatlariga muvofiq davlat

maktabgacha ta'lif muassasasining muassisilari bo'lishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasiga bevosita rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi bilan kelishilgan holda tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lif boshqarmalari hamda Toshkent shahar maktabgacha ta'lif bosh boshqarmasi tomonidan tayinlanadigan mudir tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi mudiri bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi mudiri lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasi mudiri:

davlat maktabgacha ta'lif muassasasi faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish hamda ta'lif-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlaydi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasasi nomidan faoliyat ko'rsatadi va barcha tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasasi mol-mulkini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlarini mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishga qabul qiladi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qiladi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantiradi, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi;

o'z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqaradi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasasining faoliyatini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun maktabgacha ta'lif

muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limiga kiritadi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasasining moddiy- texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlash ishlarni tashkil etadi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasasining moliya-xo'jalik faoliyatiga javob beradi.

Davlat maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lif-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lifning innovatsion shakllarini rivojlantirish maqsadida pedagogik kengash faoliyat ko'rsatadi. Pedagogik kengash a'zolarini saylash tartibi va uning vakolatiga kiradigan masalalar davlat maktabgacha ta'lif muassasasi ustavida belgilanadi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasasi mudiri lavozimining malaka tavsiflari**

#### **Lavozim vazifalari:**

a) maktabgacha ta'lif muassasasi umumiy faoliyatiga rahbarlik qilish;

b) pedagogik jamoa va boshqa xodimlarni bolalar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarda yuqori samaraga erishishini tashkil qilish;

v) tarbiyaviy jarayonda mehnatni tashkil qilishning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

g) bolalarni boshlang'ich sinfda o'qitishga tayyorlash bo'yicha davlat talablariga muvofiq tarbiyalash dasturlarining bajarilishini nazorat qilish;

d) bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni pedagogika va gigiyena talablariga muvofiq tarbiyalash va o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlash;

e) pedagogik kengashga rahbarlik qilish, oilada farzand tarbiyasi masalalari bo'yicha ota-onalar bilan ishslashni tashkil qilish;

- j) sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash;
- z) bolalarning ovqatlanishini, yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish,
- i) muassasada tasdiqlangan rejaga muvofiq ish yuritishni tashkil qilish tarbiyalanuvchilar ro'yxati bo'yicha to'ldirilishini amalga oshirish;
- y) jihozlardan to'g'ri foydalanish, ularning hisobini yuritish va saqlashni ta'minlash;
- k) kadrlarni tanlash, joy-joyiga to'g'ri (optimal, samarali) qo'yishni ta'minlash, ularning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- l) byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish va muassasa mulkiga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, korxona, muassasa va tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzish mактабгача ta'lim muassasasi nomidan faoliyat yuritish, uning manfaatlarini himoya qilish, ishonchnomalar berish, turli yo'naliшlardagi davlat va nodavlat jamg'armalar bilan o'zaro hamkorlikda ish yuritish;
- m) ichki mehnat tartib-qoidalarini o'rnatish, mактабгача ta'lim muassasasi shtatlar jadvalida tarbiyachi-uslubiyotchi lavozimi bo'limganda uning vazifalarini bajarish;
- n) tarbiyalanuvchilarni ichimlik suvi bilan ta'minlash va bolalar uchun qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish.


### **Bilishi lozim:**

- a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi va "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarini;
- b) mактабгача yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablarining mazmunini;
- v) hukumatning tegishli qarorlari, Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni;
- g) bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash dasturi va tarbiyaviy ishlar konsepsiyasini;

- d) maktabgacha pedagogika va psixologiyani, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash shakl va metodlarini;
- e) pedagogik fan va amaliyotda ishlab chiqilgan metodik hujjatlarni, o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalaridan foydalanish amaliyotini;
- j) pedagogika, pedagogik psixologiya, bolalar fiziologiyasi, ta'lif muassasasa faoliyatiga qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalalarini.

### **Malaka talablari:**

- a) o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha kurslarni tugatganlik;
- b) xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;
- v) uch yildan kam bo'limgan ish staji.




Jamoadagi to'g'ri, o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqeyi mudira o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo

ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan amaliy faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik instruktiv, me'yoriy hujjatlarni yaxshi bilishi va unga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, yutuq va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko'rishi lozim.

### Klaster metodi



Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri Maktabgacha ta'limni boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga va 3 yildan kam bo'lмаган pedagogik ish stajiga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish tarbiyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim muassasasi kengashining faollari ishtirokida ma'muriyat amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha

ta'lim muassasasi manfatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi.

Mudira – ma'naviy, siyosiy, huquqiy axloqiy yetuklik-saviya, ong ma'rifatchilik, madaniyatllilik, xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, halollik, vijdonlilik, tanqidga chidamli bo'lish, mehnatsevarlik istiqbolni oldindan ko'ra olish kabi xususiyatlar mavjud bo'lishi kerak.

### **Demokratik rahbar**

Bunday turdag'i rahbar:

- boshqarish funksiyalarini jamoa fikri bilan hisoblashib amalga oshiradi;
- ishlab chiqarishni boshqarishga xodimlarni jalb qiladi;
- ularning bildirgan fikriga qulq soladi;
- ular bilan maslahatlashadi, ijobjiy tomonlarini inobatga oladi;
- barcha bilan barobar va samimiy munosabatda bo'ladi, ustunligini bildirmaydi;
- buyruq berish yo'li bilan emas, balki ishontirish uslubida ish tutadi;
- buyruq rahbarlik uslubi bo'y sunuvchilarining shaxsiy tashabbusini, ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va jamoada o'rtoqlik va ishchan muhitni yaratadi.

### **Avtoritar rahbar**

Bunday turdag'i rahbar:

- buyruq chiqarish, qaror qabul qilish, xodimlarga jazo berish yoki rag'batlantirishda jamoa fikrini hisobga olmaydi;
- o'zini jamoadan uzoq tutadi; jamoa a'zolarini bevosita muloqotda bo'lishini chegaralab qo'yadi;
- o'zining noo'rin harakatlarining tanqid qilinishiga chiday olmaydi;

o'ziga bo'ysunuvchilarning harakatlarini keskin ravishda tanqid qilishni yaxshi ko'radi;

- muttasil buyruq berishga, hammani o'z istaklariga so'zsiz bo'ysundirishga intiladi;

- ko'p gapirishni yoqtirmaydi, lekin bo'ysunuvchilari bilan muomalada bo'lganda uning rahbarlik g'ururi balandligi, o'zini katta tutishi sezilib turadi;

- o'ziga bo'ysunuvchilar oldida qovog'i solingan kayfiyatda bo'ladi.

Xullas, avtoritar rahbar o'ziga bino qo'ygan, dimog'dor, o'z qobiliyati va imkoniyatlariiga ortiqcha ishonadigan, hukmini o'tkazishga intiladigan kishilardan yetishib chiqadi.

Bunday rahbar nazoratdan chetda qolsa o'sha yerda dag'allik, takabburlik, tayziq o'tkazish, majbur qilish kabi o'ta salbiy holatlar avj oladi.

Biroq avtoritar boshqaruv usulini har jihatdan, yomon deb bo'lmaydi. Ba'zi bir hollarda bo'ysunuvchilarning madaniy darajasi, axloqi pastligi sababli avtoritar uslubini tanlab olish ham ish berib holishi mumkin


### **Liberal rahbar**

Bunday turdag'i rahbar:

- idorasiz, tashabbussiz bo'ladi;
- o'z zimmasiga mas'uliyat olishni yoqtirmaydi;
- ishni o'z holiga tashlab ko'yadi;
- idoraga nisbatan qat'iy bo'lishdan hayiqadi;
- o'zini haddan tashqari ehtiyot qiladi;
- biron xodim bilan ham aloqani buzishni istamaydi;
- talabchan emas, sust nazorat qiladi;
- suiiste'mollarga bevosita yo'l qo'ymasa ham o'zini biimaslikka soladi;

Bunday rahbar tashqaridan ko'rsatiladigan ta'sirga moyilligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Har bir rahbar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:


## Ma'naviy yetuklik darajasi



## Rahbarga mos ma'naviy-ruhiy xislatlar



## Rahbarga xos tadbirkorlik xislatlari



### Siyosiy-huquqiy va ma'nnaviy-marifiy jihatdan:

- Siyosiy va huquqiy yetuklik;
- Bilimdonlik;
- Xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qodirlik;
- Topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik;
- Shaxsiy manfaatlarni jamoat manfaatlariga bo'yundirishga qodirlik;
- Kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish;
- Tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati;
- Tamoyillik;
- Tanqidga chidamli bo'lish, o'z-o'ziga tanqid qila bilish;
- Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati;
- Mehnatsevarlik;
- Jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
- Atrofdagilarga mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish;
- Ishni rejali olib bera bilish, rejasiz ishlagan rahbar

xodimlar jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvafaqqiyatli bajara ololmaydi.

Bilim darajasi

Iqtisodiyotni bilishi;

Texnika va texnologiyani bilishi;

Boshqarish ilmini, funksiyalari va tuzilishini bilish;

Istiqlolni bilimga qodirligi va hokazo.

Rahbar aniq, chuqur va keng bilimga ega bo'lishi, uni doimo to'ldirib va yangilab borish kerak. Aks holda u obro' qozona olmaydi, xodimlarning ishonchiga sazovor bo'la olmaydi.

Tashkilotchilik qobiliyati

Xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olishligi;

Qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish;

Jipslashgan jamoani vujudga keltira olish;

Maqsad sari intiluvchanlik;

Kutilmagan vaziyatlarda boshqarish qobiliyatini yo'qotmaslik.

Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish.

Boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;

Ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati;

Ishga oid xatlar, buyruqlar, farmoyishlar yoza bilish;

Turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;

Rahbarlarni va qo'l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati;

Asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish qibiliyati;

Rejalarni bajarishdan xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash qobiliyati;

Boshqaruv organi qarorlari bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish;

Boshqarish tuzilishini takomillashtirib berish qobiliyati va hokazo.

## Rahbarga qo'yiladigan talablar

Nº	Talablar	Izoh
1.	Ma'naviy yetuklik	<ul style="list-style-type: none"> <li>• siyosiy yetuklik</li> <li>• huquqiy yetuklik</li> <li>• axloqiy yetuklik</li> <li>• yuqori saviya va ong</li> <li>• ma'rifatchilik</li> <li>• madaniyatichilik</li> <li>• xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik</li> </ul>
		<ul style="list-style-type: none"> <li>• topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik</li> <li>• shaxsiymanfaatlarni jamoat manfaatlariga bo'ysundirishga qodirlik</li> <li>• kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish</li> <li>• tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati</li> <li>• prinsipiiallik</li> <li>• tanqidga chidamli bo'lish, o'z-o'zigi tanqid qila bilish</li> </ul>
2	Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mehnatsevarlik</li> <li>• jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish</li> <li>• atrofdagilarda mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish</li> </ul>
		Bir noshud rahbarning beg'amligi yuzlab, minglab kishilar taqdirining bedaxl qirralariga ta'sir etishi mumkin. Boqibeg'am bu toifa rahbarlarning shu uslubi bilan murosa qilib bo'lmaydi
		<ul style="list-style-type: none"> <li>• ishni rejali olib bera bilish, rejasiz ishlagan rahbar xodimlar jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajara ololmaydi</li> </ul>

3	Bilim darajasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• iqtisodiyotni bilishi</li> <li>• texnika va texnologiyani bilishi</li> <li>• boshqarish ilmini, funksiyalari va tuzilishisini bilish</li> <li>• istiqbolni bilimga qodirligi va h.k.</li> </ul>
4	Tashkilotchilik qobiliyati	<ul style="list-style-type: none"> <li>• xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olishligi</li> <li>• qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish</li> <li>• jipslashgan jamoani vujudga keltira olish</li> <li>• maqsad sari intiluvchanlik</li> <li>• kutilmagan vaziyatlarda boshqarish qobiliyatini yo'qotmaslik</li> </ul> <p>«Yomon korkabinet yoki tashkilot yo'q, lekin yomon rahbarlar bor». Bu ibora shuni bildiradiki, yomon ishlab turgan korkabinetga jamoani yaxshi boshqaradigan, tashkilotchilik qobiliyati yuqori, mehnatsevar, talabchan, bilimdon rahbar qo'yilsa, u korkabinet tezda yaxshi korkabinet sarfiga qo'shiladi.</p> <p>Agar yaxshi ishlab turgan korkabinetga tasodifan tashkilotchilik qobiliyati past rahbar kelib qolsa, aksincha, u korkabinet asta-sekin yomon ishlaydigan korkabinetga aylanadi.</p>
5	Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati</li> <li>• ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati;</li> <li>• ishga oid xatlar, buyruqlar, farmoyishlar yoza bilish</li> <li>• turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati</li> <li>• rahbarlarni va qo'l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati</li> </ul>

		<ul style="list-style-type: none"> <li>• asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish qobiliyati</li> <li>• rejalarini bajarishdan xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash qobiliyati</li> <li>• boshqaruv organi qarorlari bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish</li> <li>• boshqarish tuzilishini takomillashtirib berish qobiliyati va h.k.</li> </ul>
--	--	--

### **Rahbarning madaniy saviyasi ko'rsatkichlari:**

- so'z bilan ishning birligi;
- o'z kasbiy mahoratini, iqtidoriy-ma'naviy komilligini o'stirish ustida qayg'urish;
- oqilona turmush tarzi, jismoniy sog'lomligini saqlash;
- o'z-o'zini tanqid asosida o'z kamchiliklarini bo'yniga olmoq;
- o'zini intizomga bo'ysundirish;
- o'z malakasini oshirishga bo'lgan intilish va uning uddasidan chiqa olish;
- harakatning maqsadga qaratilganligi va qat'iyligi;
- o'ziga va mehnat faoliyatiga bo'lgan talabchanlik;
- axloqning quyidagi alifbolariga qat'iy rioya qilish:

### **Rahbarning axloqiy xislatlari**

- kamtarinlik
- haqgo'ylik
- halollik
- o'zini tuta bilishlik
- oddiylik
- to'g'rilik, vijdonlik
- insoflilik
- mehr-oqibat
- saxovat

### **Rahbarning jamoaga nisbatan madaniyatlligi:**

- kishilarga e'tibor va hurmat;
- kishilarga xayrixoh va iltifotli bo'lish;

- oljanoblik va beg'arazlik;
- xolislik;
- insoning qadr-qimmatiga yetish kabilar.

### **Fuqarolik va kasbiy burchini bajarish.**

- Odamlarga ishonch, kishilarning o'z kuchiga, qobiliyatiga bo'lган ishonchini qo'llab-quvvatlay olish, uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo'naltirishni bilish;

- Yuqori nutq madaniyatigi ega bo'lish va tashqi ko'rinishdagi ozodaligi;

- Salbiy fazilatlari ega bo'lган, qonun-qoidalarga rioxayilmaydigan, adabsiz kishilarga, shu jumladan, qavm-qarindosh va yaqin-tanish, bilishlarga nisbatan toqati yo'q.

### **O'zaro munosabatdagi quyidagi oddiy etiket qoidalariga rioxaya qilish:**

- xushmuomala;
- sipolik;
- kamsuqumlik;
- andishali;
- vazminlik.

### **Mehnat va do'stlikdagi sherikchilikda:**

- o'zaro yordam va quvvatlash;
- hozirjavoblik va majburiylik, so'zsiz bajarishlik;
- tamoyillik ishonch;
- talabchanlik.

### **Rahbarning jamiyatga nisbatan madaniyatatliliği:**

- Yuqori darajadagi fuqarolik, vatanparvarlik va baynalminallik;
- Jamiyat baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish, jamiyat boyligini ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilish;
- Qonunlarga, huquqiy akt va bitimlarga, davlat intizomiga qat'iy rioxaya qilish;
- Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, jamiyat manfaatlarini buzilishlariga nisbatan shafqatsiz bo'lish;
- Huquqiy, moddiy va ma'naviy javobgarlikni tan olish va rioxaya qilish;

- Ko'p fikrlilikka ochiqko'ngilllik bo'lish va uni hurmat qilish.  
Har qanday holatda ham qaysi bo'g'inda rahbar bo'lishidan qat'iy nazar o'zining asosiy majburiyati, ya'ni qo'l ostidagilarni mazkur talablar negizida ish olib borishni unutmasligi kerak.

### **Mudira faoliyatining mazmuni:**

#### **a) mudiraning ma'muriy xo'jalik ishlari.**

Mudira maktabgacha ta'lif muassasalarning butun faoliyatiga rahbarlik qilib, u obodonlashtirish, ko'kalamzorlash-tirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, muassasasini boy oziq-ovqat moddalar bilan ta'minlash, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, reja bo'yicha maktabgacha ta'lif muassasalarni bolalar bilan to'ldirish, ta'lif-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, taomnoma sifatini vitaminga boy bo'lgan moddalar bilan ta'minlashi (kamida haftada 2 marta), xamir ovqatlari (bulochka, pechene), pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularning malakasini oshirish ishlari bo'yicha bosh rahbardir.

Mudira bolalar hayotini saqlash, muhofaza qilishi uchun maktabgacha ta'lif muassasasida to'g'ri kun tartibi jarayonlari, lozim-sharoit yaratadi. Sanitariya va gigiyenik qoidalarning bajarilishiga, yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazadi. Qishga boy oziq-ovqat va mahsulotlarini g'amlaydi. Vitaminga boy bo'lgan mevali o'simliklarni o'stiradi. Maktabgacha ta'lif muassasalar xodimlari o'z vaqtida oylik maosh bilan ta'minlanadi. Ishchilarning mehnat intizomiga qat'iy rioya qilishlarini nazorat qiladi. Ish yuritishni qattiq nazorat qiladi. Bo'sh guruahlarni xodimlar bilan o'z vaqtida ta'minlaydi. Faol xodimlarni rag'batlantiradi. Maktabgacha ta'lif muassasalarda o'tkaziladigan joriy, kapital ta'mirlashga bosh rahbardir. Moliyaviy-xo'jalik ishlari bo'yicha javobgar shaxs, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha javobgar shaxs, kir yuvuvchi, bog'bon, duradgor, farrosh, qorovul, elektrik, santexnik, haydovchi bilan yakkama-yakka suhbat o'tkazadi. Ularning ishlari ustidan qat'iy nazorat tashkil etadi.

Mudira muassasani kerakli texnikaviy va xo'jalik materialallari bilan muntazam ravishda ta'minlab turish, binoni jihozlash bilan (qattiq va yumshoq inventarlar) jihozlash, binoni o'z vaqtida ta'mirlash va o'quv-ko'rgazmali qurollari bilan to'ldirib borishi, turli yosh guruhi uchun dastur - metodik hujjatlarda tavsiya etilgan. Ularning fiziologik, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyalash maqsadida bolalar badiiy adabiyoti va pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlash, bolalar maydonchasini to'g'ri rejali jihozlash, kadrlarni joylashtirishda ularni bolalar bilan ishslash tajribasiga qarab, xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, shifokor bilan birgalikda tibbiy yordam ishlarini nazorati va bolalarni tizimli tibbiy yordam ko'riganidan o'tkazish ishlari kiradi.

Moliyaviy-xo'jalik va boshqa faoliyati, jamoada ijodiy, ma'naviy-ruhiy muhit yaratilishi uchun qonunda belgilangan tartibda shaxsiy javobgardir.

### **b) tashkiliy pedagogik ishlarga rahbarligi.**

Mudiraning tashkiliy-pedagogik ishlarga rahbarligi.

Tashkiliy-pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi:

1) Bayram ertaklarini o'tkazish va rahbarlik qilish.

2) Ochiq tadbirdarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirdar va pedagogik jarayonlarni jamoa asosida kuzatish va tahlil qilish (masalan, ochiq mashg'uloti sayrlarni kuzatish).

3) Maktabgacha ta'limga bo'limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tarbiyachi va bolalarni ko'rik-tanlovlarga qatnashishi, yil tarbiyachisi, san'at va sport bayramlarini o'tkazish.

### **v) ta'limga tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarlik.**

Mudiraning ta'limga tarbiyaviy jarayonlarga rahbarligi quyidagilar:

a) har bir guruhdagi ta'limga tarbiyaviy reja asosida ishlarni kuzatish va tahlil qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish, guruhnинг ta'limga tarbiyaviy ish rejasi, diagnostika daftari: bu o'tkazilgan ishlarning hisobotidir.

b) guruhning jihozlanishini, bunda guruhlarga qarab burchaklar soni takomillashib boradi.

### Maktabgacha ta'lim muassasasining umumiy yig'ilishi

Jamoa shartnornasini muhokama qiladi va kasaba uyushmasi qo'mitasiga taqdim etadi	Maktabgacha ta'lim muassasasining Ustavini ko'rib chiqadi va qabul qiladi	Maktabgacha ta'lim muassasasi kengashini tuzish zarurini aniqlaydi. Kengash tartibini va uning raisini saylaydi	Yillik va istiqbol rejalarini muhokama qiladi, tasdiqlaydi, uning bajarilishi haqida mafmuriyat hisobotini eshitadi, pedagogik va xizmat ko'sratish mehnatining samaradorligini oshirish yollarini belgilaydi
---	---	---	---

Mudira ota-onalar majlisini tashkil etadi. Majlisni ota-onalar qo'mitaning raisi olib boradi yoki yordam beradi. Mudira haftada 2 marta ota-onalarni qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi bir muammo, kamchiliklar bilan birga bolalar tarbiyasiga oid muammolar hal etiladi.

#### **Mudira tomonidan ta'lim-tarbiya ishlarini kuzatish, nazorat qilish usul va uslublari.**

"Ilk qadam" Dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat tarbiyasining quyidagi vazifalari belgilandi:

a) mehnat faoliyati zaminlarini tarbiyalash;

b) mehnat malakalarini shakllantirish

v) bolalar mehnat faoliyati mazmunini asta-sekin kengaytira borib, ularni takomillashtirish;

g) shaxsning muhim sifatlari: mehnatga intilish odatini, mas'uliyat, g'amxo'rlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik, mehnatda qatnashishga tayyorgarlik, qat'iylikni zarurat tug'ilganda mehnatga qo'shila bilshni tarbiyalash;

d) topshiriqni bajarishning boshlanishi va pirovard natija o'rtaida bog'liqlikni aniqlashni o'rgatish, mehnatning ahamiyatni tushuntirish, mehnat natijalariga tejamkorlik bilan yondashishni tarbiyalash;

e) topshiriqlarga mas'uliyatli munosabat, ishni oxirigacha yetkazish ko'nikmasi ishtiyoqi, uni sifatlari bajarishga intilish asoslarini shakllantirish;

j) mehnat madaniyatini tarkib toptirish; o'zining ishini va umumishni rejalashtirish va uyushtirishning elementar malakalarini, uning izchilligini taqsimlash, ish uchun kerakli hamma narsani hozirlash, jihozlardan to'g'ri foydalanish, mehnat jarayoni tugagach, hamma narsani joy-joyida olib borib, qiyin malakalarni tayyorlash.

z) o'z harakatlarini o'rtoqlarining harakatlari bilan muvofiqlashtirish, yordam zarurligini ko'ra bilish, yordamni o'z tashabbusi bilan ko'rsatishni o'rgatish.

Bolalarning mehnat faoliyatlari turli yosh guruhlarda tegishli shakllar yordamida amalga oshiriladi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA TA'LIM-TARBIYA ISHLARIGA RAHBARLIK QILISH**

O'yin faoliyatini kuzatish va tahlil qilish juda murakkab ish. Bu o'yinning maktabgacha yoshdagagi bola shaxsini rivojlantirishdagi alohida ahamiyati, maktabgacha ta'limga muassasasida olib boriladigan ta'limga tarbiya jarayonida olib boriladigan o'rni, o'yin turlarining xilma-xilligi va ularni rivojlantirish xususiyatlari bilan bog'liqligi tufaylidir.

Bu xususiyatlarni yaxshi bilish o'yin faoliyatini chuqur tahlil qilishni va mudira tomonidan tarbiyachilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishni ta'minlaydi. Bolalarning o'yinlari xilma-xilligi bilan farqlanadi. U maktabgacha bo'lgan butun bolalik davrida mazmuni, uyushtirilishi, o'yinda bolaning faolligini namoyon qilish xarakteriga ko'ra, ularning bolalarga ko'rsatadigan ta'siri va nihoyat kelib chikishiga ko'ra katta o'zgarishlarni boshidan kechiradi.

Mudira ishni o'yin turlarini tanlashga qaratadi. Mashg'ulotdagi didiktik o'yinlar syujetli-rolli, qoidali, harakatli, musiqaviy didaktik o'yinlari, stol ustida o'ynaladigan

o'yinlar, tinch o'yinlar va ijodiy o'yinlar tarbiyachi tomonidan rejalashtirishning maqsadliligiga, ularga rahbarlik darajasini nazorat qilib borib, tajriba asosida tarbiyachiga metodik-amaliy maslahatlar beradi. Turli yosh guruhlardagi o'yin tizimini "Ilk qadam" dastur asosida ishlab chiqadi va o'yin jarayonini kuzatish jadvalini tuzadi.


O'yin faoliyatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoitlarning ta'minlanganligi (o'yin uchun berilgan vaqtning yetarliligi, o'yin faoliyatini kengaytirish uchun joyning, zarur o'yinchoq va qo'llanmalarning mavjudligi va kabinetda ularni to'g'ri joylashtirilishi, bolalarni taassurotlar bilan boyitish va yaxshi kayfiyatlar);

O'yin faoliyatiga rahbarlik metodikasi – bolalarning emotsional ijobiy holatlarini qo'llab-quvvatlash va yaxshilashga yo'llangan metod va usullar, o'ynovchilarining faolligini ta'minlash, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'z vaqtida o'tish, bunga qanday metod va usullar bilan erishiladi? O'yin faoliyatini uzaytirish va murakkablashtirish, bolaning ilk yoshida o'yindan uning nutqini tushunishni rivojlantirish va faolligini tarkib toptirish maqsadlarida foydalanish, ijobiy o'zaro munosabatlar va boshqa axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Mudira o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi.

O'yinni faoliyat tarzida rivojlantirish;

O'yindan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda foydalanish.



Guruhda to'laqonli o'yinlarning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilishiga:

- a) tarbiyachining o'yin qobiliyatlariga rahbarlik qilishi;
- b) o'yin muhitini yaratish;
- v) kundalik kun tartibida o'yin uchun vaqtning yetarlilikiga alohida e'tibor berib bordi.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, bolalarning o'yin jarayonidagi xatti-harakatlari, ularning katta yoshlilarga taqlid qilish istagidan dalolat beradi. Bolaning o'yni odamlarning xatti-harakatlari, xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini o'yin roli vositasida ijodiy aks ettirishdan iborat bo'ldi.

g) ota-onalar jamoatchiligi bilan ish uslublari.

Mudiraning jamoatchilik va mahalla qo'mitasi bilan ish metodlari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

1. Ota-onalar va jamoatchilik uchun anjumanlar.

2. Ota-onalar universitetlari. Bunda oila markazidan vakil, yetuk olimlar, maktabgacha ta'limga bo'limi xodimlari va barcha ota-onalar ishtirok etadilar. Ota-onalar universitetning asosiy maqsadi Davlat va jamiyatimiz tomonidan oila va bolalar tarbiyasiga masalalari va kamchiliklarini, muammolarini hal etishdan iborat.

Mudira hududiga tegishli maktab bilan aloqa o'rnatib bir yilga mo'ljallangan reja asosida ish ko'radi. Ushbu reja asosida muassasaning asosiy vazifalari, maktab tomonidan amalga oshiriladigan tadbiriy choralar, bolani maktab ta'limga tayyorlash, lotin alifbosida o'qish, yozishni mukammal o'rganish va bunda mudira hamda mакtab direktorining vazifalari belgilanadi.

a) ma'muriy xo'jalik faoliyat - bunda reja kontingenti bo'yicha bolalarni joylashtirish, maktabgacha ta'limga muassasasi dasturining maktabgacha ta'limga tizimida belgilangan xarajatlarni o'z vaqtida joy-joyiga qo'yib ishlashni tashkil etish, bolalarni ovqatlantirishni to'g'ri tashkil etish, yozgi sog'lomlashtirish mezonlarini tashkil etish, xizmat qiluvchi xodimlarni to'g'ri

joylashtirish va ishslash malakalarini oshirish, mehnatni ratsional ravishda tashkil etishdan iborat.

b) dastur talablarining bajarilishiga mudiraning rahbarligi va nazorati.

O'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'limgardagi innovatsiya shakllarini rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta'limgardagi muassasasida Pedagoglar kengashi faoliyat ko'rsatadi. Pedagoglar kengashi a'zolarini saylash tartibi va uning vakolatiga kiradigan masalalar maktabgacha ta'limgardagi muassasasi ustavida belgilanadi.

Maktabgacha ta'limgardagi muassasasiga bevosita rahbarlik qilish mudira tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limgardagi muassasasi mudirini ishga qabul qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limgardagi vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

- Davlat maktabgacha ta'limgardagi muassasasi mudiri bilan mehnat lozimnomasi bir yil muddatga tuziladi.

- Maktabgacha ta'limgardagi muassasasi mudiri lavozimiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limgardagi vazirligi tomonidan belgilanadi.

### **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI MUDIRI FAOLIYATI:**

- Maktabgacha ta'limgardagi muassasasi nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatadi, barcha muassasa va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

- maktabgacha ta'limgardagi muassasasi mol-mulkini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;

- ishonchnomalar beradi;

- bank muassasalarida hisob raqamlari ochadi;

- maktabgacha ta'limgardagi muassasasi xodimlarini ishga qabul qilish va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, rag'batlantiradi, intizomiy jazo choralarini ko'radi va ular bilan tuzilgan mehnat lozimnomalarini to'xtatadi;

- o'z vakolati doirasida buyruqlar (farmoyishlar) chiqaradi;

- mактабгача та'лим мұассасасынин ішінің тәкомиллаштырыш, мөддій базасынің мұстахкамлаштырыш, ходимларның ижтімои мүхізесе құлышын та'минлаштырыш бойынша тәкілілардың көріб чығышында мактабгача та'лимнің бoshqarish yuqori organiga kiritadi;

- болалар жағдайы және соғылғының мүхізесе құлышындағы салынудардың салынударынан тәкілілардың жағдайында мактабгача та'лимнің бoshqarish yuqori organiga kiritadi;

Maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'z-o'zini boshqaruv asosida bolalarni tarbiyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo'lgan turg'un mehnat jamoasini shakllantiradi; kadrlarni muntazam takomillashtirib borish, pedagogik va xizmat ko'rsatish, mehnat samaradorligini oshirish ruhida tarbiyalaydi, o'z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxlanish hissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam о'stirib borishga g'amxo'rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi. Bu maqsadlar uchun ma'muriyat ruhiy-pedagogik о'quvchining huquqiy va iqtisodiy о'quv bilan organik uyg'unlanishini ta'minlaydi; xodimlar malakasini bevosita maktabgacha ta'lim muassasasida oshirish uchun lozim-sharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi; mamlakatda va chet elliarda pedagogik va boshqa aralash fanlardan erishgan yutuqlar haqida axborot beradi.

Ma'muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasaları xodimlarını attestatsiyadan o'tkazish uchun optimal lozim-sharoitlarnı ta'minlaydi, ularga o'z vaqtida zarur metodik yordam ko'rsatadi.

## e) mudiraning mактабгача та'лим бо'лимлари, ota-onalar, jamoat oldidagi hisobdorligi.

Mактабгача та'лим muassasining mudiri amaldagi qonunchilik doirasidagi pedagog xodimlari va ma'muriyatini, ularning kasb-kor va mansab faoliyatlariga asossiz aralashuviga chek qо'yuvchi zarur choralar ko'radi. Shuningdek, jamoaga nisbatan ma'muriy-buyruqbozlik urinishlariga, uning mustaqilligini cheklovchi buyruqlarga chek qо'yadi, shu masalalar bo'yicha tegishli organlarga murojaat qiladi.

Mudira ishonch qog'ozisiz mактабгача та'lim muassasasi nomidan harakatqiladi, barchashirkatvajamoatkorkabinetlari, muassasalar va tashkilotlarida uning manfaatini himoya qiladi; kreditlar tarqatadi; lozimnomalar tuzadi, ishonch qog'ozlarini beradi, banklarda va boshqa hisoblarini ochadi; mактабгача та'lim muassasasi uchun zarur bo'lgan jihozlar va boshqa moddiy resurslarni xohlagan korkabinetlardan, tashkilotlardan, shirkatlardan va ayrim shaxslardan naqd pulga yoki pul o'tkazish yo'li bilan ijara olish va buyurtma berish huquqiga ega.

Mudira mактабгача та'lim muassasasi huquqi doirasida buyruq chiqaradi, ko'rsatma beradi. Bu buyruq va ko'rsatmalar mактабгача та'lim muassasining barcha xodimlari uchun majburiydir. Tarbiyachi-metodist, katta tibbiy yordam hamshirasi, xo'jalik mudirining o'z huquqlari doirasida bergen ko'rsatmalari barcha xodimlar uchun majburiydir.

Mактабгача та'lim muassasasining shaxsiy tarkibi quyidagilardan iborat: Ma'muriy guruh (mudir, tarbiyachi-metodist, xo'jalik mudiri, katta tibbiy yordam hamshirasi), pedagogika, tibbiy yordam, xizmat ko'rsatish tarmoqlari xodimlari.

Mактабгача та'lim muassasasi ma'muriyati har bir tarkibiy birlikka tegishli moddiy resurslarni berkitadi. Mehnat jamoasi vakolatini amalga oshirishning asosiy shakli umumiy yig'ilishidir.

Maktabgacha ta'lif muassasasining umumiy yig'ilishi:

- maktabgacha ta'lif muassasasining Ustavini ko'rib chiqadi va qabul qiladi;
- maktabgacha ta'lif muassasasi kengashini tuzish zarurini aniqlaydi, kengash tarkibini va uning raisini saylaydi;
- yillik va istiqbol rejalar ni muhokama qiladi, tasdiqlaydi, uning bajarilishi haqida ma'muriyat hisobotini eshitadi, pedagogik va xizmat ko'rsatish mehnatining samaradorligini oshirish yo'llarini belgilaydi;

Jamoalozimnomasini muhokama qiladi va kasaba uyushmasi qo'mitasiga taqdim etadi.

#### **j) mudira ishini rejalashtirish.**

Mudira ishida **qiyyosiy tekshiruv** ham muhim o'r'in egallaydi. Uning farqlovchi xususiyati tarbiyachining pedagogik jarayonini boshqa pedagogning ish tajribasi bilan solishtirish, tahlil qilish va baholashdir. Parellel guruuhlar tarbiyachilar ishlarini solishtirish mumkin.

Qiyyosiy tekshiruvni dasturning ayrim bo'limlarini bajarilishini tekshirishda turli tarbiyachilar bolalardagi bilim, ko'nikma va malakalar sifatini tahlil qilishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Solishtirma natijalari pedagoglar kengashida muhokoma materiali bo'lishi mumkin.

Qiyyosiy tekshiruv - guruhlarga kirish va tarbiyachilar ishlarini kuzatish, rejalar ni, bolalar ishlarini va boshqa hujjatlarni, tahlil qilish shaklida o'tkazilish mumkin.

Mudira - kundalik pedagogik jarayonlarni, ish, o'qishlarni va boshqalarni, bilimlar sifatini, bolalarning faoliyatlarini tarbiyachilar bilan birga tahlil qiladi, birgalikda ishning samaraliroq shakllarini izlaydi.

Qiyyosiy tekshirish - eng yaxshi ish tajribaning tarqalishiga, ta'lif-tarbiyaviy jarayonining va barcha guruuh tarbiyachilarining umumpedagogik darajasini oshirishga yordam beradi.

Nazoratning istalgan turi-agarda unga mudira jiddiy, puxta tayyorgarlik ko'rgan holdagina samarali bo'lishi mumkin.

Eng avvalo, tekshirish maqsadini aniq belgilash lozim. Masalan: kichik guruhda bolalarning kun davomidagi xilmayxil faoliyatlar uchun sharoitlarni yaratilishini kuzatish; katta guruhda bolalarning o'yin va mehnatdagi o'zaro munosabatlarini kuzatish (ular inoq o'ynay oladilarmi va hamjihatlik bilan mehnat qila oladilarmi).

O'rta guruhda nutq o'stirishga doir dasturning o'zlashtirilishi bolalarning nutq faolligi, nutqiy ko'nikmalar darajasini tekshiradi.

Maqsadni belgilab, mudira tarbiyachining ta'lim-tarbiyaviy ish rejasи bilan "Ilk qadam" dasturi talablarini solishtirib topishadi, oldingi tekshiruv natijalari tahlilining yozuvlari bilan tanishadi, bolalarning ishlarini o'rganadi, oldindan tarbiyachi va kichkintoylar bilan suhbatlashadi. Shuningdek, metodik adabiyotlar yangiliklari, ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish materiallari va ilmiy tadqiqotlar materiallari bilan va nihoyat tekshirish jarayonida javob olmoqchi bo'lgan savollarni mo'ljallab tekshirishning qisqa hamda aniq rejasini ishlab chiqadi.

Guruhlarga kirish mo'ljallanganligi haqida mudira pedagogi, agarda bu kirish ishida ilgari kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida amalga oshirilayotgan bo'lsa, oldindan ogohlantiriladi. Guruhg'a ko'proq ogohlantirishsiz kirish yoki kirish haqida ertalab ogohlantirish lozim. Bu esa tarbiyachilarda asta-sekin ishda ma'lum mas'uliyatni shakllantiradi. Biror bir bo'lim bo'yicha dastur talablarining bajarilishini tekshirish haqida tarbiyachi oldindan ogohlantiriladi. Bunday ogohlantirish pedagoglarni o'z ishlaridagi kamchiliklarni mustaqil aniqlashga, har bir bolaning rivojlanishi va dasturni o'zlashtirishini xolisona baholashga safarbar etadi. Shuni unutmaslik kerakki, guruhg'a bir marta, bir lahzaga kirish tarbiyachining ishi haqida xulosa chiqarish huquqini bermaydi.

Agar mudira bir faoliyat turishi yoki kun tartibi jarayonini tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, u holda faoliyatning

bu turini boshdan oxirigacha to'liq kuzatib chiqish kerak bo'ladi.

Har qanday tekshiruv agarda mudira qabul qilgan ko'rsatma, tavsiya qarorlarning ijrosini tekshirib bormasa, ijobiy samara bermaydi. Ijroni muntazam nazorat qilib borish kishilarni intizomga odatlantiradi.

Muntazam nazorat – bu faqat ilgari aytilgan ko'rsatma va takliflarning ijrosini tekshirishgina emas, balki guruuhda ma'lum vaqt bo'lagida qilingan ishlarni solishtirib ko'rish hamdir. Masalan: o'quv yilining boshida bolalarning mashg'ulotlardagi tafakkur faoliyatlarining faolligini tekshirish tarbiyachilar muammoli xarakterdagi savol va vaziyatlardan kam foydalanishlarini bolalarda mustaqillik hamda fikrlarning tanqidiyligini yetarlicha rivojlantirmasliklari va shu kabilarni ko'rsatadi. Bu kamchiliklar sabablarini pedagoglar jamoasida birgalikda muhokama qilib va ularni bartaraf qilish yo'llarini belgilab, mudira yarim yildan so'ng boshlang'ich ma'lumotlarni yangi mashg'ulotlar bilan solishtirib yana tekshiradi.

Nazoratning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tur va shakllarning amalga oshirilishi mudiraga guruhlarda ta'lim-tarbiyaviy pedagogik jarayonlarni yo'lga qo'yilganligini o'rganish, o'z intilishini tarbiyachilarga murakkab ishlarida yordam berishga aniqroq yo'llash imkonini beradi. Mudira yuqoridagi tekshirish usullaridan foydalanib, maktabgacha ta'lim muassasasi ishiga to'liq rahbarlik qiladi.

### **z) mudiraning huquq va vazifalari.**

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda muassis tomonidan tayinlanadigan shaxs boshqaradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari davlat maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri lavozimiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini nazorat qilish muassis tomonidan, shuningdek, vakolatlar doirasida qonun hujjalariada belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari va o'qitish dasturlarining nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan bajarilishini nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi amalga oshiradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini attestatsiya-dan o'tkazish, ularning faoliyatini to'xtatib turish va to'xtatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining huquq va imtiyozlari qonun hujjatlarida, maktabgacha ta'lim muassasasi ustavida, shuningdek, mehnat lozimnomasi (lozimnomada)da belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining pedagog xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarishda muassasa ustavida belgilanadigan tartibda qatnashish;

o'z kasbiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlar quyidagilarga majbur:

bolalarni yuqori professional darajada o'qitish va tarbiyalash;

pedagog axloq-odobiga rioya qilish, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalarni tazyiqdan himoya qilish, ularni mehnatga, ota-onaga hurmat, atrof-muhitga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

o'z malakasini belgilangan tartibda, har uch yilda oshirib borish;

o'zining kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlariga ish haqi miqdorlari (lavozim maoshlari) qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Muassasa rahbari rag'batlantirish tusidagi ustamalar, qo'shimcha haq hamda boshqa to'lovlar turi va miqdorla-

rini ish haqiga yo'naltiriladigan mavjud mablag'lar doirasida belgilaydi.

### B./B./B./ texnologiyasi

Mavzu savollari	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1. Mudiraga qo'yiladigan talablar			
2. Tashkiliy pedagogik jarayon			
3. Ma'muriy-xo'jalik ishlari			
4. Ta'lif-tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarlik			
5. Nazorat qilish usullari			
6. Ota - onalar jamoatchiligi bilan ish uslublari			

### MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI METODISTI, UNING HUQUQI, VAZIFALARI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR

"Ta'lif to'g'risida"gi qonunning «Ta'lif tizimini boshqarish» nomli 4 bo'limi, 25 moddasida shunlay deyiladi: Ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish Davlat boshqaruvi organlarigarahbarlikqilishta'lifni rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish har bir rahbarning bosh vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta'lif to'g'risidagi Nizomda ham maktabgacha ta'lif muassasalarini boshqarish va kadrlar tayyorlash ishlarini amalga oshirish, rahbarning huquq doirasi kafolatlari belgilab berilgan. Maktabgacha ta'lif muassasasi ustavida har bir maktabgacha ta'lif muassasasi tomonidan qabul qilingan ustaviga binoan metodistning ish jarayonida huquq va vazifalari aniqlab belgilab beriladi, ya'ni u metodik jihatdan kuchli ma'naviy, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng

tadbirkor, kamida bitta xorijiy tilni biluvchi pedagoglardan tayinlanadi. Shuningdek, metodist quyidagilarni bilishi lozim:

- maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

- «Ilk qadam» dasturining bajarilishini ta'minlaydi va kontrol qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning to'g'ri uyuştirilishi uchun javobgar;

- ilg'or pedagogik tajribani o'rGANADI, umumlashtiradi va tarqatadi, Pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi;

- maktabgacha ta'lim muassasasidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi;

- ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ibot qilish, turli guruh tarbiyachilari, shuningdek, Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishida uzviylikni ta'minlash bo'yicha ishni uyuştiradi.

O'z hamkasblarining hurmatini qozonishi va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatlil bajarishlarida yordam berish uchun metodist qanday rahbarlik sifatlariga ega bo'lishi lozim.

Metodist faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur.

Tajribali metodistning tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi: g'oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishslash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishiga qarab farqlanadi.

Metodist talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga bo'ysunuvchilar bilan muloqotning emotsiyal-irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini, talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixohlik, odamlarga hurmat bilan birga olib borish zarur. Talabchanlik - bu qattiqko'llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehlar, xayfsanlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi metodistining ta'lif tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi uning obro'si ko'p jihatdan pedagoglar jamoaning jipslashganligiga, eng avvalo, butun maktabgacha muassasa rahbar yadrosida birlik va o'zaro tushunishning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash; jamoada jamoa fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta'minlash kabi ijtimoiy-psixologik masalalarni hal qilish metodist uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Har bir yosh mutaxassis ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslahatlar olib turishi uchun unga tajribaliroq murabbiy va obro'liroq tarbiyachini biriktirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagog ishining ilg'or metodlari va usullarini egallahsga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya turlarini egallah ishtiyoyqini singdirishga yo'llash metodistning vazifasi hisoblanadi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI METODIST LAVOZIMINING MALAKA TAVSIFLARI**

### **Lavozim vazifalari:**

- a) maktabgacha ta'lif muassasasi jamoasi o'quv-tarbiyaviy faoliyatiga metodik rahbarlik qilish;
- b) barcha yosh guruhlarda bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- v) tarbiyachi va tibbiy xodimlar ishini yo'naltirish, nazorat qilish, bevosita bolalar bilan ishlovchi tarbiyachilarga va tibbiy hamshiralarga zarur metodik yordam ko'rsatish;
- g) maktabgacha ta'lif muassasasida metodik kabinet ishini tashkil qilish, bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha yo'riqnomा- metodik materiallarni umumlashtirish;

d) ilg'or tajribalarni o'rganib, tarbiyachilar va tibbiy hamshiralar orasida tajriba almashish ishlarini tashkil qilish, tarbiyachilar uchun ularga amaliy yordam berish maqsadida maslahatlar o'tkazish;

e) bolalar tarbiyasining dolzarb masalalarini pedagogik kengash muhokamasiga kiritish, pedagogik kengashlarga materiallar tayyorlash va unda tarbiyachilarning maqsadli ishtirokini ta'minlash;

j) maktabgacha ta'lif muassasasida qabul qilingan buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish;

z) ota-onalar orasida pedagogik bilimlariing tashviqoti bo'yicha hamda maktabgacha ta'lif muassasasida turli yosh guruhlar bo'yicha tarbiyachilar ishida izchillikni ta'minlash;

i) ta'lif muassasasi faoliyatiga qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

y) tarbiyalanuvchilarni ichimlik suvi bilan ta'minlash va bolalar uchun qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish.

### **Bilishi lozim:**

a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi va "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarini;

b) hukumatning tegishli qarorlari, Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni;

v) maktabgacha yoshdagi bolalarnining rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablarining; mazmunini, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash dasturi va tarbiyaviy ishlar konsepsiyasini;

g) maktabgacha pedagogika va psixologiyani, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash shakl va metodlarini;

d) maktabgacha ta'limga davlat talablarini bajarilishini nazorat qilish shakllari va metodlarini, bolalar hayoti va sog'ligini muhofaza qilish qoidalarni;

e) pedagogik fan va amaliyotda ishlab chiqilgan metodik hujjatlarni, o'quv va tarbiya jarayonida o'qitish texnikaviy vositalaridan foydalanish amaliyotini.

## **Malaka talablari:**

a) o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha kurslarni tugatganlik;

b) xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

v) uch yildan kam bo'limgan pedagogik ish staji.

Metodistning doimiy hujjatlari qatoriga guruhlardagi ta'lim-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishlarini nazorat qilish daftari (jurnali) ham kiradi. Unda metodist o'zining guruhlarda bolalarning o'quv, o'yin, mehnat faoliyatlarini o'rganishga doir ishini; tarbiyachilar ishining sifatini; bolalarning dasturining turli bo'limlari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining tahlili; bolaarning xulq-atvor madaniyati, ma'naviy-irodaviy sifatlarini, jamoada yashash ko'nikmalarini egallaganlik darajalari va shu kabilarni aks ettiradi. Metodist tarbiyachilar ishidagi ijobiy jarayonlarni va kamchiliklarni qayd etadi, ularning qiyinchiliklari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tahlil qiladi hamda ishni yaxshilashning yo'llarini ko'rsatadi.

## **Maktabgacha ta'lim muassasasi metodisti, uning huquqi, vazifalari va unga qo'yilgan talablarni ta'riflang**

Savol	O'zbekistonda maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan maktabgacha ta'limga rahbarlik qilishning nazariy asoslari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sabablariningizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

## METODISTNING LIDERLIK VA BOSHQARUV JIHATLARI

Metodist jamoani boshqarishda o'zi shaxsiy namuna bo'lishi lozim, ya'nı u barcha ishlarni oldida, boshida bo'lib yetakchilik qiladi. Umuman olganda ko'p adabiyotda «lider» so'zini «yetakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'ylashimizcha, «yetakchi» atamasi «lider»ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. «Yetakchi» so'zi guruhgamunosabatsifatida, uning a'zolariga ta'sirotkazuvchiva maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatalidi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi. Biron - bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora - «peshqadam» va «yetakchi» so'zları majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin.

Nazarimizda, «yetakchi» so'zi shaxsning guruhnini yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. «Peshqadam» iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu xolat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatalishi zarur. Liderning bu xususiyati uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, «lider» so'zini faqat «yetakchi» atamasi bilan almashtirish liderlik holatining psixologik talqinini tor doiraga kiritib qo'yadi. Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda qo'llanmamiz matnida «lider» so'zidan foydalanishni ma'qul

deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, «lider» so'zidagi izohiy ma'noni anglab olish o'zbek kitobxoni uchun tanish holdir.

Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o'zining mavqeyiga ega. Bu mavqe rasmiy yoki norasmiy tarzda qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog'onasidagi o'rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o'z hamkasblari bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, turli omillar ta'sirida bu munosabatlar hissiy rang ola boshlaydi.

Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko'rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o'zining ma'lum xislatlari bilan jamoaning ko'pchilik a'zolarida simpatiya uyg'ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo'yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo'lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa - liderdir.

Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga hissiy yaqinlikni, uning ish bilan bog'liq bo'lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tiborliligin anglatadi. Lider - guruhning hamma a'zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihat - guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, doimo guruh oldiga qo'yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir.

Mehnat jamoasidagi lider, avvalambor, o'zining ishchanlik xususiyatlari bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko'zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar

manfaatiga ham zid chiqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin.

Zamonaviy psixologiya fani, o'z yutuqlari orqali, liderga xos fazilatlar tabiatи va unga erishish yo'l-yo'riqlari haqida yetarlicha ma'lumot bera oladi. Shu munosabat bilan liderga xos bo'lgan jihatlarni uch toifaga kiritishimiz mumkin: 1) jamoa manfaatlariга yo'nalganlik; 2) kasbiy mohirlik, har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o'z bo'yнiga olish va ishni oxirigacha hal etishda tashabbuskor bo'lish; 3) emotsiонаl, hissiy jalb etuvchanlik xislatlari. Yuqorida sanab o'tilgan xislatlar majmuasining ketma-ketligi ham o'z mantig'iga ega.

Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, hissiy jalb etuvchanlik odатда lider shaxsda juda yorqin ko'zga tashlanishi lozim emas ekan. Shaxsda bu ko'rsatkichning о'rta me'yorda mavjudligi, uni liderlik darajasida tan olinishi uchun yetarlidir. Lekin insonga xos hissiy jozibadorlik ko'rsatkichi pastligi ish yuzasidan o'tadigan muloqot va muzokaralarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Rahbarning muloqot sirlarini yaxshi bilishi orqali atrofdagilarda o'zi haqida ijobiy taassurot uyg'ota olishi ushbu ko'rsatkichni oshirishdagi asosiy vositadir.

Rahbarlik tayinlanuvchi lavozimdir, liderlik esa hamfikrлar tomonidan ko'tarilgan shaxs mavqeyidir. Agar rahbar va lider o'rtasidagi farqga e'tibor beradigan bo'lsak, ko'pgina jihatlarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan, rahbar xodimlarga ega bo'lsa, liderning hamfikr tarafidoshlari mavjud, rahbar tayinlansa, lider jamoa a'zolari orasidan ajralib chiqadi, rahbar o'z hokimiyatiga asoslansa, lider obro'siga tayanadi. Rahbar o'z majburiyati bo'yicha tashkilot manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi va shu xususiyat unga rasmiy tus berib, jamoa oldida liderga nisbatan uni bir muncha «zaif» holatga qo'yadi.

Hayotda ko'pgina jamoalar uchraydiki, ularda rasmiy rahbar va lider alohida shaxslardan iboratdir. Bunday jamoa hayotidagi ko'p vaziyatlarda guruh a'zolari rahbardin ko'ra norasmiy lider tomonida bo'lishlari ehtimoli kuzatiladi. Jamoadagi rasmiy

rahbar va norasmiy liderning o'zaro munosabati doimo qiyin masalalar doirasiga kiradi. Bunday vaziyatda odatda ko'pchilik rahbarlar liderni siqib chiqarishga, undan qutulishga intilishlari kuzatilsa, boshqa bir rahbar bu liderdan foydalanishga, uni guruh maqsadiga tezroq erishish yo'liga safarbar etishi mumkin. Rahbarning lider bilan o'zaro til topishi, hamfikr bo'la olishi, albatta, bo'lajak muvaffaqiyatlar garovidir. Buning uchun rahbardan ham topqirlik, sabr-toqat va o'z shaxsiy manfaatidan ustun tura olish qobiliyati kutiladi.

Rasmiy rahbar va guruh lideri turli shaxslardan iborat bo'lsa, ular o'rtaсидаги kelishmovchilik ko'pgina xodimlar tomonidan ijtimoiy adolatning buzilishi sifatida idrok etiladi. Lider bilan munosabatni rivojlantirish esa aksincha, guruhdagi kuchlarni tan olish, oqillik yo'lini tanlash deb baholanadi. Rahbar sezgir shaxs sifatida nafaqat liderga, balki bunday xislatga ega bo'lgan har bir guruh a'zosiga alohida diqqat ajrata olishi lozim. Alohida olingen lider bilan mavjud munosabatni rivojlantirish orqali guruhning boshqa a'zolari bilan o'zaro ijobiy hislarni shakllantirish imkoniyati tug'iladi. Shu ma'noda tahlil etilganda, guruhda norasmiy liderning mavjudligi rasmiy rahbar uchun guruh a'zolari bilan iliq munosabatni qurishdagi qo'shimcha ko'prikdir. Lekin hayotda hamma narsa ham o'ylanganday silliq ketavermaydi va rasmiy rahbar bilan norasmiy lider manfaatining ziddigi, rahbarning iltifotli qadamiga qaramay norasmiy liderning qaysarligi to'qnash kelishi mumkin. Bu esa jamoadagi nizo bilan ifodalanadi va bunday hollarni hal etish yo'l-yo'riqlari haqida jamoadagi nizolar mavzusida batafsil gapirib o'tiladi.

Liderga xos bo'lgan fazilatlarni shakllantirish bo'yicha psixologiya fanida qator amaliy tadbirlar mavjud bo'lib, bu xil dasturlar interfaol ta'lim uslubiga asoslangan amaliy mashg'ulotlarda o'z aksini topadi. Shaxsning liderlik jihatlarini rivojlantiruvchi psixologik tadbirlarning metodologik asoslari bir muncha bahsli bo'lib, bu mavzuning puxta ishlab chiqilishi ushbu mashg'ulotlardan olinajak natija samarasini belgilaydi.

Yaqin paytgacha psixologiya fanida shaxsning liderlik xislatlarini shakllantirish bo'yicha «Xislatlar nazariyasi» degan ta'limot yetakchi bo'lib kelgan. Bu ta'limotga binoan liderlikni ifodalovchi bir necha xislatlar mavjud va ushbu xislatlar majmuasi shaxsning o'zgalarga ta'sir etish qobiliyatini belgilaydi. Ammo aniqlanishicha, xislatlarning shunchaki majmuasi shaxsni lider darajasiga ko'tara olmaydi va bu xislatlar soni bir necha o'ntalikdan iborat bo'lishi mumkin. Bu xislatlarni shakllantirish, ularni shaxs tuzilmasidagi boshqa tarkibiy jihatlar bilan muvofiqlashtirish va insонning ichki mazmun-mohiyatiga aylantirish o'ta murakkab masaladir. Ko'p yillik psixologik tadbirlar bunday yo'lning kammahsul ekanligini ko'rsatdi.

Shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri, insonda shakllangan qobiliyatga suyanishni va shu qobiliyatni imkon bergan vaziyatda namoyon etilishini taqozo etadi. Bunday yondashuv «situativ liderlik» deb atalib, unda lider deb, tan olingen shaxsning umumiyligini maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Bu nazariyaga binoan guruh doimo bir necha liderga ega bo'lishi mumkin va kezi kelganda har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Fikrimizcha, samarali foliyat olib boruvchi rahbar o'z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o'z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini his qila olsin. Buning uchun jamoa har qanday vaziyatni hal etishda chuqr mas'uliyat hisetuvchi va o'zishining ustalari bo'lgan professional xodimlarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda doimo shunday xodimlar topiladiki, ular paydo bo'luvchi ko'pgina muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik ko'p jihatdan shaxs tug'ma qobiliyatlarining yetarli darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida aytganimizdek, liderlikning asosiy jihatlaridan biri – guruh manfaati haqida g’amxo’rlikdir. Shuning uchun ham liderlik ta’rifidagi asosiy ma’no kasb etuvchi tomonlar bu – shaxsning ushbu vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh manfaati yo’lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

Shaxsning liderlik imkoniyatini namoyon ettiruvchi yana bir asosiy tomon – jamoaning talab va istagiga mos kela olishidir. Turli mehnat jamoalari o’z mas’uliyat darajasidan kelib chiqqan holda turlicha istaklarni namoyon etadi va hatto, ba’zida jamiyat manfaatiga to’la mos kelmaslik hollari ham kuzatiladi. Bunday jamoalarda esa, tabiiyki destruktiv, ya’ni buzg’unchi xulqqa mos keluvchi liderlar ajralib chiqadi va ular guruhnинг yashirin motivlarini namoyon etuvchi o’ziga xos kuchga aylanadi. Misol tariqasida, o’smirlik davrida namoyon bo’luvchi va xulq og’ishi bilan xarakterlanuvchi guruhlar va ularning liderini, yoki ba’zi bir mehnat jamoasida tashkilotni qoloqlikka tortuvchi ijtimoiy xulq egalaridan iborat guruhlarni eslash mumkin.

Lider va rasmiy rahbarning turli shaxslardan iboratligi va ular o’rtasidagi ziddiyat haqida yuqorida to’xtalib o’tdik. Shunday holat ham yuz beradiki, tashkilot manfaatiga zid yo’l tutgan lider atrofida o’zi kabi hamtovoqlarni to’plashi va o’zining og’uvchi xulqi bilan nafaqat tashkilot maqsadi, balki rahbarning obro’siga ham putur yetkazadi. Bunday liderni darhol ishdan bo’shatish lozim, degan an’anaviy fikr bir qaraganda to’g’ri bo’lsa-da, lekin ushbu vaziyatdan tarbiyaviy maqsadlarda foydalananish rahbarning mohir tashkilotchiligidan dalolat beradi. Rahbar o’z tashkilotidagi mavjud imkoniyatlarni qo’llagan holda norasmiy liderni nafaqat guruhdan ajratishi, balki unga ma’qul keluvchi va uning qobiliyatlariga mos keluvchi vazifalarni ham topib berishi mumkin. Umuman olganda, rahbar uning manfaatlariga zid bo’lgan har qanday kuchni o’z tomoniga og’dira olishi uning obro’siga obro’ qo’shuvchi va jamoa oldida uning nufuzini yanada oshiruvchi eng samarali imkoniyatdir.

## LIDERLIKKA OID NAZARIYALAR NING PAYDO BO'LISHI

Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rinnlidir. Hozirgi kunga qadar boshqaruv psixologiyasi fanida liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud.

**Birinchisi** - "liderlik sifatlari nazariyasi"dir yoki xarizmatik nazariya. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bo'la olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, bu sifatlar majmuyi uning guruhda lider bo'lismaydi. Masalan, 1940-yilda amerikalik K.Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda, jumladan, tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, humor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridaq sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday shakllanishi tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi. Tadqiqot nihoyasida o'sha boshida taklif etilgan sifatlarning atigi 5% igin aksariyat respondentlar javobida qayd etildi. Bu liderlik modelini yaratish oson emasligi to'g'risida xulosaga kelishni taqozo etdi.

**Ikkinci nazariya** - liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidir. Bu yerdagi asosiy g'oya - lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir odamda liderlik sifatlari bor, lekin ba'zi vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lislari uchun qulay muhit bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridaq ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya - liderlikning sintetik nazariyasidir. Bu nazariya lider guruhiy munosabatlarning bevosita mahsuli, deb hisoblaydi hamda uning ro'yobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Oxirgi yillarda ko'plab olimlar, jumladan, rossiyalik ijtimoiy psixologlar A.N.Leontevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan me'yorlar hamda ijtimoiy kutilmalarga kim ko'proq darajada javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin, deb hisoblashmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy kutilmalar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, butun dunyoda ishlab chiqarish va uni boshqarish borasida modernizatsiya siyosatining tan olinishi, barcha davlatlarning o'ziga xos demokratiya tamoyillari asosida jamiyatni, xususan, mehnat jamoalarini boshqarish siyosatiga o'tishi munosabati bilan boshqaruv masalalariga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, mustaqil O'zbekistonda ham erkin fuqarolik jamiyati qurish tamoyillarining yangidan belgilanganligi, Prezidentimiz tomonidan barcha jabhalarda, xususan, ijtimoiy sohalarda insonparvarlik siyosatining keng singdirilishi munosabati bilan rahbar va lider shaxslarga nisbatan ijtimoiy fikrda ham muayyan o'zgarishlar ro'y berdi. Bugun O'zbekiston sharoitida bunyodkorlik sifatlariga ega bo'lgan, o'z oilasi, mahallasi, shaxsan o'zi va jamiyat manfaatini o'ylab mehnat qilayotgan fuqaro jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyada bo'lib, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, unga yetarli darajada ish sharoitlarini yaratishga mas'ul bo'lган rahbar, eng avvalo, unga g'amxo'r bir inson sifatida qarashi, mehnatdan manfaatdorlik psixologiyasini uning ongiga singdira bilishi lozim. Xalqqa yaqin bo'lib, uning dardi bilan yashash, har bir ishning istiqbolini yaqqol tasavvur qila olish – zamonaviy rahbar-liderga xos fazilatlardir.

Zamonaviy psixologiya fani tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, boshqaruvda, ayniqsa, uning uslublarini tanlashda sintetik tanlovning bo'lishi ko'proq ahamiyat kasb etadi.

## METODISTNING METODIK ISHLARGA RAHBARLIGI

Pedagogik kengash jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri Pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash; muassasa ish amaliyotga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish kiritiladi.

Pedagogik kengash Maktabgacha ta'lim vazirligi, maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, yo'l-yo'riq, nizom va boshqa me'yoriy hujjatlarni; maktabgacha ta'lim muassasasining yillik ish rejasini; bolalar sog'ligini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhlari bo'yicha «Ilk qadam» dasturining sifatli bajarilishi jarayonini; ish amaliyotiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim va tarbiya berishning dolzarb masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarни qiziqtiruvchi mavzuning kengligini, dolzarbligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina Pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va faol bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga: metodist, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha ta'lim muassasasiga xizmat ko'rsatuvchi shifokor, katta hamshirasi, kasaba uyushma, ottonalar qo'mitasining raisi hamda vasiylik kengash raislari kiradi. Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining

vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha ta'limga muassasasi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagogik kengash maktabgacha muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar Pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar.

Maktabgacha ta'limga muassasalarida kollegial organ hisoblangan Pedagogik kengashlar tashkil etilib, u pedagogik xodimlar, ota-onalar, homiyarni birlashtirib, maktabgacha ta'limga davlat talablari asosida muvofiqlashtirilgan ta'limga tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik kengash maktabgacha ta'limga muassasasidagi ta'limga tarbiya jarayonidagi asosiy masalalarni hal etuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan organ hisoblanadi.

Pedagogik kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta'limga muassasasi pedagogik jamoa faoliyatini yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, "Maktabgacha yoshdagি bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ning bajarilishini ta'minlash;

- ta'limga tarbiya jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirishda maqbul lozim-sharoitlar yaratishga doir qarorlar qabul qilish;

- pedagog xodimlarning nufuzi va metodik salohiyatini oshirish, ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlarni tashkil etish;

- pedagog xodimlarning nufuzi va metodik salohiyatini oshirish, ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlarni tashkil etish;

- pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qilish va yakuniy xulosa berish;

- ilg'or pedagoglarning ish tajribalarini o'rganish, ommalashtirish, yosh pedagoglarga metodik yordam ko'rsatish ishlarni amalga oshirish yo'llarini belgilash;

- "Ustoz-shogird" an'analari, uzlusiz malaka oshirish borasida olingan hisobotlar yuzasidan xulosalar tayyorlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy hislarni singdirish, bola shaxsini shakllantirishda ta'lif jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish;
- ta'lif oluvchilarni ma'naviy yuksak, umuminsoniy va milliy ruhda, o'z vatani, xalqini ardoqlovchi shaxs sifatida tarbiyalash yuzasidan takliflar berish.

### **PEDAGOGIKA KENGASHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA UNING ISH MAZMUNI**

- Maktabgacha ta'lif muassasasi rahbari Kengashning raisi hisoblanadi va uning faoliyatini boshqaradi. Pedagogika kengashi kotibi jamoa tomonidan bir yil muddatga saylanadi.
- kengash yig'ilishlari o'quv yili avvalidan boshlanib, har chorakda bir marta o'tkaziladi. Zaruriyat bo'lgan hollarda navbatdan tashqari Pedagogika kengashi o'tkazilishi mumkin.
- kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashib, ulardan ko'pchiligi yoqlab ovoz bersalar, qaror qabul qilingan hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Kengash raisining qarori hal qiluvchi hisoblanadi.
- navbatdan tashqari chaqirilgan yig'ilishda esa kengash a'zolarining kamida uchdan bir qismi ishtirok etishi kerak.
- ovoz berish tartibi kengash yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan belgilanadi.
- pedagogika kengashi tarkibiga muassasa shifokori va hamshira, kasaba uyushma raisi, ota-onalar (vasiylik kengashi) qo'mitasi raisi, mahalla fuqarolar yig'ini a'zolari kirishi mumkin.
- kengashni o'tkazish vaqt, joyi va kun tartibi muassasada bir oy oldin e'lon qilinadi.

- kengashda muhokama etiladigan materiallar doimiy hamda vaqtinchalik tashkil topgan guruhlar yoki muassasa ma'muriyati tayinlagan pedagoglar tomonidan tayyorlanadi.

- kengashda muassasaning ish rejasi, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha o'rganish xulosalari, xodimlarning hisobotlari, tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirishi, muassasaning sanitar-gigiyenik ahvoli va tarbiyalanuvchilarning sog'lig'i va muassasa faoliyatining boshqa masalalari ko'rib chiqiladi.

- kengash pedagoglarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish, yosh pedagoglarga yordam uyushtirish ishlarini amalga oshirish yo'llarini belgilaydi.

- kengashda mashg'ulot ishlanmalari, tarbiya jarayonining shakl va metodlarini amalga oshirish yo'llari muhokama qilinadi, tarbiyalashning ilg'or usullarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish, oliy ta'lim institutlari, jamoat va nodavlat tashkilotlari, mакtab, mahalla bilan hamkorlik qilish yo'naliшlarini belgilaydi.

- kengash ta'lim-tarbiya jarayonini tashkiletishda pedagogik jamoaning ma'lum yo'naliшlardagi faoliyatini tahlil qiladi va ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul lozim-sharoitlar yaratishga oid yakuniy xulosa chiqaradi va tegishli qaror qabul qiladi. Malaka oshirish kursidan qaytgan pedagoglarning hisobotlarini tinglaydi.

- kengashda kun tartibidagi masalalarni ko'rishdan oldin avvalgi kengashda qabul qilingan qarorlarning ijrosi haqidagi masala eshitiladi va ijrosi ta'minlangan har bir masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar nazoratdan olinadi.

- kengash kun tartibida ko'rileyotgan har bir masala aniq ifodalangan bo'lishi, masalalar o'quv yilining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda kiritilishi lozim. Kengashda ko'rilaдigan masalalar soni uchtadan oshmasligi zarur.

- Kengash qarori ijrosini nazorat qilish muassasa rahbari zimmasiga yuklatiladi.

## **Pedagogika kengashi huquqlari**

- Pedagogika kengashi maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishining istiqbol rejasini belgilaydi.
- maktabgacha ta'lim muassasasining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarning bajarilish yo'llarini belgilab beradi va ijrosini ta'minlaydi.
- Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda turli shakl va metodlarni ishlab chiqadi.
- O'z vakolati doirasida ishlab chiqilgan hujjatlarni muhokama qiladi va tegishli qarorlar qabul qiladi.
- Pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi amalga oshiradigan vazifalari yuzasidan ishlab chiqilgan istiqbol ish rejasini tasdiqlaydi va ularning ijrosi ta'minlanishini nazorat qiladi.
- Maktabgacha ta'lim muassasasi Ustaviga muvofiq pedagog xodimlarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal qiladi.

## **V. Pedagogika kengashi bayonnomma daftarining yuritilishi**

- Kengash bayonnomasi yoziladigan daftarning kirish qismida kengash o'tkaziladigan sana, bayonnomma tartib raqami, qatnashgan pedagoglar soni, kengash raisi va kotibining ismi, sharifi yoziladi, qatnashmagan pedagoglarning qatnasha olmaslik sabablari ko'rsatilgan holda familiyalari tartib bo'yicha yozib chiqiladi.
- Bayonnomalar daftarida Pedagogika kengashi kun tartibiga kiritilgan masala muhokamasi, kengash a'zolari kiritgan taklif va mulohazalar hamda kun tartibidagi har bir masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar qayd etib boriladi. Kun tartibiga "Turli masalalar" yoki "Boshqa masalalar"ning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- Bayonnomalarda yo'l qo'yilgan xatoliklar izohlanadi va kengash raisining imzosi bilan tasdiqlanadi. Bayonnomalar

aniq, ozoda, ravon husnixat bilan yoziladi, daftarning har bir sahifasi raqamlanadi, tikeladidi.

– Bayonnomalar daftari maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi mudiri tomonidan, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun muassis tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

– Kengash bayonnomasi Pedagogika kengashi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

– Pedagogika kengashi bayonnomasi har o'quv yili boshida yangidan raqamlanadi.

## **VI. Pedagogika kengashi hujjatlari**

– Pedagogika kengashi hujjatlari ta'lim muassasasining ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi.

Pedagogika kengashi hujjatlari quyidagilardan iborat:

bayonnomma va pedagogika kengashi kun tartibida muhokama qilingan masalalarga oid materiallar.

Pedagogika kengashi hujjatlari muassasada uch yil davomida saqlanadi.

### **Ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish**

Tarbiyachilarning eng yaxshi tajribalarini o'rganish, barcha ilg'or tajribalarini tahlil qilish va amaliyotga joriy etish maktabgacha ta'lim muassasasi metodik ishining asosi bo'lishi kerak.

Tajribani o'rganish va umumlashtirish guruhlardagi tarbiyaviy ishlar holatini tizimli tarzda tahlil qilinishini nazarda tutadi. Tajribani o'rganishning asosiy yo'llaridan biri guruhlarga rejali tarzda kirish va pedagogik jarayon hamda kun tartibi jarayonlarining turli jihatlarini kuzatishdir. Ana shu kuzatishlar asosida tarbiyachining ishi, bolalarning xatti-harakatlari va xilma-xil faoliyatlarini haqida tasavvur tarkib topadi.

Metodistning kuzatishlari maxsus daftarida fotoyozuv, tanlab yozish va shu kabilar tarzida qayd etiladi.

## **Pedagogik kabinetning ishi**

Maktabgacha ta'lif muassasasi dagi butun metodik ishning markazi pedagogika kabinetidir. Pedagogik jarayonni uyuşdırish, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik mahoratlarini oshirish va mustaqil o'qishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi yetakchi rol pedagogika kabinetini zimmasidadir.

Pedagogika kabineti maktabgacha ta'lif muassasasi an'analari jamg'ariladigan joydir. Metodistning vazifasi jamg'arilgan tajribaga «jon ato qilib» tushunarli qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularni ijodiy qo'llashga o'rgatishdir.

Pedagogika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayyorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Pedagogik kabinetining asosiy vazifasi maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalariga metodik yordam ko'rsatish, ularning g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining o'sishi uchun sharoityaratishdir. Maktabgacha ta'lif muassasalardagi pedagogika kabineti, shuningdek, ilg'or pedagogik tajriba to'planadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muhim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir.

Pedagogika kabineti bu vazifalarni hal etishi uchun metodist kabinetdagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar qo'yishi, uni tizimlashtirish va puxta o'ylab chikishi kerak.

Pedagogika kabinetida tarbiyachilarni kabinetda mavjud materiallar bilan tanishtirish, yaxshi tajribani tashviqot qilish va yoyish maqsadida «axborot xizmati» uyuştiriladi. Axborot xizmati xilma-xil axborot byulletenlari, bolalar ta'limi va tarbiyasiga doir ayrim masalalar bo'yicha «axborot kunlari», yangi kitoblar annotatsiyasi havolasi bilan «Metodik

adabiyotlar yangiliklari», «Tajriba, muammo, amaliyot», «Metodik burchak» stendlari va hokazolar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lif muassasalar xodimlarining nutq madaniyatini doimo takomillashtirib borish maqsadida kabinetda hammaga zarur kitoblar o'rinni oladi.

Pedagogik kabinetning butun ishi u maktabgacha ta'lif muassasalar metodik ishining markaziga aylanadigan qilib tuzilishi kerak. Tarbiyachilarga kabinet xizmatidan foydalanishni, unda saqlanayotgan materiallar bilan qiziqishi, o'rganish kerak. Bu sezilarli darajada maktabgacha ta'lif muassasasi metodistining mahoratiga, tashkilotchilik qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Metodist kabinetning ish soatini aniqlashi, tarbiyachilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish maqsadida unda navbatchilikni uyushtirish kerak. Bu masalani hal qilishda maktabgacha ta'lif muassasalarining mudiri faol ishtirot etadi.

Pedagogika kabineti ishining eng muhim tomonlaridan biri maktabgacha ta'lif muassasalar xodimlariga mustaqil o'qishlarini yaxshilashda yordam ko'rsatishdir.

Metodika kabinetni ishida katta o'rinni yosh tarbiyachilar bilan ishslash egallashi kerak.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Medik-Pedagogik kengash** – Tibbiy-pedagogik kengash.

**Programm-metodik** – dasturiy-uslubiy hujjat.

**Kontingent** – maktabgacha ta'lif muassasasini bolalar bilan to'ldirish.

**Metodist** – maktabgacha ta'lif muassasasi metodisti, metodik ishlarga rahbarlik qiladi.

**Operativ masalalar** – kechiktirib bo'lmaydigan masalalar.

**Metodik ish kompleksi** – tarbiyachilarning bolalar bilan ishslashning aniq usul va uslublariga amaliy o'rgatish.

**Tahlil** – tahlil qilish, ta'lif-tarbiyaviy, metodik va boshqa jarayonlarni kuzatish va muhokama qilish.

**Qiyoziy nazorat** – solishtirma nazorat.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mudira va unga qo'yiladigan talablar?
2. Mudira faoliyatini izohlang?
3. Mudiraning ta'lim, tarbiyaviy, tashkiliy faoliyatini yoriting?
4. Metodik ish faoliyatiga nimalar kiradi?
5. Kadrlar va ota-onalar bilan ish metodi nimalardan iborat?
6. Mudiraninig huquqi qaysi hujjatlarda belgilangan?
7. Maktabgacha ta'lim muassasasi metodistiga ta'rif bering.
8. Maktabgacha ta'lim muassasasi metodistining ta'lim-tarbiyaviy ishlarga rahbarligini misollar bilan tushuntiring.
9. Ilg'or ish tajribalarni aniqlash usullari nimalardan iborat?
10. Pedagogik kengash nima va uni o'tkazishdagi maktabgacha ta'lim muassasasi metodistining roli?
11. Pedagogik xodimlar bilan ishlash uslublarini yoriting?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Maktabgacha ta'lim xodimlarining kasbiy mahoratlarini takomillashtirish yo'llari bu –
  - a) Pedagogik kengash, seminar, seminar mashg'ulot, ochiq mashg'ulotlar, metodik birlashmalar
  - b) Turli pedagogik tadbirlar, ochiq mashg'ulotlar, ota-onalar majlislari
  - v) Ochiq eshiklar kuni, umumiy ota-onalar majlislari, seminarlar
  - g) Pedagogik kengash, seminar mashg'ulotlari, turli metodik tadbirlar
2. Mudira tomonidan kadrlar bilan ish usullari, bu...
  - a) Yakkama-yakka suhbatlashish, yosh mutaxassislar bilan ishslash, ochiq mashg'ulotlar
  - b) Kadrlarni mutaxassislik ish tajribalarini o'rganish, tahlil qilish
  - v) Ota-onalar bilan olib boradigan ishlarini puxta o'rganish, tahlil qilish

g) Guruhlarga kirish, kuzatish, rag'batlantirish, nazorat qilish

3. Boshqaruvda pedagogik texnologiyalarning shakllarni aniqlang.

- a) Pedagogik, innovatsion, axborot texnologiyalari
- b) Innovatsion, M.Montessori, axborot texnologiyalari
- v) Axborot, triz, innovatsion
- g) Triz, interfaol, axborot texnologiyalari

4. Mudiraning kasbiy sifatlari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Aniqlilik, hamkorlik, demokratik
- b) Yakkaboshchilik, tabiiy-genetik, sofdis
- v) Ma'naviy-irodali, tashkilotchilik, pedagogik sifatlar
- g) Kadrlarni ilgari surish

5. Maktabgacha ta'lif muassasasi mudirasi tomonidan olib boriladigan ish mazmuni qaysi bandda yoritilgan?

- a) Mudiraning moliyaviy-xo'jalik, metodik va ta'lif-tarbiyaviy ishlarga;
- b) Ota-onalar maktabi, jamoatchilik, mahalla bilan ish faoliyat;
- v) Yosh mutaxassislar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan, mahalla tashkilot bilan;
- g) Ta'lif-tarbiyaviy, mehnat bilan, moliyaviy-xo'jalik faoliyat

## **XXII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTAB-GACHA TA'LIM VAZIRLIGI VA MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMLARI TOMONIDAN MAKTABGACHA TA'LIMGA RAHBARLIK**

### **MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI TOMONIDAN MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA RAHBARLIK**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 2017-yil 30-sentyabrdagi PQ-3305-son qaroriga muvofiq Maktabgacha ta'lism vazirligi tashkil etildi<sup>16</sup>.

Vazirlik maktabgacha ta'lism sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'y sunadi.

Vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-son Farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 2017-yil 30-sentyabragi PQ-3305-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjalariiga amal qiladi.

Vazirlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lism vazirligi to'g'risida"gi Nizom. – T., 2017 21-noyabr.

davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabдор shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi, viloyat maktabgacha ta'lif boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lif bosh boshqarmasi, maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'lilmari (keyingi o'rinnarda hududiy bo'linmalar deb ataladi), Vazirlik tarkibiga kiradigan tashkilotlar yuridik shaxslar hisoblanadi.

### Maktabgacha ta'lif vazirligining vazifalari

Vazirlikning  
markaziy  
apparati

Hududiy  
bo'linmalar

"Maktabgacha ta'lif  
metodikasi" jurnali  
tahririyati;  
davlat maktabgacha  
ta'lif muassasalari

Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti

davlat  
maktabgacha  
ta'lif muassasalari

#### Quyidagilar Vazirlikning assosiy vazifalari hisoblanadi:

- maktabgacha ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- maktabgacha yoshdagи bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarni maktabgacha ta'lif bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash;
- zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lif va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;

- mактабгача та'лим мұассасаларини міллій маданиятарияндық қадриятларни ақс еттірүүчүү үүдүншүүчүү болалыктан китоб о'зіншілдік, дидактикалық материалдар, ривожлантыруүчүү о'зін жана о'зінчөлөр, бадиий адабиеттер мен та'минлаштыруү;

- замонавиј педагогикалық технологияларни қолланып үйрекке бергенде болаларны тарбиялаштыруу жана тарбиялаштырууда камол тоptириш масалаларини югоры профессионалдар арасында үздүнгүштүрүү үүдүншүүчүү болаларни мактабгача та'лим мұассасалари тараптарынан өткөрүү жана педагогикалық кадрларни сыйкатташтыруу;

- мактабгача та'лим мұассасалари ходимларини мөддүү рагбатлантыруү тизимини яратып үзүү үүдүншүүчүү тарбия жароңында тажрібели, югоры мәлакалы жана касбији жиһатдан пүккүү тарбияланган педагогикалық кадрлардын тарбиячиларни жалбалаштыруу;

- мактабгача та'лим мұассасалари тарбияланувчилардын үчүн мунисип шарт-шароиттар, шу жумладан, то'лаңындык жана рационал, мувозанатты, соғлом жана то'ғри овqатланышты та'минлаштыруу, асосланған тиббий көрсөткүштер мен бельгиланадиган хәжмларда жана интенсивлікте көңгілочар жана билим берүүчілік мәшгүллөр элементтерінен болалардың серхаракат о'зіндердегі жана мәшиқтардың үйүншілігін шарт-шароиттарды яратып үзүү;

- О'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini bilan биргаликта мактабгача та'лим мұассасаларынан болалардың тиббий хизмет көрсөтүшүн үзүү үүдүншүүчүү тарбиянын жаңы мөрөнүүлүк жана профилактикалық чоралардын мувоғиqlashtırışы.

### **Maktabgacha ta'lim vazirligining funksiyalari**

#### **Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:**

- мактабгача та'лим тизими фоилиятини ташкылдуу жана үйрекке бергенде давлат башкарувуну амалга ошырады;

- yagona davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga, shu jumladan, mактабгача та'lим тизимини yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga doir takliflarni ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

- Vazirlik tizimiga kiradigan mактабгача та'lим muassasalarini rivojlantirish istiqbollarini prognozlashtiradi, davlat dasturlarini va hududiy dasturlarni ishlab chiqadi;

- mактабгача та'limga qo'yiladigan davlat talablari sifatli bajarilishini ta'minlash borasida mактабгача та'lим muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- mактабгача та'limga qo'yiladigan davlat talablari, mактабгача та'lим tizimi mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablari bajarilishi ustidan idoraviy nazoratni tashkil etadi;

- mактабгача та'lim muassasalari faoliyatiga metodik rahbarlik qiladi;

- tarbiyalanuvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hamda ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-texnik taraqqiyotdan, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib mактабгача та'limga qo'yiladigan davlat talablari, o'quv dasturlari, darsliklar uzliksiz takomillashtirilishini tashkil etadi;

- shu jumladan, axborot texnologiyalarini va moliyaviy nazoratning e'tirof etilgan xalqaro standartlarini joriy etish yo'li bilan idoraviy mansub ta'lim muassasalarda byudjet qonunchiligi buzilishi profilaktikasi va uning oldini olishga qaratilgan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi;

- rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini belgilaydi, mактабгача та'limga holatini qiyosiy tahlil qiladi;

- maktabgacha ta'limga muassasalarini tarmog'i faoliyat ko'rsatishining ta'limga bilan bog'liq va ijtimoiy samaradorligini tahlil qiladi, uni maqbullashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi;

- jurnallar, blankalar, o'quv-metodik komplekslar, byulletenlar nashr etilishini va Vazirlik tizimi faoliyatiga taalluqli bo'lgan o'quv qo'llanmalari e'lon qilinishini, shuningdek, Vazirlikning veb-sayti ishini tashkil etadi;

**Maktabgacha yoshdagি bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish sohasida:**

- maktabgacha ta'limga muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish masalalariga umumiy rahbarlik qiladi;

- idoraviy mansub ta'limga muassasalarida binolar va inshootlardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtiradi;

- ta'mirlash-tiklash, qurilish ishlarini, shuningdek, maktabgacha ta'limga muassasalarini kuz-qish fasliga tayyorlash bo'yicha ishlarni, maktabgacha ta'limga muassasalarini binolari va inshootlarining joriy ish holatini saqlashni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

- maktabgacha ta'limga muassasalarining ehtiyojlarini aniqlaydi va har yili ularni jihozlash (qayta jihozlash) dasturlarini ishlab chiqadi;

- manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda zamonaviy maktabgacha ta'limga muassasalarini qurish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturlariga kiritilgan maktabgacha ta'limga obyektlarida har yili olib boriladigan qurilish-ta'mirlash ishlarining tizimli monitorin-gini olib boradi;

- maktabgacha ta'limga muassasalarini tarbiyalanuvchilarining ma'naviy-axloqiy va intellektual saviyasini oshirish maqsadida

bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni oshirish va maktabgacha ta'lim sohasidagi muammolarni aniqlash bo'yicha jamoatchilik fikri o'rganilishini tashkil etadi;

– maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro aloqalarni kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi, maktabgacha ta'lim masalalari bo'yicha xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar va hamkorlik o'rnatadi.

### **Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash sohasida:**

– fuqarolarning maktabgacha ta'limdan foydalanishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

– maktabgacha ta'lim muassasalari bazasida bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha har xil muqobil modellarni ishlab chiqadi;

– maktabgacha ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining dolzarb va istiqbolli ehtiyojlari tahlil qilinishini tashkil etadi;

– maktabgacha ta'limning amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari va umumta'lim maktablarining 1-sinfi dasturi uzviyligini amalga oshirish masalalarida idoraviy mansub muassasalarga rahbarlik qiladi;

– raqobatlashuvchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha aniq choratadbirlarni amalga oshiradi;

– maktabgacha ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalg qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalalarida ko'maklashadi,

– konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni, shu jumladan, xalqaro tadbirlarni tashkil etish orqali maktabgacha ta'lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini keng targ'ib qiladi;

– bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga jalg etish ko'lamlarini kengaytirish maqsadida aholi orasida axborot targ'ibotini amalga oshiradi, shu jumladan, ruhiy-pedagogik

ma'rifat bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- bolalarni mактабга тайяорлаш бо'yicha moslashuv-chan, muqobil modellarni rivojlantirish maqsadida hududiy boshqaruv organlarida, nodavlat mактабgacha ta'lіm muassasalarida prognozlashtirish bo'yicha axborot-tahlil ishlari o'tkazilishini ta'minlaydi;

- davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat mактабgacha ta'lіm muassasalari tarmog'ini rivojlantirish masalalarida manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- nodavlat mактабgacha ta'lіm muassasalari faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha fuqarolarga va tadbirkorlik subyektlariga metodik yordam beradi.

### **Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lіm va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish sohasida:**

- mактабgacha ta'lіm muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etishni rag'batlantiradi va muvofiqlashtiradi;

- mактабgacha ta'lіm sifatini baholash natijalarini tahlil qiladi;

- milliy mustaqillik g'oysiga, boy milliy madaniy-tarixiy merosga, milliy urf-odatlarga va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy barkamol yosh avlod tarbiyasining samarali tashkiliy va pedagogik shakllari hamda usullarini ishlab chiqadi;

- o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi;

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, samarali shakllar hamda usullardan foydalanib, shu jumladan, tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishda ular bilan yakka tartibdagi ishlarni ta'minlashga ko'maklashadi;

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni kamol toptirish borasidagi zamonaviy xalqaro tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va maktabgacha ta'lif muassasalarining ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy etadi;

- maktabgacha ta'lif sohasida mutaxassislarning xalqaro tajribasini o'rganish maqsadida o'quv safarlarini tashkil etadi.

**Maktabgacha ta'lif muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash sohasida:**

- o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni pedagogika amaliyotiga joriy etish ustidan nazorat qiladi;

- ilg'or pedagogika texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-metodik komplekslarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

- maktabgacha ta'lif muassasalarini rivojlantiruvchi o'yinlar va o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi;

- maktabgacha ta'lif muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlashni tashkil etadi;

- bolalarni yot g'oyalardan himoya qilish, ularning ma'naviy dunyosini oshirish, milliy va jahon adabiyotini targ'ib qilish maqsadida bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi;

- maktabgacha ta'lif tiziminining журнallarida Vazirlilikning metodik tavsiyalari va buyruqlarini nashr etish orqali ilmiy-metodik axborotni yoyishga ko'maklashadi;

- qat'iy hisobot beriladigan hujjatlar namunalarini ishlab chiqadi va ularning ko'paytirilishini tashkil etadi;

- bolalar badiiy adabiyotlarini, o'quv-metodik qo'llanmlarni, didaktik o'yinlar va o'yinchoqlarni yaratish bo'yicha nashriyotlar, tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish masalalarini yuqori professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida:**

- maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

- maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi monitoringini olib boradi;

- maktabgacha ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;

- pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga ko'maklashadi;

- maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni professional tayyorlash amalga oshiriladigan kasblar va mutaxassisliklar ro'yxatini belgilaydi;

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazadi;

**Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalg qilish sohasida:**

- maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlaydi;
- har yili oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish borasida maktabgacha ta'lim sohasida takliflarni shakllantiradi;
- o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqishga, pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayoniga istiqbolli joriy etishga ta'lim va ilmiytadqiqot muassasalarini, pedagogik jamoatchilikni jalb etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;
- maktabgacha ta'lim sohasida mutaxassislarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish bo'yicha kasb mahorati tanlovlari o'tkazadi, tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi;
- ta'lim, ilmiy-tadqiqot, xorijiy va xalqaro tashkilotlar ishtirokida uzoq muddatli dasturlar, loyihibar, rejalar ni ishlab chiqadi, ularni bajarish bo'yicha asosiy talablarni belgilaydi.

**Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish sohasida:**

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish sohasida maktabgacha yoshdagi bolalarni kamol toptirishda ruhiy-pedagogik va tashkiliy sharoitlarni ta'minlaydi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-kommunikativ, bilishni rivojlantirish, nutq, o'qish va yozishga, chet tilining dastlabki asoslariga tayyorlash, badiiy-estetik va musiqiy tarbiya sohasida to'laqonli kamol toptirishni ta'minlaydi;
- bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish dasturlari va tadbiralarini ishlab chiqadi, bolalarning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni turli to'garaklar bilan qamrab olish bo'yicha tizimli faoliyatni tashkil etadi;
- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining to'laqonli, oqilona, muvozanatlashgan, sog'lom ovqatlanishini ta'minlaydi;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini har xil yo'naliishlardagi to'garaklarda shug'ullanishga jalb etish strategiyasini ishlab chiqadi.

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish sohasida:**

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- bolalarning hayoti va salomatligini himoya qilish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarga rahbarlik qiladi va ularni muvofiqlashtiradi;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tibbiyot xodimlarining malakasi muntazam oshirilishiga ko'maklashadi.

Vazirlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

### **Maktabgacha ta'lim Vazirlik markaziy apparatining vazifalari va funksiyalari**

Quyidagilar Vazirlik markaziy apparatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar bilan birgalikda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarining samarali bajarilishini ta'minlash;

- davlat ta'lim talablari takomillashtirilishini va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida ta'lim sifati monitoringi olib borilishini tashkil etish;

- o'quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish va nashr etish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish;

- bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va reabilitatsiya qilishni tashkil etish;

- maktabgacha ta'lim muassasalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- Vazirlilik tizimida ichki audit va moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirish;
- hududiy bo'linmalarda va idoraviy mansub tashkilotlarda kadrlar bilan ta'minlashni muvofiqlashtirish;
- idoraviy mansub tashkilotlarni rivojlantirishga ko'maklashish, ularni rivojlantirish konsepsiyalari va istiqbollarini belgilash.

Vazirlikning markaziy apparati unga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

- Vazirlik va uning rahbariyati faoliyatini tashkilish va axborot-tahlil jihatidan ta'minlaydi;
- hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi vaziri (keyingi o'rindarda Vazir deb ataladi) va uning o'rindbosarlarining buyruqlari va farmoyishlari amalga oshirilishini o'z vakolatlari doirasida tashkil etadi;
  - Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishini va ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;
  - hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyati monitoringi olib borilishini tashkil etadi;
  - maktabgacha ta'lifni rivojlantirish maqsadida ilmiytadqiqot ishlari olib borilishiga ko'maklashadi;
  - Vazirlikning faoliyati, shu jumladan, qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyati huquqiy ta'minlanishini tashkil etadi;
  - boshqaruv qarorlari qabul qilish maqsadida maktabgacha ta'lif tendensiyalari to'g'risida Vazirlik rahbariyati uchun axborotni to'playdi, umumlashtiradi va tahlil qiladi;

- maktabgacha ta'lim masalalari bo'yicha tadbirkorlik subyektlariga axborot, metodik, tashkiliy va maslahat yordami beradi;
- Vazirlik vakolatiga tegishli operativ, tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish-xo'jalik masalalari va boshqa masalalar bilan shug'ullanadi;
- Vazirlikning hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatini nazorat qiladi va tahlil etadi;
- Vazirlikning hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari bilan birqalikda o'ziga yuklangan vazifalar samarali bajarilishini ta'minlaydi;
- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;
- o'quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtradi va metodik ishlarni tashkil etadi;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sifati monitoringini olib boradi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini rivojlantiradi;
- maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish tashkil etilishini muvofiqlashtiradi;
- O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan idoraviy mansub tashkilotlarda moliya, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etadi;
- Vazirlik tizimi davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida va hududiy bo'linmalarida ichki audit va moliyaviy nazoratni tashkil etadi va amalga oshiradi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etadi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarining binolari va inshotlaridan joriy foydalanish bo'yicha ishlar monitoringini olib boradi va muvofiqlashtiradi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;
- xorijiy investitsiyalar jalb etilishini va xalqaro hamkorlikni tashkil etadi.

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'limgazalarini vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'limgazalarini va Toshkent shahar maktabgacha ta'limgazalarini boshqarmasining boshqarmasining vazifalari va funksiyalari**

Quyidagilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'limgazalarini vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'limgazalarini boshqarmasining vazifalari hisoblanadi:

- Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura hududiy organlari, ichki ishlari va davlat soliq xizmati rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar (keyingi o'rinnarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar deb ataladi) bilan hamkorlik qilish;
- maktabgacha ta'limgazalarini qonun hujjatlariga, normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish va nazorat qilish;
- maktabgacha ta'limgazalarini tuman (shahar) bo'limlari o'quv-metodik faoliyatni muvofiqlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maxsus maktabgacha ta'limgazalarida bolalarni reabilitatsiya qilish va ma'nnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bo'yicha maktabgacha ta'limgazalarini tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- nodavlat maktabgacha ta'limgazalarini faoliyatini tashkil etish va maktabgacha ta'limgazalarida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini rivojlantirishda

maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlariini qo'llab-quvvatlash;

- maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlarida, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazoratni tashkil etish hamda amalga oshirish.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalariga Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi ularga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalariga Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi va ularning rahbariyati faoliyatini tashkilish va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi;

- maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari, Vazirlikning buyruqlari bajarilishi ustidan muntazam nazorat qilinishini ta'minlaydi;

- maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari tomonidan kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida qayta ishlanishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;

- maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

- maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'linmalarining metodik faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini rivojlantirish bo'yicha maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- viloyat darajasidagi byudjetdan moliyalashtiriladigan idoraviy mansub tashkilotlar xarajatlarini moliyalashtirishni, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etadi;
- davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida davlat talablarini bajarish monitoringi bo'yicha maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari harakatlarini muvofiqlashtiradi;
- maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlarini va maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etadi;
- maktabgacha ta'lim muassasalarining binolari va inshootlarini joriy ta'mirlash ishlari monitoringini olib boradi va muvofiqlashtiradi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;
- vakolatiga tegishli tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish-xo'jalik masalalari va boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

#### B./B./B texnologiyasini qo'llash qoidalari

	Mavzu savoli	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	Maktabgacha ta'lim tomondan rahbarlik shakllari			
2.	Nazoratchi va unga qo'yiladigan talablar			
3.	Nazorat-tekshiruv turlari			
4.	Maktabgacha ta'lim bo'limlarining tashkiliy tuzilishi			
5.	Ta'lim-tarbiyaviy ishlarga rahbarlik			
6.	Metodik ishlarga rahbarlik			

## **O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIMI BO'LIMLARI TOMONIDAN MAKTABGACHA TA'LIMGA RAHBARLIK QILISHNING NAZARIY ASOSLARI**

O'zbekistonda maktabgacha ta'limi bo'limlari asosan 1917-1918-yillarda tashkil etila boshlandi. 1917-yil 20-noyabrda Maorif Xalq komissarligi "Maktabgacha ta'lim" yuzasidan dekloratsiyani e'lon qildi. Bu dekloratsiyada "bolalarni ijtimoiy-tekin tarbiyalash bolaning birinchi tug'ilgan kunidan boshlanadi" deyilgan edi. Maktabgacha ta'lim butun Xalq Maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1919-yilda qabul qilingan dasturda davlat tizimida maktabgacha ta'limning tutgan o'rni aniq belgilab berildi. Qabul qilingan dasturning 12-bo'limida Xalq Maorifi sohasida quyidagi vazifalar qabul qilingan edi. Birinchidan, ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlarini: yasilar, muassasalar va shunga o'xshashlarni vujudga keltirish haqida yozilgan edi<sup>17</sup>.

Bu yillarda Xalq Maorifi Komissarligi oldida davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlarini vujudga keltirish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va boshqa mas'uliyatli vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

1918-yil 20-oktyabrda Turkiston Maorif Xalq Komissarligi qoshida respublikadagi maktabgacha ta'lim sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma'muriy organ sifatida "Maktabgacha ta'lim bo'limi" tashkil qilindi.


Shu yillarda viloyat Xalq Maorifi bo'limlarining ko'pchiligi qoshida maktabgacha kichik bo'limlar tashkil etilgan edi. Bu tadbir Butun Respublikada maktabgacha ta'limning jonlanishiga yordam berdi. Maktabgacha ta'lim bo'limlarining ishi uch asosiy yo'nalishida olib borildi:

<sup>17</sup> A'rxiv materiallari. 1 qism. – O'zdavnashr, 1954 yil. 476-bet.

Maktabgacha ta'lif muassasalarini ochish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta'minlash;

Maktabgacha ta'lif xodimlari, shu jumladan, mahalliy millatlardan kadrlar tayyorlash;

Ota-onalar o'rtaida tashviqot-tushuntirish ishlari olib borildi.



Maktabgacha ta'lif Nizomi ishlab chiqilib, unda: "Maktabgacha ta'lif bo'limi 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lif muassasalariga boshchilik qiladi, mavjud muassasalar ishining borishini kuzatadi, yangi maktabgacha ta'lif muassasalari, yasilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun umumiy yotoqkabinetlar, bolalar

yozgi koloniyalari ochadi, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari, enagalar va umuman o'sha aytilgan muassasalarning ta'lim-tarbiya qismiga xizmat ko'rsatish uchun kadrlar tayyorlash maqsadida kurslar tashkil qiladi".

Ushbu Nizomni ishlab chiqish maktabgacha ta'lim muassasalari ishlarini, shuningdek, mashg'ulotlarning taxminiy dasturini va maktabgacha ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazish hamda taxminiy kun tartibi tuzishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Maorif Xalq komissarligining maktabgacha ta'lim bo'limi va viloyat Xalq Maorifi bo'limlarining maktabgacha ta'lim instruktorlari tashkilotlari, mahalliy kengashlar va xotin-qizlar bo'limlari yordamida katta tashkiliy ishlar olib bordilar. Ular maktabgacha ta'lim muassasalari uchun binolar qidirib topib, bolalarga xos mebel tayyorlash uchun ustakabinetlarga buyurtmalar taqsimlar, tarbiyachilar bilan ta'minlar edilar. O'sha vaqtida o'rta maktabni bitirgan qizlar (qisqa yo'l-yo'riq, ko'rsatmadan so'ng) o'qituvchilik, onalar maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilinari edi.

Turkiston Respublikasining maktabgacha ta'lim xodimlari uchun 1921-yil aprel oyida bo'lib o'tgan anjumani muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu anjumanda mahalliy, ya'ni mahallalar bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish juda sust olib borilayotganiga, qishloq joylarda maktabgacha ta'lim muassasalarga borishi zarurligi ilgari surildi. Bu ishlarda Xalq maorifi bo'limlari oldiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

Tub joy aholi uchun mavjud ayol rahbarlar boshchiligidan darhol maktabgacha ta'lim muassasalari ochish;

Tub joy xotin-qizlarini amaliyotchilar sifatida maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlashga keragicha jalb etish;

Namunali bolalar muassasalari qurishga;

Ota-onalar uchun yig'ilishlar o'tkazish va ularni choyga chaqirib turishga, ota-onalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga kelib turishlarini yo'lga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Respublika Maorifi Xalq Komissarligining maktabgacha ta'lim bo'limi asosiy qoidalar ishlab chiqib, bu qoidalarni joylarda maktabgacha ta'limni yo'lga qo'yishda asos bo'lmog'i kerak edi. Xalq Maorifi bo'limlari qoshida viloyat territoriyasidagi hamma ishlarni birlashtiruvchi, koordinatsiya qiluvchi va yo'llovchi maktabgacha ta'lim bo'limi tashkil etildi.

Viloyat mahalliy tashkilotlari maktabgacha ta'lim g'oyalarini keng tashviqot qilish yo'li bilan ota-onalar kengashlari tashkil etdilar. Viloyatdagi barcha maktabgacha ta'lim ishlarining markazi bo'lgan viloyat maktabgacha bo'limlari ishni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida joylarda maktabgacha ta'lim seksiyalari tuzildi. Maktabgacha ta'lim bo'limi maktabgacha ta'lim muassasalarining ko'p qismini katta tuzib bolalar o'yinlariga aylantirishdi. Farg'ona, Samarqand va boshqa viloyatlarda maktabgacha ta'lim bo'limlarining ishi yaxshilandi.

1919-yil yozida Turkiston Respublikasida Maorif Xalq Komissarligining Qaroriga muvofiq Pedagogika toifasi vujudga keltirildi, bu toifa qoshida birinchi maktabgacha ta'lim kabineti tashkil qilindi. Uning vazifasi maktabgacha ta'lim xodimlariga doimiy va malakali metodika yordami ko'rsatib borishdan iborat edi. Kabinet qoshida maktabgacha ta'lim muassasasi burchagi tashkil etilib, mebel qo'yilgan edi, tokchalarga ko'rgazmalar, o'yinchoqlar, mashg'ulotlar uchun kerakli bo'lgan turli materiallar, bolalar yasagan narsalarning namunalari terib qo'yilgan edi. Maktabgacha ta'lim kabineti tez orada amaliy tajribalarni o'rtoqlashish uchun tayanch mifik bo'lib qoldi. Kabinetda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari uchun adabiyot, bolalar badiiy adabiyotlarining namunalari paydo bo'ldi<sup>18</sup>. 1920-yil yanvar oyida Maorif Xalq Komissarligi Toshkentda o'lka uch oylik kursi tashkil qilindi, bu kursda maktabgacha ta'lim nazariyasi, psixologiya, gigiyena asoslari o'qitilar edi. Xalq Maorifi tizimi tezkor sur'atda rivojlanib

<sup>18</sup> A.Xromovskix. U istokov doshkolnoy raboti. Arxiv materiallari. 1957. 103-114-betlar

borib, endilikda O'zbekistonda Maktabgacha ta'lismiz tizimi bo'g'inlarining ish faoliyati, mazmuni, uning vazifalari o'zgacha qiyofa kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lismiz vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lismiz vazirligi, viloyat va Maktabgacha ta'lismiz boshqarmalari, tuman Maktabgacha ta'lismiz bo'limlari maktabgacha ta'lismizi boshqarishning vakolatli organlari hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lismiz muassasalarini boshqarish xalq deputatlari Kengashi qoshidagi Xalq kengashining vazifasiga kiradi. Viloyat, shahar, tuman Maktabgacha ta'lismiz boshqarmasi kengashi a'zolari turli xildagi maktabgacha ta'lismiz muassasalarini tarmog'ini rivojlanishini ta'minlaydi. U maktabgacha ta'lismiz muassasasining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, yangi muassasalarini qurish, mablag' bilan ta'minlash, kadrlar tanlash ishlariiga yordam beradi. Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yo'lga qo'yadi, metodik materiallar bilan ta'minlaydi. Idoralar jamoat tashkilotlari hamda shaxsiy tashabbuslarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Alohiba olingan maktabgacha ta'lismiz muassasasining ishidagi kollegional, demokratik usullarga yordam berish va qo'llash, uning mustaqilligini oshirish maqsadida jamoatchilik asosida ish olib boradi va kengashida ko'rildi.

Kengash horiylik qiluvchi muassasalarining eng faol va manfaatdor bo'lgan xodimlardan, ota-onalar jamoatchiligidan, maktab vakillaridan, maktabgacha ta'lismiz muassasasi xodimlaridan tibbiy yordam xizmatchilaridan, mahalla qo'mitasi vakillaridan iborat bo'ladi. Ta'limga mablag'i davlat mablag'idan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lismiz bo'limi maktabgacha ta'lismiz boshqarmasi tomonidan boshqariladi. Maktabgacha ta'lismiz boshqarmasining ish mazmuni tegishli boshqarma bo'limlari orqali rahbarlik ishlarini olib borish, tashkiliy-pedagogik hamda metodik ishlarga rahbarlik qilish, maktabgacha ta'lismiz rivojining asosiy yo'nalishlarini

aniqlash, viloyat, tuman, shahar Maktabgacha ta'lim bo'limlari maktabgacha ta'lim boshqarmalari tomonidan maktabgacha ta'limga rahbarlik qonun, me'yoriy, instruktiv, metodik-dasturiy hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish, ichki mehnat tartibi to'g'risida nizom, yo'l-yo'riq va qoidalarni ishlab chiqish (kasaba uyushmasi hamkorligida) muassasalar tarmog'i taraqqiyotining istiqboli, yillik xalq xo'jalik va davlat rejalarini tuzishda, kapital qurilish, xodimlar tayyorlash, pedagogik mahoratni oshirish va uni nazorat qilishda ishtirok etadi; tipovoy shtatlar loyihasini ishlab chiqish, uskunalar va o'quv-ko'rgazma qo'llanmalariga bo'lgan talabni aniqlash, uskunalar va pedagogik qo'llanmalar namunalarini tasdiqlash, bolalar hayoti va sog'ligrini saqlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, uning bajarilishini nazorat qilish, eshitish organlari va nutqi buzilgan bolalar ishini tashkil etish. Maktabgacha ta'lim yoshdagи bolalarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyot masalasida chet mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, aholi tomonidan tushadigan ariza, xat va shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega.

Metodik va ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, pedagog hodimlar malakasini oshirish instituti, rahbar xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti bilan hamkorlikda tipovoy dastur, metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar, ko'rsatmalar ishlab chiqish, vatanimiz fani yutuqlarini, ilg'or ish tajribalarini o'rganish va tashviqot qilish, maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha chet el va hamdo'stlik davlatlari pedagogika fanini o'rganish. Respublika Vazirliklari rahbar xodimlari va maktabgacha ta'lim sohasida ishlardigan boshqa xodimlarning pedagogik malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi. Tashkiliy va pedagogik masalalarga bag'ishlangan respublikalararo tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishni tashkil etadi. Ilmiy-amaliy anjumanlar, pedagogik o'qishlar, seminarlar, avgust anjumanlarini tashkil etadi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TUMAN (SHAHAR) BO'LIMLARINING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI**

Quyidagilar maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari ning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan davlat maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatini tashkil etish sohasida o'zaro hamkorlik qilish;

maktabgacha ta'lif muassasalarida maktabgacha ta'lif sohasidagi qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga rioya qilinishi monitoringini olib borish va nazorat qilish;

maktabgacha ta'lif muassasalarida o'quv-metodik faoliyatni muvofiqlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maxsus maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarni reabilitatsiya qilish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash;

nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalarini qo'llab-quvvatlash va maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini rivojlantirish;

tuman (shahar) darajasidagi byudjetdan moliyalashtiriladigan davlat maktabgacha ta'lif muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishni, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari ularga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari va ularning rahbariyatini tashkiliy va axborot-tahlil jihatidan ta'minlaydi;

idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari va Vazirlikning buyruqlari bajarilishini muntazam nazorat qiladi;

maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tumanlar (shaharlar) hokimliklariga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida qayta ishlanishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatiga rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalarini qo'llab-quvvatlaydi va bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini rivojlantiradi;

tuman (shahar) darajasidagi byudjetdan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lif muassasalari xarajatlarini moliyalashtirishni, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lif muassasalarida sog'lom ovqatlanishni tashkil etadi;

maktabgacha ta'lif muassasalarida davlat talablari bajarilishi monitoringini olib boradi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasalarini moddiy-texnik ta'minlashni tashkil etadi;

davlat maktabgacha ta'lif muassasalarining binolari va inshootlaridan foydalanish ishlari monitoringini olib boradi va muvofiqlashtiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;

maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari vakolatiga tegishli bo'lgan tashkiliy, kadrlar, moliya, ishlab chiqarish-xo'jalik masalalari va boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qiladi.

### **Maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlarining huquqlari va javobgarligi**

Maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tuman (shahar) bo'linmalaridan, maktabgacha ta'lif muassasalaridan o'z vakolatiga kiradigan masalalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

davlat dasturlarini va investitsiya dasturlarini amalgalashirish bo'yicha davlat maktabgacha ta'lif muassasalarini faoliyatini o'rganish;

davlat maktabgacha ta'lif muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga rahbarlik qilish;

bolalarni maktabga sifatli tayyorlash masalalari bo'yicha nodavlat ta'lif muassasalarini bilan o'zaro hamkorlik qilish;

o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflarni ko'rib chiqish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lif boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lif bosh boshqarmasiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga kiritish huquqiga ega.

Maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

**Maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari:**

maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlariga yuklangan vazifalar va funksiyalar sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lif boshqarmalariva Toshkent shahar maktabgacha ta'lif bosh boshqarmasiga kiritiladigan hujjatlar loyihalari va takliflar, shuningdek, maktabgacha ta'lif tuman (shahar) bo'limlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning sifati, pirovard natijalari va oqibatlari;

maktabgacha ta'lif sohasida dolzarb muammolarni, shuningdek, tumanni (shaharni) rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan tizimli kamchiliklarni aniqlash;

maktabgacha ta'lif masalalariga doir takliflarni tayyorlash va maktabgacha ta'lif masalalari yuzasidan tumanni (shaharni) rivojlantirish dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlash va kiritish;

tumanlarda (shaharlarda) maktabgacha ta'lif sohasini rivojlantirish, muammoli masalalarni hal qilish bo'yicha dasturlar, tadbirlar rejalar, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishi uchun javob beradi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI NAZORATCHI-METODISTINING VAZIFALARI, HUQUQLARI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Maktabgacha ta'lif muassasalari ishiga bevosita rahbarlik qilish Maktabgacha ta'lif bo'limi maktabgacha ta'lif - nazoratchi-metodistga yuklatiladi.

Nazoratchi-metodist – bu ma'lum sohaga tegishli qonun-qoidalarning bajarilishini nazorat qiluvchi shaxsdir.

Maktabgacha ta'lif muassasasi nazoratchi-metodistining ishi murakkab va ko'p qirralidir. Nazoratchi-metodist o'z ishida Davlatimizning Maktabgacha ta'lifsohasi bo'yicha chiqarilgan qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, instruktiv, dasturiy, metodik hujjatlariiga amal qiladi. Maktabgacha ta'lif bo'limi nazoratchi-metodisti (tuman, shahar):

Turli tildagi, idora-tashkilot tomonidan tashkil etilishidan qat'i nazar «*Ilk qadam*» Davlat Dasturi tinglovchilarini bajarilishini kuzatadi, tekshiradi;

Maktabgacha ta'lif muassasasi ishini har tomonlama nazorat qiladi;

Qonun doirasida yo'l-yo'riq, buyruq, tavsiya, ko'rsatmalar beradi;

Qonunga xilof ishlarni to'xtatadi va Maktabgacha ta'lif bo'limiga xabar beradi;

Maktabgacha ta'lif muassasasi ishlarni yaxshilash bo'yicha taklif, mulohazalar beradi;

Maktabgacha ta'lif bo'limida mudira, metodist va tarbiyachilar uchun ilmiy-uslubiy kengashlar chaqiradi;

Maktabgacha ta'lif muassasasi xodimlarini Attestatsiyadan o'tkazadi;

Xodimlarni rag'batlantirish va jazolash, ishdan bo'shatish masalalariga rahbarlik qiladi;

Shahar, tuman nazoratchi-metodisti - Xalq deputatlari ijroiya qo'mitalari oldiga Maktabgacha ta'lif bo'limi va Maktabgacha ta'lif muassasasi ishini yanada takomillashtirish bo'yicha masalalarni qo'yadi.

Nazoratchi-metodistga (Respublika, viloyat, shahar, tuman nazoratchi-metodisti lavozimiga) qo'yiladigan asosiy talablar:

eng ilg'or, yuksak pedagogik tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, maktabgacha ta'lif tizimi ishini, tamoyillarini puxta egallagan, oliy maxsus ma'lumotga, ish stajiga ega bo'lgan;

har tomonlama tayyorgarlik ko'rgan, o'z ishini ustasi, dunyoqarashi keng, ta'lif to'g'risidagi Davlat siyosatini puxta egallagan, nazoratchi-metodist-mutaxassislik malakalariga ega bo'lgan;

xolis, vijdonli, davlat nuqtayi nazari, qiziqishlari asosida ish yurituvchi, javobgarlikni his etuvchi, aniq, xushyor, tartibli, talabchan, o'z so'zida tura oladigan, kamchilikka murosasiz bo'lgan;

maktabgacha ta'lif ravnaqi uchun eng samarali, foydali, kerakli, asosiy vazifalarni o'z vaqtida aniqlay olishi, qisqa muddatda bajara olish xususiyatiga ega bo'lgan;

maktabgacha ta'lif muassasasi ishini har tomonlama chuqr tahlil qila olishi, ishdagi kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etish choralarini tezda aniqlab olishi, bajarishi;

Maktabgacha ta'lif bo'limi va Maktabgacha ta'lif muassasasiga doimiy amaliy yordam berish;

yangilikka intilish, tashviqot qilish, pedagoglarning ilg'or ish tajribalari amaliyotga yangi texnologiya asosida kiritish;

g'oyaviy, siyosiy, pedagoglik bilimi ustida tinmay ishlash.

Nazoratchi-metodist 3 yilda 1 marta malaka oshirish kurslarida o'z malakasini oshiradi.

Nazoratchi-metodist tumanda maktabgacha ta'lif ishining tashkilotchisi va rahbari, malakali pedagog-metodist, davlat nazoratchi-metodisti. U siyosiy jihatdan savodli, axloqiy mustahkam bo'lishi, ishiga davlat nazaridan yondashishi, maktabgacha ta'lif muassasalariga rahbarlik masalalarini operativ hal qilishi, ular ishini obyektiv va alohida-alohida baholash, talabchanlik bilan tekshirishni amaliy yordam ko'rsatish bilan olib borgan holda, kishilar bilan ishlay bilishi, pedagoglik nazokatini namoyon qilishi kerak.

Maktabgacha ta'lif muassasalari ishining hamma bo'limlariga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish uchun nazoratchi-metodist o'z ishini aniq rejorashtirish, keng jamoatchilikka suyanish lozim.

Nazoratchi-metodist aholining maktabgacha ta'lif muassasalariga bo'lgan talabini qondirishga alohida e'tibor beradi. Shu maqsadda u maktabgacha ta'lif muassasalari tarmog'ini kengaytirishning kundalik va istiqbol-rejalarini tuzishda ishtirok etadi va yangi muassasalarini foydalanishga topshirishini muntazam tekshirib turadi. Nazoratchi-metodist Maktabgacha ta'lif muassasalarining rentabel ishlashiga erisha borib, ularning xalq, xo'jalik rejalarini bajarishini qat'iy nazorat qiladi, qishloqda maktabgacha ta'lif muassasalari qurilishiga katta e'tibor beradi, ular moddiy bazasini yaxshilanishiga g'amxo'rlik qiladi.

Nazoratchi-metodist moliya masalalarini tushunishi, maktabgacha ta'lif muassasalarini jihozlash, bolalarni ovqatlantirishga oid me'yoriy hujjatlarni bilishi, muassasani saqlash uchun ajratilgan pul mablag'larini o'z vaqtida berilishi va to'g'ri sarflanishini muntazam tekshirib turish, markazlashtirilgan buxgalteriya bilan hamkorlikda ishlash kerak.

Nazoratchi-metodist maktabgacha ta'lim muassasiga borganida metodik, tarbiyaviy va ma'muriy-xo'jalik ishlar ahvolini o'rGANADI, ilg'or tajribani, ishdagi kamchiliklarni aniqlaydi, zarur yordam ko'rsatadi.

U «Ilk qadam» davlat Dasturining bajarilishini nazorat qiladi, pedagogik kadrlar tarkibi va ularning joylashtirilishini o'rGANADI, ularning malakasini oshirishga qaratilgan tadbir belgilaydi.

Ota-onalar qo'mitasi faoliyatiga rahbarlik qilish va aholi orasida pedagogik bilimlarni tashviqot qilish ishlarni tashkil qilish nazoratchi ishida muhim rol o'yaydi, u bu ishning mazmunini va shakllarini tuman sharoitiga muvofiq ravishda belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim bo'limlariga to'liq, rahbarlik maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri, nazoratchi, metodist tomonidan ishlab chiqilgan yillik reja asosida olib boriladi.

Rejaning kirish qismida avvalgi o'tgan o'quv yiliga tavsifnomma, qaysi va nechta maktabgacha ta'lim muassasalarini qurildi, metodik ishlar qay darajada olib borildi, ilg'or ish tajribalari qanday umumlashtirildi, tashkiliy-xo'jalik ishlari, Tuman kengashlari, umuman barcha bajarilgan ishlarga tahlil beriladi.

#### Tadbirlar:

Tuman qaramog'idagi maktabgacha ta'lim muassasalarini komplektlash qoidalari, bir qancha maktabgacha ta'lim muassasasini nazoratga olish, ota-onalar tomonidan qarzlarning bajarilishini, pedagog xodimlarning ishlash, malakalarini oshirish ishlari va boshqa ishlar rejorashtiriladi.

Tuman kengashida ko'rildigan masalalar:

Frontal-yalpi tekshirish - Yalpi tekshirish.

Tematik nazorat - Tanlangan mavzu bo'yicha.

Yozgi sog'lomlashtirish ishlari.

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik.

Maktabgacha ta'lim bo'limi va tuman sog'liqni saqlash bo'limlarining birgalikdagi kengashlari.

a) Bolalar sog'lig'ini himoya qilish, kasallikning oldini olish ishlari va javobgar shaxslarning familiyalari.

Pedagogik kengashlar.

Maktabgacha ta'lif bo'limining yangi o'quv yili rejasiga bilan tanishtirish. Birinchi yarim o'quv yilidagi metodik birlashmalar ishining hisoboti.

Yosh tarbiyachilar to'garagi va ota-onalar universitetining ish hisoboti.

Bolalar ovqatini tashkil etishda SES xodimlarining tekshiruv natijalari.

Seminar-mashg'ulotlar. Maktabgacha ta'lif muassasasining ishida «Metodik kabinet» roli haqida. Bolalarni jismoniy jihatdan o'stirishda maktabgacha ta'lif muassasasining roli haqida. Ilk yosh guruhlarida metodik ishlarni tashkil qilish yo'llari, rahbarlik har oy reja asosida o'tkazilib turiladi.

Ishlab chiqarish majlislari. Shanbaliklarni tashkil etish, yangi ishga tushirilayotgan obyektlarga yordam ko'rsatish va paxta kompaniyasiga qatnashish. Ulug' sanalarga tayyorgarlik ishlari boshqa masalalar ko'rildi.

Metodik ishlar. Metod birlashma ishida faol qatnashish (yil davomida). Metod birlashma rahbarlarining hisobotlarini tinglash.

Hamma bo'limlar bo'yicha metodik ishlar sifatini oshirish.

Ekologiya, iqtisodiy tarbiya bo'yicha ilg'or ish tajribalarni ommalashtirish.

Ishlash malakalarini oshirish. Malaka oshirish kurslariga yuborish.

Har bir muassasa xodimlarining pasport, kartochkalarini tashkil qilish. Metod birlashma rahbarlariga tizimli yordam ko'rsatish. Yosh mutaxassislar bilan ishslash.

- Yosh tarbiyachilar to'garagini tashkil qilish.

- Jamoat faoli bilan ishslash.

- Tematik va frontal-yalpi tekshirish ishlaridan instruksiyalash.

Maslahatlar (turli xildagi savollar bo'yicha) har shanba kunida.

Reja shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tasdiqlanadi.

Har kvartalda bir marotaba Maktabgacha ta'lim bo'limi kengashi chaqiriladi. Bunga asosan maktabgacha ta'limni yanada o'stirish, ish sifatini yaxshilash, ma'lum bolalar asosini tekshirish natijalari, ilg'or pedagoglar mahoratini so'zlab berish, davlatimiz belgilab bergen ishlari - vazifalarni, qonunlarni, qarorlarni bajarish, bolalar sog'ligi haqida g'amxo'rlik, kasalliklarni bartaraf qilish ishlari ko'riladi.

Kengashga xalq maorifi bo'limi mudiri rahbarlik qiladi. Har bir kengash protokol bilan olib boriladi, qaror qabul qilinadi, bajaruvchi shaxslar belgilanadi, muddati belgilanadi.

Kengashda nazoratchi, metodist, kasaba uyushma qo'mitasi raisi, jamoatchi nazoratchilar ishtirok etadilar. Ular ham o'zlarining fikr-mulohazalarini o'rtoqlashadilar.

Tekshirish natijalari, kamchiliklar haqida nazoratchi va metodist so'zga chiqadilar.

### **Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarida ta'lim tizimini boshqarish**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;

ta'limni rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

ta'lismuassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

boshqa davlatning ta'lismuassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lif faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lif to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash;

davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

davlat grantlari miqdorini va ta'lismuassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

davlat oliy ta'lif muassasasining rektorlarini tayinlash;

ta'lif oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lif muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;

ta'lif muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

davlat ta'lif standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasbtayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lifning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;

ta'lif oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lif muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Ta'lim muassasasini boshqarish.

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

### **FSMU texnologiyasi**

<b>SAVOL</b>	<b>O'zbekistonda Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan maktabgacha ta'limga rahbarlik qilishning nazariy asoslari</b>
<b>(F) Fikringizni bayon eting</b>	
<b>(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating</b>	
<b>(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring</b>	
<b>(U) Fikringizni umumlashtiring</b>	

#### **Tayanch tushunchalar:**

**Metodik-dasturiy** – uslubiy dasturiy hujjat.

**Tipovoy shtat** – Namunaviy ish joyi.

**Koordinatsiya qilish** – muvofiqlashtirish.

**Pedagogik bilimlar** – bola tarbiyasiga oid bilimlar.

**Nazoratchi** – nazoratchi-metodist.

**Operativ** – tezlikda, bir zumda, izchillikda.

**Obyektiv** – xolisona.

**Ota-onalar qo'mitasi** – ota-onalar qo'mitasi – mактабгача та'лим муассасасида ташкіл етиладын ең мүхим орган.

**Maslahatlar** – яккама-якка ва жамоа маслахатлари.

**Seminar** – практикумлар, семинар машғулотлари.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda mактабгача ta'lim bo'limlari tomonidan boshqarish maqsadlarini yoriting.
2. Mактабгача ta'lim vazirligining tashkiliy tizimi va ish mazmuni nimalardan iborat?
3. Mактабгача ta'lim boshqarmasi, uning vazifasi, ish faoliyatini to'liq yoritib bering.
4. Mактабгача ta'lim bo'limi nazoratchi-metodisti kim va unga qo'yilgan asosiy talablar?
5. Nazoratchi-metodist faoliyatining mazmuni nimalardan iborat?
6. Ota-onalar va jamoatchilik bilan ish uslublarini izohlab ko'rsating.
7. Mактабгача ta'lim bo'limining yillik ish rejasi mazmu-nini sxemalashtiring.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Mактабгача ta'lim bo'limi nazoratchi-metodistining boshqaruв faoliyatni izohlang.
  - a) Ishlarni muvoqilaشتirish, qaramog'idagi mактабгача ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish
  - b) Reja asosida tekshiruv turlarni o'tkazish
  - v) Tematik va frontal-yalpi-yalpi tekshiruv faoliyatি
  - g) Axborotlarni to'plash, tahlil qilish
2. Mактабгача ta'lim bo'yicha nazorat ishlarini tashkil etishning ahamiyati?
  - a) Mактабгача ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiyaviy ishlarining samaradorligini oshiradi.

- b) Metodik, ta'lif-tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish
- v) Maktabgacha ta'lif xodimlarining mutaxassislik mala-kasini o'stirish
- g) Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri sarflash

3. Maktabgacha ta'lif bo'limi nazoratchi-metodistining vazifalari?

- a) Maktabgacha ta'lif muassasasining barcha faoliyatlarini nazoratdan o'tkazish, rahbarlik, kadrlar bilan ta'minlash, metodik yordam ko'rsatish
- b) Metodik birlashma ishiga rahbarlik, Pedagogik kengash o'tkazish, bolalarni maktab ta'lifiga tayyorlash
- v) Ochiq tadbirlar o'tkazishni tashkil etish, homiy tashkilotlar bilan ishlash, maktabga rahbarlar
- g) Mudira va metodist ish faoliyatini nazorat qilish.

4. Nazoratchi-metodistning asosiy ish faoliyati bu –

- a) Qaramog'ida barcha maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatini nazorat qilish, ularga amaliy yordam ko'rsatish
- b) Boshqaruv, nazorat, ta'lif-tarbiya ishlariiga rahbarlik, kadrlarni tanlash
- v) Kadrlarni to'g'ri tanlash, nazorat qilish
- g) Ta'lif-tarbiya ishlariiga rahbarlik, ota-onalar bilan ishlash

5. Maktabgacha ta'lif xodimlari asosiy vazifalarining malaka tavsiflari qaysi vazirlik ro'yxatidan o'tkaziladi?

- a) O'zbekiston Maktabgacha ta'lif vazirligi
- v) O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligini
- s) O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi
- d) O'zbekiston mehnat va axloqiy, ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi

## **XXIII BOB. MAK TABGACHA TA'LIM BO'LIMLARI TOMONIDAN MAK TABGACHA TA'LIM MUASSASALARINI NAZORAT QILISH**

### **Nazorat qilish - Davlat nazorati, maktabgacha ta'lim bo'limganlari tomonidan rahbarlikning eng muhim shakli ekanligi**

Nazorat qilish deganda - Davlat nazorati, maktabgacha ta'lim bo'limganlari tomonidan rahbarlikning tekshirish shakllariga aytildi.

Bu - Mustaqil Davlatimizning qaror, hukumat, ko'rsatma, yo'l-yo'riqlarini, «Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi qonun» asoslarini bajarilishini, maktabgacha ta'lim yoki tashkilotlar tomonidan, maktabgacha ta'lim ahvolini tekshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim bilan bog'liq bo'lgan ariza, imkoniyat, iltimoslarni tekshirishdir. Bu - «Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom», «Maktabgacha ta'lim konsepsiysi», «*Ilk qadam*» davlat dasturlarining bajarilishi ustidan nazoratdir.


Bu - har bir maktabgacha ta'lim muassasi ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini ko'ruvchi, pedagogik ta'lim-tarbiya, pedagogik ish sifatini o'stirishda aniq amaliy yordam ko'rsatuvchi tekshirish shaklidir.

Nazorat qilish - nazorat qilishning metodologik asosini - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Maktabgacha ta'lim Konsepsiya»sida ko'rsatib berilgan ilmiy jihatdan asoslangan g'oyalar egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va uni nazorat qiluvchi tamoyillariga asoslanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiat farovonligini ko'zlab, ijtimoy adulat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshira borib, maktabgacha ta'lim bo'limganlarda nazorat ishlarini amalga oshirishda asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. «Davlat jamiatning madaniy, ilmiy

va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi» deyiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida.

**Muhim muammoning yechimini topishga  
yordam beradi va  
“Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi**



Nazorat qilishda - qonunlarning ustunligi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlaridek: «Qasrda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi». Maktabgacha ta'lim bo'limalarida nazorat amalga oshiradi.

Nazoratchi-metodist - bu ma'lum sohaga tegishli qonun-qoidalarning to'g'ri bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs.

Rahbar faoliyatini baholovchi bosh mezon – uning ishini tashkil qila bilish qobiliyatidir. Rahbar ishini shunday tashkil qilsinki, odamlar «Ha, bu xalq farovonligi yo'lida g'amxo'rlik qiluvchi va uni hamma narsadan yuksak qo'yuvchi rahbar, deya olsin».

Nazorat qilishda - boshqarishni obdon puxta o'ylangan tizimini ishlab chiqish, o'tmishti mas'uliyat bilan tahlil etish -

kelajak yo'lini talab borishini, o'tkir muammolarni tortinchoqligil bilan emas, balki ro'yi-rost ochib tashlash kerakligi uqtiriladi.

«Eskicha yondashish, eskicha fikr yuritish zamonini bizlar unutishimiz lozim».

«Bir haqiqatni hammamiz yaxshi anglab olishimiz zarur» - «Yakdillik, iymon va insof, so'z va ish birligi insonparvarlik - biz qurayotgan jamiyatimizning tamal toshlaridan biridir» - deb uqtiradi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'naliishlari» asarida (1992-yil).

Bu vazifalarni to'g'ri, o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida maktabgacha ta'limga bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'limga muassasalarini nazorat qilishning ahamiyati beqiyosdir.

### **Nazorat qilishning maqsadi, vazifalari va unga qo'yiladigan talablar**

Nazorat qilishning asosiy maqsadi - «Maktabgacha ta'limga to'g'risida»gi qonun asoslarida, maktabgacha ta'limga ishlarini takomillashtirish, ilmiy fan yutuqlariga suyangan holda zamon talablari darajasidagi maktabgacha ta'limga tizimini tashkil etishdir».

Nazorat qilishning asosiy vazifalari quyidagicha:

Maktabgacha ta'limga muassasalarini boshqarishda eng yaxshi shakllarni aniqlash va amaliyotga tatbiq etish;

1. Maktabgacha ta'limga boshqarish darajasini o'stirish;

2. Maktabgacha ta'limga dasturi tinglovchilarini amalga oshirish asosida maktabgacha ta'limga yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishni davlat nazoratidan o'tkazish;

3. Maktabgacha ta'limga muassasalari ishini maqsadga muvofiq tekshirish;

4. Ularning ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini ishlab chiqish va ularga amaliy yordam berish;

5. Ishdagagi ijobjiy tomonlarni o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish, rag'batlantirish;

6. Rahbarning xodimlar bilan ishslash malakalarini o'stirishda nazorat ishlarini tashkil etish;

7. Maktabgacha ta'lif xodimlariga ta'lif-tarbiya ishini yanada rivojlantirishda metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lif vazirligining Maktabgacha ta'lif boshqarmasi o'z qaramog'idagi avtonom, viloyat va ularning joylaridagi bo'limlarini, pedagogik bilim yurtlarini, maktabgacha ta'lif muassasalarini nazorat qilish huquqiga egadir.

Maktabgacha ta'lif bo'limlari va maktabgacha ta'lif muassasalarini nazorat qilish ilmiylik, hayot bilan bog'liq tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Aniqlangan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish hamda uning bajarilishini doimo tekshirib turish bilan yakunlanadi.

Nazorat qilishning asosiy vazifalari

Maktabgacha ta'lif muassasalarini boshqarishda eng yaxshi shakllarni aniqlash va amaliyatga ttabiq etish

Maktabgacha ta'lifni boshqarish darajasini o'stirish

Maktabgacha ta'lif dasturi talablarini amalga oshirish asosida maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni har tomonlhma rivojlantirishni davlat nazoratidan o'tkazish

Maktabgacha ta'lif muassasalari ishini maqsadga muvofiq tekshirish

Ularning ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini ishlab chiqish va ularga amaliy yordam berish

Ishdagagi ijobiy tomonlarni o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va rag'batlantirish

Rahbarning xodimlar bilan ishslash malakalarini o'stirishda nazorat ishlarini tashkil etish

Maktabgacha ta'lif xodimlariga ta'lif-tarbiya ishini yanada rivojlantirishda metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir

Nazorat qilishning samaradorligiga erishishning muhim tinglovchilaridan:

a) Tekshirishning rejali bo'lishi va tizimililigi.

b) Ish ahvolini tahlil qilishning har tomonlama va ilmiy-pedagogik chuqurliligi.

v) Ishlarga baho berishning xolisligi va xulosalarning isbotlanganligi.

g) Tekshirishni o'z vaqtida boshlash va tugatish.

d) Takliflarning bajarilishini nazorat qilish.

e) Nazoratni yordam berish bilan qo'shib olib borish.

y) Har qaysi masalaga alohida yondashish (farq qilmoq).

j) Talabchanlik bilan pedagogik taktni qo'shib olib borish.

Tekshiruvchi shaxs shuni unutmasligi kerakki, tekshiruvchi - nazoratchi-metodistman deb mag'rurmasligi, tekshiruvchi - rahbar xodimlarga qo'pol, qattiqqo'l muomalada bo'lib, uning shaxsiyatiga tegmasligi; tekshirish natijasida topilgan kamchiliklarni hamkorlik tamoyilida hal etish; eng muhim, mehnat jamoalarida ish olib boradigan xalq nazoratchi-metodistlarining keng tarmog'iga tayanadigan bunday nazorat tizimi jamiyatini salbiy hodisalaridan musaffo qiladigan chinakam qudratli kuch bo'lishini ta'minlaydi.

Nazorat qilishni tizimli o'tkazish uchun mактабгача та'лим muassasalar uchun nazoratchi-metodist tomonidan 5 yilga mo'ljallangan istiqbolli reja tuzilib, shahar yoki tuman maktabgacha ta'lim mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Bunda tekshirish muddati aniq ko'rsatiladi.

Asosan, nazorat qilishda turli, maxsus ahamiyatga molik bo'lган muassasalar (aqliy jihatdan, jismoniy jihatdan zaif, kamchiligi bo'lган, nutqida kamchiligi bo'lган, logopedik), sanatoriya tipidagi maktabgacha ta'lim muassasalarini tekshirilib, nazorat qilish maqsadi shu turiga qarab belgilanadi.

Nazorat qilish muddati muassasadagi guruhlarning soniga va tekshirish turiga qarab 10 kundan oshmasligi kerak.

Shahar, tuman maktabgacha ta'lim bo'limlarini nazorat qilish reja asosida o'tkaziladi. Nazorat qilish ishiga eng ilg'or tajribali, o'z ishining ustasi bo'lган maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlaridan iborat bo'lган guruh tuzilib, bunda mudiralar, metodistlar, tarbiyachilar, tibbiy yordam tibbiyot

hamshiralari, metodik kabinet xodimlari, malaka oshirish instituti xodimlari, jamoatchi nazoratchi-metodistlardan tashkil topadi. Nazorat qilish guruhi tarkibi, uning rejasি, muddati tegishli maktabgacha ta'lim bo'limga tomonidan tasdiqdanadi.

#### Nazorat qilishning samaradorligiga erishishning muhim talablari:

- a) Tekshirishning rejali bo'lishi va sistemaliligi
- b) Ish ahvolini analiz qilishning har tomonlama va ilmiy-pedagogik chuqurligi
- c) Islilarga balio berishning xolisligi va xulosalarning isbotlanganligi
- d) Tekshirishni o'z vaqtida boshlash va tugatish
- e) Takliflarning bajarilishini nazorat qilish
- f) Nazoratni yordam berisli bilan qo'shib olib borish
- g) Har qaysi masalaga alohida yondashish (farq qilmoq)
- h) Talabchanlik bilan pedagogik taktni qo'shib olib borish

### Nazorat qilishga tayyorgarlik va uning bosqichlari

#### Nazorat qilishga nazoratchi-metodistning tayyorgarligi

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tekshirish oldidan tekshiriladigan muassasalar maktabgacha ta'lim bo'limga tomonidan belgilanadi, buning uchun yuqori boshqarma tomonidan «Ruxsatnoma» xati olinadi. Bizning institutimiz tomonidan esa Toshkent shahar maktabgacha ta'lim maktabgacha ta'lim boshqarmasiga ma'lumotnoma yuboriladi. Bunda tekshiriladigan tuman muassasalarning nomi, raqami ko'rsatiladi. Keyin tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri nomiga «Ruxsatnoma» xati olinadi.

2. Tekshirish shahar, hokimiyat - shahar qo'mitalari tomonidan bo'lsa, tekshirish uchun «eslatma-savollar» tuziladi, shu orqali muassasa ishi tekshiriladi.

3. Tekshirishi lozim bo'lgan muassasa haqida maktabgacha ta'lim bo'limidan ma'lumot olish; bunda nazoratchi-metodistga muassasasa haqida dastlabki ma'lumotlar berilib, maktabgacha

ta'lim muassasalarining mактабгача та'лим миқyosida tutgan о'rni, uning butun faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar bilan tanishiladi;

4. Tekshirish rejasi tuzilib, tekshirish muddati, kim tomonidan tekshirilayotganligi ko'rsatiladi (Bu tinglovchi-amaliyotchilar uchun).

Nazorat qilishga tayyorgarlik bu - davlatimizning «Maktabgacha ta'lim» bo'yicha qaror, ko'rsatma, buyruq, instruktiv va direktiv hujjatlarini yana bir bor ko'zdan kechirib chiqishni nazoratchi-metodistdan talab qiladi. Bu - «Maktabgacha ta'lim» dasturining hamma bo'limlarini yana bir bor chuqur o'rganishni talab qiladi. Shu o'rinda biz yuqorida aytib o'tilgan «Direktiv» va «Me'yoriy» hujjat nima ekanligini tushunib olishimiz lozimdir.

Direktiv hujjat – bu farmon, farmoyish, yo'l-yo'riq, ko'rsatma, ya'ni yuqori bo'limlar tomonidan quyi bo'limlarga yoki rahbarning o'z xodimlariga bergen ko'rsatma, yo'l-yo'riqlariga aytildi.

Me'yoriy hujjat esa - me'yorlar qoidasiga asoslangan hujjatdir.

Masalan: Bolalarning yoshi bo'yicha yosh guruhlariga to'g'ri taqsimlash, xodimlarni shtat me'yori bo'yicha ishga qabul qilish, smeta bo'yicha xarajatlarni taqsimlash - sarflash, bolalarning ovqatlantirish me'yorlari, tarbiyachilarning oylik ish haqlari va hokazolardan iborat.

Shuningdek, xalq xo'jalik rejalarida ko'zda tutilgan ijtimoiy maktabgacha ta'lim rivojlantirish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning bajarilishi, Maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidam maktabgacha ta'lim muassasalarini kadrlar bilan ta'minlash, qishloq maktabgacha ta'lim xodimlariga beriladigan imtiyozlardan foydalanishi me'yorlari kiradi.

Demak, nazorat qilishni tashkil etish, unga tayyorgarlik tekshiruvchilardan o'z ustida ko'proq ishlashni, g'oyaviy-siyosiy va ilmiy yetuklikni, tashkiliy, pedagogik va metodik ishlarning mohirono o'z ishida qo'llashni talab etadi.

**Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va «Qanday» savoli orqali muammo hal qilinadi**



Nazorat qilishning mazmunli tizimini amalga oshirishda nazorat qilishni olib borish bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilar:

- 1) Tekshirish rejasini tuzish va tasdiqlatish;
- 2) Tekshirishning maqsadi va vazifalari to'g'risida mudirani ogohlantirish;
- 3) Ishning borishini xarakterlovchi hujjatlarni o'rganish (hisobot, akt va hokazo);
- 4) Muassasa xodimlari bilan suhbat;
- 5) Maktabgacha ta'limga boshqarish ishini o'rganish, uning holatini tahlil qilish;
- 6) Maktabgacha ta'limga muassasalarining ishni tanlangan holda tekshirish;
- 7) Maktabgacha ta'limga tashkil etish va uni rivojlantirishda ijobiy natijalari tajribalarini aniqlash, ularni amalda tatbiq etish yo'llarin ishlab chiqish, tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- 8) Aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish, ularni yo'qotish uchun ko'rsatmalar, amalda yordam berish. Jamoada muhokama qilish;
- 9) Tekshirish yakunlari bo'yicha ma'lumotnomalar yoki akt tuzish;

10) Bajarilgan ishlar bo'yicha boshqarma, bo'lim (amaliyot rahbari oldida hisobot berish).

### **Nazorat qilishning usul va uslublari**

Bu bosqichlarni amalgalashish maqsadida biz nazorat qilishning usul va uslublarini o'rganamiz.

Nazorat qilishning asosiy usul va uslublari quyidagilar:

Bolalar hayotini uyushtirish mashg'ulotlari, kun tartibining turli jarayonlarini kuzatish va tahlil;

Pedagogik va moliyaviy, xo'jalik ish hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish;

Bolalar ishlarini tahlil qilish:

Mudira, tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar bilan (ularniig bilimi, ongi, nutqining rivojlanishini aniqlash maqsadida) suhbatlashish;

«Pedagogik kengash», «Ishlab chiqarish majlislarida», ota-onalar kengashlarida ishtiroy etish;

Jamoat tashkilotlari vakillari bilan suhbatlashishdan iborat.

Bu usul, uslublarni qo'llash - nazorat qilish turiga, qaysi guruhda tarbiyaviy jarayonning qaysi qismi yoki muassasa moliyaviy-xo'jalik ishlarining qaysi tomonlari tekshirishga, nazoratchi-metodistning mutaxassisligi va ish tajribasiga bog'liqdir.

Bu ko'p qirrali usularni qo'llash - maktabgacha ta'lif ishini har tamonlama o'rganishda g'oyat ahamiyatlidir.

Kuzatish usuli - bu pedagogik jarayondagi yutuq va kamchiliklarni, ishdagi qiyinchiliklarni yo'qotish va ta'lif-tarbiyaviy ish sifatini o'stirishni ta'minlaydi.

Kuzatish - pedagogik jarayonini, metodik va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ahvoliga to'g'ri baho beradi va kerakli xulosalar chiqaradi.

Frontal-yalpi - yangi tekshirish turida bu usul kun davomida tekshirilayotgan pedagogik jarayonni o'z ichiga oladi, bunda: rejali, ta'lif-tarbiya ish mazmunini va turli tarbiya ishini

muvofiglashganligi, maishiy hayotda bolalar hayotini va tarbiyasini tashkil etish, o'quv-tarbiya usul va uslublarini tashkil etish, bolalarning o'yini, mehnati faoliyatlari kuzatiladi.

Tematicik nazoratturida esa kuzatish usuli tanlangan temaga va uning xarakteriga bog'liqdir. Agar ahvoli kuzatilayotgan bo'lsa, unda tekshiruvchi mashg'ulotlarini chuqur kuzatadi, uning dastur mazmuniga, tuzilishiga, metodikasiga chuqur ahamiyat beradi.

O'yin jarayonini kuzatayotganda diqqatni o'yin turiga, o'yin uchun sharoit, bolalarning munosabatlariga va tarbiyachining o'yinga rahbarligiga qaratadi.

Pedagogik ishlarni kuzatishdan aniq, yaqqol tushuncha hosil qilmasa qo'shimcha yoki takroriy kuzatish o'tkazish kerak.

**Tashkiliy-pedagogik faoliyatni kuzatishda:**

Mudiraning shu ishni to'g'ri tashkil etganligiga, uning tarbiyaviy va xo'jalik ishlarni bir tekisda olib borishiga, jamoa bilan munosabati, tarbiyachi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan suhbatning mazmuniga, ota-onalarni qabul qilish tartibiga qaratish kerak.

Kuzatishda - kuzatilayotgan jarayonning, kun tartibi jarayonlardagi aniqlilik, kun tartibining buzilishi, bolalarning bilim darajasini, ularning axloq me'yorlari, tarbiyachining dastur tinglovchilarini va metodikani egallaganligi va boshqa-larga ahamiyat berish kerak.

Kuzatish-jarayonida shunarsa ayon bo'ladiki, tarbiyachining yetarli darajadagi mutaxassisligi, bu kuzatilayotgan kunda tarbiyachining tayyorgarligi, uning ishdagi tajribasi sayozligi, bolalar jamoasini tashkil eta olmasligi, uning o'ta hayajonlanishi, tormozlanib qolish namoyon bo'ladi.

Moliyaviy xo'jalik ishdagi kamchiliklar mudiraning tartibsiz, pala-partish ish yuritishdan ham kelib chiqish mumkin.

**Tahlil qilish** - tarbiyachi va mudiraga qanday yordam berish va ulardan qanday qilib talab qilish kerakligini belgilab beradi.

Kuzatish turlicha xarakterga ega bo'lib, nazoratchi-metodist bu jarayonlarni amalga oshirish uchun tekshirish reja-sxemasini tuzadi.

### **Maktabgacha ta'lif muassasalarini frontal-yalpi tekshirishning asosiy yo'llari**

Amalda nazorat qilishning asosiy turlari frontal-yalpi va tematik tekshirish turlaridan foydalilanildi

Frontal-yalpi tekshirishi - bu maktabgacha ta'lif muassasi ishini hayotiy har tomonlama, atroficha tekshirish shaklidir. Ya'ni, muassasaning kadrlar tarkibi, maktabgacha ta'lif dasturi talablarini bajarilishi, mudira va metodistning ta'lif-tarbiyaviy va metodik, moliyaviy-xo'jalik ishlariga, ularning kadrlar bilan ishlashi, ota-onalar va jamoatchilik bilan ish faoliyati, ish shakkllari, tibbiy yordam xizmati, maktab bilan aloqa, ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish ishlarini amalga oshiruvchi tekshirish turidir.

Frontal-yalpi tekshirishga barcha tipdag'i maktabgacha ta'lif muassasalari, ularning kuchli yoki kuchsizligidan qat'i nazar tekshiriladi. Kuchsiz muassasalarga ahamiyatni ko'proq jalg qilishi lozimdir.

Frontal-yalpi tekshirish 4 yilda bir marta maktabgacha ta'lif bo'limlari (viloyat MTM, shahar, tuman MTM) tomonidan o'tkaziladi.

Frontal-yalpi tekshirish o'tkazishda avval to'la-to'kis tuzilgan, tasdiqlangan tekshirish plani, unda nazariyadagi asosiy masalalar, savollar aniq yoziladi, tekshirish metodi, tekshiruvchilarining ish vazifalari, majburiyatlari va tekshirish muddati ko'rsatiladi

So'ngra nazoratchi-metodist yanabir bormaktabgacha ta'lif bo'yicha chiqarilgan qaror, ko'rsatma, buyruqlarni, pedagogik va metodik jurnallarini eng oxirgi yangi sonlarini ko'zdan kechirib, maktabgacha ta'lif dasturi talablarini yaxshilab o'qib oladi, shu muassasa hujjatlari bilan tanishadi. Bu ish uchun u

bu muassasada xalq xo'jaligi rejasi, bolalarning muassasaga qatnash rejasining bajarilishi tahlil qilinadi. Kadrlar, ularning tuman, shahar metodik ishlaridagi qatnashuvlari, malaka oshirish ishlarini qarab, o'rganib chiqadi.

Muassasani kuchli yoki kuchsiz tomonlarini bilishda avvalgi tekshirish materiallari yaxshi o'rganib chiqiladi, kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni qanday bajarilganligi aniqlanadi.

Yuqoridagi materiallar bilan tanishishda nazoratchi-metodist nimalarga ko'proq ahamiyat berish kerakligini belgilab beradi.

Tumanlarni nazrot qilishda, albatta, shu tuman selkengash, organlari bilan, korkabinet va tashkilotlarga qarashli bo'lgan mактабгача ta'lіm muassasalar bilan aloqa o'rnatiladi.

Nazorat qilishni, albatta, mudiraning ishtirok bilan o'tkazish kerak, tashkilotlarga qarashli maktabgacha ta'lіm muassasalarda esa shu korkabinetning vakili qatnashadi.

Frontal-yalpi tekshirish olib borishning asosiy yo'llari. Frontal-yalpi tekshirish nazoratchi-metodist va brigada a'zolarining mudiri bilan suhbatlashishidan boshlanib, tekshirish maqsadi, brigada ishi, tartibi, vaqt bilan tanishtiriladi. So'ngra mudira muassasa haqida, nechta guruhdan iboratligi, nechanchi yili ochilgan, bolalarning guruhlarga taqsimlanishi, bolalarning kundalik davomati, muassasaning texnikaviy materiallar bilan jihozlanishi, uning bazasi, kadrlar tarkibi (pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi) xodimlar bilan, ularning ta'lіm-tarbiyaviy ishlariga baho berib, xodimlarning g'oyaviy-siyosiy va ishslash malakalari, muassasada mehnat va ishlab chiqarish intizomining ahvoli, jamoaning yutuq va kamchiligi, kamchiliklar o'sishdan ko'rيلayotgan tadbirchoralar xususida, tuman maktabgacha ta'lіm bo'limi va boshqa tashkilotlardan iltimoslar so'raydi.

Bu suhbat muassasa to'g'risidagi tekshirish ishiga dastlabki taassurot beradi. So'ngra nazoratchi-metodist turli bo'limlar

bo'yicha tekshirish, o'rganish ishlarni boshlaydi. Quyidagi tekshirishdagi asosiy savollarni keltiramiz.

Maktabgacha ta'lif muassasadagi ta'lif-tarbiyaviy ishlarning ahvoli va «Maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lif-tarbiya dasturi» talablarining bajarilishi, bolalarning ko'nikma va malakalarini, bolalar bilimining sifati, tarbiyachining ishlash metodlari»;

Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, kadrlarni tarbiyalash, ishslash malakalarini oshirish omillari. Muassasadagi metodik ishlar, metod kabinet faoliyati;

Tashkiliy-pedagogik va moliyaviy-xo'jalik ishlarning ahvoli. Xalq xo'jalik rejalarining bajarilishi, yo'llanmalar soni, bolalarning davomati (bolalarning muassasaga qatnashi) ishlarning bajaralishi;

Bolalarga tibbiy yordam tomonidan xizmat ko'rsatish sifati. Bolalar ovqatlanishining ratsional ravishda tashkil etishi;

Ota-onalarning pedagogik, maorif ishlari;

Mudiraning maktabgacha ta'lif muassasasiga rahbarligi, rahbarlik uslubi. Mudira va metodist tomonidan ta'lif-tarbiyaviy ishlarga, dastur talablarining bajarilishiga, ularning kontrolligi tekshirish;

Muassasasining joriy-texnika bazasining ahvoli, xo'jalik faoliyati, xarajatlarni to'g'ri sarflash ishlari;

Ta'lif-tarbiyaviy ish rejalarining sifatliligi. Rejalarining bajarilishi, Pedagogik kengash, ishlab chiqarish majlislarini, ota-onalar yig'ilishlarini, maktabgacha ta'lif bo'lilmari tomonidan chiqarilgan, instruksiya va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish;

Muassasada ishlab chiqarish masalalarining yo'lga qo'yilishi, hujjatlar, ularning to'g'ri jihozlashishi va saqlanishi;

Nazoratchi-metodistning tekshirish bo'yicha xulosalari va takliflari. Yakuniy Pedagogik kengashning o'tkazilishi;

Frontal-yalpi nazorat qilishning yakuniy tekshirish maqsadiga va vazifasiga bog'liqdir.

Nazoratchi-metodist pedagogik yoki ishlab chiqarish majlislari o'tkazib, tekshirilgan masalalar, maktabgacha ta'lif muassasasining ahvoli, ishlarni yanada yaxshilash uchun taklif va mulohazalar beradi.

Nazoratlash natijasi akt bilan izohlanadi va ma'lumotnoma tuzilib, unda konkret takliflar, mulohazalar, ko'rsatiladi. Akt 2 nusxada tuzilib, biri tuman, shahar maktabgacha ta'lif bo'limiga, biri muassasaga beriladi.

Tematic tekshirish – bu tarbiyaning biror qismi yoki ta'lim-tarbiya ishning bir qismi bo'linishi nazorat qilish shaklidir.

Masalan: «Mehnat tarbiyasi», «Axloqiy tarbiya», «Maktab bilan aloqa», «O'yin» xodimlarning mehnati va hokazo.

Asosan bu tekshirish turi 1 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Tekshirish yo'llari va savollari quyidagicha (mehnat tarbiyasi bo'yicha):

Guruh rejalarini uzoq muddatni qamrab olgan holda tekshirish (chorak, yarim yillik). Maqsad: bajarilgan va bajariladigan ishlarni aniqlash;

Mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish; bolalar mehnatning eng muhim tomonlarini ko'ra olish;

- Kundalik hayotdagi mehnat bilan ta'minlash va tahlil qilish;

- Kattalar va bolalarning birligida mehnatlarini kuzatish;

- Bolalarning kattalar mehnatiga munosabatlari, axloq malakalarini kuzatish;

- Bolalar o'yinlarida mehnatni aks ettiruvchi jarayonlarni kuzatish;

- Bolalar bilan individual suhbatlashish;

- Bolalar ishlarining tahlili;

- Tarbiyachining kundalik yozuvlarini ko'rish;

- Guruhdagi o'quv materiallarini tekshirish.

Nazoratchi-metodist guruh rejalarini (3-6 oylik) tekshirib, unda ko'zda tutilgan tarbiya maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidiradi, osondan murakkablikka, oylik, istiqbolli

ish rejalarida tarbiyaning hamma qismlari rejalashtirilganligi, qaysi bo'lim rejadagi tushirib qoldirilganligi, ularni yuzaga keltirgan sabablarni qidirib topishi kerak.

Rejani tahlil qilishdan maqsad – dastur talablarini bajarish yo'llari, haftalik rejadagi mashg'ulotlarning turlari, ishi, talab darajasida ekanligi, mustahkamlovchi, yangi bilim beruvchi mashg'ulot turlarining oddiyidan murakkablashib borishini ko'rish mumkin.

Aniqlangan kamchiliklar o'z vaqtida muhokama qilinishi kerak, aks holda bu kamchilik va xatolar keyingi oylarda takrorlanishi mumkin.

Mehnat bo'limini tekshirishda ko'rgazmalilik, kattalarning faoliyati, mehnat jarayonini kuzatishda bir qator mashg'ulotlarni kuzatish. Masalan: ekskursiya sifatida, kuzatishda, suratlarni ko'rishda katta ahamiyat berish mumkin.

Ekskursiya jarayonida - tarbiyachilik bolalarda qiziqish tuyg'ularini uyg'ota olishga, bolalarni assosiy narsani ko'ra olishga, kuzata olishga, tanish bo'lgan voqeя va hodisalarni solishtira olish malakalarini o'stirish, ko'rganlariga yakun yasay olish, fikrlash qobilatlarini o'stirishni tarbiyalash.

### **Tematik tekshirishning maqsad va vazifalari**

Mudiraning ishini tematik tekshirishda:

a) mudiraning guruhlardagi ishlarini tekshirish. Mudira o'z vazifasida turli yosh guruhlaringin hamma rolini, jarayonlari bilan alohida kuzatishi, tahlil qilishi kerak.

Nazoratchi-metodist huddi shu ishning sifatini, amalgaloshirish yo'llarini tekshiradi.

b) Sharoitning yaratilganligi;

v) tekshirilgan mavzu bo'yicha Pedagogik kengashda birgalikdagi muhokamasi;

g) Konsultatsiyaning ishlashini o'stiruvchi vositalar; Guruh tarbiyachisining ishini avval tarbiya ishning o'zi bilan muhokama qilinadi, keyin Pedagogik kengash ishiga olib chiqiladi. Yutuq, kamchiliklar, taklif-mulohazalar ochiqchasiga, oshkora holda chaqiriladi.

Kerakli yo'llanma, metodik yordam o'z vaqtida ko'rsatiladi.

Bu ikki xil tekshiruvdan tashqari yana quyidagi tekshirish turlari mavjud: 1) birlamchi; 2) ikkilamchi; 3) katta tekshiruv; 4) ogohlantiruvchi tekshiruv turlari mavjud.

Maktabgacha ta'lif muassasalari ishini tekshirish yakuni bo'yicha AKT tuziladi.

Bu hujjatni tuzishda - tekshirish bo'yicha olingen ma'lumotlarni, chuqur tahlil qilish talab etiladi. Ta'lif-tarbiyaviy jarayonlar, tashkiliy-metodik, moliyaviy-xo'jalik faoliyatlarni kuzatish, suhbatlarni maxsus kuzatish daftariga yozib borish lozim. Hujjatlarni chuqur o'rganib, muassasa faoliyatiga aniq, isbotlangan xulosalar chiqariladi.

Akt 2 nusxada tuziladi: birinchisi Tuman Maktabgacha ta'lif bo'limiga, ikkinchisi bolalar muassasiga.

Kuzatish sxemasi quyidagicha:

Kuzatilgan jarayon.

Kuzatilayotgan kun, yil, oy.

Ish mazmuni.

Tayyorgarlik.

Bolalarning bilim, ko'nikma va malakasi.

Tarbiyachining bilim, ko'nikma va malakasi.

Qo'llanilayotgan usul va usublar.

Yutug'i.

Kamchiligi.

Taklif va mulohazalar.

### **Tayanch tushunchalar:**

**Patronaj** - bolalar sog'lig'ini doimiy ravishda kuzatib boruvchi hujjatdir.

**Dolzarb** - muhim.

**Istiqlol reja** - maktabgacha ta'lifda ta'lif-tarbiya jarayonini 1 yoki 3 oyga mo'ljallangan ish rejasi.

**Frontal-yalpi** - muassasa ishini har tomonlama butunlay yalpi tekshiruv.

**Tematik** – tarbiya yoki bo'limning ma'lum bir qismini tekshirish.

**Hisobot** – kundalik yozuv.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?
2. Nazorat qilishning maqsadi va vazifalarini izohlang.
3. Nazorat qilishda nazoratchi-metodistning tayyorgarligi nimalardan iborat?
4. Nazorat qilishning usullarini izohlang.
5. Nazorat qilish bosqichlari qaysilar?
6. Frontal-yalpi tekshirish deganda nimani tushunasiz?
7. Qaysi muddatlarda va qay tarzda yalpi tekshirish o'tkaziladi?
8. Tematik tekshiruvni izohlang.
9. AKT va unga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:**

1. Maktabgacha ta'lif tizimi nazoratchi-metodistining boshqaruv tamoyillari qaysi bandda to'g'ri yoritilgan?
  - a) Hamkorlik, aniqlik, ish yuritishni boshqarish, nazorat qilish
  - b) Demokratik, liberal, avtoritar
  - v) Avtoritar, ishbilarmon, tadbirkor
  - g) Demokratik, yakkaboshchilik, aniqlilik, yangilikni his etish, xo'jalikni boshqarish, tanqid va o'z-o'zini tanqid, farq qilmoq
2. Maktabgacha ta'lif bo'yicha nazorat ishlarini tashkil etishning ahamiyati.
  - a) Maktabgacha ta'lif muassasasining ta'lif-tarbiyaviy ishlarini samaradorligini oshiradi
  - b) Metodik, ta'lif-tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish

v) Maktabgacha ta'lim xodimlarining mutaxassislik malakasini o'stirish

g) Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri sarflash

3. Maktabgacha ta'lim tizimida nazorat turlarini aniqlang.

a) Ogohlantiruvchi, qayta-ikkilamchi, tematik, frontal-yalpi-yalpi, qiyosiy

b) Guruhlarga maqsadli kirish, ochiq mashg'ulotlar tashkil etish

v) Kundalik nazorat, tematik nazorat, qiyosiy nazorat

g) Qiyosiy nazorat, ikkilamchi nazorat, yalpi-frontal-yalpi nazorat

4. Rahbar tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni nazorat qilish yo'llari bu...

a) Ochiq mashg'ulotlar jamoa tarzda kuzatish va tahlil qilish, kundalik nazorat, ish rejalarni ko'rib, tahlil qilish, baholash

b) Ochiq tadbirlar tashkil etish, metodik birlashma ishlariga qatnashish

v) Guruhlarga maqsadli kirish, mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish

g) Ogohlantirish, suhbatlashish, davra suhbat

5. Monitoring tizimiga to'g'ri ta'rif qaysi bandda to'g'ri berilgan

a) Davlat va Vazirlar qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilib berish

b) Pedagogik ta'lim-tarbiyaviy ishlarni uzliksiz kuzatib borish va tahlil qilish

v) Pedagogik faoliyat mazmunini uzliksiz kuzatib borish va rivojlantirishni oldindan bilishni ta'minlovchi pedagogik tizimdir

g) Ota-onalar bilan ish usullarni takomillashtirishga qaratgan ish usuli.

## **XXIV BOB. MAK TABGACHA TA'LIM BO'YICHA METODIK ISHLARNI TASHKIL QILISH VAZIFALARI, MAZMUNI VA SHAKLLARI**

### **MAKTABGACHA TA'LIMGA USLUBIY RAHBARLIK ISHINING TASHKILIY TUZILISHI VA VAZIFALARI**

Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti - O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi hamda maktabgacha ta'lif muassasalari rahbarlarini va mutaxassislarini qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi, yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etadi, maktabgacha ta'lifda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarida uzlucksiz metodik xizmat ko'rsatadi<sup>19</sup>.

Institutning rasmiy nomi:

a) davlat tilida: to'liq nomi – Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, qisqartmasi – MTMRMQTMOI;

b) rus tilida: to'liq nomi – Institut perepodgotovki i povisheniya kvalifikatsii rukovoditeley i spetsialistov doshkol'nix obrazovatel'nix uchrejdeniy, qisqartmasi – IPPKRSDOU;

v) ingliz tilida: to'liq nomi – Institute for Retraining and Advanced Training of Preschool Education Personnel and manager, qisqartmasi – IRATPEPM.

Institut o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonun hujjalariiga, shuningdek, o'z Ustaviga amal qiladi.

<sup>19</sup> Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ustavi. – T., 2017.

Institut davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi. Institut ta'lif muassasasi sifatida maktabgacha ta'lif tizimi rahbarlari va pedagog xodimlarini qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi, ushbu yo'nalishda o'quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy-metodik ishlarni amalga oshiradi.

### **Institutning asosiy vazifalari**

- Maktabgacha ta'lif tizimi rahbarlari va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy-pedagog kadrlarning ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, ularni tayyorlash, maktabgacha ta'lif tizimini metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- O'quv-tarbiya jarayoniga, xususan, nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- Maktabgacha ta'lifning milliy madaniy-tarixiy qadriyat-larni aks ettiruvchi o'quv-metodik, didaktik materiallari, badiiy adabiyotlari sifati va mazmunini yanada boyitish, o'yin va o'yinchoqlar sonini ko'paytirish;
- Maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha metodik ishlarni tashkil etish;
- O'quv-tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha rahbarlar va mutaxassislar ko'nikmalarini mustahkamlash va maktabgacha ta'lif sifatini baholash;
- Xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiylar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali maktagacha ta'lif sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan shunga o'xshash xalqaro maktabgacha ta'lif tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- Xorijiy mактабгачаталим ташкilotлариного'qituvchilarini  
jalg qilgan holda malaka oshirish va ilg'or tajribani almashish  
uchun qisqa muddatli seminarlar tashkil etish.

## Institutning asosiy funksiyalari

- Maktabgacha ta'lif tizimi rahbarlari va pedagog  
xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish,  
ilmiy-pedagog kadrlarning ma'naviy-axloqiy saviyasini  
oshirish, ularni tayyorlash, maktabgacha ta'lif tizimini  
metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy  
etish sohasida:

- O'quv-tarbiya jarayoniga, xususan, nodavlat maktabgacha  
ta'lif muassasalari amaliyatiga zamonaviy innovatsion  
pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiyalashning samarali  
shakllari va usullarini joriy etish sohasida:

- Milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi  
o'quv-metodik, didaktik materiallar, badiiy adabiyotlar sifati  
va mazmunini yanada boyitish, o'yin va o'yinchoqlar sonini  
ko'paytirish sohasida:

- Maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatining  
samaradorligini oshirish bo'yicha metodik ishlarni tashkil etish  
sohasida:

- O'quv-tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil  
etishni nazorat qilish bo'yicha rahbarlar va mutaxassislar  
ko'nikmalarini takomillashtirish va ta'lif sifatini baholash  
sohasida:

- Xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash,  
konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar o'tkazish  
orqali maktabgacha ta'lif sohasida mamlakatimiz yutuqlarini  
xalqaro darajada keng yoritish, O'zbekistonda faoliyat  
ko'rsatayotgan shunga o'xshash xalqaro maktabgacha ta'lif  
tashkilotlari bilan hamkorlik qilish sohasida:

## Institutning huquqlari

- Institut unga yuklangan funksiyalar va vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:
  - ta'lim mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarni vazirlikka kiritish;
  - maktabgacha ta'lim mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha dasturlar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy asarlar to'plamlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, metodik ko'rsatmalar hamda qo'llanmalar tayyorlash va nashr etish;
  - aholiga, turli tashkilotlarga pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan va asosiy faoliyatga zid bo'lмаган faoliyatning barcha turlarini amalga oshirish;
  - kafedralar va bo'limlarni o'zgartirish, yangilarini tashkil etish va mavjud kafedra va bo'limlarni tugatish, tasdiqlangan shtat jadvali doirasida shtat birliklarini bir bo'linmadan boshqa bo'linmaga o'tkazish bo'yicha Vazirlikka takliflar kiritish;
  - professor-o'qituvchilar tarkibiga, boshqa xodimlarga belgilangan tartibda rag'batlantiruvchi ustamalar tayinlash;
  - Institut xodimlarini yuksak mehnat ko'rsatkichlari uchun davlat va idoraviy mukofotlar bilan mukofotlash to'g'risida Vazirlikka takliflar kiritish;
  - qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha faoliyat sifatini va samaradorligini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;
  - hamkorlik doirasida mualliflik ishlarini ishlab chiqishga tajribali mutaxassislar, pedagoglar va xodimlarni jalb qilish (zarur bo'lsa shartnomalar asosida);
  - qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq o'quv dasturlariga tuzatishlar kiritish;
  - o'z vakolatlari doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
  - xorijlik tajribali pedagog-mutaxassislarini jalb qilgan holda ilg'or xorijiy tajribani joriy etish maqsadida maktabgacha

ta'lif muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlari malakasini muntazam oshirish uchun qisqa muddatli va aniq maqsadga yo'naltirilgan kurslar tashkil etish;

- xodimlarni o'qitish, seminarlar va konferensiyalarda qatnashish uchun xorijga tajriba almashish va innovatsion pedagogika texnologiyalarini va ilg'or metodikalarni o'rganish bo'yicha tajriba orttirishga yuborish;

- maktabgacha ta'lif tizimini rivojlantirishga doir dolzarb va istiqbolli vazifalarni hal qilish uchun tashkil etilgan ishchi guruhlarda ishtirok etish;

o'z faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar ochish.

Institut qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Institut o'z faoliyatida bevosita Vazirlikka bo'ysunadi va unga hisobot beradi. Institut ishlariga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vaziri tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan rektor rahbarlik qiladi.

Institutda o'quv-metodik ishlarga o'quv va metodik ishlar bo'yicha prorektor, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy ishlarga - ma'naviy va ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, moliya-iqtisodiy ishlar bo'yicha - moliya-iqtisodiy ishlar bo'yicha prorektor rahbarlik qiladi.

Prorektorlar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Institutda rektor raisligida Ilmiy-metodik kengash tashkil etiladi.

Ilmiy-metodik kengash tarkibi Institut rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Ilmiy-metodik kengash tarkibiga prorektorlar, kafedralar va bo'limlar rahbarlari, shuningdek, yetakchi professorlar va o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari vakillari kiritilishi mumkin.

### **Ilmiy-metodik kengashning vazifalari:**

- Institut, uning kafedralari va bo'limlari rejalarini va hisobotlarini ko'rib chiqish, Institut faoliyatini takomillashtirish bo'yicha o'quv ish rejalarini va kurslar dasturlarini, tavsiyalarni muhokama qilish;
- Institut ilmiy-metodik va tashkiliy ishlarining asosiy yo'naliшlarini ta'minlash va belgilash, samarali qayta tayyorlash va malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tahlil qilish va muvofiqlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish;
- qayta tayyorlash va malaka oshirishning davlat talablari, o'quv rejalarini va dasturlar bajarilishini ko'rib chiqish;
- Institut kafedralari va bo'limlarini ochish, ularning faoliyatini o'zgartirish va tugatish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;
- Institut doktorantlari va izlanuvchilari bilan menejment (ta'limi boshqarish) bo'yicha ilmiy faoliyat olib borish;
- darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarni e'lon qilish masalalarini ko'rib chiqish;
- Institutni rivojlantirishning joriy (yillik) va istiqbolli rejalarini tasdiqlash.

### **MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI XONASI**

Respublika maktabgacha ta'lism metodikasi xonasi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi huzurida tashkil etilib, mazkur soha bo'yicha yetakchi tuzilma sifatida barcha maktabgacha ta'lism muassasalari faoliyatini uslubiy jihatdan boshqaradi va muvofiqlashtirib boradi.

Respublika maktabgacha ta'lism metodikasi kabineti o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, Maktabgacha ta'lism vazirligi tomonidan chiqarilgan qarorlar, farmoyishlar va boshqa me'yoriy hujjalarga asoslanib ish yuritadi.

Respublika maktabgacha ta'lism metodikasi kabineti Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Abdulla Avloniy nomidagi maktabgacha

ta'lif xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, Maktabgacha muassasalar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va boshqa ilmiy muassasalar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatadi.

Respublika maktabgacha ta'lif metodikasi kabinetining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar maktabgacha ta'lif metodikasi kabinetlariga uslubiy yordam ko'rsatish, pedagogik jarayonlar va ta'lif-tarbiya ishlarini takomillashtirish, «*Ilk qadam*» dasturini to'liq bajarilishini ta'minlaydi;

Ilg'or ish tajribalarni o'rghanadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi (maktabgacha ta'lif muassasalari xodimlari, maktabgacha ta'lif metodikasi kabinetlari, nazoratchi-metodist, mudiralar, metodistlar va tarbiyachilar, murabbiylar faoliyatini tahlil etish asosida);

Maktabgacha pedagogika ilg'or pedagogik tajribalarni, pedagogika, psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, xalq pedagogikasi an'analariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif-tarbiya berish ishlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari, yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqadi.

## **METODIKA KABINETI ISHINING MAZMUNI VA ASOSIY SHAKLLARI**

Metodika kabineti o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga ko'ra:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar maktabgacha ta'lif metodika kabineti ish faoliyatini nazorat etadi va muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lif muassasalaridagi ta'lif-tarbiya ishlar ahvoli va belgilangan rejalarning bajarilishini o'rghanadi;

«*Ilk qadam*» dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va bajarilishini nazorat qiladi;

Respublika metodika kabinetiga xodimlarini malaka oshirish kurslarida ma'ruzalar o'qishga, seminar-mashg'ulotlar o'tkazishga va to'garaklar ishini olib borishga jalb etadi.

Respublika maktabgacha ta'limga metodika kabinetiga huzurida tashkil etilgan uslubiy Kengash metodikasi kabinetlari faoliyatiga yangi uslubiy yondashuvlar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga mas'uldir. Kengash tarkibiga metodistlar, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti rahbari va mutaxassislar, mudiralar, tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, oliy o'quv yurtlarining yetuk professor-o'qituvchilari kiradi.

Uslubiy Kengashda markaziy maktabgacha ta'limga metodikasi kabinetining ish rejasi, bajarilgan va rejalash-tirilayotgan tashkiliy, uslubiy tadbirlar muhokama etiladi, ta'limga-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish, jumladan, metodika kabinetlarining ilg'or pedagogik tajribalarni to'plash borasidagi amaliy faoliyati, maktabgacha ta'limga bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni muhokama qilish, tasdiqlash bilan bog'liq masalalar hal etiladi.

Respublika maktabgacha ta'limga metodikasi kabinetida xodimlarning bilimi va malakasini oshirish maqsadida tegishli shart-sharoit yaratiladi (buning uchun ma'ruzalar, seminar-treninglar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi).

4. Respublika maktabgacha ta'limga metodikasi kabinetida ilmiy pedagogik va uslubiy adabiyotlar uchun kutubxona tashkil qilinadi.

B./ B./ B./ TEXNOLOGIYASI			
MAVZU SAVOLLARI	BILAMAN	BILDIM	BILISHNI XOHLAYMAN
Maktabgacha ta'limga kabineti			

<b>Tashkiliy-pedagogik jarayonlar</b>			
<b>Metodik kabinet</b>			
<b>Ta'lif-tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarlik</b>			
<b>Nazorat qilish usuli ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlash uslublari</b>			

## **TUMAN MAK TABGACHA TA'LIM METODIKASI KABINETINING ISH MAZMUNI VA VAZIFALARI**

Tuman maktabgacha ta'lif metodikasi kabinetining sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Maktabgacha ta'lif vazirligi, boshqarmalari va bo'llimlari tomonidan chiqarilgan qarorlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlar asosida besh yilga mo'ljallangan istiqbol rejasini tuziladi.

Yillik rejada metodika kabinetining har bir o'quv yiliga taalluqli faoliyati aks etadi.

Chorak va oylik rejalarida yillik reja belgilangan vazifalarning bajarilishi muddati aniq qayd etiladi.

Tuman maktabgacha ta'lif metodikasi kabinetining yillik ish rejasini tumandagi uslubiy ishlarni bosqichma-bosqich, mazmunli tashkil etilishini ta'minlash kerak. Bunda asosiy e'tibor o'quv, ta'lif-tarbiya yo'nalishidagi faoliyatini o'rGANISH, maktabgacha ta'lif muassasalarida uslubiy ishlarni tashkil etish va takomillashtirib borish, mudira, metodist, tarbiyachilarga o'quv faoliyati, mehnat, estetik, musiqa tarbiyasi bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish muassasalarda kasalliklarning oldini olish va profilaktikasini yo'lga qo'yish,

yasli va aralash guruhlarda, shuningdek, bolalar soni kam bo'lgan muassasalar faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etish kabi masalalarning bajarilishiga qaratiladi.

Rejada maktabgacha ta'lif muassasalarini maqsadli, birlamchi yoki tizimli tekshirish tadbirlari alohida o'r'in tutadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tekshiruv shakli uning maqsadi va mazmuniga bog'liq. Bunday tadbirlar maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyati bilan tanishish, ularda kechayotgan jarayonlardan doimo xabardor bo'lib turishni ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, tekshiruv rejasi barcha muassasalarni qamrab olishi kerak.

Rejada maktabgacha ta'lif muassasalari soni va nomi ko'rsatiladi. Xulosa qilib aytganda, tuman maktabgacha ta'lif metodikasi kabinetining asosiy vazifasi - pedagogika va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida erishilgan yutuqlarni, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilish asosida maktabgacha tarbiya muassasalarining kundalik faoliyatiga doir yutuq va tajribalar, yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish borasida amaliy uslubiy yordam berishdan iborat.

Bu o'rinda tuman Maktabgacha ta'lif bo'limi tomonidan tavsiya etilgan bilimli, tajribali va ilg'or pedagoglarning uslubiy birlashmalar, seminar mashg'ulotlari, ma'ruzalar va boshqa anjumanlarni tashkil etish borasidagi sa'y-harakatlari maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## METODIK BIRLASHMALAR

Metodik birlashmalar – maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatiga oid eng dolzarb masalalar muhokama etiladigan va hal qilinadigan uslubiy tuzilmalardir.

Metodik birlashmalarning asosiy vazifasi – pedagog va tarbiyachilarning ijodiy faolligini oshirish va yangilikka

intilishlarini qo'llab-quvvatlash, o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lismi va xolisona baho berish ko'nikmasini shakllantirish, zimmasidagi vazifalarga yuksak mas'uliyat hissini qaror toptirish, kasb mahorati va malakasini uzlusiz oshirib borishga yo'naltirishdan iborat.

Metodik birlashmalar butun o'quv yili davomida (sentyabr dan maygacha) faoliyat olib boradi. U turli toifadagi pedagog tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, mudiralar faoliyatini takomillashtirish, ularning kasb mahorati va malakasini oshirish maqsadida tashkil etiladi.

Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta'lim muassasalari soni ko'p bo'lgan yirik tumanlarda bunday birlashmalarni bo'lim (yoki bir necha bo'lim) shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Har bir bo'limda 18-20 maktabgacha ta'lim muassasalari kiradi.

Birlashmaning ishlash muddati, faoliyat doirasiva vakolatlari Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Odatda, uning yig'ilishlari 2 oyda bir marta o'tkaziladi.

Metodik birlashma tarkibini shakllantirishda pedagoglar ning ish staji, kasb mahorati va malakasi e'tiborga olinadi. Masalan, mudiralar uchun tashkil etilgan metodik birlashma tarkibiga kiritiladigan pedagoglar (yirik tumanlar uchun) oliv ma'lumotli, besh yil va undan ziyod ish stajiga ega bo'lishi zarur:

O'rta va maxsus ma'lumotga ega va ish staji kam bo'lgan mudiralar va metodistlar uchun ham metodik birlashmalar shunday tartibda tashkil etiladi.

Tarbiyachilar uchun metodik birlashmalar tashkil etishda esa ularning joriy yilda qaysi yoshdagi bolalar guruhidida ishlagani e'tiborga olinadi.

Metodik birlashmalarning ko'rgazmali qurollar va yangi uslubiy adabiyotlar ko'rgazmalarini tashkil etish borasidagi faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik birlashma ishining samarasi uning faoliyati mактабгача та'лим бо'лими va metodika kabineti tomonidan qay darajada boshqarilayotganiga ham bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar metodika kabinetlari metodika birlashma rahbari va xodimlari malakalarini oshirish ishini yo'lga qo'yadi, jumladan, bir yilda 2-3 marta uslubiy birlashmani tashkil etish va rejalashtirish, uni boshqarish, zamonaviy fan yutuqlari, ilg'or tajribalarni o'rganish va tatbiq etish kabi mavzularda seminarlar tashkil etadi.

Shahar, tuman mактабгача та'лим бо'лиmlari metodika kabineti reja tuzish, ma'ruzalar tayyorlash, turli ko'rgazmalarni tashkil etishda birlashmalar rahbarlariga yordam beradi.

Mактабгача та'лим бо'yicha tayyorlangan barcha uslubiy ishlanma va qo'llanmalar, amaliy taklif-tavsiyalar, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Mактабгача та'лим vazirligiga taqdim etiladi. Ular vazirlik tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlangandan so'ng mактабгача та'лим muassasalariga tarqatiladi.

Metodik kabinet o'z oldidagi vazifalarni hal etishda materialning mazmun-mohiyatiga, belgilangan talablarga javob berishi, o'tkazilayotgan tadbirlarda, xususan, seminarlarda yangi uslubiy ishlanmalar, adabiyotlar muhokamasiga alohida e'tibor berishi lozim.

Uslubiy-pedagogik yig'ilishlar asosan ilk yosh guruhlari tarbiyachilari uchun o'tkaziladi. Ularda, asosan, bolalarning jismoniy-fiziologik, ruhiy va aqiy rivojlanishi masalalari muhokama qilinadi. Bunday yig'ilishlar 1 yoshdan 2 yoshgacha guruhlarda har oyda, 2 yoshdan 3 yoshgacha guruhlarda har chorakda 1 marta o'tkaziladi. Yig'ilishlarda mudira, metodist va tarbiyachilardan tashqari, shifokor, katta hamshira ham ishtirok etadi.

Metodik birlashma faoliyati metodist tomonidan nazorat etiladi.

Mamlakatimiz hududidagi barcha maktabgacha ta'limga muassasalari faoliyatini uslubiy ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi tizimida maktabgacha ta'limga yo'naliishi bo'yicha metodika uyushmalari faoliyat yuritadi.

#### **Metodika uyushmalarining maqsadi:**

- maktabgacha ta'limga muassasalarining har bir yo'naliishi bo'yicha turli yosh davrlariga tegishli ta'limga faoliyatini muvofiqtashtirish;
- zamonaviy ta'limga-tarbiya berishning innovatsion g'oya va yangi pedagogik texnologiyalarni o'rghanish va keng targ'ib qilish, ilg'or tajriba va ijodiy tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish;
- ta'limga muassasalari pedagog va tarbiyachilarining kasb mahorati va malakasini oshirish maqsadida mahorat maktablari, amaliy mashg'ulotlar, yangi pedagogik, uslubiy adabiyotlar, ta'limga oid va didaktik o'yin vositalari ko'rgazmasi, seminar-treninglarni muntazam ravishda tashkil etish orqali uslubiy yordam ko'rsatishdan iborat.

#### **Metodika uyushmalarining asosiy vazifalari:**

1. Maktabgacha ta'limga boshqaruv organlari tomonidan maktabgacha ta'limga yo'naliishiha oid me'yoriy hujjatlar va metodik ishlarni o'rghanadi hamda ta'limga muassasalarida ta'limga-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib beradi.

2. Viloyat metodika markazlarida maktabgacha ta'limga muassasalarining tajribali pedagoglari tarkibidan yo'naliishlar (rahbar, metodist, tarbiyachi, logoped, defektolog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) bo'yicha trenerlar guruhi tashkil etiladi. Trenerlarning har biri o'z yo'naliishi bo'yicha yangi metodik tavsiyalar va me'yoriy hujjatlar bilan metodik uyushma rahbarlari uchun ikki oyda bir marta mashg'ulotlarni tashkil etadi.

3. Tuman (shahar) miqyosidagi ilg'or pedagogik ish tajribalarini o'rghanadi hamda ulardan eng samaralilarini metodika uyushmasi qarori bilan tuman (shahar) bo'yicha ommalashtiradi.

4. Tuman (shahar) miqyosida ommalashgan innovatsion ish uslublariga ega muassasalar ish tajribasini viloyat bo'yicha ommalashtirishga tavsiya etadi.

5. Ta'lim muassasalari tarbiyachilarining metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish maqsadida, ta'lim-tarbiya faoliyatining zamon talabiga mosligini, qo'yilgan talablarning bajarilishi va ijodiy fikrlarning ta'lim jarayoniga to'g'ri yo'naltirilganini kuzatib boradi.

6. «Ilk va maktabgacha yoshdagি bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari»ningyo'nalishlar bo'yicha ba-jarilishi va tayanch dasturining ishlashini ta'minlashga rahbarlik qiladi.

7. «Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari»ning ijrosini o'rganish uchun zarur bo'lgan test topshiriqlari va boshqa nazorat materiallarini tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

8. Shahar va tumanda tegishli ta'lim yo'nalishining tatbiq etish ahvolini o'rganadi, tahlil qiladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarning Davlat talablari asosida egallagan malaka va ko'nikmalaridagi bo'shlidlarni aniqlaydi va ularni to'ldirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi.

9. «Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari» ijrosini ta'minlash, ta'lim sifat va samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitish, unga yangi innovatsion g'oyalarni tatbiq etishga ko'maklashuvchi tavsiyalar ishlab chiqadi va ularni ta'lim muassasalariga yetkazadi.

10. Tuman(shahar)miqyosidategishlita'lmyo'nalishlarining metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi.

11. "Ilk qadam" dasturi, metodik qo'llanma va boshqa yangi metodik nashrlar, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayo-niga doir ilmiy maqolalarni o'rganadi va muhokama qiladi.

12. Maktabgacha ta'lim boshqaruв organlari ko'rsatmasi bilan sohaga oid yaratilayotgan yangi dastur, qo'llanmalarni tahlil qiladi va asoslangan xulosalar taqdim etadi.

13. Maktabgacha ta'lif muassasalarini maxsus sanitariya-gigiyena talablari asosida jihozlanishiga metodik yordam beradi.

14. Tuman (shahar) miqyosida tegishli yo'nalish bo'yicha zamonaliv pedagogik texnologiyalar, ilg'or ish tajribalarini o'rganishga yo'naltirilgan o'quv-metodik seminarlarni tashkil etadi.

15. Tuman (shahar) miqyosida tarbiyachilarining uzlucksiz malaka va mahoratlarini oshirib borishlarini ta'minlaydi.

16. Tuman (shahar) maktabgacha ta'lif muassasalarining ilg'or pedagogik tajribalari, ijodkor tarbiyachilari haqida axborotlar bazasini tashkil etadi.

17. Ta'lif muassasalarida turli yo'nalishdagi to'garaklar faoliyati va noan'anaviy guruhlarning ishlarini o'rganadi, ularga tegishli yordam ko'rsatadi.

18. Tuman (shahar) miqyosida o'tkaziladigan ikkinchi bosqich ko'rik-tanlovlarni o'tkazishga yordam beradi.

19. Ta'lif muassasalarining yangi o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanishini nazorat qiladi.

## **METODIKA UYUSHMASINING ISHINI TASHKIL ETISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH**

- Tuman (shahar) miqyosida maktabgacha ta'lifning bir necha yo'nalishlari, shuningdek (maktabgacha ta'lif muassasasi rahbari, metodist, tarbiyachi, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, logopedlar uchun) bittadan Metodika uyushmasi tashkil etiladi.

- Metodika uyushmasiga har bir ta'lif muassasasidan bir va bir necha pedagog xodim muassasa rahbarining tavsiyasi va buyrug'i bilan a'zo qilib olinadi.

- Metodika uyushmasiga tegishli ta'lif yo'nalishi bo'yicha tuman (shahar)ning eng ijodkor va tajribali tarbiyachi mutaxassisni rais etib saylanadi va uyushma yig'ilishiga rahbarlik qiladi.

- Metodik uyushma raisi va uning a'zolari uyushma faoliyatlarini jamoatchilik asosida yuritadilar.

- Metodik uyushma faoliyatiga bog'liq barcha tashkiliy ishlar va hujjatlarni yuritish tuman (shahar) ta'lif muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlash kichik guruhining maktabgacha ta'lif yo'naliishi metodisti zimmasiga yuklatiladi.

- Uyushma faoliyati tuman (shahar) ta'lif muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlash kichik guruhining huzuridagi Metodik kengash tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

- Metodika uyushmasi yig'ilishi har ikki oyda bir marta o'tkazilishi va yig'ilish ma'lum bir masalani muhokama qilishi yoki o'quv seminari tashkil qilishi mumkin.

- Metodika uyushmasi yig'ilishlarida muhokama etilgan masalalar majlis bayonnomasida aks ettirilishi va qabul qilingan qaror yuzasidan tegishli ko'chirma taqdim etilishi zarur.

- Yig'ilish bayonlari daftari, uyushma ish rejasи va hisoboti tuman (shahar) metodika kabinetida uch yil saqlanadi.

#### **Metodika uyushmasi hujjatlari:**

Metodika uyushmasi quyidagi hujjatlar asosida faoliyat yuritadi:

yillik ish rejasи;

yig'ilish bayonnomalari;

hisobotlar;

metodika kengashiga taqdim etilgan va muhokamadan o'tgan ishlarning chop etilgan va elektron nusxasi.

Metodika kengashiga maktabgacha ta'lif boshqaruв organlaridan yo'llangan hujjatlar nusxasi.

### **SEMINAR VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI**

Maktabgacha ta'lif xodimlarining ishslash malakalarini oshirish shakllaridan biri bu seminarlardir.

Seminarlarda maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatiga doir eng dolzarb masalalar muhokama etilib, chora-tadbirlari belgilab olinadi. Seminar mavzulari viloyat, shahar, tuman Maktabgacha ta'lif boshqarmalari (bo'limlari) tomonidan belgilanadi.

Seminar uchun mavzu tanlashda uning maqsadi, vazifalari, mavzular tematikasi aniqlanadi va bibliografiya tuziladi.

Ma'ruza mavzulari seminar qatnashchilariga taqsimlab beriladi, har bir ma'ruzachi belgilangan mavzusi bo'yicha o'z tajribalaridan namunalar keltirib, ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qilishi zarur.

Mudiralar uchun seminar mavzusini quyidagicha tanlash mumkin:

mudiraning uslubiy-tarbiyaviy ishlarga rahbarligi;  
o'yin faoliyatiga rahbarligi.

Musiqa rahbarlariga maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuv-chilarni qo'shiq san'atiga qiziqtirish, yoshiga mos qo'shiqlarni kuylashga o'rgatish kabi mavzularda seminarlar tash kil etilishi mumkin. Seminarlarning asosiy maqsadi – alohida metodika bo'yicha tarbiyachilarning bilimlarini chuqurlashtirish va tarbiya bo'yicha dolzarb masalalarni muhokama etib, ularning hal qilish usul va uslublarini belgilashdir.

Seminar o'quv mashg'ulotlar rejasи bir yilga mo'ljallangan bo'lib, viloyat va respublika miqyosida 5-12 kunga ishdan ajralgan, shahar va tuman seminarlari esa har oyda 1-2 marta ishdan ajralmagan holda tashkil etiladi.

Seminarlар mavzulari rejasи va dasturi maktabgacha ta'lif muassasalarida ish sifatini yaxshilash maqsadida tegishli ilmiy tekshirish institutlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasida seminar mashg'ulotlari mavzulari mudira, katta tarbiyachi va tarbiyachilar bilan birgalikda tanlanadi va Pedagogik kengashda tasdiqlanadi hamda muassasaning yillik rejasiga kiritiladi. Shu asosda barcha metodist-tarbiyachilarning faol ishtirokida seminar mashg'ulotlarining aniq rejasи ishlab chiqiladi.

Seminar mashg'ulotlari muassasa faoliyatiga taalluqli dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlanishi, rejada bir xil mavzularning ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Aks holda, bu seminar qatnashchilarining qiziqishi va faolligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, mashg'ulot so'f nazariy tus olmasligi, muhokama etilayotgan mavzu (masala) amaliyot bilan uzviy bog'liq holda bayon etilishi kerak.

Seminar mavzulari taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

yasli va bog'cha yoshdagи bolalar psixofiziologik xususiyatlari (seminarni pediatr shifokor yoki psixolog olib boradi);

turli faoliyat turlarida bolalarga individual yondashish usullari;

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni vatanparvarlik va baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash omillari;

tarbiyachining bolalar bilan munosabatlarining o'ziga xos jihatlari va hokazo.

### **Ma'ruzalar**

Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, madaniy va ishslash malakalarini o'stirish uchun ijtimoiy-siyosiy, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy mavzular bo'yicha o'tkazilishi mumkin. Bunday tadbirlar maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, siyosiy va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishiga xizmat qiladi. Bu maqsadga erishish uchun ma'ruzalar yuksak ilmiy-g'oyaviy saviyada, amaliyot bilan uzviy bog'liq holda o'tkazilishi talab etiladi.

### **O'z ustida ishlash**

Bu - maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining o'z ustida tinimsiz ishlashi, kasb mahorati va malakasini, g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirib borish borasidagi faoliyatining keng tarqalgan shakllaridan biri.

Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari ish rejasida maktabgacha ta'lim bo'yicha nazariy-amaliy masalalarini

chuqur o'zlashtirish, maktab ta'lif dasturini, uslubiy adabiyotlarni o'rganish o'z ifodasini topadi.

Yillik rejada ish jarayonida qiyinchilik keltirib chiqargan bir yoki bir necha mavzu aks ettirilib, bunda nafaqat tegishli mavzularni, balki tegishli ilmiy-uslubiy adabiyotlarga tayangan holda qiyinchilik tug'dirgan masalalarini o'rganishga ham alohida e'tibor beriladi.

Mudira kasaba uyushma raisi bilan birligida o'z ustida ishlashni qanday tashkil etish, bu tadbirdarni tizimli, aniq reja asosida olib borish yo'l-yo'rqliarini belgilashi lozim. Bunda tashkiliy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda zarur shart-sharoit, o'quv-uslubiy adabiyotlar, bajaruvchi – javobgar shaxslar aniq belgilanishi va ularning bajarilishi mudira tomonidan nazorat etib borilishi kerak.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan ochiq eshiklar kuni g'oyat ahamiyatlidir. Bunda maktabgacha ta'lif muassasasining butun faoliyati ota-onalar tomonidan kuzatiladi, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar o'z vaqtida hal etiladi. Maktabgacha ta'lif muassasasining barcha xodimlari ochiq eshiklar kunini o'tkazishga jiddiy tayyorgarlik ko'radi.

Yakkama-yakka suhbat – bola tarbiyasida qiyalgan ota-onalar uchun tashkil qilinadi, bunda guruh tarbiyachisi va muassasa mudirasi ilmiy asoslangan holda masalalarini hal etmog'i lozim. Maktabgacha ta'lif muassasalarida ota-onalarga yordam berish maqsadida kutubxona va ota-onalar burchagini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Muassasa mudirasi, metodist va tarbiyachilar tomonidan tanlangan va ota-onalarga tavsiya etilgan ilmiy-ommabop adabiyotlar oilada bolalar tarbiyasini to'g'ri va oqilona tashkil etish, bolalarning jismoniy-fiziologik, ruhiy va intellektual rivojlanishi haqida muayyan bilimlarni egallashlari uchun ota-onalarga katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lif tizimida amalga oshiriladigon barcha metodik ishlarbarkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Tayanch tushunchalar:**

**MTM** – Maktabgacha ta’lim bo’limi.

**Metodik birlashma** - maktabgacha ta’lim xodimlarining kasb mahorati va malakasini oshirish shakllaridan biri.

**Ko’chirma-papka** - yig’malapka, ota-onalar va maktabgacha ta’lim muassasalarida biror-bir mavzu bo’yicha jihozlangan ko’rgazmali vositadir.

**Tibbiy-pedagogik yig’ilish** - bu maktabgacha ta’lim muassasalarining ilk yosh guruhlari tarbiyalanuvchilari sog’lig’ini muhofaza etish masalalariga bag’ishlanadigan kengash.

**Ochiq tadbirlar** - jamoa ishtirokida pedagogik jarayonlarni kuzatish.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O’zbekistonda maktabgacha ta’limga metodik rahbarlik qaysi tizimda olib boriladi?
2. Markaziy maktabgacha ta’lim metodikasi kabinetining tuzilishi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Metodik birlashma nima?
4. Seminar va seminar mashg’ulotining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
5. Aholi o’rtasida pedagogik targ’ibot ishlarini olib borish usul va shakllarini so’zlab bering

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqtari:**

1. Maktabgacha ta’limda metodik ishlari bu –

- a) Pedagogik kengash, seminar, seminar mashg’ulotlari tibbiy-pedagogik kengash, maslahatlar, adabiyotlar tahlili
- b) ota-onalar majlisi, umumiy maslahatlar, seminarlar
- v) Pedagogik kengash, seminarlar, maslahatlar
- g) seminar, seminar mashg’ulotlari

**2. Pedagogik diagnostika bu –**

- a) ta'lif-tarbiya jarayonini chuqur tahlil qilish, uning samaradorligini to'g'ri baholash, ta'lif darajasini aniqlash
- b) ta'lif tizimidagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish
- v) bilim sifatini takomillashtirish
- g) ta'lifni takomillashtirib borish

**3. Metodik birlashmalar kim tomonidan tashkil etiladi?**

- a) maktabgacha ta'lif muassasasi tomonidan
- b) Maktabgacha ta'lif bo'limi tomonidan
- v) Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan
- g) yuqori tashkilotlar tomonidan

**4. Metodik ishlarni tashkil etishning asoslarini yoritib bering.**

- a) Metodik kabinetda ishlash, Pedagogik kengash, seminar-trening, seminar mashg'ulotlari
- b) yakkama-yakka suhbat, Pedagogik kengash, seminar
- v) Pedagogik kengash, seminar mashg'ulotlari, seminar-trening, tibbiy-pedagogik kengash
- g) umumiy va guruh ota-onalar kengashi, ochiq mashg'ulotlar, maslahatlar

**5. Metodika uyushmalarining asosiy maqsadi qaysi bandda to'g'ri yoritilgan?**

- a) Maktabgacha ta'lif muassasalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarini tatbiq etish
- b) maktabgacha ta'lif boshqaruvi organlari tomonidan rahbarlik
- v) tuman miqyosida ilg'or pedagogik ish tajribalarini samaradorligini oshirish
- g) hamma javoblar to'g'ri

## **Maktabgacha pedagogika fani bo'yicha izohli lug'at**

- 1. Yondashuv** – bu pedagogik faoliyatning o'ziga bog'liq bo'lgan g'oyalari, tushunchalar va usullar majmuyini qo'llashga undaydigan metodologik yo'naltirish.
- 2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – pedagogning butun diqqat-e'tiborini bola shaxsining yaxlitligiga qaratilishi, uning nafaqat aql-zakovati, fuqarolik mas'uliyati hissi, balki emotsional, estetik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish g'amxo'rlik qilishga yo'naltirilgan yondashuv.
- 3. Individual yondashuv** – ta'lim beruvchining guruhdagi har bir faol harakati va dam olish paytida barcha ehtiyojlarini e'tiborga olish zarurligini anglatadi. Bu guruhdagi barcha material va jihozlar, umuman o'qitish muhiti har bir bolaning rivojlanishiga xizmat qilishini hamda mo'ljallanayotgan faoliyat turlari bolalar rivojlanishidagi farqni e'tiborga olishini bildiradi.
- 4. Ta'limning rivojlantiruvchi muhiti** – bola rivojlanishi ni ta'minlaydigan shart-sharoitlar (o'yinlar, o'yin predmetlari va jihozlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, bolalarning turli faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan uskunalar) o'zaro bog'liqligini belgilab beradigan hal qiluvchi ko'rsatkichlar.
- 5. Inklyuziv ta'lim** – har bir bolaning, shu jumladan, alohida talab-ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olish imkoniyatiga ega ekanini ko'zda tutuvchi ta'lim turi.
- 6. Model** (lotincha – me'yor, namuna) – hodisa yoki jarayonning tabiat va jamiyatdagi tavsifi.
- 7. Sifatli pedagogika** – bolalarni o'yin shaklida qiziqarli va zavqlantiruvchi tarzda o'qitish, bolalarning sog'lig'ini (ham ruhiy, ham jismoniy) ta'minlash imkoniyatini yaratadigan, ularni maktabga muvaffaqiyatli kirishga yordam beradigan o'qishga qiziqish va xohish uyg'otadigan dasturlar bo'yicha o'qitish, ota-onalarning ijobiy bahosi, o'qitishda ijtimoiy

natijalar, salomatlik va tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanishi.

**8. Integrallashgan rejalashtirish** – bu bolalarni o'qitish va rivojlantirish integrallashgan jarayondir, bola rivojlanishining har bir sohasi uning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq. Ta'limgarbiya ishlarini rejalashtirishda ularni bir-biridan ajratmaslik, bir butun majmua sifatida qarash lozim. Shu ma'noda turli sohalardagi ta'limgarbiya jarayoni o'zaro bog'liq va bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan jarayondir.

**9. Rejalashtirish vositalari** – bu faoliyat mazmuni turli sohalarda kutilayotgan natijalarga erishish imkoniyatlarini (resurslarni) belgilab olish uchun pedagog tomonidan qo'llaniladigan vosita, usul va uslublardir.

**10. Kuzatuv** – bola ishlayotgan yoki o'ynayotgan paytda uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jarayoni.

**11. Qayd qilish** – bu bolalar faolligini kuzatish asosida hujjatlashtirish. Aksariyat pedagoglar tomonidan tabiiy ravishda amalga oshiriladigan bu ishga bolalarni tizimli (muntazam) kuzatish asosida yondashishni joriy etish, u haqida to'liq ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi.

**12. Pedagogik diagnostika** (yunoncha – "bilish, "aniqlash" ma'nosini anglatadi) – bu muayyan bosqichlarda bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkoniyatini beradigan mexanizm.

**13. "Men" konsepsiysi** – insonning o'z hayotiy faoliyati, boshqa kishilar bilan o'zaro aloqalari, o'zi va boshqalarga munosabatini shakllantirishga xizmat qiladigan, uning o'zi haqidagi anglangan va his etadigan tasavvurlari.

**14. Pedagogik strategiya** – bu bolalarning kutilgan maqsadlariga erishishga imkon beradigan pedagog qo'llaydig'an muayyan uslublar yig'indisi.

**15. Rejalashtirish** – bu zarur shart-sharoit, foydalilanayotgan vosita, shakl va uslublarni ko'rsatgan holda, ta'limgarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va ketma-ketligini oldindan belgilash jarayoni.

**16. Bolaga yo'naltirilgan yondashuv** – bu bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyatlar, qiziqishlari, talab-ehtiyojlari, uning ta'lim maqsadlariga erishish uchun yordam beradigan maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgunga qadar to'plagan tajribasini e'tiborga oladigan ta'lim shakli.

**17. Rivojlantiruvchi yondashuv** – bolaning tabiiy ravishda ulg'ayishining muhimligini baholash va tahliletish imkoniyatini yaratadigan rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv.

**18. Istiqbol reja** – u bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga xos kundalik ish shakllarini (mashg'ulot, o'yin, mehnat, individual ishlash, ota-onalar bilan ishlash) o'zida aks ettiruvchi bolalar bilan ishslashda asosiy hujjat hisoblanadi.

**19. Kundalik reja** – bir-ikki haftaga mo'ljallab tuzilib, unda butun ish kuni davomidagi faoliyat – konsept shaklida batafsil yoritiladi.

**20. Bola huquqlari haqida Konvensiya** – bu butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Birlashgan Millatlar tashkilotining shartnomasidir. U bolalar rivojlanishining turli bosqichlarida bolalar farovonligining mavjud mezonlarini aniqlaydi va bolalar huquqlarini himoya qiladi.

**21. Biliш faoliyati** – boladagi individual o'zgarishlar sur'atini e'tiborga olgan holda tashkil etiladi. Bunda didaktik harakatlarning takrorlanishi va mazmuni jihatidan yakka yutuqqa erishiladi.

**22. Didaktika** – pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmoqdir. Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismdir. Didaktika yunoncha so'z bo'lib, "didasko" – o'qitish, "Didaskol" – o'rganuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. Didaktika pedagogikaning "Nimaga o'qitish", "Nimani o'qitish" va "Qanday o'qitish" kabi savollarga javob izlaydi.

**23. Diagnostika (tashxislash)** – pedagogikaning bo'limi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik

xodimlarning kasbiy tayyorgarliklari, bilim, ko'nikma, malaka va mahoratlarini, o'quvchi va maktabgacha yoshdagilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.

**24. Visual ma'ruba (VM)** – bu ko'rgazmali ma'ruzadir. Bunda asosiy o'qitish metodi ko'rgazmali namoyish kino, tele va video kadrlar, slaydlar, diskdagi axborotlar o'qituvchilar tomonidan sharxlanadi.

**25. Bozor iqtisodiyoti** – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyotining mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy hamda to'xtovsiz musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifati yaxshilanib borishiga, miqdorning ko'payishiga sababchi bo'ladi.

**26. Bilish** – inson tomonidan voqelikni aks ettirish jarayoni. Bilish jarayoni sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik protseslarda ifodalananadi.

**27. Bilish usullari** – bilish jarayonining qonun-qoidasi, mezoni, tamoyili, shakli va usullari hamda vositalari, shuningdek bilish jarayoniga qo'yiladigan talablar tizimlarning majmuasiga bilish usullari deyiladi.

**28. Amaliyot** – nazariy bilimlarni bevosita amaliy jarayonga qo'llash.

**29. Ijtimoiy yo'nalganlik** – ta'lilda yangicha yo'nalganlik bo'lib, u insonga fuqaro sifatida, ijtimoiy va kasbiy uyushmalar a'zosisifatida ijtimoiy mehnatga bo'lgan qobiliyatni, fidoyiligiga, mas'uliyatli va ma'naviyatli bo'lish sifatiga qo'yilgan talablar.

**30. Ijtimoiylashtirish** – ikki tomon jarayonini baholash uchun qo'llaniladi. Bir tomonidan shaxsni atrof-muhit, davlat, ijtimoiy jamiyat, tabiat va ijtimoiy muhit institutsional

tuzilmalari bilan o'zaro munosabatda shakllanishini belgilaydi. Insonning hayotiy holatlarga, atrofdagi odamlarga ta'sir etish vositasi bilan o'zini shaxs sifatida tanitish jarayoni.

**31. Ijodiy faoliyat** – bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiyot holati – ilhomlanish, shuningdek ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahti bilan hal etish istaklari majmuasi.

**32. Ijodiy qobiliyatlar** – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga solish qobiliyatları, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash va toppish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (... kashfiyot), ixtiro, san'at asari, tavsifnoma va h.k. qobiliyatlaridir.

**33. Ijodiy yondashuv (IY)** – bu pedagogikada zamonaviy yo'nalish bo'lib, u ta'lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo'nalishlarini topishga undash jarayonidir. Bunda o'quvchitalabaning faoliyatiga demokratik asosda rahbarlik qiladi va ularning shaxsiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlaydi, ular bilan hamkorlikda ishlaydi.

**34. Integratsiya** – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish.

**35. Integratsiyalash** – lotincha so'z "integer" – umumiylik, "integerara" – to'ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullangan sohasi hisoblanadi. Bu tishuncha – muhim ilmiy termin bo'lib, u umumlashtirish, xulosalashda metodologik vosita bo'lib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg'unlik algoritmlari yaratiladi.

**36. Intellekt** – insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, tushunish, mulohaza, tafakkur, aql ma'nosini anglatadi.

**37. Interfaol mashg'ulot** – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot. Bu jarayon o'zaro hamkorlikda kechadi.

**38. Interfaol usul** – bu ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi o'rtaсидаги faol hamkorlikdagи ta'lif usuli bo'lib, ta'lif oluvchi va ta'lif beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi. "Inter" so'zi lotincha bo'lib, o'zbek tilidagi "oraliq", "o'rtasi", "o'zaro" kabi ma'nolarni bildiradi.

**39. Ixtisoslik** – birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

**40. Iqtisodiy madaniyat** – madaniyatning bu qismini o'zlashtirish ko'rsatkichlari va natijalari – iqtisodiy layoqatlilikni: zamonaviy iqtisod, ishbilarmonlik faoliyati asoslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, tadbirkorlik asoslarini biliш va boshqalar.

**41. Konsepsiya** – maqsadga yetishishning xomaki rejasি mazkur sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich konsepsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi.

31. "Noyob Huquqlar bola huquqlari haqidagi Konventsiyani o'rganish bo'yicha amaliy qo'lanna". UNICEF, NEW-YORK-1993
32. Otavaliyeva O'. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.: O'qituvchi, 1994.
33. Spravochnik «Rukovoditelya doshkolnogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya». T., 2006.
34. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
35. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiysi. – T.: O'zbekiston, 2010.
36. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018.
37. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun. T., 2008.
38. O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. T., 2017.
39. O'zbekiston Respublikasi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. T., 2017.
40. O'lmasov A., Vahabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, Sharq nashriyoti, 2006.
41. Qodirov A, Mamaraimov Q., Tursunov I. Biznes va tadbirkorlik asoslari. T., 2011.
42. Karimova O. Huquqshunoslik. T.: 2009.
43. Karimova O.A., G'afforov Z.M. "Davlat va huquq asoslari" T.: O'qituvchi, 1995.
44. Professional Development fomur early Childhood Professionals: examining Pedagogy in early Childhood Walsh, G.; Gray, C.; McMillan 2010.
45. Professional Development for early Childhood Professionals: examining Pedagogy in early Childhood 8 October 2010
46. Family connection Rymon Leslie. 2014
47. Pedagogy in early childhood education and care (ECEC): an international comparative study of approaches and policies Research brief July 2015

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>1-BO'LIM.</b> Maktabgacha pedagogikaning asoslari.....	6
<b>I BOB.</b> Maktabgacha pedagogikaning predmeti va uning vazifalari .....	6
Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.....	12
Pedagogik fanlar majmuyi. Ta'lif jarayoni va didaktika haqida tushuncha .....	14
Maktabgacha ta'lif didaktikasi.....	19
Maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari .....	28
Metod haqida tushuncha, pedagogik tadqiqot metodlari.....	28
Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlar.....	30
Maktabgacha ta'lif tarixi .....	36
Maktabgacha pedagogika fan sifatida .....	36
<b>2-BO'LIM.</b> O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining ustuvor negizlari .....	50
<b>II BOB.</b> Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lif tizimida yangicha yondashuv .....	50
Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari .....	50
Kadrlar tayyorlash milliy modeli.....	54
Uzluksiz ta'lifni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari .....	56
Uzluksiz ta'lif turlari. Maktabgacha ta'lif – uzluksiz ta'lif tizimining boshlang'ich bosqichi .....	57

Maktabgacha ta'lif konsepsiysi .....	61
Ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari .....	78
Bilimlar, ko'nikma, malakalar dasturining yaratilish tarixi .....	84
Maktabgacha ta'lif muassasasi ta'lif-tarbiya dasturining yaratilish tarixidagi asosiy, muhim sanalar.....	90
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.....	92
<b>III BOB.</b> Maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablar .....	100
Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni .....	100
Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish.....	106
Pedagog – tarbiyachining nutq madaniyati.....	107
Tarbiya tamoyillari.....	109
<b>IV BOB.</b> Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar tarbiyasi va rivojlanishi.....	116
Shaxsni rivojlantirish haqida tushuncha.....	116
Shaxsnинг shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	120
Bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli .....	123
Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatlarning roli .....	125
Maktabgacha ta'lif davrining o'ziga xos xususiyatlari .....	129
2-3 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari .....	129
3-4 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari.....	130
4-5 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari.....	130
5-6 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari.....	131
6-7 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari .....	132

<b>V BOB. Jismoniy tarbiya.....</b>	135
Jismoniy tarbiya nazariyasi.....	135
Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	138
Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari .....	141
<b>VI BOB. Aqliy tarbiya .....</b>	153
Aqliy tarbiya haqida tushuncha .....	153
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi.....	158
Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi.....	162
Mashg'ulot - maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli.....	164
Maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi .....	177
Sensor tarbiyaning vazifasi va mazmuni .....	178
Sensor tarbiya usuli .....	180
<b>VII BOB. Axloqiy tarbiya .....</b>	185
Axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari.....	185
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari .....	189
Axloqiy tarbiyaning asosiy prinsiplari (tamoyillari) va metodlari.....	190
Jamoa - shaxs axloqiy kamolotining asosi.....	192
Jamoatchilikni tarbiyalash jarayonida axloqiy sifatlarni tarbiyalash .....	194
Bolalar jamoasi shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar .....	196

<b>VIII BOB. Estetik tarbiya.....</b>	200
Estetik tarbiya va ta'limning nazariy asoslari.....	200
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik didi rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar .....	206
Estetik tarbiyaning vazifalari, mazmuni va metodlari.....	208
Estetik tarbiya vositalari.....	210
<b>IX BOB. Mehnat tarbiyası.....</b>	219
Mehnat tarbiyasining nazariy asoslari.....	219
Maktabgacha ta'lim muassasasida mehnat tarbiyasining mazmuni .....	222
Yosh avlod tarbiyasida mehnat tarbiyasining vazifalari.....	226
Kattalar mehnati bilan tanishtirish.....	228
Xilma-xil mehnat turlarining vujudga kelishi .....	231
<b>X BOB. Iqtisodiy tarbiya .....</b>	245
Iqtisodiy tarbiya haqida tushuncha .....	245
Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari .....	248
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish.....	252
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy asoslari.....	259
<b>XI BOB. Huquqiy tarbiya.....</b>	269
Huquqiy tarbiya haqida tushuncha .....	269
Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish .....	275

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi bilan tanishtirish .....	279
Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga huquqiy tarbiya berishni tashkil etishda "Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"dan foydalanishning ahamiyati.....	287
 <b>XII BOB. Ekologik tarbiya .....</b>	 300
Ekologik tarbiya berishning nazariy asoslari .....	300
Tabiatga munosabat odobini tarbiyalash.....	304
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tasishtirish yo'llari.....	306
Tabiat burchagidagi ishlar.....	309
 <b>XIII BOB. O'yin – bola faoliyatining asosiy turi .....</b>	 312
O'yinning bola faoliyatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	312
O'yinning maktabgacha ta'lif muassasasi pedagogik jarayonidagi o'rni .....	319
Ijodiy o'yinlar turlari .....	323
Bolalar o'yinlarida tasvirlash vositalari.....	329
Sahnalashtirilgan o'yinlar .....	330
Qurilish o'yinlari .....	333
Qoidali o'yinlar. Didaktik o'yin turlari .....	339
Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati .....	352
Milliy halq o'yinlari .....	357
Maktabgacha talim tizimida o'yinlar texnologiyasi .....	360
Maktabgacha ta'lif tizimida pedagogik o'yinlarning shakllari va amalga oshirish metodklari .....	363
 <b>XIV BOB. Maktab ta'limga tayyorlash .....</b>	 368

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari.....	368
Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab dasturlarining izchilligi.....	370
Bolalarning mактабда о'qishga tayyorlarligi .....	374
Maktab ta'limiga psixologik tayyorlarlik.....	384
Maktab ta'limiga tayyorlashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari .....	386
Maktab ta'limiga tayyorlashda bolalar faoliyatini tashkil etishning ahamiyati.....	390
Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi.	
Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari .....	392
Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan mактаб aloqasining shakllari .....	400
Tayyorlov guruhi bolalarini mактабда о'qishga tayyorlash .....	404
Maktabgacha yoshdagи bolalarni mактаб ta'limiga tayyorlashning shakl va usullari.....	408
1-sinf o'quvchisining ijtimoiy-psixologik qiyofasi .....	422
 <b>XV BOB.</b> Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligi.....	426
Oila – davlat va jamiyat ardog'ida.....	426
Bola tarbiyasida oilaning o'rni haqida mutafakkirlar ta'limoti....	429
Maktabgacha ta'lim muassasining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni va usullari .....	432
Tarbiyachining oilani borib ko'rishi .....	434
Guruhiy maslahatlar va majlislar .....	435
Ota-onalar qo'mitasi va jamoachilik bilan ishlash .....	437
MTMning ota-onalar bilan ishining yillik rejasি umumiy majlislar.....	438

<b>3-BO'LIM.</b> O'quv faoliyatini tashkil etish.....	441
<b>XVI BOB.</b> Maktabgacha ta'lif muassasalarida	
pedagogik jarayonni tashkil etish .....	441
MTMdA bolalar hayotini tashkil etish .....	441
Bolalar faoliyatida ta'lif-tarbiya vazifalarini amalga	
oshirish va rahbarlik qilish .....	442
Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini	
tashkil etish .....	449
<b>XVII BOB.</b> Maktabgacha ta'lif muassasasida	
ta'lif-tarbiya ishlarini rejalashtirish va hisobga olish.....	455
Pedagogik jarayonni rejalashtirish vazifalari.....	455
Ta'lif-tarbiya ishlarini rejalashtirish mazmuni.....	467
<b>4-BO'LIM.</b> Maktabgacha ta'lif muassasalarini tashkil	
etish va unga rahbarlik qilish .....	474
<b>XVIII BOB.</b> Ijtimoiy maktabgacha ta'lifni tashkil	
qilish vazifalari va rivojlanishining asosiy bosqichlari .....	474
Maktabgacha ta'lifning mazmun-mohiyati va ta'lif tizimida	
tutgan o'rni.....	474
Maktabgacha ta'lifning ustuvor vazifalari.....	477
Mustaqillik yillarda maktabgacha ta'lif	
tizimini rivojlantirish tamoyillari va asosiy yo'nalishlari.....	478
Uzluksiz ta'lifni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari .....	485
<b>XIX BOB.</b> Maktabgacha ta'lifni rejalashtirish, moliyaviy	
ta'minlash, boshqarish tamoyillari .....	490

Xalq xo'jaligini ilmiy asosda rejalashtirish – iqtisodiy taraqqiyot asosi .....	490
Rejalashtirishning asosiy bosqich va turlari .....	493
Smeta – davlat moliyaviy hujjati sifatida.....	495
Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun sarf qilinadigan xarajatlar .....	499
Maktabgacha ta'limga tashkil qilish va boshqarish tamoyillari ...	501
Munozara texnologiyasi .....	503
<b>XX BOB. Maktabgacha ta'limga muassasalarini va ularni tashkil etish .....</b>	<b>507</b>
Maktabgacha ta'limga muassasasi – maktabgacha yoshdagagi bolalar ijtimoiy tarbiya maskani.....	507
Qisqa muddatli maktabgacha ta'limga muassasalarini tashkil etish .....	511
Maktabgacha ta'limga muassasasini shakllantirish .....	514
Turli tipdagagi maktabgacha ta'limga muassasasining tashkiliy tizimini belgilab beruvchi davlat instruktiv hujjatlari .....	522
Davlat maktabgacha ta'limga muassasasida ta'limga tarbiya jarayoni qatnashchilari.....	524
Nodavlat maktabgacha ta'limga muassasasini tashkil etish .....	528
Nodavlat maktabgacha ta'limga muassasasining maqsadi va vazifalari .....	528
Nodavlat maktabgacha ta'limga muassasasi faoliyatini tashkil etish .....	529
Nodavlat maktabgacha ta'limga muassasasiga bolalarni qabul qilish.....	531
Nodavlat maktabgacha ta'limga muassasasini boshqarish va uning faoliyatini nazorat qilish.....	534

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti .....	535
Maktabgacha ta'lim muassasasi binolarini loyihalashtirish.....	535
 <b>XXI BOB.</b> Mudira maktabgacha ta'lim muassasining rahbari. ....	541
Maktabgacha ta'lim muassasasi metodistining metodik ishlarga rahbarligi.....	541
Mudira tashkilotchi, ma'muriyatчи, yuqori malakali pedagog va unga qo'yilgan talablar .....	541
Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri lavozimining malaka tavsiflari .....	543
Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishlariga rahbarlik qilish .....	559
Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri faoliyati.....	562
Maktabgacha ta'lim muassasasi metodisti, uning huquqi, vazifalari va unga qo'yilgan talablar .....	569
Maktabgacha ta'lim muassasalari metodist lavozimining malaka tavsiflari .....	571
Metodistning liderlik va boshqaruv jihatlari.....	574
Liderlikka oid nazariyalarning paydo bo'lishi.....	580
Metodistning metodik ishlarga rahbarligi .....	582
Pedagogika kengashi faoliyatini tashkil etish va uning ish mazmuni .....	584
 <b>XXII BOB.</b> O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi va maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'limiga rahbarlik .....	592
Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan maktabgacha ta'lim tizimiga rahbarlik.....	592

Maktabgacha ta'lim vazirligining funksiyalari .....	594
Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasining vazifalari va funksiyalari .....	605
O'zbekistonda maktabgach ta'limi bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'limga rahbarlik qilishning nazariy asoslari .....	608
Maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlarining vazifalari va funksiyalari.....	614
Maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlarining huquqlari va javobgarligi .....	615
Maktabgacha ta'lim muassasasi nazoratchi-metodistining vazifalari, huquqlari va unga qo'yiladigan talablar.....	617
Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarida ta'lim tizimini boshqarish .....	622
 <b>XXIII BOB.</b> Maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarini nazorat qilish.....	627
Nazorat qilish - davlat nazorati, maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan rahbarlikning eng muhim shakli ekanligi.....	627
Nazorat qilishning maqsadi, vazifalari va unga qo'yiladigan talablar .....	629
Nazorat qilishga tayyorgarlik va uning bosqichlari.....	632
Nazorat qilishning usul va uslublari.....	635
Maktabgacha ta'lim muassasalarini frontal yalpi tekshirishning asosiy yo'llari.....	637
Tematic tekshirishning maqsad va vazifalari .....	641
 <b>XXIV BOB.</b> Maktabgacha ta'lim bo'yicha metodik ishlarni tashkil qilish vazifalari, mazmuni va shakllari .....	645
Maktabgacha ta'limga uslubiy rahbarlik ishining tashkiliy tuzilishi va vazifalari .....	645

Institutning asosiy vazifalari .....	646
Institutning asosiy funksiyalari.....	647
Institutning huquqlari.....	648
Maktabgacha ta'lif metodikasi xonasi.....	650
Metodika kabineti ishining mazmuni va asosiy shakllari .....	651
Tuman maktabgacha ta'lif metodikasi kabinetining ish mazmuni va vazifalari .....	653
Metodik birlashmalar.....	654
Metodika uyushmasining ishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish.....	659
Seminar va seminar mashg'ulotlari.....	660
Maktabgacha pedagogika fani bo'yicha izohli lug'at .....	666
Foydalanilgan adabiyotlar.....	672

**Fotima QODIROVA, Shoista TOSHPO'LATOVA,  
Nargiza KAYUMOVA, Malohat A'ZAMOVA**

# **MAKTABGACHA PEDAGOGIKA**

## **Darslik**

**MUHARRIR: M. DO'STMUXAMEDOVA**

**MUSAHHIH: V. IBRAGIMOVA**

**TEXNIK MUHARRIR: O. MUXTOROV**

**SAHIFALOVCHI: I. ADILOVA**

**DIZAYNER: H. SAFARALIYEV**

Nashriyot litsenziyasi A1 № 231. 16.11.12.

Bosishga ruxsat 02.04.2019 da berildi.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Offset qog'ozi.

Offset bosma usulida bosildi.

"Cambria" garniturasi. Shartli bosma taboq 42,75.

Adadi 2000 nusxa.

Original maket «TAFAKKUR» nashriyotida tayyorlandi.

«TAFAKKUR» nashriyoti Zangiota tumani,

Bunyodkor MFY, Ko'l 17-tor ko'cha, 9-uy. Indeks: 111109

«ADAD PLUS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Tel, FAKS:** (71) 244-75-88. (94) 664-40-03.

**Email:** tafakkurmaktub@mail.ru